O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

o‘quv-uslubiy
majmua

Termiz-2017

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA

MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASI KAFEDRASI

“TASDIQLAYMAN”
Termiz davlat universiteti
o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_____Axmedov O‘.Ch.
2017 yil «____»_____

ONA TILI VA ADABIYOT

(O‘QUV-METODIK MAJMUA)

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar
Ta’lim sohasi:140000- Pedagogika
Bakalavriat yo‘nalishi: 5111700 – Boshlangich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish

Termiz – 2017

ANNOTATSIYA

Ushbu o‘quv-uslubiy majmua Ona tili va adabiyot fanidan Pedagogika fakultetining boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tayyorlangan.

Majmua Ona tili va adabiyot fanidan Grammatika bo‘limining morfologiya qismi bo‘yicha: a) ishchi dastur; b)fan bo‘yicha reyting ishlanmasi; v) baholash mezonlari; g) ma’ruza matnlari; d) amaliy mashg‘ulotlar (mashqlar va ularni bajarish tartibi); e)mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar; yo) OB va YaBlarni o‘tkazish uchun nazorat savollari; z) asosiy mavzular,masalalar bo‘yicha yakuniy xulosalar;) fan bo‘yicha echimini kutayotgan, yangicha yondashuvlar asosida yanada chuqurroq o‘rganishni talab qiladigan ilmiy muammolar;) mavzularni o‘rganish bo‘yicha tavsiya etilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Pedagogik texnologiya tamoyillaridan kelib chiqib, majmuada har bir mavzu bo‘yicha asosiy savollar, har bir asosiy savol bo‘yicha dars maqsadi, identiv o‘quv maqsadlari ishlab chiqilgan, mavzuga oid muammoli savollar belgilangan, iqtidorli talabalar uchun o‘z yechimini kutayotgan ilmiy muammolar ko‘rsatilgan.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasining 2018-yil _____ -sonli yig‘ilishida muhokama qilingan va foydalanish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: _____ dots. X.Norbo‘tayev

Tuzuvchilar: _____ **Sh.Choriyev –** TerDU Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o`qituvchisi.

_____

Taqrizchilar: **B.Umurqulov –** TerDU Boshlang‘ich ta’lim
_____ metodikasi kafedrasi dotsenti.

.

O‘quv-uslubiy majmua Termiz davlat universiteti o‘quv-metodik Kengashida ko‘rib chiqilgan va tasdiqlangan (2018- yil “__” _____ - sonli bayonnoma).

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI BOSHLANG‘ICH TA’LIM METODIKASI KAFEDRASINING
1-SON YIG‘ILISH BAYONNOMASIDAN
KO‘CHIRMA

28 avgust 2017 yil **Termiz shahri**

QATNASHDILAR: **Kafedraning barcha a’zolari.**

KUN TARTIBI

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasining dotsent R.Mustafoqulov, o`qituvchi Sh.Choriyevlarning 5111700 – O‘qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani Boshlang‘ich ta’lim bakalavriat yo‘nalishi uchun Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlagan o‘quv uslubiy majmuaning muhokamasi.

Eshitildi: Kafedra mudiri p.f.n. X.Norbo‘tayev 5111700 – O‘qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani Boshlang‘ich ta’lim bakalavriat yo‘nalishi uchun Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlangan o‘quv-uslubiy majmuaning tuzilishi, uning mazmuni bilan kafedra a’zolarini tanishtirdi. Ushbu o‘quv-uslubiy majmuani tayyorlash va uning elektron versiyasini yaratish bo‘yicha dotsent R.Mustafoqulov, o`qituvchi Sh.Choriyevlarga tayinlanganligini ma’lum qildi.

So‘zga chiqdilar: Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi I.Shoyimardonov mazkur o‘quv-uslubiy majmua mazmuni bilan tanishib chiqqanliklari hamda o‘z takliflarini bildirgan holda, uni tasdiqlash mumkinligi haqida o‘z ijobiy fikrlarini bildirdilar.

Qaror:

1.Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasining mudiri p.f.n. X.Norbo‘tayevning axboroti inobatga olinsin.

2.Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasining dotsenti R.Mustafoqulov, o`qituvchi Sh.Choriyevlarning 5111700 – O‘qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani Boshlang‘ich ta’lim bakalavriat yo‘nalishi uchun Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlangan o‘quv-uslubiy majmuasi tasdiqlansin va o‘quv amaliyotida qollash tavsiya etilsin.

3.5111700 – Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlangan o‘quv-uslubiy majmuani tasdiqlash fakultet kengashidan so‘ralsin.

Majlis raisi: **p.f.n. X.Norbo‘tayev**
Kotib: **Sh. Choriyev**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
PEDAGOGIKA FAKULTETI
USLUBIY KENGACHINING -SON BAYONNOMASIDAN
KO‘CHIRMA

___ avgust 2017 yil **Termiz shahri**

QATNASHDILAR: **Qatnashchilar: M.Mirzayev, p.f.n.X.Sharaffutdinova va a’zolari A.Jo‘raqulova, O.Ergasheva.**

KUN TARTIBI

Har xil masalalar

1.O‘quv-uslubiy majmuani tasdiqlash:

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasining dotsenti R.Mustafoqulov, o`qituvchi Sh.Choriyevlarning 5111700 – O‘qituvchilar tayyorlash va pedagogika fani Boshlang‘ich ta’lim bakalavriat yo‘nalishi uchun Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlagan o‘quv-uslubiy majmuasining muhokamasi.

ESHITILDI: Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasining mudiri X.Norbo‘tayev so‘zga chiqdi. 5111700–boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish bakalavriat ta’lim yo‘nalishi uchun dotsenti dotsent R.Mustafoqulov, o`qituvchi Sh.Choriyevlar tomonidan Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlangan o‘quv-uslubiy majmua tuzilishi, uning mazmuni bilan Ilmiy-metodik kengash a’zolarini tanishtirdi. Ushbu o‘quv- uslubiy majmua tayyorlash va elektron versiyasini yaratish bo‘yicha kafedralardan vakillar tayinlanganligini Ilmiy-metodik kengash a’zolariga ma’lum qildi.

SO‘ZGA CHIQDILAR: Kafedra katta o‘qituvchisi A.Jo‘raqulova, o‘qituvchi Z.Amirqulova, dotsent R.Mustafoqulov, o`qituvchi Sh.Choriyevlar tomonidan tayyorlangan Ona tili va adabiyot fanidan boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabalariga mo‘ljallangan o‘quv-uslubiy majmua to‘g‘risida o‘z fikr-mulohazalarini bildirishdi. O‘qituvchi D.Shabbozova so‘zga chiqib, Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlangan ushbu o‘quv-uslubiy majmua ta’lim texnologiyalari, innovatsion pedagogik texnologiyalarini qo‘llash talablari asosida tayyorlanganligi haqida to‘xtalib o‘tdi. Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, yig‘ilishda

QAROR QILINDI:

1.Kafedra dotsenti R.Mustafoqulov, o`qituvchi Sh.Choriyevlar tomonidan tayyorlangan Ona tili va adabiyot fanidan 5111700-boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabalariga mo‘ljallangan o‘quv-uslubiy majmua qo‘llanishga tayyor deb topilsin.

2.5111700-boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabalariga mo‘ljallangan Ona tili va adabiyot fanidan dotsent R.Mustafoqulov, o`qituvchi Sh.Choriyevlar tomonidan tayyorlangan o‘quv-uslubiy majmuani tasdiqlab berish universitet o‘quv-uslubiy kengashidan so‘ralsin.

Kengash raisi: **M.Mirzayev**
Kotiba: **I.Muxtorova**

Termiz davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi dotsent R.Mustafoqulov, o`qituvchi Sh.Choriyevlar tomonidan Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlangan o‘quv-uslubiy majmuasiga

TAQRIZ

Bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan fan texnika taraqqiyotini hayotga tadbiq eta oladigan etuk malakali kadrlar tayyorlash masalasi turibdi.

Ta’limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo‘llari izlanmoqda, ta’limda yangi axborot texnologiyalarning joriy etish masalasi ommalashmoqda. Bu esa, ukituvchilarning o‘z mehnati faoliyatiga yangicha yondashuvini talab etadi. O‘quv jarayonida yangi texnologiyalarning joriy etilishi, ukituvchini texnikaviy vositalar tomonidan siqib chiqarishga emas, balki o‘qituvchining vazifalari va rolini o‘zgartiradi.

O‘qituvchi tomonidan fanning shaxsga yo‘naltirilgan va rivojlantiruvchi ta’limga asoslangan o‘qitish texnologiyasi ishlab chiqilgan. Fanni o‘qitish texnologiyasi ta’lim jarayonini loyihalashtirish, tashkil etish, o‘tkazish, bilim va ko‘nikmalarni baholash jarayonini o‘z ichiga oladi. Har bir mashg‘ulot uchun texnologik xaritalari ishlab chiqilgan. Texnologik xaritani loyihalash pedagogik mahorat cho‘qqisi hisoblanadi, chunki mashg‘ulot davomida bajariladigan amaliy ish jarayoni texnologik xaritada ketma-ketlik qoidasi asosida tasvirlanadi.

O‘quv-uslubiy majmuada o‘qituvchi tomonidan nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish texnologiyasi, dars ishlanmasi va texnologik xaritasi ishlab chiqilgan. Har bir mashg‘ulot bo‘yicha dars ishlanmalari va texnologik xaritalar ishlab chiqilgan, bu esa o‘z navbatida o‘quv jarayonini to‘laqonli loyihalashtirish hamda samarali tashkil etish imkonini beradi.

Kurs davomida ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar rejalashtirilgan bo‘lib, har bir mavzu bo‘yicha dars mashg‘ulotlarini o‘tkazish texnologiyalari batafsil izohlab berilgan bo‘lib, majmuada aqliy hujum, munozara usuli, kichik guruhlarda ishlash texnologiyalarini qo‘llash, rolli o‘yinlar, kichik ma’ruza usuli, namoyish etish usuli, «Skarabey» texnologiyasi, «Venn» texnologiyasi, «Bilaman, Bilishni xohlayman, Bilib oldim» texnologiyasi kabi interfaol o‘qitish usullaridan keng foydalanilgan.

Dotsent R.Mustafoqulov, o`qituvchi Sh.Choriyevlar tomonidan 5111700 – boshlangich ta’lim va sport tarbiyaviy ish bakalavriat ta’lim yo‘nalishi uchun Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlangan o‘quv-uslubiy majmuasi qo‘yilgan talablarga to‘la mos keladi va ta’lim tizimida talabalarni o‘qitishda qo‘llash o‘z samaradorligini beradi.

Boshlang‘ich ta’lim metodikasi
kafedrasi katta dotsenti: _____ Sh. Yoqubov

Termiz davlat universiteti Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi dotsenti B.Umurqulov dotsent R.Mustafoqulov, o`qituvchi Sh.Choriyevlar tomonidan Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlangan o‘quv-uslubiy majmuasiga

TAQRIZ

Zamonaviy o‘qituvchi kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalari, nazariyalar, kontseptsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va tarqibotchisidir. Zamonaviy o‘qituvchi tomonidan o‘quv jarayonining tashkil etilishi jarayonida dars mazmunidagi asosiy ma’lumotlar va o‘quv materiali shunday taqdim etilishi kerakki, u talabaning vizual idrok qilish qobiliyatini osonlashtirsin.

Zero o‘qituvchi-ta’lim islohatining bosh ijrochisidir. Bunda har bir talabani qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi axborot to‘plamini o‘zlashtirish, qayta ishlash va amalda qo‘llay olishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega. Uni hal qilishda o‘qituvchiga o‘qitishning an’anaviy usullari bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan kompyuterlardan foydalanish yordam beradi. Darsda kompyuterdan foydalanish o‘qitish jarayonini qiziqarli olib borish, har bir talabaga individual yondashish imkonini beradi.

O‘quv-uslubiy majmuada talabalarning o‘zlashtirish imkoniyatlari va psixologik xususiyatlarini inobatga olib kichik guruhlarda va individual ishlash uchun muayan mavzuga oid bir biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar, topshiriqlar, muammoli vaziyatlar ishlab chiqilgan. Ularni bajarish uchun aniq ko‘rsatmalar va tavsiyalar berilgan.

Guruhlarda ishlashda talabalarning muloqatga kirishish, o‘z fikrini aytish, boshqalar fikrini bulmasdan eshitish, faol ishtirok etish xuquqiga ega bo‘lish bir-birlarining turli nuqtai-nazarlarini qadrlash kabi tarbiyaviy xususiyatlar va kunikmalar shakllantirishga qaratilgan.

Fan buyicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni baholash uchun savol va testlar, topshiriqlar va mashqlar, loyihalar, yozma ishlar berilgan. Nazorat savollari va testlar talabalarni bilim olishga qiziqishlarini, mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirishga, taqqoslash, umumlashtirish, tahlil qilish usullaridan foydalana olish mahoratlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan. Yozma savollar va topshiriqlar o‘qituvchi tomonidan ta’lim oluvchiga yozma tarzda javob olishga mo‘ljallab ishlab chiqilgan.

Dotsent dotsent R.Mustafoqulov, o`qituvchi Sh.Choriyevlar tomonidan Ona tili va adabiyot fanidan tayyorlangan o‘quv-uslubiy majmuasi qo‘yilgan talablarga to‘la mos keladi va ta’lim tizimida talabalarni o‘qitishda qo‘llash o‘z samaradorligini beradi.

B. Umurqulov _____ TerDU O‘zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

«Ro‘yxatga olindi» BD-5111700 -3.03
2017-yil « *9* » *01*

ONA TILI VA ADABIYOT

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar
Ta'lim sohasi: 110000 - Pedagogika

Ta'limyo'nalishi:5111700 - Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish

Toshkent - 2017

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017-yil *“22” 01*dagi 26 sonli buyrug’inin 2-ilovasi bilan fan daslurlari ro’yxati tasdiqlangan

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishlari bo‘yicha O'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvoliqlashtiruvchi Kengashning 2017-yil « 9 » 01dagi 1-sonlibayonnomasi bilan ma’qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universitetida ishlab chiqildi va turdosh oliy ta’lim muassasalari bilan kelishildi.

Tuzuvchilar:

M.A. Hamrayev — Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

D.ShodmonquIova — Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari nomzodi

Pardayev B.O‘. — Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti ”Boshlang‘ich ta'lim metodikasi” kafedrasi katta o'qituvchisi

GulDU “Boshlang'ich ta’lim uslubiyati” kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Taqrlzchllar:

J.Abdullayev — Navoiy davlat konchilik instituti qoshidagi 3-sonli Olmaliq akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

Z.D.Toshpo’latov

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti o’quv-uslubiy kengashida ko’rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2015-yil «12 » 11 dagi 5-sonli majlis bayonnomasi).

KIRISH

Mazkur fan dasturi umumiy tilshunoslik fani haqida qisqacha ma’lumot, o‘zbek tili leksikologiyasi, frazeologiyasi, leksikografiyasi, hozirgi adabiy tilning lug‘at tarkibi, fonetik tizimi, grafikasi, orfagrafiyasi, orfayepiyasi, grammatik qurilishi, morfologiyasi, sintaksisi, punktuatsiyasi, o‘zbek tili uslublari, bolalar adabiyoti va bolalar folklori, maktabgacha, maktab va katta yoshdagi bolalar kitobxonligining o‘ziga xos xususiyatlari, o‘zbek va jahon bolalar adabiyoti haqidagi ma’lumotlarni qamrob olgan.

Fanning maqsad va vazifalari

Fanning asosiy maqsadi - bo’lajak o’qituvchilariga ona tilining fonetik xususiyatlari, talaffuz meyorlari, lug‘at (leksik) boyligi, imlo qoidalari va grammatik qurilishi yuzasidan nazariy bilim berish, bolalar adabiyoti va bolalar folklori, o‘zbek va jahon bolalar adabiyoti haqida ma’lumot berish, talabalarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish va savodxonligini oshirish, takomillashtirish yuzasidan amaliy malaka hosil qilishdir.

Fanning vazifasi – ona tilining bo`limlari yuzsasidan talabalarga nazariy bilimlar berish va amaliyotda qo`llashga o`rgatish, ona tilining davlat tili maqomini olishi hamda “Ta’lim to’g’risida” gi qonun materiallariga tayanish bilan bog‘liq bo’lgan o’zgartishlar yetkazish, o‘zbek va jahon bolalar adabiyotining rivojlanish davrlarini tahlil qilish, jahon va o‘zbek bolalar adabiyoti namoyondalarining ijodini o‘rganish, o‘zbek va jag‘on folklori namunalarini o‘rganish, maktabgacha, maktab va katta maktab yoshidagi bolalar kitobxonligining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish.

Fan bo‘yicha talabalarning bilimi, ko‘nikma va malakalariga qo’yiladigan talablar

Ona tili va adabiyot fanini o‘zlashtirish jarayonida

Bakalavr:

- ona tili va uning jamiyatda tutgan o‘rni;
- ona tilining o‘rganilish darajasi;
- tilshunoslik fanining boshqa fanlar tizimidagi o‘rni;
- tilning paydo bo‘lishi haqidagi nazariyalar;
- tillarning taraqqiyati;
- dunyo tillarining geneologik va morfologik tasnifi;
- tilshunoslikning sohalari: etimologiya, pragmatika, lingvopoetika, semosiologiya, matn lingvistikasi;
- fonetika va fonologiya;
- ona tilining unli va undosh tovushlar tizimi va ularning tasniflanishi;
- nutqning fonetik bo’linish;
- urg’u va uning turlari;
- fonetik hodisalar;
- ona tili yozuvi tarixi va taraqqiyoti;

- imlo qoidalari;
- talaffuz me’yorlari;
- so’z ma’nolari va ularning o’zgarishi;
- so’zlarning shakl va ma’no munosabatiga ko’ra turlari;
- ona tili lug’at tarkibining ma’no jihatdan tavsiflanishi;
- lug’at tarkibidagi so’zlarning kelib chiqishi jihatdan tavsiflanishi;
- lug’at tarkibining ijtimoiy guruhlar tomonidan qo’llanilish jihatdan tavsiflanishi;
- lug’at tarkibining faolligi yoki nofaolligi jihatdan tavsiflanishi;
- lug’at tarkibininh hissiy-ta’siriy bo’yoqdorligi jihatdan tavsiflanishi;
- lug’at tarkibining ajralmas birikmalar- frazeologik birikmalarni ma’no va tarkibi jihatdan tavsiflanishi;
- leksikografiya, lug’atlar va ularning turlari;
- morfemika, morfema va ularning turlari;
- so’z yasalish usullari;
- so’zlarning tuzilishi jihatdan turlari;
- so’zlarni turkumlarga ajralish tamoyillari;
- grammatik ma’no va grammatik shakl, ularning ifodalanish vositalari hamda usullari;
- grammatik ma’noning lisoniy va pragmatik omillar vositasida ifodalanishi;
- grammatik kategoriya va ularning hosil qilish vositalari;
- otning ta’rifi va leksik-grammatik xususiyatlari;
- atoqli otlarning turlari;
- turdosh otlarning turlari;
- otlardagi son kategoriyasi;
- otlarning aloqa-munosabati kategoriyalari;
- otlarning nokategoriyal shakllari;
- otlarning yasalishi;
- otlarning tuzilishi jihatdan turlari;
- sifatning ta’rifi va leksik-grammatik xususiyatlari;
- sifatlarning ma’no jihatdan turlari;
- sifatlardagi daraja kategoriyalari;
- sifatlarning modal shakllari;
- sifatlarning yasalishi;
- sifatlarning tuzilishi jihatdan turlari;
- sonning ta’rifi va leksik-grammatik xususiyatlari;
- sonlarning ma’no jihatdan turlari;
- sonlarning hisob so’zlari bilan qo’llanilishi;
- sonlarning ishlatilish jihatdan turlari;
- sonlarning tuzilishi jihatdan turlari;
- olmoshning ta’rifi va leksik-grammatik xususiyati;
- olmoshlarning ma’no jihatdan turlari;
- olmoshlarning ishlatilish jihatdan turlari;

- olmoshlarning tuzilishi jihatdan turlari;
- fe’llarning ta’rifi va leksik-grammatik xususiyatlari;
- fe’llarning ma]no turlari;
- bo’lishli va bo’lishsiz fe’llar;
- o’timli va o’timsiz fe’llar;
- fe’llarning nisbat kategoriyalari;
- fe’llarning mayl kategoriyalari;
- fe’llarning zamon kategoriyasi;
- fe’llarning shaxs-son kategoriyasi;
- fe’llarning nokategoriyal shakllari;
- fe’llarning vazifa shakllari: ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi;
- fe’llarning yasalishi;
- fe’llarning tuzilishi jihatdan turlari;
- ravishning ta’rifi va leksik-grammatik xususiyatlari;
- ravishlarning ma’no turlari;
- ravishlarning yasalishi;
- ravishlarning tuzilishi jihatdan turlari;
- yordamchi so’z turkumlarining ta’rifi, turlari va grammatik xususiyatlari;
- alohida olingan so’z turkumlarining ta’rifi, turlari va leksik-grammatik xususiyatlari;
- sintatsis va uning predmeti;
- sintaktik munosabat va sintaktik aloqa;
- so’z birikmasi sintaksisi;
- gap sintaksisi;
- gaplarning ifoda maqsadiga ko’ra turlari;
- gaplarning his-hayajon ifodalanishiga ko’ra turlari;
- gaplarning tasdiq-inkor ifodalanishiga ko’ra turlari;
- gaplarning tuzilishiga ko’ra turlari;
- sodda gaplarninig turlari;
- murakkablashgan sodda gap;
- qo’shma gaplarning turlari;
- matn sintaksisi;
- ona tili ishorat qoidalari;
- nutq uslublari va uslubiyat turlari;
- bolalar adabiyati fanining predmeti va vazifalari;
- jahon bolalar adabiyotining tavsifi;
- folklorning o’zoga xos xususiyatlari;
- bolalar adabiyotining o’ziga xos xususiyatlari;
- bolalar adabiyoti namoyondalarining hayoti va ijodi haqida bilimga ega **bo’lishi kerak.**
- ona tilining struturasi va sistemasini farqlay olish;
- ona tili fonetik tizimi va grafikasini ta’riflay olish;

- ona tili lug’at tarkibini tahlil qila olish;
- ona tili frazeologiyasi va leksikografiyasiga ta’rif bera olish;
- ona tili morfemik tizimini tahlil qilish;
- ona tili so’z yasalish tizimini tahlil qila olish;
- ona tili so’z turkumlari tizimini tahlil qila olish;
- ona tili sintaktik qurilishini farqlay olish;
- ona tili imlo va ishorat qoidalarini bayon qila olish;
- bolalar adabiyoti fanining maqsad va vazifalarini farqlay olish;
- maktabgacha, maktab, o’rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligini o’ziga xos xususiyatlarinini farqlay olish;
- bolalar folklori haqida hikoya qilish;
- o’zbek va jahon bolalar adabiyoti durdonalari haqoda hikoya qilish.

ko’nikmalariga ega bo’lish;

- ona tilining jamiyatdagi rolini tushuntira olish;
- ona tilining o’rganilish darajasini bayon qila olish;
- tilning ijtimoiy mohiyatini tushuntira bilish;
- tilning paydo bo’lishi nazariyalarini bayon qila olish;
- ona tilining tovush tizimini tahlil qila olish;
- ona tili imlo ishora qoidalarini bayon qila olish;
- ona tili lug’at boyligining o’ziga xos tomonlarini bayon qila olish;
- ona tili frazeologiyasi va leksikografiyasiga ma’lumot bera olish;
- ona tili morfem va so’z yasalish tizimi haqida ma’lumot bera olish;
- ona tili grammatik qurilishini tahlil qila olish;
- ona tili sintaktik qurilishini farqlay bilish;
- bolalar adabiyoti fanining maqsad va vazifalarini bayon qila olish;
- turli yoshdagi bolalar kitobxonligi haqida ma’lumot bera olish;
- bolalar folklori namunalari haqida ma’lumot bera olish;
- jahom va o’zbek bolalar adabiyoti namunalarining o’ziga xos tomonlarini tushuntira bilish
- malakalariga ega bo’lishi kerak**.**

Fanining o‘quv rejadagi boshqa fanlar bilan o‘zaro bo g‘liqligi, uslubiy jihatdan uzviyligi va ketma-ketligi

Ona tili va adabiyati fanini chuqur o’rganish uchun falsafa, tarix, etnografiya, adabiyotshunoslik fanlaridan xabardor bo’lish talab etiladi. Tilning rivojlanish tarixi millat tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir. Jamiyat, xalq tarixida yuz bergan o’zgarishlar tilning lug’at boyligida aks etadi, badiiy adabiyotda o’z ifodasini topadi.

Badiiy adabiyot adabiy tilni yangiliklar bilan boyitish uchun juda katta ahamiyatga egadir, shuning uchun talabalarni til muammolarini hal qilishda badiiy adabiyotga tayanishga o’rgatish lozim.

Fanining ta`limdagi o‘rni

Ona tili fanining amaliy ahamiyati quyidagilar bilan xarakterlanadi:

- har bir inson, ayniqsa, ziyoli inson o‘z ona tilisining imkoniyatlaridan mumkin qadar unumli foydalana bilishi kerak;

- ona tili har bir millatni millat sifatida farqlantiradigan, shakllantiradigan buyuk ne’mat ekanligini tushunishimiz kerak;

- ona tili fani milliy til va uning tarkibiga kiruvchi adabiy tilning an’anaviy vazifalaridan tashqari, kompyuter lingvistikasining keng imkoniyatlarini hayotga tatbiq etishda katta rol o‘ynaydi.

- bolalar adabiyoti mig yillar davomida dunyo xalqlari tomonidan yaratigan so’z san’ati durdonalari bilan o’quvchilarni tabishtiradi;

o’zbek milliy bolalar yozuvchilarining ijod namunalaridan bahramand qilish uchun xizmat qiladi.

Fanni o‘qitishda qo’llanadigan zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

Ona tilini puxta o’rgatish maqsadida o’qituvchning dars jarayonida slaydlar, proyektor, diaproyektorlar kabi zamonavaiy texnologik vositalardan mohirona foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Texnik vositalar talabalarga o’qitilayotgan fanning mohiyatini chuqur anglashga imkon beradi, mash g‘ulotning qiziqarliroq bo’lishiga, o’tilgan mavzuni eslab qolishga, vaqtni tejab qolishga yordam beradi.

ASOSIY QISM

“Ona tili va adabiyot” fanining “Ona tili” qismi nazariy mashg‘ulotlari mazmuni

1-bob. Kirish.

Umumiy tilshunoslikdan ma’lumot

1.1. Til ijtimoiy, doim o'zgarib, rivojlanib turuvchi hodisadir. 0‘zbek tili - O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili ekanligi. Hozirgi o'zbek adabiy tilining tuzilish uzvlari (elementlari): tovushlar tizimi, leksikasi (yoki lug'at tarkibi), grammatik qurilishi. Milliy va adabiy til. 0‘zbek adabiy tili va uning tayanch dialekti (lahjasi). Adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari.

1.2. Tilning paydo bo‘lishi, tillarning taraqqiyoti, tillarning tasnifi.

2-bob. Fonetika

2.1. Fonetika haqida umumiy ma’lumot, uning nutq tovushlarini o‘rganadigan soha ekanligi. Hozirgi zamon ona tilining fonetik va fonologik tizimi (sistemasi) haqida ma’lumot. Ona tilining fonetik vositalari: nutq tovushlari, urg‘u, ohang (intonatsiya). Fonema, uning so‘z ma’nosini farqlashdagi roli. Hozirgi ona tilining fonemalari. Nutq a’zolari va ularning vazifasi. Nutq apparati. Artikulyatsiya. Artikulyatsiya o‘rni va artikulyatsiya usuli. Fonetik akustika, tovush balandligi, kuchi, tembri, tempi va cho'ziqligi.

2.2. Ona tilining vokalizmi va konsonntizmi. Unli tovushlar, tilning gorizontal, vertikal harakatiga ko‘ra hamda lablarning ishtirokiga ko'ra unli tovushlar tasnifi. Undosh tovushlar, ulaming artikulyatsiya (hosil bo'lish) o'rniga, usuliga hamda ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra tasnifi.

2.3. Nutqning asosiy fonetik birliklari. fraza (jumla), takt (sintagma), fonetik so'z, bo'g'in, tovush. Urg'u va uning turlari: so‘z urg'usi (leksik urg'u), gap urg'usi (mantiqiy urg'u); bog'liq va erkin urg'u. Urg'u olmaydigan birliklar. Urg'uning so'z ma’nosini farqlashdagi roli.

2.4. Nutq jarayonida tovushlarning o'zgarish xususiyatlari: kombinator o'zgarishlar (assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza), pozitsion o'zgarishlar.

3-bob. Orfoepiva.

3.1. Orfoepiya haqida umumiy ma’lumot. Hozirgi ona adabiy tilining orfoepik me’yorlari, unlitar orfoepiyasi, ayrim undoshlar orfoepiyasi, ayrim grammatik shakllar orfoepiyasi. Ayrim orfoepik me’yoriarning imlo qoidalariga (orfografik me’yorlarga) mos kelmaslik hollari.

4-bob. Grafika va orfografiva.

4.1. Ona tili grafikasi (yozuv tizimi) haqida ma’lumot. Harf tilning asosiy grafik vositasi ekanligi. Tovush va harf. Alifbo (alfavit).

4.2. Ona tili imlosi va uning asosiy tamoyi (prinsip)lari; morfologik, fonetik, an’anaviy-etimologik, differensiyalash, grafik tamoyillar. Morfologik tamoyilning asosiy va yetakchi tamoyil ekanligi.

4.3. Ona tili imlosining asosiy qoidalari: ayrim harflar, o'zak-negiz va qo'shimchalar, qo'shma so'zlar imlosi; bo'g'in ko'chirish, bosh harflarning yozilish qoidalari.

5-bob. Leksikologiva.

5.1. Leksika (lug'at tarkibi) va leksikologiya haqida umumii ma’lumot.
Leksema va so'z, ularning o'zaro farqlari. So'zning leksik va grammatik ma’nosi. Semema, sema. Bir ma’noli va ko'p ma’noli so'zlar. So'zning o'z va ko'chma ma’nosi. Ma’no ko'chirishning asosiy turlari; metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlik (ma’noning vazifaga ko'ra ko'chishi; ma’noning torayishi va kengayishi.

5.2. Ona tilida so'zlarning shakl va ma’no munosabatlariga ko'ra turlari haqida ma’lumot. Omonimlar, ularning ko'p ma’noli so'zlardan (polisemantizmlardan) farqi. Sinonimlar (ma’nodosh so'zlar) va sinonimiya qatori. Antonimlar. Paronimlar. Omonim, sinonim, antonim va paronimlarning asosiy turlari va nutqda qo'llanish xususiyatlari.

5.3. Tarixiy shakllanish jihatdan hozirgi ona tili leksikasi:Hozirgi ona tili leksikasining ijtimoiy-dialektal tarkibi: umumxalq leksikasi; dialektal leksika-dialektizmlar; kasb-hunar leksikasi; termin va terminologik leksikasi (atamalar leksikasi); jargon va argolar.

5.4. Ona tilining nofaol leksikasi, neologizmlar (yangi paydobo'lgan so'zlar).
Hissiy-ta’siriy jihatdan ona tili lesikasi; umumiste’moldagi hissiy-ta’siriy bo'yoqsiz va bo'yoqdor so'zlar.

6-bob. Frazeologiva.

6.1. Frazeologiya haqida ma’lumot. Frazema til va nutq birligisifatida.
Frazemalarning ma’no xususiyatlariga ko'ra asosiy belgilari va turlari.

7-bob. Leksikografiya.

7.1. Leksikografiya haqida umumiy ma’lumot. Lug'atlar va ularning tiplari: ensiklopedik (qomusiy) va lingvistik (yoki filologik) lug'atlar. Bir tilli va ko'p tilli lingvistik lug‘atlar. Bir tilli lingvistik lug'atlarning tiplari.

8-bob. Morfemika.

8.1. Morfemika va morfema haqida umumiy ma’lumot. Morfema va uning turlari: o'zak morfema va affiksial (qo‘shimcha) morfema. Affiksial morfemalaming turlari: so‘z yasovchi, lug'aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi affikslar. Affiksial morfemalarning tuzilishiga ko‘ra turlari: sodda affikslar va murakkab affikslar.

9-bob. So'z vasalishi (derivatsiya).

9.1. Tub va yasama so‘zlar. So‘z yasalishi (derivatsiya) haqida ma’lumot. Ona tilida so'z yasash usullari: affiksatsiya, kompozitsiya, semantik, fonetik, abbreviatsiya.

Affiksatsiya va kompozitsiya usullari - o‘zbek tilida so‘z yasashning eng asosiy usullari ekanligi.

10-bob. Granimatika.

10.1. Grammatika haqida umumiy ma’lumot. So'zning grammatik ma’nosi va grammatik shakli. So‘zlaming sintetik, analitik, juft va takroriy, aralash hamda nol ko‘rsatkichli shakllari. Grammatik kategoriya haqida umumiy ma’lumot. Grammatik kategoriya, grammatik rna’no va ularni ifoda qiluvchi vositalar tizimi ekanligi. Morfologiya va sintaksis grammatikaning qismlari ekanligi.

11-bob. Morfologiya.

11.1. Morfologiya haqida umumiy ma’lumot. Morfologiya grammatikaning so'z turkumlari va shu turkumlarga xos kategaroial, nokategorial shakllar tizimini, so’zning birikish vaqtidagi o'zgarishini tekshiradigan bo'limi ekanligi. So'zning morfologik tuziiishi so'z shaklining qismlaridan (shakl yasash uchun asos bo'luvchi hamda shakl hosil qiluvchi va so'z o'zgartuvchi affikslardan) iborat ekanligi.

11.2. Ona tilida so'z turkumlari va ularni ajratish tamoyillari haqida umumiy ma’lumot. Hozirgi ona tilida so'zlarning ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish, ko'makchi, bo g'lovchi, yuklama, modal so'z, undov so'z, taqlid so'z turkumlariga ajratilishi.

11.3.1. Ot. Otning leksik-grammatik xususiyatlari. Otning ma’no turlari: atoqli va turdosh ot, aniq va mavhum, yakka va jamlovchi otlar.

11.3.2. Otlarda kelishik kategoriyasi. Otlarning yasalishi:affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya usullari bilan ot yasash. Otlarda modal forma yasalishi. Otlarning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo'shma, qisqartma, juft otlar.

11.4.1. Sifat. Sifatning leksik-grammatik xususiyatlari. Belgini darajalab ko'rsata olishi - sifat darajalari: oddiy, qiyosiy va orttirma daraja. Sifatlarning otlashishi.

11.4.2. Sifatlaming yasalishi: affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan sifat yasash. Sifatlarda modal forma yasalishi. Sifatlarning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo'shma, birikmali va jufit sifatlar.

11.5.1. Son. Sonning leksik-grammatik xususiyatlari, morfologik belgilari, sintaktik vazifasi. Sonlarning numerativ (sanoq) so‘zlar bilan qo‘llanishi. Sonlarning otlashish xususiyatlari.

11.5.2. Sonning ma’no turlari: miqdor son va tartib son. Miqdor son turlari: sanoq, dona, chama, jamlovchi va taqsim sonlar. Butun son va kasr son, kasrli son. Sonning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo'shma, juft, takroriy sonlar.

11.6.1. Olntosh. Olmoshning grammatik ma’nosi, boshqa so'z turkumlariga morfologik ekvivalentligi (mosligi); otlashish xususiyatlari, gapdagi vazifasi.

11.6.2. Olmoshlarning ma’no turlari: kishilik, o‘zlik, ko'rsatish olmoshlari. So'roq, belgilash, gurnon, bo'lishsizlik olmoshlari. Olmoshning tuzilish jihatdan turlari: soda, qo'shma, juft, takroriy olmoshlar.

11.7.1. Fe’l. Fe’lning leksik-grammatik xususiyatlari (morfologik belgilari, sintaktik vazifalari). Bo'lishli va bo'lishsiz fe’llar, bo'lishsizlik ma’nosining ifodalanishi. Fe’l nisbat (daraja)lari: aniq, o'zlik, majhullik, birgalik, orttirma nisbatlarining grammatik ma’nosi va shakllari.

11.7.2. Fe’l mayllari (xabar mayli, shart va buyruq-istak mayli), ularning o'ziga xos xususiyatlari.

11.7.3. Fe’l zamonlari, ularning turlari (o'tgan, hozirgi va kelasi zamon fe’llari), o'tgan zamon fe'lining turlari: yaqin o'tgan zamon fe’li, uzoq o'tgan zamon fe’li. O'tgan zamon hikoya fe’li, o'tgan zamon davom fe’li, o'tgan zamon rnaqsad fe’li. Hozirgi zamon fe’lining turlari: Hozirgi-kelasi zamon fe’li, hozirgi zamon davom fe’li,

Kelasi zamon fe’lining turlari: kelasi zamon gumon fe’li, kelasi zamon rnaqsad fe’li.

11.7.4. Fe’llaming tuslanishi. Shaxs-son (yoki tuslovchi) affikslar. Ularning turlari: 1-guruh, 2-guruh, 3-guruh tuslovchilari; ularning qo'llanish xususiyatlari.

11.7.5. Fe’lning vazifadosh shakllari - ma’lum bir sintaktik vazifa bajarishga mos shakllari: sof fe’l, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi. Sof fe’l, uning kesim vazifasini bajarishga moslashganligi. Ravishdosh, uning grammatik ma’nosi, yasalishi; fe’l va ravishga xos xususiyatlari; Tuslanadigan va tuslanmaydigan ravishdoshlar. Sifatdoshninggrammatik ma’nosi, yasalishi; fe’l va sifatga xos xususiyatlari: (otlashish, shuningdek, tusianish, zamon ifodalash xususiyatlari). Harakat nomi, uning grammatik xususiyatlari, yasalishi; fe’lga va otga xos xususiyatlari.

11.7.6. Fe’lning yasalishi (affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan fe'l yasash).

11.7.7. Fe’lning tuzilish jihatdan turlari: sodda va qo'shma fe’llar. Juft fe’llarning o'ziga xos xususiyatlari. Fe’lning modal ma’no ifodalovchi shakllari: sintetik va analitik shakllari. Ko'makchi fe’llar. To'liqsiz fe’l.

11.8.1. Ravish. Ravishning leksik-grammatik xususiyatlari. Ravishlarning ma’no turlari: holat, miqdor-daraja, payt, o'rin sabab, rnaqsad ravishlari. Ravishlarda daraja (oddiy, qiyosiy, orttirma darajalar).

11.8.2 Ravishlarning yasalishi: affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan ravish yasash. Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari: sodda, qo'shma, juft va takroriy ravishlar.

11.9.1. Ko'makchilar. Ularning grammatik xususiyatlari, turlari: asl ko'makchilar, ot ko'makchilar, fe’l ko'makchilar, Ko'makchi va kelishik qo'shimchalari. Ko'makchi otlar.

11.10.1 Bog'lovchilar. Ularning grammatik xususiyatlari. Bog'lovchilarning qo'llanishiga ko'ra turlari: yakka bog'lovchilar va takroriy bog'lovchilar. Grammatik ma’no va vazifalariga ko'ra bog'lovchilarning turlari: teng bog'lovchilar (biriktiruvchi, zidlovchi, ayiruvchi); ergashtiruvchi bog'lovchilar (aniqlov, sabab, shart va to'siqsizlik, chog'ishtiruv - o'xshatish bog'lovchilari.)

11.11.1 Yuklamalar. Yuklamalarning grammatik xususiyatlari. Yuklamalaning tuzilishiga ko'ra turlari: so'z yuklamalar va affiks yuklamalar. Yuklamalarning ma’no turlari: so'roq va taajjub, kuchaytiruv va ta’kid, ayiruv va chegaralov, aniqlov, gumon, inkor yuklamalari.

11.12.1 Modal so'zlar, ularning ma’no va grammatik xususiyatlari, sintaktik vazifalari.

11.13.1 Undovlar. Ularning grammatik xususiyatlari. Undovlarning otlashishi, sintaktik vazifasi. Undovlarning turlari: his-hayajon (emotsional) va buyruq- xitob undovlari.

11.14.1 Taqlid so'zlar. Ularning grammatik xususiyatlari, otlashishi, taqlid so'zlarning sintaktik vazifasi; turlari: tovushga taqlid va shu’la-harakatga taqlid so'zlar.

12-bob. Sintaksis.

12.1. Sintaksis haqida umumiy ma’lumot. So'z birikmasi, gap bo'lagi va gap sintaksisning tekshirish obyekti sifatida. Gapda so'zlarning o'zaro bog'lanishi; teng va ergash bog'lanish haqida umumiy ma’lumot. Ergash bog'lanish so'z birikmasini hosil qiluvchi sintaktik munosabat ekanligi.

So'z birikmasi. So'z birikmasining tuzilishi va grammatik ma’nolari. Birikma tarkibidagi so'zlarning aloqa turlari: boshqaruv, bitishuv, moslashuv. So'z birikmalarining turlari: hokim so'zning qaysi so'z turkumidan ekanligiga ko'ra turlari (otli, fe’lli, ravishli, sifatli, modal so'zli birikmalar). Tobe so'zning sintaktik

vazifasiga ko'ra turlari (to'ldiruvchili, aniqlovchili, holli so'z birikmalari). Tuzilishiga ko'ra turlari: sodda so'z birikmalari, murakkab so'z birikmalari.

12.2. Gap. Gap - kommunikativ (aloqa) birlik sifatida. Ifoda maqsadiga ko'ra gap turlari: darak, so'roq, buyruq gaplar. His-hayajoniga ko'ra turlari: his- hayajonli (undov) gaplar, his-hayajonsiz gaplar, ularning turlari (darak- undov, so'roq-undov, buyruq-undov gaplar).

12.3 Gap bo'laklari haqida umumiy ma'lumot. Ega va kesim (bosh bo'laklar) ikki sostavli gaplarni shakllantiruvchi predikativ birliklar ekanligi. Ega va uning ifodalanishi. Kesim, uning ifodalanishi, tiplari: fe'l-kesim va ot-kesim; sodda va tarkibli kesim. Ega bilan kesimning orasida tirening ishlatilishi.

12.4 Gapning ikkinchi darajali bo'laklari (to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol). To'ldiruvchi va uning ifodalanishi. Vositasiz va vositali to'ldiruvchilar, ularning shakllanishi. Aniqlovchi va uning ifodalanishi. Sifatlovchi, qaratqich va izohlovchilar aniqlovchining turlari ekanligi. Hol va uning ifodalanishi, turlari: ravish holi, miqdor-daraja holi, payt holi, o'rin holi, sabab holi va maqsad holi. Gap bo'laklarining joylashish tartibi. Inversiya.

12.5 Gapning uyushiq bo'laklari; uyushishning ifoda vositalari: sanash ohangi va teng bog'lovchilar. Uyushiq bo'lakli gaplarda umumiy va umumlashtiruvchi birliklaming qo'llanishi. Uyushiq bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

12.6 Gapning ajratilgan bo'laklari, ularning ajratilish sabablari. Ajratilgan bo'laklarning turlari: ajratilgan ega, ajratilgan kesim, ajratilgan aniqlovchi (ajratilgan sifatlovchi, ajratilgan qaratqich, ajratilgan izohlovchi), ajratilgan to'ldiruvchi, ajratilgan hoi. Ajratilgan bo'lakli gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

12.7 Gap bo'laklari sanalmaydigan birliklar (so'z va birikmalar) haqida ma'lumot: undalma, kirish so'z, kirish birikma va kiritma gaplar; ularning boshqa gap bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmaslik va o'ziga xos ohang xususiyatlari. Ularda tinish belgalarining ishlatilishi.

12.8 Bir bosh bo'lakli gaplar, ularning tiplari: egasiz va kesimsiz bir bosh bo'lakli gaplar. Egasiz bir bosh bo'lakli gap turlari (egasi topiladigan va egasi topilmaydigan gaplar). Egasi topiladigan gaplar: shaxsi aniq, shaxsi noaniq, shaxsi umumlashgan gaplar. Egasi topilmaydigan - shaxssiz gaplar. Kesimsiz bir bosh bo'lakli gap - atov (yoki nominativ) gaplar va infmitiv gaplar ekanligi.

12.9 Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar (so'z-gaplar), ularning o'ziga xos xususiyatlari. To'liq va to'liqsiz gaplar. To'liqsiz gaplarning tuzilish va qo'llanish xususiyatlari.

12.10 Qo'shma gap. Qo'shma gap haqida umumiy ma'lumot. Komponent (qism)larning birikish usuliga ko'ra qo'shma gap turlari: bog'langan qo'shma gap, ergashgan (ergash gapli) qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gap.

12.11 Bog'langan qo'shma gap. Bog'langan qo'shma gap qismlarining mazmun munosabati. Komponent (qism)lar orasidagi teng aloqa bog'langan qo'shma gap qismlarining o'zaro bog'lanish usuli ekanligi. Teng bog'lovchilar, teng bog'lovchi vazifasidagi ayrim yuklamalar, "bo'lsa", "esa" so'z shakllari bog'langan qo'shma gap qismlarini bog'lovchi vositalar ekanligi. Bog'langan qo'shma gap qismlari (komponentlari) orasida tinish belgilarining ishlatilishi.

12.12 Ergashgan qo'shma gap. Ergashgan qo'shma gap - bosh va ergash gaplarning tobelik munosabati asosida vujudga keladigan sintaktik birlik sifatida. Bosh va ergash gap, ularning o'ziga xos xususiyatlari. Ergashtruvchi bog'lovchilar, shu vazifadagi ayrim yuklamalar, ko'makchilar, nisbiy so'zlar, turli fe'l shakllari (fe'lning shart, buyruq-istak shakllari. shuningdek, ravishdosh, sifatdosh va to'liqsiz

fe’l ergash gapni
bosh gapga bog'lovchi vositalar ekanligi.

12.13 Ergashgan qo'shma gapning turlari: ega ergash gapli qo'shma gap, kesim ergash gapli qo‘shma gap, to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap, aniqlovchi ergash gapli qo'shma gap, ravish ergash gapli qo'shma gap, daraja-miqdor ergash gapli qo'shma gap, payt ergash gapli qo'shma gap, o'rin ergash gapli qo'shma gap, sabab ergash gapli qo'shma gap, o'xshatish ergash gapli qo'shma gap, shart ergash gapli qo'shma gap, to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap, natija ergash gapli qo'shma gap. Bunday gaplarda ergash gapning bosh gapdagi biror bo'lakni (qismni) yoki butun bir bosh gapni izohiash xususiyati. Ergashgan qo'shma gap komponentlari orasida tinish belgilarining ishlatilishi.

12.14 Bog'lovchisiz qo'shma gap. Intonatsiya (ohang) bog'lovchisiz qo'shma gap komponentlarini o'zaro bog'lovchi vosita ekanligi. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarining birikish usullari (sanash va tobelanishli ohanglari).

12.15 Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi komponentlarning mazmun munosabali. Bog'lovchisiz qo'shma gap turlari: bir tipdagi va turli tipdagi komponentlardan tuzilgan bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Bog'lovchisiz qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

12.16 Murakkab qo'shma gap. Murakkab qo'shma gap uch va undan ortiq komponentlarning mazmun va ohang jihatdan bog'lanishidan tuzilgan sintaktik birlik sifatida. Murakkab qo'shma gaplarning turlari: 1) bog'langan qo'shma gap toifasidagi (bog'ianish yo'li bilan tuzilgan) murakkab qo'shma gaplar; 2) ergashgan qo'shma gap toifasidagi (ergashish yo'li bilan tuzilgan) murakkab qo'shma gaplar: a) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gaplar; b) bir necha bosh gapli murakkab qo'shma gaplar; 3) bog'lovchisiz qo'shma gap toifasidagi (bog'lovchi vositalarsiz, ohang orqali tuzilgan) murakkab qo'shma gaplar; 4) aralash tipda tuzilgan murakkab qo'shma gaplar. Murakkab (ko'p komponenlli) qo'shma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi.

12.17 O'zga gap va undan nutqda foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari. O'zga gap turlari: ko'chirma gapli qurilma, o'zlashtirma gap. Ko'chirma gapli qurilmaning tarkibiy qismlari: muallif gapi va ko'chirma gap, ularning o'zaro bog'lanishi. Ko'chirma gapning muallif gapiga nisbalan prepozitiv, postpozitiv va inpozitiv holatlarda qo'llana olishi ko'chirma gapli qurilmalarning o'ziga xos xususiyati ekanligi. O'zlashtirma gap, uning o'ziga xos xususiyatlari. Ko'chirma gapli qurilmalarda tinish belgilarining ishlatilishi. Ko'chirma gapli qurilmalami o'zlashtirma gapga aylantirishning o'ziga xos xususiyatlari

13-bob. Punktuatsiva (ishorat qoidalari).

13.1. Ona tili punktuatsiyasining asosiy tamoyillari (mantiqiy-grammatik tamoyil, uslubiy tamoyil, differensiatsiya tamoyili). Ona tilida tinish belgilari va ularning tasnifi; tinish belgilarining qo'llanish o'rinlari.

14-bob, Uslubivat va uslubshunoslik.

14.1. Nutq uslublari haqida ma'lumot. Uslubiyat turlari: leksik, fonetik va grammatik uslubiyat haqida.

“Ona tili va adabiyot” fanining “Adabiyot” qismi nazariy mashg‘ulotlari mazmuni

I. Kirish

1.1 Adabiyot (bolalar adabiyoti) fanining maqsad va vazifalari.

1.2 Bolalar kitobxonligi haqida.

II.Bolalar folklori

2.1 Bolalar adabiyoti va bolalar folklorining mumtoz adabiyot namunalari bilan bog‘liqligi.

2.2 Qo‘shiqlar.

2.3 Maqollar.

2.4 Topishmoqlar.

2.5 Masallar.

2.6 Tez aytishlar.

2.7 Ertaklar. Adabiy ertaklar.

III. 0‘zbek bolalar adabiyoti (umumiy tahlil)

3.1 0‘zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi.

3.2 0‘tgan asming 30-40 -yillaridagi o‘zbek bolalar adabiyoti.

3.3 Hozirgi davrdagi o‘zbek bolalar adabiyoti.

IV. Alisher Navoiy va Gulxaniy ijodi

4.1 Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumiga kiruvchi dostonlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid g'oyalar.

4.2 Alisher Navoiyning pand-nasihat mazmunidagi asarlarida ifodalangan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy qarashlar.

4.3 Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari tarkibiga kirgan masallarda ilgari surilgan g'oyalar.

V. Abdulla Avloniy va Hamza ijodi

5.1 A.Avloniyning pedagogik faoliyati. Yangi maktablar, o‘quv jarayonlari, dars uslubi tashkil etishdagi faoliyati.

5.2 “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati.

5.3 H.H. Niyoziy ma’rifati. Uning ta’limda joriy etilgan o‘qish kitoblari mohiyati.

5.4 Hamza qalamiga mansub “Gul” turkumiga kiruvchi to‘plamlarining badiiy ahamiyati.

VI. G’afur G‘ulom va Quddus Muhammadiy ijodi

6.1 G’afur G‘ulomning bolalar uchun yozilgan she’rlarida ilgari surilgan g’oyalar.

6.2 G‘afur G‘ulomning nasriy asarlari o‘zbek bolalar adabiyotining ajoyib namunalari sifatida.

6.3 G‘afur G‘ulomning ikkinchi jahon urushi davridagi ijodi.

6.4 Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati.

6.5 Shoir she’rlardagi musiqiylik.

6.6 Q.Muhammadiy she’riyatida tabiatga munosabat; poetik obrazning o‘rni hamda ahamiyati.

VII. Zafar Diyor va Shukur Sa’dulla ijodi

7.1 Zafar Diyorning hayoti va ijodi.

7.2 Zafar Diyorning “Mashinist” dostonida ilgari surilgan g‘oyalar.

7.3 Zafar Diyorning she’riy asarlarida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning

ifodalanishi.

7.4 Shukur Sa’dulla hayoti va ijodi.

7.5 Sh.Sahdulla ijodida hayotiy voqealaming haqqoniy badiiy tasviri, janr rang-barangligi va badiiy xususiyatlari, obrazlar talqini, tarbiyaviyligi, hayotiyligi.

VIII. Sulton Jo‘ra va Hakim Nazir ijodi

8.1 Sulton Jo‘raning hayoti va ijodi.

8.2 Shoirning ilmiy-ommabop mavzulardagi she’rlarida ifodalangan g’oyalar haqida.

8.3 Sulton Jo’raning vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlari tahlili.

8.4 Hakim Nazirning hayoti va ijodi.

8.5 Hakim Nazirning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag’shlangan asarlariga xos xususiyatlar.

8.6 Hakim Nazirning mehnat, odob-axloq, vatanparvarlik mavzulariga bag’shlangan asarlarining ahamiyati haqida.

IX. Po’lat Mo‘min va Qudrat Hikmat ijodi

9.1 Po’lat Mo’minning hayoti va ijodi.

9.1 Po’lat Mo’min ijodida odob-axloq mavzusi.

9.3 Po’lat Mo‘min - qo‘shiqchi shoir.

9.4 Qudrat Hikmatning hayoti va ijodi.

9.5 Qudrat Hikmatning tinchlik va baxtli bolalik haqidagi she’rlarining o’ziga xos xususiyatlari.

9.6 Qudrat Hikmat dostonlarida ilgari surilgan g’oyalar.

X. Xudoyberdi To‘xtaboyev va Farhod Musajon ijodi.

10.1 Xudoyberdi To‘xtaboyev hayoti va ijodi.

10.2 “Sariq devni minib”, “Qasoskorning oltin boshi”, “Besh bolali yigitcha” asarlarining badiiy xususiatlari.

10.3 Farhod Musajon hayoti va ijodi.

10.4 Farhod Musajonning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan hikoyalarida ilgari surilgan g‘oyalar.

10.5 Farhod Musajon - dramaturg adib.

XI. Miraziz A’zam va Tursunboy Adashboyev ijodi

11.1 Miraziz A’zamning hayoti va ijodiy faoliyati.

11.2 M.Ahzam shehrlarida hayotga munosabat, ijtimoiy ziddiyatlarning badiiy talqini.

11.3 Adib dramalarining maktab sahnasidagi ahamiyati.

11.4 Tursunboy Adashboyev ijodida ona-tabiat va Vatan madhi.

11.5 T.Adashboyevning so'nggi yillardagi ijodiy faoliyati.

11.6 Shoirning ona-tabiat va Vatan mavzusidagi she’rlari badiiyati.

XII. Qambar Ota va Muhammad Ali ijodi

12.1 Qambar Otaning hayoti va ijodiy faoliyati.

12.2 Qambar Otaning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan she’rlarining mavzu doirasi.

12.3 Qambar Ota yaratgan doston va doston-ertaklarda ilgari surilgan g‘oyalar.

12.4 Muhammad Ali yaratgan tarixiy romanlardagi bolalar obrazlari.

12.5 Muhammad Alining ona-tabiat tasviri chizilgan asarlari.

12.6 Muhammad Alining xalq afsonalari asosida yaratgan asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar.

12.7 Muhammad Alining temuriylarga bag‘ishlab yozilgan romanlari haqida.

XIII. Anvar Obidjon va Abusaid Ko‘chimov ijodi

13.1 Anvar Obidjon ijodi o‘zbek bolalar adabiyotidagi yanigicha yo‘nalish sifatida.

13.2 Anvar Obidjon she’rlarida kitobxon ongiga ta’sir qilish emas, qalbiga yo‘l topishga bo’lgan urinishlar.

13.3 Anvar Obidjonning “Sen eshitmagan qo‘shiqlar” turkumi - o‘quvchilarning eng sevimli to‘plami.

13.4 Anvar Obidjon - ustozlar e’tirofida.

13.5 Abusaid Ko‘chimovning hayoti va ijodiy faoliyati.

13.6 Abusaid Ko'chimovning kichkintoylarga bag‘ishlangan she’larida ilgari surilgan g‘oyalar.

13.7 Abusaid Ko‘chimov ertak va dostonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.

XVI. Hamza Imomberdiyev va Abdurahmon Akbar ijodi.

14.1 Hamza Imonberdiyevning hayoti va ijodiy faoliyati.

14.2 Hamza Imonberdiyev asarlarining mavzu doirasi.

14.3 Hamza Imonberdiyevning “Adolat kaliti” ertagida ilgari surilgan g‘oyalar.

14.4 Abdurahmon Akbar ijodidagi rang-baranglik.

14.5 Abdurahmon Akbarning qofiyali nasr (saj’) shaklidagi turkumidagi she’rlarning o‘ziga xosligi.

14.6 Abdurahmon Akbarning Vatan, tabiat va bolalar o'yinlari haqidagi she’rlari haqida.

14.7 Abdurahmon Akbarning alifbo shehrlari haqida.

XV. Chet el bolalar adabiyoti

15.1 Chet el bolalar adabiyotining umumiy tahlili.

15.2 Sharl Perroning bolalar zavq oladigan ertaklariga xos xususiyatlar haqida.

15.3 Aka-uka Grimmlar yaratgan ertaklarda ilgari surilgan g'oyalar.

15.4 Aka-uka Grimmlar yozgan ertaklarda ulug'langan yoki qoralangan fazilatlar va xislatlar haqida.

15.5 Xans Kristian Andersen ijodining ko‘p qirrali va rang-barang ekanligi.

15.6 Xans Kristian Andersen asarlarida ilgari surilgan g'oyalar.

XVI. Rus yozuvchilarining bolalarga atab yozgan asarlari

16.1 Aleksandr Sergeyevich Pushkin yaratgan ertak-dostonlarda ilgari surilgan g'oyalar.

16.2 Nikolay Alekseyevich Nekrasov hayoti va ijodi.

16.3 Nikolay Alekseyevich Nekrasovning bolalarga atab yaratgan asarlarining o'ziga xos xususiyatlari.

XVII. Rus yozuvchilarining bolalarga atab yozgan asarlari (davomi)

17.1 Lev Nikolayevich Tolstoy tomonidan yaratilagan “Yangi alifbo” asari haqida.

17.2 Lev Nikolayevich Tolstoyning “Mo'ysafid olma ekdi” hikoyasida ilgari surilgan g'oyalar haqida.

17.3 Korney Ivanovich Chukovskiy ertak-dostonlarida ilgari surilgan g'oyalar.

17.4 Samuil Yakovlevich Marshak asarlariningjanr jihatdan rang-barangligi.

17.5 Samuil Yakovlevich Marshak asarlarida ilgari surilgan g'oyalar.

“Ona tili va adabiyot” fanining “Ona tili” qismi amaliy mashg'ulotlari mazmuni

1-bob. Fonetika va orfoepiva

1.1. Nutq tovushlarning tasnifi. Unli va undosh tovushlarning tasnif qilinadigan belgi-xususiyatlai bilish. Ayrim so‘z, jumla va nutqiy parchalardagi unlilarni aniqlab, ularni tilning gorizontal, vertikal harakatlariga ko‘ra hamda lablar ishtirokiga ko‘ra turlarga ajratish ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar. Berilgan so‘z, jumla va nutqiy parchalardagi undoshlarni aniqlab, ularni artikulyatsiya (hosil bo‘lish) o‘rniga, usuliga ko‘ra hamda ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra tahlil qilish yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

1.2. Nutqning fonetik bo‘linishi, Nutqiy parchalami jumla (fraza), takt (sintagma). fonetik so‘z, bo‘g‘in va tovushlarga bo‘la bilish ustida mashqlar va testlar.

1.3. So‘zlarni bo‘g‘inlarga ajrata bilish, ularning turlarini aniqlash yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

1.4. Urg‘uning fonetik tabiatini bilish. So‘zlardagi urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘inlarni aniqlash ustida mashqlar; jumlalardagi mantiqiy urg‘u olgan so‘zlarni aniqlay olish yuzasidan mashqlar. Urg‘uning ma’no ajratishdagi rolini aniqlashga oid tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

1.5. Nutq jarayonida tovushlarning kombinator va pozitsion o‘zgarishlariga doir tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

1.6. O‘zbek tilining orfoepik me’yorlari. O‘zbek tili adabiy talaffuz me’yorlarini bilish. Ayrim orfoepik me’yorlaming orfografik me’yorlarga mos kelish- kelmaslik holatlarini aniqlay bilish. Ayrim grammatik shakllarning talaffuzidagi variantlarini aniqlay bilish. Matnning fonetik tahlili. Fonetik tahlil elementlarini bilish va fonetik tahlil ko‘nikmasini hosil qilish.

2-bob. Grafika va orfografiva (imlo).

2.1. O‘zbek yozuvi tarixini, hozirgi o‘zbek alifbosini bilish: harflarning nomini, ularning ketma-ket joylashish tartibini bilish. Berilgan so‘zlarni alfavit (alifbo) tartibida yozish: berilgan matndagi so‘zlarni bosh shaklga keltirish va ularni alfavit tartibida yozib chiqish ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

2.2. Matnni imlo tomondan tahlil qilish;

a) asos va qo’shimchalar ustida ishlash;

b) ayrim harflar imlosi ustida ishlash;

d) qo‘shib, ajratib va chiziqcha bilan yoziladigan so‘zlar ustida ishlash;

e) bo‘ g‘in ko‘chirilishi va bosh harflarning yozilishi bo‘yicha tahlil qoliplari, mashqlar va testlar. Muayyan so‘zlarda orfogrammalarni topa bilish va harflarning yozilishi asosida orfografiyaning qanday tamoyillari yotganligini aniqlay bilish yuzasidan mashqlar va testlar.

3-bob. Leksikologiva. frazeologiva. leksikografiya.

3.1. Leksema, semema, sema. Bir ma’noli va ko‘p ma’noli so‘zlar. So‘zlarning bir ma’noli yoki ko‘p ma’noli ekanligini aniqlay bilish. Ko‘chma ma’noli so’zlarni aniqlash, o‘z ma’nosi (asl ma’nosi) bilan qiyoslash, ma’no kuchiga xususiyatlarini va ma’no ko’chish turlarini izohlashga doir tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

3.2. Omonimiya hodisasining mohiyatini bilish. Omonimlarni topib, ularning ma’nolarini aniqlash. Omonimiyani polisemantiizdan ajrata bilish. Omonimlar turlarini aniqlash ustida mashqlar va testlar.

3.3. Sinonimiya. Sinonimiya hodisasining mohiyatini bilish. Sinonimlarni aniqlash. Berilgan so’zlar ichidan sinonimlarni topib, sinonimiya qatorini tuzish va sinonimiya qatoridan dominantani aniqlash. Berilgan so'zlarni dominanta tarzida olib, ularning sinonimlarini keltirish ustida mashqlar va testlar.

3.4. Antonimiya. Antonimiya hodisasining mohiyatini bilish. Turli so'zlarga ularning antonimini topa bilish. Antonimlaming leksik-semantik xususiyatlarini izohlash, turlarini aniqlash ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

3.5. O'z qatlam va o'zlashgan qatlamga doir so'zlar. O‘zlashgan so‘zlarni matnlardan topa bilish va lug'atlardan ularning qaysi tillardan o‘zbek tiliga kirib kelganini (o'zlashganini) aniqlay bilish yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

3.6. Ijtimoiy-dialektal tarkibiga ko'ra o'zbek tili leksikasi. Dialektizmlar, ularning turlari; kasb-hunarga oid so'zlar; atamalar (temrinlar) va ularning qaysi sohaga oid ekanligi, jargon va argolarni aniqlash bo'yicha mashqlar va testlar,

3.7. Nofaol leksika. Berilgan matndan tarixiy so'zlar, arxaik so'zlar va neologizmlarni topa bilish, ularning ma’nolarini aniqlash va izohlash yuzasidan mashqlar va testlar.

3.8. Frazeologiya. Frazeologik iboralarning o'ziga xos xususiyatlarini bilish, frazeologizmlarning turlarini aniqlash, ularning omonimlik, sinonimlik, antonimlik xususiyatlarini izohlash bo'yicha mashqlar va testlar.

3.9. Leksikografiya, Turli lug'atlaming xususiyatlarini bilish. Lug'at tiplari: ensikiopedik (qomusiy) va lingvistik, bir tilli va ko'p tilli lug'atlardan foydalanish yuzasidan mashqlar va testlar.

4-bob. Morfemika va so'z yasalishi.

4.1. So'zning morfologik tarkibi. O'zbek tili morfem tarkibini, uning xususiyatlarini bilish, so'zlarni morfemalarga (o'zak va affikslarga), affikslarni vazifalariga ko'ra turlarga ajratish; shakldosh va ma’nodosh affikslarni ajrata bilish yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar. Affiks qo'shish bilan so'z tarkibida bo'ladigan fonetik o'zgarishlarni tahlil qila bilish.

4.2. So'zlarning tarkibiga ko'ra (morfemik) tahlili. So'z yasash usullari, matndan tub va yasama so'zlarni ajrata bilish, yasama so'zlarning yasalish usulini aniqlash yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

5-bob. Grammatika.

5.1. Berilgan matndagi so'zlarni so'z shakllari jihatdan tahlil qilish: so'zlarning sintetik, analitik, juft va takroriy, nol ko'rsatkichli shakllarini aniqlash ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

5.2. Morfemika, so'z yasalishi, grammatikaga kirish materiallari yuzasidan kollokvium o'tkazish.

6-bob. Morfologiya. So’z turkumlari. Ot.

6.1.1. So‘zlarni turkumlarga ajratish tamoyillarini bilish.

Ot - so‘zkurkumi sifatida. Otning ma’no turlari (atoqli va turdosh, aniq va mavhum, yakka va jamlovchi)ni aniqlash yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

6.1.2. Otlarda son kategoriyasi. Mazkur kategoriyaning mohiyatini bilish. Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi; ko'plik qo'shimchasining ishlatilish o'rinlari va vazifalarini belgilash ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

6.1.3. Otlarda egalik kategoriyasi. Ushbu kategoriyaning mohiyatini bilish. Otlarning egalik qo'shimchalari bilan o'zgarishi bo'yicha tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

6.1.4. Otlarda kelishik kategoriyasi. Mazkur kategoriyaning mohiyatini bilish. Otlaming kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

6.1.5. Otlarning yasalishi va tuzilish jihatdan turlari, affiksatsiya. kompozitsiya, abbreviatsiya usullari bilan yasalgan otlar: ularning sodda, qo'shma, juft, qisqartma otlar singari tuzilish jihatdan turlari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

6.1.6. Ot yuzasidan umumiy morfologik tahlil.

Sifat.

6.2.1. Sifat - so'z turkumi sifatida. Sifat darajalari va modal shakllari, ularning ma'no xususiyatlarini aniqlash ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

6.2.2. Sifatlarning yasalishi, qo'shma, juft, murakkab sifatlarning imlosi yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

6.2.3. Sifallar ustida umumiy morfologik tahlil o'tkazish.

Son.

6.3.1. Son - so'z turkumi sifatida. Sonning turlarini aniqlash, bu turlarining qanday yasalganini izohlash yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

6.3.2. Sonlarning turlanishi va numerativ so'zlar bilan qo'llanishi, juft va tarkibli sonlarning imlosi ustida mashqlar va testlar.

6.3.3. Son yuzasidan umumiy morfologik tahlil.

Olmosh.

6.4.1. Olmosh - so'z turkumi sifatida. Olmoshning ma'no turlarini aniqlash, har bir turning o'ziga xos xususiyatlarini belgilash yuzasidan mashqlar va testlar.

6.4.2. Olmoshning egalik va kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishi; juft va qo'shma olmoshlarning imlosi ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

6.4.3. Olmosh yuzasidan umumiy morfologik tahlil.

Fe'l.

6.5.1. Fe'l - so'z turkumi sifatida. Bo'lishli va bo'lishsiz, o'timli va o'timsiz fe'ilarni aniqlash yuzasidan mashqlar va testlar.

6.5.2. Fe'l nisbat (daraja)lari, ularni hosil qiluvchi affikslami aniqlash bo'yicha tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

6.5.3. Fe'l mayllari: ijro, buyruq - istak, shart (yoki shart - istak) mayllari, ularning o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

6.5.4. Fe'l zamonlari, ularning turlari, hosil boiishi yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

6.5.5. Fe'lning tuslanishi, tuslovchi affikslaming turlari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

6.5.6. Fe'lning ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllarini aniqlash, bu shakllami yasovchi affikslar, ularning imlosi ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

6.5.7. Fe'lning yasalishi, uning tuzilish jihatdan turlari, qo'shma va juft fe'llarning imlosi ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

6.5.8. Fe'l yuzasidan umumiy morfologik tahlil o'tkazish.

Ravish

6.6.1. Ravish va uning ma’no turlari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

6.6.2. Ravishning yasalishi, darajalari yuzasidan; qo'shma va juft ravishlarning imlosi bo'yicha tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

6.6.3. Ravish yuzasidan umumiy morfologik tahlil.

6.7. Mustaqil so'zlar (ot, sifat, son (olmosh, fe’l, ravish) yuzasidan umumiy morfologik tahlil o'tkazish.

6.8. Mustaqil so'zlar, ulaming turlari va o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan kollokvium o'tkazish.

Bog'lovchi, ko'makchi, yuklama.

6.9. Bo g'lovchi, ko'makchi va yuklamalarni aniqlash, ularning turlarini belgilash yuzasidan mashqlar va testlar.

Modal so‘z. undov, taqlid so'z

6.10. Modal so'z, undov va taqlid so'zlar, ularning turlari ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

6.11. So'z turkumlarini aniqlash va ularni morfologik jihatdan to'liq tahlil qilish.

7-bob. Sintaksis.

7.1. So'zlarning teng va ergash bo g'lanishi (aloqasi), ergash bo g'lanishning turlari (boshqaruv, bitishuv, moslashuv) yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

7.2. So'z birikmasi, uning turlari, birikma tarkibidagi so'zlarning o'zaro sintaktik munosabatini aniqlash ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

7.3. Gap, uning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini ajratish; gaplarning oxiriga qo'yiladigan tinish belgilari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar. Berilgan gaplarni ifoda maqsadiga ko'ra o'zgartirishga oid mashqlar va testlar.

7.4. Yig'iq va yoyiq gaplami, ikki bosh bo'lakli va bir bosh bo'lakli gaplarni aniqlash bo'yicha tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

7.5. Gapning bosh bo'laklarini aniqlash (ega va kesimni aniqlash); sodda va tarkibli kesimlar; kesimning ega bilan moslashuvi. ularning ba’zan sonda mos kelmaslik hollari; yozuvda ega bilan kesim orasida tirening ishlatilishiga ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

7.6. Ikkinchi darajali bo'lakiarni aniqlab, turlarga ajratish yuzasidan mashqlar.

7.7. To'ldiruvchi, aniqlovchi, hollarning turlari, ifodalanishi ustida tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

7.8. Gaplardagi bosh va ikkinchi darajali bo'laklarni aniqlash va ularni umumiy sintaktik tahlil qilish.

7.9. Gapning uyushiq bo'laklarini, qanday bo‘lak uyushganini aniqlash, uyushiq bo'laklarning shakllanishi, bog'lovchili, bog’lovchisiz birikkanini, umumlashtiruvchi birliklar qatnashgan holatlarni, tinish belgilarning ishlatilishini belgilash yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar o'tkazish.

7.10. Ajratilgan bo'laklar va ularning turlarini belgilash, bunday gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testiar.

7.11. Gap bo'lagi sanalmaydigan undalma, kirish so'z va kirish birikmalar hamda kiritma gaplami aniqlash. Kirish so'z va kirish birikmalarining ma’nolarini aniqlash; undalma va kiritma gaplarning qo'llanish o'rni, ularda ishlatiladigan tinish belgilari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testiar ishlash.

7.12. Bir bosh bo'lakli gap, uning turlari, bo'laklarga ajralmaydigan gap (so'z-gap), to'liq va to'liqsiz gaplami aniqlash yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testiar.

7.13. Sodda gap va so'z birikmasi yuzasidan kollokvium o'tkazish.

7.14. Sodda va qo‘shma gaplami aniqlash, ulami farqlash yuzasidan mashqlar va testlar.

7.15. Qo‘shma gap qismiari va ularning o'zaro bog'lanishi, mazmun munosabatini aniqlash yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

7.16. Bog'langan qo‘shma gap qismlarining o‘zaro bog'lanish yo'llari, ulami bog'lovchi vositalar yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testiar.

7.17. Ergashgan (ergash gapli) qo'shma gap tarkibidagi bosh va ergash gaplarni aniqlash, ergash gaplarning turini ajrata bilish yuzasidan mashqlar va testlar ishlash. Bog'langan va ergashgan qo'shma gap qismlarining bog'lanishini sxema (chizma) orqali ko'rsata bilish.

7.18. Bog'lovchisiz qo'shma gap tarkibidagi qismlaming mazmun munosabati, tinish belgilar ishlatilishini aniqlash bo'yicha tahlil qoliplari, mashqlar va testlar. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlarining bog'lanishi sxema (chizma)da ko'rsatish.

7.19. Murakkab (ko'p komponentli) qo'shma gap qismlarining o'zaro bog'lanishi, mazmun munosabatini belgilash yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar. Murakkab qo'shma gap qismlarining o'zaro bog'lanishini sxema (chizma) orqali ko'rsata bilish.

7.20. O'zga gap, uning turlari: ko'chirma gap, o'zlashtirma gaplami aniqlash; ko'chirma gapli qo'shimchalarning qismlari (ko'chirma gap va muallif - avtor gapi), ularning o'zaro bog'lanishi, joylashish o'rnini belgilash; ko'chirma gapli qurilmada tinish belgilarining ishlatilishi, ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga (va aksincha, o'zlashtirma gapni ko'chirma gapga) aylantirish yuzasidan tahlil qoliplari, tahlil qoliplari, mashqlar va testiar.

7.21. Matnni yoki tanlangan gaplarni sintaktik jihatdan to’liq tahlil qilish.

8-bob. Punktuatsiva va umumiy takror

Tinish belgilarini o'z o'rnida qo'llash qoidalarini o'zlashtirish yuzasidan

8.1. tahlil qoliplari, tahlil qoliplari, mashqlar va testiar.

8.2. Matnda yoki undan olingan parchada ishlatilgan tinish belgilarining qo'yilishi sababini aniqlash va izohlash yuzasidan tahlil qoliplari, tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

2.3. Butun kurs materiallarini o‘z ichiga olgan yalpi grammatik tahlil o'tkazish.

9-bob, Uslubiyat va uslubshunoslik.

9.1. Nutq uslublari yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

9.2. Leksik, fonetik va grammatik uslubiyat yuzasidan tahlil qoliplari, mashqlar va testlar.

“Ona tili va adabiyot” fanining “Adabiyot” qismi amaliy mashg‘ulotlari mazmuni

I. Kirish

1.1 Adabiyot (bolalar adabiyoti) fanining maqsad va vazifalari yuzasidan test topshiriqlarini bajarish, savol-javob o'tkazish.

1.2 Bolalar kitobxonligi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

II. Bolalar folklori

2.1 Bolalar adabiyoti va bolalar folklorining mumtoz adabiyot namunalari bilan bog'liqligi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits”

texnologiyasi bo'yicha ishlash.

2.2 Qo'shiq janri yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

2.3 Maqol janri yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

2.4 Topishmoq janri yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

2.5 Masal janri yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash..

2.6 Tez aytish janri yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

2.7 Ertak, adabiy ertaklar.

III.O‘zbek bolalar adabiyoti (umumiy tahlil)

3.1 O'zbek bolalar adabiyotining vujudga kelishi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

3.2 O'tgan asrning 30-40 —yillaridagi o'zbek bolalar adabiyoti yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash..

3.3 Hozirgi davrdagi o'zbek bolalar adabiyoti.

IV. Alisher Navoiy va Gulxaniy ijodi

4.1 Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumiga kiruvchi dostonlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

4.2 Alisher Navoiyning pand-nasihat mazmunidagi asarlarida ifodalangan ijtimoiy- siyosiy, axloqiy-ta’limiy qarashlar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

4.3 Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari tarkibiga kirgan masallarda ilgari surilgan g‘oyalar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

V. Abdulla Avloniy va Hamza ijodi

5.1 A.Avloniyning pedagogik faoliyat, yangi maktablar, o‘quv jarayonlari, dars uslubi tashkil etishdagi faoliyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

5.2 “Turkiy guliston yoxud axloq” asarining ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiytahlil qoliplarini bajarish,“Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

5.3 H.H. Niyoziy ma’rifati. Uning ta’limda joriy etilgan o‘qish kitoblari mohiyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiytahlil qoliplarinibajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

5.4 Hamza qalamiga mansub “Gul” turkumiga kiruvchi to‘plamlarining badiiy ahamiyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

VI. G'afur G'ulom va Quddus Muhammadiy ijodi

6.1 G‘afur G'ulomning bolalar uchun yozilgan she’rlarida ilgari surilgan

g‘oyalar yuzasidan test topshiriqlarini,adabiy tahlil qoliplarini bajarish,“Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

6.2 G‘afur G‘ulomning nasriy asarlari o'zbek bolalar adabiyotining ajoyib namunalari sifatida yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

6.3 G'afur G'ulomning ikkinchi jahon urushi davridagi ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

6.4 Quddus Muhammadiyning hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

6.5 Shoir she’rlardagi musiqiylik yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

6.6 Q.Muhammadiy she’riyatida tabiatga munosabat; poetik obrazning o‘rni hamda ahamiyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

VII. Zafar Diyor va Shukur Sa’dulla ijodi

7.1 Zafar Diyorning hayoti va ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

7.2 Zafar Diyorning “Mashinist” dostonida ilgari surilgan g‘oyalar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

7.3 Zafar Diyorning she’riy asarlarida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning ifodalanishi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

7.4 Shukur Sa’dulla hayoti va ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

7.5 Sh.Sahdulla ijodida hayotiy voqealarning haqqoniy badiiy tasviri, janr rang-barangligi va badiiy xususiyatlari, obrazlar talqini, tarbiyaviyligi, hayotiyligi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

VIII. Sulton Jo‘ra va Hakim Nazir ijodi

8.1 Sulton Jo'raning hayoti va ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

8.2 Shoirning ilmiy-ommabop mavzulardagi she’rlarida ifodalangan g‘oyalar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

8.3 Sulton Jo‘raning vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlari tahlili yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

8.4 Hakim Nazirning hayoti va ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

8.5 Hakim Nazirning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag’ishlangan asarlariga xos xususiyatlar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

8.6 Hakim Nazirning mehnat, odob-axloq, vatanparvarlik mavzulariga bag‘ishlangan asarlarining ahamiyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

IX. Po‘lat Mo‘min va Qudrat Hikmat ijodi

9.1 Po‘lat Mo‘minning hayoti va ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash

9.1 Po‘lat Mo‘min ijodida odob-axloq mavzusi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

9.3 Po'lat Mo'min - qo'shiqchi shoir yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

9.4 Qudrat Hikmatning hayoti va ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

9.5 Qudrat Hikmatning tinchlik va baxtli bolalik haqidagi she’rlarining o'ziga xos xususiyatlari yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, "Blits" texnologiyasi bo'yicha ishlash.

9.6 Qudrat Hikmat doslonlarida ilgari surilgan g'oyalar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

X. Xudoyberdi To‘xtaboev va Farhod Musajon ijodi

10.1 Xudoyberdi To'xtaboyev hayoti va ijodi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash

10.2 “Sariq devni minib”, “Qasoskoming oltin boshi”, “Besh bolali yigitcha” asarlarining badiiy xususiatlari. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash

10.3 Farhod Musajon hayoti va ijodi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash

10.4 Farhod Musajonning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag'ishlangan hikoyalarida ilgari surilgan g'oyalar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

10.5 Farhod Musajonning dramaturg sifatidagi ijodi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

XI. Miraziz A’zam va Tursunboy Adashboyev ijodi

11.1 Miraziz A’zamning hayoti va ijodiy faoliyati. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash

11.2 M.A’zam shehrlarida hayotga munosabat, ijtimoiy ziddiyatlaming badiiy talqini. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

11.3 Adib dramalariningg maktab sahnasidagi ahamiyati. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

11.4 Tursunboy Adashboev ijodida ona-tabiat va Vatan madhi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

11.5 T.Adaboshevning so'nggi yillardagi ijodiy faoliyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

11.6 Shoirning ona tabiat va Vatan mavzusidagi she’rlari badiiyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

XII. Qambar Ota va Muhammad Ali ijodi

12.1 Qambar Otaning hayoti va ijodiy faoliyati yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy

tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

12.2 Qambar Otaning maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan she’rlarining mavzu doirasi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

12.3 Qambar Ota yaratgan doston va doston-ertaklarda ilgari surilgan g‘oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

12.4 Muhammad Ali yaratgan tarixiy romanlardagi bolalar obrazlari. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

12.5 Muhammad Alining ona-tabiat tasviri chizilgan asarlari. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

12.6 Muhammad Alining xalq afsonalari asosida yaratgan asarlarida ilgari surilgan g‘oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

12.7 Muhammad Alining temuriylarga bag‘ishlab yozilgan romanlari haqida yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

XIII. Anvar Obidjon va Abusaid Ko'chimov ijodi

13.1 Anvar Obidjon ijodi o'zbek bolalar adabiyotidagi yanigicha yo'nalish sifatida.

13.2 Anvar Obidjon she’rlarida kitobxon ongiga ta’sir qilish emas, qalbiga yo‘l topishga bo'lgan urinishlar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

13.3 Anvar Obidjonning “Sen eshitmagan qo'shiqlar” turkumi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

13.4 Anvar Obidjon ustozlar e’tirofida.

13.5 Abusaid Ko'chimovning hayoti va ijodiy faoliyati. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

13.6 Abusaid Ko'chimovning kichkintoylarga bag'ishlangan she’rlarida ilgari surilgan g'oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

13.7 Abusaid Ko'chimov ertak va dostonlarining o‘ziga xos xususiyatlari. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish,“Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

XIV. Hamza Imonberdiyev va Abdurahmon Akbarning ijodi

14.1 Hamza Imonberdiyevning hayoti va ijodiy faoliyati. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

14.2 Hamza Imonberdiyev asarlarining mavzudoirasi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

14.3 Hamza Imonberdiyevning “Adolat kaliti” ertagida ilgari surilgan g‘oyalar.

14.4 Abdurahmon Akbar ijodidagi rang-baranglik. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

14.5 Abdurahmon Akbarning qofiyali nasr (saj’) shaklidagi turkumidagi she’rlaming o‘ziga xosligi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

14.6 Abdurahmon Akbarning Vatan, tabiat va bolalar o‘yinlari haqidagi she’rlari

yuzasidan test topshiriqlarini, adabiytahlilqoliplarini bajarish,“Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

14.7 Abdurahmon Akbarning alifbo shehrlari yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

XV. Chet el bolalar adabiyoti

15.1 Chet el bolalar adabiyotining umumiy tahlili, yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

15.2 Sharl Perroning bolalar zavq oladigan ertaklariga xos xususiyatlar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

15.3 Aka-uka Grimmlar yaratgan ertaklarda ilgari surilgan g'oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini,adabiy tahlil qoliplarinibajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash,

15.4 Aka-uka Grimmlar yozgan ertaklarda ulug‘langan yoki qoralangan fazilatlar va xislatlar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

15.5 Xans Kristian Andersen ijodining ko‘p qirrali va rang-barangligi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

15.6 Xans Kristian Andersen asarlarida ilgari surilgan g'oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

XVI. Rus yozuvchilarining bolalarga atab yozgan asarlari

16.1 Aleksandr Sergeyevich Pushkin yaratgan ertak-dostonlarda ilgari surilgan g‘oyalar. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

16.2 Nikolay Alekseyevich Nekrasov hayoti va ijodi. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

16.3 Nikolay Alekseyevich Nekrasovning bolalarga atab yaratgan asarlarining o'ziga xos xususiyatlari. yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo’yicha ishlash.

XVII. Rus yozuvchilarining bolalarga atab yozgan asarlari (davomi)

17.1 Lev Nikolayevich Tolstoy tomonidan yaratilagan “Yangi alifbo” asari yuzasidantest topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

17.2 Lev Nikolayevich Tolstoyning “Mo'ysafid olma ekdi” hikoyasida ilgari surilgan g'oyalar yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

17.3 Korney Ivanovich Chukovskiy ertak-dostonlarida ilgari surilgan g'oyalar. yuzasidan testtopshiriqlarini,adabiy tahlil qoliplarinibajarish, “Blits” texnologiyasi bo’yicha ishlash.

17.4 Samuil Yakovlevich Marshak asarlarining janr jihatdan rang-barangligi yuzasidan test topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarinibajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

17.5 Samuil Yakovlevich Marshak asarlarida ilgari surilgan g'oyalar. yuzasidan test

topshiriqlarini, adabiy tahlil qoliplarini bajarish, “Blits” texnologiyasi bo'yicha ishlash.

Mustaqil ta’limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talabalaming mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi shakllar tavsiya qilinadi:

- dasturda tavsiya qilingan darslik va qo'llanmalardan foydalangan holda ona tili va adabiyot fanining bo'limlarini o'rganish;
- o'zlari mustaqil izlab topgan qo'shimcha adabiyotlardan foydalangan holda ona tili va adabiyot fanining bo'limlarini o'rganish;
- badiiy adabiyotlardan ona tili bo'yicha muayyan mavzularga doir misollar ko'chirish;
- chuqur o'rganilishi talab qilinadigan mavzular yuzasidan jadvallar va slaydlar tayyorlash;
- muayyan mavzular bo'yicha mustaqil tarzda test topshiriqlarini tayyorlash;
- muayyan mavzular bo'yicha mustaqil tarzda lug'atlar tuzish;

Fan dasturining information-uslubiy ta’minoti

Didaktik vositalar

Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska -Hitachi, LCD-monitor, sistemali blok, klavatura, sichqoncha, elektron ko'rsatgich (ukaska), video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar. konipyuter va inultimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidagi proyektor, DVD- diskovod, Web-kamera, video-ko'z (glazok), planshet, plotter.

Foydalaniladigan asosiy adabiyotlar ro'yxati

Rahbariyat adabiyotlari

1. I.A. Karimov. Barkomol avlod - 0‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997-yil.
2. I.A. Karimov. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. T. Ma’naviyat, 2008

Asosiy adabiyotlar

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil. -300 bet.
2. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. Ona tilidan mashqlar to’plami. TDPU, Toshkent, 2009-yil. -240 bet.
2. Jumaboyev M. O'zbek bolalar adabiyoti. -T.: O'qituvchi, 2002, -290 bet.
3. Jumaboyev M Bolalar adabiyoti. -T.: O'qituvchi, 2011, 260 bet.

Qo‘shimcba adabiyotlar

1. H.JamoIxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006,“Universitet" nashriyoti.
3. R.Yunusov. O'zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
4. U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», Toshkent. 1992-yil.
5. Z. Masharipova. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., 2008.

Elektron ta’lim resurslari

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz
3. www. Ziyonet. uz

“ONA TILI VA ADABIYOT”

FANIDAN MA`RUZA MASHG`ULOTLARI

(Boshlang`ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish bakalavriat

ta’lim yo`nilishi 2-kurs talabalari uchun)

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar
Ta’lim sohasi: 110000 – Pedagogika
Bakalavriat yo’nalishi: 5111700 – Boshlang’ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish

Termiz-2017

SO’Z BOSHI

Ushbu ma‘ruza matni to’plami boshlang’ich sinf o’qituvchilari va oliy o’quv yurtlarning boshlang’ich ta‘lim va sport tarbiyaviy ish ta’lim yo’nalishi yo’nalishi talabalari uchun mo’ljallangan bo’lib, O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirining 2016 yil 22 yanvardagi 26-sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan namunaviy fan dasturi asosida tuzilgan.

Ma‘ruza matni o’z ichiga Ona tili va adabiyot fanining asosiy mazmunini qamrab olgan bo’lib, unda fanning nazariy asoslari, o’qitish metodlari va shakllari, nazariyaning amaliyot bilan bog’liqligi ko’rsatib berilgan.

Ma‘ruza matni quyidagi ko’rinishda tuzilgan:

1. Mavzu sarlavhasi.
2. Reja.
3. Tayanch iboralar.
4. Sinov savollari.
5. Foydalanilgan adabiyotlar.
6. Glossary.

Ma‘ruza matni bir necha mavzularni o’z ichiga qamrab olgan. Har bir mavzu so’nggida berilgan sinov savollari talabalarda bilim va o’quv ko’nikmalarini shakllantirib, mavzularni chuqur o’zlashtirishiga imkon beradi.

Ma‘ruza matni “Boshlang’ich ta’lim metodikasi” kafedrasining 2017 yil 8 sentabrdagi № -son qarorlari bilan muhokama qilingan va o’quv jarayoniga qo’llash uchun tavsiya etilgan.

1- MAVZU: MORFEMIKA VA MORFEMA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT (2 soat)

Ma`ruza mashg`uloti rejasi:

1.Morfemika haqida ma'lumot .
2.Morfema, uning turlari
3.Negiz (asos

1-ilova

So‘zning tub (lug‘aviy) ma’nosini bildirib, ma’noli bo‘laklarga bo‘linmaydigan qism **o‘zak** deyiladi: ***gul****zor,* ***bog‘****bon,* ***chiz****g‘ich,* ***paxta****kor.* Ayrim darsliklarda bunday qism **asos** deb atalgan va unga quyidagicha ta’rif berilgan: “So‘zning asosiy ma’nosini ifodalab, mustaqil qo‘llana oladigan qismi asos deyiladi (24; 17)”. O‘zak so‘zdagi ma’noli qismlarning yetakchisi bo‘lib, u boshqa ma’noli qismlarga bo‘linmaydi. O‘zak so‘z tarkibida doim qatnashadi.

Bir o‘zakdan hosil bo‘lgan so‘zlar bir xil o‘zakli **(o‘zakdosh)** so‘zlar deyiladi: ***bil****im*, ***bil****imdon*, ***bil****ag‘on*, ***bil****uvchi*. Bunday so‘zlar o‘zaro sinonim ham bo‘lishi mumkin: *ser****hosil*** – ***hosil****dor, be****g‘ubor*** – ***g‘ubor****siz,* ***til****chi* – ***til****shunos*.

2-ilova

O‘zakka qo‘shilib, turli ma’nolarni ifodaslaydigan qism **qo‘shimcha** deyiladi: *ish****chi****, baho****la****, olma****zor****, ish****la****, yoz****gi***.

Qo‘shimchalar so‘z tarkibida qatnashmasligi ham mumkin, ular ayrim qo‘llanmaydi, doim o‘zakka qo‘shilib keladi.

O‘zak va qo‘shimchalar so‘zning **ma’noli qismlari (morfemalar)dir.**

Qo‘shimchalar vazifasi va so‘zga qo‘shilib anglatadigan ma’nosiga ko‘ra uch turli bo‘ladi (Ayrim darsliklarda qo‘shimchalar ikki turga bo‘linadi: **so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalar (9; 17. 21; 18.**).

1. So‘z yasovchi qo‘shimchalar o‘zakka qo‘shilib, yangi ma’noli so‘z hosil qiladigan qo‘shimchalardir: *o‘t - o‘t****loq****, arra - arra****la****, kuch - kuch****li****, hosil -****ser****hosil*. So‘z yasovchi qo‘shimchalar:

a) unumli *(-li, -la, -chi, ser-, -dosh, -kor)*

b) unumsiz *(-vul, -ag‘on, -chil, -in, -a)* bo‘lishi mumkin.

2. **So‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar** (ayrim darsliklarda “aloqa- munosabat shakli qo‘shimchalari” deyiladi (19; 18) gapda so‘zlarni bir-biriga bog‘slaydigan qo‘shimchalardir. Bular 3 turli bo‘ladi:

1) kelishik qo‘shimchalari: *kitob****ni****, uy****ga****, daftar****ning***.

2) egalik qo‘shimchalari: *maktab****imiz****, uka****m****, bog‘****i***.

3) shaxs-son qo‘shimchalari: ye*di****k****, bordi****m****, keldi****ng****, yura****san***.

3. **Shakl yasovchi qo‘shimchalar** (ayrim darsliklarda «lug‘aviy shakl qo‘shimchalari” deyiladi (19; 19) o‘zakka qo‘shilib, ma’noni bir oz o‘zgartiradigan, qo‘shimcha ma’no orttiradigan, lekin yangi so‘z yasamaydigan qo‘shimchalardir. Bular so‘zlarni bir-biriga bog‘lash vazifasini bajarmaydi, balki ko‘plik *(kitob****lar)***, kichraytirish *(uy****cha)***, erkalash *(qiz****alo****q)*, chegaralash (*uy****gacha***), kamlik (*oqar****inqira****moq*), kuchaytirish (*tep****kila****moq, chay****qa***), gumon (*kim****dir***), daraja (*katta****roq***) kabi ma’nolarni ifodaslaydi,

O‘zbek tilida qo‘shimchalarning o‘zakka qo‘shilish tartibi, odatda, quyidagicha:

Asos + so‘z yasovchi qo‘shimchalar + lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar + so‘z o‘zgartuvchi(sintaktik shakl yasovchi) qo‘shimchalar: *kitob+xon+lar+ning.*

3- ilova

Qo‘shimchalar tuzilishiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi:

1. Sodda qo‘shimchalar boshqa qo‘shimchalarga ajralmaydi: *aql**li**.*

2. Murakkab qo‘shimchalar kamida ikkita qo‘shimchaning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi: *dehqon**chilik**, odam**garchilik**, yordam**lash**, ot**lan**, uy**dagi**, yuz**lab**, butun**lay**, ochiq**chasiga**, tort**gila**, xom**ligicha**, tep**kila**, turt**kila**, yugur**gila**moq, ez**g‘ila**moq, aka**larcha**.*

O‘zakka so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishidan hosil bo‘lgan qism **negiz** deyiladi: ***paxtakor**larga, **gulzor**da, **bilim**lilar.*

SHuni aytish kerakki, so‘zning **morfemik tarkibi** deganda uning o‘zak va qo‘shimchalardan iboratligi nazarda tutilsa, **morfologik tarkibi** deganda so‘zning negizi va shakl yasovchi, so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar nazarda tutiladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1.O‘zak morfema va affiks morfemalarning farqini bayon eting.
2.Grammatik forma(shakl)ning nimaligini, uning qanday ko‘rinishlari borligini izohlagn.
3.Affiksal morfemalarning turlarini sanang, ularning farqini tushuntiring.

MAVZU BO’YICHA TEST TOPSHIRIQLARI:

1.Xato bilimdonlikdan bilimsizlik afzal. Ushbu gapdagi bilimdonlikdan so’zidagi so’z yasovchi qo’shimchalar miqdorini aniqlang?
A) 1 B) 2 C)3 D)4
2.Dominanta so’zning xususiyatlari noto’g’ri ko’rsatilgan qatorni aniqlang?
A) Boshqalariga nisbatan ko’p ishlatiladi B) Ko’proq ilmiy uslubda bo’ladi C) Boshqasiga nisbatan erkin almashina oladi . D) Hissiy bo’yoqsiz bo’ladi.
3.Qaysi qatorda ot va sifat yasovchi shakldosh qo’shimchalar berilgan?
A) sezgi kunduzgi B) ko’chki tepki C) maqtanchoq qo’g’irchoq D) boyi qishloqi
4.Qaysi qatorda so’zning ma’noli qismlari odatdagi tartibda joylashmagan?
A) o’chirg’ichlar ni B) kitobxonlardan C) tepaliklarda D) uzumzorgacha
5.Qaysi bandda tub so’z berilgan ?
A) batafsil B) bahaybat C) badavlat D) badarg’a
6.Fe’llarning zamon, mayl va shaxs-son qo`shimchalari ..... shakllari deyiladi?
A)Vazifa B)Munosabat C)Nisbat D)Ko`makchi fe’l

4-ilova

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil

GLOSSARIY

Asos – so‘zning tub (atash) ma’nosini bildirib, mustaqil qo‘llana oladigan qismdir: paxtazor, darvozabon, aqlli, o‘yla. Asos so‘zdagi ma’noli qismlarning yetakchisi bo‘lib, u boshqa ma’noli qismlarga bo‘linmaydi. Asos so‘z tarkibida doim qatnashadi. Asosdosh so‘zlar – bir asosdan yasalgan so‘zlar: ishchi, ishla, ishchan; yo‘lak, yo‘ldosh, yo‘liq; paxtakor, paxtazor, paxtali.

Agglutinativ tillar – har bir grammatik ma’no alohida qo‘shimcha bilan ifodalanigan tillardir: maktabga – jo‘nalish ma’nosini ifodalaydi, maktablar – ko‘plik ma’nosini ifodalaydi. Bunday tillarga turkiy tillar, mo‘g‘ul, yapon, ugor-fin tillari kiradi.

Affiks – q. Qo‘shimcha.

Murakkab qo‘shimchalar – kamida ikkita qo‘shimchaning qo‘shilishidan hosil bo‘lgan, ma’lum so‘z tarkibida ajralmaydigan holatga kelib qolgan qo‘shimchalar: dehqonchilik, uydagi, ovoragarchilik, zavqlan, salomlash, do‘stlarcha, harbiychasiga, yuzlab, butunlay.

Morfemika – tilshunoslikning asos va qo‘shimchalarni o‘rganadigan bo‘limi: bilimlarga - bil – asos, -im – so‘z yasovchi qo‘shimcha, -lar – shakl yasovchi qo‘shimcha, -ga - so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimcha.

Morfologik tarkib – asos+so‘z o‘zgartuvchi va shakl yasovchi qo‘shimchadan iborat bo‘lgan tarkib: bilimdonlik+lar+i (3 ta qismdan iborat).

Morfologiya – morfe – “shakl”, logos – “ta’limot” degan ma’nolarni bildirib, grammatikaning so‘z turkumlari, so‘zning grammatik ma’nosi, grammatik shaklini o‘rganadigan qismi.

Negiz – o‘zakka so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishidan hosil bo‘lgan qism: gulzorlarda, ochiqroq, izlamoq.

Lug‘aviy shakl - ismlar guruhiga kiruvchi so‘zlarning ko‘plik, kichraytirish-erkalash va qiyoslash ma’nolarini ifodalaydigan qismidir: qushlar, kitobcha, paxtaday.

Lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar - o‘zakka qo‘shilib, uning ma’nosini bir oz o‘zgartiradigan, lekin yangi lug‘aviy ma’no hosil qilmaydigan qo‘shimchalar: kitobcha, bo‘shroq, keltir, beshta, ozgina.

Old qo‘shimchalar (prefikslar) – asosdan oldin qo‘shilib keladigan qo‘shimchalardir: bebaho, bahavo, serquyosh. Bunday qo‘shimchalar asosan sifat turkumidagi so‘zlarni hosil qiladi.

So‘z yasovchi qo‘shimchalar – o‘zakka qo‘shilib, yangi ma’noli so‘z hosil qiladigan qo‘shimchalar: sinfdosh, guldon, suvli, sezgir, oqla, ko‘pay, do‘stona, majburan.

2-MAVZU: TUB VA YASAMA SO‘ZLAR. SO‘Z YASALISHI HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT (2 soat)

Ma`ruza mashg`uloti rejasi:

1. So‘z yasalishi haqida ma’lumot .
2. Affiksatsiya usuli bilan so‘z yasalishi.
3. Kompozitsiya usuli bilan so‘z yasalishi

1-ilova

So‘z yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohalaridan biri bo‘lib, u yangi ma’noli so‘z yasalishi, so‘z yasash usullari, so‘z yasalishiga aloqador bo‘lgan hodisalarni o‘rganadi.

«So‘z yasalishi» atamasi ikki xil hodisaga nisbatan qo‘llanadi: 1) tilshunoslikning so‘z yasalishi bilan bog‘liq hodisalarni tekshiruvchi bo‘limini; 2) umuman so‘z yasalishi, so‘z hosil qilinishini bildiradi.

Nutqda so‘zlar tub yoki yasama shaklda qo‘llanadi.

YAsovchi affikslarga yoki yasovchi qismlarga ega bo‘lmagan so‘z tub so‘z deyiladi: inson, xalq, millat, suv, non, havo, yaxshi, ziyrak, xursand, besh, o‘n, yigirma, biz hamma, ba’zi, bormoq, kelmoq, o‘qimoq, sekin, birga, hozir va h.k.

Tilda mavjud usullar bilan yangi hosil qilingan so‘z yasama so‘z deb yuritiladi. Masalan, tinchlik, bog‘ bon, gulzor, jonlan, birlash, ko‘kar, sezgir, zavqli so‘zlari o‘zakka yasovchi affikslar (-lik, -bon, -zor, -lan, -lash, -ar, -gir, -li) qo‘shish usuli bilan yasalgan bo‘lsa, Dilorom, Durbek, Oqtepa, bilakuzuk, sohibjamol, sofdil, erksevar so‘zlari so‘zlarni yoki so‘z shakllarini qo‘shish, biriktirish usuli bilan hosil qilingan.

Tilda mavjud bo‘lgan so‘z (yoki so‘zlar, so‘z shakllar negizida ma’lum usullar bilan yangi ma’nodagi so‘zlarni hosil qilish so‘z yasalishi deyiladi.

O‘zbek tilida so‘z yasalishining affiksatsiya, kompozitsiya, fonetik, semantik, abbreviatsiya kabi usullari bo‘lib, shulardan affiksatsiya va kompozitsiya usullari asosiy va etakchi usullar hisoblanadi.

2- ilova

Affiksatsiya usuli. So‘zga so‘z yasovchi affiks qo‘shish bilan yangi so‘z hosil qilish affiksatsiya usuli deyiladi. Masalan, Paxtakor, sinfdosh, quvonch, do‘stlik, ochiq, tirishqoq, serjilo, ilmiy, o‘yla, kengay, shodlan, tinchi, tasodifan, oqilona, ko‘pincha, ertalab va boshqalar.

So‘z yasovchi affikslar o‘zbek tilida asosan suffiks tarzida qo‘llanib, so‘z o‘zagidan so‘ng qo‘shilib keladi. Ba’zan bunday affikslar o‘zak oldiga prefiks tarzida qo‘shilib, yangi ma’nodagi so‘z yasashi mumkin. Masalan, serhosil, serunum, badavlat, ba’mani, beminnat, beg‘araz, noo‘rin, nohaq, badfe’l, badbashara va h.k.

O‘zbek tilida so‘z yasovchi affikslardan tashqari, o‘z xususiyatlari bilan affikslarga juda yaqin turadigan xona, noma, obod kabi so‘z-affikslar ham mavjud. Bunday so‘z-affikslar tilshunoslikda affiksoidlar deb ham yuritiladi: ishxona, mehmonxona, oshxona, qabulxona, tabriknoma, Xalqobod, Yangiobod.

3-ilova

Kompozitsiya usuli. Birdan ortiq mustaqil ma’noli so‘z yoki so‘z shakllarining qo‘shiluvi, birikuvi orqali yangi so‘z yasash kompozitsiya usuli bilan so‘z yasash deyiladi. Bu usul bilan qo‘shma, ayrim juft so‘zlar hosil qilinadi. Masalan, guldasta, gultojixo‘roz, asalari, tomorqa, xushfe’l, rahmdil, olijanob, hozirjavob, havo rang, e’lon qilmoq, rad etmoq, olib kelmoq, olib chiqmoq, har gall, yonma-yon, zo‘r-bazo‘r, ketma-ket va b.

Fonetik usul. Bu usulga ko‘ra, so‘zda fonetik o‘zgarish yuz berib, yangi so‘z hosil qilinadi. Chunonchi, so‘z urg‘usining o‘rnini almashtirish natijasida boshqa-boshqa so‘z turkumiga doir so‘zlar hosil bo‘lishi mumkin: yo‘zma – fe’l, yozma’ – sifat, su’zma – fe’l, suzma’ – ot, fi’zik – ot, fizi’k – sifat, akade’mik – ot, akademi’k – sifat va b.

Semantik usul. Bu usulga binoan, so‘z ma’nosida o‘zgarish ro‘y berib, ma’nosi boshqa-boshqa, shaklan o‘xshash yangi so‘z hosil bo‘ladi: kun – sutkaning yorug‘ qismi, kun - quyosh, planeta; ko‘k – osmon, ko‘k - havorangga o‘xshash rang, bir – son, birga, birdan, birda – ravish.

Fonetik va semantik usul hozirgi o‘zbek tili nuqtai nazaridan nofaol tarixiy so‘z yasash usullari deb qaraladi.

Abbreviatsiya usuli. Bu usulga ko‘ra, bir butun holda qo‘llanadigan to‘g‘ ri ma’noli turg‘un birikmalarning qismlari har xil yo‘l bilan qisqartirilib so‘z hosil qilinadi. Bu usul rus tilidan kirgan bo‘lib, qisqartma otlar shu usulda yasaladi: BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, MDH - Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, ATS – Avtomatik telefon stantsiyasi, ToshMI – Toshkent Meditsina instituti, filfak – filologiya fakulteti, akademlitsey – akademik litsey, peduniversitet – pedagogika universiteti va b.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Kompozitsiya usuli bilan so‘z yasalishi haqida ma’lumot bering.
2. Affiksatsiya usuli bilan otlar yasalishini izohlang.
3. O‘zbek tilidagi so‘z turkumlarini sanang. Ularning o‘zaro qanday farqlanishini asoslang.
4. Sifatlarning yasalish usullarini sanang. Kompozitsiya (sintaktik) usul bilan sifat yasalishi haqida ma’lumot bering.

MAVZU BO’YICHA TEST TOPSHIRIQLARI:

1. Yasama otlar qaysi qatorda berilgan?
A) Shoir, uloq, yupanch.
B) Boylik, qo‘ltiqtayoq.
C) Komil, ishonch, harb.
D) Qo‘lqop, suvlik, otaliq.
2. Yasama so‘zlar qaysi qatorda to‘liq berilgan?
A) Achchiq-chuchuk, to‘qson.
B) Qattiq, sakson.
C) Suvli, mayli.
D) Yasha, osha, qo‘lqop.
3. Sodda yasama so’zlar berilgan qatorni aniqlang?
A) quyosh ,tosh, temir B) tun-kun issiq-sovuq, C) achchiq-chuchuk, xola-xola, mingoyoq,tog’olcha D) toshloq, tinimsiz, boylik
4. Yasama so‘zlar qaysi qatorda to‘liq berilgan?
A) Achchiq-chuchuk, to‘qson. B) Qattiq, sakson. C) Suvli, mayli. D) Suvdon, xumdon, , yasha, qo’lqop.
5. Qaysi bandda tub so’z berilgan?
A) batafsil B) bahaybat C) badavlat D) badarg’a
6. Tub so‘zni belgilang.
A) qo‘nim B) chiziq C) kesim D) so‘lim
7. Qaysi sifat ma’noli qismlarga ajralmaydi?
A) oshiq (yigit) B) yamoq (ko‘rpa). C) yetuk (olim) D) iliq (suv)

4-ilova

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.

5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.
10. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfemika. So‘z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.
11. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, ”Moliya”, 2003

GLOSSARIY

Abbreviatsiya usuli – q. Qisqartma usul.
Affiksatsiya usuli – so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida so‘z yasash: oqla, o‘tkir, zargar, eskicha.
Kompozitsiya usuli – so‘zlarni bog‘lab qo‘shish yordamida yangi so‘z yasash: guldasta, O‘rta Osiyo, ertapishar (o‘rik), havo rang, olib kelmoq, javob bermoq, bir mahal, unda-bunda, shu kuni.
Kushit guruhi - galla, somali, saho, beja tillarini o‘z ichiga olgan til guruhi.
So‘z yasalishi – turli usullar yordamida yangi so‘zlar hosil qilish: ish+la=ishla, qo‘l+qop=qo‘lqop, BMT (Birlashgan millatlar tashkiloti).
Tub so‘z - bironta usul yordamida yasalmaydigan so‘zlardir. Bunday so‘zlar tarkibiy jihatdan asos va so‘z yasovchi qo‘shimchalarga bo‘linmaydi, lekin ular tarkibida shakl yasovchi qo‘shimchalar qatnashishi mumkin: qo‘l, uylar, ukamni, qizcha.

3-4-MAVZU: GRAMMATIKA. GRAMMATIKA HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT. MORFOLOGIYA. MARFOLOGIYA HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT (4 soat)

ilova - 1

Ma’ruza rejasi:

1.Grammatika haqida ma’lumot
2 So‘zning grammatik ma’nosi va grammatik shakli
3.Grammatik ma’noni ifodalash vosita va usullari
4.Grammatik kategoriya

ilova - 2

Grammatika haqida ma’lumot

Grammatika til haqidagi fanning bir qismi bo‘lib, morfologiya va sintaksisdan iboratdir.

Morfologiya so‘zlarning grammatik ma’nolarini va shu ma’nolarni ifodalovchi grammatik shakllarni o‘rganuvchi bo‘limdir.

Morfologiya atamasi grekcha morfe (shakl) va logos (so‘z, fan) so‘zlaridan

paydo bo‘lgan.

Sintaksisda so‘z birikmalari, gap va uning turlari o‘rganiladi.

Grammatika atamasi grekcha grammatike so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, "o‘qish va yozish haqidagi bilim" degan ma’noni bildiradi.

Grammatika

Grammatika – tilning grammatik qurilishini o‘rganuvchi tilshunoslikning bo‘limi. Grammatika so‘zlarning gapda o‘zgarishi va ularning o‘zaro birikib, so‘z birikmasi, gap hosil qilishi haqidagi qoidalar to‘plamidir.

Grammatika ikki qismdan: morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiyada so‘z turkumlari va ularga xos bo‘lgan shakllar haqida baxs yuritilsa, sintaksisda so‘zlarning bir-biri bilan bog‘lanib, gap, so‘z birikmasi hosil qilishi tekshiriladi.

Ko‘rinadiki, grammatika ham leksikologiya singari so‘zni o‘rganadi. Ammo leksikologiya leksik so‘zni – leksemani o‘rgansa, grammatika grammatik so‘zni – so‘zning shaklini, so‘z shaklini tekshiradi.

So‘z shakl va grammatik ma’no

Leksik so‘z yoki leksema ma’no va ifoda birligidan iborat bo‘lganidek («kitob» leksemasining ma’nosi, yoki mazmun plani - «o‘qish quroli» tushunchasini anglatishi, ifodasi yoki ifoda plani k, i, t, o, b tovushlaridan tashkil topishidir), grammatik so‘z, yoki so‘z shakl ham grammatik ma’no ham grammatik ifoda (shakl) birliogidan iboratdir. Jumladan, kitob so‘zi «o‘qish quroli» tushunchasidan tashqari ot, birlik son, bosh kelishik tushunchalarini ham bildiradi. Bunda kitob so‘zining «o‘qish quroli» tushunchasini ifodalashi uning leksik ma’nosi sanaladi va shu so‘zning otga mansubligi, birlik son va bosh kelishikda ekani uning grammatik ma’nosidir.

So‘zning grammatik ma’nosi uning leksik ma’nosi bilan belgilanmaydi. Masalan, suv, havo, shamol, bulut kabi so‘zlarning leksik ma’nolari turlicha, lekin grammatik ma’nolari bir xil, ya’ni bularning barchasi birlik, bosh kelishikdagi otlardir. Aksincha, birgina leksik so‘z, leksema, ma’lum leksik ma’no anglatgani holda turli shakllarda qo‘llanib, har xil grammatik ma’noni ifodalashi mumkin. Masalan, o‘qimoq fe’lining tuslanishli shakllari turli grammatik ma’nolarni bildiradi: o‘qiyapman so‘z shakli hozirgi zamon davom fe’lining I shaxs birlik ma’nosini, o‘qiyapsan so‘z shakli hozirgi zamon davom fe’lining II shaxs birlik ma’nosini va h.k.

Demak, so‘zning ma’lum turkumga mansubligini ko‘rsatuvchi, so‘zning ma’lum bir grammatik shaklini ifodalaydigan ma’no grammatik ma’no hisoblanadi. Ko‘rinadiki, grammatik ma’no o‘z xususiyatiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: 1) ma’lum bir so‘z turkumi uchun umumiy bo‘lgan ma’no, ya’ni kategorial grammatik ma’no; 2) xususiy grammatik ma’no so‘zining kategorial grammatik ma’nosi ma’lum so‘z turkumlari uchun xos bo‘lgan umumiy grammatik ma’nolardir. Masalan, non, suv, uy, dala so‘zlarining har biriga xos bo‘lgan ma’no – leksik ma’no. Ammo ularning barchasi uchun umumiy bo‘lgan ma’no ya’ni predmet ma’nosi grammatik ma’nodir. Ayni shu umumiy grammatik ma’no ularni bir turkumga, ya’ni ot turkumiga birlashtiradi. SHuningdek, chiroyli, dono, fozil, kamtarin so‘zlari uchun umumiy bo‘lgan belgi ma’nosi va o‘qi, o‘rgan, mehnat qil, bor, kel so‘zlari uchun umumiy bo‘lgan harakat ma’nosi kategorial grammatik ma’no sanaladi.

So‘zning xususiy grammatik ma’nosi ma’lum bir so‘z turkumi uchun mansub bo‘lib, bunday ma’noga otlarga xos bo‘lgan son, egalik, kelishik ma’nolari, fe’llarga xos bo‘lgan nisbat, mayl, zamon, shaxs-son, bo‘lishli – bo‘lishsizlik kabi ma’nolar kiradi.

Grammatik ma’noni ifodalash vosita va usullari.

O‘zbek tilida grammatik ma’no quyidagi vosita va usullar bilan ifodalanadi:

1. Affiksatsiya. Bunda grammatik ma’no so‘zning negiziga turli shakl yasovchi affikslarni qo‘shish bilan ifodalanadi: maktablar, maktabga, oddiyroq, ishlandi va h.k.

2. Yordamchi so‘zlardan foydalanish. Mustaqil ma’noli so‘zlar yordamchi so‘zlar orqali grammatik ma’noga ega bo‘lishi mumkin: daraxt mevasi bilan ko‘rkam, odam - mehnati bilan. (maqol)

3. Takrorlash. So‘zlarni takrorlash ham grammatik ma’noni ifodalashga xizmat qiladi: dasta-dasta gul, xirmon-xirmon paxta kabi. Bunda dasta, xirmon so‘zlarini takrorlash bilan ko‘plik, mo‘llik ma’nosi ifodalangan.

4. Suppletivizm. Bu - o‘zaro bog‘langan, ma’lum bir tizimni tashkil qilgan grammatik ma’nolarni ifodalash uchun alohida-alohida so‘zdan foydalanish usuli. Masalan, o‘zbek tilida bir grammatik tizimni hosil qiladigan I va II shaxs kishilik olmoshlarining birligi men va sen so‘zlari orqali, ko‘pligi biz va siz so‘zlaori orqali ifodalanadi.

5. Urg‘u. so‘zining grammatik ma’nosini ifoda qilish uchun xizmat qilishi mumkin: akade’mik (ot), - akademi’k (sifat), yangi’ (sifat) – ya’ngi (ravish), terma’ (sifat) – te’rma (fe’l)ning bo‘lishsiz shakli.

6. So‘z tartibi. So‘zlarning gapda oldinma-keyin kelish ham ba’zan grammatik ma’no ifodalashga yordam beradi. Masalan: 1. Ajoyib odamlar. 2. Odamlar ajoyib. Birinchi gapda ajoyib so‘zi otdan oldin kelib sifatlovchi vazifasini, ikkinchi gapda ushbu so‘z otdan keyin kelib kesim vazifasini bajargan.

7. Intonatsiya ham grammatik ma’no ifodalashda katta ahamiyatga ega. Bunda grammatik ma’no so‘zlarning gap sifatida shakllanishi bilan bog‘liq. Masalan: Hamma keldi. (Darak gap) - Hamma keldi? (so‘roq gap) - Hamma keldi! (undov gap).

So‘zning grammatik shakli.

So‘zning biror grammatik ma’no ifodalaydigan ko‘rinishi uning grammatik shakli deyiladi. Grammatik shakl grammatik ma’noni ifodalashning eng zaruriy sharti, tilda ular biri ikkinchisiz mavjud bo‘lmaydi. Masalan, otlardagi ko‘plik ma’nosi –lar affiksli shakl orqali ifodalanadi: gullar; tushum kelishigi ma’nosini –ni affiksli shakl ko‘rsatadi va h.k.

O‘zbek tilida so‘zlar bir grammatik ko‘rsatkichli, ko‘p grammatik ko‘rsatkichli yoki grammatik ko‘rsatkichsiz shaklda bo‘lishi mumkin. Masalan: mamlakat – grammatik ko‘rsatkichsiz so‘z shakli; mamlakatlari – bir grammatik ko‘rsatkichli so‘z shakli; mamlakatlarida – ko‘p grammatik ko‘rsatkichli so‘z shakl.

Hozirgi o‘zbek tilida so‘zlarning grammatik shakllari affikslar, yordamchi so‘zlar vositasida, so‘zlarni juftlash yoki takrorlash orqali hosil qilinadi. SHunga ko‘ra so‘zlarning quyidagi grammatik shakllari farqlanadi:

1. Sintetik shakl. Bu shakl shakl yasovchi affikslar vositasida hosil bo‘ladi: kitobning, kitobni, kitobga, kitobda; o‘qimoqdaman, o‘qimoqdasan, o‘qimoqdamiz, o‘qimoqdasiz kabi.

2. Analitik shakl. Mazkur shakl yordamchi so‘zlar orqali yuzaga keladi: bolalar uchun, zavq bilan, o‘qib tur, o‘qib ko‘r kabi.

3. Juft va takroriy shakl. Ikki so‘zni juftlash yoki bir so‘zni takrorlash bilan ham grammatik shakl yasaladiki, bunday shakl juft va takroriy shakl deb yuritiladi: tog‘-tosh, katta-kichik juft shakli umumlashtirish ma’nosini, savat-savat (non), tog‘-tog‘ (paxta) takrorlash shakli ko‘plik, mo‘llik ma’nosini ifodalaydi, katta-katta, tez-tez takroriy shakl ma’noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Demak, so‘zning u yoki bu shakli maxsus vosita va usullar yordamida yuzaga keladi. Ammo o‘zbek tilida so‘zlarning maxsus grammatik ko‘rsatkichga ega bo‘lmagan shakllari ham mavjud. Masalan:

institutlar – institut Ø (birlik son);
institutda – institut Ø (bosh kelishik);
ishlama – ishla Ø (bo‘lishli fe’l shakli) kabi.

So‘zning shakllari tizimida ko‘rsatkichga ega bo‘lmagan so‘zning maxsus ko‘rinishi nol ko‘rsatkichli (Ø ko‘rsatkichli) shakl deb yuritiladi. So‘zning bunday ko‘rinishi so‘z shakllari tizimida belgilanadi.

So‘zning grammatik shakllari tizimi paradigma (yunoncha paradeima – «namuna») deyiladi.

Paradigma o‘z xususiyatiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: 1) xususiy paradigma, 2) to‘liq paradigma.

Bir turkumga oid so‘zning muayyan shakllari tizimi xususiy paradigmani yuzaga keltiradi. Masalan, otlardagi son paradigmasi (kitob-kitoblar), otlardagi kelishik paradigmasi (kitob-kitobning-kitobni-kitobga-kitobda-kitobdan) va boshqalar xususiy paradigmalar hisoblanadi.

Bir turkumga xos xususiy paradigmalar yig‘indisi to‘liq paradigmani hosil qiladi. Masalan, otga xos to‘liq paradigma: kitob-kitoblar-kitob-kitobning-kitobni-kitobga-kitobda-kitobdan-kitobim-kitobing-kitobi-kitobimiz-kitobingiz...

Grammatik kategoriya

Bir-biriga qiyosan olinadigan ikki yoki undan ortiq grammatik ma’no bilan shu ma’noni ifodalovchi grammatik shakllar tizimi grammatik kategoriya deyiladi.

Grammatik kategoriya so‘zlarni, so‘z shakllarni, so‘z o‘rinlarini, so‘z qurilmalarini birlashtiradi, umumlashtiradi. SHunga ko‘ra grammatik kategoriyalarning to‘rt turi farqlanadi: 1) so‘zning grammatik kategoriyalar; 2) so‘z shakllarning grammatik kategoriyalari; 3) so‘z o‘rinlarining grammatik kategoriyalari; 4) so‘z qurilmalarining grammatik kategoriyalari.

So‘z va so‘z shakllarning grammatik kategoriyalari tizimi tilning morfologiyasini tashkil etsa, so‘z o‘rinlari va so‘z qurilmalarining grammatik kategoriyalari tizimi tilning sintaksisini tashkil etadi.

Demak, grammatik kategoriyalarni morfologik kategoriyalarga va sintaktik kategoriyalarga ajratish mumkin.

Morfologik grammatik kategoriyalarga, birinchidan, so‘z turkumlarining o‘zi, ya’ni ot, sifat, son, fe’l kabilar kirsa, ikkinchidan, ma’lum bir turkumga xos bo‘lgan kategoriyalar, ya’ni otlarga xos bo‘lgan son, egalik, kelishik kategoriyalari, fe’llarga xos bo‘lgan bo‘lishli-bo‘lishsizlik, nisbat, mayli, zamon, shaxs-son kategoriyalari kiradi.

Sintaktik grammatik kategoriyalar deyilganda, gap, gap bo‘laklari: ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol kabilar nazarda tutiladi.

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.
10. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfemika. So‘z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.
11. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, ”Moliya”, 2003

ilova -1

DASTURLASHTIRILGAN TOPSHIRIQ SAVOLLARI:

1.”Grammatika” va “morfologiya” so‘zlarining ma’nolarini izohlang.
2. So‘zlar qaysi tamoyillar asosida turkumlarga ajratiladi?
3. So‘z turkumi deganda nimani tushunasiz?
4. Mustaqil so‘zlarning xususiyatlari va turlari haqida gapiring
5. So‘z turkumini o‘rganishning ta’limiy va amaliy ahamiyati nimada?

(ilova 2)

Ma’ruza rejasi:

1. Morfologiya haqida umumiy ma’lumot.
2. O‘zbek tilida so‘z turkumlari va ularni ajratish tamoyillari haqida umumiy ma’lumot.
3. Mustaqil so‘zlarning xususiyatlari va turlari.
4. Yordamchi so‘zlarning xususiyatlari va turlari.
5. Alohida olingan so‘zlarning xususiyatlari va turlari haqida u ma’lumot.

1-slayd

MORFOLOGIYA

Morfologiya **(**m o r p h e va l o g o s – "shakl haqidagi fan") – grammatikaning so‘z turkumi, unga xos grammatik kategoriya va grammatik shakl, bu shaklni hosil qilish yo‘li va vositasini o‘rganuvchi tarkibiy qismi.

Morfologiyaning obyekti, asosan, so‘zning shakl yasalishi masalasi. So‘zning shakl yasovchi qo‘shimcha va nomustaqil so‘zni olishi shakl yasalishi, o‘zgarishi deyiladi. Mas., *kitob, kitobning, kitobni, kitobga, kitobda, kitobdan, kitob uchun, kitob bilan* so‘zlari *kitob* so‘zining kelishik qo‘shimchasi va ko‘makchi asosidagi o‘zgarishi.

Morfologiya grammatikaning tarkibiy qismi bo‘lib, uning vazifalari xilma-xildir. U avvalo so‘zlarning tuzilishi va gapda o‘zgarishini o‘rganadi. Morfologiya so‘zlarning muayyan turkumlarga ajratilishi bilan bog‘liq. Bu hodisa morfologik kategoriyalarni vujudga keltiradi. Shunga ko‘ra so‘z turkumlari va ularning xususiyatlarini tekshirish morfologiyaning muhim vazifalaridan biridir. Birinchidan, so‘zlar lug‘aviy ma’no bilan birgalikda turli grammatik ma’nolarni bildiradi. Grammatik ma’nolarni ifodalashga ko‘ra so‘zlar har xil shakllarda ham bo‘ladi. So‘zlardagi bunday shakllarni ham morfologiya o‘rganadi. Masalan: do‘stlarimiz so‘zidagi do‘st so‘zining lug‘aviy ma’noli shakli, -lar ko‘plik ma’noli, -imiz egalik ma’noli shakllaridir.

Morfologiya atamasining morfe - «shakl», logos - «so‘z» ekanligi ham uning so‘z shakllari haqidagi ta’limot ekanligini ko‘rsatadi.

Xullas, til sathi sifatida morfologiya nisbatan qamrovdor bo‘lib, so‘z shakllari, so‘zlarning tuzilishi va gapdagi o‘zgarishi, so‘z turkumlari, ularning qonuniyatlarini o‘rganuvchi ta’limotdir.

So‘z shakllari. So‘z shakllari hodisasi tilshunoslikdagi o‘ziga xos hodisalardan biridir. Unda ma’lum so‘zning lug‘aviy ma’nosini saqlagan holda turli shakllarda qo‘llanilishi tushuniladi. Masalan: kitob, kitobni, kitobdan, kitobimiz, kitobingiz.

So‘z shakllarining o‘zgarishi dastlab shu so‘zning lug‘aviy ma’nosiga daxldor bo‘lib, uning qaysi turkumga mansubligini belgilaydi va shu turkumga xos vositalar asosida o‘z shaklini o‘zgartiradi. Masalan: daraxt, odam, gul so‘zlari ot turkumiga xos, bu so‘zlar o‘z shaklini otga xos bo‘lgan kelishik, egalik, ko‘plik qo‘shim-chalarini olgan holda o‘zgartiradi: daraxtning, daraxtim, daraxtlar, Sifat turkumiga xos so‘zlar esa shu turkumga xos daraja hosil qiluvchi vositalarni qabul qilgan holda o‘z shaklini o‘zgartiradi. Masalan: qizil-qizg‘ish, qizilroq, juda qizil. So‘z shakllarining o‘zga-rishidagi bu holat belgilangan, turg‘un holat emas. So‘z shakllarini o‘zgarishi uchun asos bo‘ladigan qo‘shimchalar, so‘zlarni muayyan turkumga taalluqli ekanligini belgilashda muhim bo‘lsada, boshqa turkumga xos qo‘shimchalarni, ayniqsa, otlardagi kelishik, egalik, ba’zan ko‘plik qo‘shimchalarini boshqa turkumdagi so‘zlar olgan holda o‘z shaklini o‘zgartiradi. Masalan: kattaning, kattalar, mening, ko‘pning, ko‘plik va hokazo. So‘z shakllarini o‘zgarishi ikki holatni vujudga keltiradi. Birinchidan, so‘z shakli o‘zgarganda, so‘zdagi asosiy ma’noga qo‘shimcha ravishda grammatik ma’no ifodalaydi. Masalan: bolalar so‘zidagi-lar qo‘shimchasi orkali ifodalangan ma’no ko‘plik ma’nosidir.

Ikkinchidan, so‘z shaklining o‘zgarishi gapda so‘zlarning o‘zaro birikishini, bog‘lanishini ta’minlaydi: ishdan kelmoq birikmasidagi -dan qo‘shimchasi so‘zlarni biriktirish vazifasini bajargan.

Ko‘rinadiki, so‘z shakllarining o‘zgarishi natijasida morfologik shakl va sintaktik shakl vujudga keladi. Morfologik shakl shakl yasovchi qo‘shimchalar yordamida, sintaktik shakl esa so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar orqali hosil bo‘ladi. Bundan tashqari tilda so‘z yasalishi uchun xizmat qiiladigan so‘z yasovchi qo‘o‘shimchala ham mavjud bo‘lib, ular bir butun holda so‘zning morfologik tuzilishini belgilaydi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Grammatikaning tarkibiy qismlari haqida gapiring. Uning o'rganish obyekti nimalardan iborat.
2. Grammatika va milliy mafkura mutanosibligi haqida fikr bildiring.
3. An'anaviy va zotiy yondashuvda grammatikaga qarash. Ularning farqli va o'xshash tomonlari.
4. Morfologiya va sintaksis sathlarining bog'ligini misollar asosida ko'rsatib bering.
5. Morfemika-morfonologiya fanining o'rganish obyekti haqida gapiring.

MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI:

1. So'zlarning grammatik tuzilishi va o'zgarishi tilshunoslikning qaysi bo'limida o'rganiladi?

A) leksikologiya B) orfografiya C) morfologiya D) sintaksis

2. Morfologiya so'zning qaysi tomonini tekshiradi?

A) so'zning lug'aviy ma'nosini B) so'zning grammatik shaklini C) so'zning grammatik ma'nosini D) B va C

3. Qaysi qatordagi so'z grammatik jihatdan shakllangan?

A) o'qiyapsan B)bog' tomon C) asta-sekin D) A,B,C

4. Qaysi so'z turkumlari grammatik ma'nolar ifodalashga xizmat qiladi?

A) kesim vazifasida kela oladigan barcha so'z turkumlar

B) barcha mustaqil so'z turkumlar C) barcha yordamchi so'zlar D) barcha so'z turkumlari

5. So'zlarni turkumlarga ajratishda qaysi xususiyatlar hisobga olinadi?

A) so'zning ma'nosi B) so'zning ba'zi morfologik xususiyatlari C) so'zning sintaktik vazifasi D) A,B,C.

6. Borliqdagi narsa, belgi, harakat kabilarni bildirish-bildirmasligiga ko'ra so'zlar qanday turlarga bo'linadi?

A) atoqli otlar va turdosh otlar B) mavhum otlar va aniq otlar C) mustaqil so'zlar va mustaqil bo'lmagan so'zlar D) narsa bildiruvchi, belgi bildiruvchi va harakat bildiruvchi so'zlar

7. Qaysi vositalar grammatik ma'no ifodalovchi hisoblanmaydi?

A) so'z yasovchi qo'shimchalar B)shakl yasovchi qo'shimchalar

C) so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar D) takrorlar

GLOSSARIY

Grammatika – "grammatike" – "o'qish va yozish haqidagi bilim" degan ma'noni bildirib, tilning grammatik qurilishini o'rganadigan bo'lim.

Grammatikaning tarkibiy qismlari - Grammatika deganda tor ma'noda morfologiya va sintaksis yaxlitligi, keng ma'noda tilning barcha qurilish sathlari tushuniladi. Aytilganidek, grammatika tilning so'z o'zgartish va so'z biriktirish qoidalari haqida bo'lib, bunda so'z o'zgartish doirasida so'z shakllari, so'z shakllarini hosil qiluvchi grammatik kategoriyalar va o'zgarishi asosida farqlanuvchi so'zlarning grammatik guruhlari - so'z turkumlari hamda bu hodisalarning mahsuli bo'lmish so'z birikmasi va gaplar bir vujudning ikki tomoni sifatida ajraladi. Bu o'z-o'zidan ularni o'rganuvchi ikki soha –morfologiya va sintaksisni farqlashni ham taqozo qiladi.

Grammatik ma’no – lug‘aviy ma’no ustiga qo‘shilib, so‘zning shakliy qismi orqali ifodalangan va uning ma’lum turkumga mansubligini, gapda qanday vazifa bajarishini ko‘rsatuvchi ma’no. Kitob o‘qildi gapidagi kitob so‘zining grammatik ma’nolari quyidagicha: ot, turdosh ot, bosh kelishikda, birlikda, tub(yasalmagan), gapda ega vazifasini bajargan. Grammatik ma’no qo‘shimchalar (uyga, bolalar), yordamchi so‘zlar (qalam bilan yozmoq), so‘z tartibi (baland bino – Bino baland), ohang (Ish tugadi. Ish tugadi? Ish tugadi!), so‘zlarni juftlash yoki takrorlash orqali (idish-tovoq, tez-tez yurmoq), urg‘u (olm – meva, lma - harakat) yordamida ifodalanadi.

Mustaqil so‘z turkumlari - lug‘aviy ma’noga ega bo‘lib (ya’ni, savolga javob bo‘ladigan), morfologik jihatdan o‘zgaradigan (ya’ni, qo‘shimcha qabul qiladigan), gap ichida ma’lum gap bo‘lagi bo‘lib kela oladigan so‘zlar: ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish.

So‘z tarkibi – so‘zning ma’noli qismlari, ya’ni asos va qo‘shimchalar yig‘indisidan iborat: gul+don+lar+ga.

5-MAVZU: ONA TILIDA SO‘Z TURKUMLARI VA ULARNI AJRATISH TAMOYILLARI HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT (2 soat)

ilova -1

Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:

1 So‘zlar qaysi tamoyillar asosida turkumlarga ajratiladi?
3. So‘z turkumi deganda nimani tushunasiz?
4. Mustaqil so‘zlarning xususiyatlari va turlari haqida gapiring
5. So‘z turkumini o‘rganishning ta’limiy va amaliy ahamiyati nimada?

Ma’ruza rejasi:

5. O‘zbek tilida so‘z turkumlari va ularni ajratish tamoyillari haqida umumiy ma’lumot.
6. Mustaqil so‘zlarning xususiyatlari va turlari.
7. Yordamchi so‘zlarning xususiyatlari va turlari.

5.Alohida olingan so‘zlarning xususiyatlari va turlari haqida u ma’lumot.

ilova - 2

So‘z turkumlari

Ma’lumki, har qanday fan tabiat va jamiyatda mavjud bo‘lgan turli narsa va hodisalarni, inson bilan bog‘liq xususiyatlarni o‘rganadi. Ularni o‘rganish esa mavjud bo‘lgan narsa, xususiyat va hodisalarni to‘plamlarga bo‘lishdan boshlanadi: “O‘rganish uchun olingan turli narsa, voqea-hodisalar yig‘indisi to‘plam deyiladi. To‘plamni o‘xshash va farqli belgilar asosida ichki guruhlarga bo‘lish tasnif hisoblanadi(24; 26)”. Tildagi so‘zlarning umumiy grammatik ma’no va vazifalariga ko‘ra ma’lum guruhlarga bo‘linishi so‘z turkumlari deb yuritiladi. So‘zlarni turkumlarga ajratish juda qadimdan boshlangan. Qadimgi hindlar turkumlarni uchga ajratishgan: otlar, fe’llar, yordamchilar. Arablar ham uchta turkumni farqlashgan: ismlar, fe’llar, yordamchilar. Qadimgi yunonlar, jumladan, Arastu fe’l va yordamchilarni ajratgan holda ismlar ichidan sifatlar, sonlar va olmoshlarni farqlaganlar (demak, oltita turkumni farqlashgan). G‘arb va rus tilshunoslari mustaqil so‘z turkumarini oltitaga ajratadilar: ot, sifat, son, olmosh, fe’l va ravish. Rus tilshunoslari ot, sifat, son va olmoshni ism bildiruvchi so‘zlar sifatida ajratadilar. Turkiy tilshunoslikda ham qadimdan ot, sifat, son va olmoshlarni ajratishgan.

Ma’lumki, ot, sifat, son va olmoshlar egalik, kelishik va ko‘plik shakllari bilan o‘zgaradi. Egalik va kelishik shakllari bu turkumlarni, shuningdek, harakat nomi, sifatdosh va taqlid so‘zlarni ham o‘zgartirishi mumkin. Shu sababli egalik, kelishik va ko‘plik shakllari bilan o‘zgaradigan barcha turkumlarni bitta umumiy nom – ismlar deb birlashtirish mumkin.

So‘z turkumlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1. Mustaqil so‘z turkumlari lug‘aviy ma’noga ega bo‘lib, morfologik jihatdan o‘zgaradigan, gap ichida ma’lum bir gap bo‘lagi bo‘lib keladigan yoki undalma vazifasini bajaradigan so‘zlardir. Bu guruhga ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish kiradi.

2. Yordamchi so‘zlar yakka holda ma’no anglatmaydigan, gap bo‘lagi bo‘la olmaydigan, grammatik ma’nolarni ifodalashgagina xizmat qiladigan so‘zlardir. Ular mustaqil so‘zlar va ayrim gaplar orasidagi munosabatni anglatishga xizmat qiladi, so‘zga va gapning mazmuniga turli qo‘shimcha ma’nolar qo‘shadi. Yordamchi so‘zlarga ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama kiradi.

3. Alohida olingan guruh so‘zlar lug‘aviy ma’no bildirmaydigan, lekin ba’zan gap bo‘lagi vazifasini bajaradigan so‘zlardir. Bularga modal so‘zlar, undov so‘zlar, taqlid so‘zlar kiradi.

ilova - 3

Blits -o‘yini

№	*Savollar*	*Sizning harakatingiz*
1	Otni, ishning, bordim so‘zlar qaysi grammatik ma’no qo‘shimchalar bilan ifodalangan?	Ohang, urg‘u, qo‘shimchalar yordamida
2	Grammatika nimalardan iborat?	Fonetika, orfoepiya, morfologiya, sintaksis
3	Morfologiyada so‘zning qaysi ma’nosi o‘rganiladi ?	Atash ma’nosi, leksik ma’nosi, ko‘chma ma’nosi, gramatik ma’nosi
4	Grammatikani o‘rganishning amaliy ahamiyati	Taqqoslash
5	Qaysi juft so‘zlar butun va bo‘lak munosabatidagi so‘zlardan tashkil topgan?	Oy-kun, qozon-tovoq, tog‘-tosh, gap-so‘z
6	Qaysi qatorda takroriy so‘zlar bor?	Qo‘zichoqlar toshdan toshga sakraydi. Yaxshi, yaxshi ashulachisi bormi? Karima hola aghchiq-achchiq yig‘ladi. U tishini tishiga qo‘yib jim turdi .

So‘z turkumlari

Nutqimizda mavjud so‘zlar bir-biridan ma’no va grammatik xususiyatlari jihatidan farq qiladi. SHu jihatdan so‘zlar ayrim-ayrim leksik-grammatik guruhlarga, turkumlarga ajratiladi. So‘zlarning ma’no va grammatik belgilarining o‘xshashligiga qarab guruhlarga bo‘linishi so‘z turkumlari deyiladi. So‘zlarni turkumlarga ajratish uch tamoyilga tayanadi:

1) leksik-semantik tamoyil;
2) morfologik tamoyil;
3) sintaktik tamoyil.

Leksik-semantik tamoyilga koʻra soʻzlarni guruhlarga ajratishda, soʻzning leksik maʼnosiga eʼtibor beriladi. Masalan: tuz, non, tinchlik, daryo, togʻ, osmon kabi soʻzlar predmet yoki predmetlik tushunchasini (bunday soʻzlar ot soʻz turkumi deb nomlangan); katta koʻcha, shirin olma, tiniq osmon, koʻk koʻylak kabi ajratilgan soʻzlar predmetning belgisini (bunday soʻzlar sifat deb nomlangan), beshta daftar, yuzlab odam, oʻntadan oʻquvchi, ikkinchi kurs kabilarda ajratilgan soʻzlar predmetning miqdorini, tartibini (bunday soʻzlar son deb nomlangan); ayrim soʻzlar bormoq, kelmoq, yozmoq, kulmoq, uxlamoq kabi harakat va holat tushunchasini (bunday soʻzlar feʼl deb nomlangan); asta oʻqidi, doʻstona gapirdi, piyoda yurdi kabi ajratilgan soʻzlar esa ish-harakatning belgisini (bunday soʻzlar ravish deb nomlangan) bildiradi.

CHunonchi, ayrim soʻzlar predmet, belgi, miqdor maʼnosini nomlab koʻrsatmasa ham, ularning mavjudligiga ishora qiladi: men, sen, bu, shu, qancha, har kim, qandaydir kabi (bunday soʻzlar olmosh deb nomlangan).

Tilda shunday soʻzlar ham (bilan, va, ammo, uchun, chunki, albatta, yoʻq, -mi, -chi, eh, oh, dupur-dupur, yalt-yult kabi) borki, ular mustaqil holda leksik maʼno ifoda etmaydi, biror tushunchaning atamasi boʻla olmaydi. Bunday soʻzlar hozirgi oʻzbek tilida koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, modal, undov, taqlid soʻzlar deb yuritiladi.

Morfologik tamoyilga koʻra soʻzlarni guruhlarga ajratishda ularning morfologik xususiyatlari asos qilib olinadi. Soʻzlarning qanday morfologik shaklda kelishi uning maʼno xususiyati bilan bogʻliq. Masalan: predmet tushunchasini anglatadigan soʻzlar (otlar) son, egalik, kelishik kabi grammatik shakllarga; predmetning, ish-harakatning belgisini bildiradigan soʻzlar (sifat va ravishlar) daraja shakliga; harakat yoki holat maʼnosini bildirgan soʻzlar (feʼl) nisbat, zamon, shaxs-son, mayl kabi grammatik shakllarga ega.

Predmet yoki shaxsga ishora qiluvchi soʻzlar (olmosh) ham morfologik jihatdan oʻzgarib, son, egalik, kelishik shaklida kela oladi.

Predmetning miqdori va tartibini anglatuvchi soʻzlar (son) morfologik jihatdan oʻzgarmaydi. SHuningdek, leksik maʼno anglatmaydigan soʻzlar (koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama, modal soʻz, undov va taqlid soʻzlar) ham morfologik shakllarga ega emas.

Sintaktik tamoyilga koʻra soʻzlarni guruhlarga ajratish esa uning sintaktik tomoni, yaʼni qanday soʻzlar bilan grammatik munosabatga kirishi, gapda bajaradigan sintaktik vazifasiga koʻra belgilanadi. Masalan: predmet maʼnosini anglatuvchi soʻzlar (ot) bosh kelishik shaklida ega va kesim vazifasini, qaratqich kelishigi shaklida aniqlovchi, tushum, joʻnalish, oʻrin-payt, chiqish kelishigi shakllarida toʻldiruvchi va hol vazifalarida keladi: dars boshlandi, odamning koʻrki, xatni yozdi, universitetda oʻqiydi kabi.

Belgi bildiradigan soʻzlar (sifat, son, ravish) predmet yoki harakat ifodalovchi soʻzlar bilan grammatik munosabatga kirishib, gapda aniqlovchi yoki hol vazifalarida keladi (toʻgʻri soʻz, oʻz, beshta bola, koʻp kitob, yaxshi oʻqiydi, birinchi keldi kabi).

Predmet, belgi, miqdorning mavjudligiga ishora qiluvchi, ular oʻrnida almashinib qoʻllanuvchi soʻzlar (olmoshlar) gapda nimaga ishora qilishi va qanday soʻzlar bilan birikishiga koʻra gapda ega, kesim, toʻldiruvchi, aniqlovchi, hol vazifalarida keladi (men gapirdim, maqsadim – shu, bu bino, nimani oʻqiding, qaerda yashaydi kabi).

Tilda mavjud leksik maʼno ifoda etmaydigan soʻzlar esa (koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama) leksik maʼno ifodalovchi soʻzlar orasidagi grammatik munosabatni

shakllantiradi, ga pyoki uning tarkibidagi ayrim so‘zlarga qo‘shimcha ma’no qo‘shadi. Bunday so‘zlar sintaktik vazifa bajarmaydi.

SHuningdek, leksik ma’no ifodalamay, biror hodisaning atamasi (nomi) bo‘lmasa ham, leksik gap bo‘lagi sifatida yoki mustaqil holda so‘z-gap sifatida qo‘llana oladigan so‘zlar (modal, undov, taqlid so‘zlar) ham mavjud (kerak, zarur, bor, oh, eh, uf, ey, gup-gup, dupur-dupur kabi).

Demak, so‘zlarning gapda qanday gap bo‘lagi bo‘lib kelishi, uning qanday so‘zlar bilan aloqaga kira olishi, ma’nosiga va grammatik shakliga bog‘liqdir.

O‘zbek tili lug‘at tarkibidagi so‘zlar leksik-semantik, morfologik va sintaktik tamoyilga tayangan holda quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1) mustaqil so‘zlar, 2) yordamchi so‘zlar, 3) modal, undov va taqlid so‘zlar.

Mustaqil holda leksik ma’no ifoda eta oladigan biror morfologik shaklda kelib, gap bo‘lagi vazifasini bajaradigan so‘zlarga mustaqil so‘zlar deyiladi. Mustaqil so‘zlarga ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish kabi so‘z turkumlari kiradi.

Mustaqil holda leksik ma’no ifoda etmay, gap bo‘lagi vazifasini bajarmaydigan, faqat so‘zlar orasidagi sintaktik munosabatni ifodalaydigan yoki ularga qo‘shimcha ma’no qo‘shishga xizmat qiladigan so‘zlar yordamchi so‘zlar deyiladi. YOrdamchi so‘zlarga ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama kiradi.

Modal so‘zlar modal ma’no ifodalashi jihatidan yuklamalarga o‘xshasa-da, lekin undan farqli ravishda gapda gap bo‘lagi (kesim, sostavli kesim tarkibida) vazifasida, butun bir gap tarzida kela oladi.

Undov va taqlid so‘zlar mustaqil so‘zlar kabi biror hodisaning nomi bo‘la olmaydi, lekin gap bo‘lagi vazifasida so‘z-gap vazifasida kela oladi. SHuning uchun ham bunday so‘zlar alohida guruhni tashkil etadi.

5-ilova

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR

1. “So‘z turkumlari” deganda nimani tushunasiz?
2. Mustaqil so‘zlarning xususiyatlari va turlari haqida gapiring.
3. Yordamchi so‘zlarning xususiyatlari va turlari haqida gapiring.

slayd

SO‘Z TURKUMLARI HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT

	Ot (ism)	Sifat	Son	Olmosh	Fe’l	Ravish	Yordam-chilar
Hindlar	+				+		+
Arablar	+				+		+
Yunonlar	+	+	+	+	+		+
Ruslar	+	+	+	+	+	+	+

2-slayd



SO‘Z TURKUMLARINING XUSUSIYATLARI

	Lug’aviy ma’noga ega	Morfologik jihatdan o’zgaradi	Gap bo’lagi vazifasini bajaradi
Mustaqil so’zlar	+	+	+
Yordamchi so’zlar	-	-	-
Alohida guruh so’zlar	-	-	+





ALOHIDA GURUH SO’ZLAR



ilova-4

Blits -o‘yini

№	***Savollar***	Yakka javob	To‘g‘ri javob	***Sizning harakatingiz***
1.	Qaysi so‘z turkumiga oid so‘zlar narsa-hodisalar, belgi hususiyatlar, harakat-holatlarini atash ma’nosiga ega bo‘ladi?			1. Ot, sifat, fe’l 2. Ot, sifat, fe’l, ravish* 3. Faqat mustaqil so‘zlar 4. Ot, sifat, son, fe’l, ravish
2.	Qadimda qaysi xalqlar so‘zlarni otlar, fe’llar, yordamchilarga ajratib, tilshunoslikni fan sifatida shakllantirgan?			1. Hindlar* 2. Ruslar 3. Arablar 4.Yunonlar
3.	Qaysi qatorda faqat birlikda qo‘llanilgan otlar berilgan?			1. Ko‘z, qosh, bosh 2. uyqu, soat, kongil 3. un, yog‘, suv* 4. to‘g‘ri javob yo‘q
4.	Sifat so‘z turkumiga oid so‘zlar asosida paydo bo‘lgan atoqli otlar qatorini toping.			1. Toshkent, Samarqand, Farg‘ona 2.Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon 3.Ra’no, Muhabbat, Mamalakat 4.Turg‘un, Ozoda, Muqaddas*

MAVZU BO‘YICHA TEST SAVOLLARI:

1. So’zlarning turkumlarga bo’linishi qaysi javobda izchil bayon etilgan?

A) Mustaqil so’zlar: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish;
Yordamchi so’zlar: ko’makchi, bog’lovchi, yuklama, undov va taqlid so’zlar

B) mustaqil va yordamchi so’zlar

C) umumiy kategorial ma'noga ega bo’lgan so’zlar, umumiy kategorial ma'noga ega bo’lmagan so’zlar.

D) ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish kabi mustaqil so’zlar, ko’makchi, bog’lovchi, yuklama kabi yordamchi so’zlar, shuningdek, modal so’z, undov va taqlid so’zlar.

2. Fe’lning tasniflovchi kategoriyalari:

A) nisbat, o‘zgalovchi, harakat tarzi, bo‘lishli-bo‘lishsizlik

B) nisbat, o‘zgalovchi, harakat tarzi, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, shaxs-son

S) nisbat, o‘zgalovchi, harakat tarzi, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, zamon

D) nisbat, o‘zgalovchi, harakat tarzi, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, kesimlik 1) nisbat, o‘zgalovchi, harakat tarzi, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, modallik

3. Kesimlik qaysi turkumga xos?

A) fe’lga

B) otga

S) songa

D) mustaqil so‘zga

4. Qaysi so‘z turkumining o‘ziga xos sintaktik vazifasi yo‘q?

A) ot, ravishi
B) fe’l
C) son
D) olmosh.
5. Morfologik jihatdan o‘zgarmas so‘z turkumi qaysi qatorda?
A) taqlid, sifat
V) undov, ko‘makchi
S) modal, olmosh
D) olmosh, ravish, ko’makchi
6. Fe’l qanday grammatik kategoriyalarga ega?
A) daraja, mayl, zamon, tuslanish
B) daraja, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, mayl, zamon, shaxs-son
C) daraja, mayl, zamon, shaxs-son
D) daraja, mayl, ko‘rinish

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.
10. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfemika. So‘z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.
11. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, ”Moliya”, 2003

GLOSSARIY

Grammatika – “grammatike” – “o‘qish va yozish haqidagi bilim” degan ma’noni bildirib, tilning grammatik qurilishini o‘rganadigan bo‘lim.

Mustaqil so‘z turkumlari - lug‘aviy ma’noga ega bo‘lib (ya’ni, savolga javob bo‘ladigan), morfologik jihatdan o‘zgaradigan (ya’ni, qo‘shimcha qabul qiladigan), gap ichida ma’lum gap bo‘lagi bo‘lib kela oladigan so‘zlar: ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish.

So‘z tarkibi – so‘zning ma’noli qismlari, ya’ni asos va qo‘shimchalar yig‘indisidan iborat: gul+don+lar+ga.

6- MAVZU : OT. OTNING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI (2 soat)

1-ilova

Ma’ruza rejasi:

1. Ot so‘z turkumi haqida umumiy ma’lumot
2. Otlarning leksik–grammatik xususiyatlari
3. Turdosh otlar va ularning turlari
4. Atoqli otlar va ularning turlari

Ot so‘z turkumi haqida umumiy ma’lumot

Narsa-buyum, shaxslarni yoki joy nomlarini bildiradigan so‘zlar turkumi ot deb ataladi. Ot kim? nima? qaer? so‘roqlariga javob bo‘ladi.

Otlarning leksik (ma’noviy) xususiyatlari: 1) otlar shaxs, narsa yoki joy nomini bildiradi: odam, kitob, shahar; 2) otlar ma’no jihatidan shaxs otlari, narsa-buyum otlari va joy nomini bildiruvchi otlarga bo‘linadi;

Otlarning grammatik xususiyatlari: 1) morfologik xususiyatlari: a) otlar kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanadi, birlik va ko‘plik sonda ishlatiladi (kelishik va son shakli ularning doimiy xususiyatidir), egalik qo‘shimchalarini oladi (bu doimiy xususiyat emas). b) otlar sifat o‘rnida qo‘llanishi mumkin: asfalt yo‘l, tilla bilaguzuk, temir sandiq. 2) sintaktik xususiyatlari: a) otlar gapda bosh bo‘lak, ikkinchi darajali bo‘lak, shuningdek, undalma bo‘lib keladi: Onam parrandachilik fermasida ishlaydi. Bilim manbai kitobdir. Maktabda ilmning poydevoriga asos solinadi. Bugungi ishni ertaga qo‘yma! Bolalar, ko‘cha harakati qoidalariga rioya qiling! b) otlar yakka gap vazifasini ham bajarishi mumkin: Kuz. Yig‘im-terim avjiga chiqqan.

Turdosh otlar va ularning turlari

Otlar ma’no jihatidan turdosh va atoqli otlarga bo‘linadi. Bir turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirgan otlar turdosh ot deyiladi: shahar, odam, maktab.

1. Turdosh otlar qanday tushunchani ifodalashiga ko‘ra 2 xil:

1) aniq otlar beshta sezgi (ko‘rish, eshitish, hid bilish, ta’m bilish, teri orqali sezish) yordamida sezish mumkin bo‘lgan predmetlarni ifodalaydi va shaxs otlari, qavm-qarindoshlik otlari, kasb-koriga ko‘ra shaxs otlari, hayvonot otlari, daraxt va o‘simlik otlari, narsa-buyum otlari, moddalarni ifodalovchi otlar, o‘rin-joy otlari, payt otlari kabi guruhlarga bo‘linadi: kitob, tovush, havo, shahar, daqiqa.

2) mavhum otlar ong yordamidagina idrok qilinadigan narsalarni ifodalaydi va belgi-xususiyat otlari, munosabat ifodalovchi, harakat-holat otlari, voqea-hodisa otlari, kasb-kor, faoliyat ifodalovchi otlar kabi guruhlarga bo‘linadi: go‘zallik, dushmanlik, g‘azab, kamchilik, do‘stlik, madaniyat.

2. Turdosh otlar birlik shaklda ko‘plik ma’nosini ifodalash-ifodalamasligiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi:

1) yakka otlar birlik shaklda yakka predmetlarni ifodalaydi: odam, ko‘cha, daraxt;

2) jamlovchi otlar birlik shaklda ham ko‘plikni ifodalaydi: karvon, xalq, guruh.

Bulardan tashqari, turdosh otlar yana quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Shaxs otlari shaxslarni kasb-koriga, yoshiga, yashash joyiga, jamiyatda tutgan o‘rniga, qarindoshligiga, mansab-lavozimiga ko‘ra nomlaydigan otlardir: temirchi, shaharlik, rais, amaki. Bunday otlar kim so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

2. Narsa otlari jonli va jonsiz narsalarning nomini ifodalaydigan otlardir: kitob, daftar. Bunday otlar nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

3. O‘rin-joy otlari qaer? so‘rog‘iga javob bo‘ladi: shahar, guzar, mahalla, tuman, viloyat, ko‘cha, gulzor, o‘yingoh, shimol, janub. Bunday otlar narsalik ma’nosini ham bildirgani uchun ba’zan nima? so‘rog‘iga javob bo‘lishi ham mumkin.

4. Faoliyat-jarayon nomini bildiruvchi otlar shaxs va narsalarning faoliyatini bildiradigan otlardir: chorvachilik, tanlov, terim.

Atoqli otlar va ularning turlari

Ayrim shaxs yoki predmetga atab qo‘yilgan nomlar atoqli otlar deyiladi, ular quyidagi guruhlarga bo‘linadi: 1) kishilarning ismi, familiyasi, taxallusi: Rahim Mahmudov, Oybek; 2) hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar: Olapar, To‘rtko‘z, Targ‘il, Boychibor, Raxsh, G‘irko‘k; 3) geografik nomlar (bularga oddiy ko‘cha nomlaridan tortib qit’a nomlarigacha barchasi kiradi): Navoiy ko‘chasi, Toshkent shahri, Pomir tog‘i, Osiyo qit’asi; 4) tashkilot, muassasa va idora nomlari: O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Nizomiy nomli TDPU,

5) kitob, gazeta, jurnal, kinofilm, spektakl nomlari: “O‘tgan kunlar” romani, “Ma’rifat” gazetasi; 6) suv havzalari va inshootlar nomlari: Amudaryo, Orol dengizi, Katta Farg‘ona kanali; 7) tarixiy voqealar, bayram nomlari: Mustaqillik kuni, Navro‘z bayrami. 8) astronomik nomlar, ya’ni planeta, meteorit, asteroid nomlari: Yupiter, Saturn, Somon yo‘li. Atoqli otlar kitob, gazeta, jurnal, kinofilm, tashkilotlarga atab qo‘yilgan bo‘lsa, yozuvda qo‘shtirnoqqa olinadi, ammo shahar, kinoteatr, tashkilotlar kishi nomlariga qo‘yilgan bo‘lsa, qo‘shtirnoqqa olinmasdan, nomidagi, nomli so‘zlari ishlatiladi. Ko‘pchilik atoqli otlar turdosh ot yoki boshqa biron so‘z turkumi asosida vujudga keladi: Po‘lat (turdosh otdan), Go‘zal (sifatdan), Sakson ota (sondan), Kimsan (olmoshdan), Sotiboldi (fe’ldan), Ko‘paysin (ravishdan yasalgan fe’ldan). Ba’zan atoqli otlar turdosh otga aylanishi ham mumkin: amper (tok o‘lchovi), xosiyatxon (atlas turi), makintosh (kiyim turi).

Otlarning lug‘aviy shakllari

Otlarning ismlar guruhiga kirishi haqida yuqorida (44-bet) so‘z yuritildi. Ismlarning ko‘plik, kichraytirish-erkalash, qiyoslash ma’nolarini ifodalaydigan shakllari lug‘aviy shakl deb yuritiladi. Shulardan birlik-ko‘plik shakli bilan tanishamiz.

Otlarning birlik va ko‘plikda qo‘llanishi (son kategoriyasi)

Otlar birlik va ko‘plik sonda keladi. Birlik sondagi otlar bir predmetni bildiradi. Ko‘plik sondagi otlar birdan ortiq predmetni bildiradi. Otlar ko‘plikda -lar qo‘shimchasi orqali ifodalansa, morfologik usul hisoblanadi: bolalar, uylar. Ko‘plik ma’nosi qo‘shimchasiz holda maxsus so‘zlar yordamida ifodalansa, leksik usul hisoblanadi: bir qancha odam, ming-ming daraxt, beshta daftar. Ba’zan bu usullar aralash ifodalanishi mumkin (leksik-morfologik usul): Ko‘p ota-onalar kelishdi.

Harakat-holat, belgi nomini bildirgan otlar, donalab sanalmaydigan narsa va jism nomlari, juft predmetlarni bildiruvchi otlar va atoqli otlar faqat birlikda qo‘llanadi: do‘stlik, un, ko‘z, Muattar va h.

-lar qo‘shimchasi ko‘plik ma’nosidan tashqari quyidagi ma’nolarni ifodalaydi: 1) narsalarning turini, navini xilini: Do‘konga yog‘lar (guruchlar, suvlar va h.) keltirildi; 2) jamlikni: Ma’muraxonlar kelishdi; 3) hurmatni: Dadamlar ishlaydilar;

4) kinoyani: Janoblari kelibdilar-da; 5) kuchaytirishni: Boshlarim og‘rib ketdi; 6) taxminni: Soat beshlarda keladi.

-lar ko‘rsatkichi otlardan tashqari olmosh, son, sifat, fe’l, ravish turkumidagi so‘zlarga ham qo‘shilishi mumkin: bular, kimlar, bizlar, tushuntirishlar, kattalarni, beshlar, ilgarilari, kelganlar kabi. Bu ko‘rsatkich fe’lga qo‘shilganda tuslovchi tarkibida keladi: boradilar (3-shaxs tuslovchi tarkibida).

Otlarning kichraytirish, hurmatlash, erkalash va qiyoslash shakllari

Nutqimizda kichraytirish, hurmatlash va erkalash otlari ham qo‘llanadi. Bunday otlar kichraytirish, ba’zan esa ham kichraytirish, ham erkalash ma’nolarini anglatadigan quyidagi qo‘shimchalar bilan yasaladi:

-cha: Akbarcha (kesatish ma’nosida), uycha, ro‘molcha, kitobcha
-choq,-chak,-chiq: qo‘zichoq, kelinchak, qopchiq
-(a)loq: qizaloq, bo‘taloq
-jon: ukajon, Rahimjon
-xon: Odilxon, Salimaxon
-oy: Qunduzoy, Tursunoy
-begim: Nodirabegim
-nisa: Zebunnisa
-bibi: Oyshabibi
-bek: Otabek
-xo‘ja: Akbarxo‘ja
-gina: yolg‘izginam, bolaginasi
-day(-dek): oyday, shamoldek

D i q q a t! *–gina qo‘shimchasi kichraytirish, erkalashdan tashqari, achinish ma’nosini ham ifodalaydi. Bu qo‘shimcha –gina ayiruv yuklamasi bilan omonimdir. Farqlari: -gina yuklamasi barcha qo‘shimchalardan keyin qo‘shiladi; -gina yuklamasi urg‘u olmaydi, -gina qo‘shimchasi esa urg‘u olishi mumkin.*

XULOSA:

Narsa-buyum, shaxslarni yoki joy nomlarini bildiradigan so‘zlar turkumi ***ot*** deb ataladi. Ot ***kim? nima? qayer?*** so‘roqlariga javob bo‘ladi.

Otlarning leksik (ma’noviy) xususiyatlari:

1) otlar ***shaxs, narsa*** yoki ***joy nomini*** bildiradi: *odam, kitob, shahar*;

2) otlar ma’no jihatidan ***shaxs otlari***, ***narsa-buyum otlari*** va ***joy nomini*** bildiruvchi otlarga bo‘linadi;

Otlarning leksik–grammatik xususiyatlari

Otlarning grammatik xususiyatlari:

1) morfologik xususiyatlari:

a) otlar kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanadi, birlik va ko‘plik sonda ishlatiladi (kelishik va son shakli ularning doimiy xususiyatidir), egalik qo‘shimchalarini oladi (bu doimiy xususiyat emas).

b) otlar sifat o‘rnida qo‘llanishi mumkin: *asfalt yo‘l, tilla bilaguzuk, temir sandiq.*

2) sintaktik xususiyatlari:

a) otlar gapda bosh bo‘lak, ikkinchi darajali bo‘lak, shuningdek, undalma bo‘lib keladi:

Onam parrandachilik fermasida ishslaydi. *Bilim manbai kitobdir. Maktabda ilmning poydevoriga asos solinadi. Bugungi ishni ertaga qo‘yma! Bolalar, ko‘cha harakati qoidalariga rioya qiling!*

b) otlar yakka gap vazifasini ham bajarishi mumkin: *Kuz. Yig‘im-terim avjiga chiqqan*

Turdosh otlar va ularning turlari

Turdosh otlar qanday tushunchani ifodalashiga ko‘ra 2 xil:

1) aniq otlar: beshta sezgi (*ko‘rish, eshitish, hid bilish, tam bilish, teri orqali sezish*) yordamida sezish mumkin bo‘lgan predmtlarni ifodaslaydi va shaxs otlari, daraxt va o‘zimlik otlari, narsa buyum otlari, moddalarni ifodalovchi otlar, o‘rin-joy otlari, payt otlari kabi guruhlarga bo‘linadi: *kitob, tovush, havo, shahar, daqiqa.*

2) mavhum otlar: ong yordamida idrok qilinidagin narsalarni ifodaslaydi va belgi hususiyat otlari, munosabat ifodalovchi, harakat holat otlari, boqea-hodisa otlari, kasb-kor, faoliyat ifodalovchi otlar kabi guruhlarga bo‘linadi: *go‘zallik, dushmanlik, g‘azab, kamchilik, do‘stlik, madaniyat*.

Turdosh otlar birlik shaklda koplik ma’nosini ifodalash-ifodalamasligiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi:

1) yakka otlar: birlik shaklda yakka predmetlarni ifodaslaydi: *odam, ko‘cha, daraxt;*

2) jamlovchi otlar: birlik shaklda ham ko‘plikni ifodaslaydi: *karvon, xalq, guruh;*

Bulardan tashqari, turdosh otlar yana quyidagi turlarga bo‘linadi:

1.Shaxs otlari shaxslarni kasb koriga, yoshiga, yashash joyiga, jamiyatda ttgan o‘rniga, qarindoshligiga, mansab lavozimiga ko‘ra nomslaydigan otlardir: *temirchi, shaharlik, rais, amaki.* Bunday otlar ***kim?*** so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

2. Narsa otlari jonli va jonsiz narsalarning nomini ifodaslaydigan otlardir: *kitob, daftar.* Bunday otlar ***nima?*** so‘rog‘iga javob bo‘ladi.

3. O‘rin joy otlari *qayer?* so‘rog‘iga javob boladi: *shaxar, guzar, mahallar, tuman, viloyat, ko‘cha, gulzor, o‘yingoh, shimol, janub.* Bunday otlar narsalik ma’nosini bildirgani uchun ba’zan ***nima?*** so‘rog‘iga javob bo‘lishi ham mumkin.

4. Faoliyat-jarayon nomini bildiruvchi otlar shaxs va narsalarning faoliyatini bildiradigan otlardir: chorvachilik, tanlov, terim.

Atoqli otlar va ularning turlari

Ayrim shaxs yoki predmetga atab qo‘yilgan nomlar atoqli otlar deyiladi, ular quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1) kishilarning ismi, familiyasi, tahallusi: *Rahim Mahmudov. Oybek;*

2) hayvonlarga atab qo‘yilgan nomlar: *Olapar, To‘rtko‘z, Targ‘il, Boychibor,G‘riko‘k;*

3) geografik nomlar (bularga oddiy ko‘cha nomlaridan tortib qit’a nomlarigacha barchasi kiradi) : *Navoiy ko‘chasi, Toshkent shahri, Pomir og‘i, Osiyo qit’asi;*

4) tashkilot, muassasa va idora nomlari: *O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Nizomiy nomli TDPU;*

5) kitob, gazeta, jurnal, kinofilm, spektakl nomlari: *"O‘tkan kunlar" romani, "Ma’rifat" gazetasi*;

6) suv havzalari va inshootlar nomlari: *Amudaryo, Orol dengizi, Katta Farg‘ona kanali;*

7) Tarixiy voqealar, bayram nomlari: *Mustaqillik kuni, Navro‘z bayrami;*

8) astronomik nomlar, ya’ni planeta, meteorit, asteroid nomlari: *Yupiter, Saturn, Somon yo‘li*

№	***Savollar***	***Sizning harakatingiz***

1	Qaysi qatordagi so‘zlar faqat ot turkumiga mansub?	1) kelma, o‘qima, tugma 2) gazlama, childirma, ko‘rsatma* 3) yasama, qaynatma, to‘qima 4) yigirma, sekinlama, surma
2	Ot qaysi so‘z turkumlaridagi so‘zlar bilan birika olmaydi?	1) ot, sifat 2) olmosh 3) ravish, fe’l 4) ot mustaqil so‘z turkumlarining barchasi bilan birika oladi*
3	O‘rin-joy otlarini toping?	1) qo‘lyozma,qotishma, qurilma 2) yozishma,eslatma, birikma 3) qovurma, cho‘zma, suzma 4)bostirma, tortma, pistirma*
4	Mavhum otlar qatorini toping?	1) uyqu, jahl* 2) soch, kiprik 3)quyosh, tutun 4)gul, orzu
5	Turdosh otdan yasalgan atoqli otlar qatorini aniqlang?	1) Olmos,Yashin, Sulton, Juma* 2) Shirin, O‘tkir, Majnun, Aziz 3)To‘xta, Turdi, Tursun, Berdi 4)rentgen, boston, xosiyatxon, amper
6	Qaysi qatorda mavhum otlar o‘zaro sinonim bo‘lib kelgan?	1)kuch- qudrat 2) odam -inson* 3) quyosh –oftob 4) do‘stim- o‘rtog‘im

ilova - 4

MAVZU BO’YICHA TEST TOPSHIRIQLARI:

1. Qaysi qatorda faqat otlar berilgan?
a) uchirma, suzma, bog‘lama
b) yasama, qaynatma, to‘qima
c)ko‘rsatma, jamg‘arma,birikma
d) yigirma, gazlama,surma

2.Turdosh otlardan hosil bo‘lgan atoqli otlarni belgilang
a) rentgen, xosiyatxon
b) Nodir, Aziz
c) Ulug‘, Tuyg‘un
d) Asal, Lola

3. Faqat mavhum otlar qatorini toping
A. bola, daftar, qishloq
B. gul, zafar, qishloq
C. shodlik, sevgi, kulfat
D. yo‘l, daraxt, vodiy
E. asal, asar, bog‘

4. Mavhum otlar qatorini toping
A. qayg‘u, jahl
B. soch, kiprik
C. quyosh, tutun
D. gul, orzu
E. yahshilik avtomobil

5. O‘zbek tilida otning qaysi shakli sintaktik munosabat ko‘rsatmaydi?
A. kelishik shakli
B. egalik shakli
C. birlik va ko‘plik
D. egalik, birlik va ko‘plik shakllari
E. otga xos bo‘lgan uchala grammatik shakl ham sintaktik munosabatni ko‘rsatadi

6. Qaysi qatorda faqat otlar berilgan?
A. uchun, to‘lqin, bilimdon, qalamdon

B. yong‘in, toshqin, tuzdon, kuldon
C. tuyg‘un, keskin, qumdon, xumdon
E. ozg‘in, yorqin, gapdon, qadrdon

7. Ot qaysi so‘z turkumidagi so‘zlar bilan birika olmaydi?

A. ot, sifat
B. olmosh
C. ravish, fe’l
D. ot mustaqil so‘z turkumlarining barchasi bilan birika oladi
E. son

8. Atoqli ot asosida paydo bo‘lgan turdosh otlar qatorini toping

A. asal, rayhon, arslon, muhabbat
B. anor, lola, shirin, to‘qson
C. yetmish, bultur, turdi, ra’no
D. roentgen, xosiyatxon, michurinchilar, amper
E. A,B

9. Faqat turdosh otlar asosida paydo bo‘lgan atoqli otlar qatorini toping

A. Ergash, Lobar, Gulchehra, To‘xtamurod
B. Juma, Bahri, Rayhon, Nilufar
C. Ulug‘, Suluv, Dilbar, Go‘zal
D. Ortiq, Quvonch, Hursand, Vali

Otlarda son kategoriyasi

Otlarga xos morfologik xususiyatlardan biri son kategoriyasidir. Otlarda son kategoriyasini bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan birlik son shakli va ko‘plik son shakli tashkil etadi.

Birlik son shaklida qo‘llanuvchi otlar yakka bir predmetni yoki yakkalikni ajratilmaydigan predmetni anglatadi: qalam, daftar, tog‘ , uy, talaba kabi. Birlik son shaklida qo‘llangan ot maxsus grammatik ko‘rsatkichga ega emas. SHuning uchun otning bunday qo‘shimcha olmagan shakli (nol ko‘rsatkichli shakl) grammatik jihatdan birlik son shakli deb qaraladi.

Ko‘plik son shaklida qo‘llanuvchi otlar ikki yoki undan ortiq predmetni (yoki noaniq ko‘plikni) anglatadi: qalamlar, daftarlar, tog‘lar, uylar, talabalar kabi.

Otlarda grammatik ko‘plik son shakli –lar affiksi bilan hosil qilinadi.

Ko‘rinadiki, otlardagi birlik ma’nosi va ko‘plik ma’nosi hamda bularni ifoda etuvchi shakllar yig‘indisi son kategoriyasini hosil qiladi.

Otlarda son kategoriyasini birlik va ko‘plik ma’nosida qo‘llana oladigan otlarga xosdir. Sanash mumkin bo‘lgan, bevosita predmetni anglatadigan konkret turdosh otlar birlik shakli bilan birga ko‘plik son shaklida ham qo‘llanadi: xona – uchta xona – xonalar; bola – besh bola – bolalar kabi.

O‘zbek tilida birlik va ko‘plik son shakliga ega bo‘lgan otlar bilan bir qatorda faqat birlik shaklida qo‘llanadigan otlar ham mavjud.

Bunday otlarga abstrakt otlar (sevgi, ishonch, ko‘ngil kabi), donalab sanalmaydigan predmetlarni anglatuvchi otlar (un, suv, yog‘ , guruch kabi), yakka bir predmetni anglatuvchi otlar (til, bosh, yurak kabi), juft predmetni anglatuvchi otlar (ko‘z, qosh, qo‘l, etik, paypoq kabi), atoqli otlar (Zulfiya, Toshkent, Sirdaryo kabi) kiradi. Ayrim hollarda bu otlarga –lar ko‘plik affiksi qo‘shila oladi. Bunday holda –lar ko‘plik ma’nosini emas, balki quyidagi ma’nolarni ifodalab keladi:

1. Abstrakt otlar, yakka bir predmetni anglatuvchi otlar, juft predmetni anglatuvchi otlarda –lar affiksi qo‘shilganda ma’noni kuchaytiradi yoki ta’kidslaydi: Kumushning qoshlari chimirildi (A.Qodiriy).

2. Donalab sanalmaydigan predmetni anglatuvchi otlarga –lar affiksi qo‘shilganda, shu predmetning turi, navi, yoki mo‘llik kabi ma’nolarni bildiradi: Zilol suvlar, eram kabi bog‘u-bo‘stonlar (G‘ayratiy).

3. Atoqli otlarga qo‘shilganda esa umumlashtirish, birgalik kabi ma’nolarni bildiradi: Saidalar kelishdi kabi.

SHuningdek, qarindosh-urug‘lik munosabatini bildiruvchi (ota, ona, buvi, aka, opa kabi) otlarga egalik qo‘shimchasidan keyin –lar affiksi qo‘shilganda, bu otlar hurmat ma’nosini anglatadi: otamlar, opamlar, buvimlar kabi.

Otlarda ko‘plik ma’nosi turli xil usullar bilan ifodalanadi.

1. Otlarda ko‘plik ma’nosi , asosan, -lar affiksini qo‘shish bilan hosil qilinadi. Ko‘plik ma’nosining bunday maxsus grammatik ko‘rsatkich bilan ifodalanishi ko‘plikning morfologik usul bilan ifodalanishi sanaladi: eshiklar, ko‘chalar kabi. Bunday otlarga grammatik jihatdan ham, semantik jihatdan ham ko‘plik son shaklida deb qaraladi. Otlarda ko‘plik ma’nosi, asosan shu usul bilan ifodalanadi.

2. Otlarda ko‘plik ma’nosi leksik ma’nosi ko‘p predmetni bildiradigan otlar orqali ham anglashiladi. Bunday otlar birlik shaklida bo‘lsa ham, bir turdagi predmetlarning to‘dasini, jamini bildiradi: to‘da, gala, aholi, xalq, olomon kabi. Ko‘plik ma’nosini bunday jamlovchi otlar orqali ifodalanishi leksik-semantik usul deyiladi. Bunday ma’nodagi otlarga grammatik jihatdan birlik shaklda, lekin semantik jihatdan ko‘plikda deb qaraladi.

3. Otlarda ko‘plik ma’nosi ot oldidan miqdor bildiruvchi ravishlar, sanoq sonlar, gumon olmoshlarini keltirish, so‘zlarni takrorlash bilan ham hosil qilinadi. Bu usul bilan ko‘plik ma’nosining ifodalanishiga sintaktik usul deyiladi: ko‘p bola, uchta kitob, bir necha qiz, dasta-dasta gul, to‘da-to‘da odam kabi.

Otlarni kesimga xoslovchi shakllar

Otlar gap tarkibida kesim vazifasini bajarganda ega bilan shaxs va sonda moslashadi. Bunda otlarga qo‘shiluvchi –man, -san, -miz, -siz, -dir qo‘shimchalari, shuningdek, bo‘lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq, ekan, emish, emas, edi so‘zlari ot orqali ifodalangan kesimni ega bilan moslashtiradi: Sen talabasan. Navro‘z qutlu? bayramdir. Maktab bilim o‘cho?i hisoblanadi. Sen do‘stim eding.

Qarashlilik shakli haqida

Bu shakl –niki qo‘shimchasi bilan yasaladi va narsa yoki shaxsning shu qo‘shimcha olgan narsa yoki shaxsga tegishli ekanligini bildiradi. Bu shaklning egalik shakllaridan farqlari: 1) egalik ma’nosi shaxs ko‘rsata oladi, qarashlilik esa shaxs ko‘rsata olmaydi; 2) egalik shakli egalik qo‘shimchasini olgan so‘z bildirgan narsa yoki shaxsning boshqa biror narsa yoki shaxsga tegishliligini bildiradi, qarashlilik shakli esa biror narsa yoki shaxsning –niki qo‘shimchani olgan so‘z bildirgan narsa yoki shaxsga tegishliligini, qarashli ekanligini ifodalaydi.

Egalik va qarashlilik qo‘shimchalari bir otga baravar qo‘shilishi mumkin: kitob ukamniki. Qarashlilik shaklidagi so‘z qarashli bo‘lgan so‘z ifodalagan so‘z bilan birga qo‘llansa, doim kesim vazifasida keladi. Ba’zan qarashli bo‘lgan narsani bildiruvchi so‘z qo‘llanmasligi mumkin. –niki qo‘shimchasi otdan tashqari olmosh, va otlashgan so‘zlarga ham qo‘shilishi mumkin: bizniki, ikkinchisiniki, boshqasiniki, kelganniki. Bu qo‘shimcha ko‘plik, egalik, hurmat ifodalovchi qo‘shimchalardan keyin, kelishik qo‘shimchasidan oldin qo‘shiladi.

4- ilova

MAVZU BO’YICHA TEST TOPSHIRIQLARI:

1. Qaysi gapda -lar qo‘shimchasi grammatik ma’no ifodalagan?

A) Avazlarning bir cheti chorbog‘ga tutashadigan kattagina hovlisi bor

B) Bu ishlarning boshida G‘ulomjon, Qudrat, Olimbuvalar turishdi.
C)Sening xotirangni unutmas aslo, mening yuraklarim, O‘rta Osiyo
D) Oradan besh kunlar o‘tdi

2. -lar qo‘shimchasi hurmat ma’nosini bildirganida qaysi qo‘shimcha bilan birgalikda qo‘llaniladi?

A) shaxs son qos’imchasi bilan
B)-lar qo‘shimchasi so‘zga to‘g‘ridan to‘g‘ri qo‘shiladi
C) kelishik qo‘shimchasi bilan
D) egalik qo‘shimchasi

3. hammasi faqay birlikda qo‘llaniladigan otlar qatorini toping

A. Baxt, ko‘z kitob
B. asal, daftar, go‘zallik
C. quyosh, sut, neft
D. ozodlik, bola, qo‘l

4. Birlik sonda predmetlar to‘dasinin anglatadigan otlar qatorini toping

A. qush, olma, shahar
B. ko‘chat, ishchi, universitet
C. terak, yaproq, avtobus
D. xalq, armiya, poda

5. Kelishik shaklidagi otlar qaysi so‘z turkumidagi so‘zlar bilan bog‘lanadi?

A. ot, fe’l, sifat, ravish
B. ot, fe’l, sifat
C. ot va fe’l
D. jo‘nalish kelishigi o‘rin-payt kelishigi

6. Qaysi qo‘shimchalar vositasida taqlid so‘zlardan ot yasaladi?

A. –illa, -a
B. –iq, -t
C. –iq, -ak
D. –a, ak

DASTURLASHTIRILGAN TOPSHIRIQ SAVOLLARI:

1. Otlarning xususiyatlari va gapdagi vazifalarini misollar bilan tushuntiring.
2. Turdosh ,atoqli otlarning turlarini misollar bilan yoritib bering.
3. Turdosh otlarning atoqli otlarga, atoqli otlarning turdosh otlarga o‘tishiga misollar keltiring.

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil

7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.

GLOSSARIY

Atoqli otlar – bir xildagi tushunchalardan birini ajratib ko‘rsatish uchun ishlatiladigan, atab qo‘yilgan otlar: ism, familiya (Akbar Yunusov), taxallus (Oybek, Fitrat), laqab (Sakson ota), hayvon va parranda nomlari (Olapar, Targ‘il, Kesha), davlat, korxona va tashkilot nomlari (O‘zbekiston Respublikasi), jug‘rofiy nomlar (Amudaryo, Pomir, Tinch okeani), astronomik nomlar (Mars, Merkuriy), mashhur sanalar (Mustaqillik kuni, Navro‘z bayrami).

Birlikdagi otlar - yakka predmet va tushunchalarni ifodalaydigan otlar: bola, uy, tovush.

Ismlar – egalik, kelishik va ko‘plik qo‘shimchalarini qabul qilib, o‘zgarish xususiyatiga ega bo‘lgan so‘zlardir. Bularga ot, sifat, son, olmosh, harakat nomi, sifatdosh, taqlid so‘zlar kiradi.

Istak gaplar - biror-bir narsa haqida istak, xohish, orzu kabi tuyg‘ular aks ettiriladigan gaplar. Bunday gaplarning kesimi shart maylidagi (–sa qo‘shimchali) fe’llar bilan ifodalangan bo‘ladi: Qani endi, A’zamjon ham shunaqa bo‘la qolsa edi. (S.Ahm.) Istak gaplar oxiriga nuqta (.) qo‘yiladi.

Juft otlar – ikkita har xil asosli so‘zning juftlanishi orqali hosil bo‘ladigan otlar. Ular quyidagicha yasaladi: 1) bir-biriga yaqin ma’noli so‘zlardan: uy-joy, oyoq-qo‘l. 2) sinonim so‘zlardan: kuch-quvvat, oziq-ovqat, baxt-saodat. 3) antonimlardan: yer-osmon, ost-ust. 4) butun-bo‘lak ma’nosini ifodalovchi so‘zlardan: tog‘-tosh, idish-tovoq, gap-so‘z, oy-kun, vaqt-soat.

Jamlovchi otlar - birlik shaklda ham (ya’ni, -lar qo‘shimchasisiz ham) ko‘plik ma‘nosini ifodalay oladigan otlar: xalq, guruh, karvon, poda, suruv (qo‘ylar), uyur (otlar), armiya, lashkar.

Otlashish – otdan boshqa so‘z turkumlarining otning so‘rog‘iga javob bo‘lishi va otga xos qo‘shimchalarni olishi: 1) sifat otlashadi: Yaxshilaridan tanlang; 2) son otlashadi: Ikkovlarini taklif qilishdi; 3) olmosh otlashadi: Bularingizdan qachon qutulaman. 4) fe’lning sifatdosh shakli otlashadi: O‘qiganlaringizni eslang; 5) Ravish otlashadi: Ko‘plarni tabriklashdi; 6) undov so‘z otlashadi: Dodimni eshiting; 7) taqlid so‘z otlashadi: Shitir-shitiri eshitildi.

Turdosh otlar - bir turdagi predmetlarning umumiy nomini bildirgan otlar: shahar, bola, qalam, uy, meva, talaba.

Qo‘shma otlar - ikki va undan ortiq so‘zning qo‘shilishidan yoki bog‘lanishidan hosil bo‘lagan otlar. Ular quyidagicha yasaladi: 1) ot bilan otdan: otquloq, qo‘larra; 2) sifat bilan otdan: ko‘ksulton, xomtok; 3) ot bilan sifatdan: gulbeor, oshko‘k; 4) son bilan otdan: mingoyoq, qirqog‘ayni, uchburchak; 5) ot bilan fe’ldan: o‘rinbosar, beshiktervatar; 6) fe’l bilan fe’ldan: iskabtopar, olibsotar; 7) fe’l va undalmadan: urto‘qmoq, ochildasturxon. Biror belgisiga ko‘ra atalgan joy nomlari ham ko‘pincha qo‘shma ot orqali ifodalanadi: Oqtepa, To‘ytepa, Uchqo‘rg‘on.

Mavhum otlar – sezgi a’zolari emas, balki ong yordamidagina idrok qilinadigan tushunchalarni ifodalaydigan otlar: do‘stlik, quvonch, sevgi, nafrat, vijdon.

Yakka otlar - birlik shaklda (ya’ni, -lar qo‘shimchasisiz) yakka predmetni ifodalaydigan otlar: daftar, uy, bola, maktab, shahar, davlat.

7-MAVZU:OTLARDA KELISHIK KATEGORIYASI.EGALIK KATEGORIYALAR. OTLARNING YASALISHI 2 SOAT

Ma’ruza rejasi:

1.Otlarning turlanishi kelishik shakllari haqida ma’lumot.
2.Otlarni kesimga xoslovchi shakllar
3.Qarashlilik shakli haqida ma’lum
4.Otlarda so‘z yasalishi
5.Otlarda modal shakl yasalishi
6.Otlarning tuzilish jihatdan turlari
7.Otni to‘liq morfologik tahlil qilish

Otlarda egalik kategoriyasi

Predmet yoki predmetlik tushunchasining uch shaxsdan biriga (ba’zan predmetga) taalluqli ekanligini ko‘rsatuvchi umumiy ma’nolar va bu ma’nolarni ifoda etuvchi shakllar tizimiga egalik kategoriyasi deyiladi.

Predmet yoki predmetlik tushunchasining uch shaxsdan biriga, ya’ni so‘zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o‘zga (III shaxs) shaxsga taalluqliligini ifodaslaydigan affikslar egalik affikslari deyiladi. Egalik affikslari shaxs ma’nosi bilan birga uning sonini (birlik yoki ko‘plik ma’nosini) ham ifodaslaydi. Egalik affikslari quyidagi jadvalda berilgan.

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	*-(i)m (kitobim)*	*-(i)miz (kitobimiz)*
II shaxs	*-(i)ng (kitobing)*	*-(i)ngiz (kitoblari)*
III shaxs	*-i, -si (kitobi)*	*-i, -si (kitobi)*

Jadvaldan ko‘rinadiki, III shaxs egalik affiksi birlik va ko‘plik son uchun umumiy. Predmetning bir shaxsga yoki ko‘p shaxsga taalluqliligi egalik affiksi olgan ot bog‘lanib kelgan so‘zning grammatik son shakliga qarab aniqlanadi: uning kitobi – birlik, ularning kitobi – ko‘plikdir.

Shuningdek, egalik affikslari ot negizining unli yoki undosh tovush bilan tugashiga qarab ikki xil shaklda qo‘llanadi.

Shaxs	**Birlik**		**Ko‘plik**	
	unlidan so‘ng	***undoshdan so‘ng***	***unlidan so‘ng***	***undoshdan so‘ng***
I shaxs	*sovg‘a+ -m*	*daftar+ -im*	*sovg‘a+ -miz*	*daftar+ -imiz*
II shaxs	*sovg‘a+ -ng*	*daftar+ -ing*	*sovg‘a+ -ngiz*	*daftar+ -ingiz*
III shaxs	*sovg‘a+ -si*	*daftar+ -i*	*sovg‘a+ -si*	*daftar+ -i*

Egalik affikslari odatda, ko‘plik affiksidan keyin qo‘shiladi: kitob+ -lar+ -im kabi.

Egalik affiksi qo‘shilgan ot, odatda, qaratqich kelishigidagi (belgili va belgisiz shakldagi) boshqa ot, olmosh va otlashgan so‘z bilan bog‘lanadi: daraxtning bargi, ipak qurti, mening vazifam, yaxshining so‘zi kabi. Bu bog‘lanish egalik affiksini olgan ot anglatgan predmetning qaratqich kelishigida kelgan so‘zga qaramli ekanligini ko‘rsatadi.

Egalik affiksini olgan ot ba’zan chiqish kelishigidagi ot bilan ham bog‘lanishi mumkin. Masalan: talabalardan bir guruhi kabi. Bunday bog‘lanishda egalik affiksini olgan ot yuqoridagi kabi qarashlilik ma’nosini emas, balki aloqadorlik, mansublik ma’nosini ifodaslaydi. Demak, bu holda faqat grammatik egalik (aloqadorlik, mansublik) ma’nosi mavjud.

Egalik affiksi I va II shaxsda predmetning qaysi shaxsga tegishli ekanligini aniq ko‘rsatadi. CHunki bu shaxslar har vaqt kishilik olmoshlari bilan ifodalanadi. Masalan: mening burchim, sening burching, bizning burchimiz, sizning burchingiz kabi. III shaxsda esa egalik affiksini olgan ot qaratqich kelishigida kelgan olmosh bilan ham, ot va otlashgan so‘zlar bilan ham bog‘lana oladi: uning burchi, farzandning baxti, ko‘plarning orzusi kabi.

Ba’zan uslub talabi nuqtai nazaridan shaxs va egalik affiksini olgan ot orasidagi munosabat o‘zgacha bo‘lishi mumkin, ya’ni II shaxs birlik sondagi egalik affiksini olgan ot shu shaxsning ko‘pligi uchun qo‘llanishi mumkin: senlarning maqsading kabi. YOki, aksincha, otning II shaxs ko‘plik shaklidagi egalik affiksini olgan ot shu shaxsning birligi uchun qo‘llanishi mumkin: sizning opangiz kabi. Birinchi holda kamsitish, kesatiq kabi ma’nolar, ikkinchi holda esa hurmat ma’nosi ifodalanadi.

Ot ko‘plik son shaklida kelib, ko‘plik ma’nosini ifodalaganda, egalik affiksi –lar qo‘shimchasidan keyin qo‘shiladi: opalarim kabi. Lekin hurmat ma’nosi ifodalanganda, egalik affikslari –lar qo‘shimchasidan oldin qo‘shiladi: opamlar, akamlar kabi.

Egalik affikslari otning gapdagi sintaktik vazifasini ko‘rsatmaydi.

Ba’zi otlarga egalik affikslari qo‘shilganda, so‘z tarkibida turli fonetik o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bular quyidagilar:

1. ***k, q*** undoshi bilan tugagan ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarga, shuningdek, bek kabi ayrim bir bo‘g‘inli so‘zlarga egalik affikslari qo‘shilganda, k undoshi g undoshiga, q undoshi g‘ undoshiga aylanadi va bu holat yozuvda ham saqlanadi: tilak – tilagi, yurak – yuragi, bek – begi, kubok – kubogi, qishloq - qishlog‘i kabi. Lekin ko‘p bo‘g‘inli o‘zlashma so‘zlarga, bir bo‘g‘inli so‘zlarga (ko‘p hollarda) egalik affikslari qo‘shilganda k, q undoshi asliga mos holda aytiladi va yoziladi: ishtirok – ishtiroki, ocherk – ocherking, erk – erki; huquq - huquqim, zavq - zavqi kabi.

2. O‘rin, qorin, burun, o‘g‘il, bo‘yin, ko‘ngil, singil kabi otlarga egalik affikslari qo‘shilganda, ikkinchi bo‘g‘indagi i, u unlilari talaffuzda aytilmaydi va yozilmaydi: o‘rin - o‘rnim, qorin - qornim, burun – burning, o‘g‘il - o‘g‘lim, ko‘ngil – ko‘ngli, singil – singlim kabi.

3. Parvo, obro‘, mavqe, avzo, mavzu so‘zlariga I va II shaxs egalik affikslari qo‘shilganda, so‘z tarkibida bir y tovushi qo‘shim aytiladi va shunday yoziladi: parvoyim, parvoying, obro‘yim, obro‘ying kabi; III shaxsda esa parvo, obro‘, mavqe, avzo so‘zlari parvoyi, obro‘yi, mavqeyi, avzoyi kabi, mavzu so‘zi esa mavzusi tarzida aytiladi va yoziladi.

Otlarni boshqa so‘zlarga tobelantirib bog‘lash uchun xizmat qiladigan shakllar kelishik shakllari deyiladi. Kelishik shakllari otlarning gapda bajaradigan sintaktik vazifalarini belgilab beradi va doimo tobe so‘zga qo‘shiladi. Otlarda oltita kelishik shakli mavjud:

Bosh kelishikning maxsus qo‘shimchasi yo‘q va bu kelishikdagi otlar ko‘pincha ega (Dars boshlandi.), ot-kesim (Mening do‘stim – talaba.), undalma (Og‘ayni, bugun birga dars

tayyorlaylik.), ba’zan sifatlovchi aniqlovchi (Mashina asfalt yo‘lga chiqib oldi.) vazifalarini bajaradi.

Qaratqich kelishigidagi ot doim ot bilan bog‘lanadi va qaratqich aniqlovchi vazifasini bajaradi: maktabning hovlisi, kitobning varag‘i. Qaratqich kelishigidagi so‘z qaratqich, u bog‘lanib kelgan so‘z esa qaralmish deb ataladi. Qaratqich va qaralmish yonma-yon kelgan paytda kelishik qo‘shimchasi tushirilishi mumkin: maktab bog‘i. Bu belgisiz qaratqich kelishigi deyiladi. Agar qaratqich va qaralmish o‘rtasida so‘z qatnashsa yoki qaratqich kelishigi atoqli otlarga, olmoshlarga, sifatdoshlarga qo‘shilsa, kelishik qo‘shimchasi tushirilishi mumkin emas: maktabning salqin bog‘i, Salimning kitobi, mening ukam, o‘qiganning foydasi. Bu belgili qaratqich kelishigi deyiladi.

Tushum kelishigidagi ot doim o‘timli fe’l bilan bog‘lanadi va vositasiz to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi: maktabni sevish, kitobni o‘qish. Tushum kelishigidagi ot o‘timli fe’l bilan yonma-yon kelganda, kelishik qo‘shimchasi tushirilishi mumkin: xat(ni) yozdi. Tushum kelishigi qo‘shimchasi atoqli otlarga, olmoshlarga, sifatdoshlarga qo‘shilganda, bu qo‘shimcha tushirilmaydi: Nodirani uchratdi, hammani kutdi, aytganni qiling.

Qaratqich, tushum kelishigi qo‘shimchalari -n shaklida qisqarishi mumkin va ular o‘zaro omonim holatga kiradi: Otin(ing) boshin(i) burdi.

Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi o‘rin-joy otlariga qo‘shilsa, qaerga? so‘rog‘iga javob bo‘lib, o‘rin holi bo‘lib keladi: maktabga ketdi. Bu qo‘shimcha payt otlariga qo‘shilganda, qachon? so‘rog‘iga javob bo‘lib, payt holi vazifasini bajaradi: yozga qoldirildi. Jo‘nalish kelishigining qo‘shimchasi shaxs va narsa otlariga qo‘shilsa, kimga? nimaga? so‘roqlariga javob bo‘lib, to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi: onasiga yordamlashdi, soatiga qaradi. Bu kelishik shaklidagi otlar ko‘pincha gap oxirida kelib, ot-kesim vazifasini ham bajarishi mumkin: Bu sovg‘a senga.

Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi k tovushi bilan bitgan so‘zlarga qo‘shilib -ka tarzida yoziladi: ko‘ylakka.

Bu kelishik qo‘shimchasi q, g‘ tovushi bilan bitgan kiril yozuvidagi so‘zlarga –qa tarzida qo‘shiladi va shunday yoziladi: toqqa, bog‘qa. q, g‘ tovushi bilan tugagan lotin yozuvidagi so‘zlarga qo‘shilib, –qa tarzida talaffuz qilinsa ham, -ga shaklida yoziladi: tog‘Qgaqtog‘ga.

Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi mumtoz adabiyotda –a, -na tarzida ham uchraydi: yorima, qo‘lina. Eski o‘zbek tilida bu kelishik qo‘shimchasining –ru, –garu, -karu, -qaru, -g‘aru shakllari ham bo‘lgan (2; 108).

O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi o‘rin-joy otlariga qo‘shilsa, qaerda? so‘rog‘iga javob bo‘lib, o‘rin holi bo‘lib keladi: shaharda o‘qiydi. Bu qo‘shimcha payt otlariga qo‘shilganda, qachon? so‘rog‘iga javob bo‘lib, payt holi vazifasini bajaradi: qishda o‘tkaziladi. O‘rin-payt kelishigining qo‘shimchasi shaxs va narsa otlariga qo‘shilsa, kimda? nimada? so‘roqlariga javob bo‘lib, to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi: ukasida bor, aravada tashidi. Bu kelishik shaklidagi otlar ko‘pincha gap oxirida kelib, ot-kesim vazifasini ham bajarishi mumkin: Hamma gap otasida.

Jo‘nalish va o‘rin-payt kelishigidagi otlar ham belgili (qo‘shimchali) va belgisiz (qo‘shimchasiz) qo‘llanishi mumkin: Andijon(ga) ketdi, tong(da) esgan shabada.

Chiqish kelishigi qo‘shimchasi o‘rin-joy otlariga qo‘shilsa, qaerdan? so‘rog‘iga javob bo‘lib, o‘rin holi bo‘lib keladi: Toshkentdan keldi. Bu qo‘shimcha payt otlariga qo‘shilganda, qachon? so‘rog‘iga javob bo‘lib, payt holi vazifasini, mavhum otlarga qo‘shilib sabab holi vazifasini bajaradi: tongdan (qachon?) boshlandi, sevinchidan (nega?) yig‘ladi. Chiqish kelishigining qo‘shimchasi shaxs va narsa otlariga qo‘shilsa, kimdan? nimadan? so‘roqlariga javob bo‘lib, to‘ldiruvchi vazifasini bajaradi: do‘stidan so‘radi. Bu

kelishik shaklidagi otlar ko‘pincha gap oxirida kelib, ot-kesim vazifasini ham bajarishi mumkin: Pul otasidan.

4- ilova

MAVZU BO’YICHA TEST TOPSHIRIQLARI:

1. Bosh kelishik shaklidagi ismlar gapda ko‘pincha qanday vazifalarni bajaradi?
A)ega, ot-kesim
B) sifatlovchi-aniqlovchi
C)undalma
D) A,B,C’’

2. Qaratqich kelishigidagi so‘z bog‘langan so‘z nima deb ataladi?
A)qaratqich
B)qaralmish*
C)qaratuvchi
D)qaralgan

3.Tushum kelishigi shaklida qo‘llangan otlar qatorini toping.
A.nomardni, achchig‘ni, nordonni
B. tomog‘ning, rassomning, kulgining
C. yahshilikni, go‘zallikni
D. adashganni, intilganni, o‘qiganni
E. qamchidan, oltindan, rasmdan

4. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi k yoki g tovushi bilan tugagan otlarga qo‘shilgan qatorni toping.
A. chelakda, o‘rdakda, terakda
B.elakka, idrokka, bargga
C. qarsakdan, balandlikdan, darslikdan
D. jimlikni, hashakni, o‘zlikni
E. jo‘mrakning, jo‘yakning, zambarakning

5. qaysi qo‘shimchalar turlovchi qo‘shimchalar deyiladi?
A. egalik
B. kelishik
C. shaxs son
D. ko‘plik
E. fe’l nisbatlari qo‘shimchalari

6.Qaysi kelishikdagi so‘zlar harakat yo‘nalgan biror narsani ko‘rsatadi?
A. jo‘nalish kelishigi
B.chiqish kelishigi
C. tushum kelishigi
D. qaratqich kelishigi
E. o‘rin payt kelishigi

7. Quyidagi gapda qaysi kelishiklar bilan bog‘liq hato mavjud? Uyg‘ur o‘z tarihi mobaynida uyg‘urlarnigina emas, balki butun turkey xalqlarning umumiy yozuviga aylandi.
A. bosh kelishik, tushum kelishigi
B. qaratqich kelishigi tushum kelishigi
C. tushum kelishigi, jo‘nalish kelishigi
D. jo‘nalish kelishigi, o‘rin payt kelishigi
E. chiqish kelishigi, bosh kelishik

5-ilova

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.

9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.
10. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfemika. So‘z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.
11. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, ”Moliya”, 2003

DASTURLASHTIRILGAN TOPSHIRIQ SAVOLLARI:

1.Kichraytirish, erkalash va hurmatlash ma’nolarini ifodalovchi qo‘shimchalarni misollari bilan sanab ko‘rsating.
2. Yasama shaxs otlariga 5 ta misol keltiring.
3. Narsa-buyum oti yasovchi qo‘shimchalar qanday so‘zlardan ot yasaydi?
4. Yasama o‘rin-joy otlariga misollar keltiring.
5. Yasama mavhum otlarga misollar keltiring.

ilova -6

Otlarning yasalishi

Hozirgi o‘zbek tilida ot so‘z turkumi lug‘at tarkibida mavjud bo‘lgan so‘zlarning miqdorini tashkil qiladi. Chunki ot so‘z turkumi boshqa so‘z turkumlariga nisbatan yangi so‘zlar hisobiga tez boyib boradigan turkumdir.O‘zbek tilida ot *morfologik, sintaktik va abbreviatsiya* usullari bilan yasaladi.

(M.Hamroyevda esa:)

Otlar besh xil usul bilan yasaladi. 1. Ot yasovchi qo‘shimchalar bilan. 2. So‘zlarni qo‘shish yoki juftlash bilan. 3. So‘zlarni qisqartirish bilan. 4. Turkumdan turkumga so‘z ko‘chishi yordamida. 5. So‘zlarni takrorlash yordamida.

1. Yasovchi qo‘shimchalar bilan ot yasash (morfologik yoki affiksatsiya usuli)

Ot yasovchi qo‘shimchalar o‘zak bilan birikkan holda quyidagi ma’nolarni bildiruvchi otlar yasaydi. 1. Shaxs otlari. 2. Narsa-buyum otlari. 3. O‘rin-joy otlari. 4. Mavhum otlar.

1. Shaxs oti yasovchi qo‘shimchalar:

-chi:	suvchi, sportchi, navbatchi, haybarakallachi.
-dosh:	sinfdosh, suhbatdosh.
-kor (-kar, -gar, -gor):	paxtakor, talabgor, miskar, zargar,
-kash:	aravakash,
-dor:	chorvador, amaldor
-bon:	saroybon, darvozabon
-boz:	dorboz, askiyaboz
-paz:	oshpaz, mantipaz
-xon:	gazetxon, kitobxon
-shunos:	tilshunos, zarshunos
-do‘z:	gilamdo‘z, etkdo‘z
-soz:	soatsoz, aravasoz
-xo‘r:	choyxo‘r, qimizxo‘r
-parast:	shaxsiyatparast, amalparast
-go‘y:	duogo‘y,
-furush:	mevafurush, chitfurush
-vachcha:	tog‘avachcha,amakivachcha
-(u)vchi:	yozuvchi, uchuvchi

-(o)vchi: tinglovchi,o‘quvchi
ham-: hamsuhbat hamyurt
-sil: yo‘qsil (arxaik.)

2. Narsa-buyum otlari yasovchi qo‘shimchalar:

-gich (-kich,-qich,-g‘ich): tishkovlagich, ko‘rsatkich, qisqich, chizg‘ich.
-gi (-ki,-qi,-g‘i, -g‘u): supurgi, tepki, chalg‘i, chopqi, tuyg‘u.
-k,-ak: kurak, pirpirak, varrak.
-q,-oq: tara-q - taroq, bo‘ya-q – bo‘yoq.
-iq,-ik: chopiq, topshiriq, teshik.
-uq: uchuq, yutuq.
-ma: to‘qima, bo‘g‘ma, bosma.
-m,-im: to‘plam, kiyim, tishlam.
-um: unum, yutum; uyQum - uyum.
-don: qalamdon, tuzdon.
-noma: taklifnoma
-qin(-qun,-g‘in,-g‘un): to‘lqin, yong‘in, uchqun, yulg‘un.
-in(-un, -on): yig‘in, tugun, to‘zon.
-(i) ndi: chirindi, cho‘kindi.
-machoq: bekinmachoq, tortishmachoq.
-(i) sh: qurilish, turlanish.
-(u) v, (o) v: yozuv, saylov.
-ak (oq): qarsak, qaldiroq, varrak.
-ildoq: shaqildoq.
-a: sharshara, jizza.
-os: chuvvos,gulduros.
-poya: bedapoya, g‘o‘zapoya.
-qoq(-kak, -gak): botqoq, eshkak, ilgak.
-dak(-doq): yugurdak, qovurdoq.
-chiq: yopinchiq, suyanchiq.
-chak: burchak, kemirchak.
-machoq: bekinmachoq, aylanmachoq.
-iz: bo‘g‘iz
-miq: bulamiq
-t(-it, -at, -ot): qurt(qurit), chiqit, o‘lat, ko‘chat, sizot.
-mish: o‘tmish, qilmish.
-kilik(-gilik): ichkilik, ko‘rgilik.
-moq(-mak): quymoq (ovqat turi), chertmak (o‘yin turi).
-cha: qizilcha, olacha.
-ka: yo‘lka
-noma: taklifnoma

3. O‘rin-joy otlari yasovchi qo‘shimchalar:

-zor: gulzor, paxtazor, olmazor
-iston: O‘zbekiston, guliston
-loq: o‘tloq,toshloq
-goh: saylgoh, o‘yingoh
-xona: oshxona, choyxona
-obod: Yunusobod, Yangiobod

4. Mavhum ot yasovchi qo‘shimchalar:

-lik: bolalik, do‘stlik, birlik, mustaqillik
-liq: otaliq, borliq
-ch: sevinch, quvonch, tayanch
-garchilik: odamgarchilik, og‘aynigarchilik
-chilik: kamchilik, dehqonchilik
-sh(-ish): qurilish, emlash
-v(-uv): undov, uquv
-i: suyunchi
-at(-ot): madaniyat (madaniyat madaniyat), qonuniyat,shaxsiyat,

2. So‘zlarni qo‘shib, juftlab, bog‘lab ot yasash (*sintaktik yoki kompozitsiya usuli*)

Bunda qo‘shma va juft otlar yasaladi. Qo‘shma otlar quyidagicha yasaladi:

1) ot bilan otdan: otquloq, qo‘larra; 2) sifat bilan otdan: ko‘ksulton, xomtok; 3) ot bilan sifatdan: gulbeor, oshko‘k; 4) son bilan otdan: mingoyoq, qirqog‘ayni, uchburchak; 5) ot bilan fe’ldan: o‘rinbosar, beshiktervatar; 6) fe’l bilan fe’ldan: iskabtopar, olibsotar. Biror belgisiga ko‘ra atalgan joy nomlari ko‘pincha qo‘shma ot orqali ifodalanadi: Oqtepa, To‘ytepa, Uchqo‘rg‘on.

Qo‘shma otlar qismlarining munosabatlari quyidagi ko‘rinishlarda bo‘ladi:

1. Sifatlovchi-sifatlanmish birikmasi shaklida: ko‘ksulton, itbaliq.
2. Qaratqich-qaralmish birikmasi shaklida: bilaguzuk (bilakning uzugi), otquloq (otning qulog‘i).
3. To‘ldiruvchi-to‘ldirilmish birikmasi shaklida: o‘rinbosar (o‘rinni bosar), beshiktervatar (beshikni tebratar), dunyoqarash (dunyoni qarash).
4. Hol-hollanmish birikmasi shaklida: beshotar, iskabtopar (chivin)
5. Ega-kesim birikmasi shaklida: go‘shtkuydi, qoryog‘di (marosimlar) – Go‘sht kuydi. Qor yog‘di.
6. Kesim-undalma shaklida: urto‘qmoq (Ur, to‘qmoq), ochildasturxon (Ochil, dasturxon).

Quyidagi qo‘shma otlar qo‘shib yoziladi:

1) qismlari turdosh otlardan iborat bo‘lib, bir urg‘u bilan aytiladigan narsa-buyum nomlari: gulko‘rpa, oshqozon, o‘qilon, tutmayiz, oshko‘k.

2) ot bilan -ar qo‘shimchali fe’ldan yasalgan qo‘shma otlar: otboqar.

3) ikkinchi qismi turdosh ot bo‘lgan geografik nomlar: Sirdaryo, Oqtepa. Ikkinchi qismi e, yo, yu, ya harfi bilan boshlangan qo‘shma otlar ajratib yoziladi: er yong‘oq, eshak emi, qozon yuvg‘ich.

Bulardan tashqari, ruscha-baynalmilal so‘zlar ishtirokida yasalgan qo‘shma otlar ham o‘zbek tilida mavjud: bronepoezd, aviabo‘linma, avtoyo‘l, kinoqissa.

Juft otlar quyidagicha yasaladi:

1) bir-biriga yaqin ma’noli so‘zlardan: uy-joy, oyoq-qo‘l.

2) sinonim so‘zlardan: kuch-quvvat, oziq-ovqat, baxt-saodat.

3) antonimlardan: yosh-qari, ost-ust.

4) butun-bo‘lak ma’nosini ifodalovchi so‘zlardan: tog‘-tosh, idish-tovoq, gap-so‘z, oy-kun, vaqt-soat.

Har doim ham ikkita otning juftlanishidan yangi ot yasalavermaydi. Juft so‘zning turkumini qismlarning qaysi turkumdan ekanligiga qarab emas, balki juft so‘zning butunligicha qanday ma’no anglatishiga qarab aniqlash kerak bo‘ladi. Shu jihatdan qaraganda, quyidagi turkum so‘zlar juftlanib, ot yasaladi:

1. Ot: yor-birodar, to‘y-tomosha.
2. Sifat: oq-qora (Oq-qorani tanigan), issiq-sovuq (qilingan).

3. Ravish: kam-koʻst.
4. Sof feʼl: ur-yiqit, keldi-ketdi (tugadi).
5. Feʼlning harakat nomi shakli: yurish-turish, yozuv-chizuv.
6. Taqlidiy soʻzlar: adi-badi, qiy-chuv.

Juft otlar qismlarining qaysi tilga mansubligi jihatidan quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Oʻzbekcha-oʻzbekcha: ot-ulov, koʻrpa-yostiq.
2. Oʻzbekcha-arabcha: kuch-quvvat, oʻy-xayol.
3. Oʻzbekcha-tojikcha: tuz-namak.
4. Oʻzbekcha-ruscha: kissa-karmon.
5. Arabcha-arabcha: hisob-kitob.
6. Tojikcha-oʻzbekcha: savdo-sotiq.

3. Soʻzlarni qisqartirib ot yasash (abbreviatsiya usuli)

1) soʻzlarning birinchi harfidan: **Birlashgan millatlar tashkiloti - BMT, Reklama tijorat markazi - RTM.**

2) birinchi soʻzning bosh qismini va boshqa soʻzlarning birinchi harfini olish bilan: **Oʻzbekiston Milliy universiteti - OʻzMU.**

3) soʻzlarning bosh qismidan: ijroiya qoʻmita - ijroqoʻm.

4) aralash yoʻl bilan: pedkengash.

4. Turkumdan turkumga koʻchish orqali ot yasalishi (semantik usul)

1) sifatdan otga koʻchish: oʻgʻil (bola), qiz (bola), ayol (kishi), chol (odam); 2) feʼldan otga koʻchish: kelajak (Oʻzbekiston kelajagi buyuk davlatdir); 3) juft feʼllar otga koʻchadi: keldi-ketdi, oldi-sotdi, qoʻydi-chiqdi.

5. Soʻzlarni takrorlash yordamida ot yasash

Lik-lik (koʻkat turi), pat-pat (mototsikl), bogʻcha-bogʻcha (oʻyin), yugur-yugur (shoshilish), biyovbiyov (qush), shaqshaq (qush).

Otlarning tuzilish jihatdan turlari

Otlar tuzilish jihatdan quyidagi turlarga boʻlinadi:

1. Sodda otlar: a) sodda tub otlar. b) sodda yasama otlar. Tub otlar soʻz yasovchi qoʻshimcha olmagan otlardir: kitobni, qalamlarim. Yasama otlar soʻz yasovchi qoʻshimcha qoʻshish yordamida yasalgan otlardir: kitobxonni, qalamdonim.

2. Qoʻshma otlar: belbogʻ, qoʻlqop, Yangiyoʻl, er yongʻoq.

3. Qisqartma otlar: MDH, pedkengash.

4. Juft otlar: em-xashak, koʻrpa-yostiq.

5. Takroriy otlar: choy-poy, in-iniga, tomir-tomiriga, don-dun, irim-sirim, yor-yor (qoʻshiq nomi).

Juft va takroriy otlar orasiga chiziqcha qoʻyib yoziladi.

Agar juft otlar oʻrtasida ikki otni bir-biri bilan bogʻlaydigan u, yu tovushlari boʻlsa, kirilcha yozuvda chiziqcha qoʻyilmaydi: Onayu bola - gulu lola. Takroriy otlar bir otni takrorlash yordamida hosil qilinadi: Aytilgan soʻzlar jon-jonidan oʻtib ketdi. Tilimizda takrorlangan, soʻzning boshida kelgan undosh p eki m undoshidan biriga almashadigan yoki unli tovushdan oldin p tovushi orttiriladigan choy-poy, non-pon, qop-mop, osh-posh, pul-mul kabi takroriy otlar ham bor.

Morfologik usul

- Bu usulga koʻra soʻz negiziga maxsus ot yasovchi affikslarni qoʻshish bilan yangi ot yasaladi. Ot yasovchi affikslar ot, sifat, son, olmosh, feʼl va ravish kabi mustaqil soʻz turkumlari, shuningdek, modal va taqlid soʻz negizlaridan yasaladi.
- Morfologik usul bilan ot yasovchi affikslar maʼno jihatdan quyidagi guruhdagi

otlarni yasaydi:

- *1.Shaxs va kasb-hunar otlarini yasovchi affikslar.*
- *2.Narsa, qurol, o‘lchov birligi otlarini yasovchi affikslar.*
- *3.O‘rin-payt otlarini yasovchi affikslar.*
- *4.Abstrakt ot yasovchi affikslar.*

Shaxs va kasb-hunar oti yasovchi affikslar

- *-chi: tarbiyachi, terimchi, sportchi, tijoratchi, navbatchi*
- *-dosh: fikrdosh, kursdosh, zamondosh, suhbatdosh, muallifdosh*
- *-gar,-kor: zargar, kimyogar, g‘allakor, san’atkor*
- *-bon:,-boz: bog‘ bon, darvozabon, darboz, bedanaboz*
- *-paz: oshpaz, somsapaz, kabobpaz*
- *-kash: suratkash, aravakash, mehnatkash*
- *-dor: chorvador, mulkdor*
- *-shunos: tilshunos, tuproqshunos, tabiatshunos*
- *-xon: kitobxon, gazetxon, g‘azalxon*
- *-soz: mashinasoz, traktorsoz, soatsoz*
- *-do‘z: do‘ppido‘z, etikdo‘z, mahsido‘z, gilamdo‘z*
- *-xo‘r: choyxo‘r, oshxo‘r.*

Narsa, qurol, o‘lchov birligi otlarini yasovchi affikslar

- *-k (-ik), -ak, -q (-iq, -uq), -oq: elak, kurak, teshik, pirpirak, bo‘lak, bo‘yoq, so‘roq, chopiq, topshiriq, yutuq, o‘roq kabi.*
- *-gich (-g‘ich, -kich, -qich): suzgich, o‘chirg‘ich, qirg‘ich, ko‘rsatkich, tutqich, qisqich.*
- *-gi (-ki,-qi,-g‘i,-g‘u): supurgi, kulgi, tepki, chopqi, tutatqi, yoqilg‘i, cholg‘u.*
- *-m (-im,-um): to‘plam, tishlam, chimdim, kiyim, unum.*
- *-ma: qiyma, qatlama, dimlama (mahsulot nomi), tenglama, ayirma (matematik terminlar), isitma, jamg‘arma.*
- *-don: qalamdon, guldon.*
- *-indi: yuvindi, chirindi, qirindi.*
- *-qin (-qun, -g‘in, -g‘un): to‘lqin, toshqin, uchqun, yong‘in, yulg‘un.*
- *-in (-un, -on): yig‘in, tugun, to‘zon.*
- *-ak (-oq): qarsak, varrak, qaltiroq.*
- *-a: sharshara, jizza.*
- *-os: gulduros, chuvvos.*
- *-gak (-kak): ilgak, eshkak.*
- *-doq: qovurdoq.*
- *-moq (-mak): quymoq (ovqat turi), chertmak.*
- *-cha: qizilcha, olacha.*
- *-chiq: yopinchiq.*
- *-ildoq: shaqildoq.*
- *-machoq: bekinmachoq, tortishmachoq.*
- *-noma: taklifnoma, tashakkurnoma, vasiyatnoma.*

Sintaktik usul bilan ot yasash.

- Bu usulga ko‘ra ikki va undan ortiq so‘z shakllari biron qolipda birikib, bir predmetni anglatadigan yangi ot yasaladi.
- Sintaktik usulga ko‘ra qo‘shma va juft otlar yasaladi.

Qo‘shma otlar

- 1.Aniqlovchi+aniqlanmish: *bilaguzuk, achchiqtosh, oshqozon, toshko‘mir, bedapoya, so‘z boshi, Beshariq, Kattaqo‘rg‘on.*
- 2.Ega+kesim: *Soykeldi, Qoryog‘di.*
- *3.To‘ldiruvchi+kesim: dunyoqarash, kungaboqar, muzyorar, otboqar, ish tashlash.*
- 4.Hol+kesim: *beshotar, iskabtopar, bosvoldi.*
- *5.Kesim+undalma: Yoriltosh, ochildasturxon.*

Juft otlar

- Bir xil grammatik shaklda kelgan ikki so‘zning grammatik jihatdan teng bog‘lanishidan tuzilgan jamlovchi, bir umumiy ma’noni anglatadigan yangi ot. Juft ot qismlari orasidagi tenglik munosabati yozuvda chiziqcha bilan ko‘rsatiladi. Bunday juft otning qismlari 2 xil bog‘lanadi:
- a) bog‘lovchilarsiz: ota-ona, gul-lola;
- b) bog‘lovchi vazifasidagi –u, -yu yuklamalari yordamida: tog‘ -u tosh, olma-yu o‘rik kabi.

Ot tahlili namunasi	
1. So‘rog‘i. 2. Ma’no turi (atoqli va turdosh otlar, turdosh otlarning turlari). 3. Birlik yoki ko‘pligi (soni) 4. Kelishigi. 5. Egalik qo‘shimchasi bo‘lsa,	uning shaxs-soni aniqlanadi. 6. Kichraytirish, erkalash, hurmatlash ma’nolari bo‘lsa, aniqlanadi. 7. Tuzilish turi. 8. Tub yoki yasamaligi. 9. Gapdagi sintaktik vazifasi.

ilova -7

Blits-o‘yin

№	***Savollar***	Yakka javob	To‘g‘ri javob	***Sizning harakatingiz***
1.	Ot so‘z turkumi nechta usul orqali yasaladi?		2	Abbreviatsiya usuliga
2.	Otlar tuzilishi jihatdan necha turga bo‘linadi.		4	O‘zbek tilida ot morfologik, sintaktik va abbreviatsiya usullari bilan yasaladi.
3.	Otlarda qanday modal shakllar mavjud?		5	Otlarning leksik ma’nosiga qo‘shimcha modal ma’no qo‘shilishi bilan hosil qilinadigan shakl modal shakl yasash deyiladi.
4.	Faqat otgagina xos usul qaysi?		1	Otlar tuzilishi jihatdan sodda ot, qo‘shma ot, juft ot, qisqartma otlarga bo‘linadi.
5.	Otlarda modal ma’no qanday hosil qilinadi?		3	Otlar o‘z leksik ma’nosiga qo‘shimcha kichraytish, erkalash, hurmat, kuchaytirish, gumon, noaniqlik kabi modal ma’nolarni

				ifodaslaydi

GLOSSARIY

Belgili kelishik – qo‘shimchasi tushirilmagan kelishik: belgili qaratqich kelishigi – kitobning varag‘i; belgili tushum kelishigi – kitobni o‘qimoq; belgili jo‘nalish kelishigi – Dadam Toshkentga ketdi; belgili o‘rin-payt kelishigi – Tongda esgan shabada.

Belgisiz kelishik - qo‘shimchasi tushirilgan kelishik: belgisiz qaratqich kelishigi – kitob varag‘i; belgisiz tushum kelishigi – kitob o‘qimoq; belgisiz jo‘nalish kelishigi – Dadam Toshkent ketdi; belgisiz o‘rin-payt kelishigi – Tong esgan shabada.

Egalik qo‘shimchalari – predmetning (keng ma’noda) uch shaxsdan (so‘zlovchi, tinglovchi, o‘zga) biriga tegishli ekanligini bildiradigan va ot yoki otlashgan so‘zlarga qo‘shilib keladigan quyidagi qo‘shimchalar: uyim, uying, uyi; ukam, ukang, ukasi; uyimiz, uyingiz, uylari; ukamiz, ukangiz, ukalari.

Jo‘nalish kelishigidagi so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar - o‘zidan oldin jo‘nalish kelishigidagi so‘zni talab qiladigan ko‘makchilardir. Bularga quyidagi so‘zlar kiradi: tomon qadar ko‘ra qarshi qarab, qarata qaraganda qaramasdan, qaramay yarasha doir asosan, binoan, muvofiq. Masalan: Uy tomon ketdi. Kechga qadar kutib o‘tirdi. Uning buyrug‘iga ko‘ra yetib kelishdi. Bilimiga qarab baho qo‘yiladi. Uning qarshiligiga qaramay vazifa bajarildi. Shu fikrga asosan qaror
qilishdi. Odamlarga qarata nutq so‘zladi.

Kelishiklar - otlarni boshqa so‘zlarga bog‘lash uchun xizmat qiladigan, otlarning gapda bajaradigan vazifalarini belgilab beradigan shakl.

Kelishiklar 6 xil: bosh kelishik (qo‘shimcha yo‘q), qaratqich kelishigi (bolaning, taqdir kitobin varag‘i), tushum kelishigi (uyni, boshin burdi), jo‘nalish kelishigi (uyga, etikka, bog‘ga, qo‘lina, yorima), o‘rin-payt kelishigi (uyda), chiqish kelishigi (uydan).

8-MAVZU: SIFAT. SIFATNING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

1-ilova

Ma’ruza mashg‘uloti rejasi:

1. Sifatning ta’rifi va leksik-grammatik xususiyatlari
2. Asliy va nisbiy sifatlar
3. Sifat darajalari
4. Ozaytirma va kuchaytirma sifatlar

Sifatning leksik-grammatik xususiyatlari

Predmetning doimiy, o‘zgarmas belgisini ifodaslaydigan so‘zlar sifat deyiladi.

Sifat mustaqil so‘z turkumi sifatida uch xil belgiga ega:

1. Leksik-semantik belgi. Sifat belgi ma’nosini bildiradi.

2. Morfologik belgisi: Sifat qanday?, qanaqa?, qaysi? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi. Sifat ifodaslaydigan belgi tushunchasi keng bo‘lib, ma’nosiga ko‘ra bir necha guruhga ajratiladi:

a) rang-tus ma’nosini bildiradigan sifatlar: oq, qizil, sariq, havo rang, kul rang, yashil, zangori;

b) hajmi ma’nosini bildiradi: keng, tor, baland, past, uzun, chuqur, yirik, mayda;

v) shakl va ko‘rinish ma’nosini bildiradi: dumaloq, yassi, egri, qiyshiq, do‘ng;

g) maza-ta’m ma’nosini bildiradi: shirin, achchiq, nordon, sho‘r, taxir, chuchmal, bemaza;

d) xarakter-xususiyat ma’nosini bildiradi: muloyim, odobli, shirinso‘z, chaqqon, sho‘x, yalqov, dangasa, chechan, qo‘rs, qaysar. Xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar ijobiy yoki salbiy xususiyatlarni ifodaslaydi;

e) hid ma’nosini bildiradi: sassiq, qo‘lansa, badbo‘y, xushbo‘y, muattar;

j) holat ma’nosini bildiradi. Holat bildiruvchi sifatlar ikki xil bo‘ladi:

1) psixik holatni ifodaslaydi: xursand, xafa, shod, kasal, injiq;

2) tabiiy holatni ifodaslaydi: yosh, qari, keksa.

Sifat belgini bevosita yoki bavosita ifodaslaydi. Predmetning doimiy belgisini bildiradigan belgini bevosita ifodaslaydigan sifatlar asliy sifat deyiladi. Sifatning yuqoridagi ma’no turlari sifatni bevosita ifodaslaydi.

Asliy sifatlar belgini darajalab ko‘rsata oladi: katta, kattaroq, eng katta kabi.

Juft sifatlar asosan asliy sifatlardan tarkib topadi: yosh-qari, yaxshi-yomon kabi.

Belgini bavosita, ya’ni biror narsa va hodisaga nisbat berish, o‘xshatish orqali ifodaslaydigan sifatlar nisbiy sifat deyiladi.

Nisbiy sifatlar boshqa so‘z turkumlaridan yasaladi va xoslik, o‘xshashlik, o‘rin yoki paytga munosabat, mo‘ljal ma’nolarini bildiradi:

a) xoslik ma’nosini ifodaslaydigan sifat ot turkumidagi so‘zga –iy, -viy qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasaladi: zamonaviy, oilaviy, ma’naviy, siyosiy;

b) o‘xshashlik ma’nosini ifodaslaydigan sifatlar ot turkumidagi so‘zga –simon, -sifat affikslarini qo‘shish bilan yasaladi: odamsimon, hayvonsifat, devsifat;

v) o‘rin va payt ma’nolarini ifodaslaydigan sifatlar ot turkumidagi so‘zlarga –gi, -qi, -ki, -dagi affikslarini qo‘shish bilan yasaladi: qishki, yozgi, bahorgi, bulturgi, tushki, kechki;

g) mo‘ljallanganlik, xoslik, o‘lchov ma’nolarini ifodalovchi sifatlar ot turkumidagi so‘zlarga –lik affiksini qo‘shish bilan yasaladi: ko‘rpalik, ko‘rpachalik, toshkentlik, ko‘ylaklik.

Sifat ba’zan ravish o‘rnida qo‘llanib, harakatning belgisini bildirishi mumkin: ma’noli gapirmoq, chiroyli yozmoq, yaxshi o‘qimoq kabi.

Sifatning belgisini darajalab ko‘rsatishi (qizil, qizilroq, eng qizil, qip-qizil), yasalish sistemasiga egaligi otlashishi uning morfologik belgilaridan hisoblanadi.

3. Sifatning sintaktik belgisi. Sifat gapda otga, ba’zan fe’lga bitishuv usuli orqali bog‘lanadi va o‘zi bog‘lanib kelayotgan so‘zga tobelanadi.

Sifat otga bog‘lanib kelganda, sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajaradi. Misol: Biz do‘stlarning eng yaxshi do‘sti, dushmanlarning eng kuchli dushmani ekanligimizni ham oqil odamlar tushunsin. (YO.SHukurov).

Sifat fe’lga bog‘lanib kelganda vaziyat holi vazifasini bajaradi. Misol: Yulduzlar odatdagidan ko‘ra toza, kattaroq, yorqinroq ko‘rinardi. (P.Qodirov).

Sifat darajalari

Predmetlardagi bir xil belgini miqdorga ko‘ra nisbatlab farqlash hodisasi sifat darajasi deyiladi. Sifatlarda uch xil daraja bor:

1) oddiy daraja

2) qiyosiy daraja
3) orttirma daraja

Predmetning belgisi boshqa predmetdagi xudi shunday belgiga qiyos qilinmasa, oddiy darajadagi sifat deyiladi. Oddiy darajadagi sifat belgining me'yorida ekanini ko'rsatadi va u maxsus ko'rsatkichga ega bo'lmaydi: go'zal tabiat, shirin qovun, keng hovli.

2) qiyosiy daraja. Predmet belgisining boshqa predmetdagi xudi shunday belgidan ortiq yoki kam ekanligining ifodaslaydigan sifatlar qiyosiy darajadagi sifat deyiladi. Qiyosiy daraja leksik-morfologik usul bilan hosil qilinadi.

Oddiy darajadagi sifatga –roq affiksini qo'shish yordamida yasaladi. Bunda gap mazmunidan chog'ishtirish, qiyoslash ma'nosi anglashilib turadi. Misol: SHu lahzada unga Farhod har vaqtdagidan donoroq va hatto savlatliroq ko'rinib ketdi. Donoroq, savlatliroq sifatlaridan oldin kelgan chiqish kelishigidagi so'z (har vaqtdagidan) qiyoslash mazmun munosabatini ifodalayapti. O'shandan buyon halol dehqonchilik qiladi; o'rtadan ko'ra pastroq... xo'jaligi bor. (A.Qahhor). Bu misolda pastroq belgini kamligi bildiryapti, qiyoslash ma'nosini o'rtadan ko'ra so'zlari ifodalayapti.

Qiyosiy darajadagi sifat oldidan sal, picha, och, bir oz, xiyol, aytarli so'zlarini keltirish bilan hosil qilinadi: sal baland, bir oz baland, picha kattaroq, xiyol achchiqroq.

Fonetik usul. Unlilar cho'zib, undoshlar esa ikkilantirilib aytiladi: baland, chuquur, tekkis kabi.

Ozaytirma va kuchaytirma sifatlar

Sifat belgini ozaytirib yoki kuchaytirib ifodalashiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

a) ozaytirma sifat;

b) kuchaytirma sifat.

Ozaytirma sifat o'zakdan anglashilgan belgining me'yoridan ozligini bildiradi. Ular morfologik va leksik usullar bilan yasaladi:

1. Morfologik usul. Sifatlarga –ish, -imtir, -mtir affikslarini qo'shib ozaytirma sifat hosil qilinadi: ko'kish, qizg'ish, oqimtir, qoramtir. –ish qo'shimchasi qo'shilgan ba'zi sifatlar o'zagida tovush o'zgarishlari sodir bo'ladi: sariq+ish-sarg'ish. Bu so'zda o'zakdagi i unlisi tushib qolgan, q undoshi g' undoshiga almashgan. Qizil sifatiga -ish qo'shilishi bilan o'zakdagi –il tovushlari tushib, g' tovushi orttirilgan.

Sifatlarga –gina, -kina, -qina affikslari qo'shilib, belgilarni kuchsizlantirish ozaytirishi mumkin. Bunda –k bilan tugagan sifatlarga –kina, -q bilan tugagan sifatlarga -qina, qolgan sifat shakllariga –gina affiksi qo'shiladi. Misol: tuzukkina, oriqqina, sariqqina, kattagina.

2. Leksik usul. Sifatning oldidan och, nim so'zlarini keltirish bilan belgi kamaytiriladi: och pushti, nimqizil.

Kuchaytirma sifatlar o'zakdan anglashilgan belgining ortiqligini bildiradi. Kuchaytirma sifatlar leksik va morfologik usul bilan hosil qilinadi.

A) Morfologik usul. Bu usulda sifatni tovush o'zgarishlari orqali takrorlash yo'li bilan:

- Sifatning birinchi bo'g'ini ikkinchi bo'g'inidagi undosh bilan takrorlanadi: dum-dumaloq, pak-pakana, but-butun

- Sifatning birinchi bo'g'iniga –p undoshi qo'shib takrorlanadi: sap-sariq, qip-qizil.

- Sifatning oldingi ikki tovushi ajratilib unga p, m tovushlaridan biri qo'shiladi va undan keyin so'zning o'zi takrorlanadi: yap-yangi, ko'm-ko'k.

- Sifatning birinchi bo‘g‘inidan keyin ppa shakli qo‘shiladi: soppasog‘ , to‘ppato‘g‘ ri.

b) Leksik usul. Sifat tovush o‘zgarishlarisiz takrorlanib orttirma daraja hosil qilinadi: katta-katta

Qiyosiy darajadagi sifat oldida ma’noni kuchaytiruvchi yana, yanada, yana ham so‘zlari kelishi mumkin: yanada yaxshiroq, yana ham balandroq, yana jonliroq.

3) Orttirma daraja. Predmetdagi belgining boshqa predmetdagi shunday belgiga nisbatan eng ko‘p, oliy darajada ekanligini ifodalash orttirma daraja deyiladi. Sifatning orttirma daraja shakli leksik usul bilan ifoda qilinadi.

Oddiy darajadagi sifat oldidan eng, juda, nihoyatda, behad, g‘ oyat, g‘ oyatda, hammadan kabi so‘zlarni keltirish bilan: juda chiroyli, nihoyatda shirin, g‘ oyatda mehribon kabi.

Leksik usulda ba’zan belgi bildiruvchi sifatlar o‘rnida boshqa so‘zlar ishlatilishi mumkin: zahar (garmdori), olov (sho‘x).

Leksik usul.

Sifat tovush o‘zgarishlarisiz takrorlash orqali ham orttirma daraja hosil qilinadi: katta-katta, shirin-shirin.

- sifat oldidan to‘q, jiqqa, tim, g‘irt kabi so‘zlarni keltirish bilan: jiqqa ho‘l, tim qora.

- sifat oldidan so‘z birikmalari va iboralarni qo‘llash orqali: haddan ziyod (chiroyli), quling o‘rgilsin (jonon).

Morfologik usulda sifatni tovush o‘zgarishlari orqali takrorlash yo‘li bilan. Bunda:

- sifatning birinchi bo‘g‘ini ikkinchi bo‘g‘inidagi undosh bilan takrorlanadi: dum-dumaloq, pak-pakana, but-butun kabi.

- sifatni birinchi bo‘g‘inidagi p undoshi qo‘shib takrorlanadi: sap-sariq, qip-qizil.

- sifatning oldingi ikki tovushi ajratilib, unga p,m tovushlaridan biri qo‘shiladi va undan keyin so‘zning o‘zi takrorlanadi: yap-yangi, ko‘m-ko‘k.

- sifatning birinchi bo‘g‘inidan keyin –ppa shakli qo‘shiladi: soppa-sog‘ , to‘ppa-to‘g‘ ri.

DASTURLASHTIRILGAN TOPSHIRIQ SAVOLLARI:

1.Ot so‘z turkumining leksik-grammatik xususiyatlarini esga oling?
2. Ot so‘z turkumining boshqa so‘z turkumlaridan farqli tomonlarini ayting?
3. Nutqimizda ot so‘z turkumiga xos so‘zlar necha foizni tashkil etadi?
4.Otga oid so‘zlar gapda asosan qaysi sintaktik vazifalarni bajaradi?

MAVZU BO’YICHA TEST TOPSHIRIQLARI:

1. Sifat turkumining o‘ziga xos morfologik xususiyatlari qaysilar?

A) darajalanish xususiyatiga ega B) sifat aniqlovchilar o‘zlarining sifatlanmishlari bilan moslashmaydi. C) sifatlar sodda va qo‘shma bo‘ladi D) A, C

2. <u>*Baland, ulkan, kichik, mayda*</u> so‘zlari uchun xos bo‘lgan umumiy ma’nolar qanday ma’no sanaladi?

A) ko‘chma ma’no *B) grammatik ma’no*
C) uslubiy ma’no *D) leksik ma’no*

3. <u>*Uzun, naynov, pakana*</u> so‘zlari uchun xos bo‘lgan umumiy ma’nolar qanday ma’no sanaladi?

A) leksik ma’no *B) grammatik ma’no*

C) uslubiy ma'no D) ko'chma ma'no

3. Jumladagi sifatning ma'no turini toping. *Uning yonoqlari uzunchoqroq edi*.

A) hid bildiruvchi B) hajm-o'lchov bildiruvchi

C) shakl-ko'rinish bildiruvchi D) holat bildiruvchi

4. Predmetning xususiyatini bildiruvchi sifatlar qaysi javobda?

A) shirin, achchiq, nordon B) novcha, og'ir, katta C) kamtar, xushfe'l, sho'x D) devoriy, tonggi, xushbo'y

5. Sinonim sifatlarni toping.

A) cheksiz, behad, bardoshli, benihoya B) chopqir, chopag'on, metin C) sekin, asta, astoydil, ohista. D) sezgir, ziyrak, tuyg'un, hushyor.

6. Antonim sifatlarni toping.

A) Adolatli podsho hech vaqt mag'lub bo'lmas. B) Otabekka O'zbek oyim tarafidan kirish uchun ruxsat berilgan edi. C) Ish sur'ati tobora jadallashmoqda. D) Achchiq savol berib, shirin javob kutma.

7. *Baland tog'lar o'lkamizda ko'p.* Ushbu gapdagi *baland* so'zining grammatik ma'nosi qaysi qatorda ifodalangan?

A) belgi B) sifat C) aniqlovchi D) B va C

8. Asliy sifatlar berilgan javobni toping.

A) qishki, derazali, ko'chma, devoriy B) go'zal, chiroyli, shirin, C) oq, aqlli, yuzaki D) B va C.

9. Nisbiy sifatlar berilgan javobni toping.

A) qishki, derazali, ko'chma, devoriy B) go'zal, chiroyli, shirin, C) oq, aqlli, yuzaki D) B, C.

10. Orttirma daraja shaklidagi sifatlarni toping.

A) tim qora, qip-qizil, oqish B) sarg'ish, ko'kimtir, qoramtir

C) yumshoqqina, och yashil, to'q ko'k D) pak-pakana, bo'm-bo'sh, biram yoqimli.

Ma'ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro'yxati

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, SH. Yo'ldosheva. Ona tili. "MOLIYA-IQTISOD" nashriyoti, Toshkent, 2007-yil.
2. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006, "Universitet" nashriyoti.
3. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X. G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Morfemika. So'z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. M.Hamroyev. O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. TDPU, Toshkent, 2007-yil.

GLOSSARIY

Asliy sifatlar - narsalarning belgisini bevosita, to'g'ridan-to'g'ri ifodalay oladigan va belgini darajalab ko'rsata oladigan (ya'ni –roq qo'shimchasini qabul qila oladigan) sifatlar: kichik, yomon, aqlli, qora, oriq va b.

Juft sifatlar - ikkita har xil asosli so'zning juftlanishidan hosil bo'lgan sifatlar. Ular quyidagicha yasaladi: 1) qarama-qarshi ma'noli so'zlardan: katta-kichik, uzun-qisqa, maza-bemaza, sezilar-sezilmas, bilinar-bilinmas, kirdi-chiqdi (essiz); 2) ma'nodosh so'zlardan: erka-arzanda, boy-badavlat, sog'-salomat, uzuq-yuluq, ola-chipor, soya-salqin, mo'min-qobil, xor-zor; 3) yaqin ma'noli so'zlardan: och-nahor,

shaldir-shuldir, o‘ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq. Juft sifatlar chiziqcha bilan yoziladi: katta-kichik.

Nisbiy sifatlar - narsalarning belgisini bevosita emas, balki o‘rin yoki paytga nisbatan ifodalaydigan va ko‘pincha daraja ko‘rsata olmaydigan sifatlar. Bunday sifatlar yasovchi qo‘shimchalar yordamida yasalgan bo‘ladi: sharsimon, yozgi, uydagi, oilaviy, ilmiy, toshkentlik.

Nomustaqil kesimlar - shart maylidagi fe’llar, ravishdosh shakllari bilan ifodalanib, qo‘shma gap qismlaridan birining kesimi bo‘lib kelgan kesimlardir: Dovul ko‘tarilib, yomg‘ir yog‘adigan bo‘lib qoldi. U kelsa, men ketaman.

Oddiy darajadagi sifatlar - belgi boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga qiyoslanmaydigan sifatlar. Bu daraja belgining me’yordagicha ekanligini ko‘rsatadi va maxsus ko‘rsatkichga (qo‘shimchaga) ega emas: keng ko‘cha, yashil yaproq, yaxshi odam. Ohang – nutq melodikasini, tembrini, tempini, ritmini, mantiqiy urg‘uni o‘z ichiga qamrab oluvchi murakkab majmudir.

Orttirma darajadagi sifatlar - predmetdagi bir belgining boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga nisbatan eng ko‘p ekanligini ifodalaydi: dum-dumaloq, pak-pakana; yap-yangi, ko‘m-ko‘k; soppa-sog‘, to‘ppa-to‘g‘ri. eng kichik, hammadan chiroyli, zap g‘alati, beqiyos chiroyli, naqadar ulug‘vor, xo‘p bemaza, cheksiz quvonchli; zo‘r-zo‘r (polvonlar), uzundan-uzun (kechalar), ne-ne (olimlar); haddan ziyod chiroyli, misli ko‘rilmagan (qahramonlik), quling o‘rgilsin (jonon) zahar (garmdori), olov (bola); tooza, chuquur; tekkis, yummshoq.

Qo‘shma sifatlar – ikkita va undan ortiq so‘zning qo‘shilishidan yoki bog‘lanishidan yasalgan sifatlar. Ular quyidagicha yasaladi va yoziladi: 1) ot va otdan. Bular ajratib yoziladi: havo rang bo‘yoq; 2) sifat va otdan. Bular qo‘shib yoziladi: qimmatbaho sovg‘a; 3) ot yoki ravishga -ar qo‘shimchali fe’lni qo‘shish bilan yasaladi. Bular qo‘shib yoziladi: tezoqar daryo; 4) otga aro so‘zini qo‘shish bilan. Bular qo‘shib yoziladi: xalqaro.

Sifat darajasi - predmetlardagi bir xil belgining ortiq-kamligi jihatidan farqlanishi. Sifatlarning quyidagi darajalari bor: oddiy daraja (baland), orttirma daraja (juda baland), qiyosiy daraja (balandroq), ozaytirma daraja (sal baland).

Sifat - predmetning belgisini bildirib, qanday?, qanaqa?, qaysi? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladigan so‘z turkumi: go‘zal, uzun, kechagi.

Sifatlarning ma’no turlari - 1) xususiyat bildiruvchi: yaxshi, yomon, aqlli, sergak, so‘zamol; 2) holat bildiruvchi: go‘zal, chiroyli, suluv, cho‘loq, maymoq, cho‘tir, soqov, kar, ko‘r. 3) rang-tus bildiruvchi: oq, qora, sariq, kul rang; 4) shakl-ko‘rinish bildiruvchi: yapaloq, tekis, yassi, dumaloq; 5) hajm-o‘lchov-masofa bildiruvchi: keng, tor, chu?ur, katta, kichik; 6) maza-ta’m bildiruvchi: shirin, achchiq, nordon, sho‘r, achimsiq; 7) hid bildiruvchi: xushbo‘y, sassiq, badbo‘y, muattar, qo‘lansa; 8) vazn-og‘irlik bildiruvchi: og‘ir, yengil, zildek, vazmin; 9) o‘rin va paytga munosabat bildiruvchi: yozgi, qishki, avvalgi, dastlabki, uydagi, ko‘chadagi.

9-MAVZU: SIFATNING YASALISHI (2 soat)

1-ilova

Ma’ruza mashg‘uloti rejasi:

1. Sifatlarning yasalishi.
2. Sifatlarning otlashishi.
3. Boshqa turkumdagi so‘zlarning sifat o‘rnida qo‘llanishi.
4. Sifatlarning tuzilish jihatdan turlari

Maruza matini slaydlari

Sifatlarning yasalishi

Sifatlar quyidagicha yasaladi: 1. Sifat yasovchi qo‘shimchalar bilan. 2. So‘zlarni qo‘shish bilan. 3. So‘zlarni takrorlash bilan.

1. Sifat yasovchi qo‘shimchalar quyidagilardir:

1) otdan sifat yasovchi qo‘shimchalar:

-li: *rasm**li** kitob, kuch**li** shamol*
-dor: *ayb**dor**, vafo**dor***
ba-: ***ba**davlat, **ba**quvvat*
ser-: ***ser**hosil olma.*
-mand: *kasal**mand**, davlat**mand***

Yuqoridagi qo‘shimchalar asosdan anglashilgan belgiga egalikni bildiradi.

-siz: *tuz**siz** ovqat.*
be-: ***be**g‘ubor, **be**xabar*

Bu qo‘shimchalar esa (*no- qo‘shimchasi bilan birgalikda: **no**aniq, **no**tinch.)* asosdan anglashilgan belgiga ega emaslikni ifodaslaydi.

-lik: *toshkent**lik** (bola)*
-iy,-viy: *tarbiya**viy** soat, devor**iy** soat.*
-gi,-ki,-qi: *bahor**gi** ishlar, qish**ki** kiyim*
(paytga xos belgini bildiradi).
-aki, -oqi: *jizz**aki**, jirtt**aki**, **pistoqi***
-yi: *havo**yi**.*
-chan: *ish**chan** bola.*
-simon: *odam**simon** maymun*
(o‘xshashlik ma’nosini bildiradi).
-kor,-gar: *isyon**kor**, zulm**kor**, javob**gar**, ig‘ vo**gar**.*
-i: *qishloq**i**, qozoq**i**, jannat**i***
-cha: *farg‘ ona**cha**, erkak**cha**, arab**cha** (o‘yin)*
-namo: *avliyo**namo**, darvesh**namo***
-parvar: *xalq**parvar**, adolat**parvar***
-on: *charog‘ **on**, za’far**on***
-aki: *dahan**aki**, og‘z**aki***
bad-: ***bad**baxt, **bad**nafs*
-shumul *olam**shumul**, jahon**shumul***
-don: *gap**don**, bilim**don***
-kash: *dil**kash**, hazil**kash***
-bop: *palov**bop**, qish**bop***
xush-: ***xush**fe’l, **xush**havo*
-in: *erk**in**, otash**in***
-vor: *devona**vor**, afsona**vor***
-parast: *mansab**parast**, maishat**parast***
bar-: ***bar**hayot, **bar**vaqt*
-chil: *xalq**chil**, iz**chil**.*
-lik(-liq): *ko‘ylak**lik**(chit), bola**lik**(chog‘lar)*

-i: *jannat**i** (kampir)*
-loq: *baqa**loq**, qo‘sha**loq** (g‘ o‘za)*
-kor: *dev**kor**(ish), fusun**kor**(husn)*
-kash: *zahmat**kash**(odam), nos**kash**(kampir)*
-chi: *gap**chi**(odam), vahima**chi**(ayol)*
-von: *zo‘ra**von**(odam)*
-qa: *loy**qa**(suv)*
-omuz: *hazil**omuz**(gap), zahar**omuz**(hazil)*
-xo‘r: *g‘am**xo‘r**(odam), go‘sht**xo‘r**(hayvon)*
-soz: *soat**soz**(usta)*
-dek(-day): *muz**dek**(suv), jo‘jabir**day**(jon)*

2) Fe’ldan sifat yasovchi qo‘shimchalar:

-choq,-chak,-chiq: *maqtan**choq**, kuyun**chak**, qizg‘an**chiq***
-gir,-g‘ir,-kir,-qir,-qur: *sez**gir**, topq**ir**, o‘t**kir**, ol**g‘ir**, uch**qur***

-ma: *qaynat**ma** sho‘rva, bur**ma** ko‘ylak*
-k (-uk, -ik,-ak) *chiri**k**, tesh**ik**, tuz**uk**, g‘alvir**ak***
-q(-uq,-iq,-a/oq): *ili**q**, sin**iq**, buzuq, qol**oq**.*
-oq: *qoch**oq**, qo‘rq**oq**, baqir**oq***
-qi: *sayro**qi** qush,*
-qoq, -g‘ oq: *tirish**qoq**, uyush**qoq**, toy**g‘ oq***
-ag‘ on: *bil**ag‘ on**, chop**ag‘ on***
-mon: *bilar**mon**, qirar**mon***
-kun, -qin, -g‘in, *tush**kun**, oz**g‘in**, jo‘sh**gin**,*
-g‘un, -qun: *turg‘u**n**, tut**qun***
-(a)rli: *et**arli**, zerik**arli***
-ch: *tin**ch**, jirkan**ch***
*-g‘ich**:*** *yul**g‘ich** **(odam)***
-ong‘ich: *tep**ong‘ich**, suz**ong‘ich***
-ovuch: *hurk**ovuch**, isk**ovuch***
-mas: *o‘t**mas**(pichoq), inda**mas**(odam)*
-(i)ndi: *asra**ndi** (bola)*
-a: *ko‘tar**a** (savdo)* *-msiq:*
*qari**msiq**, achi**msiq***

3) Boshqa turkumlardan sifat yasovchi qo‘shimchalar :

Ravishdan: *-gi:* *kecha**gi**, dastlab**ki***
Sifatdan: *no-:* ***no**ma’lum, **no**to‘g‘ ri.*
-lom: *sog‘l**om***
Taqlid so‘zdan: *-ildoq:* *bij**ildoq**, lik**ildoq***

2. So‘zlarni qo‘shish, bog‘lash va juftlash bilan quyidagi turdagi sifatlar yasaladi:

1) **qo‘shma** sifatlar quyidagicha yasaladi va yoziladi:

a) ot va otdan. Bular qo‘shib yoziladi: ***bodomqovoq, sheryurak;***

b) sifat va otdan. Bular qo‘shib yoziladi: ***qimmatbaho;***

v) ot yoki ravishga *-ar* qo‘shimchali fe’lni qo‘shish bilan yasaladi. Bular qo‘shib yoziladi: ***tezoqar*** *daryo,* ***ertapishar*** *(o‘rik)*

g) otga *aro, umum, yarim, g‘ayri, nim, rang* so‘zlarini qo‘shish bilan. Bular qo‘shib yoziladi: ***xalqaro, umumkomanda, yarimavtomat, g‘ayridin, nimpushti.***

Qo‘shma sifatlar a) ikki tub so‘zdan tashkil topadi: *sovuqqon, xom semiz, kamgap;* b) biri tub, ikkinchisi yasama so‘zdan iborat bo‘ladi: *ishyoqmas, erksevar, tilbilmas, o‘zbilarmon.*

2) birikmali sifatlar tarkibi ikki va undan ortiq so‘zdan iborat bo‘ladi va ular orasidagi munosabatlar aniq sezilib turgan bo‘ladi, bunday sifatlar *aralash, yo‘q, ko‘p, oliy, och, to‘q, to‘la, chala, yarim, bir, ikki* kabi so‘zlar ishtirokida hosil qilinadi: *qum aralash* (loy), *tengi yo‘q, ko‘p tarmoqli, oliy ma’lumotli, och qizil, qorni to‘q, to‘q qizil, to‘la huquqli, chala mulla, bir tomonlama, ikki qavatli, yuqori hosilli* (dala), *uzun tolali* (paxta), *yoshi ulug‘* (inson), *gapga usta* (odam), *oqishdan kelgan* (yigit).

3) juft sifatlar quyidagicha yasaladi: 1) qarama-qarshi ma’noli so‘zlardan: *katta-kichik, uzun-qisqa, maza-bemaza, sezilar-sezilmas, bilinar-bilinmas, kirdi-chiqdi;* 2) sinonim ko‘rinishdagi so‘zlardan: *erka-arzanda, boy-badavlat, sog‘ -salomat, uzuq-yuluq, ola-chipor, soya-salqin, mo‘min-qobil, xor-zor;* 3) yaqin ma’noli so‘zlardan: *och-nahor, shaldir-shuldir, o‘ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq, kuydi-pishdi.*

Juft sifatlar chiziqcha bilan yoziladi, *-u, -yu* yuklamalari bilan bog‘lansa, chiziqcha qo‘yilmaydi: ***yakkayu yagona*** *farzand.*

3. So‘zlarni takrorlash bilan ham sifatlar yasaladi: Bu usul yordamida sanoqli miqdordagi sifatlargina yasaladi: *yo‘l-yo‘l* (ko‘ylak), *manman* (odam), *shiqshiq* (tugma), *liplip* (chiroq), *chaqchaq* (odam),

Sifatlarning otlashishi

Sifat turkumidagi so‘zlar ba’zan ot turkumidagi so‘zlarning ma’nosini ifodalab, uning vazifasini bajarib kelishi mumkin. Bunda sifat o‘zining leksik va grammatik ma’nosini yo‘qotib, predmetlik ma’nosini ifodaslaydi. Gapda sifat bog‘lanib kelayotgan otning tushib qolishi natijasida sifat uning predmetlik ma’nosini ham, morfologik belgisini ham, sintaktik vazifasini ham o‘z ustiga oladi. Misol: Yaxshi topib gapiradi, yomon qopib gapiradi gapida yaxshi (odam), yomon (odam) sifatlari tushib qolgan kim? so‘rog‘iga javob bo‘lgan, bosh kelishikdagi, ega vazivasidagi ot vazifasini bajargan. Odam oti gapda tushib qolgani tufayli yaxshi, yomon sifatlari otlashishgan. Bu hodisa gap tarkibida yuz bergan. Bunga nutqning ixchamlikka intilishi sabab bo‘ladi. Sifatlarga oid so‘zlarning hammasi ham otlashavermaydi. Asosan belgi-xususiyat bildiruvchi sifatlar, kishilarning laqabini bildiruvchi (tajang, maymoq, cho‘tir, darroz) sifatlar, hayvonlarning tusini bildiruvchi (saman, to‘riq, bo‘z, qashqa) sifatlari otlashadi.

Otlashgan sifatlar aniqlovchilik vazifasidan chiqib, otga xos ega, kesim, to‘ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi, undalma vazifasini bajaradi. Misol: Aqlsizlar gap bermaydi otasiga. (A.Po‘lat) Mard bo‘lgandan keyin yomonni ham yaxshilik bilan engar ekan. (P.Kodirov) YAxshining so‘zi qaymoq, yomonning so‘zi to‘qmoq. (Maqol) YAxshilar, uni eslang!

Sifatlarning tuzilish turlari

1. Sodda sifatlar bir o‘zakdan iborat bo‘ladi: *aqlli, yaxshi.*

2. Qo‘shma sifatlar - *rahmdil, ertapishar, havo rang*. Bunday sifatlar: 1) ikki tub so‘zdan tashkil topib, ot+ot *(**kulcha yuz** bola),* ot+sifat, sifat+ot *(sovuqqon),* ravish+ot ko‘rinishlarida bo‘ladi: *ommabop, xom semiz (yigit), kamgap;* 2) biri tub, ikkinchisi yasama so‘zdan iborat bo‘ladi: *sovuqqon, ishyoqmas, erksevar, tilbilmas.*

3. Birikmali sifatlar: *uzun tolali* (paxta), *yoshi ulug‘* (inson), *gapga usta* (odam), *oqishdan kelgan* (yigit).

4. Juft sifatlar - *o‘ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq.*

5. Takroriy sifatlar - *baland-baland, uzun-uzun, yo‘l-yo‘l* (ko‘ylak).

Sifat tahlili namunasi	
1. So‘rog‘i. 2. Darajasi. ***3. Ozaytirma sifatmi yoki kuchaytirma sifatmi?***	4. Otlashgan yoki otlashmaganligi. 5. Tuzilish turi. 6. Tub yoki yasamaligi. 7. Gapdagi sintaktik vazifasi

DASTURLASHTIRILGAN TOPSHIRIQ SAVOLLARI:

1. Sifatning ta’rifi va so‘roqlarini ayting.
2. Sifatning ma’no jihatdan turlarini misollar bilan ko‘rsating.
3. Asliy va nisbiy sifatlar haqida gapiring.
4. Orttirma daraja hosil qilishning leksik va morfologik usullari haqida gapiring.
5. Orttirma daraja hosil qilishning semantik va fonetik usullari haqida gapiring.

MAVZU BO’YICHA TEST TOPSHIRIQLARI:

1. Tub sifatlar qatorini toping.

A) *ozg‘in, achchiq, oyday* B) *tushki, toshsimon, haftalik*

C) *go‘zal, yuzaki, badavlat* D) *ko‘kimtir, qatqaloq, pushtiroq*

2. Taqlid so‘zlardan yasalgan sifatlar berilgan qatorni toping.

A) yaltiroq, yarqiroq, so‘lqildoq B) jizza, qahqaha, sharshara C) do‘rildoq, chiyildoq, likildoq D) qalbaki, dahanaki, xomaki

3. Qaysi qatorda sifat yasovchi sinonim qo‘shimchalar berilgan?

A) -li, ba-, bo- *B) -siz, -gi, -ki*

C) -ag‘on, -li, -simon *D) -gan, ser-, no-*

4. Narsa-buyumning o‘ringa yoki vaqtga xosligini bildiruvchi sifat yasovchi qo‘shimchalar qaysi qatorda ko‘rsatilgan

A) -iy, -viy B) -simon,-lik C) -dagi, -ki, -qi D) -simon, -lik

5. Fe’ldan yasalgan sifatlar qatorini ko‘rsating.

A) yig‘iq, yig‘loq B) bosiq, bosqon C) qo‘g‘irchoq maqtanchoq, D) kuyunchak, kelinchak, burchak

6. Qaysi qatorda sifat otlashmagan?

A) Boy qursin, uyat-andishani bilmaydimi? B) Quv, ichidan pishgan, fidoyi, jasur komandirni hamma sevadi. C) Yaxshidan ot qoladi, yomondan - dod. D) Bu xabarni eshitgach, onasi dovdirab, nochor qoldi.

7. Quyidagi sifatlardan qaysi birlari sodda sifatlar hisoblanadi?

1. katta; 2. chiroyli; 3. ishyoqmas; 4. shishasimon; 5. ko‘kimtir.

A) 1, 2, 3 B) faqat 1 C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 4, 5

8. Qo‘shma sifatlarni toping.

A) olachipor, qoraqizil, ochiq ko‘ngil B) ko‘k muqovali, serjahl, xomxayolroq C) yam-yashil, uch g‘ildirakli, betakalluf

D) qoramtir, sharsimon, oliy ma’lumotli,

9. Qo‘shma sifatlar qanday tuziladi?

A) ot va otdan B) sifat va otdan C) ot va -ar qo‘shimchali fe’ldan D) ot va -aro so‘zidan

10. *Sifat* + *ot* ko‘rinishdagi qo‘shma sifatlarni belgilang.

A) sovuqqon, balandparvoz B) kamgap, kamquvvat C) tezoqar, ertapishar D) dunyoqarash, toshbag‘ir.

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.

GLOSSARIY

Asliy sifatlar - narsalarning belgisini bevosita, to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalay oladigan va belgini darajalab ko‘rsata oladigan (ya’ni –roq qo‘shimchasini qabul qila oladigan) sifatlar: kichik, yomon, aqlli, qora, oriq

va b.

Birikmali sifatlar - tarkibi ikki va undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lgan va bu so‘zlar orasidagi munosabatlar aniq sezilib turgan sifatlardir. Bunday sifatlar aralash, yo‘q, ko‘p, oliy, och, to‘q, to‘la, chala, yarim, bir, ikki kabi so‘zlar ishtirokida hosil qilinadi: qum aralash (loy), tengi yo‘q (inson), ko‘p tarmoqli (soha), oliy ma’lumotli (yigit), och qizil (rang), qorni to‘q (odam), to‘q qizil, to‘la huquqli, chala mulla, yarim avtomat, bir tomonlama, ikki qavatli, yuqori qosilli (dala), uzun tolali (paxta), yoshi ulug‘ (inson), gapga usta (odam), oqishdan kelgan (yigit).

Juft sifatlar - ikkita har xil asosli so‘zning juftlanishidan hosil bo‘lgan sifatlar. Ular quyidagicha yasaladi: 1) qarama-qarshi ma’noli so‘zlardan: katta-kichik, uzun-qisqa, maza-bemaza, sezilar-sezilmas, bilinar-bilinmas, kirdi-chiqdi (essiz); 2) ma’nodosh so‘zlardan: erka-arzanda, boy-badavlat, sog‘-salomat, uzuq-yuluq, ola-chipor, soya-salqin, mo‘min-qobil, xor-zor; 3) yaqin ma’noli so‘zlardan: och-nahor, shaldir-shuldir, o‘ydim-chuqur, och-nochor, nozik-nihol, ola-quroq. Juft sifatlar chiziqcha bilan yoziladi: katta-kichik.

Takroriy sifatlar – sifatdan boshqa turkumlarga mansub so‘zlarning takrorlanishidan hosil bo‘lgan sifatlar: 1) tub takroriy sifatlar: baland-baland, uzun-uzun; 2) yasama takroriy sifatlar: yo‘l-yo‘l (ko‘ylak); manman (odam); liplip (chiroq).

Oddiy darajadagi sifatlar - belgi boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga qiyoslanmaydigan sifatlar. Bu daraja belgining me’yordagicha ekanligini ko‘rsatadi va maxsus ko‘rsatkichga (qo‘shimchaga) ega emas: keng ko‘cha, yashil yaproq, yaxshi odam. Ohang – nutq melodikasini, tembrini, tempini, ritmini, mantiqiy urg‘uni o‘z ichiga qamrab oluvchi murakkab majmudir.

Orttirma darajadagi sifatlar - predmetdagi bir belgining boshqa predmetdagi xuddi shunday belgiga nisbatan eng ko‘p ekanligini ifodalaydi: dum-dumaloq, pak-pakana; yap-yangi, ko‘m-ko‘k; soppa-sog‘, to‘ppa-to‘g‘ri. eng kichik, hammadan chiroyli, zap g‘alati, beqiyos chiroyli, naqadar ulug‘vor, xo‘p bemaza, cheksiz quvonchli; zo‘r-zo‘r (polvonlar), uzundan-uzun (kechalar), ne-ne (olimlar); haddan ziyod chiroyli, misli ko‘rilmagan (qahramonlik), quling o‘rgilsin (jonon) zahar (garmdori), olov (bola); tooza, chuquur; tekkis, yummshoq.

Qo‘shma sifatlar – ikkita va undan ortiq so‘zning qo‘shilishidan yoki bog‘lanishidan yasalgan sifatlar. Ular quyidagicha yasaladi va yoziladi: 1) ot va otdan. Bular ajratib yoziladi: havo rang bo‘yoq; 2) sifat va otdan. Bular qo‘shib yoziladi: qimmatbaho sovg‘a; 3) ot yoki ravishga -ar qo‘shimchali fe’lni qo‘shish bilan yasaladi. Bular qo‘shib yoziladi: tezoqar daryo; 4) otga aro so‘zini qo‘shish bilan. Bular qo‘shib yoziladi: xalqaro.

Sifat - predmetning belgisini bildirib, qanday?, qanaqa?, qaysi? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladigan so‘z turkumi: go‘zal, uzun, kechagi.

10-MAVZU: SON. SONNING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI (2 soat)

1-ilova

Ma’ruza mashg‘uloti rejasi:

1. Sonning ta’rifi va leksik-grammatik xususiyatlari
2. Sonlar va ularning yozilishi
3. Hisob so‘zlari (numerativlar) haqida ma’lumot
4. Sonlarning otlashishi
5. *Bir* sonining o‘ziga xos grammatik xususiyatlari

3-ilova

Sonning ta’rifi va leksik-grammatik xususiyatlari

Sonning nomini, narsa-buyumning son-sanog‘ini, tartibini bildirgan so‘zlar turkumi s o n deyiladi. Son necha?, qancha?, nechta?, nechanchi? Kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Sonlarning morfologik xususiyatlari: 1) sonlar juft, dona, metr, siqim kabi hisob so‘zlari bilan qo‘llana oladi; 2) so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar sonning hamma turlariga ham qo‘shilavermaydi: sakkizing, beshtadanga deb bo‘lmaydi; 3) boshqa so‘z turkumlaridan son yasalmaydi; 4) otlashadi: Beshni beshga qo‘shsa o‘n bo‘ladi. Sonning sintaktik xususiyatlari: 1) doim otlar bilan birga qo‘llanadi: uchta qalam, to‘rtinchi uy; 2) sonlar hech qachon belgi ifodalovchi so‘zlarni o‘ziga tobe qilib kelmaydi: shirin o‘n, uzun to‘qqiz deb bo‘lmaydi; 3) sonlar ot oldida aniqlovchi bo‘lib kelganda, ko‘pincha u bilan birikib yaxlit bir bo‘lak vazifasini bajaradi: Uch dugona kelishyapti; 4) son va sifat aniqlovchi bo‘lib kelganda, oldin son, keyin sifat keladi: ikkita chiroyli ko‘ylak. 5) sonlar gapda ko‘pincha aniqlovchi va kesim vazifasida keladi: Maqsadimiz bitta. Beshta qalam oldi. Bulardan tashqari, sonlar kirish so‘z (Birinchidan, siz meni tushunmadingiz, ikkinchidan...) va hol ham (U marraga birinchi keldi.) bo‘lib kela oladi.

Otlashgan sonlar esa qaratqich aniqlovchi, ega (O‘nning yarmi besh.), to‘ldiruvchi (Uchga ikkini qo‘shing.) va undalma (To‘rtinchi, to‘rtinchi, beshinchiga javob bering.)

Sonlarda quyidagi xususiyatlar ham mavjud: 1) omonimlik: uch (son) – uch (harakat); yigirma (son) – yigirma (harakat); qirq (son) – qirq (harakat), yuz (son) – yuz (chehra); 2) sinonimlik: bir – yakka, ikki – juft; 3) paronimlik: etti – etdi. (Sonlarda antonimlik yo‘q.)

Son predmetning aniq (beshta daftar) yoki noaniq (besh-oltita daftar) miqdorini bildirishi mumkin. Lekin har ikki holda ham son yozuvda raqam bilan ifodalanagan. Ravish so‘z turkumiga doir ko‘p, oz, kam, mo‘l kabi so‘zlar ham predmetning noaniq miqdorini bildiradi, lekin bu so‘zlar raqam bilan ifodalanmaydi. Shuning uchun ham bu so‘zlar son so‘z turkumiga oid emas.

4-ilova

Ba’zi ma’ruza matnlarida:

Son so‘z turkumi o‘ziga xos quyidagi leksik-grammatik xususiyatlarga ega:

1. Sonning leksik-semantik xususiyati uning belgi ma’nosini ifodalashidir, ya’ni predmetning miqdor, sanoq va joylashish tartibiga ko‘ra (ba’zan harakatning joylashish tartibi, miqdoriy belgisi) belgisini anglatadi. Demak, son miqdor tushunchasining nomi bo‘ladi.

2. Son ma’no jihatdan predmetning sanog‘ini, donasini, taxminiy miqdorini, umumiy miqdori (jamligi), taqsimlanish miqdori, joylashish tartibi; shuningdek ish-harakatning bajarilish tartibi, miqdori kabi modal ma’nolarni ifodalaydi. Shu ma’no xususiyatlariga ko‘ra son ikki turga: sanoq son va tartib sonlarga bo‘linadi. Sonning ma’no turlarini hosil qiluvchi maxsus modal shakl yasovchi affikslar mavjud: uchta, beshovlon, ikala, yuzlab, to‘rttadan, uch-to‘rt, o‘ninchi kabi. Bu affikslar faqat sonlargagina qo‘shiladi.

3. Son morfologik jihatdan o‘zgarmaydi, ya’ni egalik, kelishik, ko‘rlik affikslarni olmaydi, chunki son asosan otga bog‘lanib kelib, aniqlovchi vazifasini bajaradi: *Uy egasi Otabekning yoniga ikkita yostiq olib qo‘ydi va bittani o‘z yonboshiga ham oldi. (A.Qodiriy.)*

Son hech qachon belgi ifodalovchi so‘zni o‘ziga tobe qilib kelmaydi – aniqlovchi olmaydi.

Son ba’zan fe’lga bog‘lanib kelib, harakatning miqdoriy belgisini anglatganda, hol vazifasini bajaradi: *Otabek qutidor tomonidan quvilganidan keyin, Marg‘ilonga etti-sakkiz marta kelibdi (A.Qodiriy.)*

2. Son bog‘lanib kelgan ot qo‘llanmaganda, otga qo‘shilib kelgan so‘z o‘zgartiruvchi affikslar, ya’ni egalik, kelishik hamda shakl yasovchi ko‘plik affiksini olishi mumkin. Bunday morfologik jihatdan o‘zgargan son otlashgan son sanalib, gapda ot bajargan ega, to‘ldiruvchi, qaratqich-aniqlovchi, kesim kabi sintaktik vazifalarni bajaradi: *Birov tosh, birov gul, o‘z joyida ikkovi ham yaxshi (Shukrullo). Bilagi zo‘r birni yiqar, bilimi zo‘r mingni. (Amir Temur o‘gitlari). O‘nning yarmi besh.*

Otlashgan son fikrni stilistik jihatdan ixcham obrazli ifodalashi uchun xizmat qiladi. (Maqol, ilog, aforizmlarda ko‘p uchraydi) Sonning hamma turlari ham morfologik jihatdan o‘zgarmaydi (chama son –tacha, -lab, -lar kasr songa qo‘shilmaydi).

2. Sonlarning hisob so‘zlari (numerativlar) bilan birga qo‘llanishi uni boshqa so‘z turkumlaridan ajralib turuvchi o‘ziga xos belgilaridan biri sanaladi. Hisob so‘zlari ot so‘z turkumiga doir bo‘lib, u son bilan bog‘lanib kelgan ot va fe’l orasida

ishlatiladi: ikki tup daraxt, besh ilogram olma, o‘n kilometr yurdi, to‘rt sahifa o‘qidi kabi.

Sonlar hisob so‘zlari bilan ham, hisob so‘zlarisiz ham qo‘llanadi (Bu so‘zlar haqida quyida to‘xtalamiz).

2. Son so‘z yasalish tizimiga ega emas. Boshqa so‘z turkumlaridan son yasalmaydi. Lekin sondan boshqa so‘z turkumlari yasalishi mumkin: birlik, beshlik (ot), ikkilan (fe’l), bittalab (ravish) kabi.

Sonlar va ularning yozilishi

Sonlar ko‘pincha raqamlar bilan yoziladi:

1) arab raqamlari bilan *0, 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9.*

2) rim raqamlari bilan: ***birliklar:*** *I (1), II (2), III(3), IV(4), V (5), VI (6), VII (7), VIII (8), IX (9);* ***o‘nliklar****: X (10), XX(20), XXX(30), XL(40), L (50) LX (60), LXX (70), LXXX (80), XC(90);* ***yuzliklar****: C (100), CC (200), CCC (300), CD (400), D (500), DC (600), DCC (700), DCCC (800), CM (900);* ***mingliklar****: M (1000), MM (2000), MMM (3000) ...*

Badiiy asarlarda sonlar so‘z bilan yoziladi: ***To‘rt*** *yil kutdi.*

Nutqimizda tez-tez ishlatiladigan **23** ta sodda son bo‘lib, boshqa sonlar shularning qo‘shilishidan hosil bo‘ladi: *nol, bir, ikki, uch, to‘rt, besh, olti, etti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n, yigirma, o‘ttiz, qirq, ellik, oltmish, etmish, sakson, to‘qson, yuz, ming, million, milliard.*

Eski yozuv tilida tuman (o‘n ming), lak (yuz ming) kabi sonlar bo‘lgan. Tarixiy asarlarda manna shu sonlar uchraydi.

5-ilova

Hisob so‘zlari (numerativlar) haqida ma’lumot

Miqdor sonlar bilan qo‘llanib, noaniq miqdor tushunchasini ifodalaydigan so‘zlar hisob so‘zlari (numerativlar) deb ataladi: besh so‘m, o‘n gramm, yuz yil. Bunday so‘zlar aslida ot turkumiga mansub bo‘lib, o‘z lug‘aviy ma’nolarini qisman yo‘qotgan holda noaniq miqdor ifodalaydigan bo‘lib qolgan so‘zlardir.

Hisob so‘zlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi: 1) predmetlarni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan (dona, nusxa, tup, bosh, nafar); 2) butunning qismini hisoblash uchun (parcha, varaq, burda, og‘iz, luqma, siqim, tilim, chimdim, qultum, yutum, ho‘plam, tomchi, chaqmoq, nimta, to‘g‘ram, poy, toqa, bo‘lak, shingil); 3) to‘dalab ko‘rsatuvchi (gala, to‘p, guruh, to‘da, dasta, bog‘, quchoq, shoda, hovuch); 4) juftlab ifodalovchi (juft, para); 5) og‘irlikni o‘lchaydigan (gramm, kilogramm, sentner, tonna, misqol, pud, botmon, qadoq, paysa); 6) uzunlik o‘lchovini bildiradigan (millimetr, santimetr, metr, kilometr, chaqirim, tosh (eskirgan), gaz, qarich, quloch, qadam); 7) yosh o‘lchovini bildiradigan (yashar, yoshlik, oylik, kunlik); 8) vaqt o‘lchovini bildiradigan (soniya..., soat, kun, oy, hafta, yil, asr); 9) qiymat o‘lchovini ifodalaydigan (so‘m, tiyin, tanga, miri, paqir). Bulardan tashqari, quyidagi hisob so‘zlari son va fe’l orasida kelib, harakat miqdorini bildiradi: marta, navbatda, karra, bor, hissa, qatla, sidra, daf’a.

Sonlarning otlashishi

Gapda son bog‘langan ot tushib qolishi mumkin. Bunday holda son otlashadi. Otlashgan son xuddi otlarga o‘xshab egalik, ko‘plik va kelishik qo‘shimchalarini oladi: Beshga, uchni, ikkimiz, ikkinchilar.

Bunday sonlar gapda ega, to‘ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi, undalma vazifalarini bajaradi (misollar 1-§ da berildi).

Sonlarning tuzilish jihatdan turlari

Sonlar tuzilish jihatdan quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Sodda sonlar bir o‘zakdan iborat bo‘ladi: bir, uch.

2. Qo‘shma sonlar ikki yoki undan ortiq sonning birga yozilishidan tuziladi: o‘n uch, bir yuz o‘n sakkiz.

3. Juft sonlar ikkita turli o‘zakning juftlashishidan tuziladi: besh-olti, etti-sakkiz, o‘n besh-o‘n olti.

4. Takroriy sonlar bir o‘zakning takrorlanishidan tuziladi: ikki-ikki, to‘rtta-to‘rtta, o‘nta-o‘nta.

Juft va takroriy sonlar chiziqcha bilan yoziladi.

Tilshunos olimlar sakson va to‘qson sonlarining sakkiz va o‘n, to‘qqiz va o‘n so‘zlaridan tuzilganligini aniqlashgan.

M.Xamrayevda:

Predmetning miqdorini, sanog‘ini, joylashish tartibini, ba’zan ish-harakatning bajarilish tartibini, miqdoriy belgisini bildiradigan mustaqil so‘z turkumi son deyiladi. Son necha? Nechanchi? Nechta? Qancha? Kabi so‘roqlardan biriga javob beradi.

Son otga bog‘lanib, u ifodalagan predmetning konkret miqdoriy belgisini, ba’zan fe’lga bog‘lanib, u ifodalagan harakatning miqdoriy belgisini anglatadi: to‘rtta daftar, ikki oy o‘qidi, birinchi keldi kabi. Arifmetik amallarda esa son otga, fe’lga bog‘lanmagan holda keladi. Bunda son ifodalagan miqdor mavhum ma’noga ega bo‘ladi: ikki qo‘shuv uch besh. Arifmetik hisoblashda qanday predmetlar miqdorining qo‘shilishi bilan besh hosil bo‘lishi aniq emas.

Bir **sonining o‘ziga xos grammatik xususiyatlari**

Sonlar ichida ***bir*** soni o‘ziga xos grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bir soni yuqorida qayd etilgan sonlarga xos leksik-grammatik xususiyatlarga ega bo‘lishi bilan birga o‘ziga xos ayrim xususiyatlarga ham ega:

1. Ilgari tilga olinmagan predmet nomini ifodalaydigan ot oldida kelib, gumon noaniqlik ma’nosini ifodalaydi: Maqsud aka Oybek ikkovimizga kula-kula bir voqeani aytib bergan edi. (Z.Saidnosirova.)

Miqdor anglatadigan so‘zlari so‘roq olmoshlari yoki narsa so‘zidan oldin bir so‘zini kiritish bilan gumon, noaniqlik ma’nosidagi ravishlar yasaladi: bir necha, bir qancha, bir nima, bir narsa, bir zum, bir payt kabi.

Bir so‘ziga –ov, -on, -or affiksi qo‘shilishi bilan ham gumon ma’nosini bildiruvchi gumon olmoshlari yasaladi: *birov, biron, biror* kabi.

2. Bir soni fe’l, ot, sifat, ravish oldida kelib, kuchaytiruv ravishi (juda, g‘oyat) va kuchaytiruv yuklamasi (hatto) kabi ma’noni kuchaytirishga xizmat qiladi: *Bir chiroyli, bir yoqimli shamol turdi (Said Ahmad).*

3. Bir soni sifatlovchi-sifatlanmish orasida kelganda ham ma’noni kuchaytiradi: *Gulnor uchun ulug‘ bir baxt shu uchrashuv bo‘ldi (A.Q.) Juvon asabiy bir harakat bilan ro‘molini olib o‘radi (A.Q.).*

4. Ayiruv chegaralov yuklamalari (-gina, faqat) vazifasini bajarib, ayirish, chegaralash kabi ma’nolarni ifodalaydi: *Kamtarlik ham bir xislat («Tafakkur gulshani»). Mening ishonchim bir sensan.* Bunda bir so‘zi –gina, faqat vazifasini bajargan.

5. Bog‘lovchi vazifasida kelib, uyushiq gap bo‘laklarini yoki qo‘shma gap qismlarini bog‘lashga xizmat qiladi: *Bir kattaning gapiga kir, bir kichikning (Maqol).*

6. Bir soni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan «hech kim», «hech qanday» olmoshlar ma’nosida keladi: *Kunlik normasini bajarmagan bir kishi qolmadi.*

7. Kesim vazifasini bajarib kelganda, birdamlik, o‘xshashlik, umumiylik ma’nosini ifodalaydi: *Kemaga tushganning joni bir (Maqol). Odamning tili bilan dili bir bo‘lsin.*

Bir sonidan olmosh, ravish, ot va fe’l yasaladi: *bir necha, bir narsa, bir zum, bir payt, bir vaqt, birlik* kabi.

Takrorlash uchun savollar

1. Qanday so‘zlarga son deyiladi? 2. Sonning nomini bildiradigan sonlar qanday qo‘shimchalarni olishi mumkin? 3. Narsa-buyumlarning son-sanojini bildiradigan sonlarni so‘zlarga bojlab 5 ta misol keltiring. 4. Sonlar qanday raqamlar bilan ifodalanadi? 5. Nutqimizda tez-tez qo‘llanadigan 23 ta sodda sonni birma-bir sanang. 6. Eskirgan sonlarga misol keltiring. 7. Butun va kasr sonlarning o‘zaro farqini tushuntiring. 8. Kasr sonning turlari haqida gapiring. 9. Aralash sonlar haqida gapiring. 10. Miqdor sonlar haqida gapiring. 11. Hisob so‘zlarining ma’no guruhlari haqida gapiring. 12.“Bir” so‘zining qanday ma’nolari bor? 13. Dona va tartib sonlar haqida gapiring. 14. Chama sonlar qanday hosil qilinadi? 15. Jamlovchi sonlar qanday hosil qilinadi? 16. Taqsim sonlar qanday hosil qilinadi? 17. Ot, sifat turkumidan yasalgan sonlarga 4 ta misol keltiring. 18. Otlashgan sonlar qanday qo‘shimchalarni oladi? 19. Sonlarning tuzilish jihatdan turlari haqida gapiring. 20. “Beshtacha kitob” birikmasidagi sonni yoddan to‘liq tahlil qilib bering. 21. Omonimlik xususiyatiga ega bo‘lgan sonlar haqida gapiring. 22. Sinonimlik xususiyatiga ega bo‘lgan sonlar haqida gapiring

DASTURLASHTIRILGAN TOPSHIRIQ SAVOLLARI:

1. Qanday so‘zlarga son deyiladi?
2. Sonning nomini bildiradigan sonlar qanday qo‘shimchalarni olishi mumkin?
3. Sonlar qanday raqamlar bilan ifodalanadi?
4. Butun va kasr sonlarning o‘zaro farqini tushuntiring.
5. Kasr sonning turlari haqida gapiring va aralash sonlar haqida gapiring.
6. Miqdor sonlar haqida gapiring.
7. “Bir” so‘zining qanday ma’nolari bor?

6-ilova

MAVZU BO‘YICHA TEST SAVOLLARI:

1. Qaysi qatorda songa oid grammatik xususiyatlar noto‘g‘ri berilgan?

A) son boshqa so‘z turkumidan yasalmaydi B) sonning turlari maxsus qo‘shimchalar qo‘shish bilan yasalmaydi C) son otlashmasa turlanmaydi D) son odatda aniqlovchi so‘z bilan qo‘llanadi

2. Quyidagi belgi ifodalovchi qaysi so‘zlar son turkumiga oid so‘zlarga tobe bo‘lib kelishi mumkin? *1) katta; 2) yaxshi; 3) shirin*

A) Berilgan so‘zlarning barchasi songa tobe bo‘lib kelishi mumkin B) berilgan so‘zlar sonlarga tobe bo‘lmaydi C) yaxshi, katta D) shirin, katta

3. Nutqimizda faol ishlatiladigan nechta sodda (tub) son bor?

A) 26 B) 23 C) 35 D) 10

4. Affiksatsiya (qo‘shimchalar yordamida yasalish) qaysi turkum uchun xos emasligini aniqlang.

A) ot B) sifat C) son D) fe’l

5. Qaysi javobda arab raqamlarining rim muqobili noto‘g‘ri ifodalangan?

A) CM – 900, to‘qqiz yuz B) M - 1000, ming C) LXX - 70, etmish D) CCD - 200, ikki yuz

6. Qaysi sonlarga –*lan* qo‘shimchasini qo‘shish orqali yangi so‘z yasash mumkin?

A) ikki B) yuz C) uch D) A,B

7. Sonning morfologik xususiyatlari qaysilar?

A) So‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar sonning hamma turlariga ham qo‘shila bermaydi. B) Boshqa so‘z turkumlaridan son yasalmaydi. C) Sondan turli so‘z turkumlari yasalishi mumkin. D) A,B,C

8. Sonning sintaktik xususiyatlarini aniqlang.

A) Sonlar gapda aniqlovchi va kesim vazifasida keladi.

B) Sonlar hech qachon belgi ifodalovchi so‘zlarni o‘ziga tobe qilib kelmaydi. C) Boshqa so‘z turkumlaridan son yasalmaydi.D) A, B

9. Agar ot turkumiga oid so‘zning aniqlovchisi vazifasida sifat va son turkumiga oid so‘zlar kelsa, ular gap tarkibida qanday joylashadi?

A) oldin sifat, keyin son keladi B) oldin son, keyin sifat keladi

C)faqat son so‘z turkumi keladi D) faqat sifat so‘z turkumi keladi

10. Kasr sonni toping.

A) Ikki hovli qo‘shib yuborilgan edi. B) ... qizarib-bo‘zarib, ketmondek oyning yarmi ko‘rinadi. C) ... to‘rt-beshtacha chakana havaskorlargina kelibdi. D) Novvoyxonadan ikkita issiq non olib chiqay.

11. Aralash sonni toping.

A) yarim, chorak, nimchorak B) ikkidan bir, uchdan ikki, to‘qqizdan besh C) o‘ttiz ikki, sakson sakkiz, bir yuz ellik besh D) uch yarim, olti butun o‘ndan besh, ikki butun uchdan bir

12. *Ki hisob ichra bor edi o‘n lak, Har laki o‘n tuman kelib beshak. (Navoiy)* Navoiyning misralarida qo‘llangan *bir lak* nechaga teng?

A) yuz B) ming C) o‘n ming D) yuz ming

13. *Bir* so‘zi qaysi gapda chegaralash ma’nosini bildirgan?

A) U Toshkentdan vakil bo‘lib kelgan bir rus kishi bilan gaplashmoqda. B) Choy mahalida bir kulib, bir yig‘lamsirab, o‘zi, bolalari to‘g‘risida gapirdi. C) Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda. D) Hammamiz imtihonlardan yaxshi o‘tdik, bir Ahmadning mazasi bo‘lmadi.

14. Qaysi javobda jamlovchi son shaklini hosil qiluvchi qo‘shimcha berilgan?

A) -ta B) -lab C) -lar D) -ovlon

15. Chama sonni toping.

A) Ularning har ikkalasi ham shu to‘g‘rida o‘ylar edi.

B) ...to‘rt-beshtacha chakana havaskorlargina kelibdi. C) Lekin ular yiqqan kitoblar chol yiqqan kitoblarning o‘ndan biriga ham teng kelmaydi. D) Hozir ular bo‘lajak shiyponning to‘rtinchi ustunini tayyorlashyapti.

16. *Qurbon ota ikkinchi samovarga xumdan suv olib quymoqda edi*. Shu gapdagi tartib sonning sintaktik vazifasini belgilang.

A) kesim B) ega C) to‘ldiruvchi D) aniqlovchi.

17. Qaysi qatorda sonlarni yozishda imlo xatoga yo‘l qo‘yilgan?

A) bitta, ikkita B) uchchala, to‘rttala C) besh-o‘n, ellik-oltmishtacha D) uchdan bir, beshdan uch

18. Sifatlarga qo‘shilib keluvchi -roq, -g‘ish, -imtir, -ish; sonlarga qo‘shilib keluvchi -ta, -tadan, -tacha, -larcha, -ala, -lab kabilar qo‘shimchalarning vazifasiga ko‘ra qaysi turiga mansub?

A) -roq, -g‘ish, -imtir, -ish shakl yasovchi; -ta, -tadan, -tacha, -larcha, -ala, -lab so‘z yasovchi B) -roq, -g‘ish, -imtir, -ish so‘z yasovchi; -ta, -tadan, -tacha, -larcha, -ala, -lab shakl yasovchi C) sanab o‘tilgan qo‘shimchalarning barchasi shakl yasovchi D) -roq, -g‘ish, -imtir, -ish so‘z o‘zgartuvchi; -ta, -tadan, -tacha, -larcha, -ala, -lab so‘z yasovchi

19. Hisob (numerativ) so‘zi qatnashgan gapni aniqlang.

A) Ming marta shukur B) Kissasida bir miri ham yo‘q. C) Bir guruh yoshlar safarga otlandilar. D) A,B,C.

20. Quyida berilgan hisob so‘z qanday ifoda uchun xizmat qilmoqda? *Bir qultum suvga zor bo‘lib...*

A) butunning bo‘lagi B) og‘irlik o‘lchovi
C) masofa D) predmetni yakkalab hisoblash

21. Butunning qismini hisoblash uchun ishlatiladigan hisob so‘zlar berilgan qatorni toping.

A) nafar, bosh, nusxa B) siqim, to‘da, botmon C) chaqmoq, luqma, shingil D) shingil, quloch, kun

22. Sonning qaysi turi hisob so‘zlari bilan qo‘llanmaydi?

A) dona son B) chama son C) jamlovchi son D) tartib son

23. Numerativ (hisob) so‘zlar qaysi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi?

A) son, sanoq sonlar B) sifatlar, asosan yasama sifatlar
C) gumon olmoshlari bilan D) otlar bilan

24. Numerativ (hisob) so‘zlar sonlar bilan qo‘llanganda, qanday tinish belgisi qo‘yiladi?

A) tire, vergul B) ikki nuqta
C) nuqtali vergul D) tinish belgisi qo‘yilmaydi

25. Otlashgan sonni aniqlang.

A) Beshta qiz salqin hovlida chir-chir aylanib koptok o‘ynar edi. B) Ular ancha gaplashib turgandan keyin, biri qishloq tomonga ketdi, ikkinchisi orqaga qaytdi. C) Bir kilogramm paxta tolasidan o‘n ikki metr chit yoki yigirma metr batist tayyorlash mumkin. D) Alisher Navoiy XV asrda yashab ijod etgan.

26. Sonning ma’no jihatidan qaysi turi otlashish xususiyatiga ega emas?

A) dona va tartib son B) taqsim son C) miqdor sonning barcha turlari otlashadi, tartib son otlashmaydi D) sonning barcha turlari otlashish xususiyatiga ega

27. Son otlashganda, qanday sintaktik vazifada keladi?

A) undalma, ikkinchi darajali bo‘lak B) bosh bo‘lak
C) kirish so‘z D) A,B,C.

28. Otlashgan son qaysi gapda mavjud?

A) Ikkalasi navqiron aktrisaga bamisoli sehrlanganday tikilishardi. B) Shuxatlardan ikkitasini sho‘xroq yigit yozgan edi. C) Bu erda u sakkizinchi va to‘qqizinchi sinflarda bir yo‘la o‘qishga ulgurdi. D) A, B.

29. Egalik affiksining qaysi shaxsdagi shakli otlashgan sonlarga qo‘shilmaydi?

A) II shaxs ko‘plik B) I shaxs birlik
C) III shaxs birlik D) II shaxs birlik

30. Sodda sonlar ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) Majlisga besh-olti ota-ona keldi. B) Karima to‘rt-besh yil sabr qildi. C) Yigirmanchida oxirgi imtihon bo‘ldi. D) O‘n beshinchi kuni hovlimizga ko‘chgan edik.

31. Gap tarkibida qo‘llangan juft sonlar asosan sonning ma’no jihatdan qaysi turiga mansub?

A) tartib sonlarga *B) jamlovchi sonlarga*

C) chama sonlarga *D) qo‘shma sonlarga*

32. <u>*Bir*</u> so‘zining chegaralov (ayiruv) ma’nosi qaysi qatorda berilgan?

A) Bir gektar erni bog‘u bo‘stonga aylantirdi. B) Choy mahalida bir kulib, bir yig‘lamsiradi. C) U bir kuni ovga chiqdi. D) Hamma keldi, bir Hakimjon ko‘rinmadi.

33. Dona son ishtirok etgan gap qaysi qatorda qo‘llangan?

A) Bu sinfda yigirma beshta o‘quvchi ta’lim oladi. B) Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi. C) Shahrimizda o‘nlab teatrlar bor. D) Ikkovimiz ham pastga tushdik.

34. Taqsim son qaysi gapda mavjud?

A) Hozir uyida shunaqa antiqa bodringdan to‘rttasi bor. *B) So‘rining shundoq yoniga ikki dona olma tushibdi.* *C) Bemorlar palatalarga to‘rttadan joylashtirildi. D) Ularning ikkovi ham jim qolishdi.*

35. Qaysi qatordagi tartib son <u>*dastlabki, ilk*</u> ma’nosida kelgan?

A) Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi.

B) Endi ikkinchi tomonga nazar tashlaylik. C) Ikkinchi kattalarning so‘ziga aralashma. D) Atirgullar, ko‘rkam karnaygullar, xil-xil gulbeorlar kuzning birinchi izg‘irinlarini pisand qilmaydi.

36. Tartib son yo‘q qatorni toping.

A) Onasi tokchadagi ettinchi lampani yoqdi. B) Ukam beshinchi sinfda o‘qiydi. C) Ettinchilar, shanbalikka chiqdilar.

D) Beshinchi, oldinga chiqing.

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.
10. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfemika. So‘z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.

GLOSSARIY

Qo‘shma sonlar - ikki yoki undan ortiq sonning bog‘lanishidan tuzilgan sonlar: o‘n uch, bir yuz o‘n sakkiz.

Tartib son - narsa-buyumning sanoqdagi tartibini bildiradi. Tartib son unli bilan tugagan miqdor songa - nchi, undosh bilan bitgan miqdor songa -inchi qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilinadi: birinchi, ikkinchi. Tartib sonlar arabcha raqamlar bilan ifodalansa, bu qo‘shimchalar yozilmaydi, raqamdan keyin chiziqcha qo‘yiladi: rim raqamlari bilan ifodalansa, chiziqcha ham qo‘yilmaydi: 2-brigada, VI sinf, 2008-yil 8-Mart.

Taqsim son - narsa-buyumlarning taqsimlanish miqdorini anglatadigan son va u miqdor songa -tadan qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilinadi: ikkitadan, o‘ntadan, yuztadan. Ba’zan miqdor son takrorlanib, taqsim son yasalishi mumkin: Ikki-ikki bo‘lib yurdik. (hisob so‘zi bo‘lsa, -ta tushiriladi: Ikki metrdan berildi.)

Takroriy sonlar - bir asosning takrorlanishidan tuzilgan sonlar: ikki-ikki, to‘rtta-to‘rtta, o‘nta-o‘nta.

Son - sonning nomini, narsa-buyumning son-sanog‘ini, tartibini bildirgan so‘zlar turkumi. Son necha?, qancha?, nechta?, nechanchi? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Sonlarning morfologik xususiyatlari: 1) sonlar juft, dona, metr, siqim kabi hisob so‘zlari bilan qo‘llana oladi; 2) so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar sonning hamma turlariga ham qo‘shilavermaydi; 3) boshqa so‘z turkumlaridan son yasalmaydi. Sonning sintaktik xususiyatlari: 1) doim otlar bilan birga qo‘llanadi; 2) sonlar hech qachon belgi ifodalovchi so‘zlarni o‘ziga tobe qilib kelmaydi; 3) sonlar ot oldida aniqlovchi bo‘lib kelganda, u bilan birikib yaxlit bir bo‘lak vazifasini bajaradi: Ikkala do‘st quchoqlashib ko‘rishishdi. 4) son va sifat aniqlovchi bo‘lib kelganda, oldin son, keyin sifat keladi: beshta shirin qovun. 5) Sonlar gapda ko‘pincha aniqlovchi va kesim vazifasida keladi: Beshta qalam oldi. Maqsadimiz bitta.

Juft sonlar - ikkita turli asosli sonning juftlashishidan tuzilgan sonlar: besh-olti, yetti-sakkiz, o‘n besh-o‘n olti.

7-ilova

11-MAVZU: SONNING MA’NO TURLARI: MIQDOR SON VA TARTIB SON (2 soat)

1-ilova

Ma’ruza mashg‘uloti rejasi:

1. Sonning ma’no turlari
2. Sonlarning tuzilish jihatdan turlari

Sonning ma’no turlari

Sonlar ma’no va grammatik jihatdan olti xil bo‘ladi:

1. Miqdor (sanoq) son bir turdagi narsa-buyumlarning umumiy sonini, miqdorini bildiradi: bir mashina, ikki odam, o‘n besh kishi.

Nutqimizda bir so‘zi miqdor ifodalashdan tashqari quyidagi ma’nolarni ham ifodalaydi: 1) noaniqlik (bunda u qandaydir olmoshiga sinonim bo‘ladi): Eshikni bir kishi taqillatyapti; 2) kuchaytirish (bunda u juda so‘ziga sinonim bo‘ladi): Bir yugurdim, bir yugurdim; 3) ketma-ketlik (bunda u dam, goh bog‘lovchilariga sinonim bo‘ladi): Bir menga, bir unga qaraydi; 4) chegaralash (bunda u faqat yuklamasiga sinonim bo‘ladi): Hamma keldi, bir Ahmad kelmadi; 5) tenglik (bunda u teng so‘ziga sinonim bo‘ladi: Qonun oldida hamma bir).

2. Dona son narsa-buyumning donalab sanaladigan miqdorini bildiradi. Dona son miqdor (sanoq) songa -ta qo‘shimchasini (jonli va jonsiz narsa nomlariga birika oladi) qo‘shish yoki dona (narsa nomlariga birikadi), nafar, bosh (mavjudot nomlari bilan birikadi), tup (o‘simlik nomlari bilan birikadi) so‘zlarini keltirish yordamida hosil qilinadi: beshta qush, uch dona non, o‘n nafar odam, yuz bosh qo‘y.

3. Tartib son narsa-buyumning sanoqdagi tartibini bildiradi. Tartib son unli bilan tugagan miqdor songa - nchi, undosh bilan bitgan miqdor songa -inchi qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilinadi: birinchi, ikkinchi.

Tartib sonlar arabcha raqamlar bilan ifodalansa, bu qo‘shimchalar yozilmaydi, raqamdan keyin chiziqcha qo‘yiladi: rim raqamlari bilan ifodalansa, chiziqcha ham qo‘yilmaydi: 2-brigada, VI sinf.

Tartib sonlar ma’no jihatidan sifatlarga yaqin turadi va ularning ayrim turlari sifat turkumiga ko‘chishi ham mumkin: Ettinchi lampa, o‘ninchi (yoki qirqinchi) ip, yuzinchi lampochka. Shuningdek, birinchi tartib sonining o‘rnida ilk, dastlabki, asosiy, bosh, avvalgi, eng yaxshi degan sifatlarni sinonim tarzida qo‘llash mumkin. Qishning birinchi (ilk) sovug‘i.

Kirilcha yozuvda yil va oyni ko‘rsatuvchi arab raqamlaridan keyin chiziqcha qo‘yilmaydi: 1998 yil, 15 fevral. Lotin yozuvida esa qo‘yiladi: 2007-yil, 13-fevral.

4. Chama son narsa-buyumlarning taxminiy sonini bildiradi va quyidagicha hosil bo‘ladi:

1) miqdor songa -tacha qo‘shimchasini qo‘shish bilan: o‘ntacha mashina;
2) miqdor songa -lar, -larcha qo‘shimchasini qo‘shish bilan: Soat o‘n birlar edi. Yuzlarcha bola yig‘ildi.
3) miqdor songa -lab qo‘shimchasini qo‘shish bilan: minglab odam;
4) ikki miqdor sonni juft keltirish bilan: besh-olti, uch-to‘rt.

5. Jamlovchi son narsa-buyumning umumiy sonini bildiradi va midor songa quyidagi qo‘shimchalarni qo‘shish bilan yasaladi:

1) -ov qo‘shimchasini qo‘shish bilan: uchovi, to‘rtovi;
2) -ala qo‘shimchasini qo‘shish bilan: ikkala, uchala;
3) -ovlon qo‘shimchasini qo‘shish bilan: beshovlon, oltovlon;

Ikki, olti, etti miqdor sonlaridan jamlovchi son hosil qilinganda, o‘zakdagi i tovushi tushib qoladi: ikkovi, oltovi, ettovi.

Uch, to‘rt sonlariga –ala qo‘shilganda, uchchala, to‘rttala tarzida aytilsa ham, uchala, to‘rtala deb yoziladi.

Jamlovchi sonlar ko‘pincha 1 dan 7 gacha bo‘lgan sonlardan yasaladi (nutqda o‘nala, o‘novi shakllari uchraydi) va ular ma’no jihatidan otlarga yaqin turadi.

6. Taqsim son narsa-buyumlarning taqsimlanish miqdorini anglatadi va miqdor songa -tadan qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilinadi: ikkitadan, o‘ntadan, yuztadan. Ba’zan miqdor son takrorlanib, taqsim son yasalishi mumkin: Ikki-ikki bo‘lib yurdik. (Miqdor bildiruvchi so‘z qatnashsa, -ta tushiriladi: beshtadan – besh kilogrammdan)

Butun son, kasr son, aralash son va ularning yozilishi

Narsa-buyumning son-sanog‘ini, miqdorini uning butunligini saqlagan holda ifodalaydigan son butun son deb ataladi: 1, 3, 5, 12 kabi.

Narsa –buyumlar miqdorini bo‘laklab, qismlab ifodalaydigan son kasr son deb ataladi: 1G‘2 (yarim), 1G‘4 (chorak), 1G‘8 (nimchorak).

Kasr son ikki xil ifodalanadi: 1) ikki son chiqish kelishigi qo‘shimchasi bilan bog‘langan bo‘ladi: ikkidan bir. 2) o‘z holicha kasrni anglatadigan so‘z bo‘ladi: yarim, chorak, nimchorak.

Butun son bilan kasr son birgalikda ishlatilsa, aralash son deb ataladi: bir yarim, ikki butun o‘ndan uch. Butun, kasr, aralash sonlar ajratib yoziladi: bir yarim kilogramm.

SANOQ SONLAR. MIQDOR SONLAR. DONA SONLAR. TAQSIM SONLAR. CHAMA SONLAR. JAMLOVCHI SONLAR. KASR SONLAR. TARTIB SONLAR. SONLARNING TUZILISHIGA KO‘RA TURLARI. SONLARNING SINTAKTIK VAZIFASI

Barcha tillardagi kabi o‘zbek tilida ham son shaxs, narsa, voqea-hodisalarning son-sanog‘ini, miqdorini, joylashish tartibini bildiradi. Sonlarni ma’nosi va grammatik xususiyatlariga ko‘ra, ikki turga bo‘lish mumkin.

1. Sanoq sonlar. 2. Tartib sonlar.

Sanoq sonlar ham o‘z navbatida bir necha turga bo‘linadi.

1.Miqdor sonlar. Ular bir turdagi narsalarning umumiy miqdorini anglatadi, ularning maxsus qo‘shimchasi yo‘q. O‘zbek tilida miqdor sonlar quyidagilar: *bir, ikki, uch, to‘rt, besh, olti, yetti, sakkiz, to‘qqiz, o‘n, yigirma, o‘ttiz, qirq, ellik, oltmish, yetmish, sakson, to‘qson, yuz,, ming. Bundan katta sonlar million, milliard, trillion* kabi baynalmilal sonlardir.

2.Dona sonlar narsalarning yakkalab, donalab sanaladigan umumiy miqdorini bildiradi. Miqdor sonlarga -ta qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil bo‘ladi: *yuzta qo‘y, mingta daraxt, o‘n mingta daftar* kabi.

Dona sonlar ko‘p hollarda hisob so‘zlar bilan ham qo‘llanadi. Bunday holda *-ta* qo‘shimchasi o‘rnida hisob so‘z keladi. Quyidagilar nutqda hisob so‘z vazifasini bajarishi mumkin: *dona, nafar, bosh, tup, nusxa, juft, bet, pud, metr, so‘m, kilo, daqiqa, soniya, gektar, bog‘ va* hokazo.

3.Taqsim sonlar shaxslar yoki narsalarning taqsimlanish yoxud guruhlanish miqdorini ifodalaydi. Sonning bu turi miqdor sonlarga *-tadan* qo‘shimchasini qo‘shish orqali yoki bir sonning takror qo‘llanishidan hosil bo‘ladi: *ikkitadan, uchtadan, uchta-uchtadan, o‘nta-o‘ntadan* kabi.

4.Chama sonlar shaxslar, narsalarning taxminiy, noaniq miqdorini bildiradi. U miqdor sonlarga *-tacha, -larcha, -y,*-ay qo‘shimchalaridan mosini qo‘shish yoki ikkita sonning o‘zaro teng juftlashib qo‘llanishidan hosil bo‘ladi: *o‘ntacha talaba, yuztacha ishchi, mingtacha ko‘chat, minglab qushlar, besh-o‘nta daftar, bir-ikki og‘iz gap* kabi.

5.Jamlovchi sonlar shaxslar, narsalar miqdorini jamlab, umumlashtirib yoki ajratib ko‘rsatadi. Ular miqdor sonlarga *-ov, -avlon, -ala* qo‘shimchalaridan tegishlisini qo‘shish bilan hosil bo‘ladi: *ikkovi, uchovlon, to‘rtalasi, oltovlon, yettoviga* kabi.

6.Kasr sonlar butunning qismini, bo‘lagini ifodalaydi: *yarim, chorak, nim chorak, to‘rtdan bir, ikki butun o‘ndan besh* kabi.

Tartib sonlar ham miqdor sonlarga *-nchi, -inchi* qo‘shimchalaridan mosini qo‘shish orqali hosil bo‘lib, narsalarning tartibini, joylashish o‘rnini bildiradi: *ikkinchi, to‘rtinchi, o‘n birinchi, yetmish sakkizinchi* kabi.

Sonlar tuzilishiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: 1. Sodda sonlar. 2. Murakkab sonlar.

Sodda sonlar birgina o‘zakdan tashkil topadi: *bir, o‘n, yuz, yetmish, to‘qson, ming* kabi.

Murakkab sonlar ikki va undan ortiq sonlar birikuvidan hosil bo‘ladi: *o‘n bir, bir yuz o‘ttiz olti, ikki ming ikki yuz to‘qson yetti* kabi.

O‘zbek tilida son o‘zi birikib kelgan ot bilan bitishuv usuli orqali bog‘lansa, rus tilida ular sifatlar kabi o‘zi birikib kelgan ot bilan rod, son va kelishikda moslashadi. Sonning yana bir muhun xususiyati shundaki, u morfologik yoki sintaktik yo‘l bilan

boshqa so‘z turkumlaridan yasalmaydi. Miqdor sonlarga qo‘shimchalar qo‘shish bilan boshqa tur sonlarning hosil bo‘lishi yasalish emas, balki sonning o‘z ichki o‘zgarishlaridir.

Sonlar ham gapda sifatlar kabi, asosan, *aniqlovchi* va *kesim* vazifasini bajaradi.

Aniqlovchi: *Men bugun ukamga juda qiziq* ***ikkita*** *kitob sotib oldim.* **Kesim:** *Darslarga doim tayyorlanib keladigan talabaning bahosi* ***besh.*** Sonlar ham otlashganda boshqa bo‘laklar vazifasida kela oladi. Ega: *Mana shu talabalardan* ***biri*** *har kuni darsga kech qolib keladi.* **To‘ldiruvchi:** ***Birni*** *birovdan minnat bilan olgandan ko‘ra, mingni mehnat qilib topgan yaxshi.*

Hol: *Nurmurod betob do‘sti holidan har kuni* ***ikki marta*** *xabar olib turdi.* **Undalma:** ***Birinchi, birinchi, birinchi,*** *men o‘ttiz yettinchiman, qanday eshityapsiz, qabul.*

DASTURLASHTIRILGAN TOPSHIRIQ SAVOLLARI:

1. Qanday so‘zlarga son deyiladi?
2. Sonning nomini bildiradigan sonlar qanday qo‘shimchalarni olishi mumkin?
3. Sonlar qanday raqamlar bilan ifodalanadi?
4. Butun va kasr sonlarning o‘zaro farqini tushuntiring.
5. Kasr sonning turlari haqida gapiring va aralash sonlar haqida gapiring.
6. Miqdor sonlar haqida gapiring.
7. “Bir” so‘zining qanday ma’nolari bor?

MAVZU BO’YICHA TEST TOPSHIRIQLARI:

1. Qaysi qatorda songa oid grammatik xususiyatlar noto‘g‘ri berilgan?

A) son boshqa so‘z turkumidan yasalmaydi B) sonning turlari maxsus qo‘shimchalar qo‘shish bilan yasalmaydi C) son otlashmasa turlanmaydi D) son odatda aniqlovchi so‘z bilan qo‘llanadi

2. Nutqimizda faol ishlatiladigan nechta sodda (tub) son bor?

A) 26 B) 23 C) 35 D) 10

3. Qaysi sonlarga –*lan* qo‘shimchasini qo‘shish orqali yangi so‘z yasash mumkin?

A) ikki B) yuz C) uch D) A,B

4. Sonning sintaktik xususiyatlarini aniqlang.

A) Sonlar gapda aniqlovchi va kesim vazifasida keladi.

B) Sonlar hech qachon belgi ifodalovchi so‘zlarni o‘ziga tobe qilib kelmaydi. C) Boshqa so‘z turkumlaridan son yasalmaydi.D) A, B

5. Kasr sonni toping.

A) Ikki hovli qo‘shib yuborilgan edi. B) ... qizarib-bo‘zarib, ketmondek oyning yarmi ko‘rinadi. C) ... to‘rt-beshtacha chakana havaskorlargina kelibdi. D) Novvoyxonadan ikkita issiq non olib chiqay.

6. Aralash sonni toping.

A) yarim, chorak, nimchorak B) ikkidan bir, uchdan ikki, to‘qqizdan besh C) o‘ttiz ikki, sakson sakkiz, bir yuz ellik besh D) uch yarim, olti butun o‘ndan besh, ikki butun uchdan bir

7. *Bir* so‘zi qaysi gapda chegaralash ma’nosini bildirgan?

A) U Toshkentdan vakil bo‘lib kelgan bir rus kishi bilan gaplashmoqda. B) Choy mahalida bir kulib, bir yig‘lamsirab, o‘zi, bolalari to‘g‘risida gapirdi. C) Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda. D) Hammamiz imtihonlardan yaxshi o‘tdik, bir Ahmadning mazasi bo‘lmadi.

8. Qaysi javobda jamlovchi son shaklini hosil qiluvchi qo‘shimcha berilgan?
A) -ta B) -lab C) -lar D) -ovlon

9. Chama sonni toping.
A) Ularning har ikkalasi ham shu to‘g‘rida o‘ylar edi.
B) ...to‘rt-beshtacha chakana havaskorlargina kelibdi. C) Lekin ular yiqqan kitoblar chol yiqqan kitoblarning o‘ndan biriga ham teng kelmaydi. D) Hozir ular bo‘lajak shiyponning to‘rtinchi ustunini tayyorlashyapti.

10. Hisob (numerativ) so‘zi qatnashgan gapni aniqlang.
A) Ming marta shukur B) Kissasida bir miri ham yo‘q. C) Bir guruh yoshlar safarga otlandilar. D) A,B,C.

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.

2- ilova

Son tahlili namunasi	
1. So‘rog‘i. 2. Butun yoki kasrligi. 3. Ma’no turi. 4. Hisob so‘zi bor-yo‘qligi.	5. Otlashgan yoki otlashmaganligi. 6. Tuzilish turi. 7. Gapdagi sintaktik vazifasi.

3-ilova

Uyga topshiriq.

1. Badiiy adabiyotlardan son ishtirok etgan misollar to‘plang. Ular asosida tarqatma material tuzing.

2.Son so‘z turkumining barcha ma’no turlaridan foydalanib 3 ta mazmunli gap tuzing.

GLOSSARIY

Butun son - narsa-buyumning sanog‘ini, miqdorini uning butunligini saqlagan holda ifodalaydigan son: bir, uch, o‘n, yuz, ming kabi.

Dona son - narsa-buyumning donalab sanaladigan miqdorini bildiradigan son. Dona son miqdor songa -ta qo‘shimchasini qo‘shish yoki miqdor sondan keyin dona, nafar so‘zlarini keltirish yordamida hosil qilinadi: beshta qush, uch dona non, o‘n nafar odam.

Hisob so‘zlari (numerativlar) - miqdor sonlar bilan qo‘llanib, noaniq miqdor tushunchasini ifodalaydigan so‘zlar: besh so‘m, o‘n gramm, yuz yil. Bunday so‘zlar aslida ot turkumiga mansub bo‘lib, o‘z lug‘aviy ma’nolarini qisman yo‘qotgan holda

noaniq miqdor ifodalaydigan bo‘lib qolgan so‘zlardir. Hisob so‘zlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi: 1) predmetlarni yakkalab hisoblash uchun ishlatiladigan: dona, nusxa, tup, bosh, nafar; 2) butunning qismini hisoblash uchun: parcha, varaq, burda, og‘iz, luqma, siqim, tilim, chimdim, qultum, yutum, ho‘plam, tomchi, chaqmoq(qand), nimta, to‘g‘ram, poy, toqa, bo‘lak, shingil; 3) to‘dalab ko‘rsatuvchi: gala, to‘p, guruh, to‘da, dasta, bog‘, quchoq, shoda, hovuch; 4) juftlab ifodalovchi: juft, para; 5) og‘irlikni o‘lchaydigan: gramm, kilogramm, sentner, tonna, mis?ol, pud, botmon, qadoq, paysa; 6) uzunlik o‘lchovini bildiradigan: millimetr, santimetr, metr, kilometr, chaqirim, tosh (eskirgan), gaz, qarich, quloch, qadam; 7) yosh o‘lchovini bildiradigan: yashar, yoshlik, oylik, kunlik; 8) vaqt o‘lchovini bildiradigan: soniya, soat, kun, oy, hafta, yil, asr; 9) qiymat o‘lchovini ifodalaydigan: so‘m, tiyin, tanga, miri, paqir. Bulardan tashqari, quyidagi hisob so‘zlari son va fe’l orasida kelib, harakat miqdorini bildiradi: marta, navbatda, karra, bor, hissa, qatla, sidra, daf’a.

Kasr son - butunning bo‘lagini, ulushini ifodalaydigan sonlar: yarim yoki ikkidan bir, chorak yoki to‘rtdan bir, nimchorak yoki sakkizdan bir.

Jamlovchi sonlar - narsa-buyumning umumiy sonini jamlab ifodalaydigan sonlar. Ular miqdor songa quyidagi qo‘shimchalarni qo‘shish bilan yasaladi: 1) -ov qo‘shimchasini qo‘shish bilan: uchovi, to‘rtovi; 2) -ala qo‘shimchasini qo‘shish bilan: ikkala, uchala; 3) -ovlon qo‘shimchasini qo‘shish bilan: beshovlon, oltovlon; Ikki, olti, yetti miqdor sonlaridan jamlovchi son hosil qilinganda, asosdagi i tovushi tushib qoladi: ikkovi, oltovi, yettovi. Jamlovchi sonlar ko‘pincha 1 dan 7 gacha bo‘lgan sonlardan, shuningdek, o‘n sonidan yasaladi: birovi, ikkala, uchala, to‘rtovi, beshala, oltovi, yettovi, o‘nala, o‘novi.

Miqdor son - bir turdagi narsa-buyumlarning umumiy sonini, miqdorini bildiradigan son: besh, o‘n ikki, o‘ttiz uch.

Son - sonning nomini, narsa-buyumning son-sanog‘ini, tartibini bildirgan so‘zlar turkumi. Son necha?, qancha?, nechta?, nechanchi? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Sonlarning morfologik xususiyatlari: 1) sonlar juft, dona, metr, siqim kabi hisob so‘zlari bilan qo‘llana oladi; 2) so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar sonning hamma turlariga ham qo‘shilavermaydi; 3) boshqa so‘z turkumlaridan son yasalmaydi. Sonning sintaktik xususiyatlari: 1) doim otlar bilan birga qo‘llanadi; 2) sonlar hech qachon belgi ifodalovchi so‘zlarni o‘ziga tobe qilib kelmaydi; 3) sonlar ot oldida aniqlovchi bo‘lib kelganda, u bilan birikib yaxlit bir bo‘lak vazifasini bajaradi: Ikkala do‘st quchoqlashib ko‘rishishdi. 4) son va sifat aniqlovchi bo‘lib kelganda, oldin son, keyin sifat keladi: beshta shirin qovun. 5) Sonlar gapda ko‘pincha aniqlovchi va kesim vazifasida keladi: Beshta qalam oldi. Maqsadimiz bitta.

Chama son - narsa-buyumlarning taxminiy sonini bildiradigan son. Quyidagicha hosil bo‘ladi: 1) miqdor songa -tacha qo‘shimchasini qo‘shish bilan: o‘ntacha mashina; 2) miqdor songa -lar, -larcha qo‘shimchasini qo‘shish bilan: Soat o‘n birlar edi. Yuzlarcha odam yig‘ildi. 3) miqdor songa -lab qo‘shimchasini qo‘shish bilan: minglab odam; 4) ikki miqdor sonni juft keltirish bilan: besh-olti, uch-to‘rt.

12-13 *MAVZU*: OLMOSH. OLMOSHNING GRAMMATIK MA’NOSI. OLMOSHLARNING MA’NO TURLARI (4 soat)

1-ilova

Ma’ruza mashg‘uloti rejasi:

1. Olmoshning ta’rifi va leksik-grammatik xususiyatlari
2. Olmoshlarning ma’no turlari
3. Boshqa turkumga oid so‘zlarning olmoshlarga ko‘chishi
4. Olmoshlarning tuzilish jihatdan turlari

2- ilova

- **Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:**

1. Olmosh deb qanday so‘zlarga aytiladi?
2. Olmoshlarning grammatik xususiyatlarini sanab ko‘rsating.
3. Kishilik olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
4. O‘zlik olmoshi va uning xususiyatlari haqida gapiring.
5. Ko‘rsatish olmoshlari va ularning ususiyatlari haqida gapiring.
6. So‘roq olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
7. Belgilash olmoshlari va ularning xususiyatlari haqida gapiring.
8. Bo‘lishsizlik olmoshlari va ularning

Olmosh haqida ma’lumot

Gap ichida ot, sifat, son, ravish, ba’zan so‘z birikmasi va gap o‘rnida qo‘llana oladigan, aniq lug‘aviy ma’noga ega bo‘lmagan so‘z turkumi olmosh deb ataladi:

Ot o‘rnida: *Karim juda quvondi, chunki u o‘z orzusiga erishgan edi.*

1. sifat o‘rnida: *Kechagi kitobingni berib tur, men shu kitobdan misollar olmoqchiman.*
2. son o‘rnida: *Menda ikkita qalam bor, senda nechta bor?*

4. Ravish o‘rnida: *Men bugun ketaman, sen qachon ketasan?*

5. So‘z birikmasi o‘rnida: *Yomon so‘z bosh qozig‘idir, shunday so‘zni gapirmagan ma’qul.*

6. Gap o‘rnida: *Sen mehnat qilishni yoqtirmaysan, bu esa insondagieng yomon xislatdir*.

Olmoshlar turlanadi, gapda ko‘pincha ega, to‘ldiruvchi, aniqlovchi va undalma bo‘lib keladi: *Hamma keldi. Bizni tabriklang. Shu kitobni bering.*

Olmoshning grammatik xususiyatlari :

1) so‘z yasalish xususiyati yo‘q (lekin olmoshlar asosida ot, fe’l, ravish, sifat yasalishi mumkin: *o‘zlik, sensirama, o‘zicha, menbop);*

2) juftlanib, boshqa so‘z turkumi vazifasida keladi: *o‘sha-o‘sha, shu-shu* (ravish);

3) olmoshlar otlarga xos so‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalarni olishi mumkin: *unga, shunisi;*

4) olmosh hech vaqt o‘zidan oldin aniqlovchi olmaydi.

Olmoshlarni gapda bajargan vazifasiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘lsa bo‘ladi:

1. ot toifasidagi olmoshlar
2. sifat toifasidagi olmoshlar.
3. son toifasidagi olmoshlar.

Olmoshlarning ma’no turlari:

Olmoshlar ma’no jihatdan quyidagi turga bo‘linadi:

1. Kishilik (shaxs) olmoshlari
2. O‘zlik olmoshlari
3. Ko‘rsatish olmoshlari
4. So‘roq olmoshlari

5. Belgilash olmoshlari
6. Bo‘lishsizlik olmoshlari
7. Gumon olmoshla

1. Kishilik (shaxs) olmoshlari

Kishilik (shaxs) olmoshlari uchta shaxsni bildiradigan quyidagi olmoshlardir: *men, sen, u, biz, siz, ular*. Kishilik olmoshlari otlar kabi turlanadi. *U* kishilik olmoshiga jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi qo‘shimchalari qo‘shilganda, bir *n* orttiriladi: *unga, unda, undan.* Qaratqich, tushum kelishigi va qarashlilik shakli qo‘shimchasi *–niki* qo‘shilganida esa, *-n* tushiriladi: *men+ning=mening, sen+ni=seni, sen+niki=seniki.*. Kishilik olmoshlari gapda ega *(Men keldim)*, to‘ldiruvchi *(Senga aytaman)*, qaratqich aniqlovchi *(Uning ukasi kelibdi)*, ot- kesim *(Mening do‘stim sensan)* vazifalarini bajaradi.

2. O‘zlik olmoshlari

• O‘zlik olmoshi narsa-buyumni aniqlab yoki ta’kidlab ko‘rsatish uchun ishlatiladigan *o‘z* so‘zidir. Bu olmosh narsa-buyumning shaxsga xosligini, tegishliligini yoki shaxsning tanholigini bildiradi: *o‘z uyi, o‘z ukasi.* O‘zlik olmoshi egalik qo‘shimchasini olib, kishilik olmoshlariga sinonim bo‘ladi: *o‘zim - men, o‘zing - sen, o‘zi - u.*

3.Ko‘rsatish olmoshlari

• Ko‘rsatish olmoshlari narsa-buyumni, kimsani ko‘rsatish uchun ishlatiladigan olmoshlar: *u, bu, shu, o‘sha, ana, mana, ana u* yoki *anovi, mana bu* yoki *manavi, ushbu*.

Kishilik olmoshi *u* bilan ko‘rsatish olmoshi *u* ni gapdagi ma’nosiga qarab farqlash mumkin. Bunda *u* kishilik olmoshi *kim?* so‘rog‘iga *(U keldi),* ko‘rsatish olmoshi *u* esa *qaysi?* so‘rog‘iga javob bo‘ladi *(U kishi keldi). U, bu, shu, o‘sha* olmoshlari jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklarida turlanganda yoki ularga *-day, -dek, -aqa, -cha* qo‘shimchalari qo‘shilganda, qo‘shimcha oldidan bir *n* tovushi orttiriladi: *unga, bunga, shunday, o‘shanday, uncha, shunaqa, o‘shandek.*

• Ko‘rsatish olmoshlari gapda asosan aniqlovchi *(Bu kitob ukamniki)* va kesim *(Men aytgan odam shu)* vazifalarini bajaradi. Otlashsa, ega *(SHu mening maqsadimdir)*, to‘ldiruvchi *(Buni tushundim)*, qaratqich aniqlovchi *(SHuning egasi sensan)*, hol *(Bunda bulbul kitob o‘qiydi)* bo‘lib ham kela oladi.

Ko‘rsatish olmoshlari gapda asosan aniqlovchi *(Bu kitob ukamniki)* va kesim *(Men aytgan odam shu)* vazifalarini bajaradi. Otlashsa, ega *(SHu mening maqsadimdir)*, to‘ldiruvchi *(Buni tushundim)*, qaratqich aniqlovchi *(SHuning egasi sensan)*, hol *(Bunda bulbul kitob o‘qiydi)* bo‘lib ham kela oladi.

4.So‘roq olmoshlari

So‘roq olmoshlari biror narsa-buyum, belgi yoki miqdor haqidagi so‘roqni bildirgan olmoshlardir. So‘roq olmoshlarining nimaga nisbatan so‘roq bildirishini quyidagi jadvaldan bilsa bo‘ladi:

№	**So‘roq turi**	**Olmoshlar**
1.	Shaxsga so‘roq	***Kim?***
2.	Narsaga so‘roq	***Nima?***
3.	Belgi-xususiyatga so‘roq	***Qanday? Qanaqa? Qaysi?***

4.	Miqdorga so‘roq	***Qancha? Necha? Nechta?***
5.	Tartibga so‘roq	***Nechanchi?***
6.	Sabab-maqsadga so‘roq	***Nega? Nimaga ?***
7.	O‘rin-joyga so‘roq	***Qayerda? Qayda? Qayoqqa?***
8.	Paytga so‘roq	***Qachon?***
9.	Mavjudlikka so‘roq	***Qani?***

5.Belgilash olmoshlari

Belgilash olmoshlari predmet va shaxslarning yig‘indisini bildiradi yoki ularni ayirib ko‘rsatadi, shuning uchun ularni ikkiga bo‘lish mumkin:

1) jamlovchi belgilash olmoshlariga *hamma, barcha, bari, jami, jamiyki, butun, yalpi* so‘zlari kiradi. 2) ayiruvchi belgilash olmoshlariga *har* so‘zining o‘zi (*Har qovunlarki*...) va *har kim, har nima, har bir, har qaysi* kabi so‘zlar kiradi va bu olmoshlar to‘pdan ajratilgan shaxs, narsa, belgilarni bildiradi. *Har* so‘zi ayrim yoziladi.

6. Bo‘lishsizlik olmoshlari

Bo‘lishsizlik olmoshlari inkor ma’nosini bildirgan olmoshlardir. Bular *hech* so‘zining o‘zi va shu so‘zning ba’zi so‘roq olmoshlari bilan birikishidan hosil qilinadi, *hech* so‘zi ayrim yoziladi. Bu olmoshlar egalik, kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanadi: *U hech kimni ko‘rmadi*. *Hech kimim yo‘q. Hech* so‘zi yakka holda qo‘llanganda, ko‘pincha fe’llar oldida kelib, ravish vazifasini bajaradi (lekin butunlay ravish turkumiga o‘tmaydi): *U hech qiynalmadi.*

7. Gumon olmoshlari

Gumon olmoshlari narsa, belgi yoki voqea haqidagi noaniq tasavvurni bildirib keladigan olmosh turidir. Ular *alla-* yordamida yoki *-dir* qo‘shimchasi bilan hosil qilinadi: *allakim, allanima, allanarsa (narsadir* emas*), allaqaysi, allaqaer, allaqayoq, allanechuk, allaqancha, allanechanchi, kimdir, nimadir, qachondir, qandaydir, qaerdadir, qaergadir, negadir*. Gumon olmoshlari so‘roq olmoshlariga *bir, ham* so‘zlarini qo‘shish orqali yasalishi ham mumkin: *Uni kim ham chaqirayotgan edi-ya. Akasi unga bir nima deganday bo‘ldi.*

Olmoshlarning tuzilish turlari

1. Sodda olmoshlar barcha olmoshlar guruhida mavjud: *men, shu, o‘z, kim, hamma, hech, birov.*
2. Qo‘shma olmoshlar faqat ko‘rsatish, belgilash, bo‘lishsizlik olmoshlari guruhida mavjud: *ana shu, har kim, hech nima.*
3. Juft olmoshlar faqat kishilik, ko‘rsatish olmoshlari guruhida bor: *sizu biz, u-bu.*
4. Takroriy olmoshlar ko‘rsatish, o‘zlik, so‘roq, belgilash olmoshlariga tegishlidir: *shu-shu, o‘z-o‘zini, kim-kim, barcha-barchasi.*

Boshqa turkumga oid so‘zlarning olmoshlarga ko‘chishi

Quyidagi turkumlarga tegishli ayrim so‘zlar olmoshga ko‘chadi:

1. ot: *odam, kishi, inson, narsa, ish;*
2. sifat: *ba’zi, boshqa, ayrim, tubandagi, quyidagi;*
3. son: *bir*. Umuman olganda, *bir, har, hech* so‘zlari bilan keladigan ko‘pgina so‘zlar olmoshga ko‘chishi mumkin: *hech narsa, bir narsa, har yerda.*

MAVZU BO’YICHA TEST TOPSHIRIQLARI:

1. Predmet, belgi yoki hodisa haqidagi noaniq tasavvurga ishora qiluvchi so‘zlar...

A) ko‘rsatish olmoshlari deyiladi B) so‘roq olmoshlari deyiladi C) gumon olmoshlari deyiladi D) olmoshlar deyiladi.

2. Olmoshlardan qaysi so‘z turkumlarini yasash mumkin?
A) *fe’l* B) *ravish* C) *son* *D) A, B va C*
3. Olmoshlar qaysi so‘zlarning yasalishiga asos bo‘lishi mumkin?
A) sifatlarning B) iboralarning C) sonlarning D) A va B.
4. Olmoshlar qaysi so‘zlar o‘rnida qo‘llanganda, so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalarni qabul qiladi?
A) *ot* B) *sifat* C) *ravish* D) *ot va fe’l*
5. Turlanish qaysi turkumlariga xos?
A) olmosh, son B) fe’l, olmosh C) sifat, ravish D) ot, olmosh.
6. *Saida bu ayolni darrov yomon ko‘rib qoldi*. Ushbu misoldagi olmosh gapning qaysi bo‘lagi bo‘lib kelgan?
A) ega B) kesim C) to‘ldiruvchi D) aniqlovchi
7. *Bir xil talabalar berilgan topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarmaydilar*. Ushbu gapdagi olmoshlarni toping.
A) bir xil B) bir C) o‘z, bir xil D) o‘z
8. *Bir o‘lka bor dunyoda biroq bitilmagan dostondir bori*. Ushbu gapdagi olmosh o‘rnida kelgan so‘zni toping.
A) bori, bir B) bori C) bor D) bir
9 Kishilik olmoshlariga odatda qaysi qo‘shimchalar qo‘shilib kelmaydi?
A) *so‘z yasovchi qo‘shimcha* B) *-lar qo‘shimchasi* C) *egalik qo‘shimchasi* D) *kelishik qo‘shimchasi*
10. Olmoshlarning qaysi turi turlanganda tovush orttirilishi yoki tushishini kuzatish mumkin?
A) *o‘zlik olmoshida* B) *kishilik olmoshida*
C) *ko‘rsatish olmoshida* D) *belgilash olmoshida*

7- **ilova**

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Olmoshlarning mustaqil so’zlar tizimidagi o’ziga xos ishoraviy o’rnini yoriting.
2. Olmosh bildiruvchi ma‘noning nutqiy reallashuvda yuzaga chiqishini misollar bilan tushuntiring.
3. Olmoshlarning mazmuniy guruhlari va ularning boshqa mustaqil so’zlarga munosabatini yoriting.
4. Olmoshlarning tuzilishiga ko’ra turlari xususida ma‘lumot bering.
5. Olmoshlarda mujassamlangan shaxs, hurmat, miqdor, munosabat ma‘nolarini sharhlang.
6. Olmoshlarning nutqimizni o’rinsiz takrorlardan tozalashning, fikrni ixcham bayon qilishning muhim vositasi ekanligini tushuntiring.
7. Olmoshlarning lug’aviy va sintaktik shakllarga munosabatini yoriting.
8. Olmosh haqidagi tushunchalaringizni umumlashtiring.

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek

adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.

GLOSSARIY

Belgilash olmoshlari - predmet va shaxslarning yigindisini bildiradigan yoki ularni ayirib ko‘rsatadigan olmoshlardir. Ularni ikkiga bo‘lish mumkin: 1) jamlash olmoshlariga hamma, barcha, bari, jami, butun, yalpi so‘zlari kiradi. 2) belgilash olmoshlariga har so‘zining o‘zi va har kim, har nima, har bir, har qaysi kabi so‘zlar kiradi. Har so‘zi ayrim yoziladi. Hamma, barcha, bari olmoshlari ko‘plikni anglatadi. Belgilash olmoshlari egalik, kelishik, ko‘plik qo‘shimchalari bilan qo‘llanadi: Hammalari jim. Har kimga aytaverma.

Bo‘lishsizlik olmoshlari - inkor ma’nosini bildiradigan olmoshlardir. Bu olmoshlar hech so‘zining o‘zi va shu so‘zning ba’zi so‘roq olmoshlari bilan birikishidan hosil qilinadi; hech so‘zi ayrim yoziladi. Bu olmoshlar egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanadi: Hech kimni ko‘rmadim. Hech nimam yo‘q. Hech so‘zi yakka holda qo‘llanganda, ko‘pincha fe’llar oldida kelib, ravish vazifasini bajaradi: U hech qiynalmadi. Kimsa so‘zi ham bo‘lishsizlik olmoshlari o‘rnida qo‘llanishi mumkin: Buni kimsa (hech kim) bilmasligi kerak.

Gumon olmoshlari - narsa, belgi yoki voqea haqidagi noaniq tasavvurni bildirib keladigan olmosh turidir. Ular alla- yordamida yoki -dir qo‘shimchasi bilan hosil qilinadi: allakim, allanima, allaqaysi, allaqayer, allaqayoq, allanechuk, allaqancha, allanechanchi, kimdir, nimadir, qachondir, qandaydir, qayerdadir, qayergadir, negadir. Gumon olmoshlari so‘roq olmoshlariga bir, ham so‘zlarini qo‘shish orqali yasalishi ham mumkin: Uni kim ham chaqirayotgan edi-ya. Akasi unga bir nima deganday bo‘ldi. (Ba’zan bir nima birikmasi bo‘lishsiz olmosh o‘rnida kelishi mumkin: Buni ko‘rib bir nima demadi.) Bu olmoshlar birlik va ko‘plikda keladi, turlanadi: allakimlar, kimnidir, nimasidir.

Kishilik olmoshlari - uchta shaxsni bildiradigan olmoshlardir: men, sen, u, biz, siz, ular. Kishilik olmoshlari otlar kabi turlanadi. Men, sen olmoshlariga qaratqich, tushum kelishigi hamda -niki qo‘shimchasi qo‘shilganda, bir n tushib qoladi: mening, seniki, seni. U kishilik olmoshiga jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishigi qo‘shimchalari qo‘shilganda, bir n orttiriladi: unga, unda, undan. Bu olmoshlarga egalik qo‘shimchalari deyarli qo‘shilmaydi. Kishilik olmoshlari gapda ega (Men yozdim), to‘ldiruvchi (Seni so‘rashdi.), qaratqich aniqlovchi (Bizning sinfimizda a’lochilar ko‘p), kesim (Buning sababchisi sen.), izohlovchi (Sen yaramasni bir boplashim kerak.) vazifalarini bajaradi.

Ko‘rsatish olmoshlari - narsa-buyumni, kimsani ko‘rsatish uchun ishlatiladigan olmoshlar: u, bu, shu, o‘sha, ana shu, mana bu. Kishilik olmoshi u bilan ko‘rsatish olmoshi u ni gapdagi ma’nosiga qarab farqlash mumkin. Bunda u kishilik olmoshi kim? so‘rog‘iga, ko‘rsatish olmoshi u esa qaysi? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. U, bu, shu, o‘sha

olmoshlari jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklarida turlanganda yoki ularga -day, -cha qo‘shimchalari qo‘shilganda, qo‘shimcha oldidan bir n tovushi orttiriladi: unga, bunga, shunday, o‘shanday, uncha. Ko‘rsatish olmoshlari ega (otlashganda), aniqlovchi, hol va kesim vazifalarini bajaradi.

So‘roq olmoshlari - biror narsa-buyum, belgi yoki miqdor haqidagi so‘roqni bildirgan olmoshlardir: kim, nima, qanday, qanaqa, qaysi, qancha, necha, nechta, nechanchi, nega, nimaga, qayerda, qayda,
qayoqqa, qachon, qani.

Olmosh - ot, sifat, son, ravish, so‘z birikmasi yoki gap o‘rnida almashib keladigan so‘z turkumi: Hamma keldi. Bizni tabriklang. Shu kitobni bering.

Olmoshlashish hodisasi – boshqa turkumdagi so‘zlarning olmoshlarga ko‘chishi. Quyidagi turkumlarga tegishli ayrim so‘zlar olmoshga ko‘chadi: 1) ot: odam, kishi, inson, ish; 2) sifat: ba’zi, boshqa, ayrim, tubandagi, quyidagi; 3) son: bir.

O‘zlik olmoshi - narsa-buyumni aniqlab yoki ta’kidlab ko‘rsatish uchun ishlatiladigan o‘z so‘zidir. Bu olmosh narsa-buyumning shaxsga xosligini, tegishliligini yoki shaxsning tanholigini bildiradi: o‘z uyi, o‘z ukasi. O‘zlik olmoshi egalik qo‘shimchasini olib, uchala shaxs o‘rnida ham ishlatiladi va kishilik olmoshlariga sinonim bo‘ladi: o‘zim - men, o‘zing - sen, o‘zi - u. O‘zlik olmoshi turlanganda kelishik qo‘shimchalaridan oldin egalik qo‘shimchalari bo‘lishi shart: o‘ziga, o‘zingdan va b. O‘z olmoshi belgisiz kelishik ko‘rinishida qo‘llanishi mumkin: O‘z uying – o‘zingning uying.

14-MA’RUZA. FE’L. FE’LNING LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI
2 soat

1-ilova

Ma’ruza mashg‘uloti rejasi

1. Fe’l so‘z turkumi haqida umumiy ma’lumot
2. Fe’lning leksik–grammatik xususiyatlari
3 Fe’llarning lug‘aviy (leksik) jihatdan ma’no guruhlari
4.Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar
5.O‘timli va o‘timsiz fe’llar haqida ma’lumot

2-ilova

Mashg‘ulot mavzusi:

Fe’l, uning grammatik xususiyatlari. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar. O‘timli va o‘timsiz fe’llar

Mashg‘ulot rejasi:

1 . Fe’l so‘z turkumi haqida umumiy ma’lumot
2. Fe’lning leksik–grammatik xususiyatlari
3. Fe’llarning lug‘aviy (leksik) jihatdan ma’no guruhlari
4. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar
5. O‘timli va o‘timsiz fe’llar haqida ma’lumot

3 -ilova

Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:

4. Fe’llarning xususiyatlari va gapdagi vazifalarini misollar bilan tushuntiring.
5. Fe’llarning morfologik xususiyatlarini misollar bilan yoritib bering.
6. Fe’lning ma’no guruhlariga bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar,o‘timli va o‘timsiz fe’llariga

misollar keltiring.

4-ilova

Fe’l so‘z turkumi haqida umumiy ma’lumot

Predmetning harakatini bildirib, nima qilmoq? nima bo‘lmoq? so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar f e’ l deyiladi (Qolgan so‘roqlar shu so‘roqlardan hosil bo‘ladi: nima qildi? nima qilgan? va h.).

Fe’llarning morfologik xususiyatlari: 1) bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllarga ega: bordi, bormadi; 2) o‘timli-o‘timsizlik xususiyatlariga ega: o‘qidi (o‘timli), keldi (o‘timsiz); 3) nisbat, zamon, shaxs-son va mayl ifodalay oladi: yozdi (o‘tgan zamon, aniq nisbat, 3-shaxs, birlikda, xabar maylida): 4) o‘zining vazifadosh (xoslangan) shakllariga ega: keldi (sof fe’l), kelib (ravishdosh), kelgan (sifatdosh), kelish (harakat nomi); 5) fe’llar faqat boshqa turkumlardan yasalish xususiyatiga ega: ishla, ko‘kar.... Fe’llarning sintaktik xususiyati: 1) gapda ko‘pincha fe’l-kesim vazifasini bajaradi: Kuz keldi. 2) bundan tashqari, vazifadosh shakllari orqali barcha bo‘lak vazifasini bajara oladi: ega (O‘qimoq – maqsadim.), ot-kesim (Maqsadim - o‘qimoq), to‘ldiruvchi (Tushuntirishni boshladim), sifatlovchi-aniqlovchi (O‘qigan odam qiynalmaydi), qaratqich aniqlovchi (Olmoqning bermog‘i bor), hol (U jo‘shib gapirdi).

Fe’lning ma’no guruhlari

Fe’llar lug‘aviy (leksik) jihatdan quyidagi ma’no guruhlariga bo‘linadi (19; 66-72):

1. Yurish-harakat fe’llari: yurmoq, yugurmoq, chiqmoq, bormoq, qimirlamoq, elmoq, sudralmoq, sakramoq, uchmoq, o‘tmoq va h.
2. Nutq fe’llari: gapirmoq, pichirlamoq, demoq, so‘zlamoq, so‘ramoq, yalinmoq, o‘tinmoq, yolvormoq, vaysamoq, surishtirmoq, baqirmoq, o‘shqirmoq, ming‘irlamoq, to‘ng‘illamoq, aytmoq va h.
3. Tafakkur fe’llari: o‘ylamoq, fikrlamoq, xayol qilmoq, tasavvur qilmoq, hukm chiqarmoq, o‘yga botmoq, ko‘z oldiga keltirmoq, gavdalantirmoq, fikr qilmoq va h.
4. Natijali faoliyat fe’llari: chizmoq, yozmoq, yasamoq, qurmoq, yaratmoq, bino qilmoq, asos solmoq, bo‘yamoq, tozalamoq, yiqmoq, emoq, artmoq, sayqal bermoq, o‘chirmoq, nobud qilmoq va h.
5. Holat fe’llari: uxlamoq, kulmoq, yig‘lamoq, tirjaymoq, dam olmoq, shoshmoq, isimoq, qizarmoq, semirmoq, shishmoq, ranjimoq, xursand bo‘lmoq, xandon urmoq, dahshatlanmoq, shod bo‘lmoq, og‘rinmoq va h.

Diqqat! Ayrim darsliklarda fe’llar ma’no jihatdan to‘rt guruhga bo‘linadi: 1) nutqiy faoliyat fe’llari; 2) aqliy faoliyat fe’llari; 3) jismoniy faoliyat fe’llari; 4) holat fe’llari. (24; 73)

Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar

B o‘ l i sh l i fe’llar bajarilgan, bajarilayotgan va bajariladigan harakatni ifodalaydi: yozdi, yozyapti, yozmoqchi.

B o‘ l i sh s i z fe’llar bajarilmagan, bajarilmayotgan, bajarilmaydigan harakatni bildiradi: yozmadi, yozmayapti, yozmoqchi emas. Bo‘lishsiz fe’llar fe’l negiziga -ma qo‘shimchasini qo‘shish, fe’llardan keyin emas, yo‘q so‘zlari keltirish, fe’llardan oldin na so‘zini keltirish yoki ohang yordamida hosil qilinadi: Yozgani yo‘q. Na yozdi, na o‘qidi. Boradi, boradi-ya! (bormaydi)

O‘timli va o‘timsiz fe’llar

O‘timli fe’llar tushum kelishigidagi so‘zlarga bog‘lana oladigan fe’llardir: o‘qidi (kitobni), yozdi (xatni).

O‘timsiz fe’llar esa tushum kelishigidagi so‘zlarga bog‘lana olmaydigan fe’llardir: yugurdi, bordi, turdi, o‘tirdi.

Fe’l nisbat(daraja)lari

Fe’l orqali ifodalangan harakatni amalga oshiradigan shaxs yoki narsa harakatning bajaruvchisi (sub’ekti) deb ataladi, harakat o‘tgan narsa yoki shaxs ob’ekt deb ataladi. Bajaruvchining harakat va holat jarayonida qay darajada qatnashishini ifodalovchi fe’l shakllari fe’l nisbati deyiladi (ayrim darsliklarda daraja deyiladi(10; 328) . Fe’l nisbatlari besh xil:

1. Aniq nisbatdagi fe’llar harakatning ma’lum shaxs yoki predmet tomonidan bajarilishini bildiradi, ya’ni bu fe’llar ifodalagan harakat-holatning bajaruvchisi aniq bo‘ladi. Aniq nisbatdagi fe’llarda maxsus nisbat qo‘shimchalari bo‘lmaydi: o‘qidi, kelyapti, bormoqchi.

2. O‘zlik nisbatdagi fe’llar ish-harakatning boshqa buyumga o‘tmay, bajaruvchining o‘zida qolganini, o‘zi ustida bajarilganini anglatadi. Bunday fe’llar, asosan, o‘timli fe’llarning unli bilan tugagan negiziga -n, -l, undosh bilan tugagan negiziga -in, -il qo‘shimchalarini qo‘shish bilan hosil qilinadi (bir-ikkita fe’lda –(i)sh qo‘shimchasi bilan yasalish bor: kerishdi, joylashdi): tarandi, sevindi, sudraldi. Jonlanmoq, xo‘rsinmoq, odatlanmoq, harakatlanmoq, quvonmoq, seskanmoq, faxrlanmoq, zavqlanmoq, otlanmoq, afsuslanmoq fe’llari tarkibida -n ko‘rsatkichi mavjudligiga qaramasdan, bu fe’llar aniqlik nisbatida hisoblanadi, chunki ular tarkibidagi –n qo‘shimchasi ajaratilmaydi. Yayra, qichqir, uxla, bor kabi fe’llardan o‘zlik nisbat yasalmaydi.

3. Majhul nisbatdagi fe’llar ish-harakatning aniq bajaruvchisini ko‘rsatmaydi. Bu fe’llar ham n, -in, -l, -il qo‘shimchalari yordamida hosil qilinadi: to‘kildi, to‘plandi, ochildi, olindi.

O‘zlik va majhul nisbatdagi fe’llar bir xil qo‘shimcha yordamida hosil bo‘lganda, ularning qaysi nisbatdaligi gap mazmunidan yoki fe’ldan oldin o‘zi so‘zini keltirib ko‘rish bilan aniqlanadi: Mukofotlar berildi. Alisher o‘qishga berildi. (1-fe’l majhul, 2-fe’l o‘zlik nisbatdadir). O‘zlik nisbatda harakatning bajaruvchisi aniq bo‘ladi va u gapda ega vazifasida keladi (Sanjar imtihonga tayyorlandi), majhul nisbatda esa bajaruvchi (sub’ekt) noaniq bo‘ladi va u gap tarkibida to‘ldiruvchi vazifasini bajarib keladi (Devoriy gazeta Sanjar tomonidan tayyorlandi).

Majhul nisbat shakllari, ko‘pincha o‘timli fe’llardan yoki orttirma nisbat shaklidagi o‘timsiz fe’llardan yasaladi: kitobni o‘qidi – kitob o‘qildi; mashqni yozdirdi – mashq yozdirildi.

4. Birgalik nisbatidagi fe’llar ish-harakatning bir necha shaxs yoki narsa-buyum tomonidan birgalikda bajarilganligini bildiradi va unli bilan tugagan negizga -sh, undosh bilan tugagan negizga -ish qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasaladi: Bunday fe’llar ish-harakatning bir necha shaxs yoki narsa tomonidan bajarilganligini yoki birgalik-ko‘plik ma’nolarini ifodalaydi: Karim va Ahmad maqola yozishdi. Bolalar paxta terishdi. To‘qnashdi, o‘rtoqlashdi, ommalashdi, hazillashdi, go‘zallashdi, boqishdi, qarashdi (yordamlashdi), aytishdi, tortishdi (bahslashdi) fe’llari hozirgi o‘zbek tilida ajralmas holatga kelib qolganligi uchun aniqlik nisbatidadir.

5. Orttirma nisbatdagi fe’llar ish-harakatning bajaruvchi ta’sirida boshqa biror shaxs yoki narsa-buyum vositasida bajarilganligini bildiradi va –t (asosan, unli bilan tugagan ko‘p bo‘g‘inli fe’llarga qo‘shiladi), -tir (jarangsiz undosh bilan tugagan bir bo‘g‘inli (kel fe’lidan tashqari), ko‘p bo‘g‘inli fe’llarning ko‘pchiligiga qo‘shiladi), -dir (asosan,

jarangli undosh bilan tugagan bir bo‘g‘inli fe’llarga qo‘shiladi), -ir, -ar, -iz, -giz, -kiz, -g‘iz, -gaz, -qiz, -sat qo‘shimchalari yordamida hosil qilinadi: o‘qit, keltir, yozdir, bitir, uchir, pishir, qochir, ochir, toshir, chiqar, qaytar, tomiz, emiz, oqiz, yurgiz, ko‘rgaz, turg‘iz, ketkiz, tutqaz, o‘tkaz, ko‘rsat. Bu qo‘shimchalar o‘timsiz fe’llarni o‘timli fe’llarga aylantiradi: keldi – keltirdi, yurdi – yurgizdi, uchdi - uchirdi, pishdi – pishirdi, chiqdi – chiqardi, o‘tdi –o‘tkazdi.

Ayrim fe’llar orttirma nisbat shaklida yangi ma’no ifodalaydigan bo‘lib qoladi va shuning uchun ularni aniq nisbatda qo‘llab bo‘lmaydi: erkalamoq – erkalatmoq (ikkala shaklda ham orttirma nisbat ma’nosini ifodalayapti).

Bir fe’lga bittadan ortiq orttirma nisbat qo‘shimchasi qo‘shilishi mumkin: Egiz - egizdir, yozdir - yozdirtir. Bunday fe’llarda orttirma nisbat ma’nosi kuchaytiriladi.

Fe’lning orttirma nisbati o‘zlik va birgalik nisbatdagi fe’llardan ham hosil qilinishi mumkin: yuvintir, yig‘ishtir.Orttirma nisbatdagi fe’llardan birgalik va majhul nisbatdagi fe’llar hosil qilinishi mumkin: isitildi, yozdirishdi.

Orttirma nisbat qo‘shimchalari holat fe’llarini ko‘pincha natijali faoliyat fe’llariga aylantiradi: uxlamoq – uxlatmoq, kulmoq – kuldirmoq, yig‘lamoq – yig‘latmoq. Majhul va o‘zlik nisbati qo‘shimchalari esa natijali faoliyat fe’llarini holat fe’llariga aylantiradi (19; 74): qurmoq – qurilmoq, bo‘yamoq – bo‘yanmoq, bukmoq – bukilmoq, yasamoq – yasanmoq.

Birdan ortiq nisbat qo‘shimchalarini olgan fe’llarning qaysi nisbatdaligi oxirgi nisbat qo‘shimchasiga qarab belgilanadi: yuvintirdi - orttirma nisbat, yuvintirildi - majhul nisbat, yuvintirishdi – birgalik nisbati.

XULOSA:

- Predmetning harakatini bildirib, *nima qilmoq? nima bo‘lmoq?* so‘roqlariga javob bo‘lgan so‘zlar fe‘l deyiladi (Qolgan so‘roqlar shu so‘roqlardan hosil bo‘ladi: *nima qildi? nima qilgan?* Masalan:o‘qidi, yozdi.

Fe’llarning morfologik xususiyatlari: 1) bo‘lishli va bo‘lishsiz shakllarga ega: *bordi, bormadi;* 2) o‘timli-o‘timsizlik xususiyatlariga ega: *o‘qidi* (o‘timli), *keldi* (o‘timsiz); 3) nisbat, zamon, shaxs-son va mayl ifodalay oladi: *yozdi* (o‘tgan zamon, aniq nisbat, 3-shaxs, birlikda, xabar maylida): 4) o‘zining vazifadosh (xoslangan) shakllariga ega: *keldi* (sof fe’l), *kelib* (ravishdosh), *kelgan* (sifatdosh), *kelish* (harakat nomi); 5) fe’llar faqat boshqa turkumlardan yasalish xususiyatiga ega: *ishla, ko‘kar* .

Fe’llarning sintaktik xususiyati:

- Fe’llarning sintaktik xususiyati: 1) gapda ko‘pincha fe’l-kesim vazifasini bajaradi: *Kuz keldi*. 2) bundan tashqari, vazifadosh shakllari orqali barcha bo‘lak vazifasini bajara oladi: ega *(O‘qimoq – maqsadim.),* ot-kesim *(Maqsadim – o‘qimoq),* to‘ldiruvchi *(Tushuntirishni boshladim),* sifatlovchi-aniqlovchi *(Oqigan odam qiynalmaydi),* qaratqich aniqlovchi *(Olmoqning bermog‘i bor),* hol *(U jo‘shib gapirdi).*

Fe’llarning lug‘aviy (leksik) jihatdan ma’no guruhlari

Fe’llar lug‘aviy (leksik) jihatdan quyidagi ma’no guruhlariga bo‘linadi

1. Yurish-harakat fe’llari: *yurmoq, yugurmoq, chiqmoq, bormoq, qimirlamoq, yelmoq, sudralmoq, sakramoq, uchmoq, o‘tmoq* va h.
2. Nutq fe’llari: *gapirmoq, pichirlamoq, demoq, so‘zlamoq, so‘ramoq, yalinmoq, o‘tinmoq, yo‘lvormoq, vaysamoq, surishtirmoq, baqirmoq.*
3. Tafakkur fe’llari:o‘*ylamoq, fikrlamoq, hayol qilmoq, tasavvur qilmoq, hukm chiqarmoq, o‘yga botmoq, ko‘z oldiga keltirmoq, gavdalantirmoq*.
4. Natijali faoliyat fe’llari: *chizmoq, yozmoq, yasamoq, qurmoq, yaratmoq, bino qilmoq, asos solmoq, bo‘yamoq, tozalamoq, yiqmoq.*

5. Holat fe’llari: *uxlamoq, kulmoq, yig‘lamoq, tirjaymoq, dam olmoq, shoshmoq, qizarmoq, semirmoq, ranjimoq, xursand bo‘lmoq.*

Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar

- B o‘l i sh l i fe’llar bajarilgan, bajarilayotgan va bajariladigan harakatni ifodaslaydi: *yozdi, yozyapti, yozmoqchi.*
- B o‘ l i sh s i z fe’llar bajarilmagan, bajarilmayotgan, bajarilmaydigan harakatni bildiradi: *yozmadi, yozmayapti, yozmoqchi emas*. Bo‘lishsiz fe’llar fe’l negiziga *-ma* qo‘shimchasini qo‘shish, fe’llardan keyin *emas, yo‘q* so‘zlari keltirish, fe’llardan oldin *na* so‘zini keltirish yoki ohang yordamida hosil qilinadi: *Yozgani yo‘q. Na yozdi, na o‘qidi. Boradi, boradi-ya! (bormaydi).*

O‘timli va o‘timsiz fe’llar

O‘timli fe’llar tushum kelishigidagi so‘zlarga bog‘lana oladigan fe’llardir: *o‘qidi (kitobni), yozdi (xatni).*

O‘timsiz fe’llar esa tushum kelishigidagi so‘zlarga bog‘lana olmaydigan fe’llardir: *yugurdi, bordi, turdi, o‘tirdi.*

Blits -o‘yini

№	***Savollar***	Yakka javob	To‘g‘ri javob	***Sizning harakatingiz***
1.	Qaysi qatorda bo‘lishlilik ma’nosi ifodalangan?			1. Yozmay tur 2. Yoza ko‘rma 3. Yozmay qo‘yma 4. Ko‘rgani yo‘q 5. Na o‘qidi, na yozdi.
2.	Bo‘lishsiz fe’llar qaysi qatorda?			1.qiziqmoq,kiyinmoq, bajarmoq 2. egallamoq, aytmoq, yozmoq 3. bormoqchi emas, ko‘rgan emas, yirtmayman 4. Ulug‘lamoq, to‘xtamoq, eslamoq 5. yugurmoq, tarqalmoq, yig‘ilmoq
3.	Fe’llarning sintaktik xususiyati ko‘rsatilgan qatorni to‘ping.			1.Bo‘lishli va bo‘lishsiz, o‘timli-o‘timsizlik nisbat, zamon, shaxs-son va mayl ifodalay oladi 2Gapda ko‘pincha fe’l-kesim vazifasini bajaradi, vazifadosh shakllari orqali barcha bo‘lak vazifasini bajara oladi, ega , ot-kesim,sifatlovchi-aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi 3.O‘timli-o‘timsizlik nisbat, zamon, shaxs-son va mayl ifodalay oladi
4.	Fe’llarning morfologik xususiyatlari ko‘rsatilgan qatorni to‘ing.			1 .Bo‘lishli va bo‘lish ciz,o‘timli,o‘timsizlik,nisbat, zamon, shaxs-son va mayl ifodalay oladi, o‘zining vazifadosh (xoslangan) shakllariga ega, fe’llar faqat boshqa turkumlardan yasalish xususiyatiga ega. 2.O‘timli-o‘timsizlik nisbat, zamon, shaxs-son ot-kesim,sifatlovchi-aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi va mayl ifodalay oladi 3.Fe’l-kesim vazifasini bajaradi, vazifadosh

				shakllari orqali barcha bo‘lak vazifasini bajara oladi
5.	O‘timli fe’llar qaysi qatorda?			1.Bordi,o‘qidi,yozdi 2.*bo‘yadi,tozaladi, o‘chirdi,* *3.chiqdi,so‘radi, sakradi*
6	O‘timsiz fe’llar qaysi qatorda?			*1.Yxladi, kuldi, , dam oldi,* *2 Turdi,oldi,ishladi.* 3.*yurdi, ko‘rdi, uchdi*

Talabalarning mustaqil izlanishlari uchun topshiriqlar

- Badiiy asarlardan fe’l,bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar,o‘timli va o‘timsiz fe’llarga doir misollar to‘plab, tahlil qilish.
- Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan darsliklardan fe’l,bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar,o‘timli va o‘timsiz fe’llar bo‘yicha berilgan ma’lumotlarni konspektlashtirish.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Fe‘llardagi o’timli-o’timsizlik haqida ma‘lumot bering.
2. Fe‘llarnnig LMGlari va uning markaziy leksemalarini sanang.
3. Fe‘l yasalish qoliplari haqida gapiring.
4. Fe‘lning tasniflovchi lug’aviy shakllari xususida ma‘lumot bering.
5. Nisbat shakllarining so’z yasalishi, lug’aviy shakl yasalishi va sintaktik shakl yasalishiga munosabatini yoriting.
6. Nisbat shakllarining sintaktik qurshovga ta‘siri haqida gapiring.
7. Fe‘lning vazifa shakllari, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi shakllarining lug’aviy-sintaktik shakllik xususiyatini yoriting.
8. Fe‘llarning egalik, kelishik shakllariga munosabati haqida to’xtaling.
9. Harakat tarzi shakllarining yasalish qoliplari, sintaktik qurshovga ta‘siri va lug’aviy ma‘noni modifikatsiyalashi xususida ma‘lumot bering.
   Fe‘llarda zamon, mayl, shaxs-son, tasdiq/inkor shakllarining voqelanishi xususida fikrlaringizni bayon qiling.

MAVZU BO’YICHA TEST TOPSHIRIQLARI:

1.Qanday fe’llar yordamchi fe’llar hisoblanadi?
A) Ko‘makchi va to‘liqsiz fe’llar, so‘z yasash uchun xizmat qiluvchi va bog‘lama vazifasini bajaruvchi fe’llar: qil, bo‘l, et, imzo qo‘ymoq.
B) Faqat ko‘makchi fe’llar.
C) Faqat to‘liqsiz fe’llar.
D) To‘g‘ri javob yo‘q.
2. Fe’l qanday grammatik kategoriyalarga ega?
A) daraja, mayl, zamon, tuslanish
B) daraja, bo‘lishli-bo‘lishsizlik, mayl, zamon, shaxs-son
C) daraja, mayl, zamon, shaxs-son

D) daraja, mayl, ko‘rinish
3. Gul ochildi. Gapdagi fe’l qaysi nisbatda?
A) aniq
V) o‘zlik
S) majhul
D) nisbatda emas
4. Fe'ldan sifat yasovchi qo'shimchalar qaysi qatorda berilgan?
A) ser-, ba-, be-
B) -li, -chi, -gar
C) -ch, -qi, -gir
D) -iy, -viy, -chan.
5. Birgalik nisbatidagi fe'llar aniq nisbatdagi fe'llarga teng kelgan so'zlar qatorini aniqlang.
A) urishdi, janjallashdi, bajarishdi
B) so'kishdi, to'qnashdi, ketishdi
C) bahslashdi, janjallashdi, to'qnashdi
D) qimirlashdi, yurishdi, janjallashdi.
6. -ma bo'lishsizlik shakli qo'shimchasi ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalariga qanday qo'shiladi?
A) ko'makchi fe'l tarkibida bo'ladi
B) yetakchi fe'l tarkibida bo'ladi.
C) ham yetakchi, ham ko'makchi fe'lga qo'shiladi
D) barchasi to'g'ri.
7. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi berilgan qatorni toping.
A) yordam bermoq
B) sotib olmoq
C) kasal bo'lmoq
D) yozib bermoq.

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.

GLOSSARIY

Fe’l – predmetning, shaxsning ish-harakatini bildirib, nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladigan so‘zlar. Fe’llar gapda ko‘pincha kesim vazifasini bajaradi: Dars boshlandi.

Fe’l kesim - fe’l yoki uning sifatdosh, ravishdosh shakllari bilan ifodalanadigan kesimdir. Men keldim. Odamlar tarqala boshladi. U ketgan edi.

Fe’lli so‘z birikmasi - bosh so‘zi fe’l va uning ravishdosh, sifatdosh shakllari bilan ifodalangan so‘z birikmasi: kitobni o‘qish, ishni bajarib, tez kelgan.

Fe’lning munosabat shakllari - fe’llarni gap tarkibida kesim vazifasiga moslashtiradigan shakllardir. Munosabat shakllariga fellarning shaxs-son, zamon, mayl shakllari kiradi.

Fe’lning vazifa shakllari - fe’lning gap ichida ma’lum sintaktik vazifani bajarishga xoslangan shakllaridir. Bularga sof fe’l, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi kiradi.

Sof fe’l - gap ichida fe’l-kesim vazifasini bajaradigan va fe’lga xos barcha xususiyatlarga ega bo‘lgan fe’l shakli: U yozdi. (bo‘lishli, o‘timli, aniq nisbatda, o‘tgan zamon, xabar maylida, 3-shaxs, birlikda)

O‘timli fe’llar - tushum kelishigidagi so‘zlarga bog‘lana oladigan fe’llar: (kitobni) o‘qidi, (xatni) yozdi.

O‘timsiz fe’llar - tushum kelishigidagi so‘zlarga bog‘lana olmaydigan fe’llar: yugurdi, bordi, turdi, o‘tirdi, keldi.

15-MA’RUZA. MAVZU: FE’L MAYLLARI (IJRO MAYLI, SHART VA BUYRUQ-ISTAK MAYLI), ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI (2soat)

1-ilova

Ma’ruza mashg‘uloti dokladlari mavzulari

1. Fe’l mayllari,to‘liqsiz fe’llar haqida umumiy ma’lumot
2 Fe’l mayllari
3. To‘liqsiz fe’llar haqida ma’lumot
4.Etakchi va ko‘makchi fe’llar

2- ilova

Mashg‘ulot Mavzusi: Fe’l mayllari. To‘liqsiz fe’llar.

Mashg‘ulot rejasi:

1. Fe’l mayllari,to‘liqsiz fe’llar haqida umumiy ma’lumot
2. Fe’l mayllari
3. To‘liqsiz fe’llar haqida ma’lumot
4. Etakchi va ko‘makchi fe’llar

Fe’l mayllari haqida ma’lumot

- So‘zlovchining ish-harakatga moyilligi fe’l mayli deyiladi.
- Fe’llarda beshta mayl bor:
- 1.Xabar (ijro, aniqlik) mayli
- 2. Buyruq - istak mayli
- 3.Shart mayli
- 4. Shatli mayli
- 5. Maqsad mayli

Fe’l mayllari

1. X a b a r (ijro, aniqlik) maylidagi fe'llar ish-harakatning uch zamondan birida bajarilish-bajarilmasligini bildiradi: *yozdi, kelyapti.* Bunday fe'llar darak gapning kesimi bo'lib keladi.
2. B u y r u q - i s t a k maylidagi fe'llar ish-harakat haqida buyruq, istak, maslahat, iltimos, orzu kabi ma'nolarni bildiradi: Bunday fe'llar *-(a)y, -gin, -sin, -aylik, -ing(iz), -sinlar* qo'shimchalari yordamida yasaladi: *yozay, o'qiy, yozgin, yozsin, o'qiylik, boring(iz).* Fe'llarning zamon, shaxs-son qo'shimchalarini olmagan shakllari ham buyruq-istak mayli shakli hisoblanadi: *o'qi, yoz, kel.*

3. Shart mayli

Shart maylidagi fe'llar biror ish-harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo'lgan ish-harakatni, biror ish-harakatning bajarilish-bajarilmasligi haqida istak, maslahat, faraz kabi ma'nolarni anglatadi va *-sa* qo'shimchasi yordamida hosil qilinadi: *borsa, kelsam, yursak* (Eski tilda *–sar* shaklida bo'lgan).
Bu mayldagi fe'llar sof shart ma'nosini (*Kelsa, boramiz*), orzu-istak (*Qani endi, o'qishga kirsam*), iltimos, maslahat (*O'sha kishini chaqirib bersangiz),* faraz (*Yomg'ir yog'sa kerak),* payt *(Tashqariga chiqsam, ukam turibdi),* buyruq-istak mayliga xos *(Gapirsangiz-chi!)* ma'nolarini ifodaslaydi. Bu fe'llar *edi, ekan* fe'llari bilan qo'llansa, shart mahnosiga istak ham qo'shiladi: *kelsa edi, o'qisa ekan...*
4. SH a r t l i mayldagi fe'llar bajarilishi biror harakatga bog'liq bo'lgan harakatni bildiradi va *–(a)r –mas* qo'shimchalari bilan yasaluvchi sifatdoshga *edi* to'liqsiz fe'lining birikishidan hosil qilinadi. Bu mayl bajarilishining biror sharti bo'lgan, bajarilishi biror harakatga bog'liq bo'lgan harakatni bildiradi: *U kelsa, men quvonar edim. Sen kelsang, men bormas edim.*
5. M a q s a d maylidagi fe'llar ish-harakatni bajaruvchining maqsadi, mo'ljali, niyatini bildiradi. Bu fe'llarning o'tgan zamon shakli, hozirgi zamon shakli va kelasi zamon shakllari bor: *yozmoqchi, kelmoqchi bo'ldim, bormoqchi bo'lyapman, bormoqchi bo'laman* va b.

- **To'liqsiz fe'llar**

O'zining lug'aviy ma'nosini butunlay yo'qotib, yordamchi so'zlarga yaqinlashib qolgan fe'llar to'liqsiz fe'llar deyiladi. Bularga *edi, ekan, emish, emas,* so'zlari kiradi (*esa* bog'lovchilar guruhiga o'tib ketgan).

To'liqsiz fe'llar quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:

1)mustaqil lug'aviy ma'noga ega emas.
2) nisbat, bo'lishsizlik, zamon kabi ma'nolarga ega emas.
3) shaxs-son qo'shimchalari ularga qo'shilsa ham, shaxs ma'nosi to'liqsiz fe'l qatnashgan butun birikmaga tegishlidir.
4) to'liqsiz fe'l qatnashgan birikma (asosiy fe'l+to'liqsiz fe'l) tarkibidagi to'liqsiz fe'lni har doim ham tushirib bo'lmaydi.
5) to'liqsiz fe'l tarkibidagi *"e"* tovushi tushib qolishi mumkin.
6) to'liqsiz fe'llar otlarga (keng ma'noda) ham, fe'llarga ham birika oladi. Ular ko'proq sifatdosh va ravishdoshga birikadi.
7) bu fe'llar ketma-ket qo'shilishi ham mumkin: *Opam ishdan kelgan edimikin (edimi ekan)?* 8) bu fe'llar qator kelgan bir necha fe'lning oxirgisiga birikadi. To'liqsiz fe'llar gapda ko'pincha bog'lama (ega bilan kesimni bog'lovchi vosita) vazifasini bajaradi: *Otasi ishchi ekan.*

Yetakchi va ko'makchi fe'llar

- Nutqimizda bittadan ortiq fe'ldan iborat bo'lgan birliklar ham bor. Ular tarkibidagi

asosiy ma’noni ifodaslaydigan fe’l etakchi fe’l deyiladi: *o‘qib chiqdi, ko‘ra boshladi, aytib berib tura qol.* Etakchi fe’lning ma’nosini izohslaydigan, to‘ldiradigan fe’l esa ko‘makchi fe’l deyiladi: *o‘qib chiqdi, ko‘ra boshladi, sotib yubordi, berib tur, yiqila yozdi, gapirib berib qo‘ya qol* va b.

• Etakchi va ko‘makchi fe’lning qo‘shilishidan qo‘shma fe’l, yahni yangi so‘z hosil bo‘lmaydi, chunki ular birgalikda yangi bir lug‘aviy ma’noni ifodalamaydi. Etakchi va ko‘makchi fe’lning birikishidan ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi hosil bo‘ladi. Ayrim darsliklarda bu birikmalar harakat tarzi shakllari deb yuritiladi

Harakat tarzi shakllari quyidagi ma’nolarni ifodaslaydi :

1. harakatni bajarishga kirishish *(o‘qiy boshladi);*
2. harakatni bajarishga imkoniyat *(bajara oladi);*
3. harakatning davomli muddatda ora-sira bajarish *(borib turibman, ishlab yotibdi, o‘qib yuribdi);*
4. harakatning kutilmaganda sodir bo‘lishi *(ko‘rib qoldi);*
5. harakatni sinash maqsadida bajarish *(tatib ko‘rdi);*
6. harakatlarni o‘z maqsadlarida bajarish *(yozib oldi);*
7. harakatning boshqalar uchun bajarilishi *(sotib berdi);*
8. harakatning uzoq davom etishi *(sinab yuribman);*
9. harakatning favquloddaligi *(ishonib o‘tiribman);*
10. harakatning to‘la bajarilishi *(bajarib bo‘ldi, o‘qib chiqdi);*
11. harakatning tez, to‘siqsiz va oson bajarilishi *(olib tashladik, boshlab yubordik, yozib qo‘ydim);*
12. harakatni bajarmaslikni qathiy tahkidlash *(bora ko‘rma);*
13. harakatning mahlum muddatgacha davom ettirilishi *(tura turgin).*
14. harakatning yuz berishiga oz qolganlik mahnosi *(yiqila yozdim).* Bu shakl ko‘p o‘rinlarda qo‘shib yoziladi

• Ba’zan ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi tarkibidagi yetakchi fe’l uyushib kelishi ham mumkin: *Yil sayin sovxozning yeri kengayib, texnikasi ko‘payib , odamlari o‘sib bormoqda*. Ba’zan ko‘makchi fe’l ham birdan ortiq bo‘lishi mumkin: *aytib berib tura qol (aytib – ye*takchi fe’l, *berib tura qol* – ko‘makchi fe’l).

• Ko‘makchi fe’llar yetakchi fe’llarga ravishdosh yasovchi –*(i)b, -a, -y* qo‘shimchalari yordamida bog‘lanadi. Ayrim ko‘makchi fe’llar yetakchi fe’lga qo‘shimchasiz ham birikadi: *yozdi-oldi, ketsin-qo‘ysin, ayt-qo‘y.*

• Etakchi fe’llarga so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalar, ko‘makchi fe’llarga esa barcha turdagi (zamon, shaxs-son, nisbat, vazifadosh shakllarning qo‘shimchalari) qo‘shimchalar qo‘shila oladi: *yozib olaman, ishlay boshladik.* Nisbat va bo‘lishsizlik shakllari qo‘shimchalari yetakchi fe’lga ham, ko‘makchi fe’lga ham qo‘shila oladi: *gapirtirmay qo‘yishmaydi*.

• Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarida o‘zlik nisbat qo‘shimchalari faqat yetakchi fe’lga qo‘shiladi, majhul daraja qo‘shimchasi ko‘pincha ko‘makchi fe’lga qo‘shiladi, orttirma nisbat qo‘shimchasi asosan yetakchi fe’lga qo‘shiladi, birgalik nisbat qo‘shimchasi esa yetakchi fe’lga ham, ko‘makchi fe’lga ham qo‘shilaveradi . O‘zbek tilida faqat ko‘makchi fe’l bo‘lib keladigan fe’llar yo‘q.

Ayrim fe’llar o‘z asl ma’nolaridan tashqari, ko‘makchi fe’l tarzida keladi. Bularni yetakchi fe’lga bog‘lanishi jihatidan quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

1) ravishdoshning *–(i)b* qo‘shimchali turiga birikadi: *yot, o‘tir, yur, kel, bo‘l, bit, chiq, yet, o‘t, yubor, tashla, tush, o‘l, qara, boq, qo‘y;*

2) ravishdoshning *–a,-y* qo‘shimchali turiga birikadi: *boshla, bil, yoz;*
3) ravishdoshning ham *–(i)b,* ham *–a, -y* qo‘shimchali turlariga birikadi: *tur, bor, ol, ber, qol, ko‘r, ket. (sol* ko‘makchi fe’li *–(i)b, -a* qo‘shimchasini olgan yetakchi fe’lga bog‘lanadi. Bu ko‘makchi fe’llarni yana ma’no jihatidan harakat jarayonini tasvirlovchi *(boshla, kel, ket, yot, tur, yur, o‘tir, bor, ber, bo‘l, bit, bitir, chiq, yet, o‘t, ol, qo‘y, yubor, sol, tush,tashla, o‘l, ko‘r, yoz, qol),* modal ma’nolarni ifodalovchi, ya’ni so‘zlovchining harakatga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatuvchi *(bil, bo‘l, ol,qol, qo‘y, ko‘r, ber, qara, boq, tur, yur, o‘tir, yoz),* yo‘nalish ma’nosini ifodalovchi *(ol, ber)* kabi guruhlarga bo‘lish mumkin.

To‘liqsiz fe’llar

O‘zining lug‘aviy ma’nosini butunlay yo‘qotib, yordamchi so‘zlarga yaqinlashib qolgan fe’llar to‘liqsiz fe’llar deyiladi. Bularga edi, ekan, emish, emas, so‘zlari kiradi (esa bog‘lovchilar guruhiga o‘tib ketgan). To‘liqsiz fe’llar quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:
1) mustaqil lug‘aviy ma’noga ega emas. 2) nisbat, bo‘lishsizlik, zamon kabi ma’nolarga ega emas. 3) shaxs-son qo‘shimchalari ularga qo‘shilsa ham, shaxs ma’nosi to‘liqsiz fe’l qatnashgan butun birikmaga tegishlidir. 4) to‘liqsiz fe’l qatnashgan birikma (asosiy fe’lQto‘liqsiz fe’l) tarkibidagi to‘liqsiz fe’lni har doim ham tushirib bo‘lmaydi. 5) to‘liqsiz fe’l tarkibidagi “e” tovushi tushib qolishi mumkin. 6) to‘liqsiz fe’llar otlarga (keng ma’noda) ham, fe’llarga ham birika oladi. Ular ko‘proq sifatdosh va ravishdoshga birikadi. 7) bu fe’llar ketma-ket qo‘shilishi ham mumkin: Opam ishdan kelgan edimikin (edimi ekan)? 8) bu fe’llar qator kelgan bir necha fe’lning oxirgisiga birikadi. To‘liqsiz fe’llar gapda ko‘pincha bog‘lama (ega bilan kesimni bog‘lovchi vosita) vazifasini bajaradi: Otasi ishchi ekan.

Yetakchi va ko‘makchi fe’llar

Nutqimizda bittadan ortiq fe’ldan iborat bo‘lgan birliklar ham bor. Ular tarkibidagi asosiy ma’noni ifodalaydigan fe’l etakchi fe’l deyiladi: o‘qib chiqdi, ko‘ra boshladi, aytib berib tura qol. Etakchi fe’lning ma’nosini izohlaydigan, to‘ldiradigan fe’l esa ko‘makchi fe’l deyiladi: o‘qib chiqdi, ko‘ra boshladi, sotib yubordi, berib tur, yiqila yozdi, gapirib berib qo‘ya qol va b.

Etakchi va ko‘makchi fe’lning qo‘shilishidan qo‘shma fe’l, ya’ni yangi so‘z hosil bo‘lmaydi, chunki ular birgalikda yangi bir lug‘aviy ma’noni ifodalamaydi. Etakchi va ko‘makchi fe’lning birikishidan ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi hosil bo‘ladi. Ayrim darsliklarda bu birikmalar harakat tarzi shakllari deb yuritiladi (19; 61). Harakat tarzi shakllari quyidagi ma’nolarni ifodalaydi (19; 63-64):
1) harakatni bajarishga kirishish (o‘qiy boshladi);
2) harakatni bajarishga imkoniyat (bajara oladi);
3) harakatning davomli muddatda ora-sira bajarish (borib turibman, ishlab yotibdi, o‘qib yuribdi);
4) harakatning kutilmaganda sodir bo‘lishi (ko‘rib qoldi);
5) harakatni sinash maqsadida bajarish (tatib ko‘rdi);
6) harakatlarni o‘z maqsadlarida bajarish (yozib oldi);
7) harakatning boshqalar uchun bajarilishi (sotib berdi);
8) harakatning uzoq davom etishi (sinab yuribman);
9) harakatning favquloddaligi (ishonib o‘tiribman);
10) harakatning to‘la bajarilishi (bajarib bo‘ldi, o‘qib chiqdi);

11) harakatning tez, to‘siqsiz va oson bajarilishi (olib tashladik, boshlab yubordik, yozib qo‘ydim);
12) harakatni bajarmaslikni qat’iy ta’kidlash (bora ko‘rma);
13) harakatning ma’lum muddatgacha davom ettirilishi (tura turgin).
14) harakatning yuz berishiga oz qolganlik ma’nosi (yiqila yozdim). Bu shakl ko‘p o‘rinlarda qo‘shib yoziladi.

Ba’zan ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi tarkibidagi etakchi fe’l uyushib kelishi ham mumkin: Yil sayin sovxozning eri kengayib, texnikasi ko‘payib , odamlari o‘sib bormoqda. Ba’zan ko‘makchi fe’l ham birdan ortiq bo‘lishi mumkin: aytib berib tura qol (aytib – etakchi fe’l, berib tura qol – ko‘makchi fe’l).

Ko‘makchi fe’llar etakchi fe’llarga ravishdosh yasovchi –(i)b, -a, -y qo‘shimchalari yordamida bog‘lanadi. Ayrim ko‘makchi fe’llar etakchi fe’lga qo‘shimchasiz ham birikadi: yozdi-oldi, ketsin-qo‘ysin, ayt-qo‘y.

Etakchi fe’llarga so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalar, ko‘makchi fe’llarga esa barcha turdagi (zamon, shaxs-son, nisbat, vazifadosh shakllarning qo‘shimchalari) qo‘shimchalar qo‘shila oladi: yozib olaman, ishlay boshladik. Nisbat va bo‘lishsizlik shakllari qo‘shimchalari etakchi fe’lga ham, ko‘makchi fe’lga ham qo‘shila oladi: gapirtirmay qo‘yishmaydi.

Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarida o‘zlik nisbat qo‘shimchalari faqat etakchi fe’lga qo‘shiladi, majhul daraja qo‘shimchasi ko‘pincha ko‘makchi fe’lga qo‘shiladi, orttirma nisbat qo‘shimchasi asosan etakchi fe’lga qo‘shiladi, birgalik nisbat qo‘shimchasi esa etakchi fe’lga ham, ko‘makchi fe’lga ham qo‘shilaveradi O‘zbek tilida faqat ko‘makchi fe’l bo‘lib keladigan fe’llar yo‘q. Ayrim fe’llar o‘z asl ma’nolaridan tashqari, ko‘makchi fe’l tarzida keladi. Bularni etakchi fe’lga bog‘lanishi jihatidan quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:
1) ravishdoshning –(i)b qo‘shimchali turiga birikadi: yot, o‘tir, yur, kel, bo‘l, bit, chiq, et, o‘t, yubor, tashla, tush, o‘l, qara, boq, qo‘y;
2) ravishdoshning –a,-y qo‘shimchali turiga birikadi: boshla, bil, yoz; 3) ravishdoshning ham –(i)b, ham –a, -y qo‘shimchali turlariga birikadi: tur, bor, ol, ber, qol, ko‘r, ket. (sol ko‘makchi fe’li –(i)b, -a qo‘shimchasini olgan etakchi fe’lga bog‘lanadi. Bu ko‘makchi fe’llarni yana ma’no jihatidan harakat jarayonini tasvirlovchi (boshla, kel, ket, yot, tur, yur, o‘tir, bor, ber, bo‘l, bit, bitir, chiq, et, o‘t, ol, qo‘y, yubor, sol, tush,tashla, o‘l, ko‘r, yoz, qol), modal ma’nolarni ifodalovchi, ya’ni so‘zlovchining harakatga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatuvchi (bil, bo‘l, ol,qol, qo‘y, ko‘r, ber, qara, boq, tur, yur, o‘tir, yoz), yo‘nalish ma’nosini ifodalovchi (ol, ber) kabi guruhlarga bo‘lish mumkin.

DASTURLASHTIRILGAN TOPSHIRIQ SAVOLLARI:

1. Xabar mayli, shart mayli, maqsad mayli va ularning ifodalanishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Fe’lga oid qaysi qo‘shimchalar ham shaxs-son, ham mayl ifodaslaydi?
3. Qaysi mayllarning mahnolari o‘rtasida o‘xshashlik bor?
.4 Qanday fe’llarga to‘liqsiz fe’llar deyiladi?
5. To‘liQsiz fe’llarning xususiyatlari hamda vazifalari haqida gapiring

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1. Inson tirik ekan, hech qachon umidsizlanmasligi kerak! Ushbu gapda to‘liqsiz fe’l qaysi turkumga oid so‘z bilan birga qo‘llangan?

A) ot B) ravish C) son D) sifat

2. To‘liqsiz fe’llar uchun xos bo‘lgan xususiyat qaysi javobda berilgan?

A) To‘liqsiz fe’llar mustaqil ma’noga ega emas. B) To‘liqsiz fe’llar otlar bilan ham, fe’llar bilan ham qo‘llana oladi. C) A,B,C

D) To‘liqsiz fe’l uyushiq kesimlar uchun umumiy bo‘lganda, oxirgi kesim tarkibida qo‘llanadi

3. U imtihonlardan muvaffaqiyat bilan o‘tgach, sevinchi ichiga sig‘may, uylariga qaytarkan. Mazkur gapdagi to‘liqsiz fe’lni toping.

A) To‘liqsiz fe’l ishtirok etmagan B) o‘tgach

C) sevinchi ichiga sig‘may D) qaytarkan

4. Qanday fe’llar to‘liqsiz fe’l hisoblanadi?

A) shaxs-son va zamon qo‘shimchalarini qabul qilmaydigan fe’llar B) yakka holda ish-harakat ma’nosini bildirmaydigan fe’llar C) B, D D) boshqa so‘zlar bilan birgalikda qo‘llanadigan

fe’llar

5. Quyidagi vositalardan qaysi biri mustaqil so‘zlar orasidagi grammatik munosabatni ifodalashda qatnashadi?

A) to‘liqsiz fe’llar B) yordamchi so‘zlar C) so‘z tartibi D) B, C

6. U devordan oshib tushdi. Ushbu gapdagi tushdi fe’li qanday fe’l hisoblanadi?

A) mustaqil fe’l B) ko‘makchi fe’l C) qo‘shma fe’lning tarkibiy qismi D) oshib tushdi birgalikda ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi.

7. –ma bo‘lishsizlik shakli qo‘shimchasi ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalariga qanday qo‘shiladi?

A) ko‘makchi fe’l tarkibida bo‘ladi B) yetakchi fe’l tarkibida bo‘ladi C) ba’zan yetakchi fe’lga, ba’zan ko‘makchi fe’lga qo‘shiladi D) barchasi to‘g‘ri.

8. Gap bilan ovora bo‘lib, kechikib ham qolibman. Ushbu gapdagi ko‘makchi fe’lni toping?

A) ovora bo‘lib B) kechikib C) qolibman D) ham.

9. Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarida quyidagi qo‘shimchalardan qaysi biri ba’zan yetakchi, ba’zan ko‘makchi fe’lga qo‘shilishi mumkin? 1. Shaxs-son qo‘shimchalari 2. Zamon ko‘rsatkichlari 3. Ko‘plik qo‘shimchasi 4. Nisbat ko‘rsatkichi.

A) 1,2 B) 3,4 C) 3 D) 4

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.

9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.
10. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfemika. So‘z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.
11. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, ”Moliya”, 2003

GLOSSARIY

Fe’l mayli - so‘zlovchining ish-harakatga moyilligini bildiruvchi shakllar: ijro (xabar, aniqlik) mayli, ...

Fe’l nisbati (darajasi) - fe’lda ish-harakat bilan uning bajaruvchisi orasidagi munosabatning ifodalanishi: Kitobni o‘qidi. Ukasi kiyindi. Kitob o‘qildi. Kitobni o‘qitdi. Kinoni ko‘rishdi.

Maqsad maylidagi fe’llar - ish-harakatni bajaruvchining maqsadi, mo‘ljali, niyatini bildiradigan fe’llardir. Bu fe’llarning o‘tgan zamon shakli, hozirgi zamon shakli va kelasi zamon shakllari bor: kelmoqchi bo‘ldim, bormoqchi bo‘lyapman, bormoqchi bo‘laman va b. Maqsad ravishdoshi -gani, -kani, -qani, -gali qo‘shimchalari bilan yasaladi: olgani, to‘kkani, boqqani, ko‘rgali.

Maqsad ravishlari - ish-harakatning bajarilish maqsadini bildiradigan va nega?, nima maqsadda? so‘roqlariga javob bo‘ladigan ravishlardir: atay(in), ataylab, jo‘rttaga, qasddan, qasdma-qasdiga, azza-bazza.

Bo‘lishli fe’llar - bajarilgan, bajarilayotgan va bajariladigan harakatni ifodalaydi: yozdi, yozyapti, yozmoqchi. Bo‘lishlilikni hosil qiluvchi maxsus qo‘shimcha yo‘q.

Bo‘lishsiz fe’llar - bajarilmagan, bajarilmayotgan, bajarilmaydigan harakatni bildiradi: yozmadi, yozmayapti, yozmohchi emas. Bo‘lishsiz fe’llar fe’l negiziga -ma qo‘shimchasini ho‘shish, fe’llardan keyin emas, yo‘q so‘zlarini keltirish, fe’llardan oldin na so‘zini keltirish yoki ohang yordamida hosil qilinadi: Kelmadi. Yozgani yo‘q. Na yozdi, na o‘qidi. Boradi, boradi-ya! (bormaydi)

Shart mayli - biror ish-harakatning bajarilishi uchun undan oldin bajarilishi shart bo‘lgan ish-harakatni, biror ish-harakatning bajarilish-bajarilmasligi haqida istak, maslahat, faraz kabi ma’nolarni anglatadigan fe’l mayli bo‘lib, -sa qo‘shimchasi yordamida hosil qilinadi: borsa, kelsam, yursak. Bu mayldagi fe’llar sof shart ma’nosini (Kelsa, boramiz), orzu-istak (Qani endi, o‘qishga kirsam), iltimos, maslahat (O‘sha kishini cha?irib bersangiz), faraz (Yomg‘ir yog‘sa kerak), payt (Tashqariga chiqsam, ukam turibdi), buyruq-istak mayliga xos (Gapirsangiz-chi!) ma’nolarini ifodalaydi. Bu fe’llar ekan fe’li bilan qo‘llansa, shart ma’nosiga istak ham qo‘shiladi: o‘qisa ekan.

16-MAVZU: FE’L ZAMONLARI, ULARNING TURLARI (2 soat)

1-ilova

Ma’ruza mashg‘uloti dokladlari mavzulari

1. Fe’l zamonlari haqida umumiy ma’lumot
2 Fe’l zamonlari
3.O‘tgan zamon fe’li

2-ilova

Ish-harakatning voqe bo‘lishi (yoki bo‘lmasligi) mantiqan zamon bilan bog‘liq bo‘ladi. Fe’llardagi zamon nutq so‘zlanib turgan paytga nisbatan qiyoslangan holda aniqlanadi, ya’ni ish-harakat nutq so‘zlanib turgan paytdan oldin, nutq so‘zlanib turgan paytda, nutq so‘zlanib turgan paytdan so‘ng bajarilishi yoki bajarilmasligi mumkin. SHunga ko‘ra, fe’l uch zamon ko‘rinishiga ega: 1. O‘tgan zamon. 2. Hozirgi zamon. 3. Kelasi zamon. Fe’llarda zamon ma’nosi fe’l tarkibida qo‘llangan grammatik ko‘rsatkichlar orqali belgilanadi. Masalan: *1. Nodira ezgu ishlar bunyod etdi va o‘tar dunyoda yaxshi nom qoldirdi. (R.SHog‘ulomov). 2. Ko‘nglini kichik tutgan, kamtarlik yo‘lidan yurgan kishi ulug‘likka etadi (YUsuf Xos Xojib). 3. Ilm ko‘pga etkazar, hunar esa ko‘kka (Maqol).* Keltirilgan misollarning birinchisida bunyod etdi, nom qoldirdi fe’llari tarkibidagi –di o‘tgan zamonni, ikkinchisida etadi fe’li tarkibidagi –a ko‘rsatkichi hozirgi zamonni, uchinchisida etkazar fe’lidagi –ar ko‘rsatkichi esa kelasi zamon ma’nosini ifodalagan.

Har bir zamon o‘z navbatida yana bir necha turga bo‘linadi. CHunki har bir zamon vaqtning katta qismini ko‘rsatish bilan birga o‘zining ichki xususiy modal ma’nolariga (qo‘shimcha ma’nolarga) ham ega. Masalan: *o‘qimoqchiman, o‘qiydiganman* fe’llari nutq so‘zlanib turgan paytdan so‘ng bajariladigan harakatni ifodalab, vaqtning katta qismini ko‘rsatish bilan birga, bajarilishi maqsad qilib olingan harakatni anglatishi kabi o‘ziga xos modal ma’noga ham ega.

O‘tgan zamon fe’li ish-harakatning nutq so‘zlanib turgan paytdan oldin bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi.

O‘tgan zamon fe’li xususiy modal ma’nolariga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi:

1) yaqin o‘tgan zamon fe’li; 2) uzoq o‘tgan zamon fe’li; 3) o‘tgan zamon hikoya fe’li; 4) o‘tgan zamon davom fe’li; 5) o‘tgan zamon maqsad fe’li.

YAqin o‘tgan zamon fe’li ish-harakatning nutq so‘zlanib turgan paytdan bir oz oldin, ammo so‘zlovchining ko‘z oldida (yoki uning faol ishtiroki bilan) bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi. Masalan: Go‘zal vodiydagi Gullar bog‘i ko‘klam libosi bilan bezandi (SH.R.).

YAqin o‘tgan zamon fe’li sof fe’l negiziga –di qo‘shimchasini qo‘shish va tuslash bilan (I guruh tuslovchi) shakllanadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko‘plik		
	Misol	Zamon ko‘rsat-kichi	SHaxs-son qo‘shimchasi	Misol	Zamon ko‘rsat-kichi	SHaxs-son qo‘shimchasi
I shaxs	o‘qidim	-di	-m	o‘qidik	-di	-k
II shaxs	o‘qiding	-di	-ng	o‘qidingiz	-di	-ngiz
III shaxs	o‘qidi	-di	-	o‘qidilar	-di	(-lar)

Uzoq o‘tgan zamon fe’li nutq so‘zlanib turgan paytdan ancha oldin bajarilgan yoki bajarilmagan, ammo bu haqda nutq so‘zlanib turgan paytda xabar qilingan ish-harakatni

ifodalaydi. Masalan: SHoyi, atlas, chit, las koʻylak; nimcha, durra, peshonabogʻ, xullas bor boricha yoʻq holicha yasalgan (N. Safarov).

Uzoq oʻtgan zamon feʼli negiziga –gan sifatdosh qoʻshimchasini qoʻshish va tuslash bilan (II guruh «B» koʻrinishdagi tuslovchilar bilan) shakllanadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Koʻplik		
	Misol	Zamon koʻrsat-kichi	SHaxs-son qoʻshimchasi	Misol	Zamon koʻrsat-kichi	SHaxs-son qoʻshimchasi
I shaxs	oʻqiganman	-gan	-man	oʻqiganmiz	-gan	-miz
II shaxs	oʻqigansan	-gan	-san	oʻqigansiz	-gan	-siz
III shaxs	oʻqigan	-gan	-	oʻqiganlar	-gan	(-lar)

Uzoq oʻtgan zamon feʼli nutqda aniq eslash (yoki eslatish), kutilmaganda eslash, eshitilganlik kabi qoʻshimcha modal maʼnolarga ham ega boʻladi. Uzoq oʻtgan zamonning boʻlib oʻtgan ish-harakatni aniq eslash maʼnosi –gan sifatdoshiga edi (qisqa shaklida) toʻliqsiz feʼlini biriktirib tuslash orqali: oʻqigan edim, oʻqigan eding, oʻqigan edi; oʻqigan edik, oʻqigan edingiz, oʻqigan edilar kabi; kutilmaganda eslash maʼnosi –gan sifatdoshiga ekan (qisqa shakli –kan) toʻliqsiz feʼlini biriktirib tuslash bilan: oʻqigan ekanman, oʻqigan ekansan, oʻqigan ekan; oʻqigan ekanmiz, oʻqigan ekansiz, oʻqigan ekanlar kabi; boʻlib oʻtgan ish-harakatning soʻzlovchining boshqa shaxsdan eshitganligi –gan sifatdoshiga emish (qisqa shakli –mish) toʻliqsiz feʼlini biriktirib tuslash orqali: oʻqigan emishman, oʻqigan emishsan, oʻqigan emish; oʻqigan emishmiz, oʻqigan emishsiz, oʻqigan emishlar kabi shakllanadi. Masalan: Nasibaning yuzidagi boʻgʻriqish yoʻqolib, uning oʻrnida nafislik paydo boʻlgan edi (X.Noʻʻmon). Mirza Bahrom unday maʼno chiqishini sira koʻzda tutmagan ekan, oʻsal boʻldi (A.Qahhor).

Oʻtgan zamon hikoya feʼli kutilmaganda, qisqa vaqt ichida nutq soʻzlanib turgan paytdan ilgari bajarilgan (yoki bajarilmagan) ish-harakatni hikoya qilish, tasvirlash yoʻli bilan ifodalaydi. Masalan: Halol rizq istab, mehnat qilib, charchab uxlagan kishi shu kechani maʼrifat qilingan holda oʻtkazibdi (Hadisdan).

Oʻtgan zamon hikoya feʼli feʼl negiziga –b (-ib) oʻtgan zamon ravishdosh qoʻshimchasini qoʻshish va tuslash bilan (II guruh «A» koʻrinishdagi tuslovchilar bilan) shakllanadi:

SHaxs	Son					
	Birlik			Koʻplik		
	Misol	Zamon koʻrsat-kichi	SHaxs-son qoʻshimchasi	Misol	Zamon koʻrsat-kichi	SHaxs-son qoʻshimchasi
I shaxs	oʻqibman	-b	-man	oʻqibmiz	-b	-miz
II shaxs	oʻqibsan	-b	-san	oʻqibsiz	-b	-siz

III shaxs	o‘qibdi	-b	-di	o‘qibdilar	-b	-di(-lar)

O‘tgan zamon hikoya fe’lining eslay (eslatish) ma’no ko‘rinishi ham bor. Bu shakl o‘tgan zamon –b (-ib) ravishdoshiga edi to‘liqsiz fe’lini biriktirib tuslash orqali hosil bo‘ladi: o‘qib edim, o‘qib eding, o‘qib edi; o‘qib edik, o‘qib edingiz, o‘qib edilar kabi. Masalan: Urush tugasa, biznikiga mehmongan borasiz, o‘shanda ayamning qanaqaligini ko‘rasiz deb edi (S.Zunnunova).

O‘tgan zamon davom fe’li nutq so‘zlanib turgan paytdan ilgari ma’lum bir muddat davomli bo‘lgan yoki takrorlanib turgan ish-harakatni eslash ma’no ottenkasi bilan ifodalaydi. Masalan: 1. Bu erda Boburning doim o‘z kuchi bilan birga olib yuradigan kitoblari saqlanar edi (P.Qodirov). 2. Daryolardan kuylab o‘tardim, Ertaklarga quloq tutardim, Hammasini tinglardim, ammo O‘xshashini topmasdim aslo (H.O.). Bu misollarning birinchisida saqlanar edi fe’li o‘tmishda ma’lum bir muddat davomli bo‘lgach ish-harakatni ifodalasa, ikkinchisida kuylab o‘tardim, quloq tutardim, tinglardim vaqti-vaqti bilan takrorlanib ish-harakatni anglatadi. O‘tgan zamon davom fe’li –r(-ar), -yotgan sifatdosh fe’l negiziga hamda -moqda qo‘shimchasini olgan sof fe’l negiziga edi to‘liqsiz fe’lini biriktirib tuslash (I guruh tuslovchilari bilan) orqali hosil qilinadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko‘plik		
	Misol	Zamon ko‘rsat-kichi	Shaxs-son qo‘sh.	Misol	Zamon ko‘rsat-kichi	SHaxs-son qo‘sh.
I shaxs	o‘qir edim, o‘qiyotgan edim, o‘qimoqda edim	-r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi	-m	o‘qir edik, o‘qiyotgan edik, o‘qimoqda edik	-r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi	-k
II shaxs	o‘qir eding, o‘qiyotgan eding, o‘qimoqda eding	-r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi	-ng	o‘qir edingiz, o‘qiyotgan edingiz, o‘qimoqda edingiz	-r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi	-ngiz
III shaxs	o‘qir edi, o‘qiyotgan edi, o‘qimoqda edi	-r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi	-	o‘qir edilar, o‘qiyotgan edilar, o‘qimoqda edilar	-r+edi, -yotgan+edi, -moqda+edi	(-lar)

O‘tgan zamon maqsad fe’li nutq so‘zlangan paytdan ilgari bajarilishi maqsad qilingan, ammo voqe bo‘lmagan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: U bugun Malika bilan xoli gaplashib, ko‘nglidagi hamma sir-asrorini to‘kib solmoqchi edi (E.Usmonov). Ertasiga qishloqqa chiqadigan edi.

O‘tgan zamon maqsad fe’li -moqchi, -digan qo‘shimchalarini olgan fe’l negiziga edi to‘liqsiz fe’lini biriktirib (I guruh tuslovchilar bilan) tuslash bilan shakllanadi:

SHaxs	Son					
	Birlik			Ko‘plik		
	Misol	Zamon ko‘rsat-kichi	SHaxs-son qo‘shimchasi	Misol	Zamon ko‘rsat-kichi	SHaxs-son qo‘shimchasi
I shaxs	o‘qimoqchi edim, o‘qiydigan edim,	-moqchi+edi, -digan+edi	-m	o‘qimoqchi edik, o‘qiydigan edik,	-moqchi+edi, -digan+edi	-k
II shaxs	o‘qimoqchi eding, o‘qiydigan eding,	-moqchi+edi, -digan+edi	-ng	o‘qimoqchi edingiz, o‘qiydigan edingiz,	-moqchi+edi, -digan+edi	-ngiz
III shaxs	o‘qimoqchi edi, o‘qiydigan edi,	-moqchi+edi, -digan+edi	-	o‘qimoqchi edilar, o‘qiydigan edilar,	-moqchi+edi, -digan+edi	(-lar)

Hozirgi zamon fe’li ish-harakatning nutq so‘zlanib turgan paytda bajarilgan yoki bajarilmaganini ifodalaydi.

Hozirgi zamon fe’li qo‘shimcha modal ma’nolariga ko‘ra 2 turga bo‘linadi: 1) hozirgi-kelasi zamon fe’li, 2) hozirgi zamon davom fe’li.

Hozirgi-kelasi zamon fe’li nutq so‘zlanib turgan paytda va undan keyin ro‘y beradigan harakatni yoki doimiy harakatni ifodalaydi. Masalan: Bobur bu chigal tugunlarni o‘zi echilmasligini sezadi (P.Qodirov). YOshlikda zahmat chekib, ilm o‘rgansang, kasb-hunar egallasang, qariganda rohat topasan (Koshifiy).

Hozirgi-kelasi zamon fe’li sof fe’l negiziga –a, -y ravishdosh qo‘shimchasini qo‘shish va tuslash bilan hosil qilinadi:

Shaxs	Son					
	Birlik			Ko‘plik		
	Misol	Zamon ko‘rsat-kichi	Shaxs-son qo‘shim-chasi	Misol	Zamon ko‘rsat-kichi	SHaxs-son qo‘shim-chasi
I shaxs	o‘qiyman, boraman	-y, -a	-man	o‘qiymiz, boramiz	-y, -a	-k
II shaxs	o‘qiysan, borasan	-y, -a	-san	o‘qiysiz, borasiz	-y, -a	-ngiz
III shaxs	o‘qiydi, boradi	-y, -a	-di	o‘qiydilar, boradilar	-y, -a	-di(-lar)

Hozirgi zamon davom fe’li ish-harakatning nutq so‘zlanib turgan paytda aniq davom etayotganini bildiradi: Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng xalqimizning o‘z yurti, dili, tarixini bilishga qiziqish ortib bormoqda (I.Karimov).

SHaxs	Son					
	Birlik			Ko‘plik		
	Misol	Zamon ko‘rsat-kichi	SHaxs-son qo‘shim-chasi	Misol	Zamon ko‘rsat-kichi	SHaxs-son qo‘shim-chasi
I shaxs	o‘qiyapman, o‘qimoqdaman, o‘qiyotibman	-yap, -moqda, -yotib	-man	o‘qiyapmiz, o‘qimoqdamiz, o‘qiyotibmiz	-yap, -moqda, -yotib	-miz
II shaxs	o‘qiyapsan, o‘qimoqdasan, o‘qiyotibsan	-yap, -moqda, -yotib	-san	o‘qiyapsiz, o‘qimoqdasiz, o‘qiyotibsiz	-yap, -moqda, -yotib	-siz
III shaxs	o‘qiyapti, o‘qimoqda, o‘qiyotibdi	-yap, -moqda, -yotib	-ti - -di	o‘qiyaptilar, o‘qimoqdalar, o‘qiyotibdilar	-yap, -moqda, -yotib	-ti(-lar) - -di(-lar)

SHuningdek, murakkab fe’l tarkibida qo‘llangan yot, yur, tur, o‘tir ko‘makchi fe’llarni tuslash bilan ham hozirgi zamon davom fe’li hosil qilinadi: o‘qib yotibman, o‘qib yuribman, o‘qib turibman, o‘qib o‘tiribman kabi.

Kelasi zamon fe’li ish-harakatning nutq so‘zlanib turgan paytdan so‘ng bajarilish yoki bajarilmasligini ifodalaydi.

Kelasi zamon fe’li qo‘shimcha modal ma’nolariga ko‘ra ikki turga bo‘linadi:

1) kelasi zamon gumon fe’li; 2) kelasi zamon maqsad fe’li.

Kelasi zamon gumon fe’li ish-harakatning nutq so‘zlanib turgan paytdan so‘ng bajarilish-bajarilmasligi mo‘ljallanishini, taxmin qilinishini ifodalaydi. Masalan: Bugun havo ochiq bo‘lar (A.Q.)

Kelasi zamon gumon fe’li ba’zan hozirgi-kelasi zamon ma’nosida kelib, aniqlik, qat’iylik ma’nolarini ham ifodalaydi: Qadrlasang, qadring oshar, qadrsizdan hamma qochar (Maqol).

Kelasi zamon gumon fe’li sof fe’l negiziga –r(-ar) sifatdosh qo‘shimchasini qo‘shish va tuslash bilan shakllanadi:

SHaxs	Son					
	Birlik			Ko‘plik		
	Misol	Zamon ko‘rsat-kichi	SHaxs-son qo‘shim-chasi	Misol	Zamon ko‘rsat-kichi	SHaxs-son qo‘shim-chasi

I shaxs	o‘qirman, borarman	-r, -ar	-man	o‘qirmiz, borarmiz	-r, -ar	-miz
II shaxs	o‘qirsan, borarsan	-r, -ar	-san	o‘qirsiz, borarsiz	-r, -ar	-siz
III shaxs	o‘qir, borar	-r, -ar	-	o‘qirlar, borarlar	-r, -ar	(-lar)

Kelasi zamon maqsad fe’li nutq so‘zlanib turgan paytdan so‘ng bajarilishi maqsad qilib olingan ish-harakatni ifodalaydi. Masalan: Men kuzdan boshlab o‘qishni davom ettirmoqchiman, so‘ngra qishloq xo‘jalik institutiga kirmoqchiman (SH.R.). Oho qora ko‘z deganda, u devordan oshadigan (O.).

Kelasi zamon maqsad fe’li sof fe’l negiziga -moqchi hamda fe’lning ravishdosh (-a, -y bilan shakllangan) shakliga –digan qo‘shimchasini qo‘shish bilan hosil qilinadi:

SHaxs	Son					
	Birlik			Ko‘plik		
	Misol	Zamon ko‘rsatkichi	SHaxs-son qo‘shimchasi	Misol	Zamon ko‘rsatkichi	SHaxs-son qo‘shim-chasi
I shaxs	o‘qimoqchiman, o‘qiydiganman	-moqchi, -digan	-man	o‘qimoqchimiz, o‘qiydiganmiz	-moqchi, -digan	-miz
II shaxs	o‘qimoqchisan, o‘qiydigansan	-moqchi, -digan	-san	o‘qimoqchisiz, o‘qiydigansiz	-moqchi, -digan	-siz
III shaxs	o‘qimoqchi, o‘qiydigan	-moqchi, -digan	-	o‘qimoqchilar, o‘qiydiganlar	-moqchi, -digan	(-lar)

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Fe’l zamonlarini sanang. O‘tgan zamon fe’llarining yasalishi va tuslanishi to‘g‘risida fikr yuriting.
2. Hozirgi zamon fe’llarining yasalishi va tuslanishi to‘g‘risida fikr yuriting.
3. Fe’lning vazifadosh shakllarini sanang.
4. Harakat nomi hamda uning yasalishini izohlang.
5. Fe’l so‘z turkumi haqida umumiy ma’lumot bering.

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1. Qaysi qatordagi fe’l hozirgi zamonni bildiradi?

A) yugurib turibdi B) o‘qib chiqibdi
C) alqab yuboribdi D) kulib gapiribdi

2. Quyidagi gapda qaysi zamon ma’nosi ifodalangan?

Bugun 62-poyezd bilan Buxoroga jo‘nab ketyapman.

A) o‘tgan B) hozirgi C) kelasi D) hozirgi va kelasi

2. Bugun terimni boshlayapmiz. Gapda qaysi zamon ma’nosi ifodalangan?
A) o‘tgan zamon B) hozirgi zamon
C) kelasi zamon D) hozirgi va kelasi zamon.
3. Aytmagan bo‘lsalar, ana endi eshitamiz. Nima - deding, mulla Yo‘ldosh? Gapda qaysi zamon ma’nosi ifodalangan?
A) hozirgi zamon B) hozirgi-kelasi zamon
C) o‘tgan zamon D) kelasi zamon
4. Qorong‘ida dala aylanib, nimani ham ko‘rardingiz. Bu gapda qaysi zamon ma’nosi ifodalangan?
A) o‘tgan zamon B) hozirgi zamon C) kelasi zamon D) hozirgi va kelasi zamon
5. Yozmadim fe’lidagi qo‘shimchalarning turi to‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.
A) –ma qo‘shimchasi bo‘lishsizlik, -di qo‘shimchasi zamon, -m qo‘shimchasi shaxs-sonni ifodalaydi B) –ma qo‘shimchasi zamon, -di qo‘shimchasi bo‘lishsizlik, -m qo‘shimchasi shaxs-
sonni ifodalaydi C) –ma qo‘shimchasi bo‘lishsizlik, -m qo‘shimchasi zamon, -di qo‘shimchasi shaxs-sonni ifodalaydi D) –ma qo‘shimchasi bo‘lishsizlik, -dim qo‘shimchasi shaxs-sonni ifodalaydi
6. Qaysi fe’l mayllari edi to‘liqsiz fe’li bilan qo‘llana oladi?
A) shart mayli; B) maqsad mayli;
C) buyruq-istak mayli; D) A, B, C.
7. Sizga yostiq bersam, bir hordiq chiqarsangiz gapidagi fe’l qaysi maylga xos ma’no ifodalagan?
A) maqsad mayli B) shart mayli
C) buyruq-istak mayli D) xabar mayli
8. Buyruq-istak maylidagi fe’llarning qaysi birida istak ma’nosi bo‘lmay, faqat buyruq ma’nosi mavjud bo‘ladi?
A) 1-shaxs birlik va ko‘plikda B) 2- va 3-shaxslarda
C) 2-shaxsda D) 3-shaxsda
9. Fe’l asosiga zamon va shaxs-son qo‘shimchalarini qo‘shish bilangina hosil qilinadigan fe’l maylini ko‘rsating.
A) xabar mayli B) shart C) buyruq-istak D) A va B.
10. So‘zlovchining bevosita o‘zi ko‘rgan harakat va holatni bildiradigan o‘tgan zamon shaklini yasovchi qo‘shimcha berilgan javobni toping.
A) –di B) –gan C) –b D) –ib

1-ilova

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil

7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.

GLOSSARIY

Fe’l zamonlari - fe’l ifodalagan ish-harakatning paytga munosabati: o‘tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon.

Hozirgi zamon fe’llari - nutq paytining o‘zida bajarilayotgan yoki bajarilmayotgan ish-harakatni bildiradigan fe’llardir: o‘qiyapti, boradi, o‘qiydi.

Hozirgi zamon davom fe’llari - nutq paytining o‘zida, so‘zlovchining ko‘z oldoda yuz berayotgan ish-harakatni bildiradigan fe’llardir. Ular -yap, -moqda, -yotir qo‘shimchalari va tuslanish yordamida hosil qilinadi: kelyapti, bormoqdamiz. Bu zamon turi yot, tur, yur, o‘tir ko‘makchi fe’llari
yordamida ham yasaladi: yozib yotibdi, yozib turibdi, o‘qib yuribdi, gaplashib o‘tiribdi.

Hozirgi-kelasi zamon fe’llari – nutq paytida va undan keyin ham davom etadigan ish-harakatni ifodalaydigan fe’llardir. Ular -a yoki -y qo‘shimchalari va tuslanish yordamida hosil qilinadi: boraman, kelasan, o‘qiyman.

Hozirgi zamon sifatdoshi - -(a)yotgan qo‘shimchasi bilan yasaladi: kelayotgan, o‘qiyotgan.

Zamon kategoriyasi - fe’l ifodalagan ish-harakatning nutq so‘zlanib turgan vaqtga munosabatidir: o‘tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamon.

O‘tgan zamon fe’llari - nutq paytidan oldin bajarilgan yoki bajarilmagan ish-harakatni bildiradigan fe’llardir: yozdi, keldi, bordi.

O‘tgan zamon hikoya fe’llari - nutq so‘zlanib turgan vaqtdan oldin bajarilgan yoki bajarilmagan ish-harakatni hikoya qilish orqali ifodalaydigan fe’l shaklidir. Bu zamon shakli -(i)b qo‘shimchasini olgan
fe’llarni tuslash yordamida hosil qilinadi: kelibman;

O‘tgan zamon davom fe’llari - nutq so‘zlanib turgan vaqtdan oldin bajarilishi yoki bajarilmasligi davom etayotgan ish-harakatni ifodalaydigan fe’l shaklidir. Bu zamon shakli -(a)r qo‘shimchasi va edi fe’lini tuslash yordamida yasaladi: kelar eding.

O‘tgan zamon maqsad fe’llari - nutq so‘zlanib turgan vaqtdan oldin bajarilishi yoki bajarilmasligi maqsad qilib qo‘yilgan ish-harakatni ifodalaydigan fe’l shaklidir. Bu zamon shakli -moqchi qo‘shimchasi va edi fe’lini tuslash yordamida yasaladi: kelmoqchi edik;

O‘tgan zamon sifatdoshi - -gan, -kan, -qan qo‘shimchalari bilan yasaladi: otgan, tikkan, chiqqan.

Uzoq o‘tgan zamon fe’llari - nutq so‘zlanib turgan vaqtdan ancha oldin bajarilgan yoki bajarilmagan ish-harakatni ifodalaydigan fe’l shaklidir. Bu zamon shakli -gan qo‘shimchasi va edi, ekan fe’llarini tuslash yordamida hosil qilinadi: kelgan edim;

Yaqin o‘tgan zamon fe’llari – nutq so‘zlanib turgan vaqtdan sal oldin bajarilgan yoki bajarilmagan ish-harakatni ifodalaydigan fe’l shaklidir. Bu zamon shakli -di qo‘shimchasi va tuslanish yordamida hosil qilinadi: keldi, bordim;

17-MAVZU: FE’LLARNING TUSLANISHI 2 soat

1-Ilova

Ma’ruza mashg‘uloti mavzulari

1 Fe’llarning shaxs-son shakllari
2 Fe’llarning tuslanishi.
3.Shaxs-son qo‘shimghalari fe’lninig qanday shakllariga qo‘shilishiga qarab guruhlarga bo‘linishi.

3--ilova

Mashg‘ulot mavzusi: Fe’llarning tuslanishi.

Mashg‘ulot rejasi:

1. Fe’llarning shaxs-son shakllari
2. Fe’llarning tuslanishi.
3. Shaxs-son qo‘shimghalari fe’lninig qanday shakllariga qo‘shilishiga qarab guruhlarga bo‘linishi.

2-ilova

DASTURLASHTIRILGAN TOPSHIRIQ SAVOLLARI:

1. Tuslanish nima?
2. –m, -ng, -k, -ngiz Qo‘shimchalari qanday shakldagi fehllarga qo‘shiladi?
3. –man, -san, -miz, -siz kabi qo‘shimchalar qanday shakldagi fe’llarga qo‘shiladi?
4. –gin, -ay, -ing(iz) kabi qo‘shimchalar qanday shakldagi fehllarga qo‘shiladi?

3-ilova

Fe’llarning shaxs-son shakllari

Fe’llar birlik va ko‘plikda bo‘ladi. Birlik shakli harakatning bir kishi tomonidan, ko‘plik shakli esa birdan ortiq kishi tomonidan bajarilganini bildiradi. Harakat uch shaxs tomonidan bajariladi. 1-shaxs harakatning so‘zlovchi tomonidan, 2-shaxs harakatning tinglovchi tomonidan, 3-shaxs harakatning o‘zga (boshqalar) tomonidan bajarilganini bildiradi. Demak, fe’l ifodalagan ish-harakatni amalga oshiruvchi shaxsni ko‘rsatib, fe’lni kesim ko‘rinishida shakllantiruvchi, uni ega bilan bog‘slaydigan shakllar shaxs-son shakllari deb ataladi:

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
I	bordi**m**, bor**ay**, o‘qi**y**	bordi**k**, bor**aylik**, o‘qi**ylik**
II	bordi**ng**, bor**(gin**), o‘qi	bordi**ng(iz)**, bor**ingiz**, o‘qi**ng(iz)**
III	bordi, bor**sin**, o‘qi**sin**	bordi(lar),bor**sin**(lar), o‘qi**sin**(lar)

Ish-harakat ma’lum bir grammatik shaxs tomonidan bajariladi (yoki bajarilmaydi). Grammatik shaxs so‘zlovchi (I shaxs), tinglovchi (II shaxs), o‘zga (III shax syoki predmet) bo‘lishi mumkin.

Grammatik shaxs grammatik son (birlik yoki ko‘plik) bilan birgalikda ifodalanadi. Fe’llardagi bunday grammatik shaxs va son ma’nosi ma’lum bir grammatik ko‘rsatkichlar orqali ifodalanadi. Masalan: o‘qidim, o‘qisam, o‘qisang, o‘qiyapman, o‘qibman, o‘qiy fe’llari tarkibidagi –m, -man, -y qo‘shimchalari ish-harakatning I shaxs so‘zlovchi, ya’ni yakka shaxs tomonidan bajarilganini ko‘rsatsa; o‘qidik, o‘qisak, o‘qiyapmiz, o‘qibmiz, o‘qiylik fe’llari tarkibidagi –k, -miz, -ylik affikslari ish-

harakatning I shaxs, lekin ko‘p so‘zlovchilar (shaxslar) tomonidan bajarilganini ifodalaydi.

Demak, ish-harakatning bajaruvchisi uch shaxs va 2 son tushunchalarini aks ettiruvchi affikslarni o‘z ichiga oladi. SHuning uchun ham bunday affikslar shaxs-son affikslar deb yuritiladi. Fe’llarning shaxs-son affikslari bilan o‘zgarishi esa tuslanish deyiladi. SHaxs-son affikslari tilshunoslikda tuslovchi affikslar deb ham yuritiladi.

O‘zbek tilida tuslovchi affikslar fe’l shakllariga turlicha ko‘rinishda qo‘shiladi. SHu jihatdan tuslovchi affikslar uch guruhga bo‘linadi.

1. **Birinchi guruh tuslovchilar** aniqlik va shart-istak maylidagi –di, -sa qo‘shimchalarini olgan sof fe’l negizidan so‘ng va edi to‘liqsiz fe’liga qo‘shiladi: keldi-m, keldi-ng, keldi; kelsa-k, kelsa-ng, kelsa(lar) kabi.

Fe’llarning birinchi guruh tuslovchilar bilan tuslanishi quyidagicha:

SHaxs	Son	
	Birlik	Ko‘plik
I	*yozdim, yozsam, yozgan edim*	*zdik, yozsak, yozgan edik*
II	*yozding, yozsang, yozgan eding*	*yozdingiz, yozsangiz, yozgan edingiz*
III	*yozdi, yozsa, yozgan edi*	*yozdi(-lar), yozsa(-lar), yozgan edi(-lar)*

Ikkinchi guruh tuslovchi affikslar *–b(-ib), -a(-y)* qo‘shimchasi bilan shakllangan ravishdoshlardan, sifatdoshlardan *(-yotgan* qo‘shimchasidan tashqari), shuningdek, *-yap, -moqda, -yotib, -moqchi* bilan shakllangan fe’l negizidan so‘ng qo‘shiladi. Mazkur guruhdagi tuslovchilar III shaxsdagina ikki xil ko‘rinishda bo‘ladi, ya’ni birinchi xil ko‘rinishda *–b(-ib), -a(-y)* qo‘shimchasi bilan shakllangan ravishdoshlar hamda –yap, -yotib bilan shakllangan fe’llar III shaxs birlikda –di (-ti), ko‘plikda –di(lar), -ti(lar) shaxs-son affikslari bilan shakllanadi.

Ikkinchi xil ko‘rinishda esa fe’lning sifatdosh shakllariga *(-gan, -r(-ar), -digan, -vchi(-uvchi* bilan hosil qilingan shakllariga), -moqda, -moqchi, -yotir bilan shakllangan fe’l negizlari, shuningdek, fe’llar ekan, emish to‘liqsiz fe’llari bilan birga qo‘llansa, III shaxsda shaxs ko‘rsatkichi shakllanmaydi (nol ko‘rsatkichli shaklda keladi).

Fe’llarning ikkinchi guruh (A.B ko‘rinishi) tuslovchilar bilan tuslanishi quyidagicha:

«A» ko‘rinishi

Shaxs	Son	
	Birlik	Ko‘plik
I	*yozib-man, yozayotib-man, yoza-man yozyap-man*	*yozib-miz, yozayotib-miz, yoza-miz, yozyap –miz*
II	*yozib-san, yozayotib-san, yoza-san, yozyap -san*	*yozib-siz, yozayotib-siz, yoza-siz, yozyap –siz*
III	*yozib-di, yozayotib-di, yoza-di, yozyap -ti*	*yozibdilar, zayotibdilar, yozadilar, yozyaptilar*

«B» ko‘rinishi

Shaxs	Son	
	Birlik	Ko‘plik
I	*yozgan-man, yozar-man, yozadigan-man, yozmoqda-man, yozmoqchi-man*	*yozgan-miz, yozar-miz, yozadigan-miz, yozmoqda-miz, yozmoqchi-miz*

II	*yozgan-san, yozar-san, yozadigan-san, yozmoqda-san, yozmoqchi-san*	*yozgan-siz, yozar-siz, yozadigan-siz, yozmoqda-siz, yozmoqchi-siz*
III	*yozgan, yozar, yozadigan, yozmoqda, yozmoqchi*	*yozgan-lar, yozar-lar, yozadigan-lar, yozmoqda-lar, yozmoqchi-lar*

Uchinchi guruh tuslovchilar buyruq maylidagi sof fe'l negizidan so'ng qo'shiladi. Fe'llarning uchinchi guruh tuslovchi bilan tuslanishi quyidagicha:

SHaxs	Son	
	Birlik	Ko'plik
I	*yoz**ay**, yoz**ayin**, o'qi**y**, o'qi**yin***	*yozaylik, o'qiylik*
II	*yoz, yozgin, o'qi, o'qigin*	*yozingiz, o'qingiz,*
III	*yozsin, o'qisin*	*yozsinlar, o'qisinlar,*

Fe'lning shaxs-son shakllari bir-birining o'rnida almashib qo'llanishi mumkin: - *Uka, shunaqa narsa bilan hazil qiladimi!?* (3-shaxs, birlik shaklidagi *hazil qiladimi* 2-shaxs, birlik shakli *hazil qilasanmi* o'rnida qo'llangan).

Talabalarning mustaqil izlanishlari uchun topshiriqlar

1. Badiiy asarlardan fe'llarning shaxs-son shakllari, fe'llarning tuslanishiga doir misollar to'plab, tahlil qilish.
2. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan darsliklardan fe'llarning shaxs-son shakllari , fe'llarning tuslanishi bo'yicha berilgan ma'lumotlarni konspektlashtirish.

MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI:

1. **Fe'lning shaxs va sonda tuslanganini bildiruvchi qo'shimchalar qo'shimchalarning vazifasiga ko'ra qaysi turiga mansub bo'ladi?**

A) so'z yasovchi V) shakl yasovchi

S) so'z o'zgartiruvchi D) negiz iosil qiluvchi E) A va D.

2. Uchinchi shaxsni qaysi vositalar ifodalay oladi?

A) kishilik olmoshlarining ba'zilari

V) egalik qo'shimchalarning ba'zilari

S) shaxs-son qo'shimchalarining ba'zilari D) kelishik qo'shimchalarining ba'zilari E) A, V, S

3 Shaxsi ko'chgan holda qo'llangan gap qaysi qatorda berilgan?

A) Bo'shbayov ekansizlar. Jilla bo'lmasa, molmulkini o'z qo'llaringga o'tkazib ololmadinglar. V) Lenada zolim podsho ishchilarni qoniga bo'yagan edi. S) Anvar yugurib borib, Alimardonning yoqasidan oldi: Shunaqa narsa bilan hazil qiladimi, odam? D) Oyimxonni chaqiradilar.(A.Qod.) Hamma shu erda, faqat sizni kutishadi. E) Zamon shiddati juda zo'r. Bugun bir muammoni hal qildim desang, ertasiga yana boshqasi ko'ndalang bo'lib turadi.

4 Tuslovchilarni toping.

A) kitoblar, dalalar. Tog'lar V) daftarim, asari, uyi S) beshta, o'nlab, ettinchi D) o'ylagansan, kezdik, sevinding E) gulni, maktabga, o'g'ildan.

5 Fe'llardagi tuslovchi 1-shaxs birlik va ko'plik qo'shimchalari *m, k* fe'l o'zak-negiziga qay tarzda qo'shiladi?

A) *zamon yasovchi –di qo‘shimchasidan so‘ng* V) *mayl yasovchi –sa qo‘shimchasidan so‘ng* S) *o‘zak-negizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri*
D) *A, V* E) *A,V,S*

6 Fe’ldagi shaxs-son qo‘shimchalari qo‘shimchalarning ma’no va vazifasiga ko‘ra qaysi turiga kiradi?

A) so‘z yasovchi qo‘shimchalar V) fe’l yasovchi qo‘shimchalar S) so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar D) turlovchi qo‘shimchalar
E) shakl hosil qiluvchi qo‘shimchalar

7 Qaysi qatordagi so‘zlarda tuslovchi qo‘shimchalar mavjud emas?

A) *qaynashim, qaynashing, qaynashi;*
B) *qaynadim, qaynading, qaynadi;*
C) *bordim, bording, bordi;*
D) *bordik, bordingiz, bordilar;*
E) *borishdik, qatnashdik, yordamlashdik*

8. Qaysi gapda I shaxs ko‘plik shaklidagi fe’ II shaxs ko‘plikdagi fe’lni ham ifodalashi mumkin?

A) Qani endi ishga tushaylik.
V) Xo‘sh, endi bunga nima deysiz? S) Ei, do‘stim, bizdek bo‘lishing uchun ko‘p ishlashing kerak. D) Biz bu masalani boshqacha usul bilan hal qildik. E) Qilar ishni siz qiling. Yana kim yomon, biz yomon.

9. Fe’l shakllaridan qaysilari tuslanishi mumkin?

A) ravishdosh V) sifatdosh
S) harakat nomi D) A, V E) A, V, S

10 Iya, jiyan, o‘zlari-ku, kelsinlar, kelsinlar, soj-salomat bormilar? Ushbu gapda qo‘llangan shaxs-son qo‘shimchasining vazifasi qaysi qatorda to‘g‘ri izoilangan?

A) 3-shaxs ko‘plik shakli 3-shaxs birlik ma’nosida qo‘llangan V) 3-shaxs ko‘plik shakli 2-shaxs birlik ma’nosida qo‘llangan S) 3-shaxs ko‘plik shakli
2-shaxs ko‘plik ma’nosida qo‘llangan D) 2-shaxs ko‘plik shakli 2-shaxs birlik ma’nosida qo‘llangan E) shaxs-son qo‘shimchasi o‘z ma’nosida qo‘llangan

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.

GLOSSARIY

Buyruq-istak maylidagi fe’llar - ish-harakat haqida buyruq, istak, maslahat, iltimos kabi ma’nolarni bildiradigan fe’llar. Bunday fe’llar -(a)y, -gin, -sin, -aylik,

-ing(iz), -sinlar qo‘shimchalari yordamida yasaladi: yozay, o‘qiy, yozgin, yozsin, o‘qiylik, boring(iz).

Holat fe’llari - shaxslarning ichki kechinmalari va narsalarning bir holatdan boshqa holatga otishini bildiradigan fe’llardir: uxlamoq, kulmoq, yig‘lamoq, tirjaymoq, dam olmoq, shoshmoq, isimoq, qizarmoq, semirmoq, shishmoq, ranjimoq, xursand bo‘lmoq, xandon urmoq, dahshatlanmoq, shod bo‘lmoq, og‘rinmoq va h.

Kuchaytirma fe’llar - harakatning kuchliligini ifodalaydigan fe’llardir. Quyidagi qo‘shimchalar yordamida yasaladi: -la: savala, quvla. -kila (-gila, -g‘ila, -qila): turtkila, torqila, yugurgila, ezg‘ila.

Kuchsizlantiruv fe’llari - harakatning kuchsizligini ifodalaydigan fe’llar. Quyidagi qo‘shimchalar yordamida yasaladi: -(i)sh: to‘lishmoq, oqarishmoq; -(i)msira: kulimsiramoq, yig‘lamsiramoq; -(i)nqira: oqarinqiramoq.

Majhul nisbatdagi fe’llar - ish-harakatning aniq bajaruvchisini ko‘rsatmaydigan fe’llardir. Bu fe’llar -n, -in, -l, -il qo‘shimchalari yordamida hosil qilinadi: to‘kildi, to‘plandi, ochildi, olindi. O‘zlik va
majhul nisbatdagi fe’llar bir xil qo‘shimcha yordamida hosil qilinganda, ularning qaysi nisbatdaligi gap mazmunidan yoki fe’ldan oldin o‘zi so‘zini keltirib ko‘rish bilan aniqlanadi: Mukofotlar berildi. Anvar o‘qishga berildi. (1-fe’l majhul nisbatda, 2-fe’l o‘zlik nisbatdadir).

18-mavzu: FE’LNING VAZIFADOSH (XOSLANGAN) SHAKLLARI – MA’LUM BIR SINTAKTIK VAZIFA BAJARISHGA MOS SHAKLLARI (2 soat)

Ma’ruza mashg‘uloti mavzulari

1 Hozirgi zamon fe’llari haqida ma’lumot
2 Kelasi zamon fe’llari
3 Zamon shakllrining bir-biriga ko‘chishi

1-ilova

Mashg‘ulot Mavzusi: **Hozirgi va kelasi zamon fe’llari.**

Mashg‘ulot rejasi:

1. Hozirgi zamon fe’llari haqida ma’lumot
2. Kelasi zamon fe’llari
3. Zamon shakllrining bir-biriga ko‘chishi.

2-ilova

Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:

1.Hozirgi zamon fe’llarining qanday turlari mavjud?
2.Kelasi zamon fe’llarining turlariga misollar yozing.
3. Hozirgi zamon fehllari qaysi zamon shakllari o‘rnida qo‘llanishi mumkin?

3-ilova

Fe’lning gap ichida ma’lum sintaktik vazifani bajarishga xoslangan shakllari vazifadosh (xoslangan) shakllar (ayrim darsliklarda vazifa shakllari yoki turlari) deb ataladi. Fe’lning gapda ma’lum bir gap bo‘lagi vazifasini bajarishga mos bo‘lgan shakli uning funktsional[1] formasi deyiladi. Fe’lning funktsional formalari gapda kesim, hol, aniqlovchi, ega va to‘ldiruvchi vazifalarida keladi.

[1] Funktsiya – lat. function – «faoliyat», «vazifa».

O‘zbek tilida fe’lning funktsional formalariga 1) sof fe’l, 2) ravishdosh, 3) sifatdosh, 4) harakat nomi kiradi.

Sof fe’l. Fe’lning tuslangan formada qo‘llanib, kesim vazifasini bajarishga mos fe’l shakliga sof fe’l deyiladi. Sof fe’l har uch zamon shaklida qo‘llangan aniqlik, buyruq-istak, shart mayli formasidagi fe’llarni o‘z ichiga oladi. Masalan: To‘g‘ri so‘z odam butun hayoti davomida mehr, sadoqat nurlarini tarqatadi (U.Mahkamov). Kimki oz bilsa, ozga o‘rgatadi. (Tafakkur gulshani). Aqlni beaqldan o‘rgan (Maqol).

Ravishdosh. Harakatning belgisini (harakat tarzidagi belgi) anglatadigan, gapda ko‘pincha hol yoki ergash gapning kesimi vazifasini bajarishga mos bo‘lgan fe’l shakli ravishdosh shakli deyiladi. Masalan: Ilmu hunarni Xitoydan bo‘lsa ham borib o‘rganinglar (Pedagogika tarixi). CHoyga fotiha o‘qilgach, hamma o‘rnidan turdi (S.Ahmad). Bu misollarning birinchisida borib ravishdoshi hol vazifasini, ikkinchi misoldagi o‘qilgach ravishdoshi ergash gapning kesimi vazifasini bajargan.

Ravishdosh quyidagi affikslar bilan yasaladi:

1) fe’l o‘zak-negiziga unlidan so‘ng –b, undoshdan so‘ng –ib affiksini qo‘shish bilan: o‘qib, borib;

2) fe’l o‘zak-negiziga unlidan so‘ng –y, undashdan so‘ng –a affiksini qo‘shish bilan: o‘qiy-o‘qiy, bora-bora.

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdoshlar nutqda, asosan, takroriy holda qo‘llanadi;

-b (-ib), -a, -y affikslari bilan yasalgan ravishdosh qo‘shma fe’l (sof fe’l) tarkibida etakchi qism vazifasida ham keladi: yoza boshladi, o‘qib chiqdi kabi.

3) –gani (-kani, -qani) affikslari bilan: o‘qigani, aytgani kabi;

4) –gach (-kach, -qach) affikslari bilan: o‘qigach, borgach kabi;

5) –guncha (-kuncha, -quncha) affikslari bilan: o‘qiguncha, borguncha kabi.

Fe’l o‘zak-negizi k yoki g undoshi bilan tugasa, -kani, -kach, -kuncha tarzida, q yoki g‘ undoshi bilan tugasa, -qani, -qach, -quncha tarzida qo‘shiladi: ekkani, ekkach, ekkani, ekkuncha; chiqqani, chiqqach, chiqquncha kabi.

Fe’lning ravishdosh shakli fe’l singari harakat tushunchasini anglatib, fe’lga xos quyidagi morfologik belgilarga ega, ya’ni:

a) o‘timli-o‘timsizlik ma’nosini ifodalaydi: eslab - o‘timli, kulib - o‘timsiz ravishdosh;

b) bo‘lishli-bo‘lishsizlik ma’nosiga ega: ko‘rib – bo‘lishli, ko‘rmay, ko‘rmasdan – bo‘lishsiz ravishdosh; kelguncha – bo‘lishli, kelmaguncha – bo‘lishsiz ravishdosh; o‘tgach – bo‘lishli, o‘tmagach – bo‘lishsiz ravishdosh.

-gani (-kani, -qani) affiksi bilan yasalgan ravishdoshning bo‘lishsizlik shakli yo‘q (-ma bo‘lishsizlik qo‘shimchasini olmaydi).

v) nisbat ma’nosini anglatadi: yasab - aniq nisbat, yasanib - o‘zlik nisbat, yasalib - majhullik nisbati, yasashib – birgalik nisbat, yasatib – orttirma nisbat;

g) ravishdoshlar tuslovchi qo‘shimchalarni olish-olmaslik xususiyatiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi: tuslanadigan ravishdoshlar va tuslanmaydigan ravishdoshlar.

Tuslanadigan ravishdoshlarga fe’l negiziga –b (-ib), -a, -y affikslarni qo‘shish bilan shakllangan ravishdoshlar kiradi.

Bu guruhdagi ravishdoshlar tuslangan holda sof fe’lga aylanadi. Masalan: Kechaning tili qorasida yulduzlar yorqin yonadi (O). Oyoq ostimizda munchoq-munchoq oq, sariq gullar sochilib yotibdi (B.Jahongirov).

Tuslanadigan ravishdoshlar tuslovchi olmagan holda ham qo‘llana oladi. Masalan: *Vohid ho‘l sochlarini taray-taray boqqa sho‘ng‘idi (O.YOqubov). Mashina silkinib oldinga intildi (S.Ahmad).*

Ravishdoshlarning –gach (-kach, -qach), -gani (-kani, -qani), guncha (-kuncha, -quncha) affikslari yordamida hosil qilingan shakllari tuslanmaydigan ravishdoshlar sanaladi: etgach, ekkach, chiqqach; etgani, ekkani, chiqqani; etguncha, ekkuncha, chiqquncha kabi. Masalan: *Sultonali tong otguncha ikki go‘dakning qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirib chiqqan (A.Qodiriy). Uzun, qorong‘i yo‘lakka chiqqach, Unsin to‘xtadi (O). Siz bilan maslahatlashgani keldim (B.Rahmonov).*

d) zamon ma’nosini ifodalaydi. Ravishdoshning zamon ma’nosini ifodalashi nisbiy zamon sanaladi. CHunki ravishdoshning zamoni shu gapdagi tuslangan fe’lning zamoniga nisbatan belgilanadi.

Ravishdoshlar zamon ma’nosiga ko‘ra uchga bo‘linadi: o‘tgan zamon ravishdoshi, hozirgi zamon ravishdoshi, kelasi zamon ravishdoshi.

O‘tgan zamon ravishdoshlari fe’l o‘zak-negiziga –b (-ib), -gach (-kach, -qach) affikslarini qo‘shish bilan hosil qilinadi: qolib, o‘qib, qolgach, o‘qigach kabi.

-b (-ib) affiksi bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe’l ifodalagan asosiy harakatdan ilgari bo‘lgan harakatni yoki asosiy harakatdan oldin boshlangandek ko‘rinsa ham ammo u bilan bir vaqtda yuz bergan harakatni anglatadi. Masalan: Zulfiya javob so‘rab keldi gapida javob so‘rab ravishdoshi asosiy harakatdan (keldi harakatidan) oldin ro‘y bergan harakatni bildirsa, u kulib gapirmoqda gapida esa kulib ravishdoshi asosiy harakat (gapirmoqda harakati) bilan bir vaqtda yuz beradigan harakatni anglatadi.

-b (-ib) affiksi bilan yasalgan ravishdosh tuslanganda, o‘tgan zamon hikoya fe’lini hosil qiladi.

Fe’l negiziga –gach (-kach, -qach) affiksini qo‘shish bilan yasalgan ravishdosh tuslanmaydigan ravishdosh bo‘lib, u tuslangan fe’l ifodalagan harakatdan ilgari uning bajarilishi (yoki bajarilmaslik) sababi yoki paytini ko‘rsatadigan harakatni anglatadi. Masalan: *Uch-to‘rt kun mehmondorchilikda yurishgach, maktabdan qaytdilar (P.Tursun). Zorlanishdan, ichni eyishdan boshqa hech nima qo‘lidan kelmagach, nima qilsin (M. Ismoiliy).*

Hozirgi zamon ravishdoshi fe’l o‘zak-negiziga –a, -y affikslarini qo‘shish bilan hosil qilinadi: bora-bora, ishlay-ishlay kabi.

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe’l ifodalagan asosiy harakat bilan bir vaqtda ro‘y beradigan harakatni anglatib, uning bajarilish holati, paytini ko‘rsatadi. Masalan: *Toma-toma ko‘l bo‘lur, hech tommasa cho‘l bo‘lur (Maqol). Tog‘ oralig‘idagi qalin qor eriy-eriy odam bemalol kira oladigan g‘or bo‘lib qolibdi (S.Anorboev).*

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdoshlar nutqda odatda, takroriy so‘z shaklida qo‘llanadi. YAkka holda ishlatilganda, ravishdosh anglatgan harakatdan tuslangan fe’l anglatgan harakatga tezlik bilan o‘tilganlik ma’nosi hosil bo‘ladi. Masalan: *Sultonmurod kela o‘qishga kirishdi.*

Hozirgi zamon ravishdoshi tuslanib, hozirgi-kelasi zamon fe’lini hosil qiladi. Masalan: *Sada tagidagi hovuzning suvida yaproqlar suzadi (S.Z.).*

Kelasi zamon ravishdoshlari fe’l negiziga –gani (-kani, -qani), -guncha (-kuncha, -quncha) affikslarini qo‘shish bilan yasaladi: o‘qigani, tinchiguncha kabi.

Bu affikslar bilan yasalgan ravishdoshlar tuslanmaydi. Fe’l negiziga –gani (-kani, -qani) qo‘shish bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe’l ifodalagan harakatdan so‘ng

bajarilishi maqsad qilib olingan harakatni anglatadi. Masalan: *Men bugun yuragimni ochib gapirgani keldim (U.).*

Fe'l negiziga –guncha (-kuncha, -quncha) affiksini qo‘shish bilan yasalgan ravishdosh tuslangan fe'l ifodalagan harakatning davom qilish vaqtining o‘lchovi sifatidagi harakatni ifodalaydi. Masalan: *Yo‘lchi so‘zlaguncha, Tantiboyvachcha qorong‘ida yo‘qoldi (O.).*

SHu bilan birga ravishdosh o‘ziga xos sintaktik belgilarga ham ega, ya'ni:

a) gap tarkibida boshqa so‘zlarni boshqarib kela oladi;

b) tuslanadigan ravishdoshlar tuslovchi olmagan holda hol va –b (-ib) affiksi bilan yasalgan ergash gapning kesimi vazifasini bajaradi: *Gulnorning egnida kaltagina qora (lapis) kamzul yuvila-yuvila yupqalashgan (O.). Ibn Iroq uning gapidan zavqlanib kuldi (M.Osim). Kursi ustiga dasturxon yozilib, meva-cheva to‘la patnis qo‘yildi (O.).*

SHuningdek, tuslanadigan ravishdoshlar o‘zlariga tobe bo‘lgan so‘zlar bilan sostavli hol sifatida, ravishdosh o‘ram tarzida ajratilgan hol vazifasini ham bajaradi: *Bozor darvozasi yoniga kelishganida bir to‘da odamni ko‘rib to‘xtab qolishdi (O‘.Hoshimov). Aprel oqshomlaridan birida Farida ikkovlari shahar aylanib yurib stadionga kirib qolishdi (O‘.Hoshimov). Keng, baland, serhasham chodirda oltin shamdonlarni qo‘yib, Navoiy yaqin beklari bilan suhbatlashib o‘tirardi (O.).*

v) tuslanmaydigan ravishdoshlar gapda hol, ajratilgan ikkinchi darajali bo‘lak va ergash gapning kesimi vazifasini bajarib keladi: Oradan uch oy o‘tib hash-pash deguncha issiq kunlar etib keldi (S.A.). U oltinsoyliklarni kanal va buloq qazigani boshlab ketdi (SH.R.). SHartning nozik va qaltisligi ko‘z oldiga kelgach, yuragi orqasiga tortib ketdi (H.N.). Asalxon karvon o‘tib ketguncha, yo‘l yoqasida qo‘l siltab turdi (H.G‘.).

-gani (-kani, -qani) affiksi bilan yasalgan ravishdosh gapda faqat hol vazifasini bajaradi.

Sifatdosh. Predmetning harakat va holat belgisini bildiradigan, gapda sifatlovchi vazifasini bajarishga mos bo‘lgan fe'l shakli sifatdosh deyiladi: *So‘zlayotgan kishining o‘ziga emas, so‘ziga e'tibor qil («Tafakkur gulshani»). Ko‘chaning ikki chetidagi turli mollar bilan savdo qiluvchi do‘konlar joylashgan (M.Qoriev)* gaplaridagi *so‘zlayotgan, savdo qiluvchi* sifatdoshlari *kishi, do‘konlar* otlariga bog‘lanib, uning harakat belgisini bildirib, sifatlovchi (aniqlovchining bir turi) vazifasini bajargan.

Sifatdosh quyidagi affikslar bilan yasaladi:

1) fe'l o‘zak-negiziga –gan (-kan, -qan) affikslarni qo‘shish bilan: yuklagan, kechikkan, qiziqqan (fe'l negizi k yoki g bilan tugasa, -kan; q yoki g‘ bilan tugasa, -qan tarzida).

Bu affiks sifatdosh yasashda eng mahsuldor, unumli affiks sanaladi.

Eski o‘zbek adabiy tilida –gan affiksining ekvivalenti –mish, -dik affikslari bilan ham yasalgan (bu affikslar hozir ham uchraydi).

2) fe'lning –a, -y affiksi bilan tugagan ravishdosh negiziga –digan, -yotgan affikslarini qo‘shish bilan: kelayotgan, o‘qiyotgan, boradigan, ishlaydigan kabi;

3) fe'l o‘zak-negiziga –r (-ar) qo‘shilishi bilan (unlidan so‘ng –r, undoshdan so‘ng –ar): sanar, ko‘kar kabi;

4) fe'l o‘zak-negiziga –vchi (-uvchi) qo‘shilishi bilan (unlidan so‘ng –vchi, undoshdan so‘ng –uvchi): boshlovchi, kutuvchi kabi;

Eski adabiy tilda sifatdoshning bu turi –guchi, -g‘uchi shaklida ham ishlatilgan aytguchi, kelguchi. Bu shakl hozir ham poeziyada uchraydi: *Kulimsirab turg‘uchi toleing porloq (G‘.G‘.).*

Bu affiks bilan yasalgan sifatdoshning ot so‘z turkumiga ko‘chish holati ham uchraydi: o‘quvchi, to‘quvchi, yozuvchi kabi.

5) fe’l negiziga –ajak qo‘shilishi bilan: kelajak, bo‘lajak kabi;

6) fe’l negiziga –gusi, -g‘usi qo‘shilishi bilan: kelgusi, bo‘lg‘usi kabi.

Sifatdosh leksik-semantik jihatdan harakat tushunchasini anglatadi. SHunga ko‘ra sifatdosh fe’l sanaladi va fe’lga xos bo‘lgan grammatik xususiyatlarga egadir, ya’ni:

1) o‘timli-o‘timsizlik ma’nosini ifodalaydi: o‘qigan, yozdirgan - o‘timli; qolgan, qiziqtirgan - o‘timsiz sifatdosh;

2) bo‘lishli-bo‘lishsizlik ma’nosini ifodalaydi: o‘qigan – bo‘lishli, o‘qimagan – bo‘lishsiz; aytar – bo‘lishli, aytmas – bo‘lishsiz sifatdosh;

3) nisbat ma’nosini anglatadi: yuvgan - aniq nisbat, yuvingan - o‘zlik nisbat, yuvilgan - majhullik nisbat, yuvishgan – birgalik nisbat, yuvdirgan – orttirma nisbat;

4) sifatdoshlar tuslanganda aniqlik maylining biror zamoniga xos bo‘lgan fe’lni hosil qiladi (sof fe’lga aylanadi) va kesim vazifasini bajaradi: *Bu hofiz butun olamga tanilgan (O.).*

Sifatdoshning deyarli barcha shakllari tuslanish xususiyatiga (-yotgan shaklidan tashqari) ega. –r (-ar) bilan yasalgan sifatdosh shakli esa hozirgi tilda ko‘proq tuslangan shaklda ishlatiladi: o‘qirman, o‘qirsan, o‘qir; o‘qirmiz, o‘qirsiz, o‘qir(lar) kabi;

5) sifatdosh zamon ma’nosini ifodalaydi. Atributiv (sifatlovchi) holatida kelgan sifatdoshning zamon ma’nosi nisbiy sanaladi, chunki sifatdoshning zamoni nutq momentiga nisbatan emas, balki fe’l-kesimning zamoniga nisbatan belgilanadi: *Ko‘nglini kichik tutgan, kamtarlik yo‘lidan yurgan kishi ulug‘likka etadi (YUsuf Xos Xojib)* gapida tuslangan fe’l etadi hozirgi-kelasi zamonni ifodalasa, ko‘nglini kichik tutgan, kamtarlik yo‘lidan yurgan sifatdoshlari o‘tgan zamonni ifodalaydi.

Sifatdoshlar zamon ma’nosiga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi: o‘tgan zamon sifatdoshi, hozirgi zamon sifatdoshi, kelasi zamon sifatdoshi. Sifatdoshlarni hosil qiluvchi maxsus grammatik ko‘rsatkichlar sifatdoshning nisbiy zamon ko‘rsatkichi ham sanaladi.

O‘tgan zamon sifatdoshi predmetning nutq so‘zlanib turgan vaqtdan ilgari bo‘lgan harakat belgisini anglatadi. –gan (-kan, -qan) grammatik ko‘rsatkichlari bilan yasalgan sifatdosh o‘tgan zamon sifatdoshini hosil qiladi: *Murabbiysi bo‘lmagan odamni hayot o‘zi tarbiyalab qo‘yadi («Otalar so‘zi»).*

Hozirgi zamon sifatdoshi predmetning nutq so‘zlashib turgan vaqtida davom etayotgan harakat belgisini anglatadi.

Hozirgi zamon sifatdoshi –yotgan, -vchi (-uvchi) affikslarini qo‘shish bilan hosil bo‘ladi: *Adolat biz qurayotgan jamiyatning mezoni bo‘lmog‘i darkor (I.A.Karimov). Elmurod bu erga keluvchi mehmonlarning hammasini tanib oldi (P.Tursun).*

Kelasi zamon sifatdoshi predmetning nutq so‘zlanib turgan vaqtdan keyin bajariladigan harakat tarzidagi belgisini anglatadi. Kelasi zamon sifatdoshi –r (-ar), -digan, -ajak affikslari bilan yasaladi: *Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt (Maqol). Dehqon kelasi kuzda oladigan hosilining g‘amini shu kuzdan ko‘radi (M.Ismoiliy).*

Sifatdosh fe’l shaklining «sifatdosh» deb atalishi, uning sifat singari predmetning belgisini bildirishiga ko‘radir. Sifatlar predmetning rangi, hajmi, mazasi, xususiyati kabilarni bildirsa, sifatdosh predmetning harakat va holat belgisini anglatadi.

Demak, sifatdosh sifatga xos bo‘lgan grammatik xususiyatlarga ham egadir, ya’ni:

1) sifatdosh morfologik jihatdan o‘zgarmaydi (egalik, kelishik, ko‘plik affikslarini olmaydi);

2) sifatdosh otga bog‘lanib kelib, predmetning harakat belgisini bildiradi va gapda sifatlovchi vazifasini bajaradi: Ko‘klam quyoshidan ko‘kargan qirlar, ko‘m-ko‘k (H.Olimjon). Xadichabegim yurt uchun qayg‘uradigan bir malika ekanini ko‘rsatishni sevardi (Oybek).

3) sifatdosh otlashish xususiyatiga ega, bunday holda sifatdosh bog‘lanib kelgan ot qo‘llanmaydi va sifatdosh ot kabi so‘z o‘zgartiruvchi (egalik, kelishik, ko‘plik affikslarini) affikslarni oladi, ot singari sintaktik vazifalarni (ega, to‘ldiruvchi, qaratuvchi) bajaradi: Yo‘lni bilgan qoqilmaydi (Maqol). Qishloq xo‘jaligida bevosita ishlab chiqaruvchining o‘zi xo‘jayin bo‘lishi shart (I.Karimov). Ko‘p yurgandan so‘rama, ko‘p ko‘rgandan so‘ra (Maqol). Dushmanga nafrati bo‘lmaganning Vatanga muhabbati bo‘lmas (Maqol).

Harakat nomi. Ish-harakatning atamasi bo‘lib, gapda otga xos vazifalarni bajarishga mos bo‘lgan fe’l shakli harakat nomi deyiladi: Ilm-fanga intilish insonning eng oliy ma’naviy harakatlaridandir. CHavandoz bu gaplarni Ertoevga aytishini ham, aytmaslikni ham bilmay turgandi (O.YOqubov). Mustaqilligimiz tufayli xalq va Vatan tarixi, boy ilmiy va adabiy merosga xolisona yondashishning guvohi va shohidi bo‘lmoqdamiz (Rahim Vohidov) gaplaridagi intilish, aytishni, aytmaslikni, yondashishning fe’l shakllari harakatning atamasi (nomi) bo‘lib, gapda otga xos ega, to‘ldiruvchi, qaratuvchi vazifalarini bajargan.

Harakat nomi quyidagi shakl yasovchi affikslar bilan yasaladi:

1) fe’l negiziga –sh (-ish) qo‘shish bilan (unlidan so‘ng –sh, undoshdan so‘ng –ish): o‘qish, yozish, ishlash, chiqish kabi;

Harakat nomining –sh (-ish) affiksi bilan yasalgan shakli otga yaqin turadi, shuning uchun ham bu shaklda harakat nomi otga ko‘chishga moyil bo‘ladi.

2) fe’l negiziga –v (-uv) qo‘shish bilan (unlidan so‘ng –v, undoshdan so‘ng –uv): ishlov, bag‘ishlov, boruv, keluv kabi;

Bu affiks bilan yasalgan harakat nomi hozirgi o‘zbek tilida kam ishlatiladi;

3) fe’l negiziga -moq qo‘shish bilan: o‘smoq, ulg‘aymoq, o‘rganmoq kabi.

Harakat nomining -moq affiksi bilan yasalgan shakli fe’lga juda yaqin turadi, chunki har qanday fe’lning bosh shakli yo buyruq-istak mayli shaklida esla, shosh kabi; yoki eslamoq, shoshmoq kabi harakat nomi shaklida olinadi.

Harakat nomi leksik-semantik jihatdan harakat tushunchasini anglatadi. SHu jihatdan harakat nomi fe’lga xos grammatik xususiyatlarga ega:

1) o‘timli-o‘timsizlik ma’nosini ifodalaydi: o‘rganish, ko‘rmoq - o‘timli harakat nomi; yugurish, ishonmoq - o‘timsiz harakat nomi;

2) nisbat ma’nosiga ega: yutmoq - aniq nisbat, yasanmoq - o‘zlik nisbat, baholanmoq - majhullik nisbati, qiziqtirmoq - orttirma nisbat;

3) harakat nomining bo‘lishsiz shakli faqat –maslik affiksi bilan yasaladi: aytish – bo‘lishli harakat nomi, aytmaslik – bo‘lishsiz harakat nomi.

4) harakat nomi zamon ma’nosiga ega emas. Lekin ma’lum bir qulay sharoitda unda hozirgi-kelasi zamon ma’nosi aks etadi: Oilada farzand tarbiyasiga har tomonlama e’tibor bermoq lozim (O.Karimova).

5) boshqa fe’l shakllari singari harakat nomi boshqarish xususiyatiga ega.

SHuningdek, ish-harakatning nomini bildirish jihatdan harakat nomi otga xos bo‘lgan grammatik xususiyatlarga ham ega, ya’ni:

1) harakat nomi son, egalik va kelishik affikslarini oladi;

2) harakat nomi ot singari ega, qaratqich aniqlovchi, to‘ldiruvchi ko‘makchili shaklda hol va kesim vazifalarini bajaradi: *Zumradning tikishi – go‘zal, ipakni turlashi*

ham mohirona (O.). Bilim va tushunishga intil kunu tun (YUsuf Xos Xojib). Rais Jo‘raboev bilan jiddiy tortishuvdan so‘ng juda qattiq asabiylashdi (SH.R.). O‘zini olim, fozilman deb maqtanish, shu bilan g‘ururlanish jaholatning bir ko‘rinishidir («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»).

6- ilova

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1 Shart maylidagi fe’llarni toping.

A) tozalaysan, yg‘jishtirasan, tushuntirasan V) ochilsa, ko‘rsangiz, sezmasak S) unutma, ug‘otma, shoshilmaylik D) boryapman, eriyapti, qatnayapti E) ketmoqdaman, kuzatmoqdamiz, foydalanmoqdamiz

2 Biz teatrga bormoqchimiz. Ushbu gapning kesimi qaysi mayldagi fe’l bilan ifodalangan?

A) buyruq-istak V) ijro (xabar)
S) maqsad D) shart E) shartli

3. Buyruq-istak mayliga xos to‘g‘ri ta’rifni toping.

A) harakatning bajarilish-bajarilmasligini ifodaslaydi V) so‘zlovchining istagi bilan bg‘liq holdagi undash, shu harakatga da’vat etish, qo‘zg‘atish ma’nosini ifodaslaydi. S) payt va istak ma’nolarini anglatadi. D) so‘zlovchining istagi bilan bojliq iarakatni bildiradi

E) V va D.

4. Berilgan gapdagi fe’l maylini aniqlang. *Jaili chqqib yurmasin tag‘in.*

A) shart V) buyruq-istak
S) ijro D) maqsad E) shartli.

5 *Yoqubjon tezroq borsa ekan* gapidagi fe’l maylining ma’nosini aniqlang.

A) *xabar ma’nosi;* B) *shart ma’nosi;*
C) *istak ma’nosi;* D) *buyruq ma’nosi;* E) *V va S*

6. Qaysi fe’l mayllari *edi* to‘liqsiz fe’li bilan qo‘llana oladi?

A) *shart mayli;* B) *maqsad mayli;*
C) *buyruq-istak mayli;* D) *xabar mayli;* E) *A, V, D*

***7. Etakchi va ko‘makchi fe’llardan tashkil topgan birikuvlarda etakchi fe’l qanday qo‘shimchalarni** qabul qila olmaydi?*

A) so‘z yasovchi qo‘shimchalarni V) shakl yasovchi qo‘shimchalarni S) so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalarni D) so‘z yasovchi va shakl yasovchi qo‘shimchalarni E) A, V, S.

8. Berilgan ko‘makchi fe’ldan qaysi biri deyarli barcha fe’llar bilan qo‘llana oladi?

A) *boshla;* B) *yubor;* C) *tashla;*
D) *tushdi;* E) *barchasi to‘g‘ri*

9 Qanday fe’llar to‘liqsiz fe’l hisoblanadi?

A) shaxs-son va zamon qo‘shimchalarini qabul qilmaydigan fe’llar V) yakka holda ish-harakat ma’nosini bildirmaydigan fe’llar S) nutq maqsadi uchun talab qilingan ammo tushirib qoldirilgan zarur bo‘lakni ifodalagan fe’llar D) boshqa so‘zlar bilan birgalikda qo‘llanadigan fe’llar E) V, D.

10 Qaysi gap tarkibida *o‘tirmoq* fe’li etakchi (mustaqil fe’l) hisoblanadi?

A) U chordana qurib o‘tirdi. V) Yigit bosh ko‘tarmay ishlab o‘tiribdi. S) Aqlli bo‘lsang, shunaqa gaplarni gapirib o‘tirarmiding? D) Men sodda uning gapiga ishonib o‘tiribman. E) Barcha gaplarda.

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati

1, M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH. Yo‘ldosheva. Ona tili. “MOLIYA-IQTISOD” nashriyoti, Toshkent, 2007-yil.
2. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti.
3. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfemika. So‘z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. M.Hamroyev. O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi. TDPU, Toshkent, 2007-yil.

GLOSSARIY

Harakat nomi - ish-harakatning nomini bildirib, zamon va shaxs-sonni ko‘rsatmaydigan fe’l shaklidir. U fe’l o‘zak-negiziga -sh, -ish, -v, -uv -moq (-mak) qo‘shimchalarini qo‘shib yasaladi: yozmoq, demak. o‘qish, yozish, o‘quv, yozuv. Harakat nomlarining bo‘lishsiz shakli quyidagicha yasaladi: o‘qish – o‘qimaslik. Harakat nomlari tuslanmaydi, otlar kabi turlanadi, egalik, kelishik va ko‘plik qo‘shimchalarini oladi. Gapda ega, ot kesim, to‘ldiruvchi, qaratqich aniqlovchi bo‘lib keladi: O‘qimoq -
yuksalmoq. Botirlar qo‘rquvni bilmaydi. O‘qishning foydasi katta.

Ravishdosh - ish-harakatning belgisini, uning maqsadini, paytini bildirgan fe’l shakli: jo‘shib kuylamoq, o‘qigani kelmoq, kelguncha kutmoq.

Sifatdosh - narsa-buyumning belgisini harakat orqali bildiradigan fe’l shakli. Sifatdosh fe’l singari ish-harakatni anglatib, zamon, nisbat, bo‘lishli-bo‘lishsizlikni bildiradi: qolgan - bo‘lishli, o‘tgan zamon, aniq nisbatda. Sifatdosh sifat kabi otga bog‘lanib, uning belgisini bildiradi, gapda aniqlovchi yoki kesim bo‘lib keladi: Talabalar berilgan topshiriqni bajarishdi. Vazifalar bajarilgan. Sifatdoshlarning bo‘lishsiz shakllari quyidagicha yasaladi: borgan– bormagan, borayotgan – bormayotgan, borar – bormas, o‘qigan emas.

19-20-MA’RUZA. MAVZU: FE’LLARNING YASALISHI. FE’LNING TUZILISH JIHATDAN TURLARI: SODDA VA QO‘SHMA FE’LLAR (4 soat)

1-ilova

Ma’ruza mashg‘uloti mavzulari

1 O‘zbek tilida fe’llar so‘z yasalish xususiyati
2 Morfologik usul
3 Sintaktik usulga

2-ilova

Mashg‘ulot Mavzusi: **Hozirgi va kelasi zamon fe’llari.**

Mashg‘ulot rejasi:

1 O‘zbek tilida fe’llar so‘z yasalish xususiyati

2 Morfologik usul
3 Sintaktik usulga

3-ilova

Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:

1.Hozirgi zamon fe'llarining qanday turlari mavjud?
2.Kelasi zamon fe'llarining turlariga misollar yozing.
3.Hozirgi zamon fehllari qaysi zamon shakllari o'rnida qo'llanishi mumkin?

4-ilova

O'zbek tilida fe'llar so'z yasalish xususiyatiga ega. Fe'llar ikki xil usul bilan yasaladi: morfologik (affiksatsiya) usuli va sintaktik (kompozitsiya) usuli.

1. Morfologik usulga ko'ra, maxsus fe'l yasovchi affikslar yordamida boshqa so'z turkumlaridan (ot, sifat, son, olmosh, ravish, undov, taqlidiy so'zlardan) fe'l yasaladi.

Hozirgi o'zbek tilida fe'l yasashda quyidagi so'z yasovchi affikslar qo'llanadi:

-la affiksi: kuyla, bahola; tozala, oqla; sizla; tezla, sekinla; ufla, dodla; shitirla, shivirla kabi. Bu affiks unumdor fe'l yasovchi affiks sanalib, barcha so'z turkumlaridan fe'l yasaydi.

-a affiksi: tuna, o'yna; qiyna, YAsha; guldura, shildira kabi. Bu affiks yordamida ot, sifat, taqlid so'zlardan fe'l yasaladi.

-r (-ar) affiksi: eskir, qisqar, ko'kar kabi. Bu affiks yordamida sifat asosidagi fe'l yasaladi.

-y (-ay) affiksi: ulg'ay, kuchay, qoray; ko'kay, ozay kabi. Bu affiks sifat va ravish asosidan fe'l yasaladi.

-sira affiksi: suvsira, yotsira; sizsira, sensira kabi. Bu affiks bilan ot, sifat, olmoshdan fe'l yasaladi.

-lan affiksi: otlan, shodlan, zavqlan, ikkilan kabi. Bu affiks tuzilishiga ko'ra qo'shma (-la+n) bo'lib, ot, sifat, sondan fe'l yasaydi hamda fe'l nisbat (o'zlik)ni shakllantiradi.

-lash affiksi: gaplash, bahslash, birlash, salomlash, xayrlash kabi. Bu affiks ham tuzilishiga ko'ra qo'shma (-la+sh) bo'lib, u ot, son, undov so'zdan fe'l yasaydi hamda fe'l nisbati (birgalik nisbat)ni shakllantiradi.

-i affiksi: changi, boyi, tinchi kabi. Bu affiks bilan ot va sifatdan fe'l yasaladi.

-ik (-iq) affiksi: yo'liq, do'riq, birik, kechik kabi. Bu affiks yordamida ot, sifat, son, ravishdan fe'l yasaladi.

-qir, -ira, -illa affikslari: hayqir, yarqira, yaltira, miltira; taqilla, gurilla, vishilla kabi. Bu affikslar yordamida undov va taqlid so'zlardan fe'l yasaladi.

-ir (-ur) affiksi: gapir, tupur. Bu affiks ham unum so'z yasovchi affiks bo'lib, u ot va undov so'zdan fe'l yasaydi.

-ka, -sa affikslari: ham unum so'z yasovchi affikslar bo'lib, bu affikslar yordamida otdan fe'l yasaladi: iska, suvsa kabi.

2. Sintaktik usulga ko'ra ikki (ba'zan undan ortiq) so'z asosi birikishi bilan yangi so'z qo'shma fe'l yasaladi. Masalan: *Borlig'imizni, boyligimizni, qadriyatlarimizni dunyoga ayon qilmoqdamiz (I.Karimov). Sustkashlik oson ishni mushkullashtiradi, qiyin ishni esa, chorasiz bir ahvolga olib keladi (Tafakkur gulshani).* Bu misollardagi *ayon qilmoqdamiz, olib keladi* fe'llari sintaktik usul bilan yasalgan qo'shma fe'llardir.

Qo'shma fe'llarning qismlari qaysi so'z turkumidan tuzilishiga ko'ra ikki turga bo'linadi: 1) ot+fe'l qolipidan qo'shma fe'llar. Bunday fe'llarda birinchi qism fe'ldan boshqa so'z turkumlari (ot, sifat, undov, taqlid)dan tuzilib, ikkinchi qismi fe'l bo'ladi:

javob bermoq, qo‘l qo‘ymoq, nazar tashlamoq, xursand bo‘lmoq, xafa qilmoq, oh urmoq, yalt etmoq kabi. 2) fe’l+fe’l qolipidan qo‘shma fe’llarning har ikala qismi fe’llardan tuziladi: olib chiqmoq, sotib olmoq, yutib olmoq, ola kelmoq kabi. Bunday qo‘shma fe’llarning birinchi qismi –b (-ib), -a (-y) qo‘shimchasi bilan yasalgan ravishdosh shaklida keladi, tuslovchi qo‘shimchalar ikkinchi qismga qo‘shiladi.

Fe’l+fe’l qolipidagi qo‘shma fe’llar kam miqdorni tashkil etadi.

Qo‘shma fe’llarning har bir qismi o‘z leksik ma’nosini saqlagan holda, birgalikda bitta murakkab harakat tushunchasini anglatadi. SHu jihatdan qo‘shma fe’llar ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalaridan (analitik shakllardan) farqlanadi, chunki bunday fe’llarda leksik ma’no uning birinchi qismi bilan ifodalanib (etakchi qism), ikkinchi qismi esa (ko‘makchi fe’l) unga (etakchi qism ma’nosiga) qo‘shimcha modal ma’no qo‘shadi: *aytib ko‘r, olib tur, ko‘rib chiq* kabi qo‘shilmalarda *aytib, olib, ko‘rib* qismi etakchi, *ko‘r, tur, chiq* qismlari esa ko‘makchi fe’ldir.

Fe’lning modal ma’no ifodalovchi shakllari (formalar)

O‘zbek tilida fe’l o‘ziga xos turli modal ma’nolarga (qo‘shimcha ma’nolarga) ega. Fe’llardagi modal ma’nolar sintetik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakllar vositasida ifodalanadi.

Fe’ldagi modal ma’no sintetik shakl vositasida ifodalanganda, fe’l negiziga ish-harakatning davomliligi, takroriyligi, kuchsizligi kabi qo‘shimcha ma’nolarni qo‘shadigan shakl yasovchi qo‘shimchalarni qo‘shish bilan hosil qilinadi. Fe’llarda modal ma’no yasovchi affikslar quyidagilar:

1) ***–la*** affiksi fe’l negiziga qo‘shilib, takror, davomiylik ma’nosini bildiradi: *savala, ishqala, tirnala, cho‘qila* kabi;

2) ***–gila (-kila, -qila, -g‘ila):*** *yugurgila, turtkila, tortqila, ezg‘ila* kabi. Bu affikslar ham fe’l negiziga qo‘shilib, harakatning davomiyligi, takror ma’nosini bildiradi;

3) ***–(i)msira, -(i)nqira:*** *yig‘lamsira, kulimsira, oqarinqira* kabi. Bu affikslar fe’l negiziga qo‘shilib, harakatning kuchsizlanishini bildiradi;

4) ***–(i)sh*** affiksi ham harakatning kuchisizligini bildiradi: *oqarishdi, to‘lishdi* kabi;

5) ***-qilla:*** *chopqilla*. Bu affiks fe’l negiziga qo‘shilib, harakatning zudlik bilan bajarilish ma’nosini bildiradi.

Fe’ldagi modal ma’no analitik shakl vositasi bilan ham ifodalanadi. Bunday shakl ko‘makchi fe’llar va to‘liqsiz fe’llar yordamida hosil qilinadi: yozib ko‘r, aytib chiq, ko‘ra qol, so‘zlay boshla, borar edi, kelgan emish, olgan ekan kabi.

Ko‘makchi fe’llar bilan shakllangan qo‘shilmalar ikki so‘z shaklidan tashkil topib, birinchi qism leksik ma’no ifodalaydi. SHu tufayli etakchi fe’l deb yuritiladi; ikkinchi qism esa unga birikib grammatik ma’no ifodalaydi va ko‘makchi fe’l sanaladi. Ko‘makchi fe’llar etakchi fe’lning ma’nosiga qo‘shimcha modal ma’nolar qo‘shadi.

Ko‘makchi fe’l tarzida kel, ket, bor, yubor, chiq, o‘t, tur, qol, bo‘l, ol, bil, qo‘y, ber, tashla, ko‘r, boshla kabilar keladi. Bu fe’llar bir tomondan, harakat ma’nosini ifodalab, mustaqil holda leksik birlik sanaladi, ya’ni keldi, borgan, ko‘rmoqchi, bilib kabi; ikkinchi tomondan boshqa fe’l shakliga qo‘shilib, o‘z leksik ma’nosini vaqtincha yo‘qotib, o‘zi aloqador bo‘lgan fe’lning leksik ma’nosiga qo‘shimcha ma’no qo‘shadi va ko‘makchi fe’lga aylanadi. Masalan: yoza boshladi fe’li tarkibidagi boshladi fe’li mustaqil holda boshlanish harakatini ifodalaydi, lekin bu qo‘shilmada o‘z leksik ma’nosini yo‘qotib yozish fe’lining leksik ma’nosiga qo‘shimcha ma’no, ya’ni harakatning endi boshlanish ma’nosini qo‘shgan.

SHu bilan birga ko‘makchi fe’l etakchi ma’nosiga davomiylik, tugallanganlik, takroriylik (yoza tur, yozib tur, aytib bo‘l kabi); harakatning bajarilish imkoniyati (yozib ko‘r, aytib boq kabi); harakatning boshqa shaxsdan so‘zlovchiga yo‘nalishi (aytib ket, olib bor, aytib chiq, ola kel, yozib ol, yozib ber), harakatning bajarilish usuli (yozib tashla, aytib yubor) kabi modal ma’nolarni qo‘shadi.

Fe’llarda modal ma’no juft va takroriy shakllar vositasida ham ifodalanadi. Etakchi fe’l bilan ko‘makchi fe’l bir xil shaklda kelib, juft fe’lni hosil qiladi. Bunda leksik ma’no salmog‘i birinchi qismda bo‘ladi: a ytdi-qo‘ydi, o‘tdi-ketdi, oldi-qoldi kabi.

Ko‘makchi fe’llar fe’lning –b (-ib), -a (-y) bilan yasalgan ravishdosh shakllari bilan birga qo‘llanadi: o‘qib ber, o‘qiy boshla kabi.

Etakchi va ko‘makchi fe’ldan tashkil topgan fe’l shakllarida ko‘makchi fe’l birdan ortiq bo‘lishi ham mumkin: yozib qo‘ya qol, yozib berib qo‘ya qol kabi.

Ko‘makchi fe’lli fe’l shakllarida shaxs-son qo‘shimchalari ko‘makchi fe’llarga qo‘shiladi: yozib chiqdim, yozib chiqding, yozib chiqdik, yozib chiqdingiz kabi.

To‘liqsiz fe’llar

Mustaqil holda ish-harakat ma’nosini ifodalamay, turli fe’l shakllaridan so‘ng (keng ma’noda ot bilan) qo‘llanib, faqat grammatik modal ma’no ifodalaydigan fe’llar to‘liqsiz fe’llar deyiladi. To‘liqsiz fe’llarga edi (-di), ekan (-kan), emish (-mish) kabi fe’l shakllari kiradi. YOzar edi – yozardi, yozar ekan – yozarkan, yozar emish – yozarmish kabi. Bu fe’llar aslida bir e (arxaik er) fe’l negizining turli shakllari bo‘lib, ular hozir ayrim-ayrim so‘z sifatida tushuniladi.

To‘liqsiz fe’l sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi bilan birikib, fe’l zamonlarining analitik usul bilan yasalgan shakllarini hosil qiladi. To‘liqsiz fe’llar edi, ekan, emish turlicha modal ma’nolar ifodalaydi:

1) edi to‘liqsiz fe’li qatnashgan fe’l shaklida ta’kidlash, eslatish, hikoya, davomiylik, takror kabi ma’nolarni bildiradi: Bo‘shagan erlarning bag‘rini pluglarning o‘tkir tig‘lari tilka-tilka qilmoqda edi (H.N.). SHu kuni endi ko‘chaga chiqib edi... (M.Ismoiliy). Ular bir partada o‘tirishar, birga dars tayyorlashar, maktabni bitirgandan keyin qaerga o‘qishga borish haqida maslahatlashar, xayol surishar edi (S.Zunnunova).

2) ekan to‘liqsiz fe’l qatnashgan shakllarda o‘tmishda yuz bergan voqea-hodisaning so‘zlovchiga keyinchalik ma’lum bo‘lganligi va uning davomi ekanligi anglashiladi: Aytishingizdan, oradan hech gap o‘tmagan ekan (A.Qahhor).

3) emish to‘liqsiz fe’li esa noaniqlik, gumon, eshitilganlik ma’nolarini bildiradi: O‘zgarmagan, ammo negadir ikkovining ham bo‘yi juda uzun bo‘lib ketgan emish (S.Ahmad).

To‘liqsiz fe’llar boshqa so‘z turkumlari bilan ham birikib keladi. Bu holda ot kesim tarkibida kelib, bog‘lama vazifasini bajarib, tuslovchi affikslarni oladi: Uy kichkina, lekin yorug‘ va toza edi (O.)

Fe’llarda modal ma’no fe’lning juft va takrorik shakli bilan ham ifodalanadi. Bunday shakl orqali harakatning davomliligi, takrorlanib turishi, tugallanganlik, harakatning voqe bo‘lishiga turlicha munosabat (befarqlik) kabi modal ma’nolar anglashiladi: ayta-ayta, borib-borib, aytsa-aytar, uchadi-ketadi, kelsa-kelibdi, ishlasa-ishlasin kabi.

Fe’l tahlili namunasi	
So‘rog‘i.	To‘liq yoki to‘liqsizligi.

Bo‘lishli yoki bo‘lishsizligi. O‘timli yoki o‘timsizligi. Nisbati. SHaxs-soni Zamon turi. 7. Mayl turi.	Etakchi, ko‘makchi fe’llar aniqlanadi. Vazifadosh (xoslangan) shakllari. Tuzilish turi. Tub yoki yasamaligi. 13. Gapdagi sintaktik vazifasi

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Fe’lning so‘roqlari va grammatik xususiyatlari haqida gapiring. 2. Bo‘lishli fe’llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring. 3. Bo‘lishsiz fe’llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring. 4. O‘timli fe’llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring. 5. O‘timsiz fe’llar va ularning ifodalanishi haqida gapiring. 6. Aniqlik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring. 7. O‘zlik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring. 8. Majhul nisbat va uning ifodalanishi haqida gapiring. 9. Birgalik nisbati va uning ifodalanishi haqida gapiring. 10. Orttirma nisbat va uning ifodalanishi haqida gapiring. 11. Maxsus qo‘shimchasiz orttirma nisbat ifodalagan fe’lga misol keltiring. 12. Birdan ortiq orttirma nisbat qo‘shimchasi qo‘shilgan fe’llarga misollar keltiring. 13. Qaysi nisbatdagi fe’llardan orttirma nisbat hosil qilib bo‘lmaydi? 14. Orttirma nisbatdagi fe’llardan qaysi nisbatdagi fe’llarni hosil qilish mumkin? 15. Birdan ortiq nisbat qo‘shimchasi qo‘shilgan fe’llarga 4 ta misol ayting.16. Tuslanish nima? 17. **–m, -ng, -k, -ngiz** qo‘shimchalari qanday shakldagi fe’llarga qo‘shiladi? 18.**–man, -san, -miz, -siz** kabi qo‘shim -chalar qanday shakldagi fe’llarga qo‘shiladi? 19. **–gin, -ay, -ing(iz)** kabi qo‘shimchalar qanday shakldagi fe’llarga qo‘shiladi? 20. O‘tgan zamon fe’llarining turlari haqida gapiring.

Fe’l turkumi bo‘yicha test savollari:

1. *Go‘dakday uxlaydi tunda odamlar.* Ushbu misoldagi fe’lning sintaktik vazifasini ko‘rsating.

A) ega B) to‘ldiruvchi C) kesim D) aniqlovchi

2. *Biz muzeyga bordik*. Ushbu gapdagi *bordik* so‘zining lug‘aviy ma’nosi qaysi qatorda berilgan?

A) fe’l B) I shaxs ko‘plikda C) o‘tgan zamon fe’l

D) lug‘aviy ma’nosi berilmagan.

3. *Kuyindi, kuyundi* so‘zlari o‘zaro qanday farqlanadi?

A) kuyundi – fe’l, kuyindi – ot B) kuyindi – fe’l, kuyundi – fe’l C) kuyindi talaffuz qilinadi, kuyundi yoziladi D) kuyundi talaffuz qilinadi, kuyindi yoziladi

4. Harakat fe’llariga to‘g‘ri ta’rif berilgan javobni toping.

A) shaxsning jismoniy faoliyati natijasida ro‘y bergan harakatni bildiruvchi fe’llar B) narsaning jismoniy faoliyati natijasida ro‘y bergan harakatni bildiruvchi fe’llar

C) shaxsning aqliy faoliyati natijasida ro‘y bergan harakatni bildiruvchi fe’llar D) A, B.

5. Holat fe’llariga to‘g‘ri ta’rif berilgan javobni toping.

A) shaxslarning ichki kechinmalarini ifodalovchi fe'llar B) narsalarning bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga o'tishini ifodalovchi fe'llar C) A, B D) shaxslarning bir ko'rinishdan boshqa ko'rinishga o'tishini ifodalovchi fe'llar.

6. Quyidagi fe'llardan qay biri nutqiy faoliyat fe'llari guruhiga kiradi? 1) *gapirmoq; 2) pichirlamoq; 3) yozmoq;*
4) o'qimoq; 5) ijod qilmoq; 6) fikrlamoq; 7) ekmoq;
8) duduqlanmoq; 9) yurmoq;10) qaramoq; 11) fahmlamoq;
12) isitmalamoq

A) 8, 11,12. B) 1, 4, 5 C) 3, 4, 5, 11. D) 1, 2, 8.

7. Bo'lishlilik shakli orqali bo'lishsizlik ifodalangan gapni toping.

A) Men xalqni aldamoqchi emasman! B) Yordam bersangiz, kolxozni ko'tarish uchun kuchquvvatimni ayarmidim?! C) Tez orada uncha-muncha mexanikka gap bermay qo'yadi u ... D) Bu hol qishloqda sezilmay qolmaydi.

8. Quyidagi yasama sifat va otlarning qaysi biri fe'lning bo'lishsizlik shakli bilan omonim bo'lolmaydi?

A) *qaynatma (sho'rva)* B) *sochma (o'q)*
C) *suzma* D) *qo'llanma*

9. Bo'lishlilik ma'nosi ifodalangan qatorni aniqlang.

A) Otaqo'zi shaharga kelsa, kirmay ketmaydi. B) U na o'qiydi, na yozadi. C) Bugungi ishni ertaga qo'yma. D) Gapiradi-ya, gapiradi, gapirib bo'pti.

10.Fe'l nisbatlarining ta'rifi to'g'ri berilgan javobni toping.

A) Harakatning kim yoki nima tomonidan bajarilishini bildiruvchi fe'l shakllari B) bajaruvchining holat jarayoniga qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari
C) bajaruvchining harakat jarayoniga qay darajada ishtirok etishini bildiruvchi fe'l shakllari D) B,C.

6-ilova

Bilimlarni tekshirish uchun test topshiriqlar

1. Hozirgikelasi zamon fe'li qaysi qatorda berilgan?
A) ishlayman, o'sadi, o'qiysiz
V) borar edi, o'qir, ishlar edim
S) ko'rganman, yuborgansiz, chaqirgan
D) yozibman, kelibsiz, ekibdi
E) bormoqchi edim, olmoqchi edik, ko'rmoqchi eding.

2 <u>Biz teatrga bormoqchimiz</u>. Ushbu gapning kesimi qaysi mayldagi fe'l bilan ifodalangan?
A) buyruq-istak V) ijro (xabar)
S) maqsad D) shart E) shartli

3 Qaysi qatordagi fe'l hozirgi zamonni bildiradi?
A) yugurib turibdi V) o'qib chiqibdi
S) alqab yuboribdi D) kulib gapiribdi E) sayrab qolibdi.

4 Quyidagi gapda qaysi zamon mahnosi ifodalangan? <u>Bugun 62-poezd bilan Buxoroga jo'nab ketyapman</u>.
A) o'tgan V) hozirgi S) kelasi
D) hozirgi va kelasi E) zamon ma'nosi ifodalanmagan.

5. <u>Bugun terimni boshlayapmiz.</u> Gapda qaysi zamon ma'nosi ifodalangan?
A) o'tgan zamon V) hozirgi zamon S) kelasi zamon D) hozirgi va kelasi zamon E) zamon ma'nosi ifodalanmagan.

6 Aytmagan bo‘lsalar, ana endi eshitamiz. Nima - deding, mulla Yo‘ldosh? Gapda qaysi zamon ma’nosi ifodalangan?

A) hozirgi zamon V) hozirgi-kelasi zamon S) o‘tgan zamon D) kelasi zamon E) yaqin o‘tgan zamon

7 Qorong‘ida dala aylanib, nimani ham ko‘rardingiz. Bu gapda qaysi zamon ma’nosi ifodalangan?

A) o‘tgan zamon V) hozirgi zamon S) kelasi zamon D) hozirgi va kelasi zamon E) zamon ma’nosi ifodalanmagan

8 Musobaqa g‘olibi minbarga ko‘tariladi (qarsaklar). Mustaqil O‘zbekistonning madhiyasi yangraydi. Ushbu gapda qaysi zamon ma’nosi ifodalangan?

A) hozirgi zamon V) o‘tgan zamon

S) uzoq o‘tgan zamon D) hozirgi-kelasi zamon E) kelasi zamon.

9. O‘tgan zamon davom fe’li qaysi qatorda qo‘llangan?

A) Gimnastika badan g‘uborini tozaslaydi. V) Bu shovqin-suron hech nimani isbotlamadi. S) Uchrashuv do‘stona va samimiy sharoitda o‘tdi. D) Bu institutning dovrug‘ini ko‘p eshitganman. E) Cho‘lning taqir betida bir parcha qor ko‘rinmas edi.

10.Otdan yasalgan fe’llarni toping.

A) ko‘kish, borish, ishlash V) tuzla, davola, suvsa S) kelay, yozay, to‘qi

D) yozar, oqar, cho‘zar E) yig‘in, tugun, yashirin.

7-ilova

Talabalarning mustaqil izlanishlari uchun topshiriqlar:

Badiiy asarlardan shu mavzuga doir misollar to‘plab, tahlil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan darsliklardan hozirgi va kelasi zamon fe’llari bo‘yicha berilgan ma’lumotlarni konspektlashtirish

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.

GLOSSARIY

Turlanish - otlarning kelishik yoki egalik qo‘shimchalarini olib o‘zgarishi: bolaning, dalani, kitobga, uyda, ko‘chadan; ko‘ylagim, bobong, onasi.

Tuslanish - fe’lning shaxs-son qo‘shimchalarini olib o‘zgarishi: bordim, bording, bordik, bordingiz, boraman, borasan, boray, borgin, borsin.

Tuslanadigan ravishdoshlar - -b(-ib), -a,-y, -gudek qo‘shimchalari bilan yasalib, shaxs-son qo‘shimchlari yordamida o‘zgaradigan ravishdoshlar: boribman, ko‘rasan, o‘qiyman, o‘qigudeksan.

Tuslanmaydigan ravishdoshlar - -gach(-kach, qach), guncha(-kuncha, quncha), gani (-kani, -qani, -gali) qo‘shimchalari bilan yasalib, shaxs-son qo‘shimchlarini qabul qilmaydigan ravishdoshlar.

To‘liqsiz fe’llar - o‘zining lug‘aviy ma’nosini yo‘qotib, yordamchi so‘zlarga yaqinlashib qolgan fe’llar. Bularga edi, ekan, emish, emas so‘zlari kiradi (esa bog‘lovchilar guruhiga o‘tib ketgan).

21-22-MA’RUZA. MAVZU: RAVISH. RAVISHNING GRAMMATIK MA’NOSI, MORFOLOGIK BELGILARI VA SITAKTIK VAZIFASI (4 soat)

1-ilova

Ma’ruza mashg‘uloti mavzulari

1. Ravish so‘z turkumi haqida umumiy ma’lumot
2.Ravishning leksik-grammatik xususiyatlari
3. Ravishlarning mahno jihatdan turlari

2-ilova

Mashg‘ulot mavzusi:

Ravish, uning grammatik xususiyatlari, ma’no guruhlari.

Mashg‘ulot rejasi :

1. Ravish so‘z turkumi haqida umumiy ma’lumot
2. Ravishning leksik-grammatik xususiyatlari
3. Ravishlarning ma’no jihatdan turlari
4. Ravishlarda daraja
5. Ravishlarning yasalishi
6. Ravishlarning otlashishi
7. Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari

3-ilova

DASTURLASHTIRILGAN TOPSHIRIQ SAVOLLARI:

Ravishning tahrifi va so‘roqlari haqida gapiring.
Ravishlar qanday so‘zlarga bog‘lanib keladi? Misollar keltiring.
Ravishning qanday turlari mavjud?

4-ilova

Ravish so‘z turkumi haqida umumiy ma’lumot

- Ish-harakat va holatning belgisini bildirgan so‘zlar turkumi ravish deyiladi. Ravish *qanday?, qachon?, qaerda?, qaerdan?, qaerga?, qancha?, nega?, qaydarajada?* kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Ravish ko‘pincha fe’lga bog‘lanib, ish-harakatning qay holatda bajarilishini, paytini, o‘rnini, daraja-miqdorini, sababini, maqsadini, bildiradi.
- Uning yuzida bolalarcha samimiy kulgi zohir bo‘ldi.

Ravishlar quyidagi xususiyatlarga ega:

1) biror so‘z bilan bog‘langanda, o‘z shaklini o‘zgartirmaydi, ya’ni so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalarni olmaydi: *tez yurdi;*
2) o‘ziga xos yasalish tizimiga ega: *kamtarona, birin-ketin, shu kuni;*

3) harakat belgisini qisman bo‘lsa ham darajalab ko‘rsata oladi: *tez, tezroq, juda tez.* 4) gap tarkibida ko‘pincha hol *(Ikkisi do‘stlarcha ko‘rishdi.)* ot-kesim *(Uning bahonasi ko‘p.),* ba’zan otga bog‘lanib, aniqlovchi (*Ko‘p odam to‘plandi.* Uning yuzida bolalarcha samimiy kulgi zohir bo‘ldi.) bo‘lib keladi.

Ravishlarning ma’no jihatdan turlari
Ravishlar ma’no jihatdan olti turga bo‘linadi:

1. Holat ravishlari
2. Payt ravishlari
3. O‘rin ravishlari
4. Sabab ravishlari
5. Maqsad ravishlari
6. Daraja miqdor ravishlari

Holat ravishlari ish-harakatning qanday holatda yoki qay tarzda bajarilganligini bildirib, *qanday?, qayholda?, qaytarzda?* so‘roqlariga javob bo‘ladi: *asta, sekin, tez, birdan, qo‘qqisdan, to‘satdan, yonma-yon, qo‘lma-qo‘l, omon-eson, zo‘rg‘a, piyoda, yayov, do‘stona, qahramonona, qadrdonlarcha, naridan-beri, yana, bazur(bahuzur)* va b.

Payt ravishlari ish-harakatning bajarilish paytini bildirib, *qachon?, qachongacha?, qachondan?, qachondan beri?* kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi*: avval, oldin, ilgari, endi, hozircha, hanuz, hamisha, erta-indin, qishin-yozin, so‘ng, keyin, kechgacha, kechadan, hozir, doimo, tez orada, shu kuni, bu orada.* Payt va o‘rin ravishlarini payt va o‘rin otlaridan farqlash lozim; agar kelishik qo‘shimchalari ajratilsa va otligicha qolsa, bu otdir: *yozda, qishda, bahorda; ko‘chada, uydan;* agar kelishik qo‘shimchasi ajralgandan keyin boshqa turkum so‘ziga aylansa, bu ravishdir: *yaqinda, boshda (avval), kunda, chetda* va b.

O‘rin ravishlari ish-harakatning bajarilish o‘rnini bildirib, *qaerda?, qaerdan?, qaerga?* so‘roqlariga javob bo‘ladi: *oldinda, orqada, o‘ngda, chapda, quyidan, uzoqdan, ichkaridan, yuqoriga, berida, pastda, o‘rtada, tashqarida, olg‘a, u yoq-bu yoqqa* va b.

Sabab ravishlari ish-harakatning bajarilish sababini bildirib, *nega*? so‘rog‘iga javob bo‘ladi: *noiloj, ilojsiz(likdan), chorasiz(likdan)*

Maqsad ravishlari ish-harakatning bajarilish maqsadini bildiradi va *nega?, nima maqsadda?* so‘roqlariga javob bo‘ladi: *atay(in), ataylab, jo‘rttaga, qasddan, qasdma-qasdiga, azza-bazza*

Daraja-miqdor ravishlari ish-harakatning darajasini, miqdorini, belgining darajasini, narsa-buyumning noaniq miqdorini bildirib, *qancha? qaydarajada?* so‘roqlariga javob bo‘ladi: *juda, eng, g‘oyat(da), nihoyatda; ko‘p, mo‘l, bisyor, oz, kam, picha, ancha, bir talay, bir oz, ko‘plab.* Bular o‘z ichida quyidagi guruhlarga bo‘linadi: 1) kuchaytiruv ravishlari: a) tasdiq – *eng, juda, nihoyat(da), g‘oyat(da), yana(da) tag‘in, tamomila, uncha, ozmuncha, nah, o‘ta, qoq, zir;* b) inkor – *sira, asti, aslo, zinhor, hargiz, hadeganda;* 2) kuchsizlantiruv ravishlari: *arang, zo‘rg‘a* (bu so‘z *sal* so‘ziga sinonim bo‘lganidagina daraja-miqdor ravishi hisoblanadi, boshqa o‘rinlarda holat ravishidir: *Tutun orasidan zo‘rg‘a (sal) ko‘rinar edi), zo‘r-bazo‘r, xiyol, sal, sal-pal.*

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1 **Chang va tutundan mashina va odamlar zo‘rg‘a ko‘rinar edi.** ***Ushbu gapda qo‘llangan ravishning turini aniqlang.***

A) holat ravishi V) payt ravishi

S) daraja-miqdor ravishi D) sabab ravishi E) o‘rin ravishi.

2 ***Kampir xiyla uzoqlashganda, Nurmatjon qichqirdi.*** **Ushbu gapda ravishning qaysi turi mavjud*?***

A) *payt ravishi* V) *o‘rin ravishi*

S) *daraja-miqdor ravishi* D) *holat ravishi* E) *ushbu gapda ravish qo‘llanmagan.*

3 **Berilgan gapdagi ravishning ma’no turini ko‘rsating.** ***Ana shu qishloq boshida balandgina bir*** *tepalik bor.*

A) tarz(holat) ravishi V) o‘rin ravishi S) payt ravishi D) miqdor-daraja ravishi E) bu gapda ravish yo‘q.

4 **Berilgan so‘zlardan o‘rin ravishlarini aniqlang.**

A) majburan, tez, uyda V) aniq, mar dlarcha, o‘rtada S) pastga, Toshkentdan, o‘rtada D) quyi, chetda, oldinga E) o‘rtadan, hali, chetdan.

5 ***Intizomsiz kishi hech qaerda muvaffaqiyatga erishmaydi*****. Ushbu gapda ravishning qaysi turi mavjud?**

A) payt ravishi V) o‘rin ravishi

S) daraja-miqdor ravishi D) holat ravishi E) Ushbu gapda ravish qo‘llanmagan.

6 ***Qaysi turkum so‘zlari ish-harakat va holatning belgisini anglatadi*****?**

A) sifatlar V) olmoshlar

S) sifatdoshlar D) ravishlar

E) yuklamalar.

7 **Faqat ravishlar berilgan qatorni aniqlang.**

A) tiklab, pag‘alab, mo‘ylab V) qarab, aqrab, mansab S) yonlab, egatlab, dastlab D) uyalab, boshlab, matlab

E) haftalab, kilolab, saharlab

8 **Ravishni toping.**

A) Pak-pakana bo‘yi bor, etti qavat to‘ni bor. V) G‘ulomjonning oppoq yuzi issiqdan qizargan edi. S) Mana, begim, falokat! Bo‘ron boshlandi, - dedi yamshik. D) Vodiylarni yayov kezganda...

E) To‘g‘ri odam egri so‘zdan or qiladi.

9 ***Daraja-miqdor ravishi qatnashgan gapni aniqlang.***

A) Odam o‘ziga yaqin kishining qilcha o‘zgarishini ham darrov sezadi. V) Mashinaning ustini yuvish mayli-yu, ichini tozalash odamni toliqtirib yuboradi. S) Bu yoqda domla otalik qildi-yu, uni aspiranturada olib qoldi. D) Domla Sirojiddinning ilmiy ishiga chindan jon kuydirmasa ham, o‘ziga yordam berdi. E) A, D.

10 ***Ravishni belgilang.***

A) Qudrat unga xatni o‘qitdi. so‘ng tortinibgina so‘radi. V) Saida bo‘lib o‘tgan hangomalarni kula-kula gapirib berdi. S)... teraklarning bo‘ylari balandroq, adlroq ko‘rindi. D) Bu xatlarga samimiy, insoniy tuyg‘ular bitilgan edi. E) Ravish turkumiga oid so‘z qo‘llanmaga

7-ilova

Dasturlashtirilgan topshiriq savollari

1. Ravishlarning daraja ko‘rsatish xususiyatlari haqida gapiring
2. Sodda tub va sodda yasama ravishlarga 3 tadan misol keltiring
3. Sifatga bog‘lanib, belgining belgisini bildirgan ravishga misol keltiring.

8-ilova

Ravishlarda daraja
Ayrim ravishlar sifat kabi darajani ham bildiradi:
1) bosh daraja: U sekin yurdi;
2) qiyosiy daraja: Mashina tezroq yurdi. Sal oldinroq keldi.
3) orttirma daraja: Juda ko‘p paxtia terdi.
4) kuchaytirma daraja: juda-juda charchadi, kuppa-kunduzi kelishdi.

Ravishlarning yasalishi
Ravish yasovchi qo‘shimchalar bilan: g‘olibona, akalarcha.
Ravishlar quyidagi ravish yasovchi qo‘shimchalar yordamida boshqa so‘z turkumlaridan, shuningdek, ravishlardan ham yasaladi:
- ✓ -cha: qisqacha, o‘zicha, boshqacha, bugun cha, istagancha, o‘zbekcha, eskicha.
- ✓ -larcha: qardoshlarcha, o‘rtoqlarcha.
- ✓ -chasiga: yangichasiga, toshkentchasiga, dehqonchasiga.
- ✓ -(s)iga: tikkasiga, yalpisiga, baravariga, birdaniga.
- ✓ -ligicha: xomligicha,tirikligicha, butunligicha, ho‘lligicha.
- ✓ -dek/-day: o‘qdek, qushday.
- ✓ -lab: ertalab, ko‘plab.

So‘zlarni qo‘shib ravish yasash. Bunda qo‘shma, juft va takroriy ravishlar yasaladi. Qo‘shma ravishlar asosan ikki so‘zdan yasaladi va ularning quyidagi turlari ajratib yoziladi:
1) tarkibida u, bu, shu, o‘sha olmoshlari bo‘lgan payt va o‘rin ravishlari: u yoqqa, bu yoqqa, u erga, shu erda, o‘sha erda va b.
2) tarkibida har, hech, hamma, bir so‘zlari bo‘lgan ravishlar: har vaqt, har zamon, har qachon, hech vaqt, hamma vaqt, bir zum, bir necha, hech yoqqa, bir oz...
3) tarkibida alla- elementi bor bo‘lgan ravishlar qo‘shib yoziladi: allaqachon, allavaqt.
Biryo‘la, birmuncha, birvarakayiga, birpas, ozmuncha, birato‘la ravishlari ham qo‘shib yoziladi.

Juft ravishlarning tub ravishlardan hosil bo‘lganlari kam: asta-sekin, bugun-erta va b. O‘rin-payt kelishigidagi bahzi ot va olmoshlar ravishga ko‘chib, juft ravish hosil qilinadi: oyda-yilda, unda-bunda.

Bulardan tashqari, o‘rin-payt va chiqish kelishigidagi so‘zlarning ravishga aylanish holatlari ham uchraydi: yangidan, birdan, birga, boshda, charchamasdan, shoshmasdan, indamasdan kabi.

Ravishlarning otlashishi

Ravishlar ham otlarga xos so‘roqlarga javob bo‘lib ***otlashadi****. Bunda ular ko‘plik, kelishik, egalik qo‘shimchalarini oladi:* ***Ko‘pdan*** *quyon qochib qutulmas.* ***Ko‘pi*** *ketib,* ***ozi*** *qoldi*

- **Ravishlarning tuzilish jihatdan turlari.**

1. Sodda ravishlar: ko‘p, tez, do‘stona.
2. Qo‘shma ravishlar: bir oz, har zamon, ozmuncha.

3. Juft ravishlar: unda-bunda, birin-ketin, omon-eson.
4. Takroriy ravishlar: asta-asta, tez-tez.

9-ilova

MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI:

1.Qaysi gapda tub ravish bor?

A) Biz do‘stona yashaymiz va ishlaymiz. V) Har erni qilma orzu, har erda bor toshu tarozu. S) O‘quvchilar sayohatga qisman ketdilar. D) Majlis kechroq boshlandi. E) Barcha gaplarda bor

2 Otlashgan ravish qaysi gapda?

A) Kasal bolani darrov shifokorga ko‘rsatdik. V) Safimizda qoloqlar butunlay qolmadi. S) CHiroyli kiyingan ahlochilar saf tortishdi. D) Dilshod tunu kun tinmay yigitchasiga ishladi. E) Achchiq xabarni etkazish uchun ko‘plarning yuragi dov bermadi.

3. Ravish qaysi qatordagi gapda harakat belgisini darajalab ko‘rsatyapti?

A) Majlis kech tugadi. V) U ancha jo‘yaklarni oralab chiqdi. S) Majlisga ko‘proq ota-ona kelsa, yaxshi bo‘ladi. D) Bahodir darsdan ertaroq qaytdi. E) Ko‘pni ko‘rgan ko‘p bilar.

4 So‘zlarni takrorlab ravish yasashda qaysi kelishik qo‘shimchalari faol qatnashadi?

A) chiqish kelishigi V) jo‘nalish kelishigi S) tushum kelishigi D) o‘rin-payt kelishigi E) qaratqich kelishigi

5. **Sharofat bibi ro‘molini salgina tuzatib, so‘ri tomon asta yurib bordi.** ***Ushbu gapda ravishning qaysi turi qo‘langan?***

A) o‘rin, holat, daraja-miqdor ravishlari V) daraja-miqdor ravishi S) holat ravishi, o‘rin ravishi D) holat ravishlari E) holat, daraja-miqdor ravishlari

6 Qaysi qatordagi qo‘shma ravish ajratib yoziladi?

A) birpas V) birzum S) biryo‘la
D) qayvaqt E) birvarakay

7 Maqsad ravishi qatnashgan gapni toping.

A) Horib-charchab, zo‘rg‘a-zo‘rg‘a oyoq tashlab, yotoqxonalariga qaytgan vaqtlarida yarim kechadan ancha o‘tib qolgan edi. V) Bu yil azamat dehqonlarimiz fidokorona mehnat qildi. S) Siz odamlarga yaxshi ko‘rinish uchun shunday qilsangiz kerak. D) Erta ekkan xirmon qilur, kech ekkan armon qilur. E) Omonovdek odam sizni tabriklash uchun azza-bazza direktor xonasidan chiqib kelarmidi?

8.Qaysi qatordagi gapda ravish qatnashgan?

A) Bozorda qari cholni o‘g‘ri deya tutdilar, Ura-sura sho‘rlikni podsho sari eltdilar. (H. Olimjon) B) Agar Oftobxon kirib qolmasa, onangdan ajrala yozgan ekansan. C) Bitta emas qo‘ling, qizim, Ikkita-ku, sanab boq: Sanab ko‘rar, yana jim... (T. To‘la)
D) Surishtirib qarasa, Jonfig‘on faqat o‘n etti kun ishlabdi, xolos.
(A. Qahhor) E) U Toshkentda o‘qiydi.

9 Ravishning asosiy morfologik belgisi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A) ravish biror so‘z bilan bog‘lanib, birikma hosil qilganda, hech qanday so‘z o‘zgartiruvchi affiks olmaydi. V) ravish o‘ziga xos yasovchi affikslarga ega.
S) Ravish gapda hol vazifasini bajaradi. D) V va S E) A va V

10 Ot bilan otning takrorlanishi orqali yasalgan ravishlar berilgan qatorni toping.

A) navbatma-navbat, kundan-kun V) biyron-biyron

Ma'ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati

1, M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH. Yo‘ldosheva. Ona tili. "MOLIYA-IQTISOD" nashriyoti, Toshkent, 2007-yil.

2. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti.
3. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfemika. So‘z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. M.Hamroyev. O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi. TDPU, Toshkent, 2007-yil.

GLOSSARIY

Daraja-miqdor ravishlari - ish-harakatning darajasini, miqdorini, belgining darajasini, narsa-buyumning noaniq miqdorini bildirib, qancha?, qay darajada? so‘roqlariga javob bo‘ladigan ravishlardir: juda, eng, g‘oyat(da), nihoyatda; ko‘p, mo‘l, bisyor, oz, kam, picha, ancha, bir talay, biroz, ko‘plab. Bular o‘z ichida quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1) kuchaytiruv ravishlari: a) tasdiq – eng, juda, nihoyat(da), g‘oyat(da), yana(da) tag‘in, tamomila, uncha, ozmuncha, o‘bdan, naq, o‘ta, qoq, zir; b) inkor – sira, asti, aslo, zinhor, hargiz, hadeganda; 2) kuchsizlantir

Holat ravishlari - ish-harakatning qanday holatda yoki qay tarzda bajarilganligini bildiradigan ravishlardir. Ular qanday?, qayholda?, qaytarzda? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi: asta, sekin, tez, birdan, qo‘qqisdan, to‘satdan, yonma-yon, qo‘lma-qo‘l, omon-eson, zo‘rg‘a, piyoda, yayov, do‘stona, qahramonona, qadrdonlarcha, naridan-beri va b.

Juft ravishlar – ikkita har xil asosli so‘zning juftlanib, bir urg‘u bilan aytilishidan hosil bo‘lgan ravishlar. Ular asosan quyidagicha yasaladi: 1) bir-biriga yaqin ma’noli so‘zlardan: eson-omon, ochiq-oydin. 2) antonim so‘zlardan: erta-kech, kecha-kunduz, ochin-to‘qin.

Kuchaytirma darajadagi ravishlar – takrorlangan holda belgini kuchaytirib ifodalaydigan ravishlardir: juda-juda charchadi, kuppa-kunduzi kelishdi.

Payt ravishlari - ish-harakatning bajarilish paytini bildirib, qachon?, qachongacha?, qachondan?, qachondan beri? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladigan ravishlar: avval, oldin, ilgari, so‘ng, bugun, keyin, kechgacha, kechadan, hozir, doimo, tez orada, shu kuni, bu orada, har doim, har kuni.

Payt ravishdoshlari - harakat bajarilish paytini harakat orqali ifodalaydigan fe’l shakli. Bunday ravishdoshlar -gach, -kach, -qach, -guncha, -kuncha, -quncha qo‘shimchalari bilan yasaladi: kelgach, to‘kkach, chiqqach, olguncha, ekkuncha, boqquncha.

Qo‘shma ravishlar - asosan ikki so‘zdan yasaladigan ravishlar. Ularning quyidagi turlari ajratib yoziladi: 1) tarkibida u, bu, shu olmoshlari bo‘lgan payt va o‘rin ravishlari: u yoqqa, bu yoqqa, u yerga, shu yerda va b. 2) tarkibida har, hech, hamma, bir so‘zlari bo‘lgan ravishlar: har vaqt, har zamon, har qachon, hech vaqt, hamma vaqt, bir zum, bir necha. 3) tarkibida alla- elementi bor bo‘lgan ravishlar qo‘shib yoziladi: allavaqt. Biryo‘la, birmuncha, birvarakayiga, birpas ravishlari qo‘shib yoziladi.

Ravish - ish-harakat va holatning belgisini bildirgan so‘zlar turkumi. Ravish qanday?, qachon?, qayerda?, qayerdan?, qayerga?, qancha?, nega?, qay darajada? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi: asta, hozir, pastda, yuqoridan, o‘ngga, ko‘p, noiloj, juda.

Sabab ravishlari - ish-harakatning bajarilish sababini bildirib, nega? so‘rog‘iga javob bo‘ladigan ravishlar: noiloj, ilojsiz(likdan), chorasiz(likdan).

Semantik usul bilan so‘z yasalishi – so‘z ma’nolarining taraqqiyoti natijasida yangi so‘z hosil qilish; bunda bir turkumdagi so‘z boshqa turkumga o‘tadi: o‘g‘il bola (sifat) – O‘g‘il tug‘ildi (ot). O‘quv, yozuv so‘zlari fe’ldan otga o‘tgan; kelishgan yigit (fe’lning sifatdosh shakli sifatga o‘tgan);

Takroriy ravishlar – bir ravishning takrorlanib, bir umumiy urg‘u bilan aytilishidan hosil bo‘lgan ravishlardir. Ular quyidagicha yasaladi: 1) ot bilan ot takrorlanadi: qator-qator, yildan-yilga qadam-baqadam; 2) sifat bilan sifat: chaqqon-chaqqon, uzundan-uzoq, bekordan-bekorga; 3) fe’l shakllari: uzil-kesil, bilinar-bilinmas, bora-bora, ura-sura, qayta-qayta, borib-borib, turib-turib, qo‘yarda-qo‘ymay; 4) ravish bilan ravish: nari-beri, oldinma-ketin, birin-ketin, unda-bunda, hali-beri; 5) olmosh, son, taqlid so‘zlarning aralash holda takrorlanishi: o‘z-o‘zidan, yakka-yakka, taqa-taq.

O‘rin ravishlari - ish-harakatning bajarilish o‘rnini bildirib, qayerda?, qayerdan?, qayerga? so‘roqlariga javob bo‘ladigan ravishlar: oldinda, orqada, o‘ngda, chapda, quyidan, uzoqdan, ichkaridan, yuqoriga, berida, pastda, o‘rtada, tashqarida, olg‘a, u yoq-bu yoqqa va b.

23-MA’RUZA . *MAVZU:* KO‘MAKCHILAR. ULARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI (2 soat)

1 -ilova

Ma’ruza mashg‘uloti dokladlari mavzulari

1.Yordamchi so‘z turkumlari haqida umumiy ma’lumot.
2. Ko‘makchi haqida ma’lumot
3. Ko‘makchilarning qo‘llanishi va ma’nolari
4. Ko‘makchilar va kelishik qo‘shimchalarining ma’nodoshligi

2-ilova

Mashg‘ulot mavzusi:
Yordamchi so‘zlar. Ko‘makchilar, ularning turlari.

Mashg‘ulot rejasi:

1. *Yordamchi so‘z turkumlari haqida umumiy ma’lumot.*
2. *Ko‘makchi haqida ma’lumo*
3. *Ko‘makchilarning qo‘llanishi va ma’nolari.*
4. *Ko‘makchilar va kelishik qo‘shimchalarining ma’nodoshligi .*

3-ilova

DASTURLASHTIRILGAN TOPSHIRIQ SAVOLLARI:

1. Ko‘makchi ta’rifini ayting va misollar keltiring.
2. Ko‘makchi qanday gap bo‘lagi bo‘lib keladi?
3. Sof ko‘makchilar haqida gapiring.
4. Ko‘makchi vazifasida Qo‘llanuvchi so‘zlar haqida gapiring.
5. Ko‘makchi otlar haqida gapiring.
6. Bosh kelishikdagi so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar va ularning ma’nolari haqida gapiring

4-ilova

Yordamchi so‘z turkumlari haqida umumiy ma’lumot.

Atash ma’nosiga ega bo‘lmagan, ma’lum so‘roqqa javob bo‘lmaydigan, gap bo‘lagi vazifasini bajara olmaydigan so‘zlar yordamchi so‘zlar deb ataladi. Bularga ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama kiradi. Yordamchi so‘zlar til tizimida mohiyatan mustaqil so‘zlar bilan qo‘shimchalar oralig‘ida turadi

Ko‘makchi haqida ma’lumot

Ot, olmosh, harakat nomi va otlashgan so‘zlardan (sifat, son, sifatdosh, ravish) keyin kelib, ularni boshqa so‘zlarga tobelanish yo‘li bilan bog‘slaydigan yordamchi so‘zlar **ko‘makchi** deyiladi: O‘z qo‘li **bilan** to‘g‘riladi. Ko‘makchi qaysi so‘zdan keyin kelsa, o‘sha so‘z bilan birgalikda bir so‘roqqa javob bo‘lib, bitta gap bo‘lagi vazifasini bajaradi.

Ko‘makchilar quyidagi turlarga bo‘linadi:

Sof ko‘makchilar lug‘aviy ma’nolarini butunlay yo‘qotib, vazifa jihatidan kelishik qo‘shimchalariga yaqin turadigan so‘zlardir: bilan, uchun, kabi, sari, singari, sayin, uzra, qadar, yanglig‘, tufayli. Bunday ko‘makchilar urg‘u olmaydi, urg‘u ko‘makchidan oldingi so‘zning oxirgi bo‘g‘iniga tushadi .

2. Ko‘makchi vazifasida qo‘llanuvchi so‘zlar (vazifadosh ko‘makchilar gapda o‘rni bilan mustaqil so‘z, o‘rni bilan ko‘makchi bo‘lib keladi. Bular quyidagi turkumlardan ko‘makchilarga ko‘chadi:
1)ot turkumidan: tashqari, bo‘yi, chamasi, holda, yo‘sinda;
2)sifatdan: sababli, tufayli, qarshi, chog‘li, doir, muvofiq, o‘zga, boshqa;
3) fe’ldan: qarab, qaraganda, ko‘ra, tortib, degan, deydigan, osha, bo‘ylab, yarasha, qaramasdan, qaramay, qarata;
4) ravishdan: avval, so‘ng, keyin, burun, ilgari, beri, buyon, asosan, binoan.
Ayrim ko‘makchilar bog‘lovchi vazifasini ham bajaradi. Bunday so‘zlar ko‘makchi-bog‘lovchilar deb yuritiladi: bilan, deb, deya. Masalan: daftar bilan qalam; Umrim shirin o‘tsin deb(deya), u ko‘p mehnat qildi.

4. Bulardan tashqari, o‘z lug‘aviy ma’nolarini saqlagan holda ko‘makchi o‘rnida kelib, harakat bilan predmet o‘rtasidagi turli munosabatlarni ifodaslaydigan so‘zlar ham bor. Bu so‘zlar o‘rin-payt, chiqish kelishigi va egalik qo‘shimchalarini qabul qiladi. Bunday so‘zlar ko‘makchi otlar deb ataladi: old, o‘rta, yon, orqa, ket, ich, ust, tepa, ost, tag, ora, bosh, o‘rin, qosh, yoqa, tomon. Bu so‘zlar belgisiz qaratqich kelishigidagi so‘zdan keyin kelgandagina ko‘makchi ot hisoblanadi: ish ustida, siqig‘i ostida. Aks holda, ular o‘rin otlari hisoblanadi: stolning ustida, uyning oldida. Ko‘makchi otlarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: 1) vertikal yo‘nalishni bildiruvchi: ost, ust, tag. 2) gorizontal yo‘nalishni bildiruvchi: old, orqa, yon, ich, tomon; 3) aralash yo‘nalishni bildiruvchi: o‘rta, ora, bosh.

Ko‘makchilarning qo‘llanishi va ma’nolari

1) bosh kelishikdagi so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar:
Bilan (qisqa shakllari: -la, ila) ko‘makchisi birgalik (Ukasi bilan keldi.), vosita (Qalam bilan yozdi), tez boshlanish (Eshik ochilishi bilan kirishdi), payt (Tuni bilan uxlamadi), holat (Baxtiyorlik bilan jilmaydi) kabi ma’nolarni bildiradi.

Uchun (qisqa shakli: -chun) ko‘makchisi maqsad, sabab, atash, evaz ma’nolarini ifodaslaydi: Bolalar uchun qurildi. O‘qimagani uchun bilmadi. Sen uchun oldim. Yordamingiz uchun rahmat.

Kabi, singari, yanglig‘ (ba’zan misoli so‘zi) ko‘makchilari o‘xshatish, qiyoslash ma’nolarini ifodaslaydi: SHamol kabi yeldi. Cho‘l singari bepoyon. Oy yanglig‘ chiroyli.

Sayin *ko‘makchisi payt, izchillik, davomiylik ma’nolarini ifodaslaydi: Sovuq kun* ***sayin*** *kuchaydi.*

Sari, yoqalab *ko‘makchilari yo‘nalish ma’nosini ifodaslaydi: Dala* ***sari*** *ketdi. Daryo* ***yoqalab*** *yurdi.*

Sababli, tufayli *ko‘makchilari aloqadorlik, sabab ma’nosini ifodaslaydi: Chaqirilmaganligi* ***sababli*** *kelmadi.*

Orqali ko‘makchisi vosita ma’nosini, **chog‘li, chamasi** ko‘makchilari chama, taxmin, ma’nolarini, **osha**, **bo‘ylab** ko‘makchisi makon bo‘ylab sodir bo‘lish ma’nosini, **bo‘yicha** ko‘makchisi moslik ma’nosini, **uzra** ko‘makchisi biror sath bo‘ylab yo‘nalish ma’nosini, **ichra** ko‘makchisi biror predmetning ichida sodir bo‘lish ma’nosini, **degan** ko‘makchisi atash ma’nosini, **bo‘yi** ko‘makchisi davomlilik ma’nosini, **haqida (to‘g‘risida)** ko‘makchilari fikr qaratilgan predmet ma’nosini, **holda (yo‘sinda)** ko‘makchilari holat ma’nosini ifodaslaydi: Pochta **orqali** jo‘natdi. O‘n **chog‘li** odam to‘plandi. Asrlar **osha** yetib keldi. Ariq **bo‘ylab** yurishdi. Urush **haqida** so‘zladi.

2) jo‘nalish *kelishigidagi so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar:*

Tomon *ko‘makchisi ham jo‘nalish, ham bosh kelishikdagi so‘zlarga bog‘lanib, yo‘nalish ma’nosini,* ***qadar*** *ko‘makchisi chegara ma’nosini,* ***ko‘ra*** *ko‘makchisi sabab, ta’kidlash, qiyoslash ma’nolarini,* ***qarshi*** *ko‘makchisi zidlik ma’nosini*

6-ilova

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1 Ko‘makchilar qaysi kelishiklar qo‘shimchalariga sinonim sifatida qo‘llanishi mumkin?

A) qaratqich va jo‘nalish V) jo‘nalish va o‘rin-payt S) o‘rin-payt va chiqish D) chiqish, jo‘nalish va o‘rin-payt Ye) qaratqich, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish

2 Ko‘makchi vazifasida qo‘llanuvchi so‘zlarni belgilang

A) uchun, kabi V) qadar, sari
S) keyin, so‘ng D) ko‘ra, sayin
E) barchasi ko‘makchi vazifasida qo‘llanuvchi so‘zlardir.

3 **Qaysi ko‘makchilar faqat bosh kelishik shaklidagi so‘z bilan qo‘llanadi?**

A) binoan, qarshi V) sayin, sari
S) so‘ng, beri D) qadar Ye) yarasha

4.CHiqish kelishigidagi so‘z bilan qo‘llanadigan ko‘makchini toping.

A) kabi V) qadar S) uchun D) sayin Ye) so‘ng.

5. Qaysi ko‘makchilar qisqargan holda ishlatilishi mumkin?

A) bilan V) uchun S) kabi D) bilan, uchun Ye) bilan, uchun, kabi.

6. *Bu mavzu ustida odamlar bir-birlari bilan qiziqib muzokara qildilar*. Ushbu gapda qo‘llangan ko‘makchilarni toping.

A) bilan V) bu, bilan S) bilan, qildilar D) ustida, bilan
E) qiziqib, bilan.

7. Bosh va qaratqich kelishigidagi so‘z bilan qo‘llanadigan ko‘makchini toping.
A) sayin V) binoan S) beri D) qadar Ye) kabi.

8. **Qaysi ko‘makchilar qaratqich kelishigi shaklidagi so‘zga birikishi mumkin?**
A) sari, qadar V) sayin, tufayli
S) bilan, uchun D) kabi, singari
E) binoan, doir.

9. *Bilan*, *singari* kabi ko‘makchilar qaysi kelishikdagi so‘zlar bilan birga qo‘llanadi?
A) bosh kelishikdagi so‘zlar bilan V) bosh kelishik, jo‘nalish, o‘rin-payt kelishikdagi so‘zlar bilan S) jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishikdagi so‘zlar bilan D) barcha kelishikdagi so‘zlar bilan birga qo‘llanishi mumkin
E) tushum va qaratqich kelishigidagi so‘zlar bilan.

10. Qaysi qatorda *yo‘l* so‘zi *uchun* ko‘makchisi ma’nosida qo‘llangan?
A) Yo‘lga chiqsang, yo‘ldoshing bo‘lsin
V) Bir yo‘li oq, bir yo‘li qizil shoyi
S) Yusufjon qiziqning ijodiy yo‘li juda murakkab, rangbarangdir D) Vatan yo‘lida jonni fido qilishga tayyormiz. Ye) Bo‘taboy uni aldab-suldab yo‘lga solmoqchi bo‘ldi.

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.

GLOSSARIY

Ko‘makchi - ot, olmosh va otlashgan so‘zlardan keyin kelib, ularni boshqa so‘zlarga tobelanish yo‘li bilan bog‘laydigan yordamchi so‘zlardir: Qalam bilan yozdi. Men uchun olibdi. Yaxshi bilan yurdim, yetdim murodga. Ko‘makchi qaysi so‘zdan keyin kelsa, o‘sha so‘z bilan birgalikda bir xil so‘roqqa javob bo‘lib, bir xil gap bo‘lagi vazifasini bajaradi: Paxtani mashina bilan (to‘ldiruvchi) terishdi. Paxtani zavq bilan (hol) terishdi.

Ko‘makchi fe’l - ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi tarkibidagi yetakchi fe’lning ma’nosini izohlaydigan, to‘ldiradigan fe’l: o‘qib chiqdi, ko‘ra boshladi, sotib yubordi, berib tur, yiqila yozdi, gapirib berib qo‘ya qol.

Ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi – tarkibida bir-birini izohlaydigan fe’llar mavjud bo‘lgan qo‘shilma: ko‘rib qoldi, o‘qib yuribdi, yozdi-oldi, gapira ketdi, yasay boshladi.

Ko‘makchi otlar - o‘z lug‘aviy ma’nolarini saqlagan holda ko‘makchi o‘rnida kelib, harakat bilan predmet o‘rtasidagi turli munosabatlarni ifodalaydigan otlar. Bu so‘zlar jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish kelishigi hamda egalik qo‘shimchalarini qabul qiladi. Old(ida), o‘rta(siga), yon(iga), orqasi(dan), ket(ida), ich(iga), ust(ida), tepa(sidan), ost(iga), tag(ida), ora(sida), bosh(ida), qosh(ida), yoqa(sida). Bu so‘zlar belgisiz qaratqich kelishigidagi so‘zdan keyin kelgandagina ko‘makchi ot hisoblanadi: ish ustida, siqig‘i ostida. Aks holda ular o‘rin otlari hisoblanadi: stolning ustida, uyning oldida. Ko‘makchi otlarni quyidagi turlarga bo‘lish mumkin: 1) vertikal yo‘nalishni bildiruvchi: ost, ust, tag. 2) gorizontal yo‘nalishni bildiruvchi: old, orqa, yon, ich; Ko‘plikdagi otlar - birdan ortiq predmetlarni ifodalaydigan otlar. Ifodalanishi: 1) morfologik usul: -lar qo‘shimchasi bilan – kitoblar; 2) leksik usul: maxsus so‘zlar bilan – ancha kitob; 3) leksik-morfologik (aralash) usul – ko‘p odamlar.

Ko‘p ma’noli so‘zlar - gapdan tashqarida bir ma’noni, gap ichida esa boshqa ma’noni ifodalaydigan so‘zlar: ko‘z – derazaning ko‘zi; buloqning ko‘zi; ignaning ko‘zi; taxtaning ko‘zi; ishning ko‘zi; uzukning ko‘zi; tizzaning ko‘zi.

Sof ko‘makchilar – lug‘aviy ma’nolarini butunlay yo‘qotib, vazifa jihatidan kelishik qo‘shimchalariga yaqin turadigan so‘zlardir: bilan, uchun, kabi, sari, singari, sayin, uzra, qadar, yanglig‘.

Vazifadosh ko‘makchilar - gapda o‘rni bilan mustaqil so‘z, o‘rni bilan ko‘makchi bo‘lib keladigan so‘zlardir. Bularga quyidagi so‘z turkumlaridan o‘tgan so‘zlar kiradi: 1) ot turkumidan: tomon, tashqari, bo‘yi, chamasi, holda, yo‘sinda; 2) sifat turkumidan: sababli, tufayli, orqali, qarshi, chog‘li, doir, muvofiq, o‘zga, boshqa; 3) fe’l turkumidan: qarab, qaraganda, ko‘ra, tortib, degan, deydigan, osha, bo‘ylab, yarasha, qaramasdan, qaramay, qarata; 4) ravish turkumidan: avval, so‘ng, keyin, burun, ilgari, beri, beri, buyon, asosan, binoan.

24-25-MAVZU: BOG‘LOVCHILAR, ULARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI. YUKLAMALAR. YUKLAMALARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI (4 soat)

1 -ilova

Ma’ruza mashg‘uloti dokladlari mavzulari

1. Bog‘lovchi haqida umumiy ma’lumot, uning turlari.
2. Yuklama haqida umumiy ma’lumot, uning turlari.

2-ilova

Mashg‘ulot mavzusi:
Yordamchi so‘zlar. Ko‘makchilar, ularning turlari.

Mashg‘ulot rejasi:

5. *Yordamchi so‘z turkumlari haqida umumiy ma’lumot.*
6. *Ko‘makchi haqida ma’lumo*
7. *Ko‘makchilarning qo‘llanishi va ma’nolari.*
8. *Ko‘makchilar va kelishik qo‘shimchalarining ma’nodoshligi .*

3-ilova

DASTURLASHTIRILGAN TOPSHIRIQ SAVOLLARI:

1. Ko‘makchi ta’rifini ayting va misollar keltiring.
2. Ko‘makchi qanday gap bo‘lagi bo‘lib keladi?
3. Sof ko‘makchilar haqida gapiring.
4. Ko‘makchi vazifasida Qo‘llanuvchi so‘zlar haqida gapiring.
5. Ko‘makchi otlar haqida gapiring.
6. Bosh kelishikdagi so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar va ularning ma’nolari haqida gapiring

4-ilova

Bog‘lovchi haqida umumiy ma’lumot

Gap bo‘laklarini yoki qo‘shma gapning qismlarini bog‘laydigan yordamchi so‘zlar bog‘lovchi deyiladi. Bog‘lovchilar gap bo‘laklari va ayrim sodda gaplarni o‘zaro qanday munosabatda ekanliklarini ko‘rsatadi. Farzand olgan tarbiyasiga qarab ota-onasiga rohat yoki jazo keltiradi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur») Kumush ichkariga kirib ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi, lekin Otabek yana bir necha daqiqa erga mixlangandek qotib turdi. (A.Qod.)

Bog‘lovchilar qo‘llanishiga ko‘ra ikki turli bo‘ladi: 1. YAkka bog‘lovchilar. 2. Takroriy bog‘lovchilar.

YAkka bog‘lovchilar uyushgan bo‘laklar va ayrim gaplar orasida yakka holda qo‘llanadi. Bular va, hamda, lekin, biroq, -ki (-kim), chunki, agar, gar, balki, go‘yo, basharti, garchi, go‘yoki, holbuki, vaholanki.

Xazon qilmas Zaynabni zamon Va otashda o‘rtanmas Omon (H.O.) Bu gullarni Azizxon, go‘yo ona o‘z farzandini ardoqlagan kabi ardoqlardi. (S. Jamol). Ahli majlis Otabekni ko‘klarga ko‘tarib maqtar edi, lekin Homid bu maqtashlarga ishtirok etmas va nimadandir g‘ijingandek ko‘rinar edi. (A.Qod.)

Takroriy bog‘lovchilar bir gapda ikki yoki undan ortiq o‘rinda gap bo‘laklari, shuningdek qo‘shma gaplarda ayrim sodda gaplar bilan birga aynan takrorlanadi. Bular dam..., dam, goh..., goh, xoh..., xoh, yo..., yo, yoki..., yoki, ham..., ham, ba’zan..., ba’zan, bir...,bir. Masalan, *U goh dashtdagi otlarning kishnashiga, goh yaqin chodirdagi go‘zal kanilarning mayin kulgulariga quloq solib yotarkan, olam beg‘ubor bo‘lib tuyular edi. (O.YO.) YO bir maslahatni aytib bo‘ladi, yo ro‘zg‘or ishni. (CHo‘lpon). Dam bobomga, dam uning o‘rtog‘iga tikilaman. (O.) Dadasi... erkatoy o‘g‘lining bu arzini eshitib, bir hayratga tushdi, bir quvondi. (O.YO.)*

Takroriy bog‘lovchilardan yo,yoki yakka holda ham qo‘llanishi mumkin, ham, ba’zan, bir so‘zlari esa yakka holda qo‘llansa bog‘lovchi bo‘la olmaydi. Navoiy Xuroson va Movarounnahrda yashamoqda bo‘lgan yoki dunyodan ko‘z yumgan yuzlarga shoirlarni xotirga oldi. (O.) Bu erda qovun tekin. Uzib beraymi yo o‘zingiz uzasizmi? (S.Ahmad).

Bog‘lovchilar gapdagi vazifasiga ko‘ra ikki xil bo‘ladi: 1) teng bog‘lovchilar; 2) ergashtiruvchi bog‘lovchilar.

Teng bog‘lovchilar haqida ma’lumot

Teng bog‘lovchilar grammatik jihatdan teng huquqli gap bo‘laklarini va gaplarni o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi. Masalan, *Kitob har qanday bilimning joni va yuragi, har qanday fanning ibtidosidir. (Stefan TSveyg). Agar so‘zlar va Zaynab qalbi Tol bargiday dir-dir qaltirar. (H.O.)*

Teng bog‘lovchilar biriktiruv, zidlov va ayiruv bog‘lovchilariga bo‘linadi.

Biriktiruv bog‘lovchilari: ***va, hamda, bilan, ham***. Bu bog‘lovchilar gapning uyushiq bo‘laklarini, qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog‘laydi. Biriktiruv bog‘lovchisi ***va*** eng ko‘p qo‘llanadigan bog‘lovchidir. Bu bog‘lovchi:

1) gapning uyushiq bo‘laklarini bog‘laydi: Aqlli odam olimlar, fozillar va tadbirli xunarmandlarning suhbatlarida bo‘ladi, ulardan bahra oladi («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»);

2) qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog‘lashga xizmat qiladi va turli ma’no munosabatlarini ifodalaydi. Masalan: Hamid Rahmat bilan birga Otabekni Ziyo akanikiga taklif qilgali kelgani edi va biz ularni osh-suv qilib jo‘natgan edik. (A.Qod.)

Ham, hamda bog‘lovchilari ham gapning uyushiq bo‘laklarini va qo‘shma gap qismlarini bog‘lash uchun qo‘llanadi. Sultonmurod ham do‘st Zayniddin cheksiz quvondilar. (O.) Kun sovidi hamda erlar muzladi.

Ham so‘zi bog‘lovchi bo‘lib emas, balki gap ma’nosini yoki ayrim gap bo‘laklarini ta’kidlash, kuchaytirish uchun ko‘p ishlatiladi. Quyosh ham oltin to‘rlarini to‘kib, mag‘rur ko‘tariladi (O.)

Biriktiruvchi bog‘lovchilari bilan ko‘makchisi, -da, -u(-yu) yuklamalari ham qo‘llanadi.

Bobom asta ko‘zlarini yumadi-da, allaqanday uzoq bir xayolga ketadi. (O.) Onayu bola – gulu lola. (Maqol). SHudgorda Jannatxola bilan Zebixon qoldi. (S.A.)

Zidlov bog‘lovchilari

Zidlov bog‘lovchilari: biroq, ammo, lekin, balki, xolbuki. Bu bog‘lovchilar mazmunan bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilgan bo‘laklarni yoki gaplarni bog‘lash uchun xizmat qiladi.

Biroq, ammo, lekin bog‘lovchilari gap bo‘laklarini bog‘lab kelganda zidlik ma’nosini, shu bilan birga, gap mazmunini to‘ldirish, izohlash, qiyoslash uchun ham xizmat qiladi. Qo‘shma gap qismlari tarkibidagi sodda gaplarni bog‘lashda esa keyingi qism avvalgi qismda aytilgan fikrga qarama-qarshi, zid faktlar ifodalanadi. SHuning uchun bu faktlar, voqea-hodisalardan faqat bittasining bo‘layotganini, ikkinchisi inkor etilganigi ma’nosi anglashiladi. Masalan, *Mahallada bolalar ko‘p, lekin bir-biriga o‘xshamaydi. (O.) Har narsaning yangisi, ammo do‘stning eskisi yaxshi. («Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur»). O‘xshash mevalarni saralaydi, xidlaydi, biroq egisi kelmaydi. (O.)*

Zidlov bog‘lovchilari gap boshida kelib, avval aytilgan fikrga zid bo‘lgan yangi fikrli gapni oldingi gapga bog‘laydi:

Mazmunan bir-biriga qarama-qarshi gap bo‘laklari va gaplarni bog‘lashda *–da, -u (-yu)* yuklamalari ham qo‘llanadi. *Sobir kichkina-yu, pishiqqina (O.)*

Ayiruv bog‘lovchilari:

Bu guruhga *yo, yoki, yo..., yo, yoxud, dam..., dam, goh..., goh, xoh..., xoh, ba’zan..., ba’zan, bir-bir* kabi so‘zlar kiradi.

Bu bog‘lovchilar narsa, voqea-hodisalarni boshqarishdan ajratish yoki ularning galma-gal bo‘lishini ko‘rsatish uchun xizmat qiladi.

Bulardan *yo, yoki, yo..., yo, xoh..., xoh* bog‘lovchilari uyushgan bo‘laklarning birini ikkinchisidan, biror voqea, hodisa yoki ish-harakatni boshqasidan ayirib ko‘rsatish uchun ishlatiladi: *Poshshaxon Umrinisabibining qizini yo ko‘rmadi, yo ko‘rsa ham nazarga ilmadi. (CHo‘lpon). «YO podshoh biron erga chiqadi yoki elchi kelishi kutiladi», - dedi Zayniddin. (O.) Xoh ishoning, xoh ishonmang, birinchi kuniyoq to‘qqiz tonna paxta teribman. (S. A.)*

Ba’zan..., ba’zan, dam..., dam, goh..., goh bog‘lovchilari esa galma-gallikni, navbat bilan almashinib, takrorlanib turishni ifodalaydi. *Dam tekisliklar bo‘ylab balandga, dam pastga tushib boramiz. (O.) Nimqorong‘i shiftga tikilib yotgancha xayol suraman: goh katta shaharlarga borib qolaman, goh daryolarda suzaman. (O‘.Hoshimov) Hasanali eshitmadimi yoxud eshitsa ham eshitmaganga soldimi, har nechuk javob bermadi (A. Qod.)*

Ergashtiruvchi bog‘lovchilar

Ergashtiruvchi bog‘lovchilar qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga tobelanish yo‘li bilan bog‘laydi.

Ergashtiruvchi bog‘lovchilar grammatik aloqalarni ifodalash va ma’nolariga qarab: 1) aniqlov bog‘lovchisi; 2) sabab bog‘lovchilari; 3) chog‘ishtiruv bog‘lovchilari; 4) maqsad bog‘lovchisi; 5) shart va to‘liqsizlik bog‘lovchilariga bo‘linadi.

Aniqlov bog‘lovchlari. YA’ni, -ki (-kim) aniqlov bog‘lovchilari ergash gaplarni bosh gapga bog‘lash uchun qo‘llanadi. Bilib qo‘yki, seni Vatan kutadi. Mirzo Ulug‘bek joyiga o‘tirmagan ham ediki, saroybon kirib, ikkinchi nomani tutdi. (O.YO.)

Sabab bog‘lovchilari. CHunki, shuning uchun, negaki, zeroki, nainki. Bu bog‘lovchilar ergash gapni bosh gapga bog‘lab, sabab, payt ma’nolarini ifodalaydi. CHorasi bo‘lmagan ishga kirishma, chunki undan qutilib bo‘lmaydi. (Amir Temur o‘gitlari) Ko‘chadagi suv ariqning tegidan sayoz oqar, shuning uchun undan foydalanish qulay emas edi. (A.Qod.) U ikki, balki uch yildan buyon o‘z to‘yini kutar edi. (O.)

CHog‘ishtiruv bog‘lovchilari – *go‘yo, go‘yoki.* Bu bog‘lovchilar bosh gapda ifodalangan fikrni ergash gapdagi fikr bilan qiyoslab ko‘rsatadi. *Sen menga baxsh etding ko‘rkam bir yoshlik, go‘yo qalbimda ulg‘aydi quyoshday viqor. (J.Jabborov). Nihoyat chollar jim bo‘lishadi, go‘yo yoshliklarini sog‘inganday boshlarini quyi solishadi (O.)*

Maqsad bog‘lovchisi. Toki maqsad bog‘lovchisi qo‘shma gap tarkibidagi maqsad ma’nosini ifodalagan ergash gapni bosh gap bilan bog‘laydi. *YOmonlarning jazosini berish kerak, toki ular yaxshilarning boshiga yomon kunlarni solmasinlar. (H.G‘.)*

SHart va to‘liqsizlik bog‘lovchilari. *Agar (gar), modomiki, basharti, garchi, garchand, mabodo, bordiyu.*

Bu bog‘lovchilar shart va to‘liqsiz ergash gaplarning bosh gapga bo‘lgan munosabatdagi shartni, shu bilan birga to‘liqsizlik ma’nolarini anglatadi: *Agar kishining hayoti biror maqsad, biror g‘oya uchun kurash bilan o‘tsa, bunday hayotga hech afsus qilmaslik kerak. (M.Ibr.) Bu oqshom, garchi tevarak tinch bo‘lsa ham, kechagidan ko‘ra qo‘rqinchliroq, ezuvchanroq tuyular edi. (O.)*

Bog‘lovchi vazifasini bajaruvchi so‘zlar

Boshqa so‘z turkumiga oid so‘zlar ba’zi so‘zlar ham bog‘lovchi o‘rnida qo‘llanadi: *deb, degan, kim, nima, qaysi, qancha, qaerda, bordiyu.*

Masalan: *Umrim shirin o‘tsin deb, tilni tiydim hamisha. Ayvonda Hurmatbibi bilan onam choy ichib, gaplashib o‘tirishibdi (O.) Kim ko‘p o‘qisa, u ko‘p biladi.*

Yuklama

Ayrim so‘z yoki gapga qo‘shimcha ma’no berish uchun qo‘llanadigan yordamchi so‘zlar yuklamalar deb ataladi. Masalan: *Haqiqiy kasbu kamol faqat ilm bilan hosil bo‘ladi. (M.Hasaniy). Quyosh ham atayin nurlarini to‘kib, mag‘rur ko‘tarildi. (O.)*

YUklamalar tuzilishiga ko‘ra ikki xil: a) qo‘shimcha holatdagi yuklamalar: -mi, -chi, -a, -ya, -oq (-yoq), -da, -u (-yu), -gina (-kina, -qina), -ku; b) so‘z holatidagi yuklamalar: axir, faqat, xudi, nahotki, ham, naq, xolos. To‘ydan faqat Anor xabardor (H.O.) Eshik «g‘irch etib ochildi-da, ruxsat so‘rab ukasi Darvishali kirdi. (O.) Bir vaqi G‘iyosiddin Kichkina, xudi shu erda, daricha ostida o‘tirib, uni erkalatmasmidi.

Yuklamalarning turlari.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida gapga yoki ayrim so‘zlarga beradigan qo‘shimcha ma’nolariga ko‘ra yuklamalarni quyidagicha turlarga bo‘lish mumkin.

1. So‘roq va taajjub yuklamalari: -mi, -chi, -a, -ya.

-mi yuklamasi so‘roq, taajjub, hayrat kabi ma’nolari bildiradi. Masalan: - Kelinning suluvligi Marg‘ilonda ma’lum ekanmi? (A.Qodiriy) Men dalada ishlashish kerakmishmi? (O.)

-chi yuklamasi so‘roq, kuchaytiruv, harakatga undash, buyruq, iltimos, ta’kid ma’nolarini bildiradi. Masalan, - Sizga-chi, Anvar (A.Qodiriy) - O‘g‘ling qaytsin-chi, bo‘lmasa... (A.Qod.) - Loaqal bir og‘iz o‘g‘lingizga aytib o‘tishga va’da bering-chi, -dedi (A.Qod.) - O‘rtoqjon, bir narsa desang-chi. (CHo‘lpon).

-a (-ya) yuklamalari so‘roq, taajjub, hayratlanish ma’nolarini bildiradi. Masalan, Bu gap oramizda qolsin-a! (T.Malik) Gulnorni sevishimni bilardi-ya (O.) - Qizim, bugun mehmonlaringni Sultonxonlarnikiga olib chiqasan-a? – deb qolmasinmi! (A.Qod.)

2. Kuchaytiruv va ta’kid yuklamalari: -ku, -u, -yu, -da, -oq (-yoq), -ki (-kim), ham, hatto, hattoki, axir, nahot (nahotki).

-ku, -u, -yu, -da, -oq (-yoq), -ki (-kim) yuklamalari ma’noni kuchaytirish, to‘liqsizlik, tezlik va davomiylik ma’nolarini ifodalash uchun qo‘llanadi. Masalan, SHundan keyin men uzoq safarga ketdim-u, Masturaning taqdiridan bexabar bo‘ldim (A.Q.) - O‘z qizingiz-ku, tengini topib bering-da! (CHo‘lpon) Mirzo Ulug‘bek maktubni o‘qib tugatmasdanoq o‘rnidan turib ketdi. (O.YO.) Ko‘plar yomg‘irdan qochib ulgirmasdayoq, oftob charaqlab ketdi. (S.A.)

Ham, axir, hatto, hattoki, nahot (nahotki) so‘z yuklamalari fikrni ta’kidlash, avvalgi voqeani eslatish kabi ma’nolarni ifodalaydi. Masalan, Tursunboy hamma narsadan kechganda ham birgina shu Zebidan kechmas edi. (S.A.) Oyim o‘rta bo‘yli, oppoq, nozik tabiat ham ipakday muloyim, istarasi issiq xotin edi. (Zarifa Saidnosirova) Axir bu qal’ani olguncha ozmuncha talofat berildimi? (P.Q.) Sizni otasi o‘rnida ko‘rsak-u, nahotki sizdan beso‘roq ish tutsak (A.Q.) Uzoq cho‘zilgan bu suhbatda Miryoqubning qulog‘i bir marta g‘alati dingkaydi, hatto uning qop-qora chiroyli ko‘zlarida allaqanday sehrli olovlar yondi. (CH.)

Bir qissakim, buning so‘ngida
Sevishganlar topishgusidir. (H.O.)

3. Ayiruv va chegaralov yuklamalari: faqat, faqatgina, -gina (-kina, -qina). Bu yuklamalar turli so‘z turkumlari bilan kelib, ularni chegaralab ko‘rsatish va ma’no jihatdan ajratish uchun qo‘llanadi. Masalan, O‘zi haqida o‘ylamay, faqat xalqqa ilm berishga bel bog‘lagan olim kishi xudi shamga o‘xshaydi, sham o‘zini yondiradi, xalqqa ziyo bag‘ishlaydi. (M.Xasaniy) YOqimli do‘stgina suhbati olis yo‘lni yaqin qiladi.

(M.Xasaniy) Dunyoda ko‘rib o‘taturgan barcha orzuimiz, havasimiz faqat sengagina qarab qolgan (A.Qod.)

Faqat yuklamasi o‘rnida yolg‘iz so‘zi qo‘llanishi ham mumkin. Miryoqubning topishi yolg‘iz mingboshi orqali bo‘lsa, unga «epaqa» nomini qo‘yish to‘g‘ri bo‘larmidi. (CHo‘lpon)

4. Aniqlov yuklamasi: xuddi, naq. Bu yuklamalar o‘zi mansub bo‘lgan so‘zning ma’nosini aniqlab ko‘rsatish uchun qo‘llanadi. Ilm o‘rganib, ilmiga amal qilmagan kishi naq er haydab, uni ekmagan kishiga o‘xshaydi. (M.Xasaniy) Hayosi yo‘q po‘sti shilib olingan yog‘och va xuddi yog‘i tugagan chiroqqa o‘xshaydi. (M.Xasaniy)

5. Gumon yuklamasi: -dir barcha so‘z turkumlariga qo‘shilib kela oladi va o‘zi aloqador bo‘lgan so‘zga gumon, noaniqlik ma’nosini qo‘shadi: - Sizga nimadir va’da bergandir-da? (Isfandiyor)

6. Inkor yuklamasi *na... na* uyushiq bo‘laklar va qo‘shma gap tarkibidagi ayrim gaplar oldidan kelib, ularning mazmunini inkor etadi, bo‘lishsizga aylantiradi. Inkor shaklli gap bo‘laklari va gaplar oldida kelganda, bo‘lishsizlik kuchaytiriladi, ta’kidlanadi. Bu buyruqqa na ona e’tiroz qildi va na qiz (CHo‘lpon). Na qor, na yomg‘irdan darak bor. (O.)

Ko‘makchi tahlili	Bog‘lovchi tahlili	Yuklama tahlili
1. Turi aniqlanadi. 2. Qaysi kelishikdagi so‘zga bog‘langan? 3. Ma’nosi. 4. Qaysi so‘zni qaysi so‘zga bog‘layapti?	1. Qo‘llanish turi. 2. Ma’no hamda vazifasiga ko‘ra turi. 3. Nimani bog‘lagan?	1. Tuzilishiga ko‘ra turi. 2. Ma’nosiga ko‘ra turi

TAKRORLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Ko‘makchi ta’rifini ayting va misollar keltiring. 2. Ko‘makchi qanday gap bo‘lagi bo‘lib keladi? 3. Sof ko‘makchilar haqida gapiring. 4. Ko‘makchi vazifasida qo‘llanuvchi so‘zlar haqida gapiring. 5. Ko‘makchi otlar haqida gapiring. 6. Bosh kelishikdagi so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar va ularning ma’nolari haqida gapiring. 7. Qaratqich kelishigidagi so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar va ularning ma’nolari haqida gapiring. 8. Jo‘nalish kelishigidagi so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar va ularning ma’nolari haqida gapiring. 9. CHiqish kelishikdagi so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar va ularning ma’nolari haqida gapiring. 10. Ko‘makchi va kelishiklarning sinonimlik xususiyatlari haqida gapiring. 11. Bojlovchining ta’rifini ayting. 12. Bojlovchilar qo‘llanishiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi? 13. Teng bojlovchilar ta’rifini ayting. 14. Biriktiruvchi bojlovchilarning ta’rifini ayting. 15. Zidlov bojlovchilar ta’rifini ayting. 16. Ayiruv bojlovchilar ta’rifini ayting. 17. Ergashtiruvchi bojlovchilarning ta’rifini ayting. 18. Aniqlov bojlovchilari haqida so‘zlang. 19. Sabab bojlovchilari haqida gapiring. 20. SHart va o‘xshatish bojlovchilari haqida gapiring.

YORDAMCHI SO‘ZLAR GURUHI BO‘YICHA TEST SAVOLLARI:

1. Yordamchi so‘zlarni aniqlang.

A) Inson go‘zallik uchun intiladi, yorqin ufqlar sari oshiqadi. B) Zokir ota shubhasiz, tajribali paxtakor, qo‘li gul odam.
C) Eh, bugun toqqa ketamiz! D) Xotin yaktakni olib yoniga qo‘ydi, aftidan, hozir tikmoqchi emas edi.

2. Yordamchi so‘zlarni toping.
A) Asablarning sog‘lom bo‘lishi uchun badantarbiya bilan shug‘ullanish lozim. B) O, qanday chin baxtga to‘lg‘in bu onlar! C) Munofiqlik va soxtalik do‘stlik uchun yotdir. D) A,C.

3. <u>*Aziz ham bu savolni kutmaganligi uchun hatto ancha vaqtga qadar javob berolmay qolgan edi.*</u> Ushbu gapda mustaqil lug‘aviy ma’no anglatmaydigan nechta so‘z bor?
A) 4 ta B) 3 ta C) 6 ta D) 5 ta

4. Ko‘makchilar qaysi kelishiklar qo‘shimchalariga sinonim sifatida qo‘llanishi mumkin?
A) qaratqich va jo‘nalish B) jo‘nalish va o‘rin-payt
C) o‘rin-payt va chiqish D) chiqish, jo‘nalish va o‘rin-payt

5. Maqsad ma’nosini anglatgan <u>*uchun*</u> ko‘makchisi qatnashgan gapni aniqlang.
A) Anvar yuzidagi kulgini yashirish uchun chetga qaradi. B) Daftarni ukam uchun keltirdim. C) G‘o‘za erta ekilgani uchun hosil mo‘l bo‘ldi. D) Yig‘ilish uchun imkon yaralmadi.

6. Ko‘makchilar, asosan, quyidagi qaysi so‘zlardan keyin kelmasligi mumkin?
A) ot, olmosh B) harakat nomi, sifatdosh C) ravishdosh, otlashmagan so‘zlar D) A, B.

7. Vazifadosh ko‘makchilar berilgan qatorni toping.
A) Avval o‘yla, keyin so‘yla.(Maqol) B) Siz bilan hamsuhbat bo‘lmasdan avval boshqacha xayolda edim. (O.Y.) C) Usmon Nosir o‘z ustida ko‘p ishlardi. (O‘.Rashid) D) B va C.

8. Sof ko‘makchilarning xususiyatlari noto‘g‘ri ko‘rsatilgan javobni toping.
A) Bunday ko‘makchilar atash ma’nosini tamoman yo‘qotgan bo‘ladi. B) O‘zi birikkan so‘zni boshqa so‘zga bog‘lash uchun xizmat qiladi. C) Bunday ko‘makchilar urg‘u olmaydi.
D) Ohang tomonidan o‘zidan oldingi so‘z bilan bir butunlikni tashkil etadi.

9. Fikr mavzusi ma’nosini ifodalaydigan ko‘makchilar berilgan qatorni toping.
A) sari, bo‘ylab B) tufayli, uchun
C) haqida, to‘g‘risida D) xususida, o‘xshab.

10. Qaysi gapda sof ko‘makchi ishtirok etmagan?
A) Toshbaqa uyasi tomon sudraldi. B) Vatan ham Ona kabi qadrlidir. C) Bu uchun hammamiz ancha gap eshitamiz.
D) Yangiliklarni xat bilan ma’lum qilib turamiz.

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH. Yo‘ldosheva. Ona tili. “MOLIYA-IQTISOD” nashriyoti, Toshkent, 2007-yil.
2. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti.
3. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfemika. So‘z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.

5. M.Hamroyev. O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi. TDPU, Toshkent, 2007-yil.

GLOSSARIY

Bog‘lovchilar – so‘zlarni va qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so‘zlardir. Obid va Alisher o‘z vaqtida kelishdi, lekin ish bitmadi, chunki to‘garak rahbari kechikayotgan edi.

Ergashtiruvchi bog‘lovchilar - ergash gapli qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga ergashtirish yo‘li bilan bog‘laydigan bog‘lovchilar: Gap shundaki, u bugun kela olmaydi, chunki ishi ko‘payib ketdi, shuning uchun men keldim.

Gumon yuklamasi - so‘z va gaplarga gumon, noaniqlik ma’nolarini kiritadigan yuklama: - dir: Uyiga yetib borgandir.

Kuchaytiruv-ta’kid yuklamalari - nahotki, axir, hatto(ki), -oq(-yoq), -ki(-kim) yuklamalari kuchaytirish va ta’kid ma’nolarini anglatsa, tim(qora), liq(to‘la), lim(to‘la), g‘irt(yolg‘on), qip-shir-(qip-yalang‘och), g‘arq(pishgan), jiqqa(ho‘l) yuklamalari nutqqa tasviriylik berib, so‘z ma’nosini kuchaytirish uchun xizmat qiladi.

Sabab bog‘lovchilari – ma’lum bir gapning sababini bildiradigan gapni o‘sha gapga bog‘lash uchun xizmat qiladigan bog‘lovchilar: zeroki, chunki, shuning uchun. Ba’zan uchun ko‘makchisi ham shu vazifada qo‘llanadi: Ular yetib kelsin uchun, Avaz kutib turdi.

So‘roq va taajjub yuklamalari - -mi, -chi, -a(-ya) yuklamalaridir. –mi so‘roq va taajjubdan tashqari modal ma’noni ham bildiradi, bunda u noaniqlikni ifodalaydi: Uyidami, ko‘chadami, uning uchun farqi yo‘q edi. –chi yuklamasi so‘roqdan tashqari buyruq, do‘q, iltimos, qistash, ta’kid, uqtirish ma’nolarini ham bildiradi: Qani, yur-chi! Kitobingni berib tur-chi. -a, -ya yuklamalari ham so‘roq va taajjubdan tashqari his-hayajonni, tasdiq va ishonchni ham bildiradi: Qanday chiroyli-ya! Ko‘ylagingiz shunday ho‘l-a.

So‘z yuklamalar – so‘z ko‘rinishidagi yuklamalar: faqat, ham, axir, hatto.

Takroriy bog‘lovchilar – gap tarkibida kamida ikki o‘rinda takrorlanib ishlatiladigan bog‘lovchilardir: Yo u keladi, yo men boraman. Goh kuladi, goh yig‘laydi.

Vazifadosh bog‘lovchilar - boshqa turkumlarga mansub bo‘lib, o‘rni bilan bo‘lovchi vazifasini bajaradigan so‘zlardir. Bular quyidagi turkumlardan bog‘lovchilarga o‘tgan: 1) bilan ko‘makchisi: Akam bilan (va) ukam kelishdi. 2) ham, na, -u(-yu), -da yuklamalari: O‘qishga qabul qilishdi ham (va) stipendiya tayinlashdi. 3) balki modal so‘zi: Bundan keyin uning g‘ayrati susaymadi, balki yana oshdi.

Yakka bog‘lovchilar - gap tarkibida yakka holda qo‘llanadigan bog‘lovchilar: va, ammo, chunki.

Yuklama - mustaqil so‘z va gaplarga qo‘shimcha ma’no beradigan yordamchilar: U kelsa-chi? Senigina taklif qilishdimi? Keldi-yu, gapira ketdi. U ham ketdi.

Shart bog‘lovchilari – ikkita gapni o‘zaro shart munosabati asosida bog‘laydigan quyidagi so‘zlar: agar(da), garchi, garchand, gar, mabodo, basharti: Agar sen kelsang, biz boramiz.

Zidlov bog‘lovchilari – so‘z va gaplarni bir-biriga zidlab bog‘laydigan quyidagi bog‘lovchilardir: ammo, lekin, biroq, balki, holbuki. Masalan: U keldi, ammo gapirmadi.

O‘xshatish-qiyoslash yuklamalari: xuddi, naq, ayni. Xuddi shu yerda uchrashamiz.

26-27-MA’RUZA. MAVZU: MODAL SO‘ZLAR ULARNING MA’NO VA

GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.
UNDOVLAR. ULARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI (4 soat)

1-ilova

Ma'ruza mashg'uloti mavzulari1.
1. Modal so'zlar haqida ma'lumot
2. Modal so'zlar ma'no jihatidan turlari
3. Fikrning noaniqligini ifodaslaydigan modal so'zlar
4. Modal so'zlarning mustaqil so'zlardan o'sib chiqish
3-ilova

Mashg'ulot Mavzusi:
Modal so'zlar, ularning ma'no guruhlari.

Mashg'ulot rejasi:

1. Modal so'zlar haqida ma'lumot
2. Modal so'zlar ma'no jihatidan turlari
3. Fikrning noaniqligini ifodaslaydigan modal so'zlar
4. Modal so'zlarning mustaqil so'zlardan o'sib chiqishi.

2-ilova

DASTURLASHTIRILGAN TOPSHIRIQ SAVOLLARI:
1. Modal so'zlarning ta'rifini ayting.
2. Modal so'zlarning ma'no jiiatidan turlarini ayting.
3. Ma'lum bir guruhga kirmagan modal so'zlarni sanab ko'rsating.
4. MustaQil so'zlardan o'sib chiqqan modal so'zlar haqida gapiring.
5. Modal so'zlar kelib chiqishiga ko'ra yana qanday bo'lishi mumkin?

3-ilova

Modal so'zlar

• *So'zlovchining o'z fikriga bo'lgan munosabatini bildiradigan so'zlar <u>modal so'zlar</u> deyiladi: Ehtimol, bugun yetib kelar.*
Modal so'zlar ma'no jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

• *Fikrning aniqligini ifodaslaydigan modal so'zlar:*
1) fikrning rostligi tasdiqlanadi: darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda, filhaqiqat (arx.);

2) fikrning qat'iyligi ta'kidlanadi: shubhasiz, shaksiz, so'zsiz

3) ishonch: albatta

4) anglatilayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanligini bildiradi: tabiiy, o'z-o'zidan,

5) fikrning chinligi eslatiladi: to'g'ri, xoynaxoy, muhaqqaq (arxaik), aslida, darvoqe, rostdan.

2. Fikrning noaniqligini ifodaslaydigan modal so'zlar:

1) fikrning taxminiyligini bildiradi: shekilli, chamasi, chog'i;

2) fikrning gumonli ekanligini bildiradi: ehtimol, balki;

3) fikrning tusmolli ekanini bildiradi: aftidan;

4) fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham bildiradigan: har holda, har qalay.

Fikrning tartibi: avvalo, avvalambor, birinchidan, ikkinchidan.

Fikrning dalillanishi: masalan, jumladan.

Xulosa: xullas, demak, nihoyat, xullas kalom.

Achinish: afsus, attang, esiz.

Zaruriyat: kerak, zarur, lozim.

Quvonch: xayriyat.

Mavjudlik va mavjud emaslik: bor, yo‘q.

- *Bulardan tashqari: binobarin, zero, holbuki, vaholanki kabi modal so‘zlar ham mavjud.*
- *Modal so‘zlarning ko‘pchiligi mustaqil so‘zlardan o‘sib chiqqandir.*

1) ot turkumidan: aftidan, haqiqatan, mazmuni, ehtimol, darhaqiqat; 2) sifatdan: yaxshi(ki), to‘g‘ri, so‘zsiz, shubhasiz, tabiiy; 3) ravishdan: albatta; 4) fe’ldan: xoyna-xoy (tojikcha xohi-naxohi so‘zidan); 4) bog‘lovchidan: balki; 5) so‘z birikmasidan: har qalay, har holda; 6) gapning modal so‘zga aylanishi: holbuki (Hol buki); 7) so‘z tushirish natijasida hosil bo‘lgan: o‘z-o‘zidan (aniq so‘zi tushib qoladi).

Modal so‘zlar sof va vazifadosh modal so‘zlarga bo‘linadi. Haqiqatan, darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalo, xullas, masalan, umuman, taxminan so‘zlari sof modal so‘zlar hisoblansa, modal ma’noda ham qo‘llanadigan aftidan, chamasi, balki, ehtimol, shubhasiz kabi so‘zlar vazifadosh modal so‘zlar hisoblanadi.

- *Modal so‘zlar gap tarkibidagi so‘zlardan vergul bilan ajratiladi va ko‘pincha kirish so‘z vazifasini bajarib keladi.*

6-ilova

So‘zlovchining o‘z fikriga bo‘lgan munosabatini bildiradigan so‘zlar **modal so‘zlar** deyiladi: ***Ehtimol***, *bugun etib kelar*.

Modal so‘zlar ma’no jihatidan quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Fikrning aniqligini ifodalaydigan modal so‘zlar:

1) fikrning rostligi tasdiqlanadi: *darhaqiqat, haqiqatan, haqiqatda, filhaqiqat (arx.);* 2) fikrning qat’iyligi ta’kidlanadi: *shubhasiz, shaksiz, so‘zsiz* 3) ishonch: *albatta* 4) ang-latilayotgan voqelikning yuzaga kelishi tabiiy ekanligini bildiradi: *tabiiy, o‘z-o‘zidan*, 5) fikrning chinligi eslatiladi: *to‘g‘ri, xoynaxoy, muhaqqaq (arxaik), aslida, darvoqe, rostdan.*

2. Fikrning noaniqligini ifodalaydigan modal so‘zlar:

1) fikrning taxminiyligini bildiradi: *shekilli, chamasi, chog‘i;*
2) fikrning gumonli ekanligini bildiradi: *ehtimol, balki;*
3) fikrning tusmolli ekanini bildiradi: *aftidan;*
4) fikrning chinligiga gumon ham, ishonch ham bildiradigan: *har holda, har qalay*.

3. Fikrning tartibi: *avvalo, avvalambor, birinchidan, ikkinchidan.*
4. Fikrning dalillanishi: *masalan, jumladan.*
5. Xulosa: *xullas, demak, nihoyat, xullas kalom.*
6. Achinish: *afsus, attang, esiz.*
7. Zaruriyat: *kerak, zarur, lozim.*
8. Quvonch: *xayriyat*.
9. Mavjudlik va mavjud emaslik: *bor, yo‘q.*

Bulardan tashqari: *binobarin, zero, holbuki, vaholanki* kabi modal so‘zlar ham mavjud.

Modal so‘zlarning ko‘pchiligi mustaqil so‘zlardan o‘sib chiqqandir.

1) ot turkumidan: *aftidan, haqiqatan, mazmuni, ehtimol, darhaqiqat;* 2) sifatdan: *yaxshi(ki), to‘g‘ri, so‘zsiz, shubhasiz, tabiiy;* 3) ravishdan: a*lbatta;* 4) fe’ldan: *xoyna-xoy* (tojikcha *xohi-naxohi* so‘zidan); 4) bog‘lovchidan*: balki;* 5) so‘z birikmasidan: *har qalay, har holda;* 6) gapning modal so‘zga aylanishi: *holbuki (Hol buki);* 7) so‘z tushirish natijasida hosil bo‘lgan: *o‘z-o‘zidan* (*aniq* so‘zi tushib qoladi).

Modal so‘zlar **sof** va **vazifadosh** modal so‘zlarga bo‘linadi. *Haqiqatan, darhaqiqat, afsuski, attang, albatta, shekilli, avvalo, xullas, masalan, umuman, taxminan* so‘zlari sof modal so‘zlar hisoblansa, modal ma’noda ham qo‘llanadigan *aftidan, chamasi, balki, ehtimol, shubhasiz* kabi so‘zlar vazifadosh modal so‘zlar hisoblanadi.

Modal so‘zlar gap tarkibidagi so‘zlardan vergul bilan ajratiladi va ko‘pincha **kirish so‘z** vazifasini bajarib keladi.

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1. Qaysi gapda modal so‘z bor?

A) Balki, uning kimligini aftidan bilsa bo‘lar. V) Obbo, yana ish pachava deng. S) Bu yil hamma fanlarni «a’lo» bilan yakunlashim shubhasiz. D) Ofarin, azamatlar, ishni do‘ndiribsiz.

2 Modal so‘zlarning morfologik xususiyatlari qaysi qatorda ko‘rsatilgan?

A) kirish so‘z vazifasida keladi

V) modal ma’nolarni anglatish uchun xizmat qiladi S) morfologik jihatdan o‘zgarmaydi D) A, V

E) barcha javoblarda modal so‘zlarning morfologik belgisi to‘g‘ri ko‘rsatilgan.

3 Qaysi gapda modal so‘z bor?

1. So‘zsiz, buni hamma biladi-ku! 2. Har bir ishning chamasi bo‘ladi, har daryoning kemasi. 3. Yo‘lchi, chamasi, ikki yildan beri temirchi bilan yaqin do‘st edi. 4.Mayda-chuyda kamchiliklar topibdi, mazmuni. 5. Axir, xatning mazmuni shunday edi. 6. Tabiiy, Xushro‘yning fe’lini yaxshi bilgan ota-onasi unga hech narsani aytmaydi. 7. Siz, balki, mening tilimga tushunarsiz. A) *barcha gaplarda* V) *1, 2, 3, 6* S) *1, 3, 4, 5, 6* D) *1, 3, 4, 6, 7* *Ye*) *2, 3, 4, 6, 7.*

4. Qaysi gapda modal so‘z bor?

A) Ofarin, azamatlar, ishni do‘ndiribsiz. V) Bu yil hamma fanlarni “a’lo” bilan yakunlashim shubhasiz. S) Obbo, yana ish pachava deng. D) Balki, uning kimligini aftidan bilsa bo‘lar. Ye) berilgan gaplarda modal so‘z qo‘llanmagan.

5. Modal so‘zlarning sintaktik belgisi qaysi qatorda berilgan?

A) morfologik jihatdan o‘zgarmasligi V) undalma vazifasida kelishi S) kirish so‘z vazifasida kelishi D) so‘zlarni o‘zaro biriktirishi Ye) ikkinchi darajali bo‘laklar vazifasida kelishi

6 Qaysi gapda modal so‘z mavjud?

A) Ofarin, azamatlar, ishni do‘ndiribsiz. V) Bu yil hamma fanlarni «a’lo» bilan yakunlashim shubhasiz.

S) Obbo, yana ish pachava deng. D) Uning kimligini aftidan bilsa bo‘ladi

E) gaplarda modal so‘z qo‘llanmagan.

7 O‘zaro sinonim bo‘lgan modal so‘zlar qatnashgan gapni aniqlang.

A) CHamasi, chindan ham yangi asar koʻrish boshlangan edi. V) Oʻshanda bahor fasli edi, shekilli.
S) Ehtimol, xatosini tushungandir D) Balki, bu gapga oʻrin yoʻqdir.
E) V, S, D.

8 Qaysi qatordagi soʻz <u>chamasi</u> modal soʻziga sinonim boʻla oladi?

A) balki V) darvoqe S) tabiiy D) mazmuni Ye) har qalay

9 Qaysi gapda modal soʻz bor?

1. Soʻzsiz, buni hamma biladi-ku!
2. Ofarin, azamatlar, ishni doʻndiribsizlar. 3. Yoʻlchi, chamasi, ikki yildan beri temirchi bilan yaqin doʻst edi. 4. Mayda-chuyda kamchiliklar topibdi, mazmuni. 5. Axir, xatning mazmuni shunday edi. 6. Tabiiy, Xushroʻyning feʼlini yaxshi bilgan ota-onasi unga hech narsani aytmaydi. 7. Siz, balki, mening tilimga tushunarsiz. 8. Uning ishlari, aftidan, yaxshi emasga oʻxshaydi. A) 1, 3, 4, 6, 7, 8 V) 1, 3, 4, 5, 6 S) 1, 2, 3, 6, 8 D) berilgan barcha gaplarda Ye) 2, 3, 4, 6, 7, 8.

10 Quyidagi gaplardan qaysi birida modal soʻz qoʻllangan?

A) *Ona oʻz oʻgʻlini sevadi faqat (H.O.)* B) *Yuragimni berib ketsang bas.(Uygʻun)* C) *Hattoki ish shu qadar jiddiy boʻldi.* D) *Yolgʻiz sensan mening tilagim.* E) *Sen ham shu uyning bekasisan.*

1-ilova

Maʼruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar roʻyxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. Gʻulomova, SH.Yoʻldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. Oʻzbek tili. 2004, OʻAJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. Gʻulomova. Hozirgi oʻzbek adabiy tilidan maʼruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy oʻzbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar toʻplami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi oʻzbek adabiy tilidan maʼruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi oʻzbek adabiy tilidan maʼruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi oʻzbek adabiy tilidan maʼruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.
10. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X. Gʻulomova. Hozirgi oʻzbek adabiy tilidan maʼruza matnlari (Morfemika. Soʻz yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.
11. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –Toshkent, ”Moliya”, 2003

2-ilova

Maʼruza mashgʻuloti mavzulari1.

1. Undov soʻzlar haqida maʼlumot
2. Undov soʻzlarning turlari

3-ilova

Mashg‘ulot Mavzusi:
undovlar. Ularning grammatik xususiyatlari

Mashg‘ulot rejasi:

1. Undov so‘zlar haqida ma’lumot
2. Undov so‘zlarning turlari

4-ilova

DASTURLASHTIRILGAN TOPSHIRIQ SAVOLLARI:

1. Modal so‘zlarning ta’rifini ayting.
2. Modal so‘zlarning ma’no jiiatidan turlarini ayting.
3. Ma’lum bir guruhga kirmagan modal so‘zlarni sanab ko‘rsating.
4. Mustaqil so‘zlardan o‘sib chiqqan modal so‘zlar haqida gapiring.
5. Modal so‘zlar kelib chiqishiga ko‘ra yana qanday bo‘lishi mumkin?

Undov so‘zlar haqida ma’lumot

His-hayajon, tuyg‘uni, haydash-chaqirishni bildiradigan so‘zlar turkumi **undov** deyiladi: *eh, uh, o, e, uf, voy, ura, barakalla, ofarin, salom, xayr, xo‘sh, rahmat, balli, bay-bay, voy-bo‘y, a, ax, ohho, obbo, ey, ehhe, i, ie, o‘h, o‘hho‘, hm, him, be, tuf, hah, ho, hay-hay, eh, o‘, ha, iyi.* Bu so‘zlar mustaqil so‘zlarga ham yordamchi so‘zlarga ham kirmaydigan ayrim so‘z turkumidir.

Undovlar yakka holda, juft holda yoki takrorlanib qo‘llanishi mumkin: *oh, voy, oh-voh, dod-voy, bay-bay, hay-hay.*

Juft va takrorlangan undovlar chiziqcha bilan yoziladi.

Undovlar ma’no jihatidan quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. **His-hayajon** undovlari quyidagi ma’nolarni ifodalaydi:

1) shafqat, mehribonlik: *ie, o, voy, voy-ey, eh;* 2) sevinch, xursandchilik, zavqlanish: *ho, o‘h-ho‘, ehe;* 3) qoyil qolish, rohatlanish: *hay-hay* (takrorlansa), *oh-oh;* 4) mamnuniyat, faxrlanish, mag‘rurlanish, xayrihohlik: *e-ha, eh, ha-ya, o‘;* 5) undash, ogohlantirish, tasdiq: *ha.*

Undovlar yozuvda gap bo‘laklaridan vergul bilan ajratiladi. Agar undov kuchli bo‘lsa, his-hayajon bilan aytilsa, undov belgisi qo‘yiladi: *Eh! Havo naqadar sof va musaffo!*

Undovlarning asosiy qismi yasama emas, lekin mustaqil so‘zlardan undovlarga ko‘chgan so‘zlar ham mavjud: 1) olmoshdan : *qani;* 2) fe’llardan: *kel, hormang, yo‘qol, bor-ey, yashang, kechirasiz: Kel, bir bahslashaylik!*

His-hayajon undovlari, odatda, gap bo‘lagi vazifasini bajarmaydi. Ular yo kirish so‘z, yoki so‘z-gap bo‘lib kelishi mumkin: ***Ie,*** *men kimni ko‘ryapman?* - ***Dod!*** - *ichkaridan dodlagan ovoz eshitildi.*

2. **Buyruq-xitob** undovlari ikki xil bo‘ladi: 1) odamlarga qaratilgan undovlar: a) kishilarning diqqatini tortish uchun qo‘llanadigan: *hoy, hay* (bir marta aytilsa), *hey, allo, ey;* b) ta’kid, buyurish uchun qo‘llanadigan: *ma, tss, jim, marsh;* 2) hayvonlarga yoki boshqa jonivorlarga qaratilgan undovlar: a) hayvon va jonivorlarni chaqirish uchun qo‘llanadigan: *kisht, bah-bah, mosh-mosh, tu-tu-tu, kuch-kuch, gah, chuh, beh-beh, qurey-qurey;* b) hayvon va parrandalarni biror harakatdan to‘xtatish uchun qo‘llanadigan: *ishsh, ho‘k, tak;* v) hayvon va parrandalarni biror ishni bajarishga undash uchun ishlatiladigan: *pisht, drr, xix, hov-hov, cho‘k, tek, hayt, chu.*

3. Ko‘rsatish, ta’kid undovlari quyidagi ma’nolarni ifodalaydi:

1) ko‘rsatish: *hu, huv, hovv;* 2) javob, tasdiq, ta’kid, mulohaza: *ha-ha-ha, xo‘sh, labbay, ha.*

Bulardan tashqari, quyidagi undovlarni urf-odat undovlari (ayrim darsliklarda **nutqiy odat** undovlari deb ataladi: (25; 100.) tarzida ajratish mumkin: *rahmat, marhamat, salom, xayr, barakalla, ofarin, balli, yashang, hormang, qulluq* va b.

Undovlar odatda *deb* so‘zi bilan qo‘llanib, hol *(U “voy” deb yonboshiga yiqildi),* *degan* so‘zi bilan qo‘llanib, gapda ko‘pincha sifatlovchi-aniqlovchi *(Ko‘chada “dod” degan ovoz eshitildi)* bo‘lib keladi. Undovlar otlashishi mumkin, bunda ular ega *(Ularning dod-voyi osmoni falakka chiqdi.),* kesim *(Endi uning holiga voy)* to‘ldiruvchi *(Uning oh-vohiga kim quloq soladi?),* qaratqich-aniqlovchi *(Dod-voyning foydasi yo‘q.)* vazifalarini bajaradi.

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1.Tarkibida his-hayajon undovi bo‘lgan gaplarni aniqlang.

A) O‘g‘lim, umringizdan baraka toping! B) Hay, Oynisa, buvingni chaqir. C) Qumri, axir ukangga qarasang-chi, ichagi uzilib ketdi-ku! D) Voy, nega qulluq qilishar ekan?

2. Tarkibida haydash-chaqirish (buyruq-xitob) undovi bo‘lgan gapni aniqlang.

A) Salom, ey yulduzlar, oshnolarim! B) «Chu» deb otini savaladi. C) Er kurrasida qadim-qadim zamonlardan yangragan musiqiy «Qur-ey!» bundan keyin ham tinmaydi. D) B, C.

3. *Ha, albatta, qatnashamiz! E, otangizga rahmat! Barakalla, do‘stim!* Ushbu matndagi undov so‘zlarni toping.

A) ha, albatta, e B) rahmat, barakalla C) e D) e, barakalla, rahmat

4. *«O‘hho‘, namuncha katta ketdingiz!»* gapidagi undov so‘z qanday ma’noni anglatyapti?

A) faxrlanish B) mag‘rurlanish C) mensimaslik D) e’tiroz

5. *Voy* undovi qanday ma’no nozikliklarini bildiradi?

A) havas, zavq B) qo‘rquv, alam C) hayrat, ajablanish D) yuqoridagilarning barchasi.

6. Otlashgan undov so‘zlar qanday qo‘shimchalarni qabul qilmaydi?

A) so‘z yasovchi qo‘shimchalarni B) kelishik qo‘shimchalarini C) egalik qo‘shimchalarini D) ko‘plik qo‘shimchalarini

7. - *Hormanglar! - dedi O‘lmas baralla*. Ushbu gapdagi undov so‘zni toping.

A) baralla B) hormanglar C) A,B D) undov so‘z berilmagan.

8. Hayvon, parranda kabilarni kelish, ketish, to‘xtashga undashni bildiruvchi so‘zlar qaysi so‘z turkumiga oid?

A) taqlid so‘zlar B) modal so‘zlar C) undov so‘zlar D) fe’l

9. *Qulluq,ming marta qulluq, Dilbarxon!* Ushbu gapdagi undov so‘zlarni toping.

A) ming marta B) qulluq C) marta D) undov so‘z berilmagan

10. Otlashmagan undov so‘zlar qanday qo‘shimchalarni qabul qiladi?

A) so‘z yasovchi qo‘shimchalarni B) kelishik qo‘shimchalarni C) egalik qo‘shimchalarini D) ko‘plik qo‘shimchalarini

11. *Bay-bay, qir bag‘ri shunday go‘zal bo‘libdiki!* Mazkur gapdagi *bay-bay* so‘zi qanday so‘z hisoblanadi?

A) juft so‘z B) haydash-chaqirish undovi C) undov so‘z D) buyruq-xitob undovi

Ma’ruzaga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati

1. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH. Yo‘ldosheva. Ona tili. “MOLIYA-IQTISOD” nashriyoti, Toshkent, 2007-yil.
2. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti.
3. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfemika. So‘z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. M.Hamroyev. O‘zbek tilidan ma’ruzalar majmuasi. TDPU, Toshkent, 2007-yil.

GLOSSARIY

Haydash-chaqirish undovlari - 1) odamlarga qaratilgan undovlar:

a) kishilarning diqqatini tortish uchun qo‘llanadigan: hey, allo, ey; b) ta’kid, buyurish uchun qo‘llanadigan: ma, tss, jim, marsh; 2) hayvonlarga yoki boshqa jonivorlarga qaratilgan undovlar: a) hayvon va jonivorlarni chaqirish uchun qo‘llanadigan: kisht, beh-beh, mosh-mosh, tu-tu-tu, kuch-kuch, gah, chuh, qurey-qurey; b) hayvon va parrandalarni biror harakatdan to‘xtatish uchun qo‘llanadigan: ishsh, ho‘k, tak d) hayvon va parrandalarni biror ishni bajarishga undash uchun ishlatiladi: pisht, drr, xix, hov-hov, cho‘k, tek, hayt, chu.

Ko‘rsatish-ta’kid undovlari – biror narsaning o‘rnini ko‘rsatish, biror voqeani eslatish, javob-ta’kid ma’nolarini ifodalaydigan quyidagi so‘zlardir: hu, huv, hovv; ha-ha-ha, xo‘sh, labbay.

Modal so‘zlar - so‘zlovchining o‘z fikriga bo‘lgan munosabatini bildiradigan so‘zlardir: Ehtimol, bugun yetib kelar. Modal so‘zlar fikrning aniqligi (darhaqiqat, shubhasiz, shaksiz, so‘zsiz, albatta), noaniqligi (shekilli, chamasi, chog‘i, ehtimol, balki, aftidan), xulosa (xullas, demak, nihoyat, xullas kalom), afsuslanish (afsus, attang, esiz), zaruriyat (kerak, zarur, lozim), mavjudlik va mavjud emaslik (bor, yo‘q) kabi ma’nolarni ifodalaydi.

Undov so‘zlar - his-hayajon, tuyg‘uni, haydash-chaqirishni bildiradigan so‘zlar: eh, uh, uf, voy, xix, drr, chuh. Bu so‘zlar mustaqil so‘zlarga ham, yordamchi so‘zlarga ham kirmaydigan ayrim so‘z turkumidir. Undovlar yakka holda, juft holda yoki takrorlanib qo‘llanishi mumkin: oh, voy, oh-voh, dod-voy, bay-bay, hay-hay. Juft va takrorlangan undovlar chiziqcha bilan yoziladi.

28-MAVZU: TAQLID SO‘ZLAR, ULARNING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI (2 soat)

1-ilova

Ma’ruza mashg‘uloti mavzulari1.

1. Taqlid so‘zlar haqida ma’lumot
2. Taqlid so‘zlar ma’no jihatidan turlari

2-ilova

Mashg‘ulot Mavzusi:

Modal so‘zlar, ularning ma’no guruhlari.

Mashg‘ulot rejasi:

1. Taqlid so‘zlar haqida ma’lumot
2. Taqlid so‘zlar ma’no jihatidan turlari

3-ilova

Dasturlashtirilgan topshiriq savollari:

1. Taqlid so‘zlarning ta’rifini ayting.
2. Taqlid so‘zlarning ma’no jiiatidan turlarini ayting.

4-ilova

Taqlid so‘zlar

Tovushga va holatga taqlidni bildirgan so‘zlar **taqlid so‘zlar** deyiladi. Bunday so‘zlar ma’no jihatidan ikki turga bo‘linadi:

1. Tovushga taqlid bildiradigan so‘zlar: *gumbur-gumbur, dup-dup, duk-duk, shiq-shiq, qiy-chuv, taq-tuq, g‘arch-g‘urch, inga-inga, pix-pix, qult-qult, bidir-bidir, vov, uv, irr, mo‘o‘, maa, baa, mee, ing-ing, ang-ang, miyov, vaq-vaq, vish-vish, qu-qu, qa-qa, g‘a-g‘a, qag‘-qag‘, pit-pildiq, parr, viz-viz.*

2. Holatga taqlid bildirgan so‘zlar: *yalt-yult, apil-tapil, g‘uj-g‘uj, yarq-yurq, jimir-jimir, milt-milt, lip-lip, pildir-pildir, hang-mang, jilpang-jilpang, alang-jalang, mo‘lt-mo‘lt, lop, likang-likang, qilpang-qilpang, salang-salang, g‘ivir-g‘ivir, dik-dik, lik-lik, hilp-hilp, duv-duv, pir-pir, lang, dang, hil-hil* kabi.

Taqlid so‘zlar yakka holda, juft holda va takrorlangan holda qo‘llanadi. Juft va takrorlangan taqlid so‘zlar orasiga chiziqcha qo‘yiladi.

Taqlid so‘zlar mustaqil so‘zlar kabi gap bo‘lagi bo‘la oladi: *SHamol **g‘ir-g‘ir*** (hol) *esmoqda.*

Tovushga taqlid so‘zlar ba’zan otlashib, ko‘plik, egalik va kelishik qo‘shimchalarini qabul qiladi va **ega, qaratqich aniqlovchi** hamda **to‘ldiruvchi** vazifalarini bajaradi: *Odamlarning **g‘ovur-g‘ovuri** bosildi. YUragining **duk-dukini** eshitdi. **CHug‘ur-chug‘urning** to‘xtashi amri mahol.*

Modal so‘zlar tahlili	Undov, taqlid so‘zlar tahlili
1. Ma’no turi. 2. Qaysi turkumdan kelib chiqqan? 3. Gapda bajargan vazifasi	1. Ma’no turi. 2. Tuzilish turi. 3. Otlashgan-otlashmaganligi. 4. Gapda bajargan vazifasi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Taqlidning UGMsi nima?
2. Taqlidlar mustaqil so’zmi? Nega?
3. Taqlidlar va olmoshlar orasida qanday o’xshashlik bor?
4. Taqlidlarning LMTlari haqida gapiring.
5. Taqlidlarning tuzilishiga ko’ra turlarini misollar asosida tushuntiring.

6-ilova

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1.Otlashgan taqlid so‘z qaysi gap tarkibida qo‘llangan?

A) Yomon ishning oxiri voy. B) Mayna uyda yolg‘iz o‘tirib, uy tomini chertayotgan yomg‘irning taqir-tuqurini tinglardi.

C) Suvning shildir-shildiri kuchaydi. D) B, C.

2. *Davradagilar shivir-shivir gap boshlashdi.* Gapdagi *shivir-shivir* so‘zi qaysi so‘z turkumiga mansub?

A) ravish B) taqlid so‘z C) sifat D) modal so‘z

3. Tovushga taqlidni bildiruvchi so‘z qaysi gap tarkibida qo‘llangan?

A) Osmonda yulduzlar g‘uj-g‘uj. B) Bay-bay, zap choy bo‘libdi-da. C) Yalt-yult etib chaqmoq chaqdi. D) Ko‘chadan mashinalar viz-viz o‘tadi.

4. *«Atrofdagi ovozlarga gala-gala chug‘urchuqlarning vijir-vijiri qo‘shilib ketmoqda»* gapidagi taqlid so‘zning turini aniqlang.

A) holatga taqlid B) tovushga taqlid
C) harakatga taqlid D) ko‘rinishga taqlid

5. Holatga taqlid so‘zlarni toping.

A) lik-lik, qult, jiq, pix-pix B) yilt-yilt, jiq, dik
C) gurs-gurs, taq-tuq, lip D) tap-tap, g‘iz-g‘iz, hang-mang

6. Taqlid so‘zlardan qaysi so‘z turkumlarini yasash mumkin?

A) sifat, ravish B) faqat ot C) faqat fe’l D) ot va fe’l

7. Har ikkala qismi ham mustaqil qo‘llanmaydigan juft taqlid so‘zlar berilgan qatorni toping.

A) apil-tapil B) hang-mang C) taraq-turuq D) A va B

8. Taqlid so‘zlar qanday holda qo‘llanishi mumkin?

A) faqat yakka holda qo‘llanadi B) faqat juft holda qo‘llanadi
C) faqat takror holda qo‘llanadi D) yakka, juft yoki takror holda qo‘llanadi

9. *G‘at etgan karnaychi, baloga qolgan surnaychi*. Ushbu maqoldagi taqlid so‘zni toping.

A) etgan B) baloga C) g‘at
D) g‘at etgan birgalikda qo‘shma fe’l

10. Otlashgan taqlid so‘z ishtirok etgan gapni toping.

A) Shivir-shivir gaplar to‘xtamadi. B) Olomon g‘uv-g‘uv qaynaydi. C) Yuragi gup-gup urib ketdi. D) Tokchaga in qurgan musichaning g‘uv-g‘uvi eshitildi.

11. *Quyosh damini g‘ir-g‘ir esgan shamol kesar edi*. Mazkur gapdagi *g‘ir-g‘ir* so‘zi qanday turkumga mansub?

A) taqlid so‘z B) takror so‘z C) holatga taqlid so‘z
D) tovushga taqlid so‘z.

29 – 30 MAVZU ALISHER NAVOIYNING “XAMSA” ASARI HAQIDA ALISHER NAVOIYNING PAND-NASIHAT MAZMUNIDAGI ASARLARI HAQIDA (4 soat)

1. Shoirning qisqacha tarjimai holi.
2. Shoir asarlarida odob-ahloq.
3. shoir ijodida mehnatga, ona-Vatanga muhabbat.
4. Xulosa.

Adabiyotlar:

1. I. Ahmedov, va b. Bolalar adabiyoti, Xrestomatiya,1993y.
2. Suyumov, M. Jumaboev, Bolalar adabiyoti, Qo'llanma. 1994y.
1. M. Jumaboev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 1995y.
2. M. Jumaboev. O'zbek va jahon bolalar adabiyoti. Qo'llanma,1996y.

Alisher Navoiy 1441 yilning 9 fevralida xirot shahrida G'iyosiddin kichkina oilasida dunyoga keldi. Bo'lajak shoirning otasi temuriylar avlodidan edi.

Ilm-fanga , ayniqsa, badiiy adabiyotga juda erta ixlos qo'ygan Navoiy Sa'diyning «Guliston», «Bo'ston» kitoblarini, ayniqsa, Farididdin Attorning «Mantiqut-tayr» (Qush nutqi) asarini sevib o'qir va yod olar edi.

U faqat o'zbek, fors tillaridagi asarlarnigina emas, balki azarbayjon, turkmancha bitilgan nodir qo'lyozmalarni o'qigan, u tillar nafosati bilan o'z she'riyatini boyitishga intilgan.

Alilsher Navoiy o'zining juda ko'p asarlarida bolalar tarbiyasiga oid fikrlarni ilgari surdi. Ayniqsa, «Xamsa» ga kirgan «Hayratul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi dostonlarining ba'zi boblarini bola tarbiyasi egallaganini ko'ramiz. Bular orasida «Hayratul-abror» (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) dostonida falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta'limiy masalalarni qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Shoir bolalarni o'qimishli, odobli, rostgo'y, halol, pok, saxiy bo'lishga ota-onani, o'zidan kattalrni hurmat qilishga, insofliva adolatli kishilar bo'lib kamol topishga undaydi.

«Hayratul-abror» asarining bir necha boblari odob-ahloq va ta'lim-tarbiya masalasiga bag'ishlangan. Navoiy bu dostonini oltinchi maqolatida odob va kamtarlikni ulug'lab, ta'lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr va mulohazalarni bayon qilish bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Shoir dostonini bu maqolatida bola tarbiyasi, uni o'stirish, o'qitish va uni balog'atga etkazish to'g'risida hamda bu borada ota-onalarning vazifalari haqida batafsil fikr yuritadi. Shoir yoshlarni ota-onani xizmatini bajarishga, ularni hurmat qilishga, ularga nisbatan hamisha mexr-muhabbatli bo'lishga chaqiradi, ota-onani oy va quyosh deb ta'riflaydi.

«Farhod va Shirin» dostonida shoir chin sevgi va vafo, do'stlik va sadoqat, mehnat va ijodkorlik, vatanparvarlik hamda qahramonlik g'oyalarini tarannum etadi. Doston yoshlar va bolalarga atab yozilmagan, lekin asarning ko'pgina boblari bolalar va yoshlar hayotiga, ularning tarbiyasiga bag'ishlangandir. Shoir dostonda Farhodning bolalik chog'laridanoq ilm-hunarga, mehnatga bo'lgan muhabbatini zo'r mahorat va chuqur samimiyat bilan tasvirlagan. Bu Navoiyning bola tarbiyasiga va uning bilim olishiga katta e'tibor bilan qaraganligini ko'rsatadi.

«Mahbubul-qulub» uch qismdan iborat. Kitobning 1-qismi «Xaloyiq ahvoli va afg'oni va ahvolining kayfiyatida», ya'ni kishilarning ahvoli, fe'l-atvori va gap so'zlarining ahamiyati haqida bo'lib, bunda Navoiy donishmand va murabbiy, ulkanmadaniyat arbobi sifatida ilm-fan, san'at va adabiyotning ahamiyatini targ'ib qiladi, malakali, iqtidorli o'qituvchilarni, olimlarni, shoirlarni, san'atkorlarni maqtaydi, ularni hurmat qilishga va qadrlashga chaqiradi. O'qish ham, o'qitish ham og'ir va ma'suliyatli ish, u qunt, havas va mehnat talab qiladi, deb uqtiradi. Navoiy bu o'rinda murabbiylarning halol xizmatlarini alohida ta'kidlaydi.

Savollar:

4. Alisher Navoiyning bolaligi, o'qishi to'g'risida tushuncha bering?
5. «Xamsa» dostoni haqida nima bilasiz?
6. Navoiyning odob-axloq haqidagi asarlari?

Inson koinotdagi barcha narsalar ichida hammadan ulug‘i hisoblanadi. Uning kamoloti oldida aql hayron qoladi, - chunki inson haqiqat haqida chuqur o‘ylaydigan yagona aqlli mavjudotdir. Kamolot yo‘liga chiqish uchun asta – sekin o‘zligini izlaydi. Olamni taniydi. O‘zligini tark etadi, kamol topadi. Hazrat Navoiy komillik darajasiga yetish uchun umr bo‘yi izlagan va oxir-oqibat o‘zligini anglagan allomadir. Chunki Hazrat Navoiy «Kamol et kasbim» deya da’vat qilganlarida komillik uchun zarur juda ko‘p xususiyatlarni nazarda tutganlar. Kishi o‘zini hirs – ta’ma, nafs, g‘aflat, nodonlik singari moyilliklardan poklanmasa, u hech payt komil bo‘la olmaydi. «Olam uyida» yashash uning fuqorosiga aylanishdir. Mir Alisher Navoiy insonning jahon farzandi mavqeiga ko‘tarilishini hohlaganlar. Xuddi shu mavqeini esa kamolotning oliy cho‘qqisi deb bilganlar»1.

Navoiy o‘z davrida komil insonlarni ahli ma’ni deb bilgan va o‘zi ham butun faoliyati davomida mazkur g‘oyaga amal qilib ijod qilgan va ish yuritgan. Natijada u o‘zi yashagan jamiyat uchun ibratga molik xulq -atvor, axloq - odobni shakllantiruvchi asarlar yaratganki, bu butun bashar avlodi uchun bugungi kunda ham pandnoma va axloqqa yo‘naltiruvchi manba bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Xondamirning «Makorim ul- axloq» asari shu allomaning hayot yo‘li, xulq - atvori, muomalayu munosabati va davlat arbobi sifatida adolat va haqqoniyatga namunaligi haqida bo‘lib, uni o‘rganish bugungi yoshlarimiz uchun katta ibrat maktabini o‘tish demakdir.

2. XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab Xuroson va uning markazi Hirotda ilm – fan va madaniyat yuksaldi. Bunda Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod va Mirxond, Mavlono Sayfiy Buxoriy va Kamoliddin Husayn Jaloyir singari o‘nlab zabardast olim va adiblarning xizmati katta bo‘ldi.

Xondamirning ham bu ulkan madaniyatga qo‘shgan hissasi shubhasiz oz emas. U o‘zining o‘lmas tarixiy asarlari bilan ko‘p asrlik madaniyatimiz xazinasini boyitdi va ilm –fan tarixida o‘chmas iz qoldirdi.

Xondamir (to‘liq ismi: G‘iyosiddin ibn Humomiddin Muhammad ibn xoja Jaloliddin Muhammad ibn xoja Burhoniddin) 1475- yili Hirotda tug‘ildi. Uning otasi Humomiddin Muhammad o‘qimishli, fozil kishi bo‘lib, Sulton Abu Saidning o‘g‘li Sulton Mahmud mirzoning vaziri edi.

Onasi esa mashhur muarrix Mirxondning qizi bo‘lgan. Xondamir Xirotda o‘qib voyaga yetdi. U tarix, ilmu adab (adabiyot) va insho ilmlarini mukammal egallab zamonasining peshqadam olimi bo‘lib yetishdi. Uning yuksak kamolotga yetishishida o‘tkir zehni, teran fikri va zo‘r aql- farosatidan tashqari, Alisher Navoiydek rahnamo kishining bo‘lishi va uning ilmu fan va madaniyat ravnaqiga bo‘lgan oliy himmati ham sabab bo‘ldi, albatta. Navoiy ko‘p olimlar, shoirlar, naqqoshlar, xattotlar qatori Xondamirning ham ilmiy ishlariga bevosita rahbarlik qildi.

Xondamir tarixi ilmiga ko‘proq qiziqar va bu havas u balog‘atga yetgan hamono uyg‘ongan edi.

O‘sha zamonda Xurosonda eng boy hisoblangan Navoiy kutbxonasining kaliti Xondamirning qo‘liga topshirilib qo‘yilgan edi. Bu xususda Xondamirning o‘zi bunday yozadi: «Tarix va xabarlarni o‘z ichiga olgan ul buzrukvoning (Navoiyning) kutbxonasida mavjud bo‘lgan har bir kitob bu gadoning ixtiyoriga topshirildi» («Xulosat ul-axbor», v.2b)

Navoiy Xondamir olib borayotgan ilmiy ishlardan doimo boxabar bo‘lib turdi. Olim esa hamisha o‘z rejalarini Navoiy bilan kelishib tuzdi, ilm sohasida nimaiki qilmoqchi bo‘lsa, u bilan kengashdi, valine’matining maslahatlarini oldi.

Xondamir Navoiy vafotiga qadar uning huzurida boʻldi va bir qator muhim tarixiy asarlar yaratdi. Navoiyning vafotidan soʻng, zamonning zayli bilan, u ona yurti Balxga ketib qoldi va oʻsha vaqtda Balx saltanida oʻtirgan Badiuzzamon mirzo (1458-1511)ning xizmatiga kirdi. Badiuzzamon Navoiyning bu shogirdini oʻz qanoati ostiga oldi va koʻp iltifotlar koʻrsatdi. Xondamir sulton Husayn Boyqaroning vafotidan keyin Badiuzzamon bilan Hirotga qaytdi va to 1510 yilgacha shu yerda istiqomat qildi.

1527 yilda Xondamir Hindistonga ketishga qaror qildi. U 1528 yil 18 sentyabrda Hindistonda Bobur mirzo xuzuriga yetib keldi. Xondamir Boboʻrning vafotiga qadar hamma vaqt u bilan birga boʻldi.

Bobur vafotidan soʻng Xondamir toj-taxt vorisi Nosiruddin Humoyunning xizmatida boʻldi va uning yaqin kishilari qatorida joy oldi.

Xondamir 1535 yilda 62 yoshida vafot etdi va Dehlida Xoja Nizomiddin avliyo va Xusrav Dehlaviy mazoriga dafn etildi.

Xondamir bor-yoʻgʻi 62 yil umr koʻrdi. Lekin uning umri sermazmun, kelajak uchun foydali kechdi. U yaratgan oʻlmas asarlari tufayli oʻz nomini tarix sahifalariga abadiy naqshladi.

Bir soʻz bilan aytganda,, Xondamir oʻrta asr fani, xususan tarix ilmi taraqqiyotiga barakali hissa qoʻshdi. U Oʻrta Osiyo, Eron, Afgʻoniston hamda Hindistonning oʻrta asrlardagi ijtimoiy – siyosiy va madaniy hayotini oʻz ichiga olgan 10-ga yaqin yirik asar yaratdi. Uning koʻpgina asarlari originalligi va turli – tuman faktik maʼlumotga boyligi bilan muhim oʻrin tutadi. Uning asarlari: «Xulosat ul –axbor fi hvol il-ahyor» («Xayrli kishilar ahvolidan (jahon) xabarlarining xulosasi»); «Dastur al-voʻzaro» («Vazirlar uchun dastur»); «Makorim ul-axloq» («Olijanob sifatlar haqida kitob») va boshqalar.

3. «Makorim ul-axloq» Alisher Navoiyga bagʻishlangan asar boʻlib, u Xondamir tomonidan 1501 yilda yozib tamomlangan. Muallif bu haqda «Habib us –sayor»da quyidagicha yozadi: «Ushbu kitob Amir Alisher Navoiyning yuksak fazilatlari va oliyjanob axloqi, sheʼrlari va boshqa adabiy asarlarini hamda qurdirgan imoratlarini tasnif qiluvchi maxsus risola boʻlib, hijriy 906 yili Mir Alisher vafot etgan yili tahrir ipiga tizilgan edi» Asarning yagona nusxasi Britaniyada saqlanmoqda. Alisher Navoiyning tugʻilganiga 500 yil toʻlishi munosabti bilan mamlakatimizda oʻtkazilgan yubileyga tayyorgarlik vaqtida 1939 yilning yozida uning mikrofilmi olindi. Mashhur oʻzbek Sharqshunos olimi marhum Ibodullo Odilov ana shu mikrofilmdan koʻchirgan nusxa asosida asarlarini yangi nusxasini yaratdi.

«Makorim ul-axloq» 10 bob (maqsad), muqaddima va xotimadan iborat. Asar muqaddimasida Alisher Navoiyning tugʻilgan hamda uning bolalik va iga oid ayrim muhim maʼlumotlar keltirilgan.

Birinchi bob Alisher navoiyning yuksak aqlu – idroki haqida hikoya qiladi. «Agar kishining dimogʻi fazosi tamiz nurlaridan bebahra boʻlsa, - deb yozadi Xondamir,- dinu islom chirogʻi uning dili xonasini yoritmaydi».

Xondamir bu bobda oliyjanoblik, donolik, bashorat singari xislatlar Navoiyda mujassamlashganini taʼkidlab, mamlakat hayoti bilan bogʻliq faoliyatidan misollar keltirish bilan oʻz fikrlarini dalillaydi.

«Toʻgʻri yoʻl koʻrsatyvchi (bu) amir, - deb yozadi asarning ikkinchi bobida Xondamir, bolalik kunlaridan to qiyomatning oxirigacha barakani koʻpaytiruvchi vaqtning koʻp qismini ilmu kamolot kasb qilishga sarflaydi» (6. 136) Xondamir Navoiyning Abu Sayid mirzo zamonida Samarqandda tahsil qilganini xikoya qilar ekan, uning zamonasining ikkinchi Ibn Sinosi boʻlgan xoja Fazlullox Abulaysin bilan birga boʻlganligini va undan fikh (huquq), falsafa va boshqa ilmlarni oʻrganganligini aytadi,

undan tashqari, yana shu bobda Navoiyning Xirotga qaytgach (1469 y) ahli ilm va shoirlarga zo‘r marhamat ilmu – fanning rivoji yo‘lida qilgan xizmatlari, shu maqsadda Xirotda qurdirgan madrasa (Madrasayi ixlosiya, Madrasaiy nizomiya) lari, xonakohlari, «Shifohiya» deb atalmish tibbiyot bilim yurti va ularda dars bergan mashhur mudarrislar haqida batafsil hikoya qilinadi.

Asarning uchinchi bobi Alisher Navoiy she’riyatidagi mahorati xususidadir. Xondamir buyuk shoir she’riyatining turli janrlarida (qasida, g‘azal, ruboiy, masnaviy) zo‘r mahorat bilan ijod etganligini aytadi. «Navoiy, - deb xikoya qiladi Xondamir, - garchi har ikkala tilda, ya’ni fors va turk tillarida barobar she’r yozish quvvatiga ega bo‘lsa-da, lekin turk tilida she’r yozishni afzalroo‘rardi» (18 b. –19 a) Mualliflar bu yerda Navoiy bilan Lutfiyning uchrashuvlaridan biri haqida xikoya qilar ekan, barcha turkiy halqlarning har ikkala buyuk siymosi o‘rtasida bo‘lgan suhbatni esga oladi. Suhbat vaqtida utfiy avoiydan yozgan she’rlaridan biror parcha o‘qib berishini so‘raydi, u mana bu baytni o‘qib beradi:

Orazin yong‘oq ko‘zimdan sochilur har lahza yosh,

Bo‘ylakim paydo bo‘lur yulduz nihon bo‘lgach quyosh.

«Janob Mavlaviy (ya’ni Lutfiy) – deb yozadi Xondamir, - bu g‘azalni eshitgach, hayrat daryosiga cho‘kib dedikim: va Alloh agar nasib bo‘lsa, o‘zimning 10-12 ming bayt forsiy va turkiy (she’rlar) ilmni va shu g‘azalga badal qilardim (ya’ni almashtirardim)»(19 a).

Xondamir Navoiyning she’riy asarlari («Hamsa», «Chor devon», «G‘aroyib us-sig‘ar», «Navodir ush-shabob», «Bado‘ye ul-vasat», «Favond ul-kabir») ga qisqacha to‘xtalib, uning adabiyot nazariyasiga, xususan aruz ilmiga bag‘ishlangan «Mezon ul - afzon» va olti ming bayt, qasida va g‘azallardan iborat forscha devon ham yozib ham yozib, zo‘r shuhrat topganini aytadi. U Navoiygacha hech kim turkiy tilda 260 ruboiy yozmaganini ham ta’kidlaydi.

«Makorim ul-axloq» ning beshinchi bobida Navoiyning yirik davlat arbobi bo‘lganligi, olimlar, xususan ko‘zga ko‘ringan shayxlarga qilingan katta himmati, shuningdek darveshlar, mehnatkash halqqa ko‘rsatayotgan marhamatlari, ular uchun qurdirgan honaqoxlari, mamlakat obodonligi yo‘lida barpo qilgan boshqa qurilishlari (rabotlar, langarlar) hususida hikoya qilinadi. Bu bobda uning shayxlarga atab yozgan «Nasoim ul- muhabbat» asari haqida ham ma’lumotlar bor.

Navoiy el-yurtni obodonlashtirishda katta xizmat ko‘rsatdi, bu ishga u jamg‘armalaridan katta mablag‘ sarfladi. «Makorim ul-axloq» ning oltinchi bobida uning 1499 yili Hirot atrofida ulkan Jomiy masjid qurdirgani, chala vayron bo‘lib ketgan Muhammad ibn Som davrida qurilgan. Jomiy masjidini qayta tiklanganligi, shuningdek, shahar va qishloqlardagi 12 masjidni ta’mirlaganligi haqida so‘z boradi.

Asarning 709 boblarida Navoiyning insoniylik va kamtarlik xislatlari bayon qilinadi. Xondamir bu boblarda ulug‘ mutafakkirning hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina hikoyatlar ham keltiradi. Bulardan ba’zilarini qisqartirib keltiramiz.

Bir vaqtda Suoton Husayn mirzo Xurosondan 3000 oilani Xorazmga ko‘chirib yubormoqchi bo‘ldi. Navoiy bu hol odamlarga shuningdek, mamlakat ahvoliga putur yetkazishini podshohga ochiq aytadi. Sulton Husayn bir oxz o‘ylanib qoldi va so‘ngra bu fikridan qaytdi. Demak, ulug‘ shoir minglab odamlarni sarsongarchilik va muxojirlik azobidan xalos etdi.

1501 yilning boshlartda Sulton Husayn Astrabot isyonni bostirish uchun sarf bo‘ladigan katta harajatlarni bir qismini solix solish yo‘li bilan to‘plashni Xirot xokimi Valibekka buyurdi. U ko‘rsatmaga binoan yuz ming dinor to‘plashi lozim edi. Biroq u

buluklardan faqat uning yarmini to‘pladi, qolgan qismini esa Xirot axolisidan jon solig‘i (Sari shumo) sifatida odam boshidan undirishga qaror qildi.

Navoiy Valibekning bu qarorini eshitib, Xirot axolisi zimmasiga solinmoqchi bo‘lgan 50 ming mablag‘ni o‘zining xususiy jamg‘armalaridan ajratib Valibek qarorgohiga jo‘natdi. Bu bilan u ko‘pgina nochor va ko‘p farzandli oilalarni jazolashdan saqlab qoldi.

Alisher Navoiy hayotining so‘ngi kunlari ham asar xotimasida bayon etiladi. 1500 yili dekabr oyida Sulton Husayn boyqaro Astrabotdan chiqib Xirot tomon yo‘l oldi. Navoiy bu xabarni eshitib 1501 yil 3 yanvar kuni bomdod nomozidan keyin Sulton Husayn istiqboliga otlandi. Raboti pariyondan o‘tgach bir farsah nariroqda podshoh tushgan mixofa ko‘rinadi. Anchadan bemorligi va buning ustiga bosilgan ko‘p yo‘l o‘zini namoyon qildi. Navoiy Xazratlarining umumiy ahvoli zaiflashdi. U Xoja Shaxobiddin Abdullani yoniga chorlab o‘zidan boxabar bo‘lib turishini iltimos qiladi. So‘ngra otdan tushib Sulton Husayn mirzoning xuzuriga muqobil bo‘ldi. Navoiyni bir qo‘ltig‘idan Xoja Shaxobiddin, ikkinchi qo‘ltig‘idan esa Mavlono Jaloliddin Kosim tutib borardilar. Podsho va Navoiy quchoqlashib ko‘rishdilar, so‘ng hol – ahvol so‘rashgan bo‘ldilar. Shu payt Navoiy birdan bexush bo‘lib qoldi. Uni darhol podshoning mixofasiga solib Xirot tomon olib ketdilar. Tajribali tabiblar Navoiyni molaja qildilar, ammo bu o‘rinishlar bexuda ketdi. Navoiy 1501 yil 3 yanvarda buyuk shoir, adib, yirik davlat arbobi, ajoyib inson olamdan o‘tdi.

Buyuk shoir, faylasuf, alloma, davlat arbobi Alisher Navoiy xulq - atvori, fe’li va faoliyati davomida qilgan ezgu ishlari hamda o‘z asarlarida odamiylik fazilatlarini tarannum etib, katta bir axloq maktabini yaratganligini aks ettiruvchi «Makorim ul-axloq» asari bugungi kunda ham yoshlarimizni milliy ruhda tarbiyalashga tayanch manba bo‘la oladigan asarlardan biridir. Chunki, unda g‘azal mulkining sultoni Alisher Navoiy bobomizning ta’limoti o‘z aksini topgan.

Alisher Navoiy ta’limotida esa insonni komillikka xidoyat qiluvchi jabhalar soni ming bitta Jumladan, ta’limotda ma’rifatga erishgan har bir kishi axloq jihatdan pok, ko‘ngli oq, lavzi halol bo‘lishi shartdir deb ta’kidlanadi. Masalan Navoiy Farxodni bunday ta’riflagan:

Demaki, ko‘ngli poku ham so‘zi pok,

Tili poku o‘zi pok.

Inson o‘z fe’lini yaxshilashi, xulqini poklashi, qaobini musaffo qila olishi, o‘ziga uning intilishiga bog‘liq. Agar bunga amal qilmasa yomon fe’llarga o‘rganib, razolat botqog‘iga botishi mumkin.

Demak, inson o‘z-o‘zini poklashi uchun doimo saxovatli bo‘lishga intilishi va ularga qarshi bo‘lgan fe’llardan uzoqlashishi lozim. Pokiza xulq odamiylik gavhari, u kishini inson sifatida ulug‘laydi, tuban axloq esa odam umrining zavoli. Pok e’tiqodli, zukko va mehnatsevarligi tufayli har bir kishining hurmatini qozonish mumkin.

Bunga Xazrat Navoiyning hayoti va u haqda o‘z zamonasining tan olinib yozilgan «Makorim ul-axloq» asari dalildir.

Bugungi yoshlarimizga Navoiydek allomaning xulq - atvorini, o‘zini tutishi va ish yuritishini misol qilib ko‘rsatar ekanmiz, yoshlarni o‘zini- o‘zi tarbiyalashi, o‘zi uchun namuna sifatida tanlab olinadigan va izidan borishga harakat qiladigan haqiqiy inson idealini birga bergan bo‘lamiz.

Yoshlar ideali o‘ziga xos andaza bo‘lib, hayotda u bilan tenglashishni istaydilar, hech bo‘lmagnda asarlarini o‘rganishga ishtiyoq paydo bo‘ladi.

Navoiy asarlrini o‘rganish – Navoiy ta’limoti asoslaridan barhamand bo‘lishdir. Navoiy ta’limoti esa insoniy fazilatlarning barchasini qamragan va asosiy dalillar bilan mustahkamlangan bir butun tizimdir.

Jumladan, Alisher Navoiy sabr-qanoat xususida shunday deganlar.

«Kimki sabr-qanoatni o‘ziga kasb qilgan bo‘lsa, balki bu uni boy qiladi. Oltin kumush bilan zebu ziynatlarni boylik deb bilma, balki haqiqiy boylik sabr -qanoat oltinlaridir. Qanoat oltin hech qachon yo‘qolmaydi, ana shu oltinni qo‘lga kiritib, shu orqali boyishga harakat qil. Kulbada qanoat qilib o‘tirgan darvesh ta’magir podshohdan afzaldir. Qanoat qilganning joyi izzat taxtidadir». Demak, sabr-qanoat, osudalik, xotirjamlik tuyg‘usi bo‘lib, kishi nafsini har qanday ta’malardan ehtiyot qiluvchi jarayondir. Qanoatli kishi sabrli, chidamli bo‘lishi bilan birga xasad, xirs. Xorlik kabi illatlardan uzoqda bo‘ladi. Qanoat bu kishi ma’naviyatini xazinasi bo‘lib, u pokliklikka chorlaydi. Muxtojlikdan uzoqda bo‘lishini ta’minlaydi. Qanoatli kishi ruhi ozod – erkin bo‘ladi.

«Makorim ul-axloq» da o‘rganishga arzigulik hodisalar, ibratli laxzalar ko‘p. Shulardan biri shox Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyning o‘zaro do‘stliklari. Xattoki Navoiy betobligiga qaramasdan Husayn Boyqaroning kelayotganligini eshitib, unga peshvoz uzoq va mashaqqatli yo‘l bosib kerakli manziliga yetib boradi. Do‘sti bilan quchoqlashib ko‘rishgach xushidan ketadi va shu bilan vafot etadi. Albatta qayg‘uli manzara, biroq, ibrat olsa arzigulik holat. Navoiyning do‘stlikka bo‘lgan yuksak e’tiqodini yoshlarga tushuntirayotganda do‘stlikning uzilmas rishtalari: mehr, iymon, diyonat va vijdon uyg‘unligini izohlash maqsadga muvofiqdir.

Dunyo safosi bilan do‘st vafosi bilan go‘zal – deydi xalqimiz. Soxta do‘st bamisoli soya. Quyoshli kunda undan qochib qutilolmaysan, bulutli kunda axtarib topolmaysan.

Bir so‘z bilan aytganda, Navoiyda inson oliy mavjudot deb ta’riflanadi. Inson olamidagi butun narsalardan ustun turadi, dunyoda unga teng keladigan hech narsa yo‘q.

U xalq va uning manfaatlari yo‘lida g‘amxo‘rlik qiladigan kishilarni uoug‘laydi. Odamlar xursandchiligini o‘z xursandchiligi, noxushligini noxushlik deb biladilar. Xalq manfaati uchun ishlamaydigan, xalqning baxt-saodati yo‘lida kurashdigan, o‘zi pok dili pok odamlarni haqiqiy Inson deb biladi.

XULOSA. Donishmand bobomiz haqida yozilgan «Makorim ul- axloq» bugungi kunda ham o‘z jozibasi va Navoiydek buyuk bir allomaning hayot chizgilarini real berganligi bilan katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1.Qaysi ijodkor tilni «Kungil xazinasining qulfi» so‘zni esa shu «Xazinaning kaliti» deb ta’riflangan.

A) A.Navoiy
B) Bobur
C) A.Avloniy
D) Lutfiy

2.Navoiyning «Lisonut-tayr» dostonida qushlar bosib utadigan 7- manzil qaysi javobda to‘gri ko‘rsatilgan.

A) Riyozat, Manzil, Makon, Lomakon, Fano, Maqom, Yuklik.
B) Muxiblik, Muridlik, Oshiqlik, Oriflik, Darveshlik, Obitlik, Sukut.
C) Talab, Ishq, Ma’rifat, Istogno, Tavxid, Xayrat, Fano.
D) Shariat, Tariqat, Ma’rifat, Haqiqat, Fano, Baqo, Rizo.

3.Boshni fido ayla ato qoshiga Jismni qil sadqa ano qoshiga Tun – kununga aylagali nur quyosh Birisin oy ayla birisin quyosh. Mazkur misralar Navoiyning qaysi asaridan olingan.

A) «Hayratul –abror»
B) «Sab'ay –sayyor»
C) «Mezonul –avzon»
D) «Farhod va Shirin»

4 .A.Navoiyning "Hayratul abror"asariga yaqin turadigan kimning qaysi asari?

A)Hamzaning "Qiroat kitobi"
B)Avloniyning "Turkiy guliston"
C) Hamzaning "Yengil adabiyot"
D) Gulxaniyning "Zarbulmasal"

5.Ushbu satrlar muallifi to'gri ko'rsatilgan javobni toping. Ki jo olam, binosi bo'ldi bunyod. Bu yanglig qilmadi ish odamizod.

A)Avloniy
B)Hamza
C)A.Navoiy
D)Bobur

6.Qaysi ijodkor tilni «Kungil xazinasining qulfi» so'zni esa shu «Xazinaning kaliti» deb ta'riflangan.

A)A.Navoiy
B)Bobur 20
C)A.Avloniy
D)Lutfiy

7.Navoiy komil, eng oliy borliq deb xisoblagan qushning nomi nima (Lison ut-tayr)

A)Xudxud
B)Murshid qush
C)Semurg'
D)To'gri javob yo'q

Adabiyotlar

1.Axmedov B.. Tarixdan saboqlar. T. «O'qituvchi» - 1994 yil.
2.Ulfat Mahkamov. Axloq - odob saboqlari. T. «Fan» 1994.
3.Boboev H., Z.G'ofurov, Z.Ismoilov. Milliy istiqlol mafkurasi va taraqqiyot. T. «Yangi asr avlodi» 2001.
4. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. T. 2001.
5.To'raeva O.. M. Turopova. Odobnoma. 5-8 sinflar.
6.Xoshimov K.va boshqalar.. Pedagogika tarixi. (Ma'ruzalar matni) T. 2001.
7.Ibrohim Haqqul. Tasavvuf va she'riyat. Toshkent. G'ofur G'ulom nashr. 1991. 136 bet.

GLOSSARIY

Sari shumo - jon solig'i.

«Xulosat ul –axbor fi ahvol il-ahyor» - («Xayrli kishilar ahvolidan (jahon) xabarlarining xulosasi»).

Xondamir - (to'liq ismi: G'iyosiddin ibn Humomiddin Muhammad ibn xoja Jaloliddin Muhammad ibn xoja Burhoniddin) 1475- yili Hirotda tug'ildi.

31-MAVZU: GULXANIYNING “ZARBULMASAL” ASARI HAQIDA 2 SOAT

Ma`ruza mashg`uloti mavzulari

1. «Zarbulmasal» haqida tushuncha.
3. Gulxaniy masallari.
4. Xulosa.

Gulxaniy XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlaridan boshlab ijod etgan va bu davr o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan yozuvchilardan biridir. Uning asl-ismi-sharifi Muhammad sharif bo‘lib, Gulxaniy esa uning adabiy talaxxusidir. Taxminlarga ko‘ra XVIII asrning 70-yillarida hozirgi Xo‘jand viloyatining Darvoza qishlog‘ida dunyoga keladi.

U o‘z ilmini oshirish maqsadida avval Namangan va so‘ngra Farg‘onaga keldi, qiziqchiligi, hozirjavobligi va hajviy she’rlari bilan kishilar o‘rtasida tanila boshlaydi. Ayniqsa, g‘ariblik turkumidagi ruboiy va to‘rtliklari bilan el og‘ziga tushadi. Shoir keyinchalik Qo‘qonga keladi va bu erda ko‘p qiyinchiliklar bilan yashaydi. Tirikchilik o‘tkazish uchun hammomda o‘t yoquvchi bo‘lib ishlaydi.

«Zarbulmasal» xalq ertaklari taxlitida yozilgan mukammal mazmunli o‘tkir saritik asardir. Gulxaniy o‘zining bu asarida xalqning mazmundor maqollari, hikmatli so‘zlari va qoririq gaplaridan mohirlik bilan foydalanadi. U hukmdorlar va ularning laganbardorlarini, saroy ahlining yaramas kirdikorlarini majoz yo‘li bilan o‘tkir satira ostiga oladi. Chunki u mehnatkash xalqning og‘ir, mashaqqatli hayotini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi, saroy bazmlari, keti uzilmas mayparastliklar, xalqni talash hisobiga bo‘lishini payqadi va bunday salbiy ishlar uning ko‘zini ochdi. Natijada unda saroy aristokratiyasiga nasbatan nafrat hissi tabora oshib bordi. Ammo shoir, shariatga ko‘ra, hukmron doiralardan noroziligini va nafratini ochiq-oydin ifodalay olmas edi. Shuning uchun majoziy shakldagi «Zarbulmasal» asarini yozishga kirishdi. Asarda shoirning maqsadi, hayotga, uni o‘rab olgan muhitga, hokim tabaqalarga bo‘lgan munosabati to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifoda etilmay, balki hayvonlar, qushlar va shunga o‘xshash majoziy obrazlarning tasviri orqali ifodalanadi. Shoir shu zaylda o‘zi yashagan zamon uchun aniq va xarakterli voqea-hodisalarni, ularga o‘zining munosabatini, qarashlarini tasvirlaydi.

Muallif o‘z masalalarida majlziy obrazlar orqali o‘sha davrda hukmron sinf vakillarini fosh qiladi, mamlakatga xarobalik, xalqqa qashshoqlik keltirgan o‘zaro urushlarga qarshi ommaning noroziligini ifodalaydi.

Gulxaniy o‘z zamonasida sodir bo‘layotgan talon-taroj, xalqni qiynash, ortiqcha soliqlar solish kabi voqealarni ochiqdan-ochiq yoza olmas edi. U buni faqat ertak yo‘li bilan amalga oshirish mumkin ekanligini tushunadi.

Maymun bilan Najjor (Nasriy bayoni) Kashmir o‘lkasida go‘zal, dov-daraxti ko‘p, sermeva, xushbo‘y gullari, rohatijon suvlari serob bir tog‘ bo‘lardi.SHu yerda Maymun iste‘qomat qilardi.Kunlarning birida o‘z hunarini yaxshi bilgan, mohir duradgor shahar azoblaridan qutulib, yog‘och izlab shu toqqa keladi. Bir yog‘ochni kesib,pona qoqib, unutib qoldirgan teshasini olib kelishga jo‘naydi.Buni kuzatib o‘tirgan Maymun duradgorga g‘avasi kelib tezda u kesgan yog‘ochning ustiga chiqib olib, uning ishini davom ettirmoqi bo‘ladi. Dumi yog‘och yorig‘iga kirib qolib dumidan ajraladi. Najjor juda aqlli va mohir hunarmand. U «shaharning zindonidan ozod o‘lib” toqqa chiqadi. Tog‘ni sevib qoladi.» Tog‘ning Shiriniga Farhod” bo‘lib

qoladi. Gulxaniy uning mehnati va mehnatdagi mahoratini ulug‘laydi. Shu yo‘l bilan asarda hunarni va hunar ahlini kuylash va ulug‘lash, kishilarni hunar o‘rganishga chaqirish kabi muhim g‘oyani ilgari suradi.

Maymun nihoyatda kaltafahm, u aql-farosatini ilatmagani tufayli dumi yog‘och orasiga qisilib qolib, dumidan ayriladi.

Toshbaqa bilan Chayon (nasriy bayoni) Bu masalda hikoya qilinishicha Iroqdan Hijozga kelayotgan Toshbaqa yo‘lda Chayon bilan uchrashadi. Ular birga ketayotganlarida daryoga duch keladilar. Toshbaqa daryodan so‘zib o‘tib orqasiga qarasa, Chayon daryo qirg‘ogida turibdi. Qaytib qirg‘oqqa kelib,ustiga Chayonni mindirib yana qirg‘oq tomon suzadi. Chayon esa Toshbaqaga nish urmoqchi bo‘ladi. Buni sezgan va Chayonni avval ogohlantirgan Toshbaqa suvga shung‘ib munofiq va xiyonatkor Chayonni suvga cho‘ktirib yuboradi.

Masalda Toshbaqa aqlli, bardoshli, fahm-farosatli inson; sadoqatli do‘st sifatida gavdalansa, Chayon yaxshilikni bilmaydigan, yaxshilikka yomonlik bilan javob beradigan, do‘stiga ham xiyonat qiluvchi, fikri-zikri birovga yomonlik qilish bo‘lgan kishilar sifatida tasvirlanadi.

Gulxaniy bu masal orqali Chayonga uxshagan yomonlar bilan do‘st tutinma, undaylardan ehtiyot bo‘l, chunki yomon xech qachon yomonligidan qolmaydi, degan muhim didaktik fikrni ilgari suradi.

Gulxaniy masalda yaxshi murodiga yetadi, yomon doim jazoga uchraydi, yaxshilik murod sari yetaklaydi, yomonlik halokatga duchor qiladi, degan didaktik xulosa chiqaradi.

Tuya bilan Bo‘taloq Kunlardan bir kuni sarbon tuyasiga yuk ortib yo‘lga tushadi. Tuyaning orqasidan bolasi ham ergashadi. Ortilgan yuk og‘ir, manzil uzoq, havo issiq, yo‘l esa jazirama sahro edi. Ona ketidan ergashgan, yo‘lda ochiqib, charchagan Bo‘taloq bir oz to‘xtashni onasidan zorlanib so‘raydi. Ko‘zlaridan yosh suvdek oqayotgan, to‘xtashning ilojini topa olmagan ona: mening ixtiyorim sarbonning qo‘lida. Menda agar zarra ixtiyor bo‘lganda, og‘ir yuk ostida qolmagan bo‘lur erdim, deb javob beradi.

Gulxaniy bu masalda sarbon, Tuya va uning Bo‘talog‘i obrazlari orqali mehnat ahlining og‘ir turmushini, erksizligini tasvirlaydi, inson haq-huquqi poymol qilinganligiga e‘tiroz bildiradi. Mazlumlarning ohu faryodi, shikoyatini zo‘r mahorat bilan ifodalaydi.

“Zarbulmasal” asarining qisqacha mazmuni.

Farg‘ona iqlimida Kayqubod ismli podshohdan qolgan eski bir shahriston bor ekan. U shaxarda Boyo‘g‘li bilan Boyqush yashar ekanlar. Ularning bir qizi bo‘lib, oy desa oydek kun desa kundek go‘zal edi. Bu go‘zalning ismini Kunushbonu der edilar. Boyo‘g‘lidan bir yog‘och masofa uzoqroqda Yapaloqqush va uning o‘g‘li Kulangir Sulton yashaydi. Yapaloqqush o‘g‘li Kulangir sultonga Kunushbonuni olib bermoqchi bo‘ldi va Ko‘rqushni Boyo‘g‘lining uyiga sovchilikka yuboradi. Boyo‘g‘li kengashib so‘ngra javob berishini, bilish uchun yana bir kelishini aytadi. Bu javobni Ko‘rqush Boyo‘g‘lining “iliq so‘zi” bilib, uni Yapaloqqushga yetkazadi. Bu xabar qushlar shohi Malikshohinga borib yetadi. U xazinachi Kordon bilan xizmatkori Turumtoyni to‘y xarajatlarini aniqlash uchun Boyo‘g‘lining uyiga yuboradi. Ular urtasida uzoq munozara boradi. Boyo‘g‘li qizi uchun ming chordevor talab qiladi. Nihoyat, yana Ko‘rqush borib Movaraunnaxr mamlakatidan ming chordevor berishga rozi ekanliklarini aytadi.

To‘y bo‘ladi. Gulxaniy Boyo‘g‘li, Yapaloqqush va Kulangir sulton obrazlarida o‘zlari koshonada yashab, vayronagarchilikning sababchisi va tarafdori bo‘lgan, mol-mulk orttirishga intilgan ba‘zi amaldorlarni tanqid qiladi.

DARSNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Gulxaniyning tarjimai holi haqida nimalarni bilasiz?
2. «Zarbulmasal»dan kutilgan maqsad nima?
3. Gulxaniyning qanday masallarini bilasiz?

Adabiyotlar:

I. Ahmedov, va b. Bolalar adabiyoti, Xrestomatiya,1993y.
Suyumov, M. Jumaboyev, Bolalar adabiyoti, Qo‘llanma. 1994y.
3. M. Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 1995y.

GLOSSARIY

Bo’taloq – tuyaning bolasi.

Kulang – kurka, turna.

Qayqubot - eramizdan avvalgi VII-VI asrlarda o’tgan eron shohlaridan birining ismi.

«**Zarbulmasal»** - xalq ertaklari taxlitida yozilgan mukammal mazmunli o‘tkir saritik asardir.

Najjor – duradgor.

Hudhud – sassiqpopishak.

32-33-34-MAVZULAR. A.AVLONIYNING PEDAGOGIK FAOLIYATI. “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARINING TA’LIMIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI. H.H. NIYOZIY MA’RIFATI. UNING TA’LIMDA JORIY ETILGAN O‘QISH KITOBLARI MOHIYATI

A.AVLONIYNING PEDAGOGIK FAOLIYATI. “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARINING TA’LIMIY VA TARBIYAVIY AHAMIYATI. H.H. NIYOZIY MA’RIFATI. UNING TA’LIMDA JORIY ETILGAN O‘QISH KITOBLARI MOHIYATI

Buyuklarning, el-yurtga xizmati singgan ulug‘ kishilarning nomlari mangulikka daxldor bo‘ladi. Asrlar osha unday odamlarning xizmatlari qayta-qayta tilga olinaveradi. Ana shunday ulug‘ zotlardan biri, mashhur muallim, tashkilotchi, shoir Abdulla Avloniydir. Prezidentimiz qachon ta’lim-tarbiya haqida gapiradigan bo‘lsa, albatta, Abdulla Avloniy haqida to‘xtaladi. Uning ibratomuz so‘zi va ishini misol qilib aytadi: «Men Abdulla Avloniyning «Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo siyocat, yo falokat masalasidir» degan fikrini ko‘p mushohada qilaman» — deb, bu muallimning bosib o‘tgan hayot yo‘lini yoshlarga ibrat qilib ko‘rsatadi.

Ha, ana shunday maqtovga loyiq inson, o‘zbek madaniyatining ulkan vakillaridan biri, pedagog, jamoat arbobi va yozuvchi Abdulla Avloniy 1878- yilda Toshkent shahrida to‘quvchi oilasida dunyoga keldi.

Abdulla Avloniy boshlang‘ich diniy maktabda va madrasada o‘qidi, ilm-fanga ixlos qo‘ydi. O‘zbek va boshqa SHarq xalqlari adabiyotini berilib o‘rgandi. Abdulla Avloniy 14 yoshidan boshlab she’rlar yozishni mashq qila boshladi. Uning bu davrda yozgan ilk she’rlari o‘sha davr vaqtli matbuot sahifalarida bosilib turdi.

Abdulla Avloniy xalqni ilm-fan nurlaridan bahramand qilishni o‘zining birdan bir burchi deb bildi va 1904- yilda o‘zi yashab turgan joy — Mirobodda maktab ochdi. Abdulla Avloniy maktab har tomonlama bolani o‘ziga tortishi uchun harakat qiladi. Uning qo‘lidan duradgorlik ishlari ham kelar edi. SHuning uchun u yozuv taxtasi, parta yasab, barcha o‘quv jihozlarini o‘zgartirdi. Bu yerda o‘qiydigan bolalarning ko‘pchiligini kambag‘allarning bolalari tashkil etganligi sababli muallim boy-badavlat do‘stlarining ko‘magida «Jamiyati xayriya» tashkil etadi. Bu bilan bolalarga bepul kiyim-bosh, oziq-ovqat, daftar, qalam berilishini ta’minlaydi.

Avloniy ochgan maktabning shuhrati tobora ortib, o‘quvchilarning soni ko‘paya boradi. Abdulla Avloniy o‘zi tashkil qilgan maktabda bolalar diqqatini asosiy fanlarga jalb etib, ularning tezda savodini chiqarishga va aniq fanlardan bahramand bo‘lishlariga harakat qildi. U bolalarga jug‘rofiya, tarix, adabiyot, til, hisob, handasa, hikmat (fizika) kabi fanlardan ma’lumotlar berdi. U 1907- yilda «SHuhrat» deb nomlangan gazeta tashkil etdi va uning sahifalarida mehnatkash xalq manfaatlarini himoya qilishga doir fikrlarni targ‘ib etdi. Jumladan, gazetaning birinchi sonida: «Matbuot har insonga o‘z holini ko‘rsatuvchi, ahvol-olamdan xabar beruvchi, qorong‘u kunlarni yorituvchi, xalq orasida fikr tarqatuvchi, ilm, ittifoq, hikmat g‘oyalarini yoyuvchidir», deb yozgan edi.

Abdulla Avloniy «Adabiyot yoxud milliy she’rlar» deb nomlangan to‘rt qismdan iborat bo‘lgan darsligida yoshlarni maorif-madaniyatga chorlaydi, yaramas xulq-odatlarni esa tanqid qiladi.

O‘sha davr xalq pedagogikasida Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» — «Alifbe», «Ikkinchi muallim» — «O‘qish» kitoblari katta rol o‘ynadi. Bu kitoblarda Avloniy o‘tmish adabiyotimizning eng yaxshi an’analarini davom ettirdi, ilm va ma’rifatning ahamiyatini yangichasiga talqin etdi. «Birinchi muallim»da Avloniy dastavval 32 harfning yolg‘iz yoziladigan shakllarini bir sahifa alifbo tartibida bergan. SHu sahifada alifning so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida yozilishini ko‘rsatgan, so‘ng alifni barcha «bosh harflar»ga qo‘shib, bo‘g‘inlar hosil qilgan. «Ikkinchi muallim»da axloq-odobga doir, halollik va poklikka oid turli she’rlar, hikoya, masal va ertaklar jamlangan, rang-barang allegorik qiyofalardan ustalik bilan foydalangan.

Kitob «Maktab» she’ri bilan boshlanadi. Unda kimki maktabga borsa, o‘qisa, savodxon bo‘lsa, juda ko‘p narsalarga erishishi chiroyli ta’riflanadi:

Maktab dur-u gavhar sochar,
Maktab sizga jannat ochar,
Maktab jaholatdan qochar, G‘ayrat qilib o‘qing, o‘g‘lon!

Darslikda ko‘plab ibratomuz she’r, hikoya va ertaklar berilgan.

Abdulla Avloniy 1904- yildan umrining oxiriga qadar o‘qituvchi bo‘lib ishladi. U ko‘plab she’rlar, «Maktab gulistoni», «Turkiy guliston yoxud axloq» kabi darsliklar bilan hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyotiga poydevor qo‘ygan edi. Uzoq yillar qayta-qayta nashr etilgan «Turkiy guliston yoxud axloq» Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig», Nosir Xusravning «Saodatnoma», Sa’diyning «Guliston» va «Bo‘ston», Jomiyning «Bahoriston», Navoiyning «Mahbub ul-qulub», Donishning «Farzandlarga vasiyat» asarlari kabi o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Unda Abdulla Avloniy o‘zining ijtimoiy va axloqiy qarashlarini bayon etgan. Asarning so‘zboshisida muallif bu haqda shunday yozadi: «Men bu asarimni maktablarimizning yuqori

sinflarida ta’lim bermak ila barobar ulug‘ adabiyot muhiblari — axloq havaskorlarining e’tiborlariga taqdim qildim».

Darslikdagi har bir bo‘lim ta’lim-tarbiyaning muhim bir masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning biri ikkinchisini to‘ldiradi, takomillashtiradi. Har bir bo‘limda kichik hajmli, ibratli hikoyalar keltiriladi, she’riy parchalarda yoki hikmatli so‘zlarda «qissadan hissa» chiqariladi.

Yozuvchi bu asarida xalq og‘zaki ijodidan keng foydalangan.

Abdulla Avloniyning «Bahor keldi», «Bulbul», «Bola ila gul», «Yolg‘onchi cho‘pon», «Tulki ila qarg‘a» kabi juda ko‘p she’rlari kichik yoshdagi bolalarga bag‘ishlangan. «Maktab bolasi» she’ri boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayotidan olib yozilgan. Asarda ishyoqmas, dangasa bolaning qalbida o‘qishga muhabbat uyg‘onishi umumiy yo‘sinda bayon etiladi:

Yo‘lga soldi til ila yo‘ldoshin,
Maktabga moyil ayladi boshin,
Soldi o‘rtog‘ining so‘zina quloq,
Bosdi ul ham o‘quv yo‘lina oyog‘.
Ikkisi birga bo‘ldilar mullo,
CHiqdi xat-u savod ham imlo.

SHu tariqa shoir qissadan hissa chiqarar ekan, «Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga» g‘oyasini ilgari suradi.

Abdulla Avloniy o‘zbek adabiyotida drama janrining rivojlanishiga ham katta hissa qo‘shdi. Uning «Advokatlik oson-mi?», «Pinak», «Biz va siz» pesalari adabiyotimiz tarixida o‘chmas iz qoldirdi.

Abdulla Avloniy 1934- yilda vafot etdi. U ma’rifatchi, shoir, dramaturg, jurnalist, rejissor, tarjimon, aktyor, jamoatchi, muallif sifatida xalqimiz qalbida mangu saqlanib qoldi.

Darsni mustahkamlash uchun savollar

1. A. Avloniyning qanday darsliklarini bilasiz va ularning mazmuni nimalardan iborat?
2. Abdulla Avloniy o‘zining qaysi kitob va asarlari bilan hozirgi o‘zbek bolalar adabiyotining rivojlanishiga hissa qo‘shgan?
3. Abdulla Avloniyning dramatik asarlari haqida nima bilasiz?

Hamza Hakimzoda Niyoziy
(1889- 1929)

Hamza Hakimzoda Niyoziy 1889- yilda Qo‘qon shahrida tabib oilasida tavallud topdi. Uning pedagogik faoliyati 1911-yildan boshlandi. U dastlab Qo‘qon shahrining Hojibek guzarida kambag‘allarning farzandlari va yetim-esir bolalar uchun maktab ochdi. Hamza mehnatkash xalq ommasi va uning bolalarini o‘qitish va tarbiyalash maqsadida, ularni moddiy jihatdan ta’minlashni nazarda tutib «Yordam jamiyati» tashkil qildi. SHu jamiyat orqali u o‘quvchilarni o‘quv qurollari, kiyim-kechak va oziq-ovqat bilan ta’minlab turdi. 1914-yilda jahon urushining boshlanishi Turkiston boshiga tushgan balo bo‘ladi. Urush ta’sirida mehnatkash xalq yanada qashshoqlashadi, bolalar nihoyatda ayanchli ahvolda qoladilar. Bu hol Hamzaga ta’sir qiladi. SHoir ularning og‘ir ahvolini ifodalovchi she’r va maqolalari bilan matbuotda muntazam ravishda qatnashib turadi. Hamza 1914-yilda «Sadoyi Turkiston» ro‘znomasida bosilgan she’rida xalq ahvolini shunday ta’riflaydi:

Kambag‘allar titrashib yurgay yalang‘och izg‘ushub,
Oh, bu faqir-u asorat onlara sayyoddir,
Dil shikasta, bag‘ri xun, ko‘zida yosh shashqator,
Otasiz, baxtsiz yetimlar holiga faryoddir.

SHunday sharoitda Hamza «bir iloj qilib kambag‘al bolalarni aqchasiz... tarbiya va o‘quvga boshlarini band qilmoq» choralarini izlaydi, she’r va maqolalarida bolalarni o‘qishga chaqiradi. Bu g‘oyani Hamza «O‘qi» she’rida bayon etadi. O‘sha yili u yetim va kambag‘al bolalar uchun «Doril yetim» (Etimlar maktabi)ni ochadi va o‘zi o‘qituvchilik qiladi. Hamza birinchi sinf o‘quvchilari uchun «Engil adabiyot», 2- sinf uchun «Axloq hikoyalari» o‘qish kitoblarini tuzadi.

Hamza 1915-yilda Marg‘ilonga borib, kambag‘al bolalari uchun maktab ochadi. 1918- yilda Farg‘onaga borib o‘qituvchilikni davom ettiradi va u yerda yosh san’atkor-ixlosmandlarni to‘plab, «Sayyor dram truppa» tashkil qiladi. 1919- yilning boshlarida Hamza Qo‘qondagi 1- boqimsiz bolalar uyiga mudir qilib tayinlanadi. Bu yerda u uch sinfli maktab ochib, o‘zi o‘qituvchilik qiladi. 1922 — 1924- yillarda shoir Qoraqalpog‘istonning Xo‘jayli tumanidagi 1- bolalar uyi mudiri va o‘qituvchisi bo‘lib ishlaydi. 1925- yilda esa Farg‘onaning Avval qishlog‘iga o‘qituvchi qilib tayinlanadi va g‘oyat og‘ir sharoitda ishlaydi. Ayni vaqtda u xalqni yangi zamon qurilishi tomon chaqiruvchi ijodini davom ettiradi.

SHoir 1928 — 1929-yillarda SHohimardonga borib o‘qituvchilik qiladi. Hamzaning tarbiyachilik faoliyatini uning shu mavzuda yozgan asarlari yanada to‘ldiradi. Uning ilm va tarbiyaviy mavzuda yaratgan «Ilm ista», «Maktab», «Kitob», „O‘qi», «Qalam», «Hikoya», «To‘g‘ri so‘z bola», «Hikoyat», «Toshbaqa va CHayon», «Bolaning yomon bo‘lmog‘iga sabab bo‘lgan onaning jazosi» kabi she’rlari xarakterlidir. Bu asarlar shoirning 1914- yilgacha bo‘lgan ijodidan namuna sifatida tahsinga loyiqdir.

Hamza xalqni o‘qitish, savodxon qilish uchun tinimsiz intiladi va kurashadi, maktablar uchun darslik va qo‘llanmalar yozishni o‘ziga maqsad qilib oladi. Hamza yozgan darsliklar uning o‘sha davrdagi dunyoqarashi, badiiy ijodi, bolalar adabiyotini tushunishi ibratlidir. Bu g‘oya “Engil adabiyot”da o‘z aksini topgan. Muallim-olimning bu kitobidan munosib o‘rin olgan «Maktab xususinda» asari alohida ajralib turadi. U bu she’rda maktabni millatning quyoshiga, guli va bog‘iga o‘xshatib ta’riflaydi:

Maktab millat quyoshi, Maktab millat saroyi,
Balki ko‘z ila qoshi. Ilm-u adabning joyi.
Ko‘zsiz, qoshsiz kishining Dunyoda eng saodat
Qanday xunukdir boshi. Axtarganlarning joyi.

Maktab millatning guli,
Millat aning bulbuli.
Maktabsiz qolgan millat
Boshqa chamanning quli...

«Birinchi sinf bolasining so‘zi» she’rida shoir o‘sha quyoshga, nurga, gulga, baxtga intilgan o‘quvchining yozuv va chizuvini o‘rganib olib baxtga erishayotganligini uning nomidan quyidagi misralarda bayon qiladi:
Mening o‘qub, yozganim,

Oltin, kumush qazganim,
Tilak sari uchuvga
Go‘yo qanot yozganim.

Hamza xuddi shu darslikdan o‘rin olgan «To‘g‘ri so‘zla» she’rida har qanday holatda ham,
hatto boshingga qilich kelganda ham to‘g‘ri so‘z bo‘l, deb o‘z o‘quvchisini, yosh kitobxonni
to‘g‘riso‘z bo‘lishga undaydi:

To‘g‘ri so‘zla, ey o‘g‘ul,
Til burmag‘il yolg‘onga hech.
Bir masal bor: to‘g‘riso‘zlar
Boshini kesmas qilich.

Hamzaning “Engil adabiyot”ga kiritgan she’rlaridagi bosh qahramonlarning belgili xususiyatlaridan biri – to‘g‘ri so‘zlik. SHoir bolalarni to‘g‘ri va rostgo‘y bo‘lishga, zararli va

foydasiz ishlardan qochib, ijobiy ishlar bilan shug‘ullanishga, kishilarning yaxshi sifatlaridan ibrat olishga chaqirgan. «To‘g‘ri so‘z bola» she’rida bu fikr yanada jonli chiqqanini ko‘ramiz. Hamza bu she’rida barcha narsa pul va boylik bilan o‘lchangan jamiyatda hamma narsadan ko‘ra haqiqatni ustun qo‘ygan ijobiy qahramon bola obrazini yaratadi. Bir bola o‘qishdan qaytayotganida ikki kishi uning oldini to‘sib, biri dedi: «Tanga berurman senga, so‘zla birozgina yolg‘on menga». SHunda bola unga juda donolik bilan javob beradi:

- So‘zlang, ako, qomatingizga qarab,
Bu so‘zingiz aslida yolg‘on erur,
Tangaga yolg‘onni kirn olgan erur,
Sizda ko‘p ekan o‘zi yolg‘on, ako,
Siz oni avval sotib aylang ado.
Qolsa kamib, yetmay agar sizdanam,
O‘rtog‘ingizda ko‘p erur bizdanam.
Ofarin aytdilar oning so‘ziga
Tangani xolis berubon o‘ziga.
Hissa: kimki to‘g‘ri so‘zi har qachon,
Tekkizadir doimiy bo‘yla hison.

Hamza bu she’rida bolalarni yoshligidanoq rostgo‘ylik ruhida tarbiyalash lozimligini uqtiradi, ularni yolg‘onchilik va aldamchilikdan uzoqroq yurishga chaqiradi. Yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash ishiga Hamza alohida ahamiyat beradi. Odamlarga mehr-u muhabbat qo‘yish, kishilarning qadr-qimmatiga yetish, ularni hurmat qilib, izzat-ikrom bilan muomala qilish yoshlardagi insonparvarlikning asosidir. Yoshlarni bunday ruhda tarbiyalash, dastavval, bolalarning eng yaqin kishilariga, ayniqsa, ota-onasiga nisbatan muhabbat tuyg‘ularini rivojlantirishdan boshlanishi kerak. SHoir ota-onani hurmat qilishni bolaning eng yuksak insoniy fazilatlaridan biri deb hisoblaydi. «Ul aqllik otasini ham qilgan tarbiya va shafqatlarini yod etib degan so‘zi» sarlavhali uchinchi va «Bir aqllik bolaning mushfiqa enasi uchinda qilgan tashakkurlari» nomli to‘rtinchi darslarida ota-onalar qiyofasi chiziladi.

Hamza kitobda otaning lirik obrazini chizarkan, uning amri xalq amridan ham kuchli, deb ta’riflaydi. Onani esa «otamizdan ham muqaddas onamiz» tarzida ulug‘laydi. Ayni chog‘da, ota-onaning bola tarbiyasi uchun mas’ul ekanligi ta’kidlanadi.

«O‘qish kitobi»dagi bir necha she’rlar o‘qish, ilm olish, maktab hamda kitobning ta’rifiga bag‘ishlanadi. Jumladan, «O‘qi» she’rida shoir o‘qish natijasida kambag‘al-bechoralarning asoratdan qutulib, madaniyat va san’atdan bahramand bo‘lishi turgan gap deb uqtiradi.

O‘qishning qadrini muallif o‘qituvchi-ustozlar tilidan shunday ta’riflaydi:

Gar dilingda o‘ylagan orzuga yetmoq istasang, Qimmat umring qilmag‘il behudaga bekor, o‘qi!..

Ey o‘g‘il! Dunyoda bo‘lmoq istasang oliyjanob,

O‘qig‘il maktab kelib, zinhor o‘qi, mingbor o‘qi!

Hamza bolalarni ilmli, odobli hamda hunarli qilishda kitobning ahamiyati nihoyatda katta ekanligini «Kitob» she’rida sodda, obrazli, mazmundor misralarda tasvirlab berdi. U o‘z she’rida « Kitob bilim manbayi», «Ko‘zning nuri, dil huzuri, dillarning darmoni!...», «Har balodan asraguvchi eng muhim qimmat yarog‘» kabi sifat va ta’riflar bilan kitobni yuksakka ko‘taradi.

SHu bilan birga, har bir kishi ko‘nglidagi orzusiga yetishi uchun «Ilm manbayi bo‘lgan kitob»ni

sevishi, savodli bo‘lishi lozimligini uqtiradi:

Har ko‘ngilning orzusi shul erur obihayot,
Qadrini bilgan kishiga, shubhasiz, jondir kitob...
Ko‘zning nuri, dil huzuri, dillarning darmonidur,
Har qorong‘u dilga go‘yo mohitobondur kitob...
Har kishi yoshlikda qilsa ozgina g‘ayrat agar,
Tez zamonda oshno bo‘lmog‘i osondir kitob.

Hamza 1925- yilda «Ikkinchi sinf uchun qiroat kitobi» darsligini yozdi. Bu kitob g‘oyaviy mavzusi jihatidan Alisher Navoiyning «Hayrat ul-abror» asariga yaqin turadi. Kitob bolalar ruhiga mos qilib, nasriy yo‘l bilan yozilgan. Undagi birinchi asar — «Ilm»da ma’rifatlilik, ilmli bo‘lish shunday sharhlanadi:

«Ey bolalar, har bir inson bolasiga dunyoda eng avval zarur va lozim bo‘lgan narsa ilmlik o‘lmoqdir. Ilmsiz kishini butun inson demak ayni xatodir...»

Kitobdagi barcha darslar ana shunday tafsilot bilan boshlanadi, so‘ng bir bayt she’r keltiriladi:

Ilmsiz har kishi uchsa havoga,
Ko‘ngil berma aningdek xudnamoga.

SHoir «Milliy ashulalar», «Oq gul», «Qizil gul», «Yashil gul» va boshqa to‘plamlarida qo‘shiqlar bilan xalq ommasini madaniyatli bo‘lishga undaydi, zulmdan shikoyat qiladi, ijtimoiy faollikka chaqiradi.

Mashhur tarbiyachi, atoqli shoir, dramaturg va bastakor Hamza Hakimzoda Niyoziy mehnatkash xalqni, shuningdek, yosh avlodni o‘qitish, ma’rifatli qilish, tarbiyalash ishiga o‘zining butun iqtidorini, umrini bag‘ishladi.

DARSNI MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOLLAR:

1. Hamzaning qanday darslik kitoblarini bilasiz?

2. «O‘qi», «Ilm ista», «Maktab» asarlarida shoir nimaga chaqiradi?
3. SHoirning qanday masallarini bilasiz?

MAVZU BO’YICHA TEST TOPSHIRIQLARI:

1. A.Avloniyning «Adabiyot yoxud milliy she’rlar» darslik kitobi necha qismdan iborat.
A) 5
B) 3
C) 4
D) 4
2. Ushbu satrlar Avloniyning qaysi asaridan olingan. « Bahosi arzonning so‘zi qimmat bulur»
A) «Qanoat »
B) «Ittifoq »
C) «It ila gado»
D) «To‘grilik »
3.Abdulla Avloniy qaysi gazetaga “ Yashasin xalq jumhuriyati” shiorini tanlagan edi?
A) Shuhrat B) Sadoyi Turkiston C) Xurshid D) Turon
4. Abdulla Avloniy 1918 yilda qaysi gazetada muharrirlik qilgan edi?
A) Shuhrat B) Ishtirokiyun C) Turon D) Sadoyi Turkiston
5. Haqiqat va hurlikni e’tiqodiga aylantirgan ijodkor kim/
A) Hamza B) U.Nosir C) Mirtemir D) Cho’lpon
6. Hamzaning Devoni Nihoniy to’plamiga qaysi davrda yozgan she’rlari kiritilgan va unda jami nechta she’r bor ?
A) 1905 yildan boshlab 214 ta B) 1915 -20 yillar 214 ta C) 20 asrning 20 yillari 215 ta D) barcha davrda 215 ta

GLOSSARIY

Avloniy - ilm – ma‘rifat targ‘ibotchisi.
«Doril yetim» - etimlar maktabi.
Muhiblar - axloq havaskorlari.

“ONA TILI VA ADABIYOT”

FANIDAN AMALIY MASHG`ULOTLARI

(Boshlang`ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish bakalavriat

ta’lim yo`nilishi 2-kurs talabalari uchun)

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar
Ta’lim sohasi: 110000 – Pedagogika
Bakalavriat yo’nalishi: 5111700 – Boshlang’ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish

Termiz-2017

SO’Z BOSHI

Mazkur amaliy mashg’ulot O’zbekiston Respublikasi oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirining 201 - yil -yanvardagi 26- sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan namunaviy fan dasturi asosida tuzilgan. Amaliy mashg’ulot 5111700–boshlang’ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish ta’lim yo’nalishi talabalari uchun mo’ljallangan.

Tuzuvchilar:

R.Mustafoqulov	Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi dotsenti
Sh.Choriyev	Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasi o`qituvchisi

Taqrizchi:

B. Umurqulov	TerDU Filologiya fakulteti o`zbek tilshunosligi kafedrasi dotsenti

Amaliy mashg’ulot: Termiz davlat universiteti Pedagogika fakulteti kengashida 2017-yil -avgustdagi № -sonli va «Boshlang’ich ta’lim metodikasi» kafedrasining 2017 yil -avgustdagi № -son bayonnomasi bilan muhokama qilingan va o’quv jarayoniga qo’llash uchun tavsiya etilgan.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR

1-2-MAVZU So‘zning morfologik tarkibi. So‘zlarning tarkibiga ko‘ra tahlili

1-ilova

So‘zning tub (lug‘aviy) ma’nosini bildirib, ma’noli bo‘laklarga bo‘linmaydigan qism **o‘zak** deyiladi: ***gul****zor,* ***bog‘****bon,* ***chiz****g‘ich,* ***paxta****kor.* Ayrim darsliklarda bunday qism **asos** deb atalgan va unga quyidagicha ta’rif berilgan: “So‘zning asosiy ma’nosini ifodalab, mustaqil qo‘llana oladigan qismi asos deyiladi (24; 17)”. O‘zak so‘zdagi ma’noli qismlarning yetakchisi bo‘lib, u boshqa ma’noli qismlarga bo‘linmaydi. O‘zak so‘z tarkibida doim qatnashadi.

Bir o‘zakdan hosil bo‘lgan so‘zlar bir xil o‘zakli **(o‘zakdosh)** so‘zlar deyiladi: ***bil****im,* ***bil****imdon,* ***bil****ag‘on,* ***bil****uvchi*. Bunday so‘zlar o‘zaro sinonim ham bo‘lishi mumkin: *ser****hosil*** *–* ***hosil****dor, be****g‘ubor*** *–* ***g‘ubor****siz,* ***til****chi –* ***til****shunos*.

2- ilova

128-mashq. O‘qing. Mustaqil so‘zlarni morfemalarga ajrating: o‘zak va shakllarni (modal funktsional shakl va so‘z o‘zgartish shakli) ko‘rsating.

N a m u n a: *ko‘zlarini* — ko‘z/lar/i/ni — so‘z o‘zgartish shakli; *jilmayib — jilmay/ib* — modal shakl.

1. Kampir ko‘zlarini ochdi va ro‘parasida jilmayib turgan yigitga tikildi. *(H. N.)* 2. Qunduz universitetning uchinchi kursida o‘qir, uning maqsadi hayvonot dunyosini o‘rganish, shu sohada ilmiy ish bilan shug‘ullanish ekan. *(J. Abd.)*

129-mashq. O‘qing. Mustaqil so‘zlarni morfemalarga ajrating; o‘zak va affikslarini belgilang; affikslarning turini ayting.

To‘lishgan oy shuъlasida qor qoplagan vodiy kumushdek yarqirardi, faqat o‘rtadagi daralarni qop-qora soya bosgandi, leknn u yerda ham qor dam-badam kuyadori singari yalt-yalt qilib turardi. Qarag‘ay shoxlaridagi qor uyumlari hamlaga hozirlanib turgan yirtqich hayvonlarga o‘xshardi. Uzoqda elektrostantsiya dvijogi gupillardi: uning shovqini shamol esgandagina eshitilardi. *(Yu. Semyonov.)*

130- mashq. Gaplarni o‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi so‘z yasovchi affikslarni belgilang va qanday negiz yasaganini ayting.

1. Ular raisning o‘tkir, jonli, goh piching, goh tashvish va hazil bilan tovlangan so‘zlarini, dadil fikrlarini diqqat bilan tinglashar, o‘z takliflari bilan to‘ldirishar, gali kelganda ochiq eъtiroz qilishar edilar. *(O.)* 2. Qishki imtihon kunlari yaqinlashgandi, dars tayyorlash uchun kechqurunlari fakulьtetga kelishga to‘g‘ri keldi. *(A. Q.)* 3. Bu birinchi bo‘linma komandiri okopga yetib,... qatьiy ovozda so‘radi. *(F. Niyoziy.)* 4. O‘ktamning sal suzuk ko‘zlari endi beixtiyor ravishda hovlida aylanib qoldi. *(O.)* 5. Ko‘p ham o‘tmay so‘radi shoh: “Qani mening shoh qizim, Hayotimning suyanchig‘i, yupanchim ham yolg‘izim?” *(SH. Rustaveli.)*

131-mashq. O‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardagi shakl yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi affikslarni belgilang.

O‘ktam siyrak tut yoki meva daraxtlar qatori bilan, ariqlar, zovurlar bilan bir-biridan chegaralangan keng dalalarni yoqalab kezdi. G‘o‘zaning o‘sishida katta tafovut ko‘rdi u. Hatto bir-biriga yondosh dalalarning manzarasi keskin farq qilar edi. U bir yoqqa qarab xursand bo‘lsa, zavqlansa, ikkinchi yoqqa boshini o‘girib, o‘sishi mujmal, allaqanday kasalsimon g‘o‘zalarni ko‘rar, yuragi achishar edi. U turli brigadalarda, zvenolarda g‘o‘za parvarishi bir xilda emasligini angladi. *(Oybek.)*

132-mashq. O‘qing, so‘zlarning tuzilishiga ko‘ra turlarini aniqlang. Qo‘shma, juft va murakkab so‘zlarni alohida-alohida ko‘chiring.

I. Egnida qizg‘ish, nim qora aralash matodan tikilgan gimnastyorka, galife shim. Oyog‘ida chiroyli qora xrom etik. Boshida qorako‘l telpak. Belida kamar, kamarida chiroyli jajji xanjar, to‘pponcha, qora qosh, xushmo‘ylov, xushqomat, behad ko‘rkam Haydarbek qurolli ikki yigiti o‘rtasida, qo‘li ko‘ksida, bosh egib, o‘ng va so‘lida zanjirband odamlar orasiga kirib borardi. Uning jozibador chehrasidagi alomat shodlikmi, qayg‘umi, payqab bo‘lmas edi.

II. Bizni Orzi amaki boshlab boryapti. Uning so‘ziga qaraganda, qishloqning kun chiqish tarafida bir oshnasi bor emish. Mehmondo‘stlikda unga yetadigani yo‘qmish. Doim eshigi, dasturxoni ochiqmish. Yuz-ko‘zi kulib turadigan, ko‘ngli ochiq odammish. Uning suhbatida bo‘lgan kishi zerikmasmish, bamaъni gaplaridan kishining miyasi to‘larmish. Tunashga joy bemalol, ot-eshaklarga ham yemish mo‘l emish. Xayriyat, eson-omon qo‘nadigan yerga borib yetdik. *(N. Safarov.)*

133-mashk. O‘qing, tub va yasama so‘zlarni aniqlang. Yasama so‘zlarning qaysi usul bilan yasalganini ayting. Avval morfologik, keyin sintaktik usul bilan yasalgan so‘zlarni yozing.

I. Ular bog‘dan chiqib, yolg‘izoyoq yo‘ldan paxta maydonlari bo‘ylab yurisharkan, qiz «Dam olish uyi»ning ahamiyati, o‘zga qurilishlar, ishlar haqida so‘zladi. Suhbat, muomala minut sayin ko‘proq bevosita va do‘stona bo‘la boshladi. O‘ktamga gidrostantsiya dastlab oddiy va yengil qurilish kabi ko‘rindi. O‘ktam balandga ko‘tarilib, quvur bo‘yicha katta surъat va kuch bilan otilayotgan suvni tomosha qildi, keyin stantsiyaning mustahkam g‘ishtin binosiga kirib agregatni va asboblarni ko‘rdi. *(Oybek.)*

II. 1. Sening shunchalik olihimmat bola ekanligingni bilmagan ekanman. (*O. Jo‘raev.)* 2. Odamgarchilik, mehribonchilik qanaqa bo‘lishini o‘sha kinodan o‘rganish kerak ekan. *(L. Mahmudov.)* 3. Bu — faqat bizning asrimiz kishilarining aql-zakovati, kuch-qudratiga xos inshoot. *(A. Nazarov.)* 4. Ko‘zlarida bo‘lsa ko‘zoynak, Kitoblarin soni juda ko‘p. *(Mirm.)* 5. Rais uning ko‘ziga kamsavlatroq ko‘rindi. (*A. Q.)* 6. Anjirlar obdan sarg‘aygan, anorlar endi piyoladay bo‘lib qizara boshlagan, kechki olmalarga rang kirayotgan, noklar hali ko‘m-ko‘k nosqovoqlarday osilib turgan fasl edi. *(H. G‘.)* 7. Farzand diydoriga tashna qalbi... CHinobod tomon parvoz qilishga undadi. *(A. Nazarov.)*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. O‘zak morfema va affiks morfemalarning farqini bayon eting.
2.Grammatik ma’noni qanday tushunishingizni izohlang.
3. Morfemalar turlari haqida ma’lumot bering.

4. So’z tarkibi deganda nimani tushunasiz?

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1. So‘z yasovchilarni aniqlang.

A) –gay, -gina, -li, -man, -siz B) –tir, -gach, -lar, -ib, -zor C) –la, -li, -lan, -dan, -paz

D) –dor, be-, -zor, -cha, -xo‘r

2. Shakl yasovchilarni toping.

A) –k, -kor, -chi, -ib B) –siz, -ing, -sa, -guncha C) –cha, -roq, -ib, -niki

D) –dan,-ning, -a

3. Berilgan so‘z ma’noli qismlarga to‘g‘ri ajratilgan qatorni aniqlang.

A) muvo-fiq-lashtirilgan. B) muvofiq-lashtir-il-gan. C) mu-vo-fiq-lash-tir-il-gan.

D) muvofiq-la-sh-tir-il-gan.

4. Qaysi qatorda –*siz* qo‘shimchasi so‘z o‘zgartiruvchi vazifasida qo‘llangan?

A) Odobni odobsizdan o‘rgan. B) U bu gapdan xabarsiz edi. C) Siz bebaho insonsiz.

D) Suvsiz hayot bo‘lmaydi.

5. *Qarsak* so‘zining o‘zagini toping.

A) qars B) qarsa C) qar D) qarsak

6. *-boy, -cha, -l, -sh, -ish* qo‘shimchalari vazifasiga ko‘ra qanday qo‘shimchalar?

A) so‘z yasovchi B) shakl hosil qiluvchi C) so‘z o‘zgartuvchi D) takroriy

7. *–gach(-kach, -qach), -a(-y), -guncha (-kuncha)* qo‘shimchalari vazifasiga ko‘ra qanday qo‘shimcha?

A) so‘z yasovchi B) so‘z o‘zgartiruvchi C) so‘z shakli yasovchi

D) sodda qo‘shimcha

8. *Muomalalarimizni* so‘zidagi yasovchi qo‘shimchalarni toping.

A) –lar B) –imiz C) –ni D) bu so‘z tub so‘z bo‘lib, yasovchi qo‘shimchasi yo‘q.

Darsga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.

3-4 Mavzu So‘z yasalishi. Berilgan matndagi so‘zlarni so‘z shakllari jihatidan tahlil qilish

Amaliy mashg‘ulotning texnologik kartasi

Dars bosqichlari va vaqti	O‘qituvchi	Talaba

1-boqich Kirish (5 daqiqa)	1.Amaliy mashg‘ulotning tashkiliy qismini amalga oshiradi, mavzu (So‘z yasalishi. maqsadi, rejasini e’lon qiladi.	1.Eshitadi, yozadi, javob beradi. .
2-bosqich Asosiy bosqich (70 daqiqa)	1. Mavzu yuzasidan savol-javob o‘tkaziladi. (1-ilova) 2. Mavzu yuzasidan mashqlar bajartiradi. (2-ilova) 3.Test bajartiradi (3-ilova)	1. Eshitadi, javob beradi 2.Eshitadi, yozadi, javob beradi, bajaradi 3. Test yechadi
4-bosqich Yakuniy bosqich (5 daqiqa)	1.Talabalarni rag‘batlantirish, baholarni e’lon qilish, uyga vazifa berish, mashg‘ulotga yakun yasash. 2. Adabiyotlar ro‘yhatini beradi	1.Eshitadi, yozadi, bilib oladi. 2. Eshitadi yozib oladi.

1-ilova

Fonetik usul. Bu usulga ko‘ra, so‘zda fonetik o‘zgarish yuz berib, yangi so‘z hosil qilinadi. CHunonchi, so‘z urg‘usining o‘rnini almashtirish natijasida boshqa-boshqa so‘z turkumiga doir so‘zlar hosil bo‘lishi mumkin: yo‘zma – fe’l, yozma’ – sifat, su’zma – fe’l, suzma’ – ot, fi’zik – ot, fizi’k – sifat, akade’mik – ot, akademi’k – sifat va b.

Semantik usul. Bu usulga binoan, so‘z ma’nosida o‘zgarish ro‘y berib, ma’nosi boshqa-boshqa, shaklan o‘xshash yangi so‘z hosil bo‘ladi: kun – sutkaning yorug‘ qismi, kun - quyosh, planeta; ko‘k – osmon, ko‘k - havorangga o‘xshash rang, bir – son, birga, birdan, birda – ravish.

Fonetik va semantik usul hozirgi o‘zbek tili nuqtai nazaridan nofaol tarixiy so‘z yasash usullari deb qaraladi.

Abbreviatsiya usuli. Bu usulga ko‘ra, bir butun holda qo‘llanadigan to‘g‘ ri ma’noli turg‘un birikmalarning qismlari har xil yo‘l bilan qisqartirilib so‘z hosil qilinadi. Bu usul rus tilidan kirgan bo‘lib, qisqartma otlar shu usulda yasaladi: BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, MDH - Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi, ATS – Avtomatik telefon stantsiyasi, ToshMI – Toshkent Meditsina instituti, filfak – filologiya fakulteti, akademlitsey – akademik litsey, peduniversitet – pedagogika universiteti va b.

2- ilova

107-mashq. Quyida guruhchalarga ajratib berilgan o‘zlashma so‘zlarni o‘qing. Rus tilidan va rus tili orqali boshqa Yevropa tillaridan o‘zbek tiliga o‘zlashgan so‘zlarni topib, ular etimologik jihatdan qaysi til(lotin, grek, frantsuz, rus) larga mansubligini aniqlab ayting.

1. Avgust, agregat, advokat, akvarelь, akkumulyator, aktsiya, ambulatoriya, annotatsiya, argument, arxiv, armatura, artikulyatsiya, aspirant, auktsion, antenna, apparat, assimilyatsiya, atseton, affiks.

2. Alьbom, anketa, aktrisa, avans, abajur, attraktsion, ansamblь, akusher, amortizator, antrakt, artilleriya, akkordeon, adres, avangard, atelьe, argo, alьternativa, avantyura, anons.

3. Abstrakt, avaxta, avtomatika, akrobat, anonim, ariston, avtobaza, aktiv, akula, aliment, aerodrom, ataman, aviatransport, amirkon, affrikat, arbitraj, aristokrat.

4. Akademiya, akustika, aksioma, alebastr, anatomiya, antibiotik, amnistiya, antiteza, aorta, asbest, asfalьt, atmosfera, alfavit, amfiteatr, azot, avtograf, analiz, araxis, akatsiya, antonim, apostrof, apteka.

108-mashq. O‘qing. Berilgan va ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar etimologik jihatdan qaysi tilga mansubligini aniqlab ayting.

I. Adir, azimut, neft, guzar, muammo, kompleks, beshik, zona, gul, ruboiy, chilla, latifa, ayol, bola, stsenariy, platshakl, mushoira, diyor, disket, anor, armug‘on, gavhar, gayka, davo, dabdaba, demokrat.

II. 1. Dunyoda oqilona so‘z va yaxshi nomdan boshqasi unutiladi. 2. Tarbiyasiz odam jonsiz jasadga o‘xshaydi. *(“Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur”)* 3. Xalqimiz azaldan o‘z maънaviy qadriyatlari va diniy eътiqodini yuksak qadrlab kelgan. 4. Milliy tuyg‘u inson uchun tabiiydir, chunki u ota-bobolardan meros qilib olingan. *(I.Karimov)* 5. Aspirant Davron Bo‘ronov kechqurun institutdan uyga qaytmoqda edi. *(E.Aъzamov)* 6. Vatanimda chin grajdanman, SHudir mening oliy mansabim. *(T.Saydaliev)*

109-mashq. Quyida berilgan o‘zlashma so‘zlarni o‘qing. Arab tilidan va fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlarni aniqlab, ularni ikki ustunga ajratib yozing.

Abadiy, avvalo, ajdar, andisha, beandisha, attor, anjir, anjirzor, aziyat, alifbe, alifbo, ark, armug‘on, asar, afsun, afsungar, atir, afzal, arg‘uvon, arzon, ashyo, ashyoviy, anduh, aqida, aql, ahil, afg‘on, astoydil, astar, avra, araz, ariza, armon, anjuman, adolat, ayol, arzanda, ajoyib, ajoyibot, andava, axloq, anor, anorzor, aholi, angishvona, askiya, askar, arra, arrakash, aloqa, amal, amaliyot, andaza, asbob, asil, atrof, afsona, anъana, ayyor, asab, aъlo, andarmon, azmoyish, adabiyot, ahd, ahamiyat.

110-mashq. O‘qing. Gaplarda ishlatilgan jargon va argolarni aniqlang, qanday maънoda qo‘llanganini ayting.

1. Zamon bunaqa bo‘lishini bilganimda hamma narsani sotib, shundan qilib qo‘ymasmidim, — boy tagidagi xurjunga ishora qildi, — uch mingta buxoriy xurjunning bir chekkasida kelyapti. *(H. Nuъmon, A. SHorahmedov.)* 2. — Belni baquvvatrok, qilib oliptimi? — CHakki emas, uch mingdan ortiq tirigi-yu, uch ming o‘ligi bor. — «O‘ligi» dedingizmi? — O‘sha Buxoroning qizili-da, — dedi cho‘zib O‘rmonbek xuddi pashmak holva yeb tamshangandek. *(H. Nuъmon, A. SHorahmedov.)* 3. — Xo‘sh, agar ikkita oq qirg‘oqdan bo‘lsa? — Ikkita yuz so‘mlik demoqchisan-da, a? yomon emas-a!.. *(M. G.)* 4. — Nilufar, tur o‘rningdax deyapman! — Nima qilaman turib? Nima ishingiz bor? — E, bomisan, danap? — dedi Karomatxon Nilufarni gij-gijlab va menga qarab: — Ana, pattangizni oldingiz, kalampo, endi noyi bo‘ling! *(U. N.)* 5. Mullajiring bo‘lmasa, har qanaqa mavsum ham befayzu belutf ko‘rinadi. *(R. Zahir.)* 6. Burchakka ilib qo‘yilgan plashchning cho‘ntagidan g‘ilofli ustara va quyidagi

mazmundagi g‘alati xatni topib oldik: «Kecha Mitkani xitlar ilintirishibdi, TSigan sotgan bo‘lishi kerak. Qaqir-ququrlar xitoynikida». *(L. SH.)*

111-mashq. O‘qing. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning ma’nosini izohlang.

1. Bo‘y desangiz — bir guli nihol, Dilni o‘rtar **yonoqdagi** xol. *(O.)* 2. 3. Bir podsho **shikordan** qaytayotib tashna bo‘libdi va bir hovli oldiga kelib suv so‘rabdi. *(«Gulpari».)* 4. Oftob **mashriqdan** chiqib o‘lkamizni nurafshon qildi. *(S. Kalmikov.)* 5. **Diydalarda** yosh qalqidi. *(S. Kalmikov.)* 6. Mulla Mirtojiga o‘xshaganlar **zohirda** tishlarining oqini ko‘rsatib yurgan bo‘lsalar-da, **botinlarida** g‘azab-nafrat qaynab toshardi. *(N. S.)* 7. **Ashъoriy** kitoblarga ixlosmand bo‘lgan Husayn yangi «Devon» yoki «Bayoz»lar topish ishtiyoqida **saxxof** do‘koniga tez-tez kelib turardi. *(K. Moiseeva.)* 8. Hatto Aburayhonga birinchi daъfa **muqobil** kelganda ham, o‘zini bunchalik yo‘qotib qo‘ymagan edi. *(K. Moiseeva.)* 9. **Zarb, taqsimdan** bergan vazifalarni tez-tez ishlab berdim. *(N. S.)* 10. **Satranjning** ham vatani Hindiston ekanligi jumla olamga ayon-ku! *(K. Moiseeva.)* 11. Siz yoshlarimiz fabrika-zavodlar qurishni bilmog‘ingiz, **«osmon poezd»lar** yasab uchmog‘ingiz kerak. *(N. S.)* 12. Har toifa xalq va qavm olimlari **bitib** qoldirgan kitoblarni o‘qib chiqish lozim bo‘ladi. *(K. Moiseeva.)* 13 Aburayhonning **falakiyot** va **riyoziyot** bobidagi ilm-hunarlari Xorazm saltanati uchun mislsiz foyda keltirajagiga imonim komil. *(K. Moiseeva.)* 14. Qarag‘aylar uzra yoyilgan, ko‘k gumbazida jilva qilayotgan **ol rang** shafaqning nafis bo‘yog‘i uning **qirmizi** yonog‘i tusichalik tiniq va dilrabo emasdi. *(F. Kuper.)* 15. Biringiz buyuk **munajjim** bobolaringiz Ulug‘bek poyoniga yeta olmagan falakiyot ilmini nihoyasiga yetkazarsiz. Oralaringizdan Beruniylar, Ibn Sinolar, zamon **muhandislari**, ulug‘ tabiatshunoslar yetishib chiqar. *(N. S.)*

112-mashq. Qo‘shimchalar yordamida (affiksatsiya usulida) yasalgan so‘zlarni aniqlab, jadvalga joylang.

1. Uning Asadbek bilan yaqinligi, garchi do‘stlik libosida ko‘rinsa-da, aslida odam bolasiga xos samimiylikdan yiroq, faqat bir maqsad yo‘lidagi majburiy birlashuv edi.(T.Malik) 2. Shu choq Bektemir so‘l tomonda, pastlikda, o‘nlab jangchilarimizning oldinga qarab yugurganini ko‘rdi.(O.) 3. Ko‘pdan beri kutgan, ammo shu lahzada ro‘yobga chiqishidan bexabar quvonchdan Ummatali shoshib qoldi.(Sh.) 4. Shu asnoda yumaloq, xushchaqchaq, mirishkor, vazifashunos dehqon katta tarvuzni qorniga qo‘yib kirib keldi.(O.) 5. Qiz shunaqangi xandon otib kuldiki, kulgisi ham shunday beg‘ubor, shunday samimiy ediki, nazarimda uning yuzida hozirgina ochilgan anvoyi gullar to‘lqin urayotgandek edi. (X.T.) 6. Bu oqshom, garchi tevarak tinch bo‘lsa ham, kechagidan ko‘ra qo‘rqinchliroq, ezuvchanroq tuyular edi.(O.) 7. Bundan oldingi so‘fi Ismoilboy o‘ta dindor va nashavand kishi bo‘lib, ...o‘tgan ramazonda jannati bo‘lgan edi.(G‘.G‘.) 8. Ko‘zbo‘yamachilik, qalloblik, o‘zim bo‘lay deyish – sizningcha, shunchaki kechirib ketaveradigan bir gap ekan-da?!
(O‘.Usmonov) 9. Navbatdagiday bemalol, xushkayf, serchaqchaq suhbat davom etar edi. (G‘.G‘.)
7. . ...o‘zbek, qozoq va butun jangchilar do‘zaxning o‘tyoqar, o‘tkavlar shovvozlari kabi,
favqilbashar g‘ayrat va g‘azab bilan ishladilar. (O.)

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. So’z yasalishi nima?
2. So’z yasalishining qanday usullari bor?
3. Kompozitsion ysyl bilan so’z yasang?

TEST TOPSHIRIQLARI:

1. So‘zning ma’noli qismlari deyilganda nima nazarda tutiladi?
A) so‘zning o‘zagi B) so‘zning o‘zagi, so‘z yasovchi va so‘z shakli yasovchi qo‘shimchalar C) so‘zning o‘zagi, so‘z yasovchi va so‘z shakli yasovchi qo‘shimchalar D) o‘zak va qo‘shimchalar so‘zning ma’noli qismlari hisoblanadi.

2. Qo‘shimchalarning vazifasiga ko‘ra qaysi turi o‘zlashma bo‘lishi mumkin?
A) so‘z yasovchi; B) shakl yasovchi; C) so‘z o‘zgartuvchi; D) A va B javoblari to‘g‘ri.

3. Keltirilgan ta’riflardan o‘zak morfemaning asosiy xususiyatlari ifodalangan javobni toping.
A) so‘zning ma’noli qismlari haqidagi ta’limot B) so‘zning eng kichik, bo‘linmas ma’noli qismi C) so‘zda albatta ishtirok etadigan, leksik ma’no ifodalay oladigan morfema turi D) mustaqil leksik ma’no ifodalay olmaydigan, so‘zning leksik yoki grammatik ma’nolarining shakllanishiga xizmat qiladigan morfema turi

4. Keltirilgan ta’riflardan qay biri so‘z yasovchi qo‘shimchalarning xususiyatini aks ettiradi?
A) so‘z birikmasi va gapda so‘zlarni bir-biriga bog‘lash uchun xizmat qiladigan qo‘shimcha turi B) o‘zakka qo‘shilib, ma’noni bir oz o‘zgartiradigan qo‘shimcha turi C) mustaqil leksik ma’no ifodalay olmaydigan, grammatik ma’nolarning shakllanishida xizmat qiladigan qo‘shimcha turi D) yangi so‘z hosil qiladigan, so‘z leksik ma’nosining shakllanishida qatnashadigan qo‘shimcha turi

5. So‘z shakli yasovchi qo‘shimchalarning xususiyatlari aks etgan javobni toping.
A) yangi so‘z hosil qilmay, so‘zning ma’nosiga turli ma’no nozikliklarini qo‘shadi. B) leksik ma’no ifodalamaydi. C) so‘z ma’nosiga kichraytirish, erkalash, chegaralash, kamlik, gumon, taxmin kabi turli ma’nolar qo‘shadi. D) A,B,C

6. So‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimchalar necha xil bo‘ladi va ular qaysilar?*A) 3 xil: zamon, mayl, nisbat B) 2 xil: unumli va unumsiz C) 3 xil: kelishik, egalik va shaxs-son D) 2 xil: tub, yasama*

7. Qaysi qatorda *o‘zak+so‘z yasovchi qo‘shimcha+so‘z yasovchi qo‘shimcha+so‘z yasovchi qo‘shimcha* shaklidagi so‘z berilgan?
A) yamoqchiniki B) sanoqsiz C) pishiqchilik D) barcha so‘zlar o‘zak va ikki so‘z yasovchi qo‘shimchadan iborat

8. Qaysi so‘z uch morfema (ma’noli qism) dan iborat?
A) rostakam B) loygarchilik C) oshnachilik D) majburiyat

9. Omonim o‘zakka omonim qo‘shimcha qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan omonim so‘zni belgilang.
A) olma, suzma B) to‘lat, kechik C) changi, tinchi D) barcha javoblar to‘g‘ri

10. *Yarqirama* sifati qaysi qatorda morfemalarga to‘g‘ri ajratilgan?

A) yarq – o‘zak morfema, -ira va –ma – so‘z yasovchi morfema. B) yarq – o‘zak morfema, -ira so‘z yasovchi morfema, -ma – shakl yasovchi morfema. C) yarqira – o‘zak morfema, -ma – bo‘lishsizlik shaklini hosil qiluvchi qo‘shimcha.

Darsga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.

5-MAVZU: SO‘ZLARNI TURKUMLARGA AJRATISH TAMOYILLARINI BILISH (2 soat)

ilova-1

Maqsad: So‘z turkumlari, ularning tasnifi mavzusi yuzasidan o‘rgangan nazariy bilimlarni amalda tadbiq etishga o‘rgatish .

Mashg‘ulot rejasi:

1.Tashkiliy qism;
2.Savol-javob;
3.Mashq ishlash;
4.Mustaqil ishlarni tekshirish;
7.Test tekshiruvi
8. Talabalar faoliyatini baholash
9. Mashg‘ulotni yakunlash

Mashg‘uloti mazmuni

1.Guruh uchta kichik guruhlarga ajratiladi.Har bir guruh o‘ziga nom qo‘yadi va qo‘ygan nomini izohslaydi.
2. Guruhlarga konvertda topshriqlar beriladi.
1-guruh uchun. So‘z turkumlari deganda nimani tushunasiz ?
2-guruh uchun.? Yordamchi , mustaqil so‘zlarnngi turlari ochib bering
3-guruh uchun.So‘z turkumlarini “Tarmoqlash“ usulida ochib bering.
3. Guruhlar javobi umumlashtirilib, slaydlar asosida to‘ldiriladi.
So‘z turkumlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi

TEST TOPSHIRIQLARI

1-guruh uchun

A..Alohida olingan guruh so‘zlar	1.Qanday so‘zlar lug‘aviy ma’no bildirmaydi
B.Ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish	2..Mustaqil so‘z turkumlari to‘g‘ri berilgan

kiradi	qatorni toping.
D.Ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama kiradi	3.Yordamchi so‘zlar to‘g‘ri berilgan qatorni toping.
S. Mustaqil so‘z turkumlari	Qanday so‘zlar lug‘aviy ma’no bildiradi

2-guruh uchun

B. Modal so‘zlar, undov so‘zlar, taqlid so‘zlar	1Alohida olingan guruh so‘zlar to‘g‘ri berilgan qatorni toping.
B Yordamchi so‘zlar	2Qanday so‘zlar yakka holda ma’no anglatmaydi, gap bo‘lagi bo‘la olmaydi, grammatik ma’nolarni ifodalashgagina xizmat qiladi?
C.Mustaqil so‘z turkumlari	3.Qanday so‘zl turkumlari gap ichida ma’lum bir gap bo‘lagi bo‘lib keladi.

5 Talabalarning yangi mavzuni tushuntirish (So‘z turkumlari, ularning tasnifi) misollarni amaliy ko‘rsatishi. Shu o‘rinda talabalar badiiy asardan tuzib kelgan misollardan namunalar o‘qitiladi.)
Mustaqil so‘z turkumlari mustahkamlashda qo‘llanadigan mashqlardan namunalar ko‘rsatishi.
134-mashq. O‘qing. Mustaqil so‘zlarni aniqlab, qanday savolga javob bo‘lishini ayting.

Mehmondorchilikdan qaytgandan so‘ng Zaynab kiyimlarini elektr dazmol bilan dazmolladi, qunt bilan taxlab chamadonchasiga joyladi-da, radiopriyomnikni qo‘yib, «Pikovaya dama» operasining o‘zbekchasini tingladi. Zaynab ertaga jo‘nashini eslarkan, yuragi allanechuk zirqirab ketdi. Hatto uning mehnatda botir, yuragi sof va samimiy “oshiqlari” ham bor. Hamisha g‘ayrati toshgan, shijoatli, xushchaqchaq yosh kolxozchi To‘g‘on Boshoqov bilan birga dalada ishlaganda charchaydimi kishi. To‘ti xoladay to‘qqiz o‘g‘ilning onasi, majlisda notiq, terimda devkor ayolni jondan sevmaslik mumkinmi? *(Oybek.)*

135-mashq. O‘qing. Yordamchi so‘zlarni hamda modal, undov va taqlid so‘zlarni aniqlang.

Quyosh selida miriqib cho‘milgan bo‘ydor teraklar quchog‘ida toraya-toraya g‘oyib bo‘lgan tekis yo‘lda askar yengil odim otardi. Bu yo‘lni urushdan burun kolxozlar qurgan edilar. Ilgari bu yerda yog‘ingarchilik pallasida balchiq otning qorniga yetardi. Mana bugun quling o‘rgulsin bir xiyobonki, ko‘lankasida yastanging keladi. Askarning yuragi to‘lqinlanib, odim-odim joyda to‘xtar va har yonga suqlanib qarar edi. O‘ng tomonda uchi ko‘rinmas, ko‘m-ko‘k, tekis paxta dalasi ochildi: “Bunda shunday yaxlit paxta maydoni yo‘q edi-ku. Qanday ish qilishibdi-ya. Paxtaga ana shundoq qulochkash maydon kerak. Mehnatni ayamasang, bu yerda hosil qaynayveradi. Ah, g‘o‘zasi picha kechikibdi-da...” — dedi o‘z ichida askar. Ariqlarda qiy-chuv bilan cho‘milib, qizg‘in tuproqqa ag‘anagan qora-qura bolalar, havoda zarg‘aldoqlarning “biyov-biyov”i va traktorlarning guldurovi, devor orqasida tandirda pishayotgan nonning hidi, bog‘larda mevalarni qushlardan qo‘riqlovchilarning shovqini — hamma narsa unga tinch hayotni va erkin mehnat nash’asini gavdalantirar edi. *(Oybek.)*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. **So’zni turkumlarga ajratishda qaysi belgilariga asoslaniladi?**
2. **Yordamchi so’zlar qaysilar?**
3. **Mustaqil so’zlarning o’ziga xos xususiyatlari nimada?**

Darsga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.
10. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfemika. So‘z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.
11. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, ”Moliya”, 2003

6-7-MAVZU: Otlarda son kategoriyasi. Otlarda egalik kategoriyasi (2soat)

Mavzu: Otning leksik-grammatik xususiyatlari, ma’no turlari yuzasidan savol-javob o‘tkazish, mashqlar va testlar ishlash.

Maqsad: Otning leksik-grammatik xususiyatlari, ma’no turlari mavzusi yuzasidan o‘rgangan nazariy bilimlarni amalda tadbiq etishga o‘rgatish .

Mashg‘ulot rejasi:

1.Tashkiliy qism;
2.Savol-javob;
3.Mashq ishlash;
4.Test tekshiruvi
5. Talabalar faoliyatini baholas
6. Mashg‘ulotni yakunlash.

Mashg‘ulot mazmuni

1.Guruh uchta kichik guruhlarga ajratiladi.Har bir guruh o‘ziga nom qo‘yadi va qo‘ygan nomini izohslaydi.
2.Guruhlarga konvertda topshriqlar beriladi.
1-guruh uchun. Ot so‘z turkumlari deganda nimani tushunasiz ?
2-guruh uchun.? Turdosh otlarning turlarini ochib bering
3-guruh uchun ot so‘z turkumlarining turlarini “Tarmoqlash“ usulida ochib bering.

TEST TOPSHIRIQLARI

1-guruh

A Kelajak -oʻtmish,erkak-ayol, olqish-qargʻish,aka-uka,qahr-mehr	1.Ot turkumigagina oid antonimlar qaysi javobda berilgan.
B.)Otlar maʼno jihatidan shaxs otlarga, narsa-buyum otlari joy nomini bildiruvchi otlarga boʻlinadi.	2.Otlarning leksik (maʼnoviy) xususiyatlarnga koʻra qanday otlarga boʻlinadi?
A 2 hil.	3.Turdosh otlar qanday tushunchani ifodalanishiga koʻra neca hil boʻladi?
D Ayrim shaxs yoki predmetga atab qoʻyilgan nomlar atoqli otlar deyiladi.	4.Atoqli otlar deb nimaga aytiladi ?

2-guruh uchun

D Ayrim shaxs yoki predmetga atab qoʻyilgan nomlar atoqli otlar deyiladi.	4.Atoqli otlar deb nimaga ayutiladi ?
E. muhabbat, gʻazab, doʻstlik,	22 Mavhum otlar berilgan otlarni toping
F.Poʻlat Goʻzal , Sakson ota , Kimsan	Qaysi qatorda atoqli otlar turdosh ot yoki boshqa biron soʻz turkumi asosida vujudga kelgan ?

5.5. Talabalarning yangi mavzuni tushuntirish (Otning leksik-grammatik xususiyatlari, maʼno turlari) misollarni amaliy koʻrsatishi. (Shu oʻrinda talabalar badiiy asardan tuzib kelgan misollardan namunalar oʻqitiladi.)

77.Ot soʻz turkumlari mustahkamlashda qoʻllanadigan mashqlardan namunalar koʻrsatishi.

136-mashq. Oʻqing, atoqli va turdosh otlarni aniqlang, ularning farqini izohlang.

Odatda katta isteʼdod egalari hayotda ham yorqin shaxslar boʻladi. Men Oybek va Gʻafur Gʻulom, Mirtemir va SHayxzoda kabi ulkan soʻz sanʼatkorlari suhbatida boʻlib, shunday eʼtiqodga kelganman. Bu ustozlar kirib kelgan uylarda chiroq yoqilganday boʻlar, oʻzgacha bir fayz qoʻshilar edi. Aminmanki, Hamid Olimjon, Usmon Nosirlar ham shunday farishtali odamlar boʻlishgan.

... Usmon Nosirning “Yurak”, “Nil va Rim” sheʼrlari, “Naxshon” dostoni oʻzbek sheʼriyati xazinasidan joy olgan. SHoir qilgan tarjimalar bu olijanob sanʼatning yorqin namunalari sifatida koʻp avlod tarjimonlar uchun mahorat maktabi boʻlib xizmat qiladi.*(E. Vohidov)*

137- mashq. Murodjon Rahmonovning «Samimiylik» sheʼrini ifodali oʻqing. Aniq va mavhum otlarni aniqlab, farqini tushuntiring.

Sen borsanki, hayot shirin, ishq barqaror, samimiylik,
Sen borsanki, doʻstlik mangu, yor vafodor, samimiylik.
Sen bor joyda koʻngil ravshan, dillar charogʻon hamisha,
Sen bor joyda yoʻq kin, gʻaraz, yoʻqdir ozor, samimiylik.
Sen bor joyda turmush goʻzal, kulib boqar baxt, istiqbol,
Sen bor joyda yaxshilik bor, ezgulik bor, samimiylik.
Sen borsanki, sof dil odam, el farovon, zamon xurram,
Sen bor joyda boʻlmas gumon, yoʻq hech gʻubor, samimiylik.
Sen borsanki, koʻngillarda doim bahor, samimiylik.
Sen bilandir saodat ham, pok xislatlar, sadoqat ham,
Mangu yasha sen jahonda, boʻlgin bisyor, samimiylik...

138-mashq. O‘qing, yakka va jamlovchi otlarni aniqlang, farqini tushuntnring. Gaplarni ko‘chirib, jamlovchi otlar tagiga chizing.

1. Xonga urush ochmoqni U xayol qilar edi, El buni bilar edi. *(H. O.)* 2. U doim boqib poda, Yurar edi sahroda. *(H. 0.)* 3. Bolam, endi yurt tinchib qoldi, Elu xalq ham erkin tin oldi. *(H. O.)* 4. Mamlakatning sardoriga peshvoz bo‘ldi fuqaro. *(SH. Rustaveli.)* 5. Lashkar uchun dasturxonni to‘kin yozib qo‘ydirib, Mehmonlarga ulashdi shoh shohlarga xos sovg‘alar. *(SH. Rustaveli.)* 6. Qo‘shin borar, orqasidan borar edi yuk karvon. *(SH. Rustaveli.)* 7. Ko‘k va yashil kiyimdagi olomon tik turishib, Sevinch yoshin to‘kar edi Avtandilni ko‘rishib. *(SH. Rustaveli.)*

Test yechish.

8. Talabalar to‘plagan ballarni e’lon qilish**.**

Uyga vazifa berish.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Son kategoriyasining haqida gapiring.
2. Egalik kategoriyasining shakllari qaysilar?

MAVZU BO’YICHA TEST TOPSHIRIQLARI:

1. Otning birlik va ko’plik formalari qanday yasaladi?
A) Ko’plik forma *–lar* affiksi orqali yasaladi, birlik formaning maxsus affiksi yo’q
B) Birlik va ko’plik forma o’rtasiga aniq chegara qo’yib bo’lmaydi.
C*) Odatda nol ko’rsatkichli forma birlik, *-lar* affiksli so’z ko’plik sanaladi.
D) Takroriy formalar ko’plik hosil qiladi.
2. Son shakli:
A*) lug‘aviy shakl
B) sintaktik shakl
S) lug‘aviy-sintaktik shakl
E) to‘gri javob berilmagan
3. Ko’plik qo’shimchasi chama, taxminni ifodalagan misolni toping.
A) Onda-sonda ochilgan chanoqlar ko’k dengizda sadafdek yaltiradi. V) Quvnashdi havasdan dil bilan ko’ngillar. S) Vatandosharim bilan quvonaman D)*) Kechqurunlari bo’sh bo’laman, keling, suhbatlashamiz.
4. Ko’plik ma'nosi qo’shimchasiz holda ifodalangan qatorni aniqlang.
A) Har doim sof dil bo’laylik. V) Ko’chada bir qancha bola ko’rindi. S) Har rastada ming-ming do’kon D*) V va S.
5. Ko’plik qo’shimchasini olmaydigan so’zlar qatorini belgilang.
A) siz, kitob, qalam V) safar, oqshom, u, olim S*) quvonch, men, sen D) kun, baliq, ishchi, kiyim.

Darsga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.

5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.

8-9-10-MAVZU: Otlarda son va egalik kategoriyasi, otlarning yasalishi, tuzilish jihatdan turlari, ularda modal shakli. (2 soat)

(ilova-1)

Maqsad: Otlarda son va egalik kategoriyalari mavzusi yuzasidan o‘rgangan nazariy bilimlarni amalda tadbiq etishga o‘rgatish .

Mashg‘ulot rejasi:

1.Tashkiliy qism;
2.Savol-javob;
3.Mashq ishlash;
4.Test tekshiruvi
5. Talabalar faoliyatini baholash
6. Mashg‘ulotni yakunlash

(ilova-2)

Mashg‘ulot mazmuni

1.Guruh uchta kichik guruhlarga ajratiladi.Har bir guruh o‘ziga nom qo‘yadi va qo‘ygan nomini izohslaydi.
2 .Guruhlarga konvertda topshriqlar beriladi.
1-guruh uchun. Otlarda egalik kategoriyalari haqida nimalarni bilasiz?
2-guruh uchun.Otlarda son kategoriyalari
ochib bering
3-guruh uchun.Otlarda egalik kategoriyalari “Tarmoqlash“ usulida ochib bering.
3. Guruhlar javobi umumlashtirilib, slaydlar asosida to‘ldiriladi.

5. Talabalarning yangi mavzuni tushuntirish (Otlarda son va egalik kategoriyalari) misollarni amaliy ko‘rsatishi.
(Shu o‘rinda talabalar **badiiy asardan** tuzib kelgan misollardan namunalar o‘qitiladi.)
7Otlarda son va egalik kategoriyalari mustahkamlashda qo‘llanadigan mashqlardan namunalar ko‘rsatishi.

(ilova-3)

***139-mashq*.** O‘qing. Birlik va ko‘plik sonda kelgan otlarni aniqlang. Ko‘plik shaklda kelgan otlarning ma’nolaridagi farqlarni izohlang. Gaplarni ko‘chirib, ko‘plik qo‘shimchasi tagiga chizing.

I. Quyosh botgan esa-da, hali hammayoq yorug‘, hali kunduzning yallig‘i bilan nafas olgan dashtda to‘rg‘aylar ora-sira “chiv-chiv”lashib uchishar edi. Toshbaqalar,

kirpitikanlar o‘ynar edilar. Mayda toshlar ustida shildirab oqqan iliq suv bilan chelaklarni to‘ldirgandan keyin, bet-qo‘llarini yuvib, sochlarini ho‘llab, dam olgani katta toshga o‘tirishdi. Bu yerda chuqur jimjitlik hukm surar edi. Qizlar sekin-sekin quyuqlasha borgan shom qorong‘isida sokin mudragan adirlarga, tepalarga xayolchan termulib, ancha vaqt jim o‘tirishdi. *(Oybek.)*

II. 1. Boshlarimga yostiq kelar ko‘p malol. *(H. O.)* 2. Halimaxon, Naziraxonlar, Nadimaxon, Karimaxonlar Qushday yengil uchar edilar. *(H. O.)* 3. Mana hozir ona suratiga tikilarkan, uning yuzidagi tanish, ko‘p voqealarning shohidi bo‘lgan ajinlar, hech qachon kulmagan qisiq lablar, hasrat to‘la ko‘zlar Nizomjonga: “Bolaginam... Yomonga yondashma!” deyayotgandek.*(S. Ahm.)* 4. Opasi bo‘ynidan, quloqlaridan isirg‘alarini olaturib hiringlab kuldi. *(S. Ahm.)* 5. U o‘z bolasini bir parcha etdan katta qilguncha ne mashaqqatlar tortmagan! *(S. Ahm.)* 6. Seni opichlab ko‘targan otangning bellari qarsillab sinib ketsa bo‘lmasmidi! *(S. Ahm.)*

***140- mashq*.** Egalik affikslarini olgan otlarni aniqlang. Ko‘chirib, egalik qo‘shimchasi tagiga chizing, shaxs va sonini so‘zning ustiga yozing.

1. Akam ishxonadan chiqib, o‘rtog‘i Xolmat partizanni qarshiladi. U, odatdagidek, to‘la-to‘kis qurollangan. Uning kelishgan qomatiga... ko‘k movut shimi, sarg‘ish gimnastyorkasi, ... shpor taqilgan qora xrom etigi, qilichi, belidagi qo‘sh bombasi, beshotar miltig‘i faqat Xolmat Rajabov uchun yaratilgandek yarashardi. *(N. Safarov.)*

II. 1. Asrlarning so‘kib chokini, Ko‘zlarimga surib xokini, Tarixlarni bir-bir titurman, Afsonalar topib biturman. *(O.)* 2. Navro‘z kelsa so‘roqlab, Ne deyman, boshlarim xam. Yoz izlasa so‘roqlab, Ne deyman, kiprigim nam. *(Z.O.)* 3. Adashtirmay tanib turdi Ulkan daryong, keng o‘rmoniig, Bog‘u rog‘ing, qiringni! *(SH.)* 4. Lochin akam — Valeriy, Lochin opam — Valyaxon! Men sizga hamroh, sherik Quyoshga aziz mehmon. *(G. J.)* 5. Ijodingga biz tashna. CHanqoqlikni, kel, qondir, Kuying elga dostondir. *(Q. H.)*

***141-mashq*.** Gaplarni o‘qing, egalik qo‘shimchasi bilan qo‘llangan otlarni aniqlang. Otlarga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda o‘zakning o‘zgarishini izohlang.

1. Moshi siyrak dukkaklab, Qovog‘i kech gullagan. *(Q. H.)* 2. Butun qishlog‘imizda bitta Rajabiyimiz bor, xolos. *(N. Biryukov.)* 3. U ishkomning og‘zida ko‘ringan yorug‘likka intildi. *(S. An.)* 4. Jonajon o‘rtog‘i Karima bilan hujralarida yuzma-yuz qolishga Munavvarning yuragi betlamas edi. *(S. An.)* 5. Bolalar yotog‘ida ham hech kim ko‘rinmaydi. *(S. An.)* 6. Ha, aytganday, Ilashev, Yo‘ldoshevlar chakana radio emas, og‘zini berkitsangiz, burni bilan gapirishdan ham toymaydigan odamlar. *(A. Muhiddin.)*

(ilova-4)

Blits o‘yini
1-GURUH UCHUN

1.Egalik qo‘shimchalari predmetning uch shaxsdan (so‘zlovchi, tinglovchi, o‘zga) biriga qarashli ekanini bildiradi	1. Egalik qo‘shimchalari predmetning nimasini bildiradi?
2.Otlar ko‘plikda -lar qo‘shimchalsi orqali ifodalanadi.	2.Otlar ko‘plikda qanday qo‘shimchalsi orqali ifodalanadi?
3.q undoshi jarangli g‘ undoshiga aylanadi va *qopqog‘i, tuprog‘i* kabi yoziladi	3. O‘zak, negiz ohirida q undoshi bo‘lib unga egalik qo‘shimchasi qo‘shilganda

	qanday yoziladi.

2-GURUH UCHUN

1.*ishtirok, o‘q, ravnaq, yuk*	1.egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda asos qismida tovush o‘zgarishi yuz bermaydigan so‘zlarga misol keltiring?
2. morfologik usul	2. Otlar ko‘plikda -lar qo‘shimchasi bilan ifodalansa qanday usul deyiladi?
3. Leksik usul: *bir qancha odam, ming-ming daraxt, beshta daftar.*/-	3.Ko‘plik ma’nosi qo‘shimchasiz holda mahsus so‘zlar yordamida ifodalanilsa qanday usul hisoblanadi?

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Otlardagi lar shaklining ma’nolarini izohlang?
2. Egalik kategoriyasining o’ziga xos xususiyatlarini izohlang?
3. Ot yasalishi haqida ma’lumot bering?

Darsga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.

11-MAVZU: Sifat - so‘z turkumi sifatida. Sifatlar ustida umumiy morfologik tahlil o‘tkazish. (2 soat)

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Sifatning ta’rifi va leksik-grammatik xususiyatlari haqida gapiring
2. Asliy va nisbiy sifatlar
3. Sifat darajalari haqida nimalarni bilasiz
4. Ozaytirma va kuchaytirma sifatlar ularning o‘zaro farqi.

Ilova

Mashqlar bajarish.

163-mashq. O‘qing, sifatlarni aniqlab, qanday belgi bildirayotganini ayting, sifatlarni o‘zi bog‘langan ot bilan birga ko‘chiring, sifatning tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

I. To‘lin oy tikkaga kelib, osilib qoldi. Tunning erka shabadasi o‘rik yaproqlarini bir-biriga urib o‘ynaydi, undan chiqayotgan mayin sasdan orom oladi. Qizg‘ish chiroq shu’lasida yaltirab turgan mushtdek-mushtdek o‘riklar «to‘p-to‘p» to‘kiladi. Pastda, ikki o‘rik panasidagi so‘rida yosh qiz va oq soch ayol xayolga cho‘mib o‘tirishibdi. Keksa ona, dilbar qiz. *(M. Pirmatov.)*

II. CHetlariga o‘ymakor panjara yasalgan katta ayvonga ipak ko‘rpachalar to‘shalgan, o‘rtadagi xontaxtaga barkash-barkash noz-ne’matlar qo‘yilgan edi. Bu yerdan, tepalikka qurilgan bu koshonaning ayvonidan, yomg‘irda cho‘milgan ko‘z ilg‘amas ulkan, bog‘, qizil qum sepilgan xiyobonlar, hilol va yulduz shaklidagi gulzorlar yanada go‘zalroq, yanada so‘limroq ko‘rinardi. Olisda, Qo‘qon qirining ortida, harir ko‘kish tuman orasidan ko‘tarilgan yuksak tog‘lar ko‘zga chalinar, Samarqand daraxtlar orasidan aniq ko‘rinmas, lekin beriroqda, yashil yaproqlar orasida, yana bir yuksak bino ko‘zni qamashtirib charaqlar, bu — shafaq jilolangan rasadxona peshtoqlari edi. *(O. Yoqubov.)*

164-mashq. O‘qing, sifatlarning qaysi so‘z bilan bog‘langanini aniqlang. Otga bog‘langan sifatlarni birikma tarzida ko‘chiring.

1. Qarshimda onam o‘tiribdi. Bag‘ri olamday keng, ko‘ngli paxtaday yumshoq uning. Tongday go‘zal, tongday musaffo, ey muqaddas zot, sening muhabbating mangu qalbimda, hurmating boshimga do‘ppi. *(M. Mirzarahimov)* 2. Sariq, pushti, pistoqi ranglarga boy ipagim. *(Q. H.)* 3. Sertuproq yo‘llar, olisdagi uylarning tomlari oydindan yiltiraydi, boshlarida, qo‘yinlarida yulduzlar chaqnagan teraklarning bo‘ylari yana balandroq, adlroq ko‘rinadi. *(O.)* 4. Fanda oson yo‘l bo‘lmaydi, oson yo‘l tanlagan uzoqqa bormaydi. *(J. Abd.)* 5. Bu xatlarga samimiy, insoniy tuyg‘ular bitilgan edi. *(S. Ahm.)* 6. Yer baquvvat bo‘lsa, g‘o‘za ham baquvvat o‘sib, hech qanday dardga chalinmaydi. *(J. Abd.)* 7. O‘sar mitti azamat: Serharakat, mard, durkun. Ammo hayron qoldirar Kulganlarni u bir kun. *(Q. H.)*

165-mashq. O‘qing. Asliy va nisbiy sifatlarni aniqlab, nisbiy sifatlarning yasalishini izohlang.

1. Sobir quyoshda chaqnagan orden va medallarini jaranglatib, qizdan sal nari cho‘qqaydi va o‘choqdagi qorindor qo‘shaloq qumg‘on ostiga quruq shaldiroq xascho‘p tashladi. *(O.)* 2. Qish edi. Derazadan televizion antennalarning izg‘irinda hushtak chalgani eshitildi. *(As. M.)* 3. Ehson ustki labini tishlab, ko‘zini yuqoriga ko‘tardi. *(A. Q.)* 4. Ozarbayjonlik Soib Ismoilov to‘pdan tinmay o‘q uzardi. *(T. Rustamov.)* 5. Egma-bukma kamonlarni va zarb yegan qalqonni Yechintirib qiz oldi-yu, g‘orga eltdi o‘g‘lonni. *(SH. Rustaveli.)* 6. Saidiy, haqiqatan, talabalik vaqtida ko‘p she’rlar yozgan, bularning ko‘pchiligi devoriy gazetada bosilgan... edi. *(A. Q.)* 7. Katta sandiq yal-yal yongan olmos, la’l, yoqut, inju, zabarjad va yana qandaydir nafis tovlangan qimmatbaho toshlar bilan limmo-lim edi. *(O. Yo.)* Ko‘rasanmi, hu olisda ketayotir pahlavon, O‘z yo‘lidan aynamaydi quyoshsimon, oysimon. *(SH. Rustaveli.)* 9. Endi qizning tasallibaxsh so‘zlarin tingladi u. *(SH. Rustaveli.)* 10. Ular mavlono Muhiddinning bog‘ida, jar bo‘yidagi keksa yong‘oq tagida uchrashdilar. *(O. Yo.)* 11. Rajab aka, siz o‘z vaxtangizda tarbiyaviy ish olib bormay qo‘yibsiz. *(P.Q.)* 12. Olis tog‘lar orqasidan

ko‘tarilgan quyosh boshoqlarni oltin dengizga aylantirgan edi, ertalabki salqin shamol bu dengizni to‘lqinlantirib, g‘ir-g‘ir esardi. *(O.)*

166-mashq. O‘qing. Sifatlarni aniqlang, qanday daraja shaklida qo‘llanganini ayting. Oddiy, qiyosiy va orttirma darajadagi sifatlarni uch ustun shaklida yozing, daraja ko‘rsatkichi tagiga chizing.

1. Yangi klub. Katta zalda O‘tgan kuni bo‘ldi bal. *(Q. H.)* 2. Agar unga Toshkentdan chiroyliroq shahar ham bor, deb aytsalar, aslo ishonmasdi. *(N. Biryukov.)* 3. Axir, eng jasur, eng tajribali dengizchilar ham SHimoliy qutbgacha yetaman deb, ... halok bo‘lganlar. *(J. Vern.)* 4. Sersoqol, baroq qoshli chol qushlar tiliga tushunardi. *(Yu. Semyonov.)* 5. CHindan aytaman, sizdan ko‘ra menga og‘irroq. *(N. Biryukov.)* 6. Uning ovozini pasaytirdi va bundan kuy yana ravonroq, yoqimliroq tuyuldi. *(H. G‘.)* 7. Lekin bu ish avvalgi ishlaridan har jihatdan mushkulroq edi. *(H. G‘.)* 8. Ehtimol, eng so‘nggi misralarni u Qog‘ozni bo‘yagan qon-la bitgandir. *(O.Xoldor.)* 9. SHu qorong‘ilikda tepalikdagi ekskavator tag‘in ham haybatliroq ko‘rindi. *(H. G‘.)* 10. ...Lekin undan kichikroq xarita ustiga egilishdi. *(H. G‘.)* 11. Goh Yo‘lchining marhum onasini xayol kuchi bilan jonli, ravshan tasavvur qilishga tirishadi. *(O.)* 12. Bu uy uning eng baxtiyor, eng azobli kunlariga guvoh. *(S. Ahm.)* 13. Rais uning ko‘ziga ilgarigidan kamsavlatroq ko‘rindi. *(A. Q.)*

167-mashq. O‘qing, sifatlarni topib, darajasini ayting. Qiyosiy va orttirma darajali sifatlar ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, sifatlarning o‘xshash va farqli tomonlarini izohlang.

1. U o‘taketgan darajada sovuqqon, chaqqon, shijoatli va farosatli odam edi. (J. *Vern.) 2.* O‘zining kiyimlari... unikiga qaraganda qalin, issiqroq edi. *(S. An.)* 3. Otalar o‘z bolalarini dunyodagi bolalarning eng zo‘ri, eng xushbichimi deb bilishadi. *(S. Ahm.)* 4. Yunus bobo... Safarning og‘zaki salo-midan kura ko‘proq xatidan umidvor bo‘lganini payqadi. *(F. Niyoziy.)* 5. U o‘zining shavq-zavqini ularga nisbatan yanada dabdabaliroq ifodalar edi. *(S. B.)* 6. Lekin hammasidan ham xavflirog‘i anovi Mirza. *(N. Biryukov.)* 7. O‘z uyi oldida, o‘z devorida unga eng og‘ir, eng dahshatli hukm bitilgan edi. *(S. Ahm.)* 8. Odamlar bilan ishlashdan muhimroq va mushkulroq narsa yo‘q, azizim. *(H G‘.)* 9. Bu yerdagi kunimiz achchiq edi, u yerda tag‘in ham achchiqrog‘ini totidik. *(O.)* 10. U eng toza buloq suvidan ham tiniqroq. *(J. Vern.)*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Sifatlarning umumiy grammatik ma’nosini tushuntiring?
2. Sifatlardagi kategoriyalarni ayting?

3-ilova

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1. Sifat turkumining o‘ziga xos morfologik xususiyatlari qaysilar?

A) darajalanish xususiyatiga ega B) sifat aniqlovchilar o‘zlarining sifatlanmishlari bilan moslashmaydi. C) sifatlar sodda va qo‘shma bo‘ladi D) A, C

2. <u>*Baland, ulkan, kichik, mayda*</u> so‘zlari uchun xos bo‘lgan umumiy ma’nolar qanday ma’no sanaladi?

A) ko‘chma ma’no *B) grammatik ma’no*
C) uslubiy ma’no *D) leksik ma’no*

3. <u>*Uzun, naynov, pakana*</u> so‘zlari uchun xos bo‘lgan umumiy ma’nolar qanday ma’no sanaladi?

A) leksik ma’no B) grammatik ma’no

C) uslubiy ma’no D) ko‘chma ma’no

4. Jumladagi sifatning ma’no turini toping. <u>*Uning yonoqlari uzunchoqroq edi*</u>.

A) hid bildiruvchi B) hajm-o‘lchov bildiruvchi

C) shakl-ko‘rinish bildiruvchi D) holat bildiruvchi

5. Sifat turkumiga oid so‘zlar qaysi javobda berilgan?

A) chiniqqan, o‘qigan, esayotgan B) so‘nmas, oqar, sehrlovchi C) mayin, yoqimli, quvnoq D) birinchi, ishchi, to‘quvchi

6. Predmetning xususiyatini bildiruvchi sifatlar qaysi javobda?

A) shirin, achchiq, nordon B) novcha, og‘ir, katta C) kamtar, xushfe’l, sho‘x D) devoriy, tonggi, xushbo‘y

7. Ish-harakat natijasida hosil bo‘lgan belgi-xususiyatni bildiruvchi sifat yasovchi qo‘shimchani toping.

A) –oq B) –gir C) –chak D) –ma

8. Sinonim sifatlarni toping.

A) cheksiz, behad, bardoshli, benihoya B) chopqir, chopag‘on, metin C) sekin, asta, astoydil, ohista. D) sezgir, ziyrak, tuyg‘un, hushyor.

9. Antonim sifatlarni toping.

A) Adolatli podsho hech vaqt mag‘lub bo‘lmas. B) Otabekka O‘zbek oyim tarafidan kirish uchun ruxsat berilgan edi. C) Ish sur’ati tobora jadallashmoqda. D) Achchiq savol berib, shirin javob kutma.

10. <u>*Baland tog‘lar o‘lkamizda ko‘p.*</u> Ushbu gapdagi <u>*baland*</u> so‘zining grammatik ma’nosi qaysi qatorda ifodalangan?

A) belgi B) sifat C) aniqlovchi D) B va C

11. Asliy sifatlar berilgan javobni toping.

A) qishki, derazali, ko‘chma, devoriy B) go‘zal, chiroyli, shirin, C) oq, aqlli, yuzaki D) B va C.

12. Nisbiy sifatlar berilgan javobni toping.

A) qishki, derazali, ko‘chma, devoriy B) go‘zal, chiroyli, shirin, C) oq, aqlli, yuzaki D) B, C.

13. Narsa-buyumlardagi belgining ortiq-kamlik jihatdan farqlanishi...

A) nisbiy sifat deyiladi B) tub sifat deyiladi C) sifat darajasi deyiladi D) qo‘shma sifat deyiladi

14. Orttirma daraja shaklidagi sifatlarni toping.

A) tim qora, qip-qizil, oqish B) sarg‘ish, ko‘kimtir, qoramtir

C) yumshoqqina, och yashil, to‘q ko‘k D) pak-pakana, bo‘m-bo‘sh, biram yoqimli.

15. <u>*Bunisi xiyol kattaroq ko‘rindi.*</u> Ushbu gapdagi sifat darajasini belgilang.

A) *oddiy daraja* B) *orttirma daraja*

C) *ozaytirma daraja* D) *sifat qo‘llanmagan*

16. <u>*Biram yoqimli havo*</u> birikmasidagi sifatning darajasini va daraja hosil qiluvchi vositani aniqlang.

A) orttirma daraja, fonetik vosita B) orttirma daraja, morfologik vosita C) orttirma daraja, leksik vosita

D) ozaytirma daraja, leksik vosita

17. Ushbu gapdagi sifatning darajasini va daraja hosil qiluvchi vositani aniqlang. *Qoshi sal qoraroq yigit edi.*

A) orttirma daraja, morfologik vosita B) orttirma daraja leksik vosita C) ozaytirma daraja, leksik vosita D) ozaytirma daraja, leksik-morfologik vosita

18. Orttirma daraja shaklidagi sifatlarni aniqlang.

A) yumshoqqina, och yashil, to‘q ko‘k B) yam-yashil, chiroyliroq, nim pushti C) tim qora, qipqizil, oqish D) but-butun, tim qora, g‘irt yolg‘on.

Darsga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.
10. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfemika. So‘z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.
11. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, ”Moliya”, 2003

12-MAVZU: SIFATLARNING YASALISHI. (2 soat)

1-ilova

Mashqlar bajarish

168-mashq. O‘qing, tub va yasama sifatlarni aniqlang, yasama sifatlarning yasalish usulini tushuntiring. Morfologik (affiksatsiya) usulda yasalgan sifatlar ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, sifat yasovchilar tagiga chizing.

1. Yarim kechaga borib serzavq odamlar bilan gavjum bo‘lgan vagon... tinchidi-qoldi. *(A. Nazarov.)* 2. Biroq Asqar hammasidan ham yengil tabiatliroq ko‘rinadi unga. *(A. Nazarov.)* Nihoyat, Ahmadjon askariy xizmatga chaqirildi. *(A. Q.)* “SHuncha kitob yozilgan-u, baribir menbop kitoblar kam”, — deb shikoyat ham qilib qo‘yadi. *(L. Mahmudov.)* 5. Qolgan vaqt ichida o‘zimning mineralogik hamda botanik va zoologik kollektsiyalarimni tartibga solmoqchi bo‘ldim. (J. *Vern.)* 6. Uchqur xayollarimning qarorgohi, oromgohi bo‘lgan ajoyib manzil. *(M. Mirzarahimov.)* 7. O, bir mahallar qanday yuksak, qanday sehrli eding sen? *(M. Mirzarahimov.)* 8. Seni shundoq yonginamda avvalgidek xushchaqchaq, mehribon, dilkash, samimiy bir holda ko‘rdim. *(M. Mirzarahimov.)* 9. Hovuz atrofidagi mis pardozlangan chiroyli oynaband vitrinalarga eng nodir dengiz mo‘’jizalari qo‘yilgan. *(J. Vern.)* 10. O‘ychan, erinibgina qadam tashlab, fabrikadan chiqib kelyapman. *(M. N.)* 11. Oy nurida qizning cho‘zinchoq

chiroyli oqish yuzi, hurkak ohunikidek shahlo, jovdiroq koʻzlari baralla namoyon boʻldi. *(O. Xalil.)*

169-mashq. Oʻqing, yasama sifatlarni aniqlang. Sintaktik (kompozitsiya) usulda yasalgan sifatlarni oʻzi bogʻlanib kelgan soʻz bilan birgalikda koʻchiring, sifatlarning tagiga chizing.

1. Uning shishasimon jonsiz koʻzlari... la'nat yogʻdirayotandek tuyular edi, *(N. Biryukov.)* 2. Uning kampirdahan yuzlarida qizil dogʻlar paydo boʻldi. *(N. Biryukov)* 3. Xizmatda u juda ulfati odam. *(V. Yegorov.)* 4. Nim rang toyipi, pushti rang hasayni, tilla rang qirmiska, qahrabo husayni, har donasi yongʻoqday keladigan kattaqoʻrgʻon — hammasi shigʻil pishgan. *(S.An.)* 5. Boʻynidagi tuproq rang sharfi jundan edi. *(F. Niyoziy)* 6. Gulnozning bu artistona oʻyini buvining arazini issiq choyning hovriday tarqatib yubordi. *(H. Gʻ.)* 7. Oftobga qaragan har ikki derazaning ichkarisidan ikki tavaqali gulkor eshigi bor edi. Uyga solingan boʻyra ustiga guldor gilam toʻshalgandi. *(F. Niyoziy)*

170-mashq. Oʻqing. Sifatlarni aniqlab, tuzilish jihatdan turlarga ajrating va quyidagi jadvalni toʻldiring.

Sodda		Qoʻshma	Murakkab	Juft
tub	yasama			

I. Kechga yaqin ular yaylov tugab, sahro boshlanadigan yerga yetib keldilar, sargʻish barxanlar, chiroyli gullagan saksovul butalari koʻrindi. Botayotgan quyosh nurida uzoqdan bir nima oltinday charaqladi. Bu haykal edi. Bronzadan byust. U asfalьt yoʻl tugab, dasht-biyobonga son-sanoqsiz karvon yoʻllari, choʻpon soʻqmoqlari kirib ketadigan joyda, kichkinagina, chanqoq gulzor oʻrtasida, yoʻnilgan xarsang ustida turibdi.

CHoʻqqi soqolli, keksa odam. Kechki oftobda nurlanib turgan yuzining chuqur ajinlari bu xiyobonlarning qadimiy fojialaridan, uzoq zahmatkash umr va ajoyib gʻolibona taqdirdan darak berardi. Qeksa choʻpon bu sahrolarni tiz choʻktirgan bahodirday qisiq koʻzlarini ufqlarga tikib turardi. *(As. Muxtor.)*

II. 1. Uning oʻychan boqadigan qora koʻzlari, uzun kipriklari, bugʻdoy rang, sal choʻziqroq yuzlari va pushti rang, guldor koʻylagi koʻz oʻngida namoyon boʻlganda, yigit qalbi toqatsiz tepa boshladi. *(M. Salom.)* 2. Zehni tez, tahlilga moyil, qaysi koʻrsatkich qaysi raqamga borib bogʻlanishini, eski-yangi hujjatlarni, raqamlarni yod aytib berardi. *(As. M.)* 3. Kelinchakning gul yuzi, shahlo koʻzlari, qaldirgʻoch qanoti singari qayrilma qop-qora qalam qoshlari, shabnamdek begʻubor tiniq ruxsori, jozibador nigohi, tovus qomati — hammasi iffat pardasiga burkangan... *(N. S.)* 4. Oʻktam turli-tuman yumushlar bilan qancha band boʻlmasin, qurilishni bir minut ham unutmas edi. *(O.)*

171-mashq. *-li, -chan, -iv, no-, be-, ser-, -siz, -simon* affikslari yordamida sifatlar yasang va yozing, sifat yasovchilar tagiga chizing va qaysi soʻz turkumidan sifat yasalganini ayting.

172-mashq. I. Sifat yasovchi qo‘shimchalar yordamida *yaltira, aylan, bil, bot, buz, buk, bura, bo‘l, bo‘g‘, dimla, yoyish, yoy, yoz, yop, ishonar, yig‘, kes, sirg‘an, sovi, tortin, tug‘, chanqa, qaqra, qirq, qis, quy, qo‘rq* fe’llaridan sifatlar yasab yozing va imlosini tushuntiring.

II. Quyidagi sifatlarning yasalishini tushuntiring, sifat yasovchi affikslarni ajratib ko‘rsating.

Yopishqoq, jo‘shqin, iliq, kemtik, oqsoq, tiniq, erinchoq, hurkak, asrandi, baqiroq, bilarmon, burma, bo‘lmag‘ur, qotma.

173-mashq. Nuqtalar o‘rniga *-li* yoki *–lik* sifat yasovchi affikslaridan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring. Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarning yozilishini izohlang.

1. Urushdan keyin ularni hamma unutib tashlab ketgan asirlar lageridan **amerika**... soldatlar kelib qutqazdi. *(As. M.)* 2. Ammo Vatan oldidagi burchi bundan faxr...roq, ulug‘roq. *(S. Z.)* 3. To‘g‘risi, oilada Hanifani beshta bolasining eng kattasiday ko‘rib, ota... mehri bilan ayab, iliq munosabatda bo‘lishini Munavvar payqadi. *(S. An.)* 4. Hakima — iroda... qobiliyat..., o‘qishni sevadigan bir talaba. *(O. Yo.)* 5. Ahdni bajarmasak ne der dugonam, **boku**... qahramon Surayyoxonim? *(Z.)* 6. Uch mingta **marhamat**...lar mashina va aravalarda qo‘shiqlar bilan Izboskan tomon yo‘llandilar. *(N. Biryukov.)* 7. Munavvarning ona... mehri jo‘sh urib ketdi. *(S. An.)* 8. Dunyoda Adibadan yo‘q edi baxt...roq qiz. *(Mirm.)*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Sifatlarning yasalishi haqida gapiring.
2. Sifatlarning otlashishi.
3. Boshqa turkumdagi so‘zlarning sifat o‘rnida qo‘llanishiga misollar keltiring.
4. Sifatlarning tuzilish jihatdan turlarini ayting.

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1. *Issiq, sovuq* sifatlarining *isimoq, sovumoq* fe’llariga qanday munosabati bor?

A) sifatlar fe’llardan yasalgan B) fe’llar sifatlardan yasalgan C) sifat va fe’llar “is”, “sov” so‘zlaridan yasalgan D) ularning o‘zaro munosabati hozir unutilgan

2. Taqlid so‘zlardan yasalgan sifatlar berilgan qatorni toping.

A) yaltiroq, yarqiroq, so‘lqildoq B) jizza, qahqaha, sharshara C) do‘rildoq, chiyildoq, likildoq D) qalbaki, dahanaki, xomaki

3. Qaysi qatorda sifat yasovchi sinonim qo‘shimchalar berilgan?

A) -li, ba-, bo- B) -siz, -gi, -ki
C) -ag‘on, -li, -simon D) -gan, ser-, no-

4. Sifat yasovchi qo‘shimchalar olgan so‘zlar qatorini toping.

A) andijonlik, sersavlat, suvli B) yozgi, supurgi, qishki
C) harakatchan, mehnatkash, yumaloq D) baquvvat, tuxumsimon, charag‘on

5. Narsa-buyumning o‘ringa yoki vaqtga xosligini bildiruvchi sifat yasovchi qo‘shimchalar qaysi qatorda ko‘rsatilgan

A) -iy, -viy B) -simon,-lik C) -dagi, -ki, -qi D) -simon, -lik

6. Fe’ldan yasalgan sifatlar qatorini ko‘rsating.

A) yig‘iq, yig‘loq B) bosiq, bosqon C) qo‘g‘irchoq maqtanchoq, D) kuyunchak, kelinchak, burchak

7. Ot va sifat yasovchi –*ma* omonim qo‘shimchasi qo‘llanmagan qatorni toping.
A) aylanma, yasama B) qovurma, birikma
C) yasama, jamg‘arma D) ezma, bog‘lama
8. Fe’ldan sifat yasovchi qo‘shimchalar qaysi qatorda berilgan?
A) -gi, -ki, -qi, -iy, -viy, -chan B) -siz, -simon, ser-, ba-, be-
C) -dosh, -kor, -kash, -chi, -gar D)-choq,-chak, -gir, -kir, -q,-qi
9. O‘zbek tilida sifat yasovchi qo‘shimchalarni aniqlang.
A) –im, -viy, -m, -t. B) –chi, -la, -cha, -dir
C) - um, -sh, -b, -lik D) -siz, -li, -gi, -on
10. Qaysi qatorda sifat otlashmagan?
A) Boy qursin, uyat-andishani bilmaydimi? B) Quv, ichidan pishgan, fidoyi, jasur komandirni hamma sevadi. C) Yaxshidan ot qoladi, yomondan - dod. D) Bu xabarni eshitgach, onasi dovdirab, nochor qoldi.
11. Berilgan gapda ajratilgan so‘z vositasida qaysi hodisa yuzaga chiqyapti? *Odam olasi ichida.*
A) sifatlashish B) so‘z tushish C) sifatlash D) otlashish
12. Otlashgan sifat qaysi gapda?
A) Ichki go‘zallik bilan yo‘g‘rilmagan har qanday tashqi husn mukammal bo‘la olmaydi. B) Izchil mehnat hamma to‘siqlarni engadi. C) Otning yaxshisi uloqda bilinadi. D) Baxtsizlikda burchga sodiq qolish buyuk xislatdir.
13. Otlashgan so‘zni toping.
A) Bilmaslik ayb emas, o‘qimaslik ayb. B) Birov yonbag‘irdan gul tergani, birov buloq suvidan ichgani tarqalib ketdi.
C) Dunyoda el va erga xiyonat qilishdan, zolimga do‘st bo‘lishdan ham ko‘ra og‘irroq, razilroq, mudhishroq jinoyat bormi? D) Donolikning bir belgisi – adolat.
14. Quyidagi xususiyatlarning qay biri otlashgan sifatlarga xos emas?
A) Otga xos ko‘plik qo‘shimchasini qabul qiladi B) Otga xos egalik qo‘shimchasini qabul qiladi. C) Otga xos yasovchi qo‘shimchalarni qabul qiladi. D) Gapda otga xos barcha sintaktik vazifalarni bajara oladi.
15. Quyidagi sifatlardan qaysi birlari sodda sifatlar hisoblanadi?
1. katta; 2. chiroyli; 3. ishyoqmas; 4. shishasimon; 5. ko‘kimtir.
A) 1, 2, 3 B) faqat 1 C) 1, 2, 3, 4, 5 D) 1, 2, 4, 5
16. Qaysi qatorda qo‘shma sifat *ravish+ot* birikuvidan tashkil topgan?
A) *mushtumzo‘r* B) *kamquvvat* C) *yolg‘izoyoq* D) *xomkalla*
17. Qo‘shma sifatlarni toping.
A) olachipor, qoraqizil, ochiq ko‘ngil B) ko‘k muqovali, serjahl, xomxayolroq C) yam-yashil, uch g‘ildirakli, betakalluf
D) qoramtir, sharsimon, oliy ma’lumotli,
18. Quyidagi gapda nechta juft sifat bor? *Yakka-yu yagona farzanding yaxshi-yomon kuningga yaramasa, katta-yu kichik oldida yuzingni erga qaratsa-ya!*
A) 1 ta B) 3 ta C) 2 ta D) 4 ta
19. Qo‘shma sifatlar qanday tuziladi?
A) ot va otdan B) sifat va otdan C) ot va -ar qo‘shimchali fe’ldan D) ot va -aro so‘zidan
20. *Sifat* + *ot* ko‘rinishdagi qo‘shma sifatlarni belgilang.
A) sovuqqon, balandparvoz B) kamgap, kamquvvat C) tezoqar, ertapishar D) dunyoqarash, toshbag‘ir

Darsga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti

2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.

14-15-16-MAVZU: Son - so‘z turkumi sifatida. Sonlarning turlanishi va numerativ so‘zlar bilan qo‘llanishi. Sonlarda morfologik tahlil. (2 soat)

1-ilova

Mashqlar bajarish

184-mashq. O‘qing. Numerativ so‘z bilan birga qo‘llangan sonlarni aniqlab, numerativ so‘zlarning ma’nosini izohlang.

1. O‘zlaringni zo‘rlab bo‘lsa ham bir qoshiq-yarim qoshiqdan ovqat ichinglar! *(N. S.)* 2. Mayning yettilariga borib urug‘ sochish kerak! *(S. Ahm.)* 3. — Qayvaqtda bo‘lgan bo‘lishi mumkin?—Bundan o‘n asrlar muqaddam, do‘stim. *(N. Biryukov.)* 4. Soatiga atigi olti milya yo‘l bosyapmiz. *(Yu. Smuul.)* 5. Bir yillik xirojni — uch yuz ming dinorni oldindan yubortirdi. *(S. B.)* 6. U turgan joydan ellik qadamlarcha narida trassa ko‘kimtir chiroqlar bilan yoritilgan. *(N. Biryukov.)* 7. Ichkariga kir, uka. Biron piyola choy ich! *(S. Ahm.)* 8. SHtirlits soatiga qaradi: roppa-rosa yetti. *(Yu. Semyonov.)* 9. Uch-to‘rt oygina bo‘lsa ham diydoriga to‘ydirib ketdi. *(S. Ahm.)* 10. Zulfiqorovning xotini bitta qiyiqchada uch-to‘rtta anor, bir kilodan mo‘lroq sariq kishmish olib keldi. *(A. Q.)* 11. ...O‘n ming juftdan ortiq ko‘zlar bahaybat qoyali tog‘larga tikildi. *(N. Biryukov.)* 12. Uzoqda, taxminan, uch chaqirim narida tog‘ tizmasi ko‘rinib turardi. *(F. Muhammadiev).*

185-mashq. Gaplarni o‘qing. Sanoq va tartib sonlarni aniqlab, ularni o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ikki ustun shaklida ko‘chiring, gapdagi vazifasini ayting.

I. Birinchi o‘quv yilining birinchi, ikkinchi, uchinchi choragida biz “tosh daftar”, “kesak” qalamda yozib dars tayyorlardik. Keyinchalik paydo bo‘lgan «Sovg‘a» nomli o‘qish kitobi ham har olti o‘quvchiga bir donadan taqsimlab berilgan edi.

II. Er kurrasining uch yuz oltmish bir million kvadrat kilometri suvdan iborat. Bu suvning hajmi bir ming uch yuz yetmish million kub kilometrga tengdir. Demak, yer yuzidagi suvning vazni bir ming uch yuz yetmish kvintillion tonnadir.

Bu sonning naqadar kattaligini idrok etish uchun shu narsani bilish kerakki, milliard oldida bir qanchalik kichik raqam bo‘lsa, kvintillion oldida milliard ham shunchalik

ushoq sondir yoki boshqa so‘z bilan aytganda, milliardda qancha bir bo‘lsa, kvintillionda shuncha milliard bor.

Quruqlik suvdan bir yuz qirq million olti yuz ming yetti kvadrat metr joyni tortib oldi...

Fan besh asosiy oqimni kartaga tushirgan: biri — Atlantika okeanining shimoliy qismida, boshqasi janubida, uchinchisi Tinch okeanining janubiy qismida, to‘rtinchisi shimolida va nihoyat, beshinchisi Hind okeanining janubiy qismidadir. Ehtimol, Kaspiy va Orol dengizlari hamda Osiyodagi katta ko‘llarning suv havzasi bitta bo‘lgan uzoq o‘tmishda Hind okeanining shimoliy qismida oltinchi oqim ham bo‘lgandir. *(J. Vern.)*

186-mashq. Gaplarni o‘qing. Ot o‘rnida kelgan sonlarni aniqlab, gapdagi vazifasini ayting.

1. Kanikul tugagach, Rohatoy beshinchi kursda, Asqarjon aspiranturada o‘qishni boshlashdi. *(R. Fayziy.)* 2. Bir tovoq suyuq atalani ikkimiz bir qoshiqda talashib ichardik. *(N. S.)* 3. Demak, bir ming ikki yuz ellik oltini ikkiga ko‘paytiramiz. *(N. Biryukov.)* 4. Kichkinagina budilьnikning yorishib turgan mili beshni ko‘rsatardi. *(Yu. Semyonov.)* 5. Uch hovlida yolg‘iz bitta bola bo‘lib, u har safar ko‘chma do‘konni birinchi bo‘lib ko‘rar edi. *(CH. Ayt.)* 6. Uchinchi qo‘shni Roziya opa bolalar yaslisida murabbiya bo‘lib ishlardi. *(M. Muhamedov.)* 7. Lekin esingda bo‘lsin, yigirma beshinchida qandaydir noma’qulchilik sodir bo‘lgan. *(L. SH.)* 8. Yo‘l tuzatuvchi ishchilarning yigirma beshinchi baragi yonidan o‘tib ketayotganida parovoz hushtak chaldi. *(L. SH.)*

187-mashk. O‘qing. Miqdor va dona sonlarni aniqlab, qanday so‘z bilan bog‘langanini ayting. Oltita gapni tanlab ko‘chiring, sonlarning gapdagi vazifasini aniqlab, tegishli chiziq bilan belgilang.

1. Yana Yoqub otasiga yo‘llamoqchi bo‘lgan maktubida zumradning besh fazilati, yetti nuqsoni, sakkiz xil tusi va o‘n ikki bahosini ham yozib yubordi. *(K. Moiseeva.)* 2. To‘planishgan edi uch o‘rtoq: Paxtakoru olim, agronom. *(Mirm.)* 3. To‘qayda o‘n qadam oldinroq yurgan otliqning boshi ko‘rinmay ketardi. *(S. Ahm.)* 4. Ancha zo‘r kitoblar yozib tashlabman, Besh jild qilsammikin yoki olti jild! *(As. M.)* 5. G‘ulomjon bilan Qosimov oldiga ofitsiantka... o‘n six kabobni olib kelib qo‘ydi. *(H. Nu’mon, A. SHorahmedov.)* 6. SHu qishloqda yashar edi Uch qiz, uchta dugona. *(SH.)* 7. Ish shu qadar qiziganki, bir odam o‘n odam ishini qilyapti. *(N. Biryukov.)* 8. G‘o‘za tuplaridan birida ikki yuz ellik yetti ko‘sak sanadim-a! *(N. Biryukov.)*

188- mashq. Gaplarni ko‘chiring. Dona sonlarni topib, yasalishini tushuntiring.

1. Oq tunukadan yasalgan ikki paqirni menga berib, to‘rttasini akamning o‘zi ko‘tardi. *(N. S.)* 2. To‘qqiz nafar libos: bari ipaklik. *(H. G‘.)* 3. Yuzta dastgoh, shuncha usta, mingta ketmon ko‘raman desam, Norxo‘janing xuddi o‘ziga o‘xshash to‘rtta bekorchi, o‘tmaydigan ketmonga sop yo‘nib o‘tiribdi. *(H. G‘.)*

189-mashq. Chama sonlarni topib, qanday yasalganini izohlang va o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Axir, sizdek minglab xotin-qizlar choʻrilikdan qutulib, biri doktor, biri injener, biri muallima boʻlib xalqimizga xizmat qilmoqda. *(Z. Fatxullin)* 2. Ikki yuz - uch yuz qadamcha esini yoʻqotib yugurgandan keyingina uning ovozi chiqdi. *(P. T.)* 3. Yana uch soatlardan soʻng xoinlar iziga tushamiz. *(N.* S.) 4. Xona eshigi oldida oʻnlarcha odam navbat kutib turibdi. *(N. S.)* 5. Katta yoʻldan oʻttiz qadamcha narida, kanal yoqasida kichikroq yogʻoch koʻprik bor edi. *(N. Biryukov)* 6. Ot yana yuz metr chamasi chopib bordi. *(S. Kalmikov.)* 7. Kunduz soat uchlarga borib birdan yomgʻir yogʻa boshladi. *(R. Z.)* 8. Eshik ochilib, yetti-sakkiz yosh-qari dehqonlar hujraga kirdilar. *(O.)* 9. Hovlining narigi tomonidan, molxonadan, oʻn ikki-oʻn uch yoshlardagi yapaloq yuzli, dumaloq koʻzli bir bola yugurib chiqdi. *(P. T.)* 10. "Uch tepa" choʻliga qurilgan necha yuzlab chaylalar qamish-qiyoqdan yasalgan edi. *(N. S.)* 11. Mahallamizdan oʻn chogʻliq keksalar eshigimizdan kirib kelishdi. *(N. S.)* 12. Uch yoki toʻrt kun muqaddam bu surbet menga hisob-kitobni koʻtarib kelibdi. *(A. Dyuma.)* 13. Sobirov engashib, taxminan oʻn besh gramm keladigan yaxshi pishgan yirik bir qulupnaynn uzib oldi. *(N. Biryukov.)*

190- mashq. Oʻqing. Jamlovchi sonlarni aniqlab, gapdagi vazifasini, yasalishini tushuntiring.

1. Amu ichra beshovlon Rejalar tuzib keldik. *(Mirm.)* 2. Ishonchim komil: ikkovlaring darrov... apoq-chapoq boʻlib ketardilaring. *(K. Moiseeva.)* 3. Biri bizga uzoqroq qarindosh, ikkinchisi begona, hammahalla, Ikkalasi ham toʻquvchilik hunarining piri. *(N. S.)* 4. — Yuzta diviziya kelyaptimish. — Diviziyalarning yuzovi ham sening ustingga kelyaptimikin-a? *(I. R.)* 5. Ikkalang ham maorif shu'basining tasdigʻidan oʻtdinglar. *(N. S.)* 6. Bogʻda gurung qurib oʻtirgan har ikkala erkak ham bir farzandning otasi ekanligini muhtaram oʻquvchi sezgandir.*(H. Tojiboev.)* 7. Komissarning kreslosida bir emas goʻyo oʻn bir komissar oʻtirardi. Oʻn birovi ham bir gapni aytardi. *(I. R.)* 8. U oʻzining beshala sezgisiga zoʻr berib tinglardi. *(A. Dyuma.)* 9. Birov tosh, birov gul, oʻz joyida ikkovi ham yaxshi. *(A. Q.)*

191-mashq. Gaplarni oʻqing, taqsim sonlarni topib, yasalishini va dona sondan farqini tushuntiring.

1. Oʻqituvchilar tayyorlash kursida yiliga uch oy-uch oydan olti oy oʻqidim. *(N. S.)* 2. Yogʻochni bir qarich-bir qarich qilib arralay boshladilar. *(N. S)* 3. ...Goho bir yoʻla ikki, goho uch qoshiqdanga kelishib... ichishardik. *(N. S.)* 4. Har bir xumga oʻn paqirdan suv ketardi. *(N. S.)* 5. Otasi... har bir charm hamyonga yuztadan qilib joylashtirarkan... *(K. Moiseeva.)* 6. Tol novdasi bilan oʻnta-oʻnta bogʻlangan koʻchatlarni Feruzaga uzatib turdi. *(H. Gʻ.)*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Sonning ta'rifi va leksik-grammatik xususiyatlari ayting?
2. Butun son, kasr son, aralash son va ularning yozilishi.
3. Sonning ma'no turlarini ayting .
4. Hisob soʻzlari (numerativlar) haqida ma'lumot bering.
5. Sonlarning tuzilish jihatdan turlarini ayting.

MAVZU BO'YICHA TEST SAVOLLARI:

1. Son otlashganda, qanday sintaktik vazifada keladi?

A) undalma, ikkinchi darajali bo'lak *B) bosh bo'lak*
C) kirish so'z *D) A,B,C.*

2. Otlashgan son qaysi gapda mavjud?

A) Ikkalasi navqiron aktrisaga bamisoli sehrlanganday tikilishardi. B) Shuxatlardan ikkitasini sho'xroq yigit yozgan edi. C) Bu erda u sakkizinchi va to'qqizinchi sinflarda bir yo'la o'qishga ulgurdi. D) A, B.

3. Egalik affiksining qaysi shaxsdagi shakli otlashgan sonlarga qo'shilmaydi?

A) II shaxs ko'plik *B) I shaxs birlik*
C) III shaxs birlik *D) II shaxs birlik*

4. Sodda sonlar ishtirok etgan gapni aniqlang.

A) Majlisga besh-olti ota-ona keldi. B) Karima to'rt-besh yil sabr qildi. C) Yigirmanchida oxirgi imtihon bo'ldi. D) O'n beshinchi kuni hovlimizga ko'chgan edik.

5. Gap tarkibida qo'llangan juft sonlar asosan sonning ma'no jihatdan qaysi turiga mansub?

A) tartib sonlarga *B) jamlovchi sonlarga*
C) chama sonlarga *D) qo'shma sonlarga*

6. *Bir* so'zining chegaralov (ayiruv) ma'nosi qaysi qatorda berilgan?

A) Bir gektar erni bog'u bo'stonga aylantirdi. B) Choy mahalida bir kulib, bir yig'lamsiradi. C) U bir kuni ovga chiqdi. D) Hamma keldi, bir Hakimjon ko'rinmadi.

7. Dona son ishtirok etgan gap qaysi qatorda qo'llangan?

A) Bu sinfda yigirma beshta o'quvchi ta'lim oladi. B) Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi. C) Shahrimizda o'nlab teatrlar bor. D) Ikkovimiz ham pastga tushdik.

8. Taqsim son qaysi gapda mavjud?

A) Hozir uyida shunaqa antiqa bodringdan to'rttasi bor. *B) So'rining shundoq yoniga ikki dona olma tushibdi.* *C) Bemorlar palatalarga to'rttadan joylashtirildi. D) Ularning ikkovi ham jim qolishdi.*

9. Qaysi qatordagi tartib son *dastlabki, ilk* ma'nosida kelgan?

A) Sakkizinchi kuni Qobil bobo yana aminning oldiga bordi.
B) Endi ikkinchi tomonga nazar tashlaylik. C) Ikkinchi kattalarning so'ziga aralashma. D) Atirgullar, ko'rkam karnaygullar, xil-xil gulbeorlar kuzning birinchi izg'irinlarini pisand qilmaydi.

10. Tartib son yo'q qatorni toping.

A) Onasi tokchadagi ettinchi lampani yoqdi. B) Ukam beshinchi sinfda o'qiydi. C) Ettinchilar, shanbalikka chiqdilar.
D) Beshinchi, oldinga chiqing.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, SH.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O'zbek tili. 2004, O'AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006, "Universitet" nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to'plami Toshkent, 2009-yil

17-18-19 MAVZU: Olmosh - so‘z turkumi sifatida. Olmoshning egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan o‘zgarishi. Olmoshlarni morfologik tahlil.(4 soat)

1. Darsni tashkil qilish
-Salomlashish, davomatni aniqlash, talabalarni darsga tayyorgarligini tekshirish.
2 .O‘tilgan mavzu yuzasidan topshiriqlar berish:
- Olmoshning leksik va grammatik xususiyatlari haqida gapiring.
- Olmoshning ma’no turlarini sanab bering.
- Kishilik olmoshlarini ayting ular ishtirokida gaplar tuzing.
- O‘zlik olmoshlarini misollar bilan izohlang.
- Ko‘rsatish olmoshlarini ayting.
- So‘roq olmoshlari haqida gapiring.
- Belgilash olmoshlari va uning turlari haqida gapiring.
- Bo‘lishsizlik olmoshlari haqida gapiring.
- Gumon olmoshlarini ayting ular ishtirokida gaplar tuzing.
- Olmoshlarning tuzilish jihatidan turlarini haqida gapiring.
3. Mustaqil ish uchun olmosh mavzusi yuzasidan badiiy asarlardan yozib kelgan misollar o‘qitiladi

2-ilova

Mashqlar bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to‘liq va mukammal bo‘lishi o‘qituvchi va talabalar tomonidan qatьiy nazoratga olinadi.)

199-mashq. Gaplarni o‘qing, olmoshlarni aniqlang. Kishilik olmoshi ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring, olmoshning tagiga chizib, shaxs va sonini ayting.

Namuna: Onam uchun benihoya og‘ir bo‘lgan o‘sha kunlarda **men** qo‘limdan kelgancha unga yordam qilardim.

Men- I shaxs, birlik.

1. Onam uchun benihoya og‘ir bo‘lgan o‘sha kunlarda men qo‘limdan kelgancha unga yordam qilardim. *(N. S.)* 2. Hayhot, uning so‘nggi umidi ham chil-chil sindi. U shahzoda Abdullatifning katta qo‘shin bilan Jayhundan o‘tib, Keshga yaqinlashayotganini bilsa-da, bu mustahkam qal’a unga jang-jadalsiz taslim bo‘lishini kutmagan edi. U Amir Kamoliddinga ishonar, uning qal’a kalitini shahzodaga qarshiliksiz topshirishini sira kutmagan, chunki uni o‘zining eng sodiq amirlaridan biri deb o‘ylardi. *(O.Yo.)* 3. O‘zing-ku maktabxonada binoyiday ishlab yuruvding. *(H. N.)* 4. Nimadan cho‘chib, nimaning mulohazasiga boryapsizlar? *(N. S.)* 5. Ali Qushchi negadir bir sapchib tushdi. Mirzo Ulug‘bek uning tepasida hamon qo‘l qovushtirib turar, horg‘in ko‘zlari qisilgan edi. *(O. Yo.)* 6. Hech kimga, hech bir zotga qalbida nimalar kechayotganini bildirmasdi. *(CH. Ayt.)* 7. Biz keyingi vaqtlarda maktab uchun yaxshi g‘amxo‘rlik qilmayapmiz. Bu — bizning aybimiz. *(F. Niyoziy.)*

200-mashq. Gaplarni o‘qing. Kishilik olmoshlarining qaysi kelishik shaklida qo‘llanganini va gapdagi vazifasini ayting; o‘zakda ro‘y bergan o‘zgarishlarni izohlang.

Namuna: Men o‘z Vatanimni qattiq sevaman. Men- bosh kelishik, ega vazifasida qo‘llangan,

1. “Nazirqul endi faqat sizning o‘g‘lingiz emas, mening ham o‘g‘lim”, — dedi domla. *(N. S.)* 2. Mendan ham o‘zg‘ir, CHaqqonmi odam? Eslolmas buni Bo‘ronboy dadam. *(Q.*

H.) 3. Men oʻz Vatanimni qattiq sevaman. *(Yu. Semyonov.)* 4. Uning yuzlarida, dudoqlarida... bir tabassum yonadi. *(O.)* 5. CHakalakzor koʻchadan oʻtib olish mening uchun naqadar qoʻrqinchli ekanini bir bilsangiz edi! *(N. S.)* 6. Bilmadim, men sening oldingda gunohkormanmi yo sen mening oldimda gunohkorsanmi? *(S. Ahm.)* 7. Sizdan iltimos, odamlar bilan juda ehtiyot boʻlib muomala qiling. *(J. Abd.)*

201-mashq. Oʻqing. Koʻrsatish olmoshlarini topib, maʼnosidagi farqlarni tushuntiring va oʻzi bogʻlangan soʻz bilan birgalikda koʻchiring.

1. Oʻsha zarb, oʻsha kuch hamon barqaror! *(Mirm.)* 2. Bu ona-Er, bu Vatan bashariyat baxti deb, Avlodlar iqboli deb beqiyos yoʻl ochmoqda. *(Mirm.)* 3. Zotan, bu mavqe, bu obroʻ, bu boylik — hammasi Mirzo Ulugʻbek orqasida orttirilgan edi. *(O. Yo.)* 4. Oʻshanda, bundan yigirma besh yil muqaddam, ustod, mana shu pastqamlikda turib, Ali Qushchi bilan soʻng bor vidolashganida, bu elga qaytmoq, -bu yurt, bu maskanni koʻrmoq nasib boʻladimi, yoʻqmi, deb gʻam chekkan, bu oʻy, bu tashvishdan, koʻngli vayron edi. Mana endi uning oʻzi ham shu oʻy, shu gʻam bilan banddur. *(O. Yo.)* 5. Oyijon! Manavi qizili menga! *(Ya.)* 6. Hozir u shu oʻtirishida oʻylab oʻyiga yetolmadi. *(S. Ahm.)*

202-mashq. Oʻqing. Kelishik va egalik qoʻshimchalari bilan qoʻllangan koʻrsatish olmoshlarini topib, gapdagi vazifalarini ayting. Koʻchirib, koʻrsatish olmoshlaridagi egalik qoʻshimchasi tagiga toʻgʻri, kelishik qoʻshimchasi tagiga toʻlqinli chiziq chizing.

1. SHuni bilinglarki, posyolkani bor qiladigan ham, yoʻq qiladigan ham biz oʻzimiz. *(P. Q.)* 2. Agar biz bu ishlarni bilib-bilib qilsak, yaxshigina natijalarga erishishimiz turgan gap. *(N. Biryukov.)* 3. Buning endi haqiqatga yaqinroq. *(E. Xeminguey.)* 4. Qani endi rassom boʻlsam-u, oʻsha musaffo goʻzal tongni, koʻk bilan oʻpishgan azamat togʻlarni, shudring qoʻngan koʻm-koʻk bedazorni, ariq boʻyidagi bir tup kungaboqarni suratga solsam! *(CH. Ayt.)* 5. Tolqon... shunday mazali boʻlardiki, uning taʼmini faqat yeganlargina bilardi. *(N. S.)* 6. — Yarash. Tinchlik yaxshi gap, — dedi partizan, — ammo kim kim bilan yarashmoqchi, bularing shuni tushundimikan? *(N. S.)* 7. «...U huzurli mehnat. Koʻngil ana shunisini tusayapti», —dedi Onaxon. *(As. M.)*

203-mashq. Oʻqing. Soʻroq olmoshlarini aniqlab, predmet, belgi va miqdor haqida soʻroq bildirgan olmoshlarni uch ustun shaklida koʻchiring.

1. Rais. albatta, qoloq kishi emas, bekorchi ham emas, ammo biz qachon, qaerda va qaysi sharoitda yashayotganimizni unutmasligimiz kerak. *(I. R.)* 2. Ochiqroq ayting, sizga nima boʻldi? Nimalar deyapsiz? Tushunmayapman! *(S. Ahm.)* 3. «Asl haqiqatning nimada ekanligini uning oʻzi bilurmu?» — deb soʻradi kinoya bilan Mamun. *(K. Moiseeva.)* 4. Mehmon-izmonni qanday kutadi? *(H. Gʻ.)* 5. Qancha dunyomni sarf qildirib boʻz toʻqiydigan dov-dastgoh oldirdi. *(N. S.)* 6. Nizomjon oʻz boshiga tushadigan savdolarning xuddi shu daqiqadan boshlanishini qayoqdan bilsin. *(S. Ahm.)* 7. Men bunaqa voqealar toʻgʻrisida qancha-qancha kitoblar oʻqiganman. *(O. Yo.)*

204-mashq. Oʻqing. Soʻroq olmoshlarini topib, qanday oʻzgarganini va gapdagi vazifasini ayting. Soʻroq gap tuzishda vosita boʻlgan soʻroq olmoshlarini aniqlang.

1. Odam, nima yaxshi boʻlsa, shuni qilishi kerak. *(Oʻ. U.)* 2. Ammo men bir narsaga tushunolmay turibman: shunchalik gaplaring bor ekan, savollaring bor ekan, nega shu choqqacha indamay keldilaring? *(A. Q.)* 3. Siz mening kimim boʻlasiz, amaki? *(I. R.)* 4. Hilolangiz poliz brigadasiga borib, fermaga qancha poʻchoq beryapsiz, deb soʻroq qilibdi. *(I. R.)* 5. Axir mening nimam Nazokatga oʻxshaydi? *(S. An.)* 9. "Ulari ham mayliga, — deb gap qoʻshdi polizchi chol, — kimlar qancha bepul qulupnay yeganini yozib ber, pulini undirib olamiz, deyapti". *(I. R.)* 10. Bekning "mard" yigitlari qani? Quyondek qochib qolishdi-ku. *(S. Kalmikov.)*

205-mashq. Oʻqing. Belgilash olmoshlarini topib, qanday oʻzgarganini ayting, soʻngra jamlovchi, yakkaga ajratuvchi, jamlikning qismini bildiruvchi belgilash olmoshlarini uch ustunga ajratib yozing.

1. Axir, bugun shunday kunki, har kim oʻz doʻsti bilan birga boʻlgisi keladi! *(O. Yo.)* 2. Oʻrta yer dengizidagi juda koʻp turgʻun baliqlardan baʼzilarini boshqalariga nisbatan uzoqroq kuzatdim... *(J. Vern.)*3. U har narsadan zavqlanish, lazzat topish, erkalanishni istar edi. *(J. Abd.)* 4. Dengiz barcha boʻyoqlarni oʻzida singdirib, moviy rangdagina jilvalanar edi. *(J. Vern.)* 5. Qudratning birdan-bir maqsadi ularning hammasida haqiqiy fanga qiziqish uygʻotish edi. *(J. Abd.)* 6. Har biri itdek-itdek keladigan bahaybat chumolilarni koʻrdim. ...Har ajdar ilonlar borki, fildek keladi, va fil kuchi bilan hamla qiladi... *(K. Moiseeva.)* 7. Har bir odam uchun javobgarsiz. Masʼuliyatning bu tomonlarini ham sezing-da. *(J. Abd.)* 8. Agronom soʻzini eshitib, baʼzi qizlar hazilni toʻxtatishgan boʻlsa ham, boshqa shaddodroqlari pisand qi-lishmasdi. *(H. Gʻ.)* 9. Uning chaqmoqdek chaqnab, qurilishga birdaniga jon kiritib yuborgani, hammani qattiq harakatga solib qoʻygani durust. *(J. Abd.)*

206-mashq. Oʻqing. Oʻzlik olmoshini aniqlab, qanday turlanganini va gapdagi vazifasini tushuntiring. Ikkita gapni koʻchirib, oʻzlik olmoshiga qoʻshilgan egalik qoʻshimchasi tagiga toʻgʻri, kelishik qoʻshimchasi tagiga toʻlqinli chiziq chizing. Matnda uchragan boshqa olmoshlarning turini ayting.

1. Ular oʻz qoʻllari bilan nimalar yaratib, nimalar ishlab chiqarishga qodir ekanliklarini bilib olishlari kerak! *(J. Abd.)* 2. Nazarimda, u oʻqishimga xalaqit bermaslik uchun, mendan ham, oʻz huzur-halovatidan ham voz kechdi, shekilli. *(CH. Ayt.)* 3. Men oʻz-oʻzimga deyman: Nahotki, oz muddatda shunchalik oʻzgaribman. *(Mirm.)* 4. Oʻzing bilasan, oʻt ichidan qaytding, Gitlerni yakson qilish hazilakam ish boʻldimi? *(O.)* 5. Xudoyqulov boshliqlarga oʻzini ishchan, uddaburon qilib koʻrsatishni bilardi. *(J. Abd.)* 6. Soʻfitoʻrgʻay boʻlsa gʻazalni oʻzi toʻqib, oʻzi bastalab, oʻzi kuyga solgan, maqomi shu qadar sershavq, jozibadorki, qulogʻimga Nosir akamning sehrgar dutorining ovozi eshitilgandek boʻladi. *(N. S.)* 7. Faqat oʻzigagina tushunarli boʻlgan doiracha va kvadratlar chiza boshladi... *(Yu. Semyonov.)*

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Olmoshlarning umumiy grammatik maʼnosini izohlang?
2. Olmoshlarning maʼno turlari haqida gapiring?

MAVZU BOʼYICHA TEST SAVOLLARI:

1 Kishilik olmoshlariga odatda ºaysi ºoʻshimchalar ºoʻshilib kelmaydi?

A) *soʻz yasovchi ºoʻshimcha* V) *-lar ºoʻshimchasi* S) *egalik ºoʻshimchasi* D) *kelishik ºoʻshimchasi Ye*) *sanalganlarning barchasi ºoʻshilishi mumkin*

2 Olmoshlardan ºaysi so‘z turkumlarini yasash mumkin?

A) *fe’l* V) *ravish* S) *son*
D) A va V Ye) A, V va S
3 *ºaysi so‘z turkumining o‘ziga xos sintaktik vazifasi yo‘ºq?*
A) ot, ravish V) fe’l S) son
D) olmosh Ye) ravish.
4 Olmoshlarning ºaysi turi turlanganda tovush orttirilishi yoki tushishini kuzatish mumkin?
A) *o‘zlik olmoshida* V) *kishilik olmoshida* S) *ko‘rsatish olmoshida*
D) *belgilash olmoshida Ye*) *olmoshlar-ning barchasida.*
5 Olmoshlar ºaysi so‘zlar o‘rnida ºo‘llanganda, so‘z o‘zgartuvchi ºo‘shimchalarni ºabul ºiladi?
A) *ot* V) *sifat* S) *ravish* D) *ot va fe’l Ye*) *ot, sifat, ravish*
6 *Uning (Xaliljonning) nechun shu ³olga tushib ºolganligiga ³amma ³ayron, o‘zi esa ºo‘l siltaydi.* Ushbu gapda olmoshning ma’no va grammatik xususiyatlariga ko‘ra ºaysi turlari bor?
A) *belgilash, o‘zlik, kishilik, ko‘rsatish olmoshi* V) *ko‘rsatish, kishilik, so‘roº, belgilash olmoshi* S) *so‘roº, ko‘rsatish, belgilash, o‘zlik, kishilik olmoshi* D) *belgilash, ko‘rsatish, o‘zlik olmoshi, kishilik olmoshi Ye*) *belgilash olmoshi, ko‘rsatish, kishilik, so‘roº, gumon olmoshi*
7 ªaysi olmoshlar tuzilish ji³atidan sodda va ºo‘shma turlarga bo‘linadi?
A) kishilik, bo‘lishsizlik va ko‘rsatish olmoshlari V) kishilik, belgilash, ko‘rsatish va gumon olmoshlari S) so‘roº, belgilash, ko‘rsatish, o‘zlik olmoshlari
D) ko‘rsatish va belgilash olmoshlari
E) olmoshlarning barchasi.
8 ªaysi olmoshlar takroriy ³olda ³am ishlatilishi mumkin?

A) *ko‘rsatish, so‘roº, belgilash olmoshlari* V) *kishilik, so‘roº va belgilash olmoshlari* S) *so‘roº belgilash, ko‘rsatish, o‘zlik olmoshlari* D) *kishilik va ko‘rsatish olmoshlari Ye*) *olmoshlar-ning barcha turlari.*
9 *Uning ºucho¼ida ¼amdan yo‘ºq nishon,*
U yerda tentimas iblis xayoli.
U yerda do‘stlikni ulu¼lab inson,
Takallum ºiladi ºumri misoli.
Misralar muallifi kim? 1-misradagi olmosh ºaysi gap bo‘lagi vazifasida?
A) U. Nosir; ³ol V) E. Vo³idov; ega
S) A. Oripov; aniºlovchi
D) R. Parfi; aniºlovchi
E) U. Nosir; to‘ldiruvchi.
10 **U** *ko‘rsatish olmoshi ºo‘llangan gapni belgilang.*
A) U ko‘pchilikning fikrini allaºachon sezgan edi.V) Muattar uning shodlikdan uchºun sochib turgan ko‘zlariga ºaradi.S) U uchun atagan ºo‘shiºlarim bor. D) U kishi siz ³aºingizda juda yaxshi fikrlar aytdilar. Ye) barcha gaplarda ***u*** *kishilik olmoshi ºo‘llangan.*

Mashg‘ulotni yakunlash.O‘qituvchi mashg‘ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma’lum qiladi, ularni rag‘batlantiradi va to‘plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg‘ulotda qilinadigan ishlar

(vazifalar)xususida o‘z mulohazalarini bayon qiladi.
Foydalanilgan adabiyotlar

Adabiyotlar:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.

20-21-22-MAVZU: Fe’l - so‘z turkumi sifatida. Fe’l nisbat (daraja)lari. Fe’l mayllari.(2 soat)

1-ilova

Mualliflar R. Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyevlarning “Ona tilidan” mashqlar to‘plami kitobidan quyidagi mashqlar bajariladi

223-mashq. O‘qing, o‘timli va o‘timsiz fe’llarni topib, ma’nolaridagi farqni tushuntiring. Avval o‘timli, keyin o‘timsiz fe’llar ishtirok etgan gaplarni ko‘chiring.

SHu o‘rinda olis zamonlarda o‘tgan ajdodimiz SHiroqning Vatan yo‘lidagi buyuk fidokorligi yodimga tushadi. Biz bu odamning oddiy cho‘pon bo‘lganini bilamiz, xolos. Uning o‘zi qanaqa odam bo‘lgan, yoshmi, keksami, bola-chaqalari bo‘lganmi-yo‘qmi ekanidan butunlay bexabarmiz. Lekin shuni aniq aytish mumkinki, u biror maktabda o‘qib, xat-savod chiqarmagan bo‘lsa kerak. Yana shunisi aniqki, u televizor ko‘rmagan, radio eshitmagan, gazeta o‘qimagan. Binobarin, Vatanni sevish, unga jon fido qilish kerakligi haqidagi xitoblar-u siyqasi chiqqan balandparvoz chaqiriqlarni eshitmagan. Lekin yurtiga bostirib kelgan yovni sahroga olib borib adashtirib kelishga qaror qilganida, sahrodan o‘zining ham sog‘ qaytib kelmasligini yaxshi bilgan. Demak, ona-Vatanini yovdan saqlab qolish uchun ongli ravishda jonini qurbon qilishga otlangan. *(O. SHarafiddinov)*

224-mashq. O‘qing. O‘timli va o‘timsiz fe’llarni aniqlab, o‘timli-o‘timsizlik qanday usul bilan ifodalanganini tushuntiring.

Hayajondan Yo‘lchining yuragi, sandonga tushgan og‘ir bolg‘aday, ko‘krakni "gurs-gurs" urmoqda edi. ...Alamli va yarali ko‘ngillardan ro‘yi-rost otilib, havoni yangratgan haqiqat ovozi uning butun vujudini titratdi, mazlumlarning, haqoratlanganlarning, tepkilanganlarning ulug‘, azamat kuni tug‘ilganiga shubha qolmadi. Qanday kun? Zolimlarning, zamon zo‘ravonlarining yoqalarini tutib, toptalgan huquqlarini dovlash, qonxo‘r oq podshohning qora dovrug‘ini, uning mazlum xalqlar boshida jilpanglagan ilon qamchinini sindirish kuni! Yo‘lchi ko‘pdan kutgan va sevgisi qadar chuqur, ma’noli bir kun! U ko‘p yillardan buyon bu kunga intizor emasmidi? Ko‘p yillardan buyon bu kunning dardi va sevgisi bilan yashamasmidi? Ayniqsa, keyingi vaqtlarda bu ulug‘ kunning ruhini o‘z yuragi bilan chuqur sezib, har yerda: mahallada, choyxonada, bozorda o‘zi kabi ezilganlar, alamdiydalarning ko‘kragini bu ruhning otashi bilan yondirishga intilmaganmidi? *(O.)*

225-mashq. O‘qing, o‘timli va o‘timsiz fe’llarni aniqlang. Ko‘chirib, o‘timli fe’lni o‘timsizga aylantirgan affiks tagiga to‘g‘ri chiziq, o‘timsiz fe’lni o‘timliga aylantirgan affiks tagiga esa to‘lqinli chiziq chizing.

I. Tala, talandi, kul, boshla, qotirma, o‘tlat, yugur, qutqaz,tushovla, gapir, keltir, egil, qoldir, bo‘shat, bitir, ko‘rin, o‘tkaz, ko‘taril, to‘lat, ko‘rsat, yubortir, ilintir, uxlat, chiq, suyan, so‘ra, maqtandi, eshit, eshitildi, to‘g‘rila, to‘g‘rilandi, qizar, qizartir.

II. 1. Kech kirib qelardi: Kun bo‘yi yiqqan haroratini endi ufurayotganday, hamon yerdan issiq ko‘tarilmoqda. *(L.Batь.) 2.* Axir... ko‘chatzordagi har bir tup daraxtni ko‘kartirish uchun qanchadan-qancha mehnat sarf bo‘lgan. *(S. An.)* 3. Bunday uchrashuvda bo‘ladigan hamma gap bo‘lib o‘tdi: quchoqlashdik, kulishdik; har kim o‘z institutidan gapirdi; maktabni, o‘rtoqlarni esladik, qizlardan gapirdik. *(As. M.)* 4. Quyuq barglar orasida hech narsa ko‘rinmaydi. *(S. An.)*

226-mashq. O‘qing. Fe’llarga ketma-ket qo‘shilgan o‘timlilashtiruvchi va o‘timsizlashtiruvchi affikslarni toping. Bu fe’llarning o‘timli yoki o‘timsiz ekanligini ayting.

1. Eshikni ochgan xizmatkor ogohlantirilgan bo‘lsa kerak, «marhamat mьe» deganicha boshlab ketdi. *(SH.)* 2. Sulton Navoiyni o‘z huzuriga chaqirtirdi. *(L. Batь.)* 3. Ularni uyg‘onmasidan qo‘lga olib, qurolsizlantirish zarur. *(L. Batь.)* 4. Xitoydan keltirilgan pakana-pakana daraxtlarning egri-bugri shoxlariga rang-barang hind qushchalari qo‘nib o‘tiribdi. Hovlining zangori va havo rang koshin yotqizilgan yo‘lkalarida chiroyli tovuslar yurishadi. *(L. Batь.)* 5. Mehmonlar Eron gilamlari to‘shalgan qirq ustunli qasrda to‘planishmoqda edi. *(L. Batь.)* 6. Xalqni yo‘ldan ozdirishda shubhalanilgan kishilar qo‘llari orqalariga mahkam bog‘langan holda keltirilardi. *(L. Batь.)* 7. Uning: «Serhosil dalalar va bog‘-rog‘larga aylantirilmagan bir qarich ham sho‘rxok yer qolmasligi kerak», — deb aytganidan beri oradan bir necha yil o‘tgandi. *(L. Batь.)* 8. CHo‘l-biyobondagi jamiki bo‘sh yotgan yerlarga jon kirgizildi. *(L. Batь.)*

227-mashq. O‘qing. Fe’llarni topib, ularning nisbatini, o‘timli-o‘timsizligini ayting.

1. Biz juda ko‘p ish qildik. Yaqinginada esa juda ajoyib tajriba o‘tkazdik, ya’ni otash ta’sirida ba’zi toshlarning tusini o‘zgartirmoqchi bo‘ldik. Bir parcha yoqutni ko‘rada obdan qizdirdik. Keyin soviganiga qadar qo‘l tegizmadik. Qizdirilgan yoqutning hajmi otash ta’siridan bir oz kichraygan bo‘lsa-da, rangi tiniqlashdi. *(K. Moiseeva.)*

2. Bir dovonga chiqqanda ular tomiri bilan ag‘darilib yo‘lda ko‘ndalang yotgan baqaterakka o‘tirib dam olishdi. O‘ngda bir xil kiyingan, bo‘y-basti ham bir xildagi behisob ko‘k archalar uzun-uzun saf tortib, qiyalikka chiqib ketayotgan askarlardek ko‘rinardi. Yengil shabnam hali yerda, o‘t-o‘lanlar, gullar orasida yotadi, tiniq osmon tagida butun vodiy ko‘z oldingizda kaftdek yastangan, qaerdadir chashma ko‘zi miltilslaydi, havo sofligidan archa hidi, asal hidi anqiydi. *(As. M.)*

228-mashq. O‘qing, bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llarni aniqlab, ma’nosidagi farqni tushuntiring. Ularni ikki ustun shaklida yozib, bo‘lishsizlik ma’nolarini ifodalovchi vositalar tagiga chizing.

1. Miyasi g‘ovlab ketgan Mirzo Ulug‘bek boshini ko‘tarib yon-veriga qaraydi. Oftob ko‘rinmas, osmonni qora bulut qoplab olgan edi. Dalalar va adirlarda, o‘rib olingan bo‘g‘doyzorlarda, hatto olis-yaqindagi bog‘larda biron-bir odam qorasi ko‘zga chalinmas hatto qirlarda mollar ham ko‘rinmas edi. Go‘e Mirzo Ulug‘bek lashkari emas, talanchi

qo‘shin bostirib kelayotganday, tirik jon borki, bari qochib in-iniga kirib ketgan. Ha, fuqaro bobosi Amir Temur davridayoq jang-jadaldan bezgan, yuragi zirqirab qolgan.

Mirzo Ulug‘bek og‘ir xo‘rsinib oldinga, ko‘kimtir tuman orasida elas-elas ko‘zga chalingan tog‘larga tikildi. Ilgarilab ketgan qo‘shin ko‘rinmas, faqat oldindagi yassi qir va adirlarda ot o‘ynatib yurgan suvorilar guruhi ko‘zga chalinar edi, xolos. *(O. Yoqubov.)*

II. 1. Navoiy Binoiyning iste’dodini mehr bilan parvarish qildi, har bir ishda do‘stona ko‘magini ayamadi. *(L. Batь.)* 2. SHunday hayot tug‘ildiki, u sensiz yashay olmaydi, sen uning qudratli kuchisan. *(As. M.)* 3. SHunday paytlarda u na chala olardi, va na ashula ayta olardi. *(J. Ikromiy.)*

229-mashq. O‘qing, bo‘lishsiz fe’llarni topib, bo‘lishsizlik ma’nosi qanday ifodalanganini ayting, ularni bo‘lishli shaklga aylantiring.

1. Hechqisi yo‘q, azizim, men dunyoda juda katta boylikka — sof vijdonga va xushomadgo‘ylik qilmay ilmu fan bilan shug‘ullanish imkoniga egamen. Buni mendan hech kim tortib ololmaydi. Bilimlarimni boshqalar bilan o‘rtoqlashmoqni ham hech kimsa taqiqlay olmaydi. *(L. Batь.)* 2. Ahillik bor yerda temir ham suvga cho‘kmaydi. *(SH.)* 3. CHin do‘stlikning alangasi so‘nmasin der ekanmiz, Birinchi shart — bo‘lmog‘imiz lozim do‘st-la birga biz, Ikkinchi shart — do‘st yo‘lida ayamaslik simu zar, Uchinchi shart — do‘st-la bo‘lmoq og‘ir kunda barobar. *(SH. Rustaveli.)* 4. Ilm-hikmat bilan ko‘tariladigan shosupaga qurol bilan chiqib bo‘lmaydi. *(K. Hamro.)* 5. Munisxon va’da bergan vaqtida kelmay qolmaydi. *(A. Q.)* 6. Na cho‘zilar, na yonboshlar — bo‘sh turardi to‘shak-joy. *(SH. Rustaveli.)*

5.Mashg‘ulotni yakunlash. O‘qituvchi mashg‘ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma’lum qiladi, ularni rag‘batlantiradi va to‘plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg‘ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida o‘z mulohazalarini bayon qiladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Fe’llarning leksik va grammatik xususiyatlari haqida gapiring.
2. Fe’lning ma’no turlarini sanab bering.
3. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llarni ayting ular ishtirokida gaplar tuzing.
4. O‘timli va o‘timsiz fe’llarni misollar bilan izohlang.

MAVZU BO’YICHA TEST TOPSHIRIQLARI:

1. Mayl kategoriyasi qanday munosabatni ifodalaydi?
A) harakat bilan ob'yekt o’rtasidagi aloqaning voqelikka munosabatini
B) harakatning nutq momentiga munosabatini
C) harakat bilan sub'yekt orasidagi aloqani
D) A va V
2. Fe'l qanday grammatik kategoriyalarga ega?
A) daraja, mayl, zamon, tuslanish
B) daraja, bo’lishli-bo’lishsizlik, mayl, zamon, shaxs-son
C) daraja, mayl, zamon, shaxs-son
D) daraja, mayl, ko’rinish
3. Fe’l nega tuslanadi?

A) kesim bo‘lgani uchun
B) fe’l bo‘lgani uchun
S) harakat bildirgani uchun
D) hokim bo‘lak bo‘lgani uchun
4. Fe’lning grammatik ma’no turi:
A) harakat, holat
B) o‘timli, o‘timsiz
S) faoliyat, tafakkur
D) lug’aviy va aloqa munosabat shakli

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil

23-24-MAVZU:Fe’l zamonlari. Fe’lning tuslanishi, tuslovchi affikslarning turlari yuzasidan tahlil qoliplari.(2 soat)

1-ilova

3.Mashqlar bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to‘liq va mukammal bo‘lishi o‘qituvchi va talabalar tomonidan qatьiy nazoratga olinadi.)

247-mashq. O‘qing. Fe’l zamonlarini aniqlang. Yaqin va uzoq o‘tgan zamon fe’li ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, zamon ma’nosinn ifodalovchi affiks tagiga to‘g‘ri, tuslovchi (shaxs-son) affiks tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

I. Har faslning o‘z quvonchi bor. Qish ham kattadan-kichik hammaga bir olam shodlik baxsh etadi. Ikki kundan buyon muzdekkina qish farishtasi shahar ustida kezib, elagini silkitar, quloq-burni qizargan odamlar “Yangi yilbop qor bo‘lyapti-da”, deb kulishar, havoda musaffo chilla isi kezar edi. Kinoteatrlar, madaniyat saroylarida ta’tilga chiqqan bolalarning kulgisi yangraydi. Katta maydonlarda archalar bezatildi.

Yilning so‘nggi oqshomida Toshkent yashnab ketdi. Katta binolar peshtoqida son-sanoqsiz lampochkalar marjoni porladi, archalar nurga belandi. Oziq-ovqat magazinlari tirband bo‘lib ketdi. Sumka, to‘rxalta ko‘targan odamlar uy-uyiga shoshishar, tanish-bilishlarini ko‘rib, bayram bilan qutlashar edi. *(O‘. Hoshimov)*

II. 1. U sultonning o‘ng qo‘li ekanligini ta’kidlamaslik uchun jo‘rttaga boshqalardan keyinroq kelgan edi. Har vaqtdagidek u o‘zini kamtar va xushmuomala tutdi. *(L. Batь.)* 2. Onaning dili o‘g‘lining yuziga tepib chiqqan alamli norozilikni darrov sezgan edi. *(S. An.)* 3. Tug‘ilib o‘sgan shahrini u allaqachon tark etgandi. *(L. Batь.)* 4. Odamlarning ko‘ziga tushmaslik uchun kun bo‘yi yong‘oqzorda dam olishib, namozgarda yana yo‘lga tushishgan. *(O. Yo.)*

248- mashq. O‘qing. O‘tgan zamon fe’li shakllarini aniqlang; o‘tgan zamon hikoya, o‘tgan zamon davom, o‘tgan zamon maqsad fe’llarini guruhga ajratib yozing.

1. Lashkar qirg‘oqqa joylashdi. *(L. Batь.)* 2. Iskandar hind podshohini o‘ziga bo‘ysundirmoqchi, o‘z dini va hukmronligini unga qabul ettirmoqchi bo‘ldi. *(“Kalila va Dimna”dan)* Zo‘r bir mardlik qilibsan, Lekin bekor kelibsan. *(H. O.)* Seni deya qavmu qarindosh Ixtiyorim olgan ekanlar Va kishanga solgan ekanlar. *(H. O.)* 5. Vaholanki, siz, xotin kishining topgani nima bo‘lardi, xotini boqayotir, degan isnodga tobim bor ekanmi, deb firoq qilib yurgan emishsiz. *(A. Muhiddin.)* 6. O‘z rolingni tushunibsan g‘oyat haqqoniy. *(H. G‘.)* 7. Botirjonni otasi podshoning eng usta qilichbozlaridan biriga shogird qilib beribdi. U ustozidan qilichbozlikni, yoyandozlikni va nayzabozlikni ham, kurash tushishni ham o‘rganibdi. *(«Gulpari».)* 8. Yaqindagina dam olib olgan navkarlar safar daragini eshitib quvonar edilar. Navkarlar sovutlarini yarqiratib tozalashar, naqsh solib egarlarini tartibga solishardi. *(L. Batь.)*

249-mashq. O‘qing. O‘tgan zamon fe’llarini aniqlab, turini, yasalishi va tuslanishini tushuntiring, so‘ngra quyidagi jadvalga joylab, zamon ma’nosini ifodalovchi affiks tagiga to‘g‘ri, shaxs-son affiksi tagiga to‘lqinli chiziq chizing.

Yaqin o‘tgan zamon fe’li	Uzoq o‘tgan zamon fe’li	O‘tgan zamon davom fe’li	O‘tgan zamon maqsad fe’li	O‘tgan zamon hikoya fe’li

1. Kun botgan, lekin qorli cho‘qqilarni chulg‘ab olgan ulkan alanga so‘nmagan, butkul borliq: osmono‘par tog‘lar, ko‘m-ko‘k archazor qirlar, yam-yashil yaylovlar, sharqirab oqqan soy — hamma-hammasi go‘yo bu ulkan alanganing shu’lasiga chulg‘angan-u, bo‘lakcha bir tiniqlik kasb etgan, tog‘u toshlargina emas, hatto maysalarga ham oltindan jilo berilganday mayin tovlanar, shabadada yastangan o‘tloqlar dam ko‘k-sarg‘ish ipakday eshilar, dam qizg‘ish rangga kirib, yal-yal yonardi... Qaerdadir ko‘kda, ko‘z ilg‘amas balandlikda, so‘fito‘rg‘aylar vijir-vijir qiladi, tog‘u toshlar panasida kakliklar sayraydi. *(O. Yoqubov.)*

II. 1. Hammalari xayrlashib o‘z mamlakatlariga jo‘nabdilar. Abulqosim singlisini yurtiga olib borib, ota-onasining qo‘liga topshiribdi. So‘ng o‘z yurtiga jo‘nabdi. O‘z ona yurtiga yetib kelibdi. Olti oydan beri otasi mamlakatga to‘y berayotgan, shu kun to‘yning oxirgi kuni ekan. Abulqosim uyiga kelsa, akalari taxtda o‘tirganmish. *(«Gulpari».)* 2. Bosh ko‘tardik, zulmdan Bo‘lmoqchi edik ozod. *(H. O.)*

III. Hademay Husaynning navkarlari bu notanish yigit bilan qarorgohga yaqinlashib keldilar; hashamdor chodirga kira berishda Muzaffarbek o‘z navkarlarini toqatsizlik bilan kutmoqda edi. U qo‘lini ko‘zlariga soyabon qilib uzoqlarga tikilar, chap qo‘li kattakon qilichning sopini mahkam qisib turardi. Vaqt o‘tib borar, Sulton Husayn esa kutishni xush ko‘rmasdi. *(L. Batь.)*

250-mashq. O‘qing, hozirgi zamon fe’llarini topib, turini anihlang. «Hozirgi zamon davom fe’li» va «Hozirgi-kelasi zamon fe’llari»ni ikki ustun shaklida yozib, yasalishi va tuslanishini tushuntiring.

Tekislikka yoqqan yomg‘ir tog‘ tepasiga qor bo‘lib tushgan ekan... Tog‘ning yarmidan pasti yomg‘irdan keyin qorayib, xiyol bug‘lanib turadi va uncha aniq ko‘rinmaydi.

Tekislikning uzoq chetidan chiqib kelgan yuk mashinasi shu toqqa qarab jadallab boryapti.

SHag‘al yotqizilgan yo‘lda yomg‘ir ko‘lmaklari uchraydi. G‘ildiraklardan sachragan suv bort taxtasiga shatirshutur uriladi va yo‘l bo‘yida ochilgan lolaqizg‘aldoqlarni jimgina silkitib o‘tadi. (P.Qodirov)

251-mashq. O‘qing, kelasi zamon fe’llarini topib, turini aniqlang va «Kelasi zamon gumon fe’li», «Kelasi zamon maqsad fe’llari»ni ikki ustun shaklida yozib, shaxs-son affikslari tagiga chizing.

1. Men Hirotga Sulton Husayn Boyqaro hazrat oliylarining amri bilan to‘ppa-to‘g‘ri jang maydonidan keldim. Ulug‘ sulton o‘z fuqarolarini baxtiyor va badavlat qilmoqchilar, adolat yo‘li bilan mamlakatni gullatib-yashnatmoqchilar; yordamga muhtoj bo‘lgan har bir kimsaga ko‘maklashmoqchilar. (L. Batь.) 2. Meni kutgil va men qaytarman O‘limlarni qoldirib dog‘da. 3. Faqat agar unasang, Yana bir shart qo‘yardim. (H. O.) 4. Kim biladi, balki Mirhaydar otamni ham oyog‘idan chalar bir kun...(O.) 5. Men sizni bir marta himoya qilarman, ikki marta himoya qilarman, oxir-oqibatda himoya qilolmay qolishim mumkin. (S.Ahm.) 6. Azizjon hech qanday ilmiy asosga suyanmagan holda paxtachilikka yovvoyi pushtni kiritmoqchi. (O‘.Usm.)

3-ilova .Mustaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to‘g‘riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o‘rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Fe’l zamonlari deb nimaga aytiladi.
2. O‘tgan zamon fe’llarini tushuntiring gaplar tuzing.
3. Yaqin o‘tgan zamon fe’li ishtirokida gaplar tuzing
4. Uzoq o‘tgan zamon fe’li ishtirokida gaplar tuzing
5. O‘tgan zamon davom fe’li haqida gapiring.
6. O‘tgan zamon maqsad fe’li ishtirokida gaplar tuzing

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1 **–ma** *bo‘lishsizlik shakli qo‘shimchasi ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalariga qanday qo‘shiladi?*

A) ko‘makchi fe’l tarkibida bo‘ladi

V) yetakchi fe’l tarkibida bo‘ladi

S) ba’zan yetakchi fe’lga, ba’zan ko‘makchi fe’lga qo‘shiladi D) ham yetakchi, ham ko‘makchi fe’lga qo‘shiladi Ye) barchasi to‘g‘ri.

2 Sifatdoshning takroriy shakli qaysi qatorda berilgan?

A) O‘ktam yura-yura keng maydonga chiqdi. V) SHuncha urinib unutolmaganim endi birdaniga o‘zidan-o‘zi ko‘ngildan chiqdi-ketdi.S) “hozirgi yoshlar qariyalarni kuydirgani-kuydirgan”, deb oh chekdi. D) Temirchi degan kuyib-kuyib temirchi bo‘ladida. Ye) Maqtanganning uyini ko‘r, kerilganning to‘yini ko‘r.

3 Tuslanmaydigan ravishdoshlar qaysi qatorda berilgan?

A) barcha ravishdoshlar tuslanadi. V) o‘qib, yozib S) o‘qiy, yoza D) o‘qigani, yozgani Ye) ravishdosh fe’lning tuslanmaydigan shakli hisoblanadi.

4 Gap bilan ovora bo‘lib, kechikib ham qolibman. *Ushbu gapdagi* **qolibman** *so‘zi qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?*

A) *mustaqil fe'l* V) *qo'shma fe'lning tarkibiy qismi* S) *bog'lama* D) *qo'shma so'z hosil qiluvchi qism* Ye) *ko'makchi fe'l.*

5 Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalarida quyidagi qo'shimchalardan qaysi biri ba'zan yetakchi, ba'zan ko'makchi fe'lga qo'shilishi mumkin? 1. SHaxs-son qo'shimchalari 2. Zamon ko'rsatkichlari 3. Ko'plik qo'shimchasi 4. Nisbat ko'rsatkichi.

A) *1,2* V) *3,4* S) *3* D) *4* Ye) *1,2,3,4*

6 Quyidagi qo'shimchalardan qaysi biri sifatdoshning bo'lishsizlik shaklini hosil qiladi?

A) *-maslik* V) *-mayin* S) *-mas* D) *-may, -masdan Ye*) *sifatdoshning bo'lishsiz shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha berilmagan*

7 Qaysi gap tarkibida ***o'tirmoq*** fe'li yetakchi (mustaqil) fe'l hisoblanadi?

A) *Hafiza iymanibgina mehmonlar uchun tayyorlangan so'riga chiqib o'tirdi.*

V) *Yigit bosh ko'tarmay ishlab o'tiribdi.* S) *Aqlli bo'lsang, shunaqa gaplarni gapirib o'tirarmiding?*

D) *Men sodda uning gapiga ishonib o'tiribman. Ye*) *barchasida o'tirmoq so'zi yetakchi fe'l vazifasida qo'llangan.*

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 2005, "Talqin" nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova, SH.Yo'ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O'zbek tili. 2004, O'AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006, "Universitet" nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to'plami Toshkent, 2009-yil

25-26-27- MAVZU:Fe'lning sof fe'l, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi shakllarini aniqlash. Fe'lning yasalishi, uning tuzilish jihatdan turlari, qo'shma va juft fe'llarning imlosi ustida tahlil. Fe'l yuzasidan umumiy morfologik tahlil. (4 soat)

1-ilova

3.Mashqlar bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to'liq va mukammal bo'lishi o'qituvchi va talabalar tomonidan qatьiy nazoratga olinadi.)

252-mashq. O'qing, buyruq-istak mayli shaklida qo'llangan fe'llarni topib, shaxs-sonini izohlang.

1. Ulug' ishingizni aslo tashlamang! Siz yaratgan «Xamsa» san'at olamida chinakam mo''jiza bo'ldi. SHu bilan qanoatlanib qolmang. O'z ona tilingizda bitgan g'azallaringizni bir necha devonga to'plagansiz; shularni bir-biridan ajrating va har qaysisini o'ziga munosib nom bilan bezang. *(L. Batь.)* 2. Sizlarning shu yerda yuqori hosil olishingiz — to'qayni o'zlashtirish bilan barobar, iltimosim shuki, yerga ehtiyot bo'linglar. Oltin yerimizni ko'z qorachig'iday saqlanglar. Agrotexnikani mahkam ushlanglar. *(H. G'.)* 3. Qizim, baxtli ekansanki, ...paxtakorlik yo'liga kiribsan. Bu yo'ldan zinhor-zinhor toyma, yildan-yilga naxtani ko'paytiraver. Bizning mashinalarimiz tolasi uzun-uzun, birinchi sort paxtani yaxshi ko'radi. Buniyam unutma. *(O.)* 4. Kel ipakday

sochlaringga men Nurdan lenta yasab taqayin. *(Mirm.)* 5. Mingdan ortiq xaridor... Biri deydi: «Yuz jiyron — Sovg‘a qilay, ol, jiyan!» Boshqasi der: «Ming bosh qo‘y — Beray qilgin katta to‘y!» Yana biri der: «Do‘stim, Ol qirqta suvsar po‘stin. Faqat oting ber menga!» Ovchi unga der: «Nega?» *(Q. H.)*

253-mashq. O‘qing. Shart mayli shaklidagi fe’llarni topib, yasalishi va tuslanishi, zamon ifodalash xususiyatini tushuntiring.

1. Xayol bilan bo‘lib ko‘chaga chiqayotsam, eshik oldida sariq fufayka kiygan, kulcha yuzli notanish bir qiz ro‘para bo‘ldi. *(O. Husanov.)* 2. Sen hayqirsang ko‘pirib, g‘uncha tabassum etar, Bulbul qo‘shig‘i bilan bo‘ston jaranglab ketar. *(S. Nazar.)* 3. Kimga kulib boqsa quyoshli davron, Saodat o‘lkasi bo‘lsa diyori, Bo‘lmas yuragida zarracha armon, Yashnar menikiday ko‘ngil bahori. *(S. Nazar.)* 5. Kiyintirsam seni bahorga, Yulduzlarni o‘rasam qorga, Olib kelib oldingga qo‘ysam, Ham yulduzni, ham seni suysam... SHunda sening ko‘ngling to‘lurmu? *(H. O.)*

10-mashq. Xabar va buyruq-istak maylidagi fe’llarni aniqlab, ma’nolarini izohlab yozing.

1. Boyga aytaman, nasihat qilsin, yo‘lga solsin...(O.) 2. Tolibjon gapning ma’nosini darrov tushundi. (S.Ahm.) 3. – E, ko‘zingni och, bola, kim nima desa ishonaverasanmi! (S.Ahm.) 4. Buyur,

nima hunar ko‘rsatay? (G‘.G‘.) 5. – Bo‘lmasa, qo‘rqit, cho‘chit, bu hunarni qilmasin. (G‘.G‘.) 6. – Qaytinglar! – deb baqirdi Zelixon, so‘ng Selimga o‘girildi. – Kimligimni bilasan, a? (T.Malik) 7.

Kelsa, unga ayt, albatta menga uchrasin. (O.) 8. Qosimovaga ayting, shu bugunoq ishga kirishsin.(T.Malik) 9. O‘rdadan o‘tganda daraxtlarni, uylarni xira nur yoritdi: engil bulutlar orasidan

bir parcha kumushi ko‘rinib qoldi.(O.)

11-mashq. SHart, shartli va maqsad maylidagi fe’llarni aniqlab, ma’nolarni izohlab ko‘chiring.

Og‘zaki. 1. Agar shaharda zarur ishingiz bo‘lmasa, men bilan bir erga borib kelsangiz.(M.I.) 2. O‘zi unga nima bo‘ldi, aytsangiz-chi? (T.Malik) 3. Men gap shu erlarga kelganda uyg‘onib ketgan

bo‘lsam kerak. (G‘.G‘.) 4. Agarda ko‘nib xo‘p desa-ku, xayr, ko‘nmagan taqdirda bu xabarni Otabekka etkizsak, zora shuning bilan ko‘ngli sovub tushsa.(A.Qod) 5. Qani endi Mashrab qo‘lga tushmagan bo‘lsa-yu, bu polizlarni tong palla bir oralasa!.. (O.Yo.) 6. Men Ismoil polvondan

orimni olmoqchi edim.(T.Murod) 7. Agar shuni so‘rasa, ministrni kutishga hozirlik ko‘rib qo‘ygandim, deb aytmoqchi edi. (S.Ahm.) 8. Ochadigan sinfimizga iloji boricha kambag‘al bolalarini yig‘moqchimiz. (M.I.)

Yozma. 1. Rasul Olloyorovich bu galgi saylovda Fanlar akademiyasining muxbir a’zoligiga o‘z

nomzodini qo‘ydirmoqchi. (O‘.U.) 2. Men sizlarni sinab ko‘rmoqchiman. (Mirm.) 3. Bir xayollari Namoz yotgan avaxtaxonaga hujum qilib, eshigini sindirib, qutqarmoqchi ham bo‘ldilar. (X.T.) 4.

Bu gap uning diqqatini tortib, bir og‘iz so‘z bilan muammoni hal qilmoqchi bo‘ldi. (Mirm.) 5. Siznikidan chiqib, o‘zim ham to‘g‘ri o‘sha yoqqa bormoqchi bo‘lib turgan edim. (M.I.) 6. Qishloqdan chiqqanda Otaqo‘zi to‘g‘ri tog‘asinikiga kirib bormoqchi bo‘ldi. (O.Yo.) 7. Qo‘rquv ichida ilonizi qilib, dam o‘ngga, dam chapga burilib, otliqni chalg‘itmoqchi bo‘lardi. (Mirm.) 8. – Bolaligimda o‘rtoqlarim bilan Namangan bormoqchi bo‘lib, Qo‘qon tepasidagi kaptarxonaga o‘tib

qolibmiz. (SH.) 9. – Tinchib oldim, odam yuboraman! – deb qo‘ynini puch yong‘oqqa to‘ldirdi.

(SH.) 10. Mana bu hovlilarda ham qancha toklar hozir gullab turgan bo‘lsa kerak.(P.Q.)

FE’L (DAVOMI)

1-mashq. Gaplar tarkibidagi to‘liqsiz fe’llarni topib, xususiyatlarini izohlab ko‘chiring.

N a m u n a : ekan – to‘liqsiz fe’l, bo‘lishli, 3-shaxs, qisqarmagan.

1. ...yuziga ro‘molini tushirib piq-piq yig‘layotgan ayolning yoniga o‘tgan ham ediki, eshik ochilib Chavandoz ko‘rindi. (O.Yo.) 2. Ilon zahrini solib g‘oyib bo‘lganidek, qotil ham allaqachon o‘z izini yo‘qotgan edi. (O‘.Umarbekov) 3. Xafa bo‘lmadim, negaki, o‘sha paytda oldimga qo‘ygan katta maqsadim yo‘q edi. (X.T.) 4. CHolning qo‘lidagi miltiqning uchi unga to‘g‘rilangan, cholning ikki ko‘zidan o‘t chaqnardi. (S.Ahm.) 5. Bu o‘rmon xo‘jaligida men bilan birga ishlagan Jamolboy edi. (H.Tursunqulov) 6. G‘uborsiz tog‘ havosi haddan tashqari tiniq edi. (S.Ahm.) 7. Yashirayot-ganakan deyman, ustidan tappa bosdim (J.Abd.). 8. Kulohdan toshardi jingalak sochi, Mag‘rur va ko‘rkamdi har qachon boshi (O.). 9. SHuni bila turib er islohotiga qarshi turar ekan, albatta, yaxshimas...(A.Q.) 10. Endi u Qudratni qo‘ltiqlab olganicha baland-baland bulutlar ustidan olib o‘tarmish, keyin ikkovlari qanot paydo qilib uchib yurarmishlar.(J.Abd.) 11. Miryoqubning ovozida allaqanday besaranjomlik ham yo‘q emasidi.(CH.)

2-mashq. Gaplar tarkibidagi ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmalarini topib, etakchi va ko‘makchi

fe’llarni aniqlab ko‘chiring.

O g‘ z a k i . 1. Yashil bo‘yoq bilan bo‘yalgan, ust tomoni o‘ymakor panjarali, katta va og‘ir darvozaga etganda, yigitning yuragi bir oz o‘ynab ketdi. (O.) 2. – Hovliqma, bola, hozir aytib beraman. SHu desang, imtihonlar ham qolib ketdi. (S.Ahm.) 3. Uy egasi hang-mang bo‘lib, tavoze bilan salom berib kutib oldi. (G‘.G‘.) 4. Rezinka oftobda kuyganda qanaqa hid chiqarsa, bora-bora atrofni shunday hid qoplab oldi, boshqa hidlarni bosib ketgandek bo‘ldi. (X.T.) 5. Vazira Bahromovning ishini planga kirgizib berganini Abror eshitsa qancha tajang bo‘ladi. (P.Q.) 6. Ikkovlari, go‘yo kim kimga yo‘l berishi kerakligini bilmay qolgandek, anchagacha bir-birlariga tikilib qoldilar. (J.Abd.) 7. Odamning umri qanday tez o‘tib ketadi, ha-huv deguncha, mana ko‘klam

ham kelib qolibdi. (G‘.G‘.) 8. Ana shu paytda ko‘cha eshigi ochilib, ikki kishi kirib keldi. (T.Malik) 9. Sahar pallada, hali osmonda yulduzlar chaqnab turganda, yo‘lga chiqsam, mana shu katta yo‘l bo‘yida sharpa ko‘rindi. (H.G‘.)

Yo z m a. 1. Tuproqdan kattagina supacha ko‘tarilib, ustiga bir kir sholcha tashlab qo‘yilgan. (G‘.G‘.) 2. Ehtimol, u Ashrafjonni yaxshi tanigani uchundir, ehtimol, bir mahallar ularning sevgisiga, pok va shoirona munosabatlariga havas qilgani uchundir, Akmalning gapi yuragini zirqiratib yubordi. (O.Yo.) 3. Nizomiddinov basharasini bujmaytirdi: - Qandoq qilay, cho‘zilib qoladiganga o‘xshayman. (S.Ahm.) 4. – O‘n yil davomida “o‘g‘lim qaerda ekan”, deb qidirib ko‘rmadingizmi? (T.Malik.) 5. Birdaniga men bilan Omonga ko‘zi tushib qoldi. (G‘.G‘.) 6. U ahmoq nimaga bu ishlarga aralashib yuribdi? (T.Malik) 7. Men bu erda uch-to‘rt kun turadigan bo‘lib qoldim.(A.Q.)

3-mashq. Gaplardagi ravishdoshlarni aniqlab, namunadagidek to‘liq ta’rif berib yozing.

N a m u n a : kelib - -ib yordamida yasalgan, holat ravishdoshi, tuslanadigan ravishdosh,
bo‘lishli.

1. Biroq samolyotlar balodor yuklarini aniq “tartib” ham “ vazn” bilan ag‘darib, yangi yuk uchun balandlashib jo‘narkan, nogihon qandaydir qizil yulduzli samolyotlar o‘qday uchib keldi. (O.) 2. Necha kundan beri qidirib yurib, Roziyani endi topgan paytida nahotki birpasgina qarab turmay ketib qolsa? (P.Q.) 3. Kun chiqish yoqni mo‘ljallab ketyapman-ku, yana nima? – dedi Asqar hansirab va boshidan kaskasini olib erga to‘ntardi. (O.) 4. Tong xo‘rozi qichqira boshlagandan keyin mehmon qo‘zg‘aldi. (G‘.G‘.) 5. Asfalьt tugab, traktor g‘ildiraklari o‘yib yuborgan yo‘l boshlangach, mashina bir-ikki silkinib, to‘xtadi. (T.Malik) 6. Tiz cho‘kib yashaguncha, tik turib o‘lgan yaxshiroq. (H.H.)

3- ilova .Mustaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to‘g‘riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o‘rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Fe’l mayllari deb nimaga aytiladi.
2. Xabar va buyruq –istak mayllarini tushuntiring gaplar tuzing.
3. Shart mayli ishtirokida gaplar tuzing
4. To‘liqsiz fe’llar ishtirokida gaplar tuzing.

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1.Harakat nomlari gapda qanday bo‘lak vazifasida keladi?
a) faqat kesim vazifasida V) faqat ega vazifasida S) ikkinchi darajali bo‘laklar vazifasida D) bosh bo‘laklar vazifasida Ye) bosh va ikkinchi darajali bo‘laklar vazifasida.

2. Otlashgan sifatdosh qatnashgan gapni aniqlang.
A) Qochoqqa shafqat yo‘q, qo‘rqoqqa hurmat. V) To‘g‘riga zavol yo‘q. S) To‘g‘ri do‘stdan ayrilma. D) Kerilganning to‘yiga bor, maqtanganning uyiga.
E) Egilgan boshni qilich kesmas.

3 O‘tgan zamon sifatdoshi berilgan so‘zlar qatorini aniqlang.
A) qizil, pushti, oq V) bilimli, siniq, torgina S) gapirmoq, bormoq, aytmoq D) soqqan, kechikkan, qo‘rqqan Ye) qisqa, qalin, yupqa.

4 Majhul nisbatdagi o‘tgan zamon sifatdoshini toping.
A) bajarilayotgan, o‘qiydigan, kuylangan V) ko‘radigan, gaplashadigan, aytilgan S) topilgan, haydalgan, terilgan D) gapirtirgan, kiyintirgan, boqqan Ye) borishgan, tayyorlandi, kechikkan
5 Gapning qay birida ***ko‘rmoq*** so‘zi ko‘makchi fe’l tarzida qo‘llangan?
A) Mening ko‘zlarim yaxshi ko‘radi. V) Ularni uzoqdan ko‘rdim. S) Yaxshi ko‘rmoq ayb emas. D) Bu ishni ko‘rib chiqish kerak. Ye) Salima qizini ovutish maqsadida qo‘lga olib ko‘rdi.
6 Fe’l va fe’l bo‘lmagan so‘zlar bilan qo‘llanib, turli ma’nolar ifodalovchi, yordamchi vazifalarda qo‘llanuvchi fe’llar qanday nomlanadi?
A) mustaqil fe’llar V) ko‘makchi fe’llar S) to‘liqsiz fe’llar
D) harakat nomi Ye) ravishdosh.
7 SHaxs-son va zamon ko‘rsatmaydigan fe’l shakli ...
A) ravishdosh deyiladi. V) harakat nomi deyiladi. S) sifatdosh deyiladi.D) sof fe’l deyiladi.
E) bo‘lishli fe’l deyiladi.
8 To‘liqsiz fe’llar uchun umumiy bo‘lgan xususiyat qaysi javobda berilgan?
A) To‘liqsiz fe’llar mustaqil ma’noga ega emas. V) To‘liqsiz fe’llar otlar bilan ham, fe’llar bilan ham qo‘llana oladi. S) Ular bo‘lishsizlik, nisbat, zamon kabi ma’nolarga ega bo‘la oladi.
D) To‘liqsiz fe’l uyushiq kesimlar uchun umumiy bo‘lganda, oxirgi kesim tarkibida qo‘llanadi Ye) barchasi to‘g‘ri.
9 Fe’llarga qo‘shilib keladigan *-qila, -moq, -(i)sh, -(u)v, -gan, -(a)r, -(i)b, -a, -y, -guncha, -gach, -gali* kabi qo‘shimchalarning vazifasiga ko‘ra turini aniqlang.
A) so‘z o‘zgartuvchilar V) so‘z shakli yasovchilar S) so‘z yasovchilar D) unumli qo‘shimchalar Ye) unumsiz qo‘shimchalar
10 *U imtihonlardan muvaffaqiyat bilan o‘tgach, sevinchi ichiga sig‘may, uylariga qaytarkan*. Mazkur gapdagi to‘liqsiz fe’lni toping.
A) To‘liqsiz fe’l ishtirok etmagan
V) o‘tgach S) sevinchi ichiga sig‘may
D) qaytarkan Ye) A va S.

Mashg‘ulotni yakunlash. O‘qituvchi mashg‘ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma’lum qiladi, ularni rag‘batlantiradi va to‘plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg‘ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida o‘z mulohazalarini bayon qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil.

28- MAVZU: Ravish va uning ma’no turlari yuzasidan tahlil. (4 soat)

1-ilova

Mashqlar bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to‘liq va mukammal bo‘lishi o‘qituvchi va talabalar tomonidan qatьiy nazoratga olinadi.)

263-mashq. O‘qing, ravishlarni topib, ma’nosi, so‘rog‘i va grammatik xususiyatlarini ayting; o‘zi bog‘langan so‘z bilan birikma tarzida ko‘chiring.

1. Ozroq podada yurmasa, biz bunda eplolmaydiganga o‘xshaymiz. *(S. Ahm.)* 2. Nizomjon u yoqdan-bu yoqqa yuradi, sal tovush kelsa darrov alangslaydi. *(S. Ahm.)* 3. Tilmoch jim o‘tirganini ko‘rgan O‘g‘ilniyoz xola pastdan luqma tashladi. *(X. Deryaev.)* 4. Qo‘shninikiga tomizg‘i so‘rab kirgan Hajalxon bir zumda bir talay gap topib chiqdi. *(A, Muhiddin.)* 5. Kattagina kul rang chamadonini ko‘tarib olgan Feruza hozirgina o‘zi tark etgan vagon bilan yigirma qadamcha yonma-yon yurib bordi. *(H. G‘.)* 6. Qiz etaklarini hilpiratib oldinda shamoldek yelib borardi. *(S. Ahm.)* 7. Geologlar ekspeditsiyasidagi Matluba degan qiz jo‘rttaga bir ish bilan Yakkakapada qolib ketdi. *(A. Eshonov.)* 8. «Villis» hanuz shu yerda edi. *(A. Q.)*

***264-mashq*.** O‘qing. Holat ravishlarini aniqlab, so‘rog‘i va gapdagi vazifasini ayting; ularni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan ko‘chiring.

1. Toshpo‘latning yordamchilari birin-sirin kelishdi. *(N.Biryukov.)* 2. Gulzordagi anvoyi gullarning yaproqlarini birov erinmasdan bittalab artib chiqqanday. *(H. G‘.)* 3. Karima oshxonaga asta kirib ketdi. *(H. G‘.)* 4. Ular yonma-yon o‘tirdilar. *(H. G‘.)* 5. Vodiylarni yayov kezganda, Bir ajib his bor edi menda. *(H. O.)* 6. Ashula eshitayotgan bo‘lib, zimdan CHorini kuzatdi. *(X. Deryaev.)* 7. Siz bahuzur dam olib yotavering, darrov kelib ovqatga unnab yuboraman. *(S. Ahm.)* 8. ...Yarim kechagacha chuvalchangnamo harflarni o‘z qo‘li bilan terib, birinchi nutqini zo‘rg‘a yozib bo‘ldi. *(A. Q.)* 9. Halima o‘zining uchqo‘rg‘onlik ekanini bexosdan eslab qoldi. *(N. Biryukov.)*

***265-mashq*.** O‘qing, miqdor va daraja ravishlarini topib, alohida-alohida ko‘chiring, ularning ma’no va grammatik jihatdan farqini, gapdagi vazifasini tushuntiring.

1. Saroy uchun allaqancha taxta, yog‘och, tunuka oldirib qo‘ygan. *(S. Ahm.)* 2. Bir oz sabr qilasiz. *(I. R.)* 3. Kolxoz idorasi xiyla balandroq yerda. *(As. M.)* 4. Samolyot uchishiga hali bir soatdan mo‘lroq vaqt bor, borib skameykaga o‘tirdik. *(U. N.)* 5. Mehmonni uyga olib kir, men otga picha yem tashlab qo‘yay. *(S. Ahm.)* 6. Suv sal taxchil bo‘lar deyman. *(S. Ahm.)* 7. Paxtachilikni mexanizatsiyalash, ayniqsa, terim mashinalarining tuzilishi, ishlash printsipi haqidagi broshyuralarni sira qo‘ymay o‘qidi. *(S. Karomatov.)*

266-mashq. O‘qing, payt va o‘rin ravishlarini topib, ma’nosi, qanday so‘roqqa javob bo‘lishi va gapdagi vazifasini aniqlang. Avval o‘rin ravishini, keyin payt ravishini o‘zi bog‘langan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Ertagayoq Abduxalilni Quvasoyga jo‘nataman. *(S. Ahm.) 2.* Qadim-qadimlarda odamlar Mirzacho‘lni «balo cho‘li» deb ataganlar. *(H. G‘.)* 3. Tog‘a oldinda, Ikromjon keyinda bir-biri bilan gaplashmay katta ko‘chaga yetishdi. *(S. Ahm.)* 4. Yashil dala o‘rtasidagi selektsiya tajriba stantsiyasi uzoqdan dengizlardagi sokin orolga o‘xshaydi. *(Mirm.)* 5. Ro‘parada smenani tamomlab chiqqan bir to‘da ishchilar... taxta yonida maroqlanib kulishyapti. *(As. M.)* 7. Qalandarov burun rayonda bo‘lib turadigan majlislarda birinchi qatorda o‘tiradigan bo‘lsa, endi prezidiumga chiqadigan ...bo‘ldi. *(A. Q.)* 8. Hali u yerdan, hali bu yerdan gulduros chapaklar eshitiladi.*(N. Biryukov.)*

267-mashq. Payt ravishlari va payt ma’nolarini ifodalovchi otlarni hamda sonlarni topib, ularning farqini tushuntiring.

1. Keyin eski maktabiga bir kun borsa, uch kun bormaydigan odat chiqardi. *(M.Ism.)* 2. Har gal qishloqdan stantsiyaga o‘tayotganimda, ...yuragimda chiroyli hislar g‘alayon qiladi. *(S. Ahm.)* 3. Mutalning hali esida: ularning to‘yi ming to‘qqiz yuz o‘ttiz to‘rtinchi yilning avgustida bo‘lgan edi. *(S. Ahm.)* 4. O‘zi imtihon hamma vaqt saraton kirish oldida boshlanadi. *(S. Ahm.)* 5. Hovli o‘rtasidagi bir tup shaftolining bahorda pushti gulga burkanishini, yozda sap-sariq mevadan larzon bo‘lishini, kuzda barglari olovdek yonishini, qishda yalang‘och novdalariga bulduruq qo‘nishini ko‘rib o‘taman. *(S. Ahm.)* 6. Boya yeldek uchib ketayotgan odam endi shoshilmasdi. *(S. Ahm.)* 7. Oftob deraza qirovini eritib har kuni bir tomchidan tuvakka sachratganidan Nigora bexabar edi. *(S. Ahm.)*

268-mashq. O‘rin ravishlari va o‘rin-joy otlarini topib, farqini tushuntiring, alohida-alohida ko‘chiring.

1. Zalda o‘tirganlar... Anvarga qarab qanday baxtli odam-a, deyishayotgan emish. *(S. Ahm.)* 2. Pastda toshqin Amu pishqirib, shag‘illab ko‘hna Orol tomon shoshilmoqda. *(S. Karomatov.)* 3. Hali obedda kontoraga birga boramiz, o‘sha yerda ishni bitkazamiz. *(S. Ahm.)* 4. Poezd meni sershovqin stantsiyaga tashlab, yana qichqirganicha oldinga intildi. *(S. Ahm.)* 5. Supaga o‘tirib u yoq-bu yoqqa qaradim. (S. *Ahm.)* 6. Xuddi shu yerdan, shu do‘kondan ikki respublikaning chegarasi o‘tardi. *(S. Ahm.)* 7. Oldinda juda jiddiy, murakkab hayot borligini qayoqdan bilaman. *(S.. Ahm.)* 8. Birdan qayrag‘och tagidagi skameykada yonboshlab yotgan bir kishiga ko‘zim tushdi-yu, orqamga qaytdim. *(S. Ahm.)*

269- mashq. O‘qing, sabab va maqsad ravishlarini topib, ularning farqi va gapdagi vazifasini ayting; gaplarni ko‘chirib, ravishlarning turini ustiga yozing.

1. «Atayin qildim, — dedi Asrora. — SHaftoli olib chiqolmaydi». *(S. Ahm.)* 2. Dildor daladan qaytayotib yo‘lni yaqin qilish uchun ataylab tutzor oralab kelardi. *(S. Ahm.)* 3. To‘lagan chol noiloj o‘rnidan turdi. *(S. Ahm.)* 4. O‘zi bo‘lsa qizlar oldidan atayin gerdayib, pisand qilmay o‘tadi. *(S. Ahm.)* 5. Elmurod noiloj indamaslikka majbur bo‘ldi. *(P. T.)* 6. Unsin tog‘asining gapiga parvo qilmaydi, jo‘rttaga qaddini tag‘in ham tikroq ko‘tarib o‘tib ketaveradi. *(O.)*

3-ilova Mustaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy

asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to‘g‘riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o‘rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Ravish deb nimaga aytiladi?
2. Ravishning leksik va grammatik hususiyatlari haqida gapiring.
3. Ravishning ma’no guruhlarini ayting.
4. Holat ravishlari haqida gapiring, misollar keltiring.
5. Payt ravishlari haqida gapiring, misollar keltiring.
6. O‘rin ravishlari haqida gapiring, misollar keltiring.
7. Maqsad-sabab ravishlari haqida gapiring, misollar keltiring.
8. Daraja-miqdor ravishlari haqida gapiring, misollar keltiring.

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1 *Rahim yugurib keldi-yu, birpas nari-beri shoshib ovqatlandi-da, shu ondayoq chiqib ketdi.* Ushbu gapdagi yasama ravishlar qaysi qatorda berilgan?
A) yugurib, birpas, shoshib V) yugurib, shoshib, birpas, shu ondayoq S) shu ondayoq D) birpas, nari-beri, shu ondayoq Ye) birpas, shoshib, shu ondayoq.
2 CHang va tutundan mashina va odamlar zo‘rg‘a ko‘rinar edi. *Ushbu gapda qo‘llangan ravishning turini aniqlang.*
A) holat ravishi V) payt ravishi
S) daraja-miqdor ravishi D) sabab ravishi Ye) o‘rin ravishi.
3 Salimaning ko‘ngli joyiga tushdi va aybdorlarcha tabassum bilan yigitga qaradi. *Ushbu gapda ravish qanday vazifada kelgan?*
A) hol V) sifatlovchi-aniqlovchi S) ega D) qaratqich-aniqlovchi Ye) ravish ishtirok etmagan.
4 Qazisan, qartasan, axir naslingga tortasan! – - dedi kampir omborni qulflayotib (A.Qahhor) *Ushbu gapdagi* **axir** *so‘zi qaysi so‘z turkumiga mansub?*
A) yuklama V) ravish S) sifat
D) modal so‘z Ye) undov so‘z.
5 *Dam o‘tmay, a’lochi o‘quvchilarni birin-ketin nom-banom chaqirishib, xonalarga taklif qilishdi.* Bu gapda ravishning qaysi turi bor?
A) *dam o‘tmay* V) *nom-banom, birin-ketin* S) *xonalarga, nom-banom, a’lochi* D) *dam o‘tmay, nom-banom, birin-ketin Ye*) *dam o‘tmay, xonalarga, a’lochi, nom-banom.*
6 *Kampir xiyla uzoqlashganda, Nurmatjon qichqirdi.* Ushbu gapda ravishning qaysi turi mavjud*?*
A) *payt ravishi* V) *o‘rin ravishi*
S) *daraja-miqdor ravishi* D) *holat ravishi Ye*) *ushbu gapda ravish qo‘llanmagan.*
7 So‘zlarni faqat belgi anglatish xususiyatiga asoslanib, qaysi turkumga ajratish mumkin?
A) *sifatga* V) *songa* S) *ravishga*
D) *sifat va ravishga Ye*) *sifat, son, ravishga*
8 Quyida ko‘rsatilgan qaysi so‘z turkumlariga oid so‘zlar juft holda yoki takrorlanib qo‘llanishi mumkin? 1) olmosh; 2) son; 3) fe’l; 4) ravish; 5) undov so‘zlar; 6) taqlid so‘zlar
A) *2, 3, 4, 6* V) *2, 3, 4, 5, 6* S) *3, 6* D) *1, 2, 3, 4, 6 Ye*) *1, 2, 3, 4, 5, 6.*

9 *O‘sha yillar qancha-qancha vatandoshlarimiz qatag‘on qilindi*. Ushbu gapda ***qancha-qancha*** so‘zi qaysi so‘z turkumiga tegishli?
A) *son* V) *sifat* S) *ravish*
D) *so‘roq olmoshi* *Ye*) *birgina so‘z turkumiga mansub emas, chunki u so‘z birikmasi hisoblanadi.*
10 Ravish yasovchi qo‘shimchalarni toping.
A) -lar, -si, -aki, bad- V) -larcha,
-ona, -li, -chi S) -chi, -cha, -goh, -don
D) -cha, -larcha, -lab, -an, Ye) -an,
-cha, -ga, -g‘in.

Mashg‘ulotni yakunlash.O‘qituvchi mashg‘ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma’lum qiladi, ularni rag‘batlantiradi va to‘plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg‘ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida o‘z mulohazalarini bayon qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil

29-30- MAVZU: Ravishning yasalishi, darajalari yuzasidan; qo‘shma va juft ravishlarning imlosi bo‘yicha tahlil. Ravish yuzasidan umumiy morfologik tahlil. (4 soat)

2-ilova

Mashqlar bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to‘liq va mukammal bo‘lishi o‘qituvchi va talabalar tomonidan qatьiy nazoratga olinadi.)

271- mashq. O‘qing, otlashgan va otlashmagan ravishlarni topib, otlashgan ravishlarning so‘rog‘i, o‘zgarishi va gapdagi vazifasini aniqlang.

1. Ko‘plar uning ta’sirida she’riyat chiroyli so‘zlar o‘yinigina emas, balki yuksak ma’no ifoda etuvchi san’at ekanini angslaydigan bo‘ldilar. *(L. Batь.)* 2. Bog‘ ko‘chada yurardik Yalang oyoq ko‘pimiz. *(Q. H.)*

3. Bir oz ilmi ham bor, bir oz o‘qigan,
Biz oz so‘zamolu ulfatchi bir oz,
Bir oz kitob o‘qib, she’r ham
Hech kim boqmay qo‘yar «bir oz-bir ozga».
“Bir oz-bir oz” emas haqgo‘y va odil,
Dadil so‘zlovchilar chiqsin minbarga!
Oshnagarchiligini ko‘zlab so‘zlovchi,
Tarafkash «bir ozlar»ga beraylik zarba! *(Mirm.)*

to‘qigan...
Hamma narsadan u «bir oz-bir ozroq»,
SHu-chun tarafkashlik lozimdir unga.
Oshnagarchilik bo‘lmasa, bilar,

272- mashq. O‘qing, ravish darajalarini aniqlang, ularni darajasiga ko‘ra uch ustunga yozib, daraja yasovchi vositalar tagiga chizing.

1. Norqo‘zi bilan yigitchasiga bir gaplashsin. *(H. G‘.)* 2. Samovarga, menimcha, kassirning hojati yo‘q, bu yigit katakdan ko‘ra dalaga ko‘proq yarashadi. *(A. Q.)* 3. SHukur, olamda yomondan ko‘ra yaxshi ko‘p. *(H. N.)* 4. Nazarida, bugun tong har galgidan ko‘ra barvaqtroq yorishayotgandek, shu yozuvni tezroq odamlarga ko‘rsatishga oshiqib vaqtli yorishayotgandek edi. *(S. Ahm.)* 5. Sen eng avval xavfsizlik texnikasini o‘rganishing kerak. *(P. Q.)* 6. Yomg‘ir bu yerda Toshkentdagidan ham mo‘lroq yoqqan, yo‘l loy... *(H. G‘.)* 7. Rostini aytsam, bundan sal burunroq yangi maktab ochilishi to‘g‘risida mish-mish gaplar eshitgandim. *(N. S.)*

273-mashq. O‘qing, tub va yasama ravishlarni aniqlang. Yasama ravishlarning yasalish usulini tushuntiring. Avval morfologik (affiksatsiya) usul bilan, keyin sintaktik (kompozitsiya) usul bilan yasalgan ravishlarni o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birga ko‘chirib, ravishlarning tagiga chizing.

1. Kuniga savat-savat narsa tashib uzoq-yaqindan keladigan ota-onalariing xarxashasini aytmaysizmi! *(S. Ahm.)* 2. Ohu buloq izlaganday, seni deyman har zamon. *(SH. Rustaveli.)* Darvoqe, mehnat yashartirayotgan qariyalarimiz ozmuncha emas-ku! Yunus Rajabiy ham jo‘shqin hayotimiz yoshartirgan hamisha navqiron, hamisha quvnoq, e’tiborli va hurmatli qariyalarimizdandir. *(S. Karomatov.)*4. Nutqining eng haroratli, eng kuchli joyiga kelganda, artistona harakat qilib, raisga... ma’nodor qarab qo‘yardi. *(S. Nazar.)* 5. Jang olag‘ovuri to‘satdan boshlanganidek, birdan taqqa to‘xtadi. *(N. T.)* 6. Uning yurish-turishini kuzata-kuzata o‘z yuragida paydo bo‘lgan gaplarni birato‘la aytib olishni istar, lekin qulay fursat topmas edi. *(S. Nazar.)* 7. Kitobdagi so‘zlar Risolatga osonlikcha tutqich bergani yo‘q. *(S. Karomatov.)* 8. Katta nevarasi har kuni uni necha marta xilma-xil qilib suratga ola berdi. *(A. Q.)* 9. Anvar bilan Umida bir partada o‘n yil yonma-yon o‘tirib o‘qishdi. (S. *Ahm.)* 10. Gulxan atrofida o‘tirganlar birin-ketin keta boshlashdi. *(Q. Abukov.)* 11. Endi bu cho‘g‘ning yuzini butunlay kul bosgandek bo‘ldi. *(S. Ahm.)* 8. Qadimdan udum bo‘lgan bu odatni ular hamon yo‘ldan qatnaydigan qilib qo‘ydi. *(S. Ahm.)*

274- mashq. O‘qing, modal shaklda qo‘llangan ravishlarni aniqlab, ularning ma’nosi va modal shakl yasovchi vositalarini izohlang.

1. SHamsi yo‘lda yomg‘ir ko‘lobi tez-tez uchrab turganidan mototsiklni unchalik tez haydamasdi. *(S. Ahm.)* 2. Erta bahorning endigina yerdan qor ketgan kunlari edi. *(S. Ahm.)* 3. Bir tomchi suvda qanchalar qudrat borligini u sira-sira xayoliga keltirolmasdi. *(S. Ahm.)* 4. Saraton qizdirgan dala o‘rtasida 6ilqillab yotgan tuproq yo‘ldan kelarkan, u tezroq

anhorga yetib olishga shoshilardi. *(S. Ahm.)* 5. Murchini koʻproq sepib qoʻyibman, mayli, foyda qiladi. *(S. Ahm.)* 6. Birpasdayoq Anvarning boshi aylanib ketdi. *(S. Ahm.)*

275-mashq. Oʻqing, ravishlarni topib, ularni tuzilish jihatdan turlariga koʻra quyidagi jadvalga yozing.

Gap №	Sodda ravishlar		Qoʻshma ravishlar	Juft ravishlar	Takroriy ravishlar
	tub	yasama			

1. "Ayajon, bemalol uxlang, men yana bir oz oʻqiy", — dedi Tansiq. *(O.)* 2. Erta-indin hukumat vakillari kelisharkan. *(N. S.)* 3. Yigitlarimiz bilan birpas hangamalashib, keyin ketasiz. *(S. Ahm.)* 4. Bu yerlarda yashash va mehnat qilishning oʻzga zavqi, oʻzga gashti, oʻzga latofati bor. *(SH.)* 5. Raisni koʻrish bilan qizlar uzoqdan qoʻllarini silkishdi, baʼzilari birdan kuylab yuborishdi. *(O.)* 6. Allaqaerda hushtak chalib, keyin ostanovka asfalьtini bir sidra birakayiga shipillatib supurib oʻtgan muzdek yel endi Ummatalining etini junjitdi. *(SH.)* 7. Mashʼala gurillab choʻlning uzoq-yaqinini yoritdi. *(S. Ahm.)* 8. Qadimdan udum boʻlgan bu odatni ular hamon saqlab kelishadi. *(S. Ahm.)* 9. Bu qutlugʻ uyda meni oʻzimga oʻzimni tanitgan nurdek tiniq, oftobdek issiq odamlar yashaydi. *(S. Ahm.)* 10. Ariq-zovurlar allaqachon qazib, tozalab qoʻyilgan edi. *(S. Nazar.)* 11. Samosvallar u yoqdan-bu yoqqa vagʻillab oʻtib turibdi. *(S. Ahm.)*

276-mashq. Oʻqing, sifat, sifatdosh va ravishlarni topib, ular orasidagi oʻxshash va farqli tomonlarni tushuntiring.

1. Juvon oʻtdek chaqnab turgan koʻzlarini katta-katta ochib menga qarab turardi. *(S. Ahm.)* 2. "Bu mugʻambir, tantiq shahzoda Hirotda uzoq turolmaydi",—dedi Husayn oldinda borayotgan otliqlarning doʻpir-doʻpiriga quloq solarkan. *(L. Batь.)* 3. Mana endi vahshiy daryo dahshatidan, oʻrmondagi yirtqich hayvonlar hujumi xavfidan, tirikchilik mashaqqatlaridan butunlay qutulding. *(S. Nazar.)* 4. Hamma yoqda soʻlim va osuda yoz kechasi hokim. *(S. Ahm.)* 5. Birdan muzdek shamol esib, uning bahridilini ochib yubordi. *(S. Ahm.)* 6. Kran pastdan uncha baland koʻrinmagan edi. *(S. Ahm.) 7.* Yodimizda goʻzal qoʻshiqlaringiz, Doʻstona, sermazmun, maroqli suhbat. Karpat togʻidan ham kattaroq erur Bizga koʻrgazilgan. hoʻrmat, muhabbat. *(U.)*

277- mashq. Oʻqing, ravishlarni topib, toʻliq morfologik razbor qiling. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlarni morfemalarga boʻling.

1. Attang, **putyovkani** shu yoqqa olmabsiz-da. *(S. Ahm.)* 2. Matluba qurilish kontorasiga ishga kelganiga picha boʻlgandi. *(E. Nosirov.)* 3. U maktabga **bizdan** ikki yil ilgari kirgandi. *(K. Abukov.)4.* **Roʻparada egilib** oʻsgan archa koʻm-koʻk yashnab turardi. *(S. Yunusov.)* 5. Ayriliqda **oʻtgan** vaqt ichida har ikkisida ham xiyla oʻzgarishlar yuz bergan, ammo ular hamon bir-birlariga intilardilar. *(L. Batь.)*

3-ilova Mustaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning toʻgʻriligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli oʻrinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Ravishlar qo‘shimchalar yordamida qanday so‘z turkumlaridan yasaladi?
2. Qo‘shma ravishlar qanday yasaladi?
3. Qo‘shma ravishlar qaytarzda yoziladi?
4. Juft ravishlar qanday yasaladi?
5. Takroriy ravishlar qanday yasaladi?
6. O‘rin-payt va chiqish kelishigi shaklida ravishga aylangan so‘zlar haqida gapiring.
7. Qanday so‘zlar ravishga ko‘chadi?
8. Ravishlarning otlashishi haqida gapiring.
9. Sodda tub va sodda yasama ravishlarga 3 tadan misol keltiring.
10. Ham holat, ham daraja-miqdor ravishlari guruhiga kiruvchi so‘z haqida gapiring.
11. Sifatga bojlanib, belgining belgisini bildirgan ravishga misol keltiring.
12. Boshqa turkum so‘zlari ravishga aylan-ganda qanday qo‘shimchalarni olgan bo‘ladi?
13 Ravishlarning tuzilish jihatidan turlarini ayting.

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1 Qaysi qatordagi gapda ravish qatnashgan?
A) Bozorda qari cholni o‘g‘ri deya tutdilar, Ura-sura sho‘rlikni podsho sari eltdilar. (H. Olimjon) B) Agar Oftobxon kirib qolmasa, onangdan ajrala yozgan ekansan. C) Bitta emas qo‘ling, qizim, Ikkita-ku, sanab boq: Sanab ko‘rar, yana jim... (T. To‘la)
D) Surishtirib qarasa, Jonfig‘on faqat o‘n yetti kun ishlabdi, xolos.
(A. Qahhor) Ye) U Toshkentda o‘qiydi.
2 Ravishning asosiy morfologik belgisi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
A) ravish biror so‘z bilan bog‘lanib, birikma hosil qilganda, hech qanday so‘z o‘zgartiruvchi affiks olmaydi. V) ravish o‘ziga xos yasovchi affikslarga ega.
S) Ravish gapda hol vazifasini bajaradi. D) V va S Ye) A va V
3 *Ot bilan otning takrorlanishi orqali yasalgan ravishlar berilgan qatorni toping.*
A) navbatma-navbat, kundan-kun V) biyron-biyron, uzundan-uzun S) nari-beri, oldinma-keyin D) o‘z-o‘zidan, taqa-taq Ye) barcha javoblar to‘g‘ri.
4 Sifatlarning takrorlanishi bilan yasalgan ravishlar berilgan qatorni toping.
A) to‘g‘ridan-to‘g‘ri, uzundan-uzoq
V) bosh-boshiga, gul-gul S) hali-beri, birin-ketin D) o‘zidan-o‘zi, birma-bir Ye) barchasi noto‘g‘ri.
5 *Fe’l shakllarining takrorlanishi bilan yasalgan ravishlar berilgan qatorni toping.*
A) bora-bora, qayta-qayta V) vaqt-bevaqt, ochiq-oydin S) turib-turib, qota-qota D) chaqqon-chaqqon, omon-omon Ye) A va S
6 *Ravishga ko‘chgan otlar berilgan javobni aniqlang.*
A) erta, indin, kecha V) kechqurun, burun, tugal S) yaqqol, rosa, uzluksiz D) osha, o‘ta, qiya, qo‘sha Ye) to‘g‘ri javob yo‘q.

Mashg‘ulotni yakunlash.O‘qituvchi mashg‘ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma’lum qiladi, ularni rag‘batlantiradi va to‘plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg‘ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida o‘z mulohazalarini bayon qiladi.

31-32-MAVZU: Mustaqil so‘zlar (ot, sifat, son (olmosh, fe’l, ravish) yuzasidan umumiy morfologik tahlil. Mustaqil so‘zlar, ularning turlari va o‘ziga xos xususiyatlari. (2 soat)

ilova-1

Maqsad: So‘zning grammatik ma’nosi va grammatik shakli, grammatik ma’noni ifodalash vosita va usullari, grammatik kategoriya mavzusi yuzasidan o‘rgangan nazariy bilimlarni amalda tadbiq etishga o‘rgatish .

Masg‘ulot rejasi:

1.Tashkiliy qism;
2.Savol-javob;
3.Mashq ishlash;
4.Mustaqil ishlarni tekshirish;
7.Test tekshiruvi;
8. Talabalar faoliyatini baholash.
9. Mashg‘ulotni yakunlash.

ilova-2

O‘rganilgan mavzu yuzasidan savol-topshiriqlar.

1. Grammatika” deganda nimani tushunasiz?
2. Grammatika ma’no qanday vositalar yordamida ifodalanadi? :
3. So‘zlarni juftlash va takrorlash orqali.ifodalanishiga misollar keltiring.
4. Urg‘u yordamida ,ohang yordamida, ,so‘z tartibi orqalii ifodalanishiga misollar keltiring..

Mashg‘uloti mazmuni

1.Guruh uchta kichik guruhlarga ajratiladi.Har bir guruh o‘ziga nom qo‘yadi va qo‘ygan nomini izohslaydi.
2 .Guruhlarga konvertda savollar beriladi.
1-guruh uchun. Grammatika deganda nimani tushunasiz?
2-guruh uchun. Grammatika ma’no qanday vositalar yordamida ifodalanadi? :
-So‘zlarni juftlash va takrorlash orqali.ifodalanishiga misollar keltiring
3-guruh uchun.Grammatika vositalarni “Tarmoqlash“ usulida ochib bering.
3. Guruhlar javobi umumlashtirilib, slaydlar asosida to‘ldiriladi.
.6. Urg‘u yordamida: gullar (ot) – gullar (fe’l), yigitcha (ot) – yigitcha (ravish), olma (ot) – olma (fe’l) – bunda so‘z turkumlari o‘zgaryapti.

1-GURUH UCHUN

A.Grammatika atamasi grekcha grammatike so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, "o‘qish va yozish haqidagi bilim" degan ma’noni bildiradi	11 Grammatika .qanday so‘zdan kelib chiqqan.
B.Yordamchi so‘zlar vositasida.	2.2.Urug‘ bilan birga,opam uchun qildim qanday vositalari yordamida ifodalangan?

S. Grammatik ma’nolarni ifodalovchi vositalar	3..Grammatik shakl deb nimaga aytiladi ?

2--GURUH UCHUN

B.Qo‘shimchalar yordamida	11.Bordim,uyning,kinoga qanday vositalari yordamida ifodalangan?
B B Urg‘u yordamida	olma (ot) – olma (fe’l)qanday vositalari yordamida ifodalangan?
C.Morfologiya atamasi grekcha morfe (shakl) va logos (so‘z, fan) so‘zlaridan paydo bo‘lgan	Morfologiya qanday so‘zdan kelib chiqqan.

126-mashq. Gaplarni o‘qing. Mustaqil so‘zlarning leksik va grammatik ma’nolarini aniqlang.

N a m u n a: *Bu* — leksik ma’nosi: ko‘rsatish, grammatik ma’nosi: olmosh, ko‘rsatish olmoshi, sintaktik vazifasi: sifatlovchi aniqlovchi.

1. Bu gaplarning barini Hafiza xomush va oqilona tinglardi. *(Mirm.)* 2. Dilshod kitobni yopdi, ildam odimlar bilan hovli tomon ketdi. *(M. I.)* 3. Atrofi ko‘k panjaralar bilan o‘ralgan ulkan bog‘ darvozasidan kiraverishda uch qavatli shinam bino savlat to‘kib turibdi. *(J. Abd.)* 4. Yo‘lchi qishloqdan keltirgan xaltasini kampirga uzatdi. *(O.)*

127-mashq. Berilgan gaplarni o‘qing, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan grammatik ma’noni ifodalovchi vositalarni aniqlab, ularni izohlang.

1. Dehqonni yer davoslaydi. **Urug‘ bilan** birga orzu, dard-hasrat, quvonchlarini ham ye**rga** to‘kadi. *(S. Nurov.)* 2. Gulnorning g‘oyib bo‘lishi Yo‘lchiga **yashin urgan kabi** ta’sir ko‘rsatdi. *(O.)*

BLITS savollar

1-guruh uchun. So‘z turkumlari deganda nimani tushunasiz ?
2-guruh uchun.? Yordamchi , mustaqil so‘zlarnngi turlari ochib bering
3-guruh uchun.So‘z turkumlarini “Tarmoqlash“ usulida ochib bering.
3. Guruhlar javobi umumlashtirilib, slaydlar asosida to‘ldiriladi.
So‘z turkumlari quyidagi guruhlarga bo‘linadi

TEST TOPSHIRIQLARI

1-guruh uchun

A..Alohida olingan guruh so‘zlar	1.Qanday so‘zlar lug‘aviy ma’no bildirmaydi
B.Ot, sifat, son, olmosh, fe’l, ravish kiradi	2..Mustaqil so‘z turkumlari to‘g‘ri berilgan qatorni toping.
D.Ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama kiradi	3.Yordamchi so‘zlar to‘g‘ri berilgan qatorni toping.
S. Mustaqil so‘z turkumlari	Qanday so‘zlar lug‘aviy ma’no bildiradi

2-guruh uchun

B. Modal so‘zlar, undov	1Alohida olingan guruh so‘zlar to‘g‘ri berilgan qatorni

so‘zlar, taqlid so‘zlar	toping.
B Yordamchi so‘zlar	2Qanday so‘zlar yakka holda ma’no anglatmaydi, gap bo‘lagi bo‘la olmaydi, grammatik ma’nolarni ifodalashgagina xizmat qiladi?
C.Mustaqil so‘z turkumlari	3.Qanday so‘zl turkumlari gap ichida ma’lum bir gap bo‘lagi bo‘lib keladi.

5 Talabalarning yangi mavzuni tushuntirish (So‘z turkumlari, ularning tasnifi) misollarni amaliy ko‘rsatishi. Shu o‘rinda talabalar badiiy asardan tuzib kelgan misollardan namunalar
o‘qitiladi.)
Mustaqil so‘z turkumlari mustahkamlashda qo‘llanadigan mashqlardan namunalar ko‘rsatishi.
134-mashq. O‘qing. Mustaqil so‘zlarni aniqlab, qanday savolga javob bo‘lishini ayting.

Mehmondorchilikdan qaytgandan so‘ng Zaynab kiyimlarini elektr dazmol bilan dazmolladi, qunt bilan taxlab chamadonchasiga joyladi-da, radiopriyomnikni qo‘yib, «Pikovaya dama» operasining o‘zbekchasini tingladi. Zaynab ertaga jo‘nashini eslarkan, yuragi allanechuk zirqirab ketdi. Hatto uning mehnatda botir, yuragi sof va samimiy “oshiqlari” ham bor. Hamisha g‘ayrati toshgan, shijoatli, xushchaqchaq yosh kolxozchi To‘g‘on Boshoqov bilan birga dalada ishlaganda charchaydimi kishi. To‘ti xoladay to‘qqiz o‘g‘ilning onasi, majlisda notiq, terimda devkor ayolni jondan sevmaslik mumkinmi? *(Oybek.)*

135-mashq. O‘qing. Yordamchi so‘zlarni hamda modal, undov va taqlid so‘zlarni aniqlang.

Quyosh selida miriqib cho‘milgan bo‘ydor teraklar quchog‘ida toraya-toraya g‘oyib bo‘lgan tekis yo‘lda askar yengil odim otardi. Bu yo‘lni urushdan burun kolxozlar qurgan edilar. Ilgari bu yerda yog‘ingarchilik pallasida balchiq otning qorniga yetardi. Mana bugun quling o‘rgulsin bir xiyobonki, ko‘lankasida yastanging keladi. Askarning yuragi to‘lqinlanib, odim-odim joyda to‘xtar va har yonga suqlanib qarar edi. O‘ng tomonda uchi ko‘rinmas, ko‘m-ko‘k, tekis paxta dalasi ochildi: “Bunda shunday yaxlit paxta maydoni yo‘q edi-ku. Qanday ish qilishibdi-ya. Paxtaga ana shundoq qulochkash maydon kerak. Mehnatni ayamasang, bu yerda hosil qaynayveradi. Ah, g‘o‘zasi picha kechikibdi-da...” — dedi o‘z ichida askar. Ariqlarda qiy-chuv bilan cho‘milib, qizg‘in tuproqqa ag‘anagan qora-qura bolalar, havoda zarg‘aldoqlarning “biyov-biyov”i va traktorlarning guldurovi, devor orqasida tandirda pishayotgan nonning hidi, bog‘larda mevalarni qushlardan qo‘riqlovchilarning shovqini — hamma narsa unga tinch hayotni va erkin mehnat nash’asini gavdalantirar edi. *(Oybek.)*

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti

6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil

33- MAVZU: Bog‘lovchi, ko‘makchi yuklamalar. (2 soat)

Mashqlar bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to‘liq va mukammal bo‘lishi o‘qituvchi va talabalar tomonidan qatiy nazoratga olinadi.)

279-mashq. O‘qing. Yordamchi so‘zlarni topib, ularning mustaqil so‘zlardan farqini tushuntiring.

1. Askiyabozligi va gapga chechanligi uchun Navoiy uni sevardi ham. *(L. Batь.)* 2. Lektsiyalar tashkil etishni boshladik-u, afsuski, ularni ma’lum tartibga solib, oqartuv ishlarini rivojlantirib yuborolmay turibmiz . *(O.)* 3. Bu masalani bir yoqlik qilmoq uchun Hirotga faqat amir Alishernigina yubormoqlik mumkin. *(L. Batь.)* 4. Biroq Buxoroga ketgunga qadar u singlisi Robiyaga ko‘p narsalarni o‘rgatgandi. *(L. Batь.)* 5. Basharti o‘z so‘zi va yo tanqidi bilan narigi taraf qizarsa yoki ta’sirlansa, unga ikkinchi martaba hujum qilmay qo‘yadi, chunki dushman oyog‘i ostida-da. *(A.Qod.)* 6. O‘ktam uyg‘onganda, uning boshi uzra jiydaning qip-qizil shamaloq novdalari shamolda vazmin tebranar edi. *(O.)* 7. Tanim nimjon, ammo ruhim yengil. Men qilich ko‘tarmaymen, biroq so‘zlarim avvalgiday keskir. *(L. Batь.)*

280-mashq. O‘qing. Mustaqil va yordamchi so‘zlarni topib, ularning grammatik xususiyatini qiyoslab tushuntiring.

1. Husayn bu ishni Alishergagina ishonib topshirish mumkinligini tushunar, chunki u xalq o‘rtasida shoirning e’tibori naqadar balandligini bilardi. *(L. Batь.) 2.* Saidakbar hoji qutini beparvogina ochdi-yu, ko‘zi tinib ketdi. Unda chindan ham zavqi benihoya baland va serhafsala ustaning mo‘’jizakor san’ati o‘zining butun jozibasini namoyish qilib turardi: bu «etti qaroqchi» yulduzining gavhar donachalari bilan aks etgan oltin uzuk edi! *(SH.)* 3. Bunday muhabbat na qilich damidan, na jallod doridan qo‘rqadi. *(SH.)* 4. Irodali, go‘zal va sitamkor Xadichabegim Husaynning qalbini batamom asir etgandi: u hech qachon hech narsani so‘rab o‘tirmas, balki talab qilardi. *(L. Batь.)*

281-mashq. O‘qing, ko‘makchilarni topib ma’nosi va vazifasini ayting.

1. Yunus Rajabiyning o‘zbek muzika san’atini rivojlantirish uchun qo‘shgan hissasi bebaho va ulkandir. *(S. Karomatov.)* 2. Goho ilon kabi buralib, Goh bo‘linar mingta irmoqqa. *(Mirm.)* 3. Butun qo‘shinda Navoiyga Musabekdan ko‘ra sodiqroq kishini topish mahol edi. *(L. Batь.) 4.* Nag‘alli og‘ir etiklar endigina yoqqan qor ustida sabrsizlik bilan depsinishadi. *(N. T.)* 5. SHu yo‘ldan jo‘nagan po‘lat parovoz, Xuddi shu yo‘l uzra to‘xtaydi sokin. *(Mirm.)* 6. Yoqub... shoshilgancha Samarqand sari yo‘l oldi. *(K. Moiseeva.)* 7. SHu tariqa malika bu yerda qiyomga qadar bo‘lar, keyin qal’aga qaytib ketardi. *(K. Moiseeva.)* 8. Rostgo‘ylik bilan inson kamolotga yetishgay, Qo‘sh til bo‘lar el ichra odamlarning iloni. *(Mirm.)*

282-mashq. O‘qing, ko‘makchilarni aniqlab, ularni asl ko‘makchilar, ot-ravish ko‘makchilar va fe’l ko‘makchilarga ajratib, o‘zi bog‘lanib kelgan so‘z bilan birga uch ustun shaklida yozing.

1. CHevarasining surati kelgandan beri kampir oromini yo‘qotdi. Toshkentga qarab talpinib qoldi. *(S. Ahm.) 2.* Kosmonavt bo‘lish uchun matematikani, fizikani yaxshi bilish kerak. *(S. Ahm.)* 3. Urushdan avval qanaqa yashashgan bo‘lsa, undan keyin ham o‘zgarishsiz bir xil umr boshlandi. *(S. Ahm.)* 4. Navoiy she’riyat olamining ana shu sheri bilan bellashmog‘i kerak. *(L. Batь.)* 5. Bola-chaqalardan tortib kampirlarga qadar barchasi dalada mehnat zavqini suradilar. *(O.)* 6. Qadimiy falakiyot olimlarning kitobati bilan tanisha borganing sari, ilgari senga muammo bo‘lib ko‘ringan jumboqlarning sirini asta-sekin yecha borishing turgan gap. *(K. Moiseeva.)* 7. yolg‘iz mayin, yengil shabboda Vodiy ichra tanho tentirar. Simob kabi tiniq havoda SHitirlashib yaproqlar titrar. *(H. O.)*

283- mashq. O‘qing. Ko‘makchi otlarni va ot ko‘makchilarni aniqlab, alohida-alohida ko‘chiring, ular orasidagi farqni tushuntiring.

1. Karomatov unga Akbarov va Toshev haqida savollar berdi. (P.Q.) 2. U studentlar ichida eng yaxshi modalarni tanlab kiyardi, sochini bo‘lsa kuniga har xil prichyoska qilmasa, ko‘ngli joyiga tushmasdi. *(S. Ahm.)* 3. So‘zlari orasida «Sug‘d» va «Xorazm» madaniyatlari, Navoiyning tili, Amudaryo to‘g‘oni masalalaridan boshlab to atom bombasiga qadar turli mavzularda gap borar edi. (0.) 4. Ismoiljon Bashoratning qo‘lidan chamadonchani olib, mashina tomonga yurdi. *(S. Ahm.)* 5. Po‘latjon ariq bo‘yida, o‘rilgan pichanning ustida, chalqancha yotib ashula aytmoqda edi. *(O. Yo.)* 6. Kattakon bak oldida choy damlangan tunuka choynakni cho‘qqa qo‘yib o‘tirgan cholning yoniga tushib ketayotgan edi, uzoqdan mashina chirog‘ini ko‘rib to‘xtadi. *(S. Ahm.)*

284-mashq. Nuqtalar o‘rniga *sari, bilan, uchun, beri, keyin, qadar, dovur, ichra* ko‘makchilaridan mosini qo‘yib gaplarni ko‘chiring, ularning qaysi kelishik shaklidagi so‘z bilan kelganini ayting.

1. Yurak dala ... talpinardi. *(Mirm.)* 2. Umr — dono ... juda qisqa, tanbal ... keragidan ortiq uzun! *(SH.)* 3. U uyga yaqinlashgan ... bahona topishga shoshardi. *(S. Ahm.)* 4. Zebixon shu tariqa o‘zini olisroqdan bir muddat namoyish qilib turgandan... gavdasini g‘alatiroq egib keskin burildi-da, ketdi. *(S. Ahm.)* 5. Majlis yarim kechaga... cho‘zildi. *(SH. Siddiqiy.)* 6. Yunus Rajabiy xalq boyligini to‘plab, besh tomlik kitob qilib nashr etdi va bu ... besh bebaho haykal yaratdi. *(S. Karomatov.)* 7. SHukrona ayt avval parcha non uchun, So‘ng qultum suv uchun shukrona takror... *(A.O.)* 8. Uzoqdan Navoiyning qorasi ko‘ringuniga ... u amirning kelishiga ishonmasdi. *(L. Batь.)* 9. Zulmat ... nur yog‘ilganday, huvillab turgan hovli bir nafasda shodlikka to‘ldi. *(J. Abd.)*

285-mashq. O‘qing. Qo‘makchi va ravishlarni topib, farqini izohlang. Ko‘makchilarni o‘zidan oldin kelgan ot yoki otlashgan so‘z bilan birga ko‘chiring.

1. Ular ikki yonidan qalin daraxtlar saf tortgan tep-tekis xiyobonlar, ilon izi so‘qmoqlar, kishiga ajoyib ertaklar hadya etuvchi g‘orlar yonida bo‘lishdi. *(J. Abd.)* 2. Yaqinda tashkil etilgan o‘zaro musobaqalarning natijalari to‘g‘risidagi xabarlar ham vaqt-vaqti bilan yetkazib turiladi. *(J. Abd.)* 3. Oxiri Tuyabuloqqa yaqin bir pioner lagerining avtobusini yollashga to‘g‘ri keldi. *(J. Abd.)* 4. Tepaliklar ustida qor uyumlari... tushga yaqin erib yana qumga singib ketardilar. *(J. Abd.)* 5. SHamsi avvaliga angrayib turib qoldi-yu, keyin shoshib. egarga mindi. *(S. Ahm.)* 6. Nonushtadan keyin, odatdagidek, kiyinib, kombinat sari jo‘nadi. *(Mirm.)*

3-ilova Mustaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to‘g‘riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o‘rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Yordamchi so‘zlar deb nimaga aytiladi?
2. Ko‘makchi deb nimaga aytiladi va uning turlarini ayting?
3. Sof ko‘makchilarna ayting?
4. Vazifadosh ko‘makchilarni ayting.?
5. Ko‘makchilarning qo‘llanilish va ma’nolari haqida gapiring?
6. Bosh kelishikdagi so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar haqida gapiring, misollar bilan izohlang.
7.Jo‘nalish kelishikdagi so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar haqida gapiring, misollar bilan izohlang.
8. CHiqish kelishikdagi so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar haqida gapiring, misollar bilan izohlang
9. Qaratqich kelishikdagi so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchilar haqida gapiring, misollar bilan izohlang
10. Ko‘makchilar va qo‘shimchalar sinonimiyasi haqida gapiring.

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1 Ko‘makchilar qaysi kelishiklar qo‘shimchalariga sinonim sifatida qo‘llanishi mumkin?
A) qaratqich va jo‘nalish V) jo‘nalish va o‘rin-payt S) o‘rin-payt va chiqish D) chiqish, jo‘nalish va o‘rin-payt Ye) qaratqich, jo‘nalish, o‘rin-payt va chiqish
2 Quyidagi yuklamalardan qaysilari so‘zga qo‘shib yoziladi? 1) -ku; 2) -u(-yu); 3) -da; 4) -oq(-yoq); 5) -mi; 6) -a(-ya); 7) -chi; 8) -gina.

A) 1, 2, 4, 5, 8 V) 2, 3, 5, 6

S) 3, 4, 5, 8 D) 4, 5,8 Ye) 3,5,8.

3 Quyida berilgan qaysi turkumga oid birliklarning ba’zilari o‘zlari birikib kelgan so‘zdan chiziqcha(defis) bilan ajratib yozilishi mumkin?

A) bog‘lovchilar V) ko‘makchilar
S) yuklamalar D) A, S Ye) A, V, S
4 *Sizni otasi o‘rnida ko‘rsak-u, nahotki sizdan beso‘roq ish tutsak-a...(A.Q)* Ushbu gapdagi yuklamalar miqdorini aniqlang.
A) 1 V) 2 S) 3 D) 4 Ye) 5
5 Maqsad ma’nosini anglatgan *uchun* ko‘makchisi qatnashgan gapni aniqlang.
A) Anvar yuzidagi kulgini yashirish uchun chetga qaradi. V) Daftarni ukam uchun keltirdim. S) G‘o‘za erta ekilgani uchun hosil mo‘l bo‘ldi. D) Yig‘ilish uchun imkon yaralmadi. Ye) Maqsad ma’nosini ifodalovchi misol berilmagan.
6 Mustaqil so‘z turkumlariga xos bo‘lgan quyidagi xususiyatlardan qaysi biri yuklamalarga ham xos?
1) lug‘aviy ma’noga egalik;
2) grammatik shaklga egalik;
3) grammatik ma’noga egalik;

4) grammatik vazifaga egalik;
5) gap bo‘lagi vazifasida kela olish.

A) 2, 3, 4, 5 V) 2, 3, 4 S) 2, 4
D) 3, 4 Ye) 2, 3
7 Bog‘lovchilar vazifasiga ko‘ra...
A) teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilarga bo‘linadi.
V) biriktiruv, zidlov, ayiruv bog‘lovchilariga bo‘linadi. S) birik-tiruv, zidlov, ayiruv, ergashtiruvchi bog‘lovchilarga bo‘linadi. D) takrorla-nadigan va yakka holda qo‘llanadigan bog‘lovchilarga bo‘linadi. Ye) bog‘lovchi va bog‘lovchi vazifasidagi so‘zlarga bo‘linadi.
8 Gar shul eshitganim bo‘lmasa ro‘yo... *Ushbu misradagi* gar *so‘zi qaysi so‘z turkumiga xos?*
A) yuklama V) bog‘lovchi S) ko‘makchi
D) gar so‘z emas, qo‘shimcha Ye) modal so‘z
9 Bu ko‘chada ham faqatgina imorat xolos-da, boshqa hech narsa yo‘q-ku. *Bu gapdagi yuklamalar sonini aniqlang.*
A) 5 V) 4 S) 3 D) 2 Ye) 6
10 Qaysi qatordagi so‘zlarning ikkinchisi yordamchi so‘z hisoblanadi?
A) uyga ketmoq, isib ketmoq
V) uyning ichi, hafta ichi S) hafta ichi, uyga ketmoq D) uyning ichi, isib ketmoq Ye) isib ketmoq, hafta ichi.
Mashg‘ulotni yakunlash.O‘qituvchi mashg‘ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma’lum qiladi, ularni rag‘batlantiradi va to‘plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg‘ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida o‘z mulohazalarini bayon qiladi.

292-mashq. O‘qing. Yuklama va modal so‘zlarni topib, ular orasidagi o‘xshash va farqli tomonlarni izohlang.

1. Odam qo‘ligina odamga abadiy haykal qo‘yishiga ana o‘shanda ishonganman. *(S. Ahm.)* 2. Aftidan, eshelon bu yerda to‘xtamaydi. *(I. R.)* 3. Xuddi shu payt salomxona eshigi ohista ochilib, ustod ko‘rindi. *(O. Yo.)* 4. Hali xabaring yo‘qmi? Asrora opam kasalxonadalar-ku. *(S. Ahm.)* 5. Baxtimga, qizillar o‘z vaqtida yetib kelib qolishdi-yu, men tirik qoldim, faqat shu bir yoq ko‘zimdan ayrildim. *(Ivan Le.)* 6. Bizning faryodimiz hatto ota-onalarimizning ham qulog‘iga kirmas edi! *(A. Q.)* 7. Mana, nihoyat, Dildorning qorasi ko‘rindi. *(S. Ahm.)*

293-mashq. O‘qing, yuklama va modal so‘zlarni topib, alohida-alohida ko‘chiring, turlarini qavs ichida ko‘rsating.

1. Toshkentdan kelgan har xil mutaxassislar proektni tuzish uchun ertagayoq cho‘lga safar qilishadi. *(O.)* 2. Darhaqiqat, bugungi sayr umrbod esda qoladigan bo‘ldi. *(J. Abd.)* 3. Nomini unutmas xalqlar, zamonlar, Jonajon shoirning baxti ham shu-da. *(U.)* 4. Balki shu turishda dunyoga keladigan yangi-yangi dalalarni, bog‘larni, yaylovlarni ko‘z oldiga keltirayotgandir? *(J. Abd.)* 5. Tiq etgan ovoz eshitilmas, faqat shamolda tebrangan terak barglarigina shitirlardi. *(L. Batь.)* 6. Giyoh unmagan joylarda kichik-kichik gulzorlar, shinam-shinam xiyobonlar, ikki qavatli uylar, hatto ko‘chalar ham paydo bo‘lgan. *(J.*

Abd.) 7. Nima, men o‘zim uchun ishlayotibmanmi, rais buva? Boshqalarning ishiga aloqam yo‘qmi? *(H. N.)* 8. Nihoyat, quyosh bulut orasini yorib chiqdi. *(S. B.)*

294-mashq. Yuklamalar ishtirok etgan gaplarni ko‘chirib, yuklamalarning tagiga chizing, turlari va ma’no xususiyatini izohlang.

1. Xuddi binoga yaqin joyda bir guruh odamlar doira qurib, o‘yinga tusha boshladilar. *(J. Abd.)* 2. Voy, ilm uvol emasmi, nega ishlamaysiz? Hozirgi zamonda sichqon tutmaydigan mushuk ham odamning ko‘ziga xunuk ko‘rinadi-ya! *(A. Q.)* 3. Topdi-yu, shu ondayoq qayta yo‘qotdi. *(S.Anorboev)* 4. Ammo tabiatida bir xil kiborlik ham mavjudki, bu, shubhasiz, hammaga yoqavermas, hatto, kishida bir oz hayiqish ham uyg‘otadi. *(J. Abd.)* 5. Axir har bir davr o‘z romantikasini yaratadi-ku! *(J. Abd.)* 6. SHu jaziramada....o‘z dalasiga o‘g‘it tashiganlari uchunoq men ordenlarimni hammasiga bitta-bitta taqib qo‘ygim kelyapti hozir. *(O.)*

***295-mashq*.** O‘qing, shakli bir xil yordamchi so‘zlarning vazifasiga ko‘ra nomini ayting.

1. Salimov bilan Pardavoy ostonaga qadam qo‘yishlari bilan, Qudrat o‘zini chetga oldi-yu, kelgan tomoniga qarab chopa ketdi. *(J. Abd.)* 2. Bolalarki, shunday deyayotgan bo‘lsa, kattalarning og‘zida nima gap? *(I. R.)* 3. Odamlar kelayotibdi-yu, siz ketasizmi? *(A.Q.)* 4. SHuni bilginki, birovning baxti yuzida — husni jamolida bo‘lsa, sening baxting — boshingda — dono qizsan. *(Yo. SHukurov.)* 5. “Nima gap ekanini tushuntirib berarsiz balki”, — dedi. *(A. CHakovskiy.)* 6. Men buyruqning o‘zinigina emas, balki shu buyruqning qanday ahamiyatga ega ekanligini ham bilib olishim muhim. *(A. CHakovskiy.)* 7. SHunday ajoyib odamlar bo‘ladilarki, ularni mansab ham, daraja ham, shon-shuhratlar ham o‘zgartirmaydi. *(H.G‘.)* 8. Bu katta shaharda ulug‘ madrasalar, san’atning butun mo‘’jizalari bilan bezalgan boy saroylar ham bog‘chalar, havoyi ko‘shklar ko‘p edi. *(O.)*

3-ilova Mustaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to‘g‘riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o‘rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1 *Ot, olmosh, son, harakat nomi, sifatdoshlardan keyin kelib, ularning boshqa so‘z bilan bog‘lanishini bildirishga xizmat qiladigan so‘z turkumi...*

A) sifat V) ravish S) ko‘makchi D) bog‘lovchi Ye) yuklama

2 Axir Marg‘ilonda bizning ham shunday kelinimiz bor ekan-u, bilmay yurgan ekanmiz-da. *Gapdagi yuklamalar sonini aniqlang.*

A) 3 ta V) 4 ta S) 2 ta

D) 5 ta Ye) yuklama mavjud emas.

3 Bog‘lovchi vazifasidagi *-u (-yu)* yuklamalari qaysi bog‘lovchilar o‘rnida qo‘llanmaydi?

A) *biriktiruvchi bog‘lovchilar o‘rnida* V) *zidlov bog‘lovchilar o‘rnida* S) *ayiruv bog‘lovchilar o‘rnida* D) *biriktiruvchi va zidlovchi bog‘lovchilar o‘rnida Ye*) *biriktiruvchi, zidlovchi va ayiruvchi bog‘lovchilar o‘rnida.*

4 Vosita ma’nosini ifodaslaydigan ko‘makchi qaysi qatorda qo‘llangan?

A) *Muhayyo bu sodda, beg‘ubor bolaga havas bilan qaradi.* V) *Haligacha majlis uchun xonamiz yo‘q.* S) *Xatni pochta orqali jo‘natdim.* D) *Avtobus shahar markaziga kirib*

borgan sari yo‘lovchi ko‘payar edi. Ye) *Bu voqea qo‘rqinchli tush kabi uning ko‘z oldidan o‘tdi.*

5 Ergashtiruvchi bog‘lovchi qo‘llangan qatorni toping.

A) *Olim SHarq xalqlarining madaniyati to‘g‘risida hurmat va iftixor bilan gapirdi.* V) *Hozir yo shamol bo‘ladi, yo yomg‘ir yog‘adi.* S) *Toleim shulki, Vatanda bir guliston tanladim.* D) *Quyosh dam yalt etib bir ko‘rinib qoladi, dam bulutlar ichiga bekinib oladi. Ye*) *Aql bilan boylik orttirsa bo‘ladi, ammo boylik bilan aql orttirib bo‘lmaydi.*

6 *Bu qishloq haqida ko‘proq narsani bilgimiz, ko‘rgimiz kelardi, lekin borgan sari qorong‘ulik borliq uzra o‘z chodirini yoza boshladi.* SHu gapda qo‘llangan ko‘makchilarni toping.

A) sari V) bu, haqida, sari S) haqida, sari, uzra D) sari, uzra Ye) haqida, uzra

7 Qaysi gapda *-u(-yu)* yuklamasi biriktiruvchi bog‘lovchi vazifasida kelgan?

A) *Necha marta uchrashay - dedim-u, vaqtim bo‘lmadi.* V) *Oynisa G‘ulomjonni ko‘rdi-yu, unga tomon borishga jur’at etolmadi.* S) *Nasimjon o‘rnidan turdi-yu, eshik tomon yurdi.* D) *Odamlar kelayotibdi-yu, siz ketasizmi? Ye*) *Salim qog‘ozdagi yozuvlarni o‘qidi-yu, hech narsa tushunmadi.*

8 Qaysi qatorda ta’kid-kuchaytiruv yuklamasi berilgan?

A) *-gina* V) *-da* S) *-a*

D) *-mi Ye*) *-dir*

9 Bog‘lovchilarning qaysi turi tobe-hokim munosabatli gaplarni bog‘lab kelishi mumkin?

A) faqat ergashtiruvchi bog‘lovchilar V) faqat teng bog‘lovchilar S) teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilar D) gaplarni bog‘slaydigan bog‘lovchilar mavjud emas Ye) barcha bog‘lovchilar bog‘lashi mumkin

10 Qaysi ko‘makchilar chiqish kelishigi shaklidagi so‘z bilan qo‘llanadi?

A) *binoan, qarshi* V) *sayin, sari*

S) *so‘ng, beri* D) *qadar Ye*) *yarasha*

Mashg‘ulotni yakunlash.O‘qituvchi mashg‘ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma’lum qiladi, ularni rag‘batlantiradi va to‘plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg‘ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida o‘z mulohazalarini bayon qiladi.

1-ilova

1. Yordamchi so‘zlar deb nimaga aytiladi?
2. Bog‘lovchi deb nimaga aytiladi va uning turlarini ayting?
3. Bog‘lovchilvr gapda qo‘llanilishiga ko‘ra necha xil bo‘ladi?
4. Teng bog‘lovchilar, ularning turlarini ayting.
5. Biriktiruv va zidlov bog‘lovchilari ishtirokida gaplar tuzing.
6. Ayiruv va inkor bog‘lovchilari haqida gapiring.
7. Ergashtiruvchi bog‘lovchilar, ularning turlari haqida gapiring
8. Bog‘lovchilarning kelib chiqishiga ko‘ra turlarini ayting.

2-ilova Mashqlar bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to‘liq va mukammal bo‘lishi o‘qituvchi va talabalar tomonidan qatьiy nazoratga olinadi.)

286-mashq. O‘qing, bog‘lovchilarni topib. ularning grammatik ma’nosi va vazifasini izohlang; teng va ergashtiruvchi bog‘lovchilar o‘rtasidagi farqni tushuntiring.

1. Endi goh moviy tus olib, goh qoramtir rangga kirib, goh oppoq koʻpiklanib mavj urayotgai dengiz toʻlqinlarini tez-tez kelib koʻrarkan, u buni ayniqsa yaqqol his etdi. *(L. Batь.)* 2. Lekin Qalandarga na goʻsht tatidi, na qimiz! *(O. Yo.)* 3. Yoʻl shunday tekis ediki, goʻyo biz qizil poyondoz ustida ketayotganday edik. *(K. Abukov.)* 4. Ayvondagi gʻoʻlalar tamom boʻldi, ammo tarasha qilinadigan oʻtinlar hali uyulib yotardi. *(K. Abukov.)* 5. Mehri bilan kampir mashinalar va ularda ishlayotgan odamlar harakatini kuzata-kuzata boʻyoq va pardozxonaga oʻtdilar. *(S. Ahm.)* 6. Agar umumiy majlis qaror chiqarsa, shu pullarning ixtiyorini senga topshiraman. *(S. Ahm)*

***287-mashq*.** Oʻqing, bogʻlovchilarni topib, teng bogʻlovchilarning turlarini aniqlang. Teng bogʻlovchilar ishtirok etgan gaplarni koʻchiring va bogʻlovchining nima uchun qoʻllanganini ayting.

1. Malika na yurib charchaydi, na sovuqdan shikoyat qiladi. *(H. Gʻ.)* 2. Navoiy farmonni xotirjam tingladi, vazirga izzat-ikrom bilan javob qildi, ammo uning qalbida boʻron gurillardi. *(L. Batь).* 3. Osmon oqara boshlagan, bogʻdagi yuksak oq teraklarning uchlari yaltirab qolgan, lekin hali oftob chiqmagan edi. *(O. Yo.)* 4. Dam salobatli, dam jozibador yangrovchi tanbur sadosi tinglovchini goʻyo sehrli qayigʻi bilan allaqanday maftunkor sohil sari boshlar, goh tebratib, goh toʻlqinlatib borardi. *(J. Abd.)* 5. SHoir oʻzining tinchlik, inson va uning burchi toʻgʻrisidagi fikrlarini bu dostonning mazmuni va mundarijasiga singdirdi. *(L. Batь.)* 6. Qaerda yosh-yalang toʻplangan boʻlsa, katta choyxona yo guzar boʻlsa, u yerda oʻyin koʻrsatadi... *(O.)* 7. U ketdi. U ketdi-yu, xayolimda ham shirin, ham achchiq, ham quvnoq, ham alamli uzuq-yuluq xotiralar qoldi... *(Oʻ. H.)*

***288-mashq*.** Oʻqing, ergashtiruvchi bogʻlovchilarni topib, turini ayting; ergashtiruvchi bogʻlovchilarning turlarini jadvalga joylang.

Ergashtiruvchi bogʻlovchi turlari	**Misollar**
Aniqlov bogʻlovchisi	
Sabab bogʻlovchisi	
SHart bogʻlovchisi	
Oʻxshatish bogʻlovchisi	

1. Hamma gap shundaki, biz hali davlatning zoʻr xarajatlarini oqslaydigan katta konlar topolganimiz yoʻq. *(P. Q.)* 2. Agar kim hayotdan olmasa ta'lim, Unga oʻrgata olmas hech bir muallim! 3. Ikki doʻst qoʻllarini boshlari ostiga yostiq qilib qum ustida chalqancha yotishar, goʻyo shu holatlari bilan rohat qilmoqda edilar. *(J. Abd.)* 4. U oʻzi kutmagan holda yoʻlni qumliklar qa'riga burib yuborgan, shuning uchun mashina gʻildiraklari... tez-tez toʻxtab qolar... edi. *(J. Abd.)* 5. Na u yon, na bu yonga burila olmaysan, chunki ikki tomoningni ham hamrohlaring egallagan. *(J. Abd.)*

289-mashq. Oʻqing, bogʻlovchilarni aniqlang. Avval teng, soʻngra ergashtiruvchi bogʻlovchili gaplarni koʻchirib, bogʻlovchilarning turlarini ustiga yozing.

1. Bu tasavvurlar sizni shunday chulgʻab oladiki, goʻyo hamma narsa koʻz oldingizda asta jonlanib borayotganday tuyuladi. *(J. Abd.)* 2. Goh koʻzlarini oʻynatar, goh jilmayar, goh yana boshini koʻksi uzra tutib turgan dasta gullar ichiga suqar edi. *(J. Abd.)* 3. Uni na toshqin, na boʻron, na oʻt-olov yemira oladi, na zilzila, na tuhmat qilichi qoʻporishga

qodir! *(J. Abd.)* 4. Asrlar bo‘yi suv chiqarish uchun kurashlar boradi-yu, lekin bu kurash oxiriga yetmay qolib ketaveradi. *(J. Abd.)* 5. U do‘stining bevaqt kelganiga ajablanmadi, chunki ularning hayotida bunday tungi uchrashuvlar ko‘p bo‘lib turardi.*(L. Batь.)* 6. Agar har kim bittadan daraxt O‘tqizganda, butun dunyoni Boshdan-oyoq bog‘ qilish mumkin! *(U.)* 7. Tinchlik va ozodlik uning qo‘shig‘i, Do‘stlik va hamkorlik uning bayrog‘i, Hayot, shodlik va baxt uning yo‘ldoshi... *(U.)*

290-mashq. O‘qing, *bilan* qaysi o‘rinda ko‘makchi, qaysi o‘rinda bog‘lovchi vazifasida qo‘llanganini ayting, farqini tushuntiring.

1. Salim ota bilan yigitlar mehmonni izzat-ikrom bilan kuzatib tashqariga chiqishdi. *(S. Ahm.)* 2. Majididdin bilan Navoiy yuzlarida tabassum bilan ohista gaplashayotganlari tufayli, o‘tirganlardan hech kim ular o‘rtasida yakkama-yakka kurash borayotganini payqamadi. *(L. Batь.)* 3. Alyosha, Gulxayri, Muzaffarlar charchash nimaligini bilmay, ya’ni ishtiyoq bilan jon koyitishlari eng qoloq bo‘lganlarni ham uyqudan uyg‘otdi. *(J. Abd.)* 4. Alisher shahzoda bilan gaplashishga oshiqmadi, u Badiuzzamonni va Balxdagi sharoitni yaqindan, sinchiklab o‘rganmoqchi edi. *(L. Batь)* 5. Ekskavator bilan skreperlarni ishga solishga hojat yo‘qdir. *(J. Abd.)*

3-ilova Mustaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to‘g‘riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o‘rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1 Quyidagi uch xususiyatdan qaysilari yordamchi so‘z turkumlariga xos?
1. Lug‘aviy ma’no; 2. Grammatik ma’no; 3. Grammatik vazifa.
A) 1, 2, 3 V) faqat 3

S) 2, 3 D) 1,2 Ye) faqat 2

2 Qaysi hukm noto‘g‘ri?
A) barcha juft so‘zlar chiziqcha bilan yoziladi. V) barcha takroriy so‘zlar chiziqcha bilan yoziladi S) juft fe’llar chiziqcha bilan yoziladi D) barcha yuklamalar chiziqcha bilan yoziladi
E) barcha javoblardagi hukm to‘g‘ri.

3 Bog‘lovchi vazifasidagi *–u(yu)* yuklamalari qaysi bog‘lovchilar o‘rnida qo‘llanishi mumkin?
A) biriktiruv bog‘lovchilar V) zidlov bog‘lovchilar S) ayiruv bog‘lovchilar D) biriktiruvchi va zidlovchi bog‘lovchilar Ye) biriktiruvchi, zidlovchi va ayiruvchi bog‘lovchilar

4 Qaysi gapda ***bilan*** ko‘makchisi bog‘lovchi vazifasida kelgan?
A) Yerni traktor bilan haydaydilar. V) Keng yo‘l bilan ketdik. S) Sobir erta bilan turdi va ishga otlandi. D) Paxta dalasiga hasharchilar bilan ketdik. Ye*) Vazira bilan singlim bir guruhda o‘qishadi*

5 Takrorlangan holda qo‘llanadigan bog‘lovchilar asosan bog‘lovchilarning qaysi turiga mansub?
A) teng bog‘lovchilarga
V) ergashtiruvchi bog‘lovchilarga
S) biriktiruvchi bog‘lovchilarga
D) A, V Ye) barcha bog‘lovchilar takror holda qo‘llanishi mumkin.

6 Omonim yuklamalarni toping.
A) -gina(-kina, -qina) V) -u(-yu),
-da, -a S) -mi, -chi, -ku, hatto
D) faqat, -gina, yolg‘iz Ye) A va D.
7 Quyidagi gapda *chi* qanday vazifa bajaryapti? *Senchi, sen qaerda eding?*
A) so‘z yasovchi qo‘shimcha V) ta’kid yuklamasi S) so‘roq yuklamasi
D) kuchaytiruv yuklamasi Ye) so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimcha
8 *Anvar o‘z istiqbolini yolg‘iz muhabbat orqali ko‘rar edi*. Ushbu gapda qo‘llangan ko‘makchini toping.
A) o‘z V) yolg‘iz S) orqali
D) edi Ye) ko‘rar edi.
9 Sinonim yuklamalar qatorini belgilang.
A) faqat, yolg‘iz, -gina V) -u(yu),
-da, -a S) -mi, -chi, -ku, -ya
D) hatto, -gina (-kina, -qina)
E) V va S.
10 Teng bog‘lovchilarning ma’no munosabatiga ko‘ra turlari qaysi javobda?
A) teng bog‘lovchilar, ergashtiruvchi bog‘lovchilar V) yakka bog‘lovchilar va takror bog‘lovchilar S) biriktiruvchi bog‘lovchilar, ayiruvchi bog‘lovchilar, zidlovchi bog‘lovchilar D) sabab bog‘lovchilar, shart bog‘lovchilar, chog‘ishtiruv bog‘lovchilar Ye) V, S va D

Mashg‘ulotni yakunlash.O‘qituvchi mashg‘ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma’lum qiladi, ularni rag‘batlantiradi va to‘plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg‘ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida o‘z mulohazalarini bayon qiladi.

Darsga tayyorlanish uchun adabiyotlar ro‘yxati:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil
7. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
8. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
9. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.
10. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfemika. So‘z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.
11. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, ”Moliya”, 2003

34-35-MAVZU: Modal so‘z, undov va taqlid so‘zlar, ularning turlari ustida tahlil. So‘z turkumlarini aniqlash va ularni morfologik jihatdan to‘liq tahlil qilish.(2 soat)

2-ilova

Mashqlar bajarish; (Talabalar mashqlarni sharti asosida navbat bilan bajaradilar va javoblarning to‘liq va mukammal bo‘lishi o‘qituvchi va talabalar tomonidan qatьiy nazoratga olinadi.)

***296- mashq*.** O‘qing, yuklama va modal so‘zlarni topib, ularni to‘liq tahlil qiling.

1. Xullas, akasiga teng keladigan yigit yo‘qday edi dunyo-da. *(J. Abd.)* 2. Mohidil uchun bu uchrashuv katta mukofot, albatta. *(J. Abd.)* 3. Aftidan, mustaqil hayot kechirmoqqa ilk bor qadam qo‘yish ham kishida hayajon uyg‘otar ekan. *(J. Abd.)* 4. Faqat Mastura xolagina qattiq mehr qo‘yganidan, u bilan xuddi bemorga muomala qilganday juda muloyim va ehtiyotkorona so‘zlashardi. *(J. Abd.)* 5. Axir jo‘nar paytida xat yozishni... va’da bermaganmidi? *(J. Abd.)* 6. Menimcha, ular mashinada ketdilar. *(Yu. Semyonov.)* 7. Xayriyat, shunaqa o‘rtoqlaringiz ham bor ekan! *(SH.)* 8. O d i l o v. G‘ayrati-ku yaxshi, lekin o‘jarligi yomon! *(A. Q.)*

297- mashq. O‘qing. Ko‘makchi, bog‘lovchi, yuklama va modal so‘zlarni topib, morfologik tahlil qiling.

1. Qishloqning u boshidan bu boshiga yetgunga qadar biror kimsaning qorasi ko‘ringani yo‘q. *(J. Abd.)* 2. Faqat shirin xotiralarnigina eslashga urinishdi. *(J. Abd.)* 3. Odamning xarakterini o‘zgartirishdan qiyin narsa yo‘q. *(J. Abd.)* 4. Ertadan boshlab besh yil ichida orttirgan nazariy bilimini amalda namoyish qilishi kerak. SHuning uchun oxirgi bor darsliklarni ko‘zdan kechirmoqda, chog‘i. *(J. Abd.)* 5. Aftidan, ularning ko‘pchiligi kechagi bo‘ron yetkazgan shikastlarni tuzatish, qum to‘lib qolgan xandaqlarni tozalash bilan band. *(J. Abd.)* 6. Axir, kishi yashash, kurash, yaratish, baxt uchun tug‘ilmaydimi?! *(B. Daminov.)* 7. Voy, g‘alati gapni gapirasiz-a, domlasi, ona o‘z bolasiga yomonlikni ravo ko‘radimi? *(A. Q.)*

298-mashq. O‘qing. Mustaqil va yordamchi so‘zlarni topib, ularga to‘liq xarakteristika bering.

Otda ko‘p yurib o‘rgangan Ortiq endi mototsikl egaridan tushmaydi. Egardan tushsa, umri barbod bo‘ladigandek qo‘rqadi. Akasining shu zaif tomonini Avaz yaxshi biladi, o‘zaro gap bilan buni yo‘qotib bo‘lmasligini sezadi. SHuning uchun boya ataylab uni ko‘pchilikning oldida uyaltirib, ko‘zini sal ochmoqchi bo‘ldi. Lekin buning natijasida ikkovining orasi battar sovuganini sezib, hozir ta’bi tirriq bo‘lib boryapti. *(P.Qodirov)*

3-ilova Mustaqil ishlarni tekshirish; Talabalarning uyda mustaqil tarzda turli badiiy asarlardan olib kelgan mavzuga oid gaplari tahlil qilinadi. Javoblarning to‘g‘riligi talabalar tomonidan kuzatilib, tegishli o‘rinlarda tuzatishlar kiritilib boriladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Yordamchi so‘zlar deb nimaga aytiladi?
2. Modal so‘zlar deb nimaga aytiladi.
3. Modal so‘zlar qanday ma’nolarni ifodaslaydi.
4. Modal so‘zlar kelib chiqishi jihatidan necha turga bo‘linadi.
5. Sof modal so‘zlar haqida gapiring.
6. Vazifadosh modal so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing
7. Modal so‘zlar gapda qanday vazifada keladi?

MAVZU BO’YICHA TEST SAVOLLARI:

1 Qaysi gapda modal so‘z bor?
1. So‘zsiz, buni hamma biladi-ku!
2. Ofarin, azamatlar, ishni do‘ndiribsizlar. 3. Yo‘lchi, chamasi, ikki yildan beri temirchi bilan yaqin do‘st edi. 4. Mayda-chuyda kamchiliklar topibdi, mazmuni. 5. Axir, xatning mazmuni shunday edi. 6. Tabiiy, Xushro‘yning fe’lini yaxshi bilgan ota-onasi unga hech narsani aytmaydi. 7. Siz, balki, mening tilimga tushunarsiz. 8. Uning ishlari, aftidan, yaxshi emasga o‘xshaydi. A) 1, 3, 4, 6, 7, 8 V) 1, 3, 4, 5, 6 S) 1, 2, 3, 6, 8 D) berilgan barcha gaplarda Ye) 2, 3, 4, 6, 7, 8.

2 Quyidagi gaplardan qaysi birida modal so‘z qo‘llangan?
A) *Ona o‘z o‘g‘lini sevadi faqat (H.O.)* B) *Yuragimni berib ketsang bas.(Uyg‘un)* C) *Hattoki ish shu qadar jiddiy bo‘ldi.* D) *Yolg‘iz sensan mening tilagim.* E) *Sen ham shu uyning bekasisan.*

3 Qanday so‘zlar morfologik jihatdan o‘zgarmaydi?
A) mustaqil so‘zlar V) olmosh, son
S) yordamchi so‘zlar D) ot, fe’l
E) faqat olmosh

4 Taqlid so‘zlar gapda, asosan, qanday gap bo‘laklari vazifasida keladi?
A) *to‘ldiruvchi va aniqlovchi* V) *kesim va hol* S) *to‘ldiruvchi* D) *hol va to‘ldiruvchi Ye*) *aniqlovchi va hol*

5 Taqlidiy so‘zlardan yasalgan otlar berilgan qatorni toping.
A) dag‘dag‘a, qarsak V) xurrak, taqa
S) yaltiroq, dang‘illama D) A,V
E) V,S

6 Taqlidiy so‘zlardan yasalgan fe’llar qatorini belgilang.
A) shitirla, chiqilla V) g‘ijirla, tiqirla S) yarqira, ming‘irla D) chug‘urla, tiqirla Ye) barcha javoblarda taqlidiy so‘zlardan yasalgan fe’llar berilgan.

7 Morfologiyaga tegishli atamani belgilang.
A) bog‘lama V) holat ravishi
S) kirish so‘z D) undalma Ye) ravish holi

8 Qaysi qatorda modal so‘z mavjud?
A) Xayriyat, majlisga Oqilaning o‘zi kirib bormabdi. V) Obbo, yana ish pachava deng. S) Bu yil hamma fanlarni “a’lo” bilan yakunlashim shubhasiz. D) Ofarin, azamatlar, ishni do‘ndiribsiz. Ye) Bu yerlarda hatto bahor oylarida ham maysa ko‘karmasdi.

9 Qaysi so‘zlar taqlidiy so‘zlarga
-ak qo‘shimchasini qo‘shish orqali yasalgan?

A) guldirak, pirpirak V) qarsak, g‘ijjak S) bezak, g‘urrak D) A, V
E) A, V, S
10 Qaysi modal so‘zlar o‘zaro sinonim bo‘la oladi? 1) darhaqiqat; 2) chog‘i; 3) taxmin; 4) chamasi;
5) aftidan; 6) har qalay;
7) mazmuni.
A) 2,4,6 V) 2,3,4,5 S) 3,4,6
D) 1,6,7 Ye) 4,5,6,7
Mashg‘ulotni yakunlash.O‘qituvchi mashg‘ulotning qanday darajada amalga oshirilganligini talabalarga ma’lum qiladi, ularni rag‘batlantiradi va to‘plagan ballarini izohlab eshittiradi. Keyingi mashg‘ulotda qilinadigan ishlar (vazifalar)xususida o‘z mulohazalarini bayon qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
2. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
3. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
4. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
5. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
6. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamroyev. Ona tilidan mashqlar to‘plami Toshkent, 2009-yil

36-37-38-MAVZU: Alisher Navoiyning “Xamsa” turkumiga kiruvchi dostonlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid g‘oyalar. Alisher Navoiyning pand-nasihat mazmunidagi asarlarida ifodalangan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta’limiy qarashlar. Gulxaniyning “Zarbulmasal” asari (6 soat)

Alisher Navoiy 1441 yilning 9 fevralida xirot shahrida G‘iyosiddin kichkina oilasida dunyoga keldi. Bo‘lajak shoirning otasi temuriylar avlodidan yedi.

Ilm-fanga , ayniqsa, badiiy adabiyotga juda yerta ixlos qo‘ygan Navoiy Sa’diyning «Guliston», «Bo‘ston» kitoblarini, ayniqsa, Farididdin Attorning «Mantiqut-tayr» (Qush nutqi) asarini sevib o‘qir va yod olar yedi.

U faqat o‘zbek, fors tillaridagi asarlarnigina yemas, balki azarbayjon, turkmancha bitilgan nodir qo‘lyozmalarni o‘qigan, u tillar nafosati bilan o‘z she’riyatini boyitishga intilgan.

Alilsher Navoiy o‘zining juda ko‘p asarlarida bolalar tarbiyasiga oid fikrlarni ilgari surdi. Ayniqsa, «Xamsa» ga kirgan «Hayratul-abror», «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun» kabi dostonlarining ba’zi boblarini bola tarbiyasi egallaganini ko‘ramiz. Bular orasida «Hayratul-abror» (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) dostonida falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta’limiy masalalarni qamrab olganligi bilan ajralib turadi. Shoir bolalarni o‘qimishli, odobli, rostgo‘y, halol, pok, saxiy bo‘lishga ota-onani, o‘zidan kattalrni hurmat qilishga, insofliva adolatli kishilar bo‘lib kamol topishga undaydi.

«Hayratul-abror» asarining bir necha boblari odob-axloq va ta’lim-tarbiya masalasiga bag‘ishlangan. Navoiy bu dostonini oltinchi maqolatida odob va kamtarlikni ulug‘lab, ta’lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr va mulohazalarni bayon qilish bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Shoir dostonini bu maqolatida bola

tarbiyasi, uni o‘stirish, o‘qitish va uni balog‘atga yetkazish to‘g‘risida hamda bu borada ota-onalarning vazifalari haqida batafsil fikr yuritadi. Shoir yoshlarni ota-onani xizmatini bajarishga, ularni hurmat qilishga, ularga nisbatan hamisha mexr-muhabbatli bo‘lishga chaqiradi, ota-onani oy va quyosh deb ta’riflaydi.

«Farhod va Shirin» dostonida shoir chin sevgi va vafo, do‘stlik va sadoqat, mehnat va ijodkorlik, vatanparvarlik hamda qahramonlik g‘oyalarini tarannum yetadi. Doston yoshlar va bolalarga atab yozilmagan, lekin asarning ko‘pgina boblari bolalar va yoshlar hayotiga, ularning tarbiyasiga bag‘ishlangandir. Shoir dostonda Farhodning bolalik chog‘laridanoq ilm-hunarga, mehnatga bo‘lgan muhabbatini zo‘r mahorat va chuqur samimiyat bilan tasvirlagan. Bu Navoiyning bola tarbiyasiga va uning bilim olishiga katta ye’tibor bilan qaraganligini ko‘rsatadi.

«Mahbubul-qulub» uch qismdan iborat. Kitobning 1-qismi «Xaloyiq ahvoli va afg‘oni va ahvolining kayfiyatida», ya’ni kishilarning ahvoli, fe’l-atvori va gap so‘zlarining ahamiyati haqida bo‘lib, bunda Navoiy donishmand va murabbiy, ulkanmadaniyat arbobi sifatida ilm-fan, san’at va adabiyotning ahamiyatini targ‘ib qiladi, malakali, iqtidorli o‘qituvchilarni, olimlarni, shoirlarni, san’atkorlarni maqtaydi, ularni hurmat qilishga va qadrlashga chaqiradi. O‘qish ham, o‘qitish ham og‘ir va ma’suliyatli ish, u qunt, havas va mehnat talab qiladi, deb uqtiradi. Navoiy bu o‘rinda murabbiylarning halol xizmatlarini alohida ta’kidlaydi.

Gulxaniy XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlaridan boshlab ijod yetgan va bu davr o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutgan yozuvchilardan biridir. Uning asl-ismi-sharifi Muhammad sharif bo‘lib, Gulxaniy yesa uning adabiy talaxxusidir. Taxminlarga ko‘ra XVIII asrning 70-yillarida hozirgi Xo‘jand viloyatining Darvoza qishlog‘ida dunyoga keladi.

U o‘z ilmini oshirish maqsadida avval Namangan va so‘ngra Farg‘onaga keldi, qiziqchiligi, hozirjavobligi va hajviy she’rlari bilan kishilar o‘rtasida tanila boshlaydi. Ayniqsa, g‘ariblik turkumidagi ruboiy va to‘rtliklari bilan yel og‘ziga tushadi. Shoir keyinchalik Qo‘qonga keladi va bu yerda ko‘p qiyinchiliklar bilan yashaydi. Tirikchilik o‘tkazish uchun hammomda o‘t yoquvchi bo‘lib ishlaydi.

«Zarbulmasal» xalq ertaklari taxlitida yozilgan mukammal mazmunli o‘tkir saritik asardir.

Gulxaniy o‘zining bu asarida xalqning mazmundor maqollari, hikmatli so‘zlari va qoririq gaplaridan mohirlik bilan foydalanadi. U hukmdorlar va ularning laganbardorlarini, saroy ahlining yaramas kirdikorlarini majoz yo‘li bilan o‘tkir satira ostiga oladi. Chunki u mehnatkash xalqning og‘ir, mashaqqatli hayotini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi, saroy bazmlari, keti uzilmas mayparastliklar, xalqni talash hisobiga bo‘lishini payqadi va bunday salbiy ishlar uning ko‘zini ochdi. Natijada unda saroy aristokratiyasiga nasbatan nafrat hissi tabora oshib bordi. Ammo shoir, shariatga ko‘ra, hukmron doiralardan noroziligini va nafratini ochiq-oydin ifodalay olmas yedi. Shuning uchun majoziy shakldagi «Zarbulmasal» asarini yozishga kirishdi. Asarda shoirning maqsadi, hayotga, uni o‘rab olgan muhitga, hokim tabaqalarga bo‘lgan munosabati to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifoda yetilmay, balki hayvonlar, qushlar va shunga o‘xshash majoziy obrazlarning tasviri orqali ifodalanadi. Shoir shu zaylda o‘zi yashagan zamon uchun aniq va xarakterli voqea-hodisalarni, ularga o‘zining munosabatini, qarashlarini tasvirlaydi.

Muallif o‘z masalalarida majlziy obrazlar orqali o‘sha davrda hukmron sinf vakillarini fosh qiladi, mamlakatga xarobalik, xalqqa qashshoqlik keltirgan o‘zaro urushlarga qarshi ommaning noroziligini ifodalaydi.

Gulxaniy o‘z zamonasida sodir bo‘layotgan talon-taroj, xalqni qiynash, ortiqcha soliqlar solish kabi voqealarni ochiqdan-ochiq yoza olmas yedi. U buni faqat yertak yo‘li bilan amalga oshirish mumkin ekanligini tushunadi.

Gulxaniy hayoti va ijodi. O‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Muhammad Sharif Gulxaniyning hayoti va ijodiy faoliyati haqida to‘la ma‘lumotga ega yemasmiz. 18 asrning oxiri, 19 asrning birinchi yarmida Qo‘qon adabiy muhitida yashab ijod yetgan Gulxaniy nomi tazkira va tarixiy asarlarda zikr etilgan. Fazliy Namangoniyning “Majmuat ush-shuaro” asarida aytilishicha asli tog‘li Qorategindan Qo‘qonga kelib oila qurgan yekan.U taxminan 1770-80 yillar atrofida tug‘ilgan. Og‘ir iqtisodiy qiyinchiliklarda kun kechirgan. Ba‘zi manbalar uning Namangon madrasalarining birida tahsil olganligidan darak beradi. Aytishlariga qaraganda Gulxaniy hammomda o‘t yoquvchi - gulohlik vazifasida ishlagan va shuning uchun Gulxaniy taxallusini tanlagan deb nisbat berishgan.Fazliy buni Gulxaniyning “otashfe‘l”ligi va «devonafe‘lligi”dan deb tushuntiradi. Shoir o‘ziga taxallus tanlashda keyingi ma‘noni nazarda tutgan bo‘lishi yehtimolga yaqindir. Negaki, u ma‘lum vaqt navkarlik ham qilgan, o‘z shijoati, g‘ayrati, paxlavonligi bilan ajralib turgan, urushlarda qatnashib jasorat ko‘rsatib borgan, lekin uning xizmatlari xon tomonidan taqdirlanmagan.Shoirning hayoti muhtojlikda, bir burda nonga zor, sipohiylik qilib rohai ko‘rmay, xasrat-nadomatda o‘tadi.Bu fikrni shoirning “**Ber**” radifli she‘ri xam tasdiqlaydi. Bunda shoir o‘zining qashshoq turmushidan noliydi:

Hazratim ochlikdan o‘ldim, egani non ber menga,
Kofir o‘lg‘ayman agar desamki, baxmon Ber menga.
Moshu bug‘doyu guruch berkim, shular menga kerak,
Hech aytmasman aqiqu, la‘lu marjon ber menga.
Egnimga yopiq berib,qornimni to‘yg‘az non bilan,
Senga billohkim demasman dinu imon Ber menga.
Navkaring ochlikdan o‘lsa, nega hayfing kelmagay,
Ey tabibi hoziqim, doriyu darmon Ber menga.
Nonu to‘n Ber , benavolik dardidan qutqar meni,
Men qachon aytdimki, Qorun ganjidek kon Ber menga...
Gulxaniyni yer yigitlar to‘pidan kamsitmagil,
Fo‘ta Ber, ot ber, to‘nu chakmon ber menga.

Vafoti noma‘lum bo‘lgan shoirni taxminan 1830-40 yillarda dunyodan o‘tganligini taxmin qiladilar. Gulxaniy ijodiga nazar talaydigan bo‘lsak , u ikki tilda qalam tebratgan. Fors – tojik tilidagi g‘azallariga J u r’ a t taxallusini qo‘llagan.

Gulxaniydan qolgan adabiy meros hajmi uncha katta yemas, lekin unga shon-shuhrat keltirgan asari “Zarbulmasal”dir. Gulxaniy bu asarni Qo‘qon xoni Amir Umarxon (1811) tavsiyasiga ko‘ra yozadi.

“Zarbulmasal” (maqollar keltirib so‘zlash, o‘xshashi va timsolini keltirib gapirish) – majoziy mazmun beruvchi asar – masal bo‘lib unda turmush voqealari turlicha toifadagi, turlicha fe‘l-atvorli kishilarning munosabatlari qushlar misolida (Yapaloqqush bilan Boyo‘g‘li o‘rtasidagi qudachilik mojorolarini bayon qilish orqali) hikoya qilinadi. Qushlar yesa o‘zaro zarbulmasal yo‘li bilan so‘zlashadilar, maqsadga yerishish uchun xar xil maqol, matal, hikmat va chuqur mazmunli hikoyalarni keltiradilar.

“Zarbulmasal”da muhim ijtimoiy masalalarni majoziy obrazlarda yoritilishi.

”Zarbulmasal” jiddiy ijtimoiy mazmunni majoz yo‘li bilan badiiy ifodalovchi axloqiy-didaktik va tanqidiy-hajviy yo‘nalishdagi asardir.Unda ijtimoiy hayot muammolari,

jamitda turli tabaqa-guruhlar o‘rtasidagi murakkab munosabatlar, insonlarning o‘zaro muomalalari, urf-odatlar, xalq marosimlari haqida majoziy uslubda so‘z boradi.

Gulxaniy ijtimoiy hayotdagi voqea va hodisalarning insonlar tabiati va amaliy faoliyatidagi olijanoblik va pastkashlik, adolat va zo‘ravonlik, saxovat va xasislik, kamtarlik va manmanlik, qanoat va ochko‘zlik, xushmuomalalik va qo‘pollik, halimlik va dag‘allik kabi fazilat va salbiy belgilarni badiiy mahorat bilan qushlar va hayvonlar tili va harakatlariga, intilish va qilmishlariga ko‘chiradi va ular ishtirokidagi hayotiy lavhalarda o‘z munosabatini bildiradi. Asar bilan tanishgan har bir o‘quvchi gap qushlar va hayvonlar faoliyatlari va mojorolari haqida yemas, balki kishilik jamiyatidagi turli tabaqa-guruhlar vakillari haqida borayotganini darhol anglab oladi. Asar ishtirokchilarining nutqlari xalq maqollari, matal, hikmat va qoliplangan birikma-iboralaridan keng foydalanish asosida qurilgan. Asar voqeasi qadimgi “Farg‘ona iqlimida” joylashgan “eski bir shahristonda” yuz beradi.U yerda iste‘qomat qilayotgan Yapoloqqush o‘z o‘g‘li Kulangirsultonni uylantirish taraddudiga tushadi, shu manzilda yashayotgan Boyo‘g‘li va Boyqushlar qizi Kunushbonuga sovchi qilib Ko‘rqushni yuboradi.Bahs va tortishuvlardan so‘ng qiz tarafga beriladigan qalin miqdori ming chordevor deb belgilanadi, nikoh marosimlari o‘tkaziladi. Voqealar davomida bo‘lajak qudalar va ularning manfaatlarini ifodalovchi ishtirokchilarning tabiatlari, falsafasi, ichki dunyosi va intilishlari bosqichma-bosqich ochila boradi.”Zarbulmasal”da etakchi mazmun bilan mantiqan uzviy bog‘lanib ketgan o‘ndan ortiq nasriy va nazmiy masal, qissa va hikoyatlar mavjud. Xususan “Maymun bilan Najjor”, “Toshbaqa bilan Chayon” kabi masallari yuksak badiiy mahorat bilan yozilgan.”Maymun bilan Najjor” masalida hayotiy lavha orqali “bilmagan, o‘rganmagan va aqling yetmaydigan ishga hovliqib urinma, avval hunarni yaxshilab egalla, shunda pand yemaysan” deb ugit berilsa, «Toshbaqa bilan Chayonda” hayotda do‘st tanlashda nihoyatda yehtiyot bo‘lishlikka, yomonga aslo yaqinlashmaslikka da‘vat yetiladi. “Zarbulmasal”dagi bu kabi axloqiy-ta‘limiy yo‘nalishdagi masallardan farqli o‘laroq «Tuya bilan Bo‘taloq” masalida sof ijtimoiy mavzu badiiy intihosiga yetkazilgan. Unda yerksiz Tuyaning och va suvsiz qolgan Bo‘talog‘ining yolvorib qilgan fig‘onu nolasiga bergan g‘amgin javobi aniq yeshitiladi:

“Aydi onasi bolasiga boqib,
Ko‘zlarining yoshlari suvdek oqib:
Ko‘rki,-burunduq kishining qo‘lida,
Ul kishining ko‘zlari o‘z yo‘lida
Menda agar zarra kabi ixtiyor
Bo‘lsa yedi – bo‘lmas yedim zori bor!”

“Zarbulmasal” o‘zbek badiiy nasrining yeng yetuk namunalari qatorida faxrli o‘rin olgan.Rang-barang tasviriy vositalardan, murakkab sajdan keng foydalanib yozilgan bu asarning tili nihoyatda shirador, jozibali bo‘lib, asarning chin ma‘noda xalqchil ruh egallashida juda katta xizmat qilgan. “Maymun bilan Najjor”, “Toshbaqa bilan Chayon”, “Tuya bilan Bo‘taloq”masallarida real hayot haqiqatini ifodalanishi.

Maymun bilan Najjor (Nasriy bayoni)

Kashmir o‘lkasida go‘zal, dov-daraxti ko‘p, sermeva, xushbo‘y gullari, rohatijon suvlari serob bir tog‘ bo‘lardi.Shu yerda Maymun iste‘qomat qilardi.Kunlarning birida o‘z hunarini yaxshi bilgan, mohir duradgor shahar azoblaridan qutulib, yog‘och izlab shu toqqa keladi. Bir yog‘ochni kesib,pona qoqib, unutib qoldirgan teshasini olib kelishga jo‘naydi.Buni kuzatib o‘tirgan Maymun duradgorga g‘avasi kelib tezda u kesgan

yog‘ochning ustiga chiqib olib, uning ishini davom yettirmoqi bo‘ladi. Dumi yog‘och yorig‘iga kirib qolib dumidan ajraladi.

Najjor juda aqlli va mohir hunarmand. U «shaharning zindonidan ozod o‘lib” toqqa chiqadi. Tog‘ni sevib qoladi. »Tog‘ning Shiriniga Farhod ” bo‘lib qoladi. Gulxaniy uning mehnati va mehnatdagi mahoratini ulug‘laydi. Shu yo‘l bilan asarda hunarni va hunar ahlini kuylash va ulug‘lash, kishilarni hunar o‘rganishga chaqirish kabi muhim g‘oyani ilgari suradi. Maymun nihoyatda kaltafahm, u aql-farosatini ilatmagani tufayli dumi yog‘och orasiga qisilib qolib, dumidan ayriladi.

Toshbaqa bilan Chayon (nasriy bayoni)

Bu masalda hikoya qilinishicha Iroqdan Hijozga kelayotgan Toshbaqa yo‘lda Chayon bilan uchrashadi. Ular birga ketayotganlarida daryoga duch keladilar. Toshbaqa daryodan so‘zib o‘tib orqasiga qarasa, Chayon daryo qirg‘ogida turibdi. Qaytib qirg‘oqqa kelib,ustiga Chayonni mindirib yana qirg‘oq tomon suzadi. Chayon yesa Toshbaqaga nish urmoqchi bo‘ladi. Buni sezgan va Chayonni avval ogohlantirgan Toshbaqa suvga shung‘ib munofiq va xiyonatkor Chayonni suvga cho‘ktirib yuboradi.

Masalda Toshbaqa aqlli, bardoshli, fahm-farosatli inson; sadoqatli do‘st sifatida gavdalansa, Chayon yaxshilikni bilmaydigan, yaxshilikka yomonlik bilan javob beradigan, do‘stiga ham xiyonat qiluvchi, fikri-zikri birovga yomonlik qilish bo‘lgan kishilar sifatida tasvirlanadi.

Gulxaniy bu masal orqali Chayonga uxshagan yomonlar bilan do‘st tutinma , undaylardan yehtiyot bo‘l, chunki yomon xech qachon yomonligidan qolmaydi, degan muhim didaktik fikrni ilgari suradi.

Gulxaniy masalda yaxshi murodiga yetadi, yomon doim jazoga uchraydi, yaxshilik murod sari yetaklaydi, yomonlik halokatga duchor qiladi, degan didaktik xulosa chiqaradi.

Tuya bilan Bo‘taloq

Kunlardan bir kuni sarbon tuyasiga yuk ortib yo‘lga tushadi. Tuyaning orqasidan bolasi ham yergashadi. Ortilgan yuk og‘ir, manzil uzoq, havo issiq, yo‘l yesa jazirama sahro yedi. Ona ketidan yergashgan, yo‘lda ochiqib, charchagan Bo‘taloq bir oz to‘xtashni onasidan zorlanib so‘raydi. Ko‘zlaridan yosh suvdek oqayotgan, to‘xtashning ilojini topa olmagan ona: mening ixtiyorim sarbonning qo‘lida. Menda agar zarra ixtiyor bo‘lganda, og‘ir yuk ostida qolmagan bo‘lur yerdim, deb javob beradi.

Gulxaniy bu masalda sarbon, Tuya va uning Bo‘talog‘i obrazlari orqali mehnat ahlining og‘ir turmushini, yerksizligini tasvirlaydi, inson haq-huquqi poymol qilinganligiga ye‘tiroz bildiradi. Mazlumlarning ohu faryodi, shikoyatini zo‘r mahorat bilan ifodalaydi.

“Zarbulmasal” asarining qisqacha mazmuni.

Farg‘ona iqlimida Kayqubod ismli podshohdan qolgan yeski bir shahriston bor yekan. U shaxarda Boyo‘g‘li bilan Boyqush yashar yekanlar. Ularning bir qizi bo‘lib, oy desa oydek kun desa kundek go‘zal yedi. Bu go‘zalning ismini Kunushbonu der yedilar. Boyo‘g‘lidan bir yog‘och masofa uzoqroqda Yapaloqqush va uning o‘g‘li Kulangir Sulton yashaydi. Yapaloqqush o‘g‘li Kulangir sultonga Kunushbonuni olib bermoqchi bo‘ldi va Ko‘rqushni Boyo‘g‘lining uyiga sovchilikka yuboradi. Boyo‘g‘li kengashib so‘ngra javob berishini, bilish uchun yana bir kelishini aytadi. Bu javobni Ko‘rqush Boyo‘g‘lining “iliq so‘zi” bilib, uni Yapaloqqushga yetkazadi. Bu xabar qushlar shohi Malikshohinga borib yetadi. U xazinachi Kordon bilan xizmatkori Turumtoyni to‘y xarajatlarini aniqlash uchun Boyo‘g‘lining uyiga yuboradi. Ular urtasida uzoq munozara boradi. Boyo‘g‘li qizi

uchun ming chordevor talab qiladi. Nihoyat, yana Ko‘rqush borib Movaraunnaxr mamlakatidan ming chordevor berishga rozi yekanliklarini aytadi. To‘y bo‘ladi. Gulxaniy Boyo‘g‘li, Yapaloqqush va Kulangir sulton obrazlarida o‘zlari koshonada yashab, vayronagarchilikning sababchisi va tarafdori bo‘lgan, mol-mulk orttirishga intilgan ba‘zi amaldorlarni tanqid qiladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1.Alisher Navoiyning bolaligi, o‘qishi to‘g‘risida tushuncha bering?
2.«Xamsa» dostoni haqida nima bilasiz?
3.Navoiyning odob-axloq haqidagi asarlari?
4Gulxaniy kim bo‘lgan?
5.«Zarbulmasal» haqida nima bilasiz?
6.«Zarbulmasal»ning ahamiyati nimada?

TEST TOPSHIRIQLARI:

1.Qaysi ijodkor tilni «Kungil xazinasining qulfi» so‘zni esa shu «Xazinaning kaliti» deb ta’riflangan.
A) A.Navoiy
B) Bobur
C) A.Avloniy
D) Lutfiy

2.Navoiyning «Lisonut-tayr» dostonida qushlar bosib utadigan 7- manzil qaysi javobda to‘gri ko‘rsatilgan.
A) Riyozat, Manzil, Makon, Lomakon, Fano, Maqom, Yuklik.
B) Muxiblik, Muridlik, Oshiqlik, Oriflik, Darveshlik, Obitlik, Sukut.
C) Talab, Ishq, Ma’rifat, Istogno, Tavxid, Xayrat, Fano.
D) Shariat, Tariqat, Ma’rifat, Haqiqat, Fano, Baqo, Rizo.

3.Boshni fido ayla ato qoshiga Jismni qil sadqa ano qoshiga Tun – kununga aylagali nur quyosh Birisin oy ayla birisin quyosh. Mazkur misralar Navoiyning qaysi asaridan olingan.
A) «Hayratul –abror»
B) «Sab’ay –sayyor»
C) «Mezonul –avzon»
D) «Farhod va Shirin»

4.A.Navoiyning «Mahbubul–qulub» asarining ikkinchi qismi qanday masalalarga bag‘ishlangan.
A) Kishilarning 8- axloqi va fe’l atvori masalalari
B) Ota – onaga xurmat masalasida
C) Olimlar masalalari haqida
D) Axloqiy masalalar haqida

5.A.Navoiyning “ Mahbub ul- qulub ” asari necha qismdan iborat ?
A) 3
B) 5
C) 2
D) 7

6.A Navoiyning « Lisun –ut –tayr» dostonida Xudxud qanday obraz?
Majoziy
Salbiy

A, B javoblar to‘gri
Asarda Xudxud obrazi yo‘q
7 .A.Navoiyning “Hayratul abror”asariga yaqin turadigan kimning qaysi asari?
a)Hamzaning “Qiroat kitobi”
b)Avloniyning “Turkiy guliston”
s) Hamzaning “Yengil adabiyot”
d) Gulxaniyning “Zarbulmasal”

Adabiyotlar:

1. I. Ahmedov, va b. Bolalar adabiyoti, Xrestomatiya,1993y.
2. Suyumov, M. Jumaboyev, Bolalar adabiyoti, Qo‘llanma. 1994y.
3. M. Jumaboyev. Bolalar adabiyoti. Darslik. 1995y.

39-40-41-42-mavzu A.Avloniyning pedagogik faoliyat, yangi maktablar, o‘quv jarayonlari, dars uslubi, adabiy tahlil. H.H. Niyoziy ma’rifati. Uning ta’limda joriy etilgan o‘qish kitoblari mohiyati. (2 soat)

“Tarbiya biz uchun yo hayot,
yo mamot,yo najot, yo halokat,
yo saodat ,yo falokat masalasidir.”
A.Avloniy

Avloniy - ilm – ma‘rifat targ‘ibotchisi. X1X asr oxiri XX asr boshlari o‘zbek milliy madaniyatining mashhur vakillaridan biri ma‘rifatparvar shoir, dramaturg, jurnalist, olim, davlat va jamoat arbobi Abdulla Avloniy 1878 yilning 12 iyulida Toshkent shahrining Mergancha mahallasida, to‘quvchi Miravlon aka oilasida dunyoga keldi. O‘z tarjimai holida yozishicha: “1985 yildan boshlang‘ich maktabda o‘qidim. O‘qchi mahallada Akromxon domladan xat-savodim chiqdi. 1890-yilda maktabni bitirib, mahalladagi madrasada dars o‘qiy boshladim. Yoshim 13 ga yetgach, yo‘qsillik menga ta‘sir qildi.Yoz kunlarida mardikorlik qilib, ota-onamg‘a biroz yordamda bo‘lib, qish kunlarida o‘qir yedim. So‘ngra O‘qchi mahallasidagi domlamizning kam havsalaligidan, o‘quvda davomsizligidan O‘qchi madrasasini tark yetib, 14 yoshimda Shayxantavurdagi Abdulmalikboy dahasiga kelib, Mulla Umar Oxundan dars o‘qiy boshladim.Bu choo‘larda qish kunlarida o‘qib, yoz kunlarida mardikor ishlamoqqa majbur yedim”. Mustaqil mutoala bilan shug‘ullandi. Arab, fors, rus tillarini mukammal o‘rgandi. Orenburg, Qozon, Tiflisda chiqib turgan gazeta-jurnallarni kuzatib bordi. Qisqa muddat ichida u ma‘rifatparvar sifatida tanildi va o‘lkadagi ijtimoiy-madaniy harakchilikning faol namoyandalaridan biriga aylandi.

XX asr boshlarida Turkiston madaniy hayotida yuz bergan yeng muhim o‘zgarishlardan biri maktab-o‘quv ishlarida o‘zgarish bo‘ldi. Avloniy bu davr jadidchilik harakatiga qo‘shilib, Toshkentdagi jadidlarning faol ishtirokchilaridan biri bo‘lib tanildi. Avloniy 1904-yilda Mirbodda, so‘ngroq Degrizchilik mahallasida yangi usuldagi “Jadid maktab” ochib, dars berdi va darsliklar yozdi. 1909-yilda badavlat do‘stlarining ko‘magida maktab marif ishlarida yordam beruvchi “Jamiyati xayriya” ochib, bolalarga kiyim-bosh, oziq-ovqat, daftar, qalam bepul berilishini ta‘minladi. Avloniy ochgan maktabning shuhrati tobora ortib, o‘quvchilarning soni orta bordi.O‘zi bolalarga jo‘g‘rofiya, tarix, adabiyot, til, hisob, xandasa, hikmat (fizika) fanlaridan ma‘lumotlar berib bordi.

Avloniy “Adabiyot yoxud milliy she‘rlar” deb nomlangan to‘rt qismdan iborat bo‘lgan darsligida yoshlarni maorif-madaniyatga chorlaydi, yaramas xulq-odatlarni yesa tanqid qiladi.Munavvarqori, Muhammadjon Poshshoxo‘jaev, Tavallo, Rustambek Yusufbekov kabi taraqqiychilar bilan sheriklikda “Nashriyot” (1914), “Maktab” (1916) shirkatlarini tuzdi. “Taraqqiy”, “Shuhrat” (1907), “Osiyo” (1908), “Turon” (1917) gazetalarini chiqardi va uning birinchi muharrirlaridan bo‘ldi. Avloniy turli mas‘uliyatli lavozimlarda xizmat qildi. Qaysi vazifada ishlamasin ilm-ma‘rifat tarqatish , ta‘lim-tarbiya masalalari bilan shug‘ullanib keldi, bilim yurtida, oliy maktablarda o‘qituvchilik qildi. U 1923-24 yillarda yeski ahardagi xotin-qizlar va yerlar maorif bilim yurtlari mudiri, 1924-29- yillarda Toshkent harbiy maktabida o‘qituvchi,

1925-34 yillarda O‘rta Osiyo Kommunistik universiteti, O‘rta Osiyo Qishloq xo‘jaligi maktabida, O‘rta Osiyo Davlat universitetida (O‘z MU) dars beradi, professor sifatida kafedrani boshqaradi. Avloniy 1927 yilda “Mehnat Qahramoni” unvoni bilan taqdirlandi. 1930 yilda unga “O‘zbekiston xalq maorif zarbdori” faxriy unvoniga sazovor bo‘ldi. Shoir 1934 yilda vafot yetdi.

Avloniy Hijron, Nabil, Indamas, Shuhrat, Tangriquli, Surayyo, Shapaloq, Chol, Ab, Chegaboy, Abdulhaq taxalluslari bilan she‘r, hikoyalar va maqolalar yozdi. Shuni aytish kerakki, Avloniy ancha murakkab hayot va ijod yo‘lini bosib o‘tdi. U adabiyotga g‘oyaviy kurashlar g‘oyat keskinlashgan bir davrda kirib keldi. Hech ikkinlanmasdan ma‘rifat va taraqqiyot uchun kurashishni maslak yetib qabul qildi. Shoir she‘riyati bilan tanishar yekanmiz,qiziq bir holga duch kelamiz.Unda birorta ishqiy she‘r yo‘q. U ijtimoiy muammolarni, yel-yurt g‘amini muhimroq biladi. Xalq va Vatan baxtsizligi oldida har qanday muhabbatni rad yetadi.

Avloniy – darsliklar muallifi. Avloniy 1911-yilda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun “Birinchi muallim”-“Alifbo” darsligini yaratdi.Unda 32 harfni yolg‘iz yoziladigan shakllarini bir sahifada alifbo tartibida bergan. Shu sahifada Alifning so‘zning boshida, o‘rtasida va oxirida yozilishini ko‘rsatgan, so‘ng alifni barcha «bosh harflar”ga qo‘shib bo‘g‘inlar hosil qilgan. “Ikkinchi muallim”da bolalarning axloq, odobiga doir halollik va poklikka oid turli she‘rlar , hikoya masal va ertaklar jamlangan, rang-barang allegorik obrazlardan ustalik bilan foydalanilgan. Kitob “Maktab” she‘ri bilan boshlanadi. Unda kimki maktabga borsa, o‘qisa, savodxon bo‘lsa, juda ko‘p narsalarga yerishishi chiroyli ta‘riflanadi:

Maktab duru gavhar sochar,
Maktab sizga jannat ochar,
Maktab jaholatdan qochar,
G‘ayrat qilib o‘qing, o‘g‘lon !
Maktab sizni inson qilur,
Maktab hayo yehson qilur,
Maktab g‘ami vayron qilur,
G‘ayrat qilib o‘qing, o‘g‘lon !...

Avloniy barmoq vaznini adabiyotda keng qo‘llagan. Milliy kuylarga moslab she‘rlar yozgan va poeziyaning imkoniyatlarini boyitgan.

Avloniyning adabiyot oldidagi buyuk xizmatlaridan biri shu bo‘ldiki, u mardikorlik she‘riyati deb atalgan yangi adabiy hodisaning yaratuvchilaridan biri bo‘ldi.1916 yilgi mardikorlik voqealarini ifodalovchi “Bir mardikorning otasi o‘g‘liga aytgan so‘zlari”, “Onasining o‘g‘liga aytgan so‘zlari”,”Afsus” kabi she‘rlar yozdi. Ona yurtdan uzoq shimolning qrli-muzli yerlariga, front orqasidagi qora xizmatga olib ketilgan mardikorlarning xayrlashuv manzaralarini, haqsizlikni yoritadi. Bu she‘rlarning ohang va

uslubi xalq qo‘shiqlariga g‘oyat yaqin bo‘lib, ular xalqimizning milliy uyg‘onishida muhim o‘rin tutadi.

Axloqiy didaktik mavzudagi “Turkiy guliston yoxud axloq” darsligi (1913) XX asr boshlari ijtimoiy-pedagogik fikr taraqqiyotida alohida o‘rin egalladi. Unda tarbiya va axloq masalalari birichi marotaba XX asrning talab va yehtiyojlari nuqtai nazardan tahlil qilingan. Avloniy xulqlarni an‘anaviy ikkiga - yaxshi va yomonga ajratadi. “Yaxshi xulqlar” deb nolangan birinchi qismida u 31 fazilat, “yomon xulqlar” deb atalgan ikkinchi qismda yesa 20 illatga ta‘rif beriladi. Mulohazalarini Gippokrat, Platon, Aristtel,Sa‘diy Sheroziy, Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oladi. U yaxshi xulqlarga fatonat, nazofat, shijoat, intizom, vijdon, Vatan muhabbatini, uning uchun kurashmoqni yeng insoniy xulqlardan hisoblaydi. Vatan – bu har bir kishining tug‘ilib o‘sgan joyi, yurti, mamlakati. Uni qadrlamoq, sevmoq va yashartmoq kerak. “Tog‘laridan konlar chiqar, Yerlaridan donlar chiqar...Havosi o‘ta yoqimlik, Cho‘llari bor toshlik, qumlik, Toshkand yemas, toshqand yerur, Keksalari gulqand yerur”, deya bolalarga ona diyorga katta mehr uyg‘otishga yerishadi. “Yomon xulqlar”ga yesa g‘azab, shahvat, jaholat, safohat kabi illatlarni yomon xulqlarning belgilari deb biladi. Tilga, madaniyatga muhabbat yesa, har bir kishining o‘z xalqiga bo‘lgan muhabbatidir: “Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oyinai hayoti til va adabiyotidir. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdur”.

Darslikdagi har bir bo‘lim ta‘lim-tarbiyaning muhim bir masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning biri ikkinchisini to‘ldiradi, takmillashtiradi. Har bir bo‘limda kichik hajmli, ibratli hikoyalar keltiriladi, she‘riy parchalarda yoki hikmatli so‘zlarda «qissadan hissa” chiqariladi. Yozuvchi bu asarida xalq og‘zaki ijodidan keng foydalangan. Avloniyning “Bahor keldi”, “Bulbul”, “Bola ila gul”, “Yolg‘onchi chupon”, “Tulki ila qarg‘a” kabi juda ko‘p she‘rlari kichik maktab yoshidagi bolalarga bag‘ishlangan.”Maktab bolasi” she‘ri boshlang‘ich sinf o‘quvchilari hayotidan olib yozilgan. Asarda ishyoqmas, dangasa bolaning qalbida o‘qishga muhabbat uyg‘otishi umumiy yo‘sinda bayon qilingan:

Yo‘lga soldi til ila yo‘ldoshin,
Maktabga moyil ayladi boshin.
Soldi o‘rtog‘ining so‘zina quloq,
Bosdi ul ham o‘quv yo‘lina oyog‘.
Ikkisi birga bo‘ldilar mullo,
Chiqdi xatu savod ham imlo.

Shu tariqa shoir qissadan hissa chiqarar yekan “Yaxshi bilan yursang yetarsan murodga” g‘osini ilgari suradi. Avloniy o‘zbek teatrining asoschilaridan yedi. U 1913-yilda “Turkiston” teatr gruppasini tuzdi. “Turkiston” o‘zining qat‘iy nizomini ham ye‘lon qilgan yedi. Uning tashkilotchisi ham, g‘oyaviy –badiiy rahbari ham Avloniy yedi. Teatrda “Zaharli hayot” (Hamza), “Baxtsiz kuyov” (A.Qodiriy) kabi o‘zbek dramaturgiyasining yeng yaxshi namunalarini sahnalashtirdi va o‘zi rol ijro yetdi. Avloniy «Advokatlik osonmi?” (1914), “Pinak” (1915) komediyalari, 1914-17 yillarda yozgan “Biz va Siz”, ”Portugaliya inqilobi”, “Ikki sevgi” kabi fojeyaviy asarlari bilan o‘zbek dramaturgiyasining maydonga kelishi va teatrchilikning xalq orasiga tomir otishiga muhim hissa qo‘shdi. Avloniy XIX asr rus mumtoz adabiyoti vakillari I.A.Krilov va L.N.Tolstoyning asarlarini o‘zbek tiliga ugirdi,jumladan, I.A.Krilovning 21 ta masali, “Maymun ila ko‘zoynak”, ”G‘ayri jinsiy ittifoq”, “It ila yo‘lovchi”, “Qarg‘a ila Zag‘izg‘on”, “Tulki ila Qarg‘a” kabi asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, “Maktab gulistoni” kitobida bosilib chiqdi.

Hamzaning pedagoglik mahorati. Hamza Hakimzoda Niyoziy o‘zbek madaniyatining yeng yirik namoyadalaridan biri. U ma‘rifatparvar shoir, o‘qituvchi, jamoat arbobi, kompozitor, rejissyor, jurnalist sifatida ma‘lumdir. O‘zbek teatr san‘atini rivojida muhim hissa qo‘shgan buyuk dramaturg hamdir. Hamza 1989-yil 6-martda Qo‘qon shahrida tabib oilasida dunyoga keladi. Hamza o‘zining o‘qishga bo‘lgan zo‘r ishtiyoqi tufayli 12 yoshidayoq to‘la xat savodli bo‘lib yetishadi. 1906 yilda madrasaga kirib o‘qiy boshlaydi.Biroq madrasa ta‘limi Hamzani qanoatlantirmaydi. Shunga ko‘ra, u Lutfiy, Navoiy, Gulxaniy, Muqimiy, Furqat asarlarini mustaqil suratda mutoala qiladi, o‘rganadi.

Hamza 1911-yili Qo‘qonning Hojibek guzarida maktab ochib, yetim va kambag‘al bolalarni o‘qitadi, o‘quvchilar uchun “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi” o‘quv qo‘llanmalarini yaratadi. Hamzaning ijodi va o‘qituvchilik faoliyati o‘sha vaqtdagi hukumat amaldorlarini tashvishga soladi. Ular Hamza maktabini «Xavfli, bolalarni buzuvchi, din va ma‘rifatdan ozdiruvchi maktab” deb qoralab yoptirib, o‘zini ta‘qib yeta boshlaydilar.

Hamza 1913-yil fevralda chet yelga ketib, Afg‘oniston , Hindiston, Makka, Madina, Shom (Suriya), Bayrut, Istambul, Odessa shaharlarida bo‘ladi va 1914-yil boshlarida Qo‘qonga qaytadi. 1915-yilda Shohimardonda maktab ochadi, muallimlar tayyorlaydigan kurs tashkil yetadi, bu o‘quv muassasasi chinakam xalq maktablarining dastlabki namunasi yedi. Hamza bu maktabda yoshlarga dunyoviy fanlarni o‘qitadi, aqliy, axloqiy tarbiyaga alohida ahamiyat beradi. Hamza Hakimzoda 1915-1916-yillarda yaratgan “Oq gul”, “Qizil gul”, “Pushti gul”, “Sariq gul” kabi ashulalar to‘plamlarida, “Milliy roman yoxud yangi saodat” qissasi, “Zaharli hayot” kabi drama asarlarida mehnatkash xalqni o‘qishga, ilm o‘rganishga davat yetadi:

Kim bilurdi odamu olam nadur, hayvon nechuk?
Bo‘lmas yerdi agar insonda bu asor ilm.
Qaysi bir mavjuda boqsang bilmoqqa kayfiyatini,
Lozim o‘lg‘ay topmoqqa avval o‘qib axbor ilm.

Hamza “Sadoi Turkiston”gazetasida bosilgan bir she‘rida “bir iloj qilib kambag‘al bolalarni aqchasiz... tarbiya va o‘quvga boshlarini band qilmoq...”choralarini izlaydi, she‘r va maqollarida bolalarni o‘qishga chaqiradi. Bu g‘oyani Hamza “O‘qi” she‘rida bayon yetadi:

Ko‘zimizga ko‘rinib turgan hamma asboblar
Hech biri bo‘lmas yedi, gar bo‘lmasa, zinhor o‘quv.
Yer yuzida ko‘milib yotgan hama oltin, kumush
Yuzag‘a chiqdi barii, bis anga axbor, o‘quv...

Hamza darsliklarida axloqiy tarbiya mavzusi. Hamza yetim va kambag‘al bolalar uchun «Doril yetim”(“Yetimlar maktabi”) ni ochadi va o‘qituvchilik qiladi. Hamza birinchi sinf o‘quvchilari uchun «Yengil adabiyot”, 2-sinf uchun “Axloq hikoyalari” o‘qish kitoblarini tuzadi. 1919-yil boshlarida Hamza Qo‘qondagi 1-boqimsiz bolalar uyiga mudir qilib tayinlanadi. Bu yerda u uch sinfli maktab ochib, o‘zi o‘qituvchilik qiladi.1922-1924-yillarda shoir Qoraqalpog‘istonning Xujayli tumanidagi 1-bolalar uyi mudiri va o‘qituvchisi bo‘lib ishlaydi. 1925-yilda yesa u Farg‘onaning Avval qishlog‘ida o‘qituvchi qilib tayinlanadi va g‘oyat og‘ir sharoitda ishlaydi. Shoir 1928-1929-yillarda Shohimardonga borib o‘qituvchilik qiladi. Hamza xalqni o‘qitish, savodxon qilish uchun tinimsiz intiladi va kurashadi.Maktablar uchun darslik vaqo‘llanmalar yozishni o‘ziga maqsad qilib lgan bolalarning chin do‘sti Hamza bu yo‘lda ancha ishlarni

amalga oshiradi.Hamza yozgan darsliklar uning o‘sha davrdagi dunyoqarashi, badiiy ijodi, bolalar adabiyotini tushunishi haqida ko‘pgina ma‘lumot beradi. Bu g‘oya “Yengil adabiyot”da o‘z aksini topgan. “To‘g‘ri so‘zla” she‘rida har qanday holatda ham to‘g‘ri so‘z bo‘l, deb o‘z o‘quvchisini, yosh kitobxonni to‘g‘ri so‘z bo‘lisha undaydi:

To‘g‘ri so‘zla yey o‘g‘il,
Til bilmag‘il yolg‘onga hech.
Bir masal bor:tug‘ri so‘zlar
Boshini kechmas qilich

Hamzaning “Yengil adabiyot”ga kiritgan she‘rlaridagi bosh qahramonlarning belgili xususiyatlaridan biri – to‘g‘ri so‘zlik. Shoir bolalarni to‘g‘ri va rostgo‘y bo‘lishga, zararli va foydasiz ishlardan qochib ijobiy ishlar bilan shug‘ullanishga, kishilarning yaxshi sifatlaridan ibrat olishga chaqiradi.”To‘g‘ri so‘z bola”da bu fikr yanada jonli chiqqanini ko‘ramiz. Hamza bu she‘rida barcha narsa pul va boylik bilan o‘lchangan jamiyatda hamma narsadan ko‘ra haqiqatni ustun qo‘ygan ijobiy qahramon-bola obrazini yaratadi. Bir bola o‘qishdan qaytayotganida ikki kishi uning oldini to‘sib, biri dedi: «Tanga berurman senga, so‘zla bir ozgina yolg‘on manga”. Shunda bola unga juda donolik bilan javob beradi:

So‘zlang, aka, qomatingizga qarab,
Bu so‘zingiz aslida yolg‘on yerur.
Tangaga yolg‘onni kim olgan yerur.
Sizda ko‘p yerkan o‘zi yolg‘on aka,
Siz ani avval sotib aylang ado.
Qolsa kamib, yetmay agar sizdan,
O‘rtog‘ingizga kup yerur bizdanam
Ofarin aytdilar uning so‘ziga
Tangani xolis berubon o‘ziga.
Xissa : kimki to‘g‘ri so‘zni har qachon,
Teguzadur doimiy bo‘yla hison.

Hamza bu she‘rida bolalarni yoshligidanoq rostgo‘ylik ruhida tarbiyalash lozimligini uqtiradi,ularni yolg‘onchilik va aldamchilikdan uzoqroq yurishga chaqiradi. Shu kitobda «Qimorning boshi” degan bir she‘r bor. Bu asarda Hoshimjon degan bolaning ayanchli qismatidan to‘g‘ri xulosa chiqariga chaqiradi. Hoshimning “To‘ptosh”, “Juftmi-toq” degan o‘yinlarni o‘ynashdan asta-sekin qimor o‘ynashga o‘rganganini, bora-bora qimorga mukkasidan ketib, oxirida bor-yo‘g‘ini qimorga boy berganini, nihoyat uning go‘lohlikka tushib, xorlikda o‘lib ketganini ifoa yetadi.

“O‘qish kitobi” Hamzaning ikkinchi darsligidir. Unda to‘qqizta dars bo‘lib, ularning har biri axloqiy masalaga bag‘ishlangan. Shuningdek,bir necha she‘rlar o‘qi, ilm, maktab hamda kitbning ta‘rifiga bag‘ishlangan. Jumladan, «O‘qi” she‘rida shoir o‘qish natijasida kambag‘al-bechoralarning asoratdan qutilib, madaniyat va san‘atdan bahramand bo‘lishi turgan gap, deb uqtiradi.O‘qishning qadrini muallif o‘qituvchi – ustozlar tilidan shunday ta‘riflaydi:

Gar dilingda o‘ylagan orzuga yetmq istasang,
Qimmat umring qilmag‘il behudaga bekor, o‘qi!...
Ey o‘g‘il! Dunyoda bo‘lmoq istasang olijanob,
O‘qig‘il maktab kelib, zinhor o‘qi, ming bor o‘qi!

U «Maktab”she‘rida “O‘qub ilmu adab bo‘lg‘ay garang xushyor maktabdin” deb “Insonni inson qatoriga qo‘shish”, insonni kamolotga yetkazish va uni olijanob, fazilatli kishi qilib yetishtirishda maktabning roli katta ekanligini ko‘rsatadi. Shoir maktab

tarbiyasining ahamiyatini yuksak baholaydi, uni sirlarning xazinasi, odamni odam qiladigan joy deb ko‘rsatadi.

“Ilm ista” she‘rida yoshlarga murojaat qilib kishining ko‘zlagan murod-maqsadlariga yerishishida ilm olishning ahamiyati katta ekanligini aytadi, yoshlarni ilm olishga , dunyo sirlarini o‘rganishga da‘vat qiladi. U ilmli kishi bilan ilmsiz kishini bir-biriga solishtirib ilmli kishini porloq oftobga, ilmsiz kishini qorong‘u kechaga uxshatadi:

...Har murodu maqsadingga yetmoq istarsan murod,
Ko‘z ochib bedor bo‘l:darkor ilm,darkor ilm!
Ul haqiqat oyiniga sayqal istarsan Nihon,
Ilm ista,ilm ista,istag‘il zinhor ilm!

Hamza 1925-yilda “Ikkinchi sinf uchun qiroat kitobi” darsligini yozdi. Bu kitob g‘oyaviy mavzui jihatidan A.Navoiyning “Hayratul-abror” asariga yaqin turadi. Kitob bolalar ruhiga mos qilib, nasriy yo‘l bilan yozilgan. Undagi birinchi asar – “Ilm” da ma‘rifatlilik, ilmli bo‘lish shunday sharhlanadi: “Ey bolalar, har bir inson bolasiga dunyoda yeng avval zarur va lozim bo‘lgan narsa olamda ilmlik o‘lmoqdir. Ilmsiz kishini butun inson demak ayni xatdir...”. Kitobdagi barcha darslar anna shunday tafsilot bilan boshlanadi, so‘ng bir bayt she‘r keltiriladi:

Ilmsiz har kishi uchsa havoga
Ko‘ngil berma aningdek xudnamoga.

Shoir “Milliy ashulalar”, “Oq gul”, “Qizil gul”, “Yashil gul” va boshqa to‘plamlaridagi qo‘shiqlari bilan xalq ommasini madaniyatli bo‘lishga undaydi, zulmdan shikoyat qiladi, ijtimoiy faollikka chaqiradi.

Mashhur tarbiyachi, atoqli shoir, dramaturg va bastakor Hamza Hakimzoda Niyoziy mehnatkash xalqni, shuningdek, yosh avlodni o‘qitish,ma‘rifatli qilish, tarbiyalash ishiga o‘zining butun iqtidorini, umrini bag‘ishladi.

NAZORAT SAVOLLAR:

1.Avloniy asarlarida ilm- ma’rifat talqini.
2.Avloniy – darsliklar muallifi.
3. Hamzaning “Yengil adabiyot”ga kiritgan she‘rlari haqida.

Adabiyotlar.

1.Avloniy Abdulla .Tanlangan asarlar.2 jildlik,1- jild. She‘rlar, ibratlar.T, 1997
2. Avloniy Abdulla.Guliston yoxud axloq.T.1967
3. Avloniy Abdulla. Toshkent tongi. T.1970.
4.Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. Fan va turmush.1984 №11

MAVZU BO’YICHA TEST TOPSHIRIQLARI:

1. A.Avloniyning «Adabiyot yoxud milliy she’rlar» darslik kitobi necha qismdan iborat.
A) 5
B) 3
C) 4
D) 4

2. Ushbu satrlar Avloniyning qaysi asaridan olingan. « Bahosi arzonning so‘zi qimmat bulur»
A) «Qanoat »
B) «Ittifoq »
C) «It ila gado»

D) «To‘grilik »
3.Abdulla Avloniy qaysi gazetaga “ Yashasin xalq jumhuriyati” shiorini tanlagan edi?
A) Shuhrat B) Sadoyi Turkiston C) Xurshid D) Turon
4. Abdulla Avloniy 1918 yilda qaysi gazetada muharrirlik qilgan edi?
A) Shuhrat B) Ishtirokiyun C) Turon D) Sadoyi Turkiston
5. Haqiqat va hurlikni e’tiqodiga aylantirgan ijodkor kim/
A) Hamza B) U.Nosir C) Mirtemir D) Cho’lpon
6. Hamzaning Devoni Nihoniy to’plamiga qaysi davrda yozgan she’rlari kiritilgan va unda jami nechta she’r bor ?
A) 1905 yildan boshlab 214 ta B) 1915 -20 yillar 214 ta C) 20 asrning 20 yillari 215 ta D) barcha davrda 215 ta

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishda quyidagi shakllar tavsiya qilinadi:

- dasturda tavsiya qilingan darslik va qo‘llanmalardan foydalangan holda ona tili fanining bo‘limlarini o‘rganish;
- o‘zlari mustaqil izlab topgan qo‘shimcha adabiyotlardan foydalangan holda ona tili fanining bo‘limlarini o‘rganish;
- badiiy adabiyotlarda muayyan mavzularga doir kartochkalar tayyorlash;
- chuqur o‘rganilishi talab qilinadigan mavzular yuzasidan jadvallar va slaydlar tayyorlash;
- muayyan mavzular bo‘yicha mustaqil tarzda mashqlar tuzish ;
- muayyan mavzular bo‘yicha mustaqil tarzda lu g‘atlar tuzish ;

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Til oilalari.
2. O‘zbek adabiy tili va sheva. Shevalarning o‘ziga xos leksik-morfologik va sintaktik xususiyatlari
3. Nutqning fonetik bo‘linishi.
4. Nutq tovushlarining o‘zgarishlari va ularning imloga ta’siri.
5. Orfoepik me’yorlar. Unlilar orfoepiyasi. Undoshlar orfoepiyasi grammatik shakllar orfoepiyasi. Orfoepik me’yor va imlo.
6. O‘zbek tilining imlo qoidalari.
7. Ko‘p ma’noli so‘zlarning kelib chiqishi
8. Ko‘p ma’noli so‘zarning badiiy adabiyotlarda qo‘llanishi.
9. Sinonim so‘zlar va ularning qo‘llanishi.
10. Antonim so‘zlar va ularning qo‘llanishi
11. Omonim so‘zlar va ularning qo‘llanishi.
12. O‘zbek tilining nofaol leksikasi.
13. Frazeologiya. Iboralarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari.
14. Lug‘atlarga sharh.
15. Morfemika.
16. So‘z yasalishi.
17. Grammatika. So‘zning grammatik ma’nosi va grammatik shakli.
18. So‘z turkumlari, ularning tasnifi.
19. Otning ma’no turlari.
20. Otlarda son kategoriyasi.
21. Otlarda kelishik kategoriyasi.

22. Otlarning yasalishi.
23. Sifat, uning grammatik xususiyatlari.
24. Sifatlarda daraja.
25. Sifatlarning yasalishi.
26. Sifatlarda modal shakl.
27. Son, uning ma’no turlari.
28. Olmosh, uning turlari.
29. Fe’l, uning grammatik xususiyatlari.
30. Fe’l nisbatlari.
31. Fe’lning vazifadosh shakllari.
32. Fe’l mayllari.
33. Fe’llarda shaxs-son kategoriyasi.
34. Fe’l zamonlari.
35. Ko‘makchi fe’llar, to‘liqsiz fe’l haqidagi
36. Fe’llarning yasalishi.
37. Ravish, uning ma’no turlari.
38. Yordamchi so‘zlar, ularning turlari.
39. Modal so‘zlar.
40. Undov so‘zlar.
41. Taqlid so‘zlar.
42. Sintaksis. So‘zlarning o‘zaro bog‘lanishi.
43. Gap, uning xususiyatlari.
44. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari.
45. Sodda gap, uning turlari.
46. Bosh bo‘laklar. Ega va kesim, ularning ifodalanishi.
47. Ikkinchi darajali bo‘laklar, turlari, ifodalanishi.
48. Gapning uyushiq bo‘laklari.
49. Gapning ajratilgan bo‘laklari.
50. Gap bo‘laklari sanalmaydigan birliklar.
51. Bir bosh bo‘lakli va ikki bosh bo‘lakli gaplar, ularning turlari
52. To‘liq va to‘liqsiz gaplar, ularning turlari.
53. Gaplarning tuzilish jihatdan turlari , qo‘shma gap, uning turlari.
54. Bo g‘langan qo‘shma gaplar, ularning turlari
55. Ergashgan (ergash gapli) qo‘shma gap, ergash gaplarning turlari.
56. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar va ularning turlari.
57. Murakkab qo‘shma gaplar va ularning turlari.
58. O‘zga gap, uning turlari.
59. Punktuatsiya (tinish belgilari).
60. Uslubiyat, nutq uslublari.

ONA TILI FANIDAN ORALIQ VA YAKUNIY NAZORAT SAVOLNOMALARI. MORFOLOGIYA BO‘LIMI YUZASIDAN NAZORAT SAVOLNOMALARI

1. Grammatik forma(shakl)ning nimaligini, uning qanday ko‘rinishlari borligini izohlagn.
2.Otlarda egalik kategoriyasi haqida ma’lumot bering.
3. Otlarning tuzilish jihatdan turlarini sanang. Ularning o‘zaro farqini tushuntiring.
4. Sifat haqida umumiy ma’lumot bering.
5. Sonning ma’no turlarini sanang. Miqdor va dona son haqidagi fikrlaringizni misollar bilan asoslab bering.
6. Olmosh haqida umumiy ma’lumot bering.
7. Bo‘lishsizlik olmoshlari, uning o‘ziga xos xususiyatlarini izohlang.
8. Sifatlarning otlashuvi haqida ma’lumot bering.
9. O‘zak morfema va affiks morfemalarning farqini bayon eting.
10. Kompozitsiya usuli bilan so‘z yasalishini izohlang.
11. So‘zlarni turkumlarga ajratish tamoyillarini sanang, leksik-semantik, morfologik va sintaktik tamoyillar haqida ma’lumot bering.
12. Otlarda kelishik kategoriyasi to‘g‘risidagi fikrlaringizni bayon eting.
13. Sifatlarni ozaytirma va kuchaytirma sifat, oddiy, qiyosiy va orttirma darajalarga ajratilishiga nisbatan qarashlaringizni bayon eting.
14. Tartib son haqida fikr yuriting.
15. Olmoshning ma’no turlarini sanang. Kishilik va o‘zlik olmoshlarining o‘ziga zos xususiyatlarini tushuntiring.
16. Gumon olmoshlari va uning o‘ziga xos xususiyatlarini bayon qiling.
17. Otlarga egalik qo‘shimchalari qo‘shilganda qanday tovush o‘zgarishlari yuz berishini tushuntiring.
18. Otlarda modal forma yasalishi haqida ma’lumot bering.
19. Affiksal morfemalarning turlarini sanang, ularning farqini tushuntiring.
20. Abbrevatsiya usuli bilan so‘z yasalishi haqida ma’lumot bering.
21. O‘zbek tilidagi so‘z turkumlarini sanang. Ularning o‘zaro qanday farqlanishini asoslang.
22. Affiksatsiya usuli bilan otlar yasalishini izohlang.
23. Sifatlarning yasalish usullarini sanang. Kompozitsiya (sintaktik) usul bilan sifat yasalishi haqida ma’lumot bering.
24. Chama, jamlovchi va taqsim sonlar haqida fikr yuriting.
25. Ko‘rsatish olmoshlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini bayon eting.
26. Sonning gapdagi sintaktik vazifasi haqidagi fikrlaringizni ayting va misollar bilan asoslang.
27. Faqat birlik shaklda qo‘llanadigan otlarni sanang va u haqda ma’lumot bering.
28. Otlarda kelishik ma’nolari, shakli va vazifasi haqida fikr yuriting.
29. Kategorial va nokategorial shakl yasovchi affikslar haqida ma’lumot bering.
30. Grammatika va morfologiya bo‘limlarda o‘rganiladigan bilimlar haqida fikr yuriting.
31. Otni ta’riflang, otning ma’no turlarini sanab o‘ting.
32. Kompozitsiya yoki sintaktik usul bilan otlar yasalishini tushuntiring.
33. Sifatlarning affiksatsiya usuli bilan yasalishi haqida tushunchalaringizni bayon eting.
34. Sonlarda numerativ (hisob) so‘zlarning ishlatilishi haqida fikr yuriting.
35. So‘roq va gumon olmoshlarining o‘ziga xos xususiyatlarini bayon eting.
36. Sifatning gapdagi sintaktik vazifalarini sanang, misollar orqali izohlang.

37. Turdosh otlarning turlari haqida ma’lumot bering.
38. Sifatlarning tuzilishiga ko‘ra turlarini tushuntiring.
39. Affikslarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari, ularning tuzilishiga ko‘ra turlari haqida fikrlaringizni bayon eting.
40. Grammatik ma’noni qanday tushunishingizni izohlang.
41. Otlardagi qanday grammatik kategoriyalar mavjudligini sanang. Son kategoriyasi haqida fikr yuriting.
42. Abbreviatsiya usuli bilan otlar yasalishini misollar bilan asoslab bering.
43. Son so‘z turkumi haqida umumiy ma’lumot bering.
44. Sonning tuzilish jihatdan turlari to‘g‘risidagi fikrlaringizni bayon qiling.
45. Belgilash olmoshlarining o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi fikrlaringizni bayon eting.
46. Otning gapdagi sintaktik vazifalari haqida fikr yuriting. Misollar bilan asoslang.
47. Asliy va nisbiy sifatlar to‘g‘risida fikr yuriting.
48. ***Bir*** so‘zining o‘ziga xos xususiyatlarini izohlang.
49. Fe’l so‘z turkumi haqida umumiy ma’lumot bering.
50. Bo‘lishli va bo‘lishsiz fe’llar, bo‘lishsiz fe’llarning qanday shakllanishi haqida fikr yuriting.
51. Fe’llarda mayl kategoriyasi haqida so‘zlang. Ijro, buyruq-itsak va shart mayllarining farqlanishini izohlab bering.
52. Ravishdosh, uning yasalishini izohlang.
53. Sabab, maqsad, miqdor-daraja ravishlari haqidagi bilimlaringizni bayon qilading.
54. Yordamchi so‘zlar haqida fikr yuriting. Ularning mustaqil so‘zlardan farqini tushuntiring.
55. Ta’kid hamda so‘roq – taajjub yuklamalari xususida ma’lumot bering.
56. Taqlid so‘zlar va ularning grammatik xususiyatlar haqida fikr yuriting.
57. O‘timli va o‘timsiz fe’llar haqida ma’lumot bering.
58. Modal so‘zlar va ularning o‘ziga xos grammatik xususiyatlarini bayon eting.
59. Fe’l nisbatlarining qanday ko‘rinishlari borligini sanang, o‘zlik nisbati haqida ma’lumot bering.
60. Fe’llarning tuslanishi, tuslovchi qo‘shimchalar to‘g‘risida fikr yuriting.
61. Fe’llarning yasalish usullarini bayon qiling. Affiksatsiya usuli bilan fe’llar yasalishini izohlab bering.
62. Fe’llarda modal ma’no ifodalanishini tushuntiring.
63. Ravishlarning yasalishi haqidagi fikrlaringizni bayon qiling. Morfologik usul bilan ravish yasalishini tushuntiring.
64. Ko‘makchi va uning turlari to‘g‘risida ma’lumot bering.
65. Ayiruv va chegaralov yuklamalari xususida ma’lumot bering.
66. Fe’llarda o‘timli va o‘timsizlikning qanday usullar bilan ifodalanishini tushuntiring.
67. Ergashtiruvchi bog‘lovchilarni sanang. Aniqlov, sabab, shart bog‘lovchilari haqida ma’lumot bering.
68. Ravishlarda daraja to‘g‘risida fikr yuriting.
69. Fe’lning majhul nisbati haqida ma’lumot bering.
70. Fe’l zamonlarini sanang. O‘tgan zamon fe’llarining yasalishi va tuslanishi to‘g‘risida fikr yuriting.
71. Kompozitsiya usuli bilan fe’l yasalishini izohlab bering.
72. Fe’lning modal ma’no ifodalovchi shakllari haqida ma’lumot bering.
73. Ravishning fe’ldagi ravishdosh shakli bilan o‘xshash va farqli tomonlarini tushuntiring.

74. Bog‘lovchi va uning turlari haqida ma’lumot bering. Teng bog‘lovchilar haqida tushuncha bering.
75. Modal so‘zlar xususida fikr yuriting. Ularning yuklama bilan o‘xshash va farqli jihatlarini izohlang.
76. Fe’lda bo‘lishsizlik ma’nosining yasalishini izohlang.
77. Aniqlov yuklamalari haqidagi fikrlaringizni bayon eting.
78. Taqlid so‘zlarning qanday turlari mavjudligini tushuntiring.
79. Fe’lning aniq va birgalik nisbati haqida ma’lumot bering.
80. Hozirgi zamon fe’llarining yasalishi va tuslanishi to‘g‘risida fikr yuriting.
81. Fe’lning vazifadosh shakllarini sanang. Harakat nomi hamda uning yasalishini izohlang.
82. Ravish haqida umumiy ma’lumot bering.
83. Ravishlarning tuzilish jihatdan turlarini izohlang.
84. Bog‘lovchilarning qo‘llanishiga ko‘ra turlarini izoahlang. Chog‘ishtiruv, to‘siqsiz va shart bog‘lovchilar haqida ma’lumot bering.
85. Gumon va inkor yuklamalari xususida fikr yuriting.
86. To‘liqsiz va ko‘makchi fe’llarning xususiyatlarini izohlang.
87. Ergashtiruvchi bog‘lovchilar haqidagi tushunchalaringizni bayon eting.
88. Undovlarning ma’no jihatdan turlari haqida tushuntirish bering.
89. Fe’lning orttirma nisbati haqida ma’lumot bering.
90. Kelasi zamon fe’llarining yasalishi va tuslanishi haqida fikr yuriting.
91. Sifatdosh va uning yasalishini izohlagn.
92. Ravishning ma’no jihatdan turlarini sanang. Holat, o‘rin, payt ravishlari to‘g‘risida ma’lumot bering.
93. Ravishlarda modal ma’noning qaysi usullar bilan hosil qilinishini izohlang.
94. Yuklama, so‘z va affiks yuklamalar xususida fikrlaringizni bayon eting.
95. Undovlar va ularning grammatik xususiyatlari haqida fikr yuriting.
96. Kompozitsiya (sintaktik) usul bilan ravish yasalishini tushuntiring.
97. Ko‘makchi otlar to‘g‘risidagi fikrlaringizni bayon eting.
98. Modal so‘zlarning ma’no jihatdan turlarini sanang va izohlang.

NAZORAT UCHUN TEST TOPSHIRIQLARI (MORFOLOGIYA BO‘LIMI BO‘YICHA)

1. Quyida ko‘rsatilgan qaysi so‘z turkumlariga oid so‘zlar juft holda yoki takrorlanib qo‘llanishi mumkin? *1) olmosh; 2) son; 3) fe’l; 4) ravish; 5) undov so‘zlar; 6) taqlid so‘zlar.*

2, 3, 4, 6
2, 3, 4, 5, 6
3, 6
**1, 2, 3, 4, 5, 6.*

2. *Gar shul eshitganim bo‘lmasa ro‘yo...* Ushbu misradagi <u>*gar*</u> so‘zi qaysi so‘z turkumiga xos?

yuklama
** bog‘lovchi*
ko‘makchi
gar so‘z emas, qo‘shimcha

3. Modal so‘zlarning morfologik xususiyatlari qaysi qatorda ko‘rsatilgan?

kirish so‘z vazifasida keladi
modal ma’nolarni anglatish uchun xizmat qiladi
** morfologik jihatdan o‘zgarmaydi*
A, B

4. <u>*-lan*</u> qo‘shimchasi bildan qaysi so‘z turkumlaridan so‘z yasash mumkin?

ot, sifat, son
sifat, ot, ravish

ot, sifat, fe’l
** ot, sifat, son, ravish*

5. *U Salimning yuziga bir tikildi-yu, indamasdan ketmon chopishda davom etdi.* Ushbu gapdagi *indamasdan* so‘zi qaysi so‘z turkumiga mansub?
fe’ldan -mas qo‘shimchasi yordamida ravish yasalgan
sifatdan chiqish kelishigi yordamida ravish yasalgan
fe’ldan sifat yasalgan
** sifatdoshdan ravish yasalgan*

6. Chiqish kelishigidagi so‘zlar bilan qo‘llanadigan ko‘makchini toping.
**o‘zga*
chamasi
uzra
bilan

7. *Bilasanmi, ertagayoq bu gap faqat uning qulog‘iga emaC, hatto ota-onasigacha yetib borishi mumkin-ku.* Ushbu gapda qo‘llangan yuklamalar sonini belgilang.
** 5 ta*
4 ta
3 ta
2 ta

8. O‘zbek tilida taqlid so‘zlar asosan qanday fe’llar bilan birikadi?
to‘liqsiz fe’llar
** ko‘makchi fe’llar*
mustaqil fe’llar
A va B

9. O‘zaro sinonim bo‘lgan modal so‘zlar qatnashgan gapni aniqlang.
Chamasi, chindan ham yangi asar ko‘rish boshlangan edi.
O‘shanda bahor fasli edi, shekilli.
Ehtimol, xatosini tushungandir
**B, C, D.*

10. So‘roq yuklamasi qaysi gap tarkibida qo‘llangan?
Boshqalarning ishiga aloqam yo‘qmi?
Oppoq palatkalarda kimlar yashaydi?
So‘zingiz so‘z-a?
**A, C.*

11. Qismlari turdosh otlardan iborat bo‘lgan qo‘shma otlar qatorini toping.
tovoq-qoshiq, ko‘rpa-yostiq, o‘g‘il-qiz
** laylakqor, oybolta, o‘qilon*
kungaboqar, beshiktervatar, molboqar
achchiqtosh, sassiq-popishak, qoraqurt

12. -lik qo‘shimchasi bilan qaysi so‘z turkumlaridan ot yasash mumkin?
**ot, sifat, olmosh, ravish, son*
ot, sifat, olmosh, ravish, son, fe’l
ot, sifat, ravish, fe’l
ot va sifat

13. Quyidagi grammatik ma’nolardan qaysi biri ot turkumi uchun asosiy va doimiydir?
egalik va kelishik
son
kelishik
** son, kelishik.*

14. Qaysi gapda tushum kelishigidagi ot belgisiz qo‘llangan?
**Salim bosh chayqab, qotib-qotib kuldi.*
Har fasl o‘z ishin bilsin.
Hech qachon o‘zing qilishing mumkin bo‘lgan ishni birovga yuklab, uni tashvishga qo‘yma.
Cho‘l qovunlari shirin bo‘ladi.

15. Quyidagi so‘zlarning qay biri olmosh turkumiga mansub?
jami
B) har
hech
**berilganlarning barchasi olmosh turkumiga mansub so‘zlardir.*

16. Predmetning o‘rin yoki vaqtga ko‘ra belgisini bildiruvchi sifat qaysi gapda mavjud?
Uydagi qiziqarli kitoblarni olib ketdi.
Bog‘dagi gullardan birini saraladi.
Qishki kiyimlarni yig‘ishtirib qo‘ydim.
** A, B, C.*

17. *Tinchliksevar* qo‘shma so‘zi tarkibidagi yasama so‘zlarning turi va sonini aniqlang.
3 ta yasama sifat; 1 ta yasama ot
** 2 ta yasama sifat; 1 ta yasama ot; 1 ta yasama fe’l*

2 ta yasama sifat; 1 ta yasama ot
1 ta yasama ot; 1 ta yasama sifat

18. Holat ma'nosini bildiruvchi sifat yasovchi qo'shimcha qaysi qatorda ko'rsatilgan?

–li
–gi
–simon
** –in*

19. Qaysi qatordagi fe'llarda ikkitadan nisbat qo'shimchasi bor?

qurdirdi, yozdirildi, keltirdi
** sevintirdi, yozdirildi, so'rattirdi*
surishtirdi, o'tkazdi, o'zgartirdi
yozdirildi, urindi, o'zgartirdi

20. *Odamga alam qilarkan...* Ushbu gapda <u>*odamga*</u> so'zi qaysi so'z turkumiga ma'no jihatidan yaqin?

songa
sifatga
**olmoshga*
otga

21. Shart va to'siqsizlik bog'lovchilari berilgan qatorni aniqlang.

garchand, negaki, -ki (-kim), shuning uchun.
**agar, basharti, garchi, mabodo.*
chunki, shu sababli, toki, shu tufayli.
mabodo, garchand, agarda, negaki.

22. *Har bir ulug' ishning zamini - mehnat,*
Mehnat-la yaralur shoh asarlar ham (R.B)).
Ushbu gapda yuklamaning qaysi ma'no turi ishtirok etgan?

** Kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi.*
Gumon yuklamasi.
So'roq va taajjub yuklamasi.
Aniqlov yuklamasi.

23. Qaysi qatordagi gapda otlashgan undov ishtirok etgan?

E, e, bu voqeani Toshkan aholi orasidan eshitmagan qolmadi (O)
Va beizn qilgan ishimdan Pushaymonim va ohim yo'qdir (H.O.).
**Bular orasida arava gildiraklarining taqir-tuquri eshitilardi (H.G'.).*
Xalqning dardini eshitay deb kelibsiz-da)

24. His-hayajon undovlaridan tuzilgan qatorni aniqlang.

** ie, hay-hay, eh, barakalla, salom.*
gah, chuh, allo, pisht, drr.
voy, o'h-ho', tak, xix, chuh.
ofarin, xayr, o, kisht.

25. *Aftidan, xonada odam ko'pga o'xshaydi (M.Q.).* Ushbu gapdagi modal so'zning ma'no turini aniqlang.

ishonch, aniqlik ma'nosi.
** gumon, chama ma'nosi.*
tasdiq, ma'qullash ma'nosi.
eslatish ma'nosi.

26. Qaysi qatordagi gapda taql'id so'z ishtirok etgan?

Chamamda, yo'lning tanobi ham tortildi, shekilli (O).
**Ariqdan mayin ohang bilan suv oqar, g'ir-g'ir shamol esar edi. (O)*
Xullas, vodiyda ham, gullar bog'ida ham avvalgi hayotdan asar qolmagan edi. (Sh.R.)
B va C javoblar to'g'ri.

27. Qaysi javobda gumon olmoshlariga mansub so'zlar berilgan?

bu, men, hech kim, o'zi.
** allaqaysi, bir narsa, kimdir, qaysi bir.*
har kim, ba'zi bir, bir necha, allanima
nimadir, allaqanday, bir nima, har narsa

28. Quyidagi morfologik tahlil ajratib ko'rsatilgan son turkumidagi so'zlardan qaysi biriga tegishli. – *Son, butun son; sanoq sonning chama son turi, numerativ (hisob) so'z bilan qo'llangan; otga bog'langan; qo'shma son, gapda sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida qo'llangan.*

To'rt yonida to'rtta oy Boshimga berar chiroy (Topishmoq)
Birov tosh, birov gul, o'z joyida ikkovi ham yaxshi (Fitrat).
** Otabek Qutidor tomonidan quvlanganidan keyin, Marg'ilonga yetti-sakkiz marta kelibdi (A.Qod.).*
Birniki mingga, mingniki tumanga (Maqol).

29. Qaysi qatordagi gapda fe'lning harakat nomi shakli qatnashgan?
Esayotgan mayin shabada Komiljonga juda yoqimli tuyuldi (I.R.).
** Laylakning ketishini emas, kelishini kutishadi (N.Safarov).*
Vohid ho'l sochlarini taray-taray bog'ga sho'ng'idi (O.Yo.).
Bolalar o'tloqqa chiqib olishdi (H.N.).

30. Quyidagi so'z yasovchi qo'shimchalar qaysi so'z turkumiga xos so'z yasovchi qo'shimchalar sanaladi: -gar, -dor, -k, -q, -ik, -uq, -gi, -ki.
ot yasovchi qo'shimchalar.
ot va fe'l yasovchi qo'shimchalar.
**ot va sifat yasovchi qo'shimchalar.*
sifat yasovchi qo'shimchalar.

31. Ko'makchi vazifasida qo'llangan so'zlar qaysi javobda berilgan?
borib, kela-kela, yarashdi.
**tortib, ko'ra, qaraganda, yarasha.*
ortib, so'ra, taraganda.
tashlab, ura-ura, tirishib.

32. Qaysi javobda ko'makchilar chiqish kelishigidagi so'zlarga bog'lana oladi?
tashlab, ortib, tashqi, teri.
** boshlab, tortib, beri, tashqari.*
uydan, kelgandan, sendan.
sababli, orqadan, uzra.

33. Teng bog'lovchilar qaysi javobda berilgan?
qancha, birinchi, cho'yandan.
nega, nechanchi, negaki, chunon.
go'yo, agarki, chunki, hamdard.
** balki, hamda, yoxud, dam.*

34. Takroriy bog'lovchilar qaysi javobda berilgan?
go'yoki, va, chunonchi, shuniki.
xohlash, ba'zi, toki, birdan.
**xoh, ba'zan, yoki, yohud.*
ba'zisi, ammo, balki, hamda.

35. Qaysi javobda butun gapga qo'shimcha ma'no beradigan yuklama qatnashgan?
Shuni so'ragani keldingmi?
Peshonang g'urra bo'libdi-ku!
Xo'sh, ayt-chi, qancha termoqchisan?
**Axir o'zbekning tiliday qudratli va nafis til dunyoda kamdir.*

36. Qaysi javobda undov so'zlar berilgan?
kitobni o'qi, javob bergin.
**salom, kisht, tak-tak.*
salomlashgan, pishilladi, ayqirdi.
xayrlashdi, taqilladi, mana bu.

37. Egalik qo'shimchalarini olgan taqlid so'zlar qaysi javobda berilgan?
Talonni uning orqasiga qo'yib shirq etkazdi.
Iliq ko'z yoshlari oppoq soqoliga duv to'kildi.
Tugunchani yecha turib, yuragim shuv etib ketdi.
** Latofatning yurak dukuri ham picha tinchidi.*

38. *Manmanlik qilib netarsan, obro'yingdan ketarsan.* Ushbu maqolda qo'llangan yasama so'zlarga qaysi qatorda to'g'ri izoh berilgan?
otdan qo'shimcha orqali ot yasalgan
ot hamda fe'ldan yasama so'zlar yasalgan
olmoshdan ot va fe'ldan fe'l yasalgan
** olmoshdan ot yasalgan*

39. Qaysi javobda so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar berilgan?
** ko'rsin, ko'zini, uyida, to'yiga*
xonadagi, bo'yoqchi, sovuq, turli.
chiqib, kelgan, bo'lajak, qurilish.
teruvchi, ikkinchi, beshovlon, to'rtta.

40. Qaysi javobdagi otlarga kelishik qo'shimchalari qo'shilgan?
yomonni, og'ziga, kamida, ko'piga.
meni, shuladan, unga.
o'zimga, terishning, urmoqqa.
** chiroydan, yaxshtlikni, go'zallikka.*

41. O'tgan zamon davom fe'llari qaysi javobda berilgan?
Uni boshqasi ilib ketdi.
Mashina mayda-chuyda ko'ch-ko'ronga to'lib ketgan.
Bo'taboy Samandarovni tutib shivirladi.
**Beloborodov boshini osiltirib, og'ir hansirab o'tirardi.*

42. O‘zlik nisbatidagi fe’llar qaysi javobda berilgan?

To‘xtating, - dedi Mansurov.

**Beloborodov bir xo‘rsinib qo‘ydi.*

Gulistonga bordilar.

Brigadalar dalaga namoyishkorona chiqib ketishdi.

43. Sifatdosh qaysi javobda berilgan?

Boshqa mayda ishlar ham bor.

Bir necha minutdan keyin otboqar chiqib ketdi.

**Kirganlar bir-biriga qarab qolishdi.*

Sen bu yog‘idan tashvish qilma.

44. Fe’l mayllarining ta’rifi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

Fe’l vositasida ish-harakatning bajarilish-bajarilmasligi fe’l mayllari deyiladi.

Fe’l orqali shaxslarga munosabat ifodalanishi fe’l mayillari deyiladi.

Fe’l vositasida bajaruvchiga munosabatning ifodalanishi fe’l mayillari deyiladi.

**Fe’l orqali so‘zlovchining ish-harakatiga munosabatning ifodalanishi fe’l mayllari deyiladi.*

45. Maqsad ravishi qaysi javobda berilgan?

Bu bog‘larga meva tergani kelar edik.

Bu cho‘lning insonga taslim bo‘lgani.

Nega, nima uchun o‘qimayotibsiz deyishi mumkin.

**Nochor qolgan bosh agronom atayin chertdi.*

46. O‘rin, yo‘nalishni birliruvchi ko‘makchilar qaysi javobda berilgan?

Shu to‘g‘rida derektsiyaga yozma yozib bering.

Bo‘taboyning yordami bilan o‘ziga uy qilib oldi.

Mana o‘shandan buyon bir yigitning umrichalik vaqt o‘tdi.

**Rasul tiramvay bekatiga tomon shoshildi.*

47. Ayiruv bog‘lovchilari qaysi javobda berilgan?

Bu yo‘ldi Yaxshilar ham uchraydi, yomonlar ham.

Na ko‘kda bulut, na bir martagina yomg‘ir.

Kuch ko‘p ketadi, lekin bundan serdaromadi yo‘q.

**Yo ikkisi bittami?*

48. Yuklamaning ta’rifi qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

Mustaqil so‘zlarni bog‘laydigan so‘zlarga yuklama deyiladi.

So‘zlar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydigan so‘zlarga yuklama deyiladi.

**Mustaqil so‘z va gaplarga qo‘shimcha ma’no beradigan yordamchilarga yuklamalar deyiladi.*

D) So‘zlovchining o‘z fikriga munosabatini ifodalaydigan so‘zlar yuklamalar deyiladi.

49. Undovlarning ta’rifi qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

His-hayajonni ifodalaydigan gaplarga undovlar deyiladi.

Undashni ifodalaydigan gaplarga undovlar deyiladi.

Buyruqni ifodalaydigan gaplarga undovlar deyiladi.

** His-hayajon, tuyg‘uni, haydash-chaqiriqni ifodalaydigan so‘zlarga undovlar deyiladi.*

50. Qaysi javobda so‘z o‘zgartuvchi qo‘shimchalar berilgan?

temirchi, juvoldiz, yulduz.

uslubiyat, timsohcha, urug‘lar.

** toqqa, sening, bordik.*

sabrli, sharsimon, yashirin.

51. Qaysi javobda kelishik qo‘shimchalarining imlosi to‘g‘ri emas?

unga, birovning, azobdan, shuning.

tog‘ga, Toshkentdan, mening, bekatga

xalqqa, to‘kkan, chiqquncha, tekkani.

** pedagokga, barkga, xirurkga, mushukga.*

52. Qaysi javobda juft otlar berilgan?

**Anvar bu safar ko‘rinmadi, oyoq-qo‘llari muzlamadi.*

Yo, o‘ziga o‘xshagan uch-to‘rttasini topib olgan.

Turgan joyim qop-qorong‘i.

Qiz uchun birdan – bir yo‘l shu.

53. Qaysi javobda birikma belgisiz kelishik shaklida berilgan?

kasbiy mahorat, xat o‘qildi.
sohilga chiqdi, betini yuvdi.
ko‘p yurdi, sekin keldi.
**kitob varag‘i, xat o‘qidi.*

54. Kichraytirish, erkalash otlari qaysi javobda berilgan?

daftargina, ko‘lgacha, qadamjo.
shundoqqina, beshtacha, saranjom.
O‘tloq, ortiqqina, yaylov.
** ukajonim, qizginasi, qo‘lchalar.*

55. Qaysi javobda sifatlar orttirma darajada ifodalangan?

serdaraxt ko‘chalar, noma’lum gap.
**hammadan chiroyli, o‘ta go‘zal.*
juda tez, g‘oyat sekin, eng ko‘p.
kulibroq gapirdi, o‘ta kuyundi.

56. Qo‘shma siftlar qaysi javobda berilgan?

Inson ruhi bo‘lsa chaksiz.
To‘yxona birdan jimib qoldi.
Kattayu kichikka bir ko‘z bilan qarayman.
**Agronomingiz juda o‘zboshimcha.*

57. Qaysi javobda qo‘shma sonlar berilgan?

havo rang, to‘rt qavatli.
baland bo‘yli, besh metrli.
** o‘n olti metr, to‘rt yuz tonna*
yarim kilometr, besh santimetr.

58. Qaysi javobda sodda olmoshlar berilgan?

hech kim, o‘sha-o‘sha, kim-kim.
har bir, hech qachon, bir marta
**allaqachon, kimdir, bizlarni.*
qancha-qanchalab, shundan-shunga.

59. Ravish qaysi qatordagi gapda harakat belgisini darajalab ko‘rsatyapti?

Majlis kech tugadi.
U ancha jo‘yaklarni oralab chiqdi.
Majlisga ko‘proq ota-ona kelsa, yaxshi bo‘ladi.
** Bahodir darsdan ertaroq qaytdi.*

60. Miqdorni ifodalaydigan so‘roq olmoshlari qaysi javobda berilgan?

Yo‘lovchi mashina? Nega endi?
Qizlaringiz qayoqda, xolajon?
Qaysi fakultetga kirmoqchisiz?
**Zelixon kelmaganida qancha yotardi?*

JORIY VA ORALIQ NAZORAT TOPSHIRIQLARI

1-variant

1-topshiriq. *Ko‘chiring. 1) ot, sifat, son va olmoshlarning ma’no jihatdan turlarini aniqlang, ma’no turini ustiga yozib qo‘ying; 2) ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni matndan so‘ng yozib, har birini morfologik jihatdan to‘liq tahlil qiling; 3) otlashgan sifat va sonlarni matndan so‘ng yozing, gapdagi vazifasini izohlang.*

1. **<u>O‘ramlari</u>** to‘rttadan ko‘p, ammo o‘n ikkita ham emas. *(P.Q.)* 2. Axir, **<u>Jabbor</u>** eng birinchilardan bo‘lmasa ham, har qalay, o‘zbeklardan chiqqan ilk qahramonlardan edi...*(O.Y.)* 3. …

1-topshiriqning bajarilishi:

1-vazifa: 1-gapda: *o‘ramlari* – ot, turdosh ot; *to‘rttadan* – son, dona son; *o‘n ikkita* – son, dona son. 2-gapda: *Jabbor* – ot, atoqli ot; *o‘zbeklardan* – ot, turdosh ot; *har qalay* – olmosh, belgilash olmoshi. 3-gapda: …

2-vazifa: 1-gapda: *o‘ramlari* – ot, turdosh ot, bosh kelishikda, ko‘plik shaklda, 3-shaxs egalik qo‘shimchasini olgan, yasama ot, fe’ldan *–m* qo‘shimchasi yordamida yasalgan, sodda ot, gapda ega vazifasini bajargan.

2-gapda: *Jabbor* – ot, atoqli ot, odam ismi, bosh kelishikda, sodda ot, gapda ega vazifasini bajargan. 3-gapda: …

3-vazifa: 1-gapda: *to‘rttadan* – otlashgan dona son, chiqish kelishigi qo‘shimchasini olgan. 2-gapda: *qahramonlardan* – otlashgan sifat, ko‘plik va chiqish kelishigi qo‘shimchasini olgan. 3-gapda: …

2-topshiriq. *Berilgan qoliplar bo‘yicha bittadan mazmunli gap tuzing va har bir so‘z turkumining ustiga turini yozib qo‘ying:*

1. Ko‘rsatish olmoshi + bosh kelishikdagi turdosh ot + jo‘nalish kelishigidagi turdosh ot + sifat + turdosh ot + to‘liqsiz fe’l + qaratqich kelishgidagi turdosh ot + sifat + 3-shaxs ko‘plik qo‘shimchasini olgan chiqish kelishigidagi turdosh ot.
2. Juft dona son + turdosh ot ko‘plikdagi belgisiz qaratqich kelishigidagi turdosh ot + fe’l + qaratqich kelishigidagi turdosh ot + o‘rin oti + fe’l.

2-topshiriqning bajarilishi:

1-vazifa: Bu odam sizga yosh bola emas, shaharning obro‘li odamlaridan.

2-vazifa: Uch-to‘rtta o‘q shoxlar orasidan o‘tib, filning orqasiga urildi.

3-topshiriq. *O‘qing va ko‘chiring. 1) tuslangan va tuslanmagan fe’llarni aniqlab, tuslangan fe’llar tagiga ikki to‘g‘ri chiziq, tuslanmagan fe’llar tagiga bir to‘g‘ri chiziq chizing; 2) tuslangan fe’llarni matndan so‘ng alohida-alohida yozib, har birining nisbati, bo‘lishli-bo‘lishsizligi, mayli, zamoni, shaxs-sonini yozma izohlagn.*

1. Buni o‘zim ham bilmayman, ammo taxmin qilaman.*(T.Malik)*
3. Birdan talpinib zinadan ko‘tarila boshladi, lekin shu zahoti qadamini sekinlatdi.*(O‘.Usm.)* 3. …

3-topshiriqning bajarilishi:

1-vazifa: 1. Buni o‘zim ham <u>bilmayman</u>, ammo <u>taxmin qilaman</u>.
2. Birdan <u>talpinib</u> zinadan <u>ko‘tarila</u> <u>boshladi,</u> lekin shu zahoti qadamini <u>sekinlatdi</u>.*(O‘.Usm.)* 3. …

2-vazifa: 1-gapda: *bilmayman* - aniq nisbatda, bo‘lishsiz fe’l, aniqlik maylida, hozirgi-kelasi zamon fe’li, 1-shaxs , birlik shaklida; *taxmin qilaman* - aniq nisbatda, bo‘lishli fe’l, aniqlik maylida, hozirgi-kelasi zamon fe’li, 1-shaxs , birlik shaklida. 2-gapda: *ko‘tarila boshladi* - o‘zlik nisbatida, bo‘lishli fe’l, aniqlik maylida, yaqin o‘tgan zamon fe’li, 3-shaxs, birlik shaklida; *sekinlatdi* - orttirma nisbatda, bo‘lishli fe’l, aniqlik maylida, yaqin o‘tgan zamon fe’li, 3-shaxs, birlik shaklida. 3-gapda: …

4-topshiriq. *Berilgan qoliplar bo‘yicha bittadan mazmunli gap tuzing.*

1. Tarkibida <u>*holat ravishdoshi + yaqin o‘tgan zamon, 3-shaxs birlik shakldagi sof fe’l + yetakchi fe’li o‘tgan zamon payt ravishdoshi bo‘lgan ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi + holat ravishdoshi + holat ravishdoshi va yasama ko‘makchi fe’l*</u> qatnashgan mazmunli gap tuzing.

2. Tarkibida <u>*holat ravishdoshi + jo‘nalish kelishigidagi sifatdosh va yaqin o‘tgan zamon shaklidagi ko‘makchi fe’ldan iborat ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi + bolishsiz shakldagi to‘liqsiz fe’l + bo‘lishsiz shakldagi kelasi zamon sifatdoshi + to‘liqsiz fe’l*</u> qatnashgan mazmunli gap tuzing.

4-topshiriqning bajarilishi:

1. U nafasi qaytib, tashqariga intiladi, ammo ikki qadam qo‘yguncha bo‘lmay gandiraklab yiqila boshladi.

2. Saidiy buni sezib o‘zini jiddiy o‘ylayotganga soldi, biroq hozir bu so‘znigina emas, kitobni ham ko‘rmas edi.

5-topshiriq. *O‘qing va ko‘chirib yozing. 1) ravishlarni aniqlang va matndan so‘ng alohida yozib, to‘liq tahlil qiling; 2) yordamchi so‘zlarni topib, to‘liq tahlil qiling; 3) modal, undov, taqlid sozlarni aniqlab, to‘liq tahlil qiling.*

1. Men jonivorning hiylasini tushunardim: u shu yaqin orada, ehtimol, haligi isiriq tagida bola ochgan, jo‘rttaga qanoti singanday uchib-qo‘nib, itni uyasidagi notavon jo‘jalaridan uzoqroqqa aldab olib ketyapti. 2. Hammalari yuzlariga fotiha tortishdi-yu, birin-ketin ko‘prikka chiqishdi.*(P.Q.)* 3. …

5-topshiriqning bajarilishi:

1-vazifa: 1-gapda: *shu yaqin orada* - ravish, o‘rin ravishi, otlashmagan, qo‘shma ravish, yasama ravish, gapda o‘rin holi vazifasini bajargan; *jo‘rttaga* - ravish, maqsad ravishi, otlashmagan, sodda ravish, tub ravish, gapda maqsad holi vazifasini bajargan; *uzoqroqqa* - ravish, o‘rin ravishi, otlashmagan, sodda ravish, tub ravish, gapda o‘rin holi vazifasini bajargan; 2-gapda: *birin-ketin* - ravish, holat ravishi, otlashmagan, juft ravish, yasama ravish, gapda ravish holi vazifasini bajargan.

2-vazifa: 1-gapda yordamchi so‘zlar yo‘q; 2-gapda: *tortishdi-**yu*** - yuklama, affiks yuklama, kuchaytiruv-ta’kid yuklamasi;
3-vazifa: ; 1-gapda: *ehtimol* – modal soz, gumon ma’nosini ifodalaydi, ot turkumidan o‘sib chiqqan; 2-gapda alohida guruh so‘zlar yo‘q.

2-variant

1-topshiriq. *Ko‘chiring. 1) ot, sifat, son va olmoshlarning ma’no jihatdan turlarini aniqlang, ma’no turini ustiga yozib qo‘ying. 2) ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni matndan so‘ng yozib, har birini morfologik jihatdan to‘liq tahlil qiling. 3) otlashgan sifat va sonlarni matndan so‘ng yozing, gapdagi vazifasini izohlang.*

1. Biror bir kimsaga yaxshilik qilsang, shuni bilki, sening saxovatingdan u behad shod bo‘lgani kabi, senga ham shunchalik zavq nasib etadi. *(Qobus)* 2. Bitta ota yuzta o‘qituvchidan ustun demakdir. *(Hikmat)* 3. Osmonda mayin, yengil qor uchqunlaydi. *(O)* 4. Uydan xat oldim, sizga ham salom deyishibdi.

2-topshiriq. *Berilgan qoliplar bo‘yicha bittadan mazmunli gap tuzing va har bir so‘z turkumining ustiga turini yozib qo‘ying:*

1. Miqdor son + butunning bo‘lagini ifodalovchi hisob so‘zi + rang-tus ifodalovchi tub sifat + 3-shaxs egalik qo‘shimchasini olgan o‘rin-payt kelishigidagi turdosh ot + otdan yasalgan sifat + 3-shaxs ko‘plikdagi egalik qo‘shimchasini olgan o‘rin-payt kelishigadagi turdosh ot + yasama sifat + 3-shaxs ko‘plikdagi egalik qo‘shimchasini olgan o‘rin-payt kelishigadagi turdosh ot + yasama sifat + fe’l.

2. Qaratqich kelishigidagi turdosh ot + yasama sifat + 3-shaxs birlik shakldagi egalik qo‘shimchasini olgan turdosh ot + 3-shaxs ko‘plik shaklidagi egalik qo‘shimchasini olgan o‘rin-payt kelishigi shaklidagi tub turdosh ot + 3-shaxs birlik shakldagi miqdor son + o‘rin-payt kelishigidagi tartib son + dona son + turdosh ot + fe’l.

3-topshiriq. *O‘qing va ko‘chiring. 1) tuslangan va tuslanmagan fe’llarni aniqlab, tuslangan fe’llar tagiga ikki to‘g‘ri chiziq, tuslanmagan fe’llar tagiga bir to‘g‘ri chiziq chizing; 2) tuslangan fe’llarni matndan so‘ng alohida-alohida yozib, har birining nisbati, bo‘lishli-bo‘lishsizligi, mayli, zamoni, shaxs-sonini yozma izohlagn.*

1. Uy sohibi ta’zim va takalluf bilan: - Olsinlar! Taomni muntazir qilmag‘aylar! – deb yeyishga qistar edi. *(Mirm.)* 2. Xizmatga endigina kirgan vaqtimda bir kelgan edingiz, shu-shu ko‘ngilni egallab qo‘ygansiz. *(T.Malik)* 3. Nimaga yo‘qlaganimni bilarsiz-a, hofiz? *(T.Malik)* 4. Yoshlik oltin bilan barobar, nimani xohlasang, shuni qila olasan. *(M.G.)*

4-topshiriq. Berilgan qolip bo‘yicha bitta mazmunli gap tuzing.

1. Tarkibida *o‘tgan zamon sifatdoshi + orttirma nisbatdan yasalgan majhul nisbat shaklidagi sifatdosh + 3-shaxs birlik shaklidagi ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi* qatnashgan mazmunli gap tuzing.
2. Tarkibida *o‘rih-payt kelishigidagi harakat nomi + kelasi zamoh sifatdoshi + yaqin o‘tgan zamon shaklidagi ko‘makchi fe’lli so‘z qo‘shilmasi + yaqin o‘tgan zamon, birgalik nisbatidagi fe’l* qatnashgan mazmunli gap tuzing.

5-topshiriq. *O‘qing va ko‘chirib yozing. 1) ravishlarni aniqlang va matndan so‘ng alohida yozib, to‘liq tahlil qiling; 2) yordamchi so‘zlarni topib, to‘liq tahlil qiling; 3) modal, undov, taqlid sozlarni aniqlab, to‘liq tahlil qiling.*

1. Albatta, mashinaga o‘tirib, g‘ir etib, ertalab Toshkentga tushib, kechqurun qaytib kelish ham mumkin.*(O.Y.)* 3. Saidahmad takabburona yurib, darvoza oldiga chiqdi. *(O)* 3. Farmonov xuddi yuragi paq etib yorilib ketganday “ih” deb ko‘kragini ushladi-da, boshini shilq etib yostiqqa tashladi. *(O.Y.)* 4. Shu payt qo‘ng‘iroq ustma-ust jiringladi. *(A.Q.)*

ORALIQ NAZORAT SAVOLLARI

1-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Hech narsani bilmovchi va hech narsani bilib olishga intilmovchi kishi eng yomon kishidir: axir, unda ikki illat bir-biriga chirmashib ketgandir. (Platon)

*2.*Quyida berilgan gap tarkibidagi uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.

Ot, eshak mingan dehqonlar, matolarini qo‘ltiqlagan to‘quvchilar bozor tomon oshiqadi. (O)

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

Yozning qiziq kunlari. Egnimda yelvaygina, ko‘ksi ochiq, yoqasiga pilta otgan surp yaktak.

2-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Qoratoshning osoyishtaligini sen asrashing kerakmi yoki men asrashim kerakmi?

*2.*Uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.

Oqil kishi dono, olijanob, rostgo‘y odamga do‘st bo‘ladi (Hikmat).

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

Qora kamar. Changalzor. Tong otyapti.

3-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Ilgari Zamiraning rad javobi tufayli o‘zini kamsitilganday his qilar va bu his qalbini tutunday qoplab yotardi.

*2.*Uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.

Ikki tabaqali, naqshinkor darvoza sekin tiqirladi-da, ochildi. (S.Z.)

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

Kecha. Buxoro arkinda. Abulfayzxonning uyi shohona to‘shalib, bezangan.

4-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Manzura opam kichik o‘g‘illari Suxrob bilan ovora edilar; bir payt darvozadan hovliqib Xayriddin aka kirib keldilar. (O‘. Usmonov.)

*2.*Uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.

Sayohatchilar goh atrofdagi xilma-xil o‘simlik va gullarga, goh qorli cho‘qqiga qarab yuqoriga intilishmoqda (Y. Sh.).

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

Oydinli bir kechada Hakimbiyning hovlisi.(1) Terazisiz eshiklari tashqariga ochilg‘an bir uyning oldinda uzun bir sufa.(2) Sufa bo‘yincha uzun bir qalin yoyilg‘an.(3)

5-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Har yili yoz keldi, suv janjali boshlanadi. (S.Karomatov.)

*2.*Uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.

Men o‘z baxtimni, quvonchimni, boyligimni uzoqda, olis tog‘lardan topib keltirdim. (M.Qoryiev)

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

Xonning taxt uyi.(1) ... Uyning to‘rt tomon devori o‘rnida odam bo‘yidan pastroq sharq usulida chiroylik panjara, orqasidan serdaraxt va keng bir bog‘cha ko‘rinadir.(2)

6-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Nigora qiynalib qolmasin deb, bolalaringizni bog‘chaga joylashtirdik. (E. Usmonov.)

*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.

Ko‘chalar, uylar yam-yashil ko‘kat va yaproqlarga qalinroq burkanganday tuyuladi. (H.N.)

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

Som tog‘idagi qal‘a maydoni.(1) Oq ko‘ylaklilar Muqannani ko‘rish uchun to‘planganlar.(2)

7-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Darhol ichkarida yengil oyoq sharpasi eshitilib, eshik asta ochildi. (O. Y.)

*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.

Boy sevinch va hayajon bilan shoshilib o‘rnidan turdi. (O)

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

Samarqandda Sulton Muhammad Xorazmshohning muhtasham saroyi.(2) ...

8-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Havo aytarli sovuq emas, biroq kuchsiz izg‘irin badanni junjiktiradi. (T. Malik.)

*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.

Qo‘shiq to‘y va marosimlarning, mehnat va ijodni qayg‘u va quvonchning, hijron, safar, kurash va muhabbatning doimiy yo‘ldoshidir. (A.Muxtor)

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

Qahraton qish. Nima ko‘p — ishsiz ko‘p.

9-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Kecha kechqurun oynangiz qarsillab singan zahoti yugurib ko‘chaga chiqsam, Qosimov muyulishda qochib borayotgan ekan. (O‘. Usmonov.)

*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.

Tabiat ham, oy ham, yulduzlar ham to‘y libosida yal-yal yonib turgan yangi kelinchakdek dilbar edi. (M.Muhamedov)

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

- Uf-f! - deb javob berardi amaldor va faqat bosh chayqardi.

10-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Iye, bahor kirganini sezmay qolibmanmi yo bu bir kechada gullab chiqibdimi... (P. Q.)

*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.

Iliq bahor shamoli hali uyqudan ko‘z ochmagan bog‘larda, mevazorlarda kezib yuribdi. (H.G‘.)

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

- Yaxshi. Ilgari ishlaganmisiz?

- Yo‘q.

11-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

G‘orning og‘zini portlatib butkul berkitib qo‘yish kerak, toki birorta odam ham u yerga kirolmasin! (H. Sh.

*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.

Navoiyning Hirotga qaytishi xalqning va do‘stlarning ko‘nglidagi g‘am-tashvishni va umidsizlikni ko‘tardi. (O)

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

- Barakalla. Ularning davrida u yoq-bu yoqni ko‘rib olganingiz ma’qul.

12-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Donishmandning shohga ehtiyoji yo‘q, ammo shoh donishmandga hamisha muhtojdir. (T. Malik.)

*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.

Endi Umarali ohista, vazmin so‘zga kirishdi (O).

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

- Yopirim-ey, yopirim-ey! - deb soqolini changallab, hang-u mang bo‘lgancha menga tikilib qoldi.

13-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Sen ilmga o‘zingni butkul bag‘ishlamasang, ilm senga hech nima in’om qilmaydi. (T. Malik.)

*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozing.

Buvsara baland bo‘yli, ... oppoqqina, ellik ikki-ellik uch yoshlardagi ayol (O).

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

- Assalomu alaykum, otaxon! - dedim cho‘zib, - suv quyayapsizmi?

14-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

O‘qishiga xalaqit beradigan nimaiki uchrasa, hammasini keskin rad etib kelyapti.

*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozing.

Sultonmurod qaynagan olomon ichida turtki eb, bosilib, ezilib uzoq yurdi (O).

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

- Diqqat, diqqat! - hovliqib, xirillab gapira boshladi Hayitvoy.

15-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Ammo baxtim shunda ediki, ona tabiatning qo‘ynida edim. (As. M.)

*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.

YAxshi it – cho‘ponning do‘sti, qo‘riqchisi, dastyori (SH.Xolmirzaev).

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

- Tavba! - didi oyim u yoq-bu yoqqa qarab.

16-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Uning sog‘ayib ketishi yo‘lida nimaiki lozim bo‘lsa, barchasini qilamiz.

*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozing.

Daraxt tepasida kezib yurgan yarimta oy yaproqlar orasidan o‘tib, Sanobarning dam elkasida, dam soch o‘rimlarida o‘ynaydi (S.).

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

- Transformator! - deb qichqirdi Bektemir. — Hozir balkalar bosib tushsa, transformator portlaydi!

17-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Cho‘lda qish qancha qahrli kelsa, bahor shuncha muloyim bo‘ladi. (S. Karomatov)

*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.

Azimboyning va qishloqdagi boshqa boylarning erlari, ot-ulovlari kambag‘al dehqonlarga bo‘lib berildi (H.G‘.).

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

- Kim tuhmat qildi? - Siz ishongan amaldor-u shayxlar.

18-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Tilning go‘zallik qoidasi — mantiq va tabiiylik, boylik manbai - xalqchillik. (As. M.)

*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.

Mohidil unga va atrofdagilarga jiddiy tikildi-da, keyin zo‘raki kuldi.(J.Abd.)

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

- Agradan Humoyunga yordam kelmasligi aniqmi? - Aniq, davlatpanoh.

19-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Oftob hali bulutlar ortidan chiqmagan bo‘lsa ham, tushga borib hamma yoq ilib ketadi. (P. Q.)

*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozing.

Soy jimjit, kimsasiz, faqat u er-bu erda o‘tlab yurgan mollar, qo‘y-qo‘zilarning qorasi ko‘zga chalinadi…(O.YO.)

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

- Nima olib ketyapsiz? - Asal, asal.

20-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Zo‘r daryodan kanal, ariq va egatlar orqali g‘o‘zalarga obihayot olib borilgani kabi, tarix daryosidan har bir bo‘lajak eshituvchisining ongiga olovli haqiqat olib bormoqchi edi.

*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.

Kechasi yoqqan qor har bir tomni, devorni, har bir daraxt va gumbazni mayin oq ho‘shiya bilan bezab chiqqan (P.Q.).

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

- Kim ekan u mushtumzo‘r?! - Otam!

21-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.

Vahobovning chehrasidagi quvonch o‘rnini ma’yuslik qopladi, ammo qalbida jo‘sh urayotgan umid so‘nmadi. (S. Karomatov.)

*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.

Uning bo‘ynidagi marjonlari, sochiga taqilgan kumush chochpopuklari, egnidagi atlas ko‘ylagi – hammasi o‘sha boy savdogarning puliga kelgan (P.Q.).

3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.

- Kimlgimni bilmaysanmi hali? — deb so‘radi u kishining g‘ashiga tegadigan bir ohangda. - Bilaman, — dedim ko‘zlariga tik qarab.

22-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.
Havo yuzini to‘sgan parda ko‘tarilgach, cho‘lquvarlar o‘rinlaridan turib, paxtazor tomon yurishdi.
*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.
Ular shu alpozdpa dam tez, dam sekin pastlikka tushishdi va keng hovliga kirishdi. (S.Ahm.)
3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.
- Men qanday sayyoraga kelib qoldim? - Yerga, - dedi ilon.

23-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.
Qo‘shnimiz Ahmad buvaning uyi tepalikda bo‘lgani uchun, hovlisi, ayvoni biznikidan ko‘rinib turardi. O‘.U.)
*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.
Unda-bunda bir eshik uchraydi, lekin och-sariq, daydi itlar ko‘proq sanqib yuradi. (O.)
3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.
Do‘st achitib gapirar, Dushman — kuldirib.

24-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.
Hayotda shunday daqiqalar bo‘ladiki, kishi o‘z maqsadini aniq belgilab olishi zaruratga aylanadi.
*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.
Ikromjon butun borlig‘ini, bugunini, ertasini bag‘ishlagan yolg‘iz farzandiga qarab birdan jirkandi.(S.Ahm.)
3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.
- Ota-onalar hayotmi? - Hayot, otaxon, hayot.

25-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.
Yoshlikning topilmas fazilati shuki, odam hech narsadan qo‘rqmaydi. (U. Usmonov.)
22.Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.
Har kim sukut ichida front yo‘llaridan, vayron bo‘lgan qishloqlardan, olingan shaharlardan o‘z bolasini, akasini, ukasini qidiradi. (S.Ahm.)
3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.
Bu g‘o‘zalar kimniki o‘zi? - Bizniki.

26-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.
Ochil so‘zini tamom qilar-qilmas, Vitaliy Aleksandrovich so‘zga chiqdi. (P. Q.)
*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.
Tabiatan birovning mushugini pisht deyolmaydigan, ko‘ngilchan Ummatalining yotig‘i bilan qilgan barcha urinishlari bekor ketdi. (Sh.)
3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.
- Qo‘rqaman bu yerda, — Unsin boshini egib, qo‘li bilan ko‘zlarini yashirdi.
- Kimdan? Nimadan? — sergaklanib so‘radi Yo‘lchi. - Salim akadan.

27-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.
Boya bildingiz-ku, o‘qigan, tushungan, o‘zini madaniyatli hisoblagan mudirdan ko‘ra oddiy bir chalasavod ayolning fahmi o‘tkirroq chiqdi. (U.)
*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.
Munisxon besh yil yashab uning yuzlarini, ko‘zlarini bunaqa loqayd, ifodasiz ko‘rmagandi. (S.Ahm.)
3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.
Lekin shahzodani bu shartlarga ko‘ndirish uchun fuqaroni safarbar qilib bo‘lsa ham, mudofaaga o‘tmoq darkor.

28-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.
Tog‘-toshlardan ko‘tarilayotgan hovur yeru ko‘k oralig‘ida behol tebranib turar, tabiat go‘yo borliqni ulkan belanchakda allalayotgandek edi. (S. Karomatov.)
*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.
Basharti o‘z so‘zi va yo tanqidi bilan narigi taraf qizarsa, yoki ta’sirlansa, unga ikkinchi martaba hujum qilmay qo‘yadi...(A.Qod.)
3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.
Ba’zi xalqlarda dafn marosimida muzika chalishadi, bayroq ko‘tarib borishadi.

29-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.
Katta qora stol ustiga yuz shamlik qalpoqsiz lampochka past tushirib osilgan ediki, o‘tirgan kishining peshanasiga issig‘i urib turardi. (P. Q.)
*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.
Yer, suv, havo, iqlim qirning har ikki tomonida ham bir…(A.Qod.)
3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.
Kishi yurtida shoh bo‘lguncha, O‘z yurtingda gado bo‘l.

30-variant

1. Berilgan qo‘shma gapning turini aniqlab, tahlil qiling.
Bolasini kim ko‘p erkalatsa, keyin u o‘ziga shunchalik ko‘p azob-uqubat sotib oladi. (U. Usmonov.)
*2.*Quyidagi gapda berilgan uyushiq bo‘laklarni aniqlab, tagiga tegishlicha chizing, ustiga gapning qaysi bo‘lagi uyushib kelganini yozib qo‘ying.
Yarim tunda ham, sahar pallada ham uning oq o‘tovidan kuchli ovoz va katta ixlos bilan yodaki qiroat qilinayotgan qur’on tovushi eshitilib turdi. (P.Q.)
3. Quyida berilgan gap sodda gapning qaysi turiga mansubligini aniqlang.
Gandiraklab ayvon oldiga terib qo‘yilgan g‘ishtga yonboshi bilan yiqildi.

Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari

1. I. Karimov. Barkomol avlod - O‘zbekistoi taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997-yil.
2.Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat-engilmas kuch.-T.: Ma’naviyat, 2008.

Rahbariy adabiyotlar

3.H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
4.M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, SH. Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
5. Z.Otamirzayeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. 2004, O‘AJBNT» markazi.
6. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
7. R.Yunusov. O‘zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
8. O‘. Sharipova, I.Yo‘ldoshev. Tilshunoslik asoslari. 2006, TDPU.
9. U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. «O‘zbekiston», Toshkent. 1992-yil
10. H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiyot tilidan ma’ruza matnlari (Kirish. Fonetika va fonologiya. Grafika va orfografiya) Toshkent, 2000.
11. R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya) Toshkent, 2000-yil.
12. Q.Safayev, R.Yunusov. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
13. M.Asqarova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
14. D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Kirish, fonetika, grafika va orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikagrafiya). Toshkent, 2001-yil.
15. R.Ikromova, D.Muhammedova, D.Shodmonqulova, M.Maqsudova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Morfemika. So‘z yasalishi. Morfologiya). Toshkent, 2001-yil.
16. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
17. Rahimov S., Umurqulov B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, ”Moliya”, 2003

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. O‘zbek tili grammatikasi. I tom. «Fan», Toshkent, 1975-yil.
2. O‘zbek tili grammatikasi. II tom, «Fan», Toshkent, 1976-yil.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1-2 - tom. Moskva, 1981-yil.
4. A.Hojiev. Lingvistik terminlarning izohli lug‘ati. -Toshkent. 1985-yil.
5. A.Hojiyev. O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. -Toshkent. 1974-yil.
6. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati. -Toshkent. 1980-yil.
7. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati.- Toshkent. 1978-yil.
8. Sh.Rahmatullayev. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. -Toshkent. 1984-yil.
9. A. G‘ulomov, A.N. Tixonov, R.Qo‘n g‘urov. O‘zbek tili morfem lug‘ati. -Toshkent. 1977-yil.
10. Rahimov S., Umurqulov B., Eshonqulova A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –Toshkent, ”Yangi asr avlodi”, 2001
11. B.Mengliyev, O‘.Xoliyorov. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. –T.: Fan, 2011.
12. M.Hamrayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan ma’ruzalar majmuasi.-T.: 2011.
13. M.Hamrayev. Hozirgi o‘zbek adabiy tilidan mashqlar to‘plami.-T.: 2011.
14. Ona tili. Qomus. –T.: Fan, 2011.
13. B.Yoriyev, Sh.Turdiqulov. Ona tilidan ma’ruzlar matni. –Termiz: 2011, 2012.

Elektron ta’lim resurslari

1. www. tdpu. uz
2. www. pedagog. uz

3. www. ziyonet. uz
4. www. edu. uz
5. www. google.uz

Didaktik vositalar

Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska-Epson, LCD-monitor, elektron ko‘rsatgich (ukazka).

Video-audio uskunalar: video va audiomagnitofon, mikrofon, kolonkalar.

Kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter-Acer, Dell tipidagi proyektor, DVD-diskovod, Web-kamera, video-ko‘z (glazok).

ME’YORIY XUJJATLAR

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TA’LIM TO‘RISIDAGI QONUNI

(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda)

UMUMIY QOIDALAR

1-modda. Ushbu qonunning maqsadi

Ushbu qonun fuqarolarga ta’lim, tarbiya berish, kasb-hunar o‘rgatishning huquqiy asoslarini belgilaydi hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsiyaviy huquqini ta’minlashga qaratilgan.

2-modda. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlari

Ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu qonundan hamda boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida ta’lim sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlaridagidan o‘zgacha qoidalar belgilangan bo‘lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo‘llaniladi.

3-modda. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari

Ta’lim O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e’lon qilinadi.

Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

ta’lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;

ta’limning uzluksizligi va izchilligi;

umumiy o‘rta, shuningdek o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining majburiyligi;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi yo‘nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o‘qishni tanlashning ixtiyoriyligi;

ta’lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;

davlat ta’lim standartlari doirasida ta’lim olishning hamma uchun ochiqligi;

ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;

bilimli bo‘lishni va iste’dodni rag‘batlantirish;

ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg‘unlashtirish**.**

4-modda. Bilim olish huquqi

Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e’tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O‘zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qat’i nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar

kafolatlanadi.

Bilim olish huquqi:

davlat va nodavlat ta’lim muassasalarini rivojlantirish;

ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta’lim olishni tashkil etish;

ta’lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o‘qitish, shuningdek ta’lim muassasalarida shartnoma asosida to‘lov evaziga kasb-hunar o‘rgatish;

barcha turdagi ta’lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o‘quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo‘lishi;

oilada yoki o‘zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga akkreditatsiyadan o‘tgan ta’lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o‘tish huquqini berish orqali ta’minlanadi.

Boshqa davlatlarning fuqarolari O‘zbekiston Respublikasida xalqaro shartnomalarga muvofiq bilim olish huquqiga ega.

Respublikada istiqomat qilayotgan fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar bilim olishda O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng huquqlarga ega.

5-modda. Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqi

Tegishli ma’lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega.

Pedagog xodimlarni oliy o‘quv yurtlariga ishga qabul qilish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan Nizomga muvofiq tanlov asosida amalga oshiriladi.

Pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish sud hukmiga asosan man etilgan shaxslarning ta’lim muassasalarida bu faoliyat bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

6-modda. Ta’lim muassasasining huquqiy maqomi

Ta’lim muassasasini akkreditatsiyalash vakolatli davlat organi tomonidan attestatsiyaga asosan amalga oshiriladi.

Ta’lim muassasasi yuridik shaxs bo‘lib, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda barpo etiladi. Nodavlat ta’lim muassasasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan tartibda davlat akkreditatsiyasidan o‘tgan paytdan boshlab yuridik shaxs huquqlari va ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi.

Ta’lim muassasasi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan ustav asosida faoliyat ko‘rsatadi.

Ta’lim muassasasi attestatsiya natijalariga binoan davlat akkreditatsiyasidan mahrum etilishi mumkin.

Ta’lim muassasalari o‘quv-tarbiya majmuilariga hamda o‘quv-ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari va uyushmalariga birlashishga haqli.

Ta’lim muassasalari ustavda belgilangan vazifalariga muvofiq pulli ta’lim xizmatlari ko‘rsatish, shuningdek tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan shug‘ullanishga haqli.

7-modda. Davlat ta’lim standartlari

Davlat ta’lim standartlari umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta’lim mazmuniga hamda sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi.

Davlat ta’lim standartlarini bajarish O‘zbekiston Respublikasining barcha ta’lim muassasalari uchun majburiydir.

8-modda. Ta’lim berish tili

Ta’lim muassasalarida ta’lim berish tilidan foydalanish tartibi Davlat tili haqidagi O‘zbekiston Respublikasi qonuni bilan tartibga solinadi.

II. TA’LIM TIZIMI VA TURLARI

9-modda. Ta’lim tizimi

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

davlat standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalari;

ta’lim tizimining faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

ta’lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi yagona va uzluksizdir.

10-modda. Ta’lim turlari

O‘zbekiston Respublikasida ta’lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi:

maktabgacha ta’lim;

umumiy o‘rta ta’lim;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi;

oliy ta’lim;

oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim;

kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;

maktabdan tashqari ta’lim.

11-modda. Maktabgacha ta’lim

Maktabgacha ta’lim bola shaxsini sog‘lom va etuk, maktabda o‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Bu ta’lim olti-etti yoshgacha oilada, bolalar bog‘chasida va mulk shaklidan qat’i nazar, boshqa ta’lim muassasalarida olib boriladi.

12-modda. Umumiy o‘rta ta’lim

Umumiy o‘rta ta’lim bosqichlari quyidagicha:

Boshlang‘ich ta’lim (I—IV sinflar);

umumiy o‘rta ta’lim (I—IX sinflar).

Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’lim olish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim va ko‘nikma asoslarini shakllantirishga qaratilgandir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-etti yoshidan qabul qilinadi.

Umumiy o‘rta ta’lim bilimlarning zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko‘nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo‘naltirishga va ta’limning navbatdagi bosqichini tanlashga yordam beradi.

Bolalarning qobiliyati, iste’dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.

13-modda. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi

O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’lim olish maqsadida har kim umumiy o‘rta ta’lim asosida akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o‘qishning yo‘nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo‘yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta’limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo‘ladigan o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi beradi.

Akademik litsey o‘quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o‘stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo‘naltirilgan bilim olishlarini ta’minlaydigan uch yillik o‘rta maxsus o‘quv yurtidir.

Kasb-hunar kolleji o‘quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlangan kasblar bo‘yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta’minlaydigan uch yillik o‘rta kasb-hunar o‘quv yurtidir.

14-modda. Oliy ta’lim

Oliy ta’lim yuqori malakali mo‘taxassislar tayyorlashni ta’minladi.

Oliy ma’lumotli mo‘taxassislar tayyorlash oliy o‘quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta’lim muassasalarida) o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta’lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Bakalavriat oliy ta’lim yo‘nalishlaridan biri bo‘yicha puxta bilim beradigan, o‘qish muddati kamida to‘rt yil bo‘lgan tayanch oliy ta’limdir.

Magistratura aniq mo‘taxassislik bo‘yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta’limdir.

Fuqarolar ikkinchi va undan keyingi oliy ma’lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar.

15-modda. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim

Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim jamiyatning ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarini ta’minlashga qaratilgandir. Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (aspirantura, ad’yunktura, doktorantura, mustaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

16-modda. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko‘nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta’minlaydi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

17-modda. Maktabdan tashqari ta’lim

Bolalar va o‘smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo‘sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo‘nalishlarda maktabdan tashqari ta’lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta’lim muassasalariga bolalar, o‘smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, bolalar-o‘smirlar sport maktablari, san’at maktablari, musiqa maktablari, studiyalar, kutubxonalar, sog‘lomlashtirish muassasalari va boshqa muassasalar kiradi.

Maktabdan tashqari ta’lim muassasalarining faoliyat ko‘rsatish tartibi qonun hujjatlarida belgilab qo‘yiladi.

18-modda. Oiladagi ta’lim va mustahil ravishda ta’lim olish

Davlat oilada ta’lim olishga va mustahil ravishda ta’lim olishga ko‘maklashadi. Bolalarni oilada o‘hitish va mustahil ravishda ta’lim olish tegishli ta’lim muassasalarining dasturlari bo‘yicha amalga oshiriladi. Ta’lim oluvchilarga vakolatli davlat muassasalari tomonidan uslubiy, maslahat va boshha yo‘sinda yordam ko‘rsatiladi.

19-modda. Ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlar

Akkreditatsiya qilingan ta’lim muassasalarining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat (shahodatnoma, diplom, sertifikat, guvohnoma) beriladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat oilada ta’lim olgan yoki mustaqil ravishda bilim olgan va akkreditatsiya qilingan ta’lim muassasalarining tegishli ta’lim dasturlari bo‘yicha ekstern tartibida imtihonlar topshirgan shaxslarga ham beriladi, davlat ta’lim muassasalarida o‘qitilishi shart bo‘lgan va ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab qo‘yiladigan mo‘taxassisliklar bundan mustasno.

Oliy ma’lumot to‘g‘risidagi diplomga o‘zlashtirilgan fanlar ro‘yxati, ularning hajmlari va fanlarga qo‘yilgan baholar yozilgan varag‘i ilova qilinadi.

Dissertatsiya himoya qilgan shaxslarga belgilangan tartibda fan nomzodi yoki fan doktori ilmiy darajasi beriladi va davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplom topshiriladi.

Davlat ta’lim standartlariga mos kelgan taqdirda O‘zbekiston Respublikasi bilan xorijiy davlatlarning hukumatlari o‘rtasidagi ikki tomonlama bitimlar asosida har ikki tomonning ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlari belgilangan tartibda o‘zaro tan olinishi mumkin.

Tegishli bosqichdagi ta’limni tugallamagan shaxslarga belgilangan namunadagi ma’lumotnoma beriladi.

Davlat tasdiqlagan namunadagi ma’lumot to‘g‘risidagi hujjat navbatdagi bosqich ta’lim muassasalarida ta’lim olishni davom ettirish yoki tegishli ixtisoslik bo‘yicha ishlash huquqini beradi.

III. TA’LIM JARAYONI QATNASHCHILARINI IJTIMOIY HIMOYA QILISH

20-modda. Ta’lim oluvchilarni ijtimoiy himoya qilish

Ta’lim muassasasida ta’lim oluvchilar qonun hujjatlariga va normativ hujjatlarga muvofiq imtiyozlar, stipendiya va yotoqxonada joy bilan ta’minlanadi.

21-modda. Ta’lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish Ta’lim muassasalari xodimlariga ish vaqtining qisqartirilgan muddati belgilanadi, haqi to‘lanadigan yillik uzaytirilgan ta’tillar hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan imtiyozlar beriladi.

Ta’lim muassasalari ish haqiga mo‘ljallangan mavjud mablag‘lar doirasida mustaqil ravishda stavkalar, mansab okladlariga tabaqalashtirilgan ustama belgilashga hamda mehnatga haq to‘lash va uni rag‘batlantirishning turli shakllarini qo‘llashga haqli.

22-modda. Etim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o‘qitish

Etim bolalarni va ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining vasiyligisiz qolgan bolalarni o‘qitish va ularni boqish davlatning to‘la ta’minoti asosida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

23-modda. Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar va o‘smirlarni o‘qitish

Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan, shuningdek uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo‘lgan bolalar va o‘smirlarni o‘qitish, ularni tarbiyalash hamda davolash uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari tashkil etiladi. Bolalar va o‘smirlarni ushbu ta’lim muassasalariga yuborish va ulardan chiqarish ota-onalarining yoki boshqa qonuniy vakillarining roziligi bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaning xulosasiga binoan amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarining o‘quvchilari qisman yoki to‘la davlat ta’minotida bo‘ladi.

24-modda. Ijtimoiy yordamga va tiklanishga muhtoj bo‘lgan shaxslar uchun o‘quv-tarbiya muassasalari

Alohida sharoitlarda tarbiyalanish va o‘qishga muhtoj bo‘lgan bolalar va o‘spirinlar uchun ularning bilim olishi, kasb tayyorgarligi va ijtimoiy tiklanishini ta’minlaydigan ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalari tashkil etiladi.

Ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni o‘tash muassasalarida saqlanayotgan

shaxslarning ta’lim olishi va mustaqil bilim olishi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sharoitlar yaratiladi.

IV. TA’LIM TIZIMINI BOSHQARISH

25-modda. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ta’lim sohasidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi: ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish; ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlariga rahbarlik qilish; ta’limni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish; ta’lim muassasalarini tashkil etish, qayta tashkil etish va tugatish tartibini belgilash; ta’lim muassasalarini akkreditatsiyadan, pedagog, ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish tartibini belgilash; boshqa davlatlarning ta’lim muassasalariga O‘zbekiston Respublikasining hududida ta’lim faoliyati bilan shug‘ullanish huquqini beruvchi ruxsatnomalar berish; qonun hujjatlariga muvofiq xorijiy davlatlarning ta’lim to‘g‘risidagi hujjatlarini tan olish va hujjatlarning ekvivalent ekanligini qayd etish tartibini belgilash; davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash; davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ma’lumot to‘g‘risidagi hujjatlarni tasdiqlash va ularni berish tartibini belgilash; davlat grantlari miqdori va ta’lim muassasalariga qabul qilish tartibini belgilash; davlat oliy ta’lim muassasasining rektorlarini tayinlash; ta’lim oluvchilarni akkreditatsiya qilingan bir ta’lim muassasasidan boshqasiga o‘tkazish tartibini belgilash; qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

26-modda. Ta’limni boshqarish bo‘yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasi

Ta’limni boshqarish bo‘yicha maxsus vakolat berilgan davlat organlarining huquq doirasiga quyidagilar kiradi:

ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ro‘yobga chiqarish;

ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslub masalalarida ularga rahbarlik qilish;

davlat ta’lim standartlari, mo‘taxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo‘lgan talablar bajarilishini ta’minlash;

o‘qitishning ilg‘or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta’limning texnik va axborot vositalarini o‘quv jarayoniga joriy etish;

o‘quv va o‘quv-uslubiyat adabiyotlarini nashr etishni tashkil qilish;

ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta’lim muassasalarida eksternat to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash;

davlat oliy ta’lim muassasasining rektorini tayinlash to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

pedagog xodimlarni tayyorlashni, ularning malakasini oshirishni va qayta tayyorlashni tashkil etish;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar.

27-modda. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining ta’lim sohasidagi vakolatlari

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

ta’lim muassasalari faoliyatining mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyojlariga muvofiqligini ta’minlaydilar;

ta’lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (respublika tasarrufida bo‘lgan muassasalar bundan mustasno), ularning ustavlarini ro‘yxatga oladilar; o‘z hududlaridagi ta’lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarni belgilaydilar;ta’lim sifati va darajasiga, shuningdek pedagog

xodimlarning kasb faoliyatiga bo‘lgan davlat talablariga rioya etilishini ta’minlaydilar;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

28-modda. Ta’lim muassasasini boshqarish

Ta’lim muassasasini uning rahbari boshqaradi.

Ta’lim muassasalarida qonun hujjatlariga muvofiq faoliyat ko‘rsatadigan jamoat boshqaruvi organlari tashkil etilishi mumkin.

29-modda. Ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari bilan nodavlat ta’lim muassasalari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar

Ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari nodavlat ta’lim muassasalarida ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qiladi. Nodavlat ta’lim muassasalari ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzgan taqdirda, akkreditatsiya qilgan organlar ularning faoliyatini qonun hujjatlariga muvofiq to‘xtatib qo‘yishga haqli.

Nodavlat ta’lim muassasalariga qabul davlat o‘quv yurtlari uchun belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

V. YAKUNLOVCHI XULOSALAR

30-modda. Ota-onalar yoki qonuniy vakillarning vazifalari

Voyaga etmagan bolalarning ota-onalari yoki qonuniy vakillari bolaning qonuniy huquqlari va manfaatlarini himoya qilishlari shart hamda ularning tarbiyasi, maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi olishlari uchun javobgardirlar.

31-modda. Ta’limni moliyalash

Davlat ta’lim muassasalarini moliyalash respublika va mahalliy byudjetlar mablag‘lari, shuningdek byudjetdan tashqari mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

32-modda. Ta’limni rivojlantirish fondlari

Ta’limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin.

33-modda. Xalqaro hamkorlik

Ta’lim muassasalari ta’lim muammolari yuzasidan xalqaro hamkorlikda ishtirok etadilar, chet davlatlarning tegishli o‘quv yurtlari bilan bevosita aloqalar o‘rnatish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ular bilan qo‘shma o‘quv yurtlari tashkil etish huquqiga ega.

34-modda. Ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

Ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
I. A.KARIMOV
Toshkent sh., 1997 yil 29 avgust, 464-I-son

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI
DAVLAT TILI HAQIDA
(yangi tahrirda)

1-modda: O‘zbekiston Respublikasining davlat tili o‘zbek tilidir.

2-modda: O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning
o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat konstitusiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

3-modda: O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy
asoslari ushbu Qonun va boshqa qonunlar bilan belgilab beriladi. Tilning Qoraqalpog‘iston Respublikasida amal
qilishiga bog‘liq masalalar, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadi.
Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog‘liq udumlarni ado etishda qo‘llanishini tartibga solmaydi. Fuqarolar millatlararo muomala tilini o‘z xohishlariga ko‘ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda: O‘zbekiston Respublikasida Davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda
uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta’minlanadi, bu
tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi. Fuqarolarga davlat tilini o‘qitish bepul amalga oshiriladi.

5-modda: O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko‘rsatadigan, milliy guruhlar zich yashaydigan
joylarda esa ularning tillarida faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha tarbiya, bolalar muassasalarini tashkil etish
ta’minlanadi.

6-modda: O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.
O‘zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda ham umumiy, hunar-texnika, o‘rta maxsus va oliy ma’lumot olishni ta’minlaydi.

7-modda: Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va
normalariga rioya etiladi. Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis tegishli qo‘mitasining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi.

8-modda: O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa
hujjatlari davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e’lon qilinadi.
Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari Davlat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi.

Muayyan millat vakillari zich yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari
respublika davlat tilida hamda mazkur millat tilida qabul qilinadi va e’lon etiladi.

9-modda: Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish davlat tilida yuritiladi va zaruriyatiga qarab boshqa
tillarga tarjima qilinishi ta’minlanadi.
O‘zbekistonda o‘tkaziladigan xalqaro anjumanlarda davlat tili, shuningdek, qatnashchilarning o‘zlari
tanlagan tillar anjumanning ish tili hisoblanadi.

10-modda: Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob,
statistika va moliya hujjatlari davlat tilida yuritiladi, ishlovchilarning ko‘pchiligi o‘zbek tilini bilmaydigan
jamoalarda davlat tili bilan bir qatorda boshqa tillarda ham amalga oshirilishi mumkin.

11-modda: Sudlov ishlarini yuritish davlat tilida yoki o‘sha joydagi ko‘pchilik aholi tilida olib boriladi. Ishda
ishtirok etayotgan, sud ishlari yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarga tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan
tanishish, sud jarayonida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so‘zlash huquqi ta’minlanadi.

Korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o‘rtasidagi xo‘jalik nizolarini ko‘rib chiqish va hal qilishda davlat tili
qo‘llaniladi. Xo‘jalik nizolari taraflarning roziligi bilan boshqa tilda ham ko‘rib chiqilishi mumkin.

12-modda: O‘zbekiston Respublikasida notarial harakatlar davlat tilida amalga oshiriladi. Fuqarolarning
talabiga ko‘ra rasmiylashtirilgan hujjat matni davlat notariusi yoki notarial harakatni bajarayotgan shaxs tomonidan
rus tilida yoki imkoniyat bo‘lgan taqdirda – boshqa maqbul tilda beriladi.

13-modda: Fuqarolik holatini qayd etuvchi hujjatlar, shaxsning kim ekanligini va uning huquqlarini
tasdiqlovchi hujjatlar davlat tilida rasmiylashtiriladi, zaruriyatga qarab boshqa tilda tarjimasi takrorlanishi mumkin.

14-modda: O‘zbekiston Respublikasi hududida yashovchi shaxslarga davlat tashkilotlari va muassasalariga,
jamoat birlashmalariga arizalar, takliflar, shikoyatlar bilan davlat tilida va boshqa tillarda murojaat qilish huquqi
ta’minlanadi.

15-modda: O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslar, o‘z millatidan qat’i nazar, o‘z ismini, otasining
ismi va familiyasini milliy-tarixiy an’analarga muvofiq yozish huquqiga egadirlar.

16-modda: Televideniye va radio eshittirishlari davlat tilida, shuningdek, boshqa tillarda olib boriladi.

17-modda: Noshirlik faoliyati davlat tilida, ehtiyojlarni hisobga olgan holda esa, boshqa tillarda ham amalga
oshiriladi.

18-modda: Pochta-telegraf jo‘natmalari davlat tilida yoki fuqarolarning xohishiga ko‘ra boshqa tilda amalga
oshiriladi.

19-modda: Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlarining
matnlari davlat tilida bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan xalqaro tashkilotlar va muassasalar, qo‘shma korxonalarning,
shuningdek, milliy, madaniy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamg‘alari, ish qog‘ozlari matnlarining tarjimasi davlat tilida takrorlanadi.

20-modda: Lavhalar, e’lonlar, narxnomalar va boshqa ko‘rgazmali hamda og‘zaki axborot matnlari davlat
tilida rasmiylashtiriladi va e’lon qilinadi hamda boshqa tillarda tarjimasi berilishi mumkin.

21-modda: Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulot davlat tilidagi va boshqa tillardagi yorliqlar,

yo‘riqnomalar, etiketkalar bilan ta’minlanadi. 22-modda: Respublikaning ma’muriy-hududiy birliklari, maydonlari, ko‘chalar va geografik obyektlarning nomlari davlat tilida aks ettiriladi.

23-modda: O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasi matnlari, agar shartnomaning o‘zida boshqacha
qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat tilida va ahdlashuvchi tomonning (tomonlarning) tilida yoziladi.

24-modda: O‘zbekiston Respublikasida davlat tiliga yoki boshqa tillarga mensimay yoki xusumat bilan
qarash taqiqlanadi. Fuqarolarning o‘zaro muomala, tarbiya va ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqini amalga oshirishga to‘sqinlik qiluvchi shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALAR BILIMINI NAZORAT QILISH VA BAHOLASHNING REYTING TIZIMI TO‘G‘RISIDA
N I Z O M

(Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2009 yil 11 iyundagi 204-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 10 iyulda 1981-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan.

Topshiriqqa muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2010 yil 25 avgustdagi 333-son buyrug‘i bilan Nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 26 avgustda 1981-1-son bilan davlat ro‘yxatidan qayta o‘tkazilgan.)

Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 9-son, 225-modda) va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997 y., 11-12-son, 295-modda) qonunlariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 343-son “Oliy ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” qaroriga (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2001 y., 15-16-son, 104-modda) muvofiq oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimini tartibga soladi.

I. Umumiy qoidalar

1. Talabalar bilimini nazorat qilish va reyting tizimi orqali baholashdan maqsad ta’lim sifatini boshqarish orqali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish, talabalarning fanlarni o‘zlashtirishida bo‘shliqlar hosil bo‘lishini oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

2. Reyting tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) talabalarda Davlat ta’lim standartlariga muvofiq tegishli bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanganligi darajasini nazorat qilish va tahlil qilib borish;

b) talabalar bilimi, ko‘nikma va malakalarini baholashning asosiy tamoyillari: Davlat ta’lim standartlariga asoslanganlik, aniqlik, haqqoniylik, ishonchlilik va qulay shaklda baholashni ta’minlash;

v) fanlarning talabalar tomonidan tizimli tarzda va belgilangan muddatlarda o‘zlashtirilishini tashkil etish va tahlil qilish;

g) talabalarda mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, axborot resurslari manbalaridan samarali foydalanishni tashkil etish;

d) talabalar bilimini xolis va adolatli baholash hamda uning natijalarini vaqtida ma’lum qilish;

e) talabalarning fanlar bo‘yicha kompleks hamda uzluksiz tayyorgarligini ta’minlash;

j) o‘quv jarayonining tashkiliy ishlarini kompyuterlashtirishga sharoit yaratish.

3. Fanlar bo‘yicha talabalar bilimini semestrda baholab borish reyting nazorati jadvallari va baholash mezonlari asosida amalga oshiriladi.

II. Nazorat turlari va uni amalga oshirish tartibi

4. Nazorat turlari, uni o‘tkazish tartibi va mezonlari kafedra mudiri tavsiyasi bilan oliy ta’lim muassasasining (fakultet) o‘quv-uslubiy kengashida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi hamda har bir fanning ishchi o‘quv dasturida mashg‘ulot turlari bilan birgalikda ko‘rsatiladi.

5. Reyting nazorati jadvallari, nazorat turi, shakli, soni hamda har bir nazoratga ajratilgan maksimal ball, shuningdek joriy va oraliq nazoratlarning saralash ballari haqidagi ma’lumotlar fan bo‘yicha birinchi mashhulotda talabalarga e’lon qilinadi.

6. Talabalarning bilim saviyasi va o‘zlashtirish darajasining Davlat ta’lim standartlariga muvofiqligini ta’minlash uchun quyidagi nazorat turlarini o‘tkazish nazarda tutiladi:

joriy nazorat – talabaning fan mavzulari bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Joriy nazorat fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda, seminar, laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarida og‘zaki so‘rov, test o‘tkazish, suhbat, nazorat ishi, kollokvium, uy vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o‘tkazilishi mumkin;

oraliq nazorat – semestr davomida o‘quv dasturining tegishli (fanning bir necha mavzularini o‘z ichiga olgan) bo‘limi tugallangandan keyin talabaning bilim va amaliy ko‘nikma darajasini aniqlash va baholash usuli. Oraliq nazoratining soni (bir semestrda ikki martadan ko‘p o‘tkazilmasligi lozim) va shakli (yozma, og‘zaki, test va hokazo) o‘quv faniga ajratilgan umumiy soatlar hajmidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

yakuniy nazorat – semestr yakunida muayyan fan bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni talabalar tomonidan o‘zlashtirish darajasini baholash usuli. Yakuniy nazorat asosan tayanch tushuncha va iboralarga asoslangan “Yozma ish” (tibbiyot oliy ta’lim muassasalari uchun “Yozma ish” yoki OTKS (ob’ektiv tizimlashtirilgan klinik sinov)) shaklida o‘tkaziladi.

Ta’lim yo‘nalishi va mo‘taxassisliklari ayrim fanlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda fakultet Ilmiy kengashi qarori asosida ko‘pi bilan 40% fanlardan yakuniy nazoratlar boshqa shakllarda (og‘zaki, test va hokazo) o‘tkazilishi mumkin.

7. Oraliq nazoratni o‘tkazish jarayoni kafedra mudiri tomonidan tuzilgan komissiya ishtirokida davriy ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, oraliq nazorat natijalari bekor qilinadi hamda oraliq nazorat qayta o‘tkaziladi.

8. Oliy ta’lim muassasasi rahbarining buyrug‘i bilan ichki nazorat va monitoring bo‘limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o‘tkazish jarayoni davriy ravishda o‘rganib boriladi va uni o‘tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi hamda yakuniy nazorat qayta o‘tkaziladi.

9. O‘quv yili tugaganidan keyin reyting nazorati natijalariga ko‘ra talabalarni keyingi kursga o‘tkazish to‘g‘risida belgilangan tartibda qaror qabul qilinadi.

III. Baholash tartibi va mezonlari

10. Talabalarning bilim saviyasi, ko‘nikma va malakalarini nazorat qilishning reyting tizimi asosida talabaning har bir fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi ballar orqali ifodalanadi.

11. har bir fan bo‘yicha talabaning semestr davomidagi o‘zlashtirish ko‘rsatkichi 100 ballik tizimda bo‘tun sonlar bilan baholanadi.

Ushbu 100 ball nazorat turlari bo‘yicha quyidagicha taqsimlanadi:

yakuniy nazoratga – 30 ball;

joriy va oraliq nazoratlarga – 70 ball (fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda 70 ball kafedra tomonidan joriy va oraliq nazoratlarga taqsimlanadi).

12. Talabaning reyting daftarchasiga alohida qayd qilinadigan kurs ishi (loyihasi, hisob-grafik ishlari), malakaviy amaliyot, fan (fanlararo) bo‘yicha yakuniy davlat attestatsiyasi, bitiruv malakaviy ishi va magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlari, magistrlik dissertatsiyasi bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi – 100 ballik tizimda baholanadi.

13. Talabaning fan bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichini nazorat qilishda quyidagi namunaviy mezonlar (keyingi o‘rinlarda namunaviy mezonlar deb yuritiladi) tavsiya etiladi:

a) 86-100 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

xulosa va qaror qabul qilish;

ijodiy fikrlay olish;

mustaqil mushohada yurita olish;

olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish;

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo‘lish.

b) 71-85 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mustaqil mushohada yurita olish;

olgan bilimlarini amalda qo‘llay olish;

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo‘lish.

v) 55-70 ball uchun talabaning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

mohiyatini tushunish;

bilish, aytib berish;

tasavvurga ega bo‘lish.

g) quyidagi hollarda talabaning bilim darajasi 0-54 ball bilan baholanishi mumkin:

aniq tasavvurga ega bo‘lmaslik;

bilmaslik.

14. Namunaviy mezonlar asosida muayyan fandan joriy va oraliq nazoratlar bo‘yicha aniq mezonlar ishlab chiqilib, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi va talabalarga e’lon qilinadi.

15. Namunaviy mezonlarga muvofiq mo‘taxassislik fanlar bo‘yicha tayanch oliy ta’lim muassasalari tomonidan yakuniy nazorat uchun baholash mezonlari ishlab chiqilib, oliy ta’lim muassasasi Ilmiy-uslubiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi va turdosh oliy ta’lim muassasalariga etkaziladi.

16. Talabalarning o‘quv fani bo‘yicha mustaqil ishi joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar jarayonida tegishli topshiriqlarni bajarishi va unga ajratilgan ballardan kelib chiqqan holda baholanadi.

17. Talabaning fan bo‘yicha bir semestrdagi reytingi quyidagicha aniqlanadi: bu erda:

V– semestrda fanga ajratilgan umumiy o‘quv yuklamasi (soatlarda);

_ –fan bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi (ballarda).

18. Fan bo‘yicha joriy va oraliq nazoratlarga ajratilgan umumiy balning 55 foizi saralash ball hisoblanib, ushbu foizdan kam ball to‘plagan talabalar yakuniy nazoratga kiritilmaydi.

Joriy va oraliq nazorat turlari bo‘yicha 55 va undan yuqori balni to‘plagan talaba fanni o‘zlashtirgan deb hisoblanadi va ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kirmasligiga yo‘l qo‘yiladi.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida fan bo‘yicha joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarning har biriga ajratilgan balning 55 foizi saralash ball etib belgilanadi va bunda joriy va oraliq nazoratlarning har biriga ajratilgan ballning 55 va undan yuqori foizidagi balni to‘plagan talabalar ushbu fan bo‘yicha yakuniy nazoratga kiritiladi.

19. Talabaning semestr davomida fan bo‘yicha to‘plagan umumiy bali har bir nazorat turidan belgilangan qoidalarga muvofiq to‘plagan ballari yig‘indisiga teng.

IV. Nazorat turlarini o‘tkazish muddati

20. Oraliq va yakuniy nazorat turlari kalendar tematik rejaga muvofiq dekanat tomonidan tuzilgan reyting nazorat jadvallari asosida o‘tkaziladi. Yakuniy nazorat semestrning oxirgi 2 haftasi mobaynida o‘tkaziladi.

21. Talaba fan bo‘yicha kurs loyihasi (ishi)ni ushbu fan bo‘yicha to‘plagan ballari umumlashtirilishiga qadar topshirishi shart.

22. Joriy va oraliq nazoratlarda saralash ballidan kam ball to‘plagan va uzrli sabablarga ko‘ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so‘nggi joriy va oraliq nazoratlar uchun yakuniy nazoratgacha bo‘lgan muddat beriladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy, oraliq va yakuniy nazoratlarni topshira olmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o‘qishni boshlaganidan so‘ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

23. Talabaning semestrda joriy va oraliq nazorat turlari bo‘yicha to‘plangan ballari ushbu nazorat turlari umumiy balining 55 foizidan kam bo‘lsa yoki semestr yakunida joriy, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha to‘plangan ballari yig‘indisi 55 baldan kam bo‘lsa, u akademik qarzdor hisoblanadi.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida semestr yakunida fan bo‘yicha joriy, oraliq yoki yakuniy nazorat turlarini har biri bo‘yicha saralash balidan kam ball to‘plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o‘zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida fanni o‘zlashtira olmagan talaba, fakultet dekani tavsiyasiga ko‘ra belgilangan tartibda rektorning buyrug‘i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

24. Talaba nazorat natijalaridan norozi bo‘lsa, fan bo‘yicha nazorat turi natijalari e’lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko‘ra rektor buyrug‘i bilan 3 (uch) a’zodan kam bo‘lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarning arizalarini ko‘rib chiqib, shu kunning o‘zida xulosasini bildiradi.

25. Baholashning o‘rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o‘tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o‘quv bo‘limi hamda ichki nazorat va monitoring bo‘limi tomonidan nazorat qilinadi.

V. Reyting natijalarini qayd qilish va tahlil etish tartibi

26. Talabaning fan bo‘yicha nazorat turlarida to‘plagan ballari semestr yakunida reyting qaydnomasiga butun sonlar bilan qayd qilinadi. Reyting daftarchasining “O‘quv

rejasida ajratilgan soat” ustuniga semestr uchun fanga ajratilgan umumiy o‘quv yuklama soatlari, “Fandan olingan baho” ustuniga esa 100 ballik tizimdagi o‘zlashtirishi qo‘yiladi.

Talabaning saralash balidan past bo‘lgan o‘zlashtirishi reyting daftarchasiga qayd etilmaydi.

27. har bir fan bo‘yicha o‘tkaziladigan nazorat turlarining natijalari guruh jurnali hamda qaydnomada qayd etiladi va shu kunning o‘zida (nazorat turi yozma ish shaklida o‘tkazilgan bo‘lsa, 2 (ikki) kun muddat ichida) talabalar e’tiboriga etkaziladi.

28. Yakuniy nazorat natijalariga ko‘ra fan o‘qituvchisi talabalarning fan bo‘yicha reytingini aniqlaydi hamda reyting daftarcha va qaydnomaning tegishli qismini to‘ldiradi.

29. Talabaning reytingi uning bilimi, ko‘nikmasi va malakalari darajasini belgilaydi. Talabaning semestr (kurs) bo‘yicha umumiy reytingi barcha fanlardan to‘plangan reyting ballari yihindisi orqali aniqlanadi.

30. Talabalar umumiy reytingi har bir semestr va o‘quv yili yakunlangandan so‘ng e’lon qilinadi.

31. Diplom ilovasi yoki akademik ma’lumotnomani dekanat tomonidan rasmiylashtirishda fan bir necha semestr davom etgan bo‘lsa, reytinglar yig‘indisi olinadi.

Talabaga imtiyozli diplom belgilashda uning har bir semestr yakunidagi fanlar bo‘yicha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi hisobga olinadi.

32. Talabalarning nazorat turlari bo‘yicha erishgan natijalari kafedralar, dekanatlar va o‘quv-metodik bo‘linmalarida kompyuter xotirasiga kiritilib, muntazam ravishda tahlil qilib boriladi.

33. Joriy, oraliq va yakuniy nazorat natijalari kafedra yig‘ilishlari, fakultet va oliy ta’lim muassasasi Ilmiy kengashlarida muntazam ravishda muhokama etib boriladi va tegishli qarorlar qabul qilinadi.

VI. Yakuniy qoidalar

34. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi test baholari va reyting ballarining xolisligini tekshirishni tashkil etadi va nazorat qiladi.

35. Ushbu Nizomda belgilangan masalalar bo‘yicha kelib chiqqan nizolar qonun hujjatlari asosida hal qilinadi.

36. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi, Xalq ta’limi vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi, Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O‘zbekiston Badiiy akademiyasi, Tashqi ishlar vazirligi, O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi, “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi, Davlat soliq qo‘mitasi va Navoiy kon-metallurgiya kombinati bilan kelishilgan.

O‘ZBRESEKISTON RESPUBLIKASI O‘RTA MAXSUS

TA’LIM VAZIRLIGI

BUYRUQ

Toshkent shahri

22 март 2011 й. № 118

O‘quv jarayoniga innovatsion ta’lim
texnologiyalarini joriy etilishi bo‘yicha
oliy ta’lim muassasalari prorektorlari

taqdimotini tashkil etish xaqida

"Oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayoni va o‘quv-uslubiy ishlarini modernizatsiyalash hamda innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish" loyihasi ijrosini hamda ushbu loyiha asosida har bir fanni o‘qitish texnologiyasi, unda qo‘llaniladigan interaktiv va pedagogik texnologiyalar majmuasini ishlab chiqish borasidagi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini o‘rganish va takomillashtirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Oliy ta’lim muassasalari o‘quv ishlari bo‘yicha prorektorlarining "Oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayoni va o‘quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish” loyihasi asosida yaratilgan o‘quv-uslubiy majmualariga bag‘ishlangan tasdimoti jadvali ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Taqdimotda oliy ta’lim muassasasida kadrlar tayyorlanadigan har bir ta’lim yo‘nalishidan 2-3 tadan fan (jami 10 ta umumkasbiy yo‘ki maxsus fan) bo‘yicha tayyorlangan o‘quv-uslubiy majmua namoyish etilishi belgilab qo‘yilsin.

2. Oliy ta’lim muassasalari rektorlariga:

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2010 yil 17 aprelda o‘tkazilgan hay’atini 3G‘1-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayoni va o‘quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash va innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish namunaviy rejasi"da belgilangan vazifalarni ijrosi bo‘yicha tahliliy ma’lumotnoma tayyorlash va taqdimot kuni vazirlikka topshirish;

taqdimotlarni o‘tkazish bilan bog‘liq shart-sharoitlar hamda zaruriy tarqatma materiallarni tayyorlash;

taqdimot qiladigan o‘quv ishlari prorektori bilan birgalikda tegishli kafedra mudirlari ishtirokini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

3. Oliy ta’lim muassasalari bosh boshqarmasi (I.Majidov)ga:

Oliy ta’lim muassasalarining o‘quv ishlari bo‘yicha prorektorlarining "Oliy ta’lim tizimida o‘quv jarayoni va o‘quv-uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish" loyihasi asosida yaratilgan o‘quv-uslubiy majmualariga bag‘ishlangan taqdimotini muvofiqlashtirib borish vazifasi topshirilsin.

4. Taqdimotda ishtirok etuvchilarning xizmat safari bilan bog‘liq xarajatlari asosiy ish joyidan qoplanishi belgilab qo‘yilsin.

5. Ushbu buyruq ijrosiy nazorati vazir o‘rinbosari M.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir: B.Xodiyev

MODEMOGRAMMA

87-01/1-166 15.10.2011й.

Oliy ta’lim muassasalari rektorlariga

Fanlar bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualarni tayyorlanish holati to‘g‘risida ma’lumotlarni taqdim etish xaqida

O‘zbekistan Respublikasi Prezidentining 2011 yil 20 maydagi “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustaxkamlash va yuqori malakali mu’taxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi №PQ-1533-sonli qarori 2-ilovasi 7-bandi ijrosini ta’minlash maksadida oliy ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilari tomonidan tayyorlanayotgan fanlar bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmualar haqidagi ilovada keltirilgan ma’lumotlarni joriy yilning 19 oktabrigacha bo‘lgan muddatda Oliy ta’lim muassasalari bosh boshqarmasiga qog‘oz va elektron variantda (daliyev @edu.uz elektron manzliga) taqdim etilishini ta’minlashlaringizni so‘raymiz.

Ilova 1 varaqda.

Oliy ta’lim muassasalari bosh
boshqarmasi boshlig‘i I . Majidov

MUNDARIJA

Titul 1

Qarorlar.....3

Ekspert xulosasi.....5

Namunaviy dastur……..….....7

Ishchi dastur.....31

Ma’ruzalar matni 56

Amaliy mashg’ulot..... 222

Mustaqil ishlarni tashkil etishning shakli va mazmuni……..…….....303

Oraliq va yakuniy nazorat savolnomasi.....304

Test topshiriqlari.....307

Joriy nazorat topshiriqlari..... 311

O‘quv uslubiy adabiyotlar va elektron ta’lim resurslari ro‘yxati.....318

Me’yoriy xujjatlar.....320

Dots.R.Mustafoqulov, o`qit.Sh.Choriyev
Ona tili va adabiyot

Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish yo‘nalishi 2-kurs talabalari uchun ona tili va adabiyot fanidan o‘quv-uslubiy majmua
Termiz davlat universiteti 2017.